O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INOVATSIYLAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

Z.D. NIYOZOV, O.Sh. MAQSUDOV

PUL VA BANKLAR

O‘QUV QO‘LLANMA

SAMARQAND -2024

UO‘K: 336.741(575.1)(075)
N 55
KBK: 65.9(5Уз)262я75

Z.D.Niyozov. O.Sh. Maqsudov
PUL VA BANKLAR [Matn]: **o‘quv qo‘llanma** / Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: “STEP-SEL” MCHJ nashriyoti, 2024 - 380 bet.

“Pul va banklar” fanidan tayyorlangan o‘quv qo‘llanma ma’ruza, amaliy mashg’ulotlarni olib borish va mustaqil tayyorgarlik ko‘rish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, bunda iqtisodiy kategoriya sifatida pul va banklarning mohiyati, funksiyalari, vazifalari, bozor iqtisodiyoti sharoitida ularning yangi mazmuni, pul-kredit, valyuta munosabatlarining va Respublika bank tizimining o‘ziga xos xususiyatlari, Xalqaro moliya institutlari va ularning turlari yoritilgan.

O‘quv qo‘llanmada pul, kredit, banklar va valyuta munosabatlari haqida aniq ma’lumotlar berilgan, chizmalar va jadvallar tarzida fikrlar oydinlashtirilgan, fanga talluqli hayotiy ma’lumotlardan misollar keltirilgan.

O‘quv qo‘llanmaning har bir bo‘limida tegishli test savollari tuzilgan.

Mavzular bo‘yicha asosiy tushunchalar berilib, mavzuni mustahkamlash uchun mustaqil fikrlashga doir savollar tayyorlangan, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, glasariy keltiritilgan, bu talabalarning mustaqil tayyorgarlik ko‘rishlari, o‘zlashtirish bilim darajalarini boyitish va aniqlashlariga imkoniyat beradi.

Taqrizchlar:

Mamatov B.S. - TDIU professori iqtisodiyot fanlari doktori.

Karimova A.M. - SamISI “Bank ishi” kafedrasi mudiri i.f.d.dotsent.

O‘quv qo‘llanma institut Kengashining 2024 - yil 30 - avgustdagi majlisda muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan. (1-sonli majlis bayoni).

ISBN: 978-9910-720-85-7

© Z.D.Niyozov, O.Sh. Maqsudov, 2024 y.
©“STEP-SEL” MChJ nashryoti, 2024 y.

MUNDARIJA

KIRISH 7
I BOB: “PUL VA BANKLAR” FANINING PREDMETI VA VAZIFALARI 11
1.1. “Pul va banklar” fanining predmetiga kirish 11
1.2. “Pul va banklar” fanining maqsadi, vazifasi va boshqa iqtisodiy fanlar bilan o‘zaro aloqadorligi 13
1.3. Fanni o‘rganishning asosiy talablari 15
II BOB: PULNING PAYDO BO‘LISHI, ZARURLIGI 17
2.1. Pulning iqtisodiy kategoriya sifatidagi mohiyati. Pulning kelib chiqishi 17
2.2.Pulning paydo bo‘lishi va uning qiymat shakllari rivojlanishi bilan bog’liqligi 19
III BOB: PUL TURLARI, ULARNING EVOLYUTSIYASI VA FUNKSIYALARI 24
3.1. Pulning rivojlanish bosqichlari 24
3.2. Pulning turlari 25
3.3. Pulning (funksiyalari) vazifalari 33
IV BOB. PULNING NAZARIYALARI 42
4.1. Pul nazariyasining evollyutiyasi 42
4.2. Pulning metallilik va nometallik nazariyasi 44
4.3. Zamonaviy pul nazariyasi 47
IV BOB. PUL AYLANMASI VA UNING TARKIBI 51
5.1. Tovar - pul munosabatlarining mohiyati 51
5.2.Pul aylanishi tushunchasi 52
5.3. To‘lovlar harakati va uning tarkibi 54
5.4. Naqd pul va naqd pulsiz pul harakatining tamoillari 56
VI BOB. PUL MASSASI VA PUL AGREGATLARI 59
6.1. Pul massasi, uning mohiyati va tarkibi 59
6.2. Pul multiplikatorlari 60
6.3. Pul agregatlari va ularning tarkibi 62
VII BOB. PUL TIZIMI: MAZMUNI, TURLARI VA ELEMENTLARI 68
7.1. Pul tizimi tushunchasi va uning turlari 68
7.2. Pul tizimining shakillari va tarkibiy monometalizim va bimetalizim 69
7.3. Ayrim xorijiy davlatlarning pul tizimi va o‘ziga xosligi 72

7.4. O‘zbekiston Respublikasi pul tizimining, uning rivojlanishi va o‘ziga xosligi.....72
VIII BOB. INFLYATSIYA VA UNGA QARSHI KURASHISH YO‘LLARI.....85
8.1.Inflyatsiyaning mohiyati va uning kelib chiqish sabablari 85
8.2. Inflyatsiyaning oqibatlari, uning aholi turmush darajasiga, iqtisodiyotga va bank tizimiga ta’siri 87
8.3. Inflyatsiyaga qarshi kurashish siyosati.....90
IX PUL ISLOHOTLARI, PUL ISLOHOTLARINI AMALGA OSHIRISH ZARURATI 95
9.1. Pul islohotlarini haqida tushuncha va uni amalga oshirishning zarurligi 95
9.2. Pul islohotlarini amalga oshirishning sabablari 99
9.3. O‘zbekistonda pul islohotlarini amalga oshirish tartibi 100
X BOB. KREDITNING ZARURLIGI, MOHIYATI VA FUNKSIYALARI.....103
10.1. Kreditning kelib chiqishi, uning mohiyati.....103
10.2. Kreditlashning roli va funkctiyalari.....104
10.3. Kredit shakllari va turlari.....107
XI BOB. KREDIT BO‘YICHA FOIZ STAVKALAR VA ULARGA TA’SIR QILUVCHI OMILLAR 125
11.1 Ssuda foizi tushunchasi va uning bozor iqtisodiyotini rivojlantirishdagi o‘rni 125
11.2. Ssuda foizining bahosi va uni aniqlash 126
11.3. Ssuda foizini aniqlash usullari.....127
XII BOB. BANKLARNING KELIB CHIQISHI VA BANK TIZIMI.....130
12.1. Banklarning paydo bo‘lishi 130
12.2. Bank tizimi tushunchasi, tashkil etish xususuyatlari.....135
XIII BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK TIZIMI VA UNING TARKIBI.....138
13.1. O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini rivojlanishi 138
13.2. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini huquqiy asoslari 140
13.3. Makroiqtisodiy rivojlanishda banklarning o‘rni 258
XIV BOB. MARKAZIY BANK VA UNING FUNKSIYALARI263
14.1. Markaziy banklarning vujudga kelishi va vazifalari 263
14.2. Markaziy banklarning rivojlanish bosqichlari.....265
14.3 O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining maqsadi va

funkstiyalari 265
14.4. Markaziy bankning mustaqilligi.....267
XV BOB. TIJORAT BANKLARNING TUZILISHI VA ULARNING FUNKSIYALARI 280
15.1 Bank faoliyatini tashkil qilishning iqtisodiy va huquqiy asoslari 280
15.2. Tijorat banklarining boshqaruv organlari va ularning strukturasi 284
15.3. Tijorat banklarining bosh ofislari, mintaqaviy filialari va bank xizmatlar markazlari 286
15.4. Tijorat banklarining funksiyalari.....288
XVI BOB. TIJORAT BANKLARNING OPERATSIYALARI .291
16.1. Tijorat bank xizmatlarining mohiyati.....291
16.2. Tijorat banklarning passiv operatsiyalari 293
16.3. Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari 297
16.4. Tijorat banklarining vositachilik xizmatlari.....301
XVII BOB. NOBANK MOLIYA - KREDIT MUASSASALAR 304
17.1. Nobank moliya-kredit muassasalarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi 304
17.2. O‘zbekistonda nobank moliya-kredit tashkilotlarning funkctiyalari va vazifalari.....305
17.3. Nobank moliya-kredit tashkilotlarining rivojlanish va asosiy yo‘nalishlari 307
XVIII BOB. BANK INQIROZLARINING MOHIYATI 314
18.1. Bank inqirozining mohiyati.....314
18.2. Bank inqirozini belgilovchi mezonlar 315
18.3. Yuz bergan bank inqirozlarining sabablari 317
XIX BOB. PULNING XALQARO MUNOSABATLARDAGI HARAKATI 322
19.1. Pulning xalqaro munosabatlardagi harakati 322
19.2. Valyta tizimi, mohiyati, elemyntlari, funkctiyalari va asosiy faoliyati 326
19.3. Valyuta operactiyalari va ularning valyta bozoridagi xususiyatlari 328
19.4. Valyuta kursi rejimlari.....331
XX BOB. XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI, ULARNING MAQSADI VA FUNKSIYALARI 335
20.1. Xalqaro moliya institutlar tashkil etish princtiplari, funkctiyalari

va faoliyatining maqsadi.....335
20.2. Xalqaro tiklanish va tarraqiyot banki: tashkil etilish moliya va rivojlanishi, tashkiliy tuzilishi va ishlash princtipi.....336
GLOSSARIY 342
FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI 376

O‘zbekiston Respublikasi o‘zining yagona moliya,
pul va bank tizimiga ega.
O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi XXVI bob. 147-modda.

K I R I S H

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2017 yil 20 aprelda imzolangan “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g’risida”gi qarorda “Har bir oliy ta’lim muassasasi jahonning yetakchi ilmiy-ta’lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o‘rnatish, o‘quv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan ilg’or pedagogik texnologiyalar, o‘quv dasturlari va o‘quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish, o‘quv-pedagogik faoliyatga, master-klasslar o‘tkazishga, malaka oshirish kurslariga xorijiy hamkor ta’lim muassasalaridan yuqori malakali o‘qituvchilar va olimlarni faol jalb qilish, ularning bazasida tizimli asosda respublikamiz oliy ta’lim muassasalari magistrant, yosh o‘qituvchi va ilmiy xodimlarining stajirovka o‘tashlarini, professor-o‘qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil qilish”[1] vazifalari alohida ta’kidlangan.

Mustaqillik arafasida bank tizimi oldida bir qator jiddiy muammolar turar edi. Xususan, bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun zarur texnologiyalar va hattoki oddiy kompyuter texnikasiga talabning yuqoriligi, bozor tamoyillariga asoslangan bank tizimi faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar va me’yoriy hujjatlarning mavjud emasligi, nodavlat kapital va resurs bazasining zaifligi, ayniqsa, yangi tartibda samarali faoliyat ko‘rsata oluvchi yuqori malakali bank sohasi rahbar va mutaxassislarning taqchilligi kabi o‘tkir masalalar mavjud ediki, ular faqat davlatimiz rahbarining e’tibori asosida muvaffaqiyatli hal etildi.

Bu sohani isloh qilish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar so‘nggi uch yilda banklar kapitali 1,8 baravarga, yillik kredit ajratish hajmi 2 baravarga ko‘paydi. 4 ta bank ilk bor “evrobond” chiqarib, xalqaro kapital bozorlaridan 1 milliard dollar resurs olib keldi. Ipoteka-bankka strategik xorijiy investor jalb qilindi. 13 ta yangi xususiy bank tashkil etildi, Vengriya, Qozog’iston va Gruziyaning nufuzli banklari yurtimizda faoliyat boshladi. Onlayn bank

[1] O`zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2017 yil 20 aprelda imzolangan “Oliy ta`lim tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to`g’risida”gi qarori. Toshkent 2017 yil 20 aprel

xizmatlari hajmi 2,7 barobarga oshdi.

So‘nggi yillarda iqtisodiyotimiz qariyb ikki barobar o‘sdi. 2023 yil yakuni bo‘yicha bu o‘sish 6 foizni tashkil qildi. Inflyasiya 9 foizgacha pasaydi. Savdo aylanmasi ko‘rsatkichlari muttasil oshmoqda. Valyuta bozori va oltin-valyuta zaxiralari barqarorligi saqlab qolinmoqda.

Oxirgi yillarda mamlakatimizda 60 milliard dollardan ziyod xorijiy investitsiyalar o‘zlashtirildi. Xalqaro moliya institutlarining 14 milliard dollardan ortiq mablag’lari ijtimoiy va infratuzilma sohalariga jalb qilindi.

Tizimli islohotlarni davom ettirish, kuchli va farovon davlat qurish maqsadida “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini qabul qildik. Bu muhim hujjatda barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish, ijtimoiy himoya, sog’liqni saqlash va ta’lim tizimlarini isloh qilish, qonun ustuvorligini ta’minlash bo‘yicha 100 ta aniq vazifa o‘z aksini topgan.

2030 yilga borib, aholi daromadlarini ikki barobar oshirish va ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoriga kirishni maqsad qilib qo‘yganmiz.

Iqtisodiyotda chuqur transformatsiya jarayonlarini, qulay investitsiya va biznes muhiti hamda sanoatda yuqori qo‘shilgan qiymatni yaratishni izchil davom ettiramiz.

Shu o‘rinda 2024 yil 4 may kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev uchinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumidagi nutqida manfaatli hamkorligimizni kengaytirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarga alohida to‘xtalib o‘tdi. Jumladan; ***Ikkinchi yo‘nalish: bank-moliya sohasda to‘xtalib. “*** So‘nggi yillarda mamlakatimizda ko‘plab xususiy banklar ochildi. Bozorimizga Evropaning etakchi banklari kirib keldi. Qator raqamli banklar o‘z faoliyatini amalga oshirmoqda.

Forum doirasida Evropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan O‘zbekistonning yirik banklaridan biri bo‘lgan “Asakabank”ni xususiylashtirish bo‘yicha bitim imzolandi. Shuningdek, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Osiyo taraqqiyot banki bilan boshqa yirik banklarimizning transformatsiyasi va xususiylashtirish jarayonlari faol olib borilmoqda.

Moliyaviy resurslarga talabni qondirish uchun kapital bozorini rivojlantirish bo‘yicha yondashuvlar qayta ko‘rib chiqilmoqda.

O‘zbekistonda xalqaro moliyalashtirish instrumentlarini rivojlantirish ustida ish olib borilmoqda. Xorijiy sarmoyalar oqimi bir necha barobar ortishi, korporativ boshqaruv sifati oshishi, yangi etakchi bank-moliya

institutlari kirib kelishini kutib qolamiz.”[2]deb etirof etib o‘tildi.

Ushbu o‘quv qo‘llanma Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Bank ishi” kafedrasi o‘qituvchilari yordamida tayyorlangan bo‘lib, oliy o‘quv yurtlari, texnikum va malaka oshirish kurslarining “Bank ishi”, “Buxgalteriya hisobi”, “Moliya”, “Iqtisodiyot” va boshqa mutaxassisliklarda o‘qitilayotgan «Bank ishi asoslari», «Bank ishiga kirish»,«Bank ishi” “Pul va banklar” va boshqa fanlarini o‘zlashtirishni o‘z oldiga maqsad qilib oladi.

O‘quv qo‘llanmada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi bir qator qarorlarida oliy ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi ustuvor vazifalarga mos holda, kadrlar tayyorlashning ma’no-mazmunini tubdan qayta ko‘rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratish maqsad qilib qo‘yilgan. Shu borada mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiyalash va yangilashni izchil davom ettirish borasida qo‘lga kiritilayotgan yutuqlar, ustuvor yo‘nalishlar, mavjud muammolar va ularni hal etish yo‘llari to‘g’risida “Pul,kredit va banklar” faniga daxldor masalalar atroflicha yoritilgan.

O‘quv qo‘llanmaning pulga daxldor mavzulari qismida pulning kelib chiqishi va mohiyati, uning bozor iqtisodiyotidagi o‘rni, pulning vazifalari, turlari va ularning rivojlanishi, pul aylanishi va uning asosiy shakllari, pul tizimi, O‘zbekiston Respublikasining pul tizimi va uning tarkibiy qismlari, inflyatsiyaning mohiyati, kelib chiqish sabablari, turlari va oqibatlari, unga qarshi kurash usullari yoritib berilgan.

O‘quv qo‘llanmaning kreditga daxldor mavzulari qismida kreditning kelib chiqishi, uning mohiyati va ijtimoiy ishlab chiqarish taraqqiyotidagi o‘rni, kreditning vazifalari, kreditlash tamoyillari. Kredit turlari va shakllari. Kredit xavf-xatari va uni boshqarish, foiz xavf-xatari. Ssuda foizi va uning iqtisodiy mohiyati. Kredit berish tartibi, rasmiylashtirish va qaytarish bosqichlari yoritib berilgan.

O‘quv qo‘llanmaning valyutaga daxldor mavzulari qismida xalqaro iqtisodiy aloqalar va ularning milliy iqtisodiyot taraqqiyotidagi o‘rni, asosiy shakllari, xalqaro valyuta munosabatlari va valyuta operatsiyalari,

[2] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Учинчи Тошкент халқаро инвестиция форумидаги нутқи. Тошкент 02.05.2024

shuningdek, xalqaro hisob-kitoblar va xalqaro kredit kabi mavzular yoritilgan.

O‘quv qo‘llanmaning banklarga daxldor mavzulari qismida banklarning paydo bo‘lishi, rivojlanishi va ularning asosiy vazifalari, kredit, bank tizimi va banklar uyushmasi faoliyati, markaziy bank va tijorat banklarining vazifalari, hamda operatsiyalari, xalqaro moliya-kredit tashkilotlari faoliyati to‘g’risida batafsil ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

Unda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi voqeligiga katta e’tibor berilgan. Markaziy bank normativ-me’yoriy hujjatlari hamda vaqtli matbuot materiallaridan keng foydalanilgan.

Muallif ushbu o‘quv qo‘llanmani tayyorlashda institut talabalarining yoshi, qiziqishlari va o‘zlashtira olish qobiliyatlarini e’tiborga olgan holda soda, hayotiy jarayonlarda sodir bo‘layotgan voqyalar asosida yoritishga intilgan. Unda bir qator mavzular rasmlar, chizmalar, jadval ma’lumotlari va diagrammalar hamda savol va topshiriqlarni bajarish qiziqarli bo‘lishligiga intilgan, o‘quvchining fikirlashiga davit etilgan.

Undan iqtisodiyot sohasi bilan endi tanishayotgan kishilar ham foydalanishlari mumkin. O‘quv qo‘llanma oddiy va ravon tilda, qisqa va tushunarlii tarzda yozilgan.Ushbu o‘quv qo‘llanma muallifining mazkur sohadagi o‘zgacha urinishlari bo‘lib, tabiiyki, ayrim xato-kamchiliklar va nuqsonlardan xoli bo‘lmasligi, shuningdek undagi ayrim fikrlar bahs – munozaraga sabab bo‘lishi tabiiy.

Muallifga bildiriladigan fikr-mulohazalarni mamnuniyat bilan qabul qiladilar va tashakkur izhor etadilar.

I BOB: “PUL VA BANKLAR” FANINING PREDMETI VA VAZIFALARI

1.1. “Pul va banklar” fanining predmetiga kirish.
1.2. “Pul va banklar” fanining maqsadi, vazifasi va boshqa iqtisodiy fanlar bilan o‘zaro aloqadorligi.
1.3. Fanni o‘rganishning asosiy talablari.

1.1. “Pul va banklar” fanining predmetiga kirish

O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g’risida”gi va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g’risida”gi Qonunlariga asosan, hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g’risida"gi[3], “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g’risidagi”[4] Prezident Qarori va “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va uning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g’risida”[5]gi qabul qilingan qarorlarida mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha ustuvor vazifalarga muvofiq kadrlar tayyorlashning mazmunini tubdan qayta ko‘rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlashga zarur shart-sharoitlar yaratish vazifalari belgilangan.

Mazkur hujjatlarga binoan oliy ta’lim darajasini sifat jihatidan oshirish va tubdan takomillashtirish, oliy ta’lim muassasalarining asosiy maqsadlaridan biridir.

Yaqin va uzoq istiqboldagi iqtisodiy rivojlanish nuqtayi nazaridan bizga qaysi soha uchun qanday mutaxassis kerak bo‘ladi? Shu masalani hozirdan chuqur o‘ylashimiz, zamon talabi, islohotlar shiddatiga mos kadrlarni tarbiyalashimiz kerak. Bu masala bizning kelajagimiz, bizning

[3] O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida"gi PQ-2909-son.
[4] O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to’g’risidagi” PQ - 3151 sonli
[5] O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5- iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va uning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi

ertangi kunimiz.[6] Deb etirof etganlar.

Shu jihatdan mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi uchun Pul va banklar tizimi samarali faoliyat koʻrsatishlari lozim. Chunki, ular davlat korxonalarini iqtisodiy va moliyaviy jihatdan qoʻllab-quvvatlaydi, yuridik va jismoniy shaxslarni kreditlaydi hamda davlatning pul-kredit siyosatini amalga oshishini taʼminlaydi.

“Pul va banklar**”** fani fundamental, nazariy fanlarning biri boʻlib, boshqa iqtisodiy va mutaxassislik fanlarni chuqur oʻrganishda asos boʻlib xizmat qiladi.

Pul, kredit, valyuta va banklar uzoq muddatli ijtimoiy rivojlanishning natijasi boʻlib, zamonaviy sivilizatsiyaning muhim ajralmas qismi hisoblanadi. Ularning amal qilishi ijtimoiy mahsulotni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va isteʼmol qilish jarayonlarining uzluksizligini taʼminlash imkonini beradi. Shu sababli, pul, kredit, valyuta va banklarni alohida fan sifatida **oʻrganish zarurati** yuzaga keldi.

Pul va banklar fanining maqsadi talabalarga pulning zarurligi, mohiyati, pul nazariyalari va pul aylanmasi, kredit va kredit munosabatlari, banklar va bank tizimi, valyutalarning xalqaro miqyosdagi harakatini tashkil qilish boʻyicha chuqur nazariy va amaliy bilimlar berishdan iborat.

Pul va banklar fanining vazifasi pulning kelib chiqishi va zarurligi, pulning mohiyati va pul muomalasi qonunlari, pul aylanmasi va pul tizimi, kreditning mohiyati va prinsiplari, kreditning shakllari va turlari, bank tizimining mohiyati, xalqaro valyuta munosabatlarini tashkil qilish va tartibga solish asoslari xususidagi nazariy va amaliy bilimlarni oʻrgatishdan iborat boʻlib “Moliya bozori”, “Bank faoliyati statistikasi va tahlili”, “Banklarda operatsion texnika va buxgalteriya hisobi”, “Bank menejmenti va marketingi” va boshqa bir qator asosiy va tanlov fanlar bilan bogʼliqlikda oʻrgatadi.

“Pul va banklar” fani pul, kredit, valyuta va bank tizimlarining jamiyatimiz rivojlanishidagi oʻrni va munosabatlarini samarali tizimini oʻrganish fanning **predmeti** boʻlib hisoblanadi.

“Pul, krpedit va banklar” oʻquv fanini oʻzlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talabalar qoʻyidagi bilimlarga ega

[6] Oʼzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O`zbekistonga jdal islohotlar sur`atiga mos ilg`or kadrlar kerak. 2018 yil. dekabr

boʻladilar:

-pulning kelib chiqishi va mohiyati, uning bozor iqtisodiyotidagi oʻrni, pulning vazifalari, turlari va ularning rivojlanishi, pul aylanishi va uning asosiy shakllari, pul tizimi, Oʻzbekiston Respublikasining pul tizimi va uning tarkibiy qismlari, inflyatsiyaning mohiyati, kelib chiqish sabablari, turlari va oqibatlari;

- kreditning kelib chiqishi, uning mohiyati va ijtimoiy ishlab chiqarish taraqqiyotidagi oʻrni, kreditning vazifalari, kreditlash tamoyillari. Kredit turlari va shakllari. Kredit xavf-xatari va uni boshqarish, foiz xavf-xatari. Ssuda foizi va uning iqtisodiy mohiyati. Kredit berish tartibi;

- xalqaro iqtisodiy aloqalar va ularning milliy iqtisodiyot taraqqiyotidagi oʻrni, asosiy shakllari, xalqaro valyuta munosabatlari va valyuta operatsiyalari, shuningdek, xalqaro hisob-kitoblar va Xalqaro kredit;

-banklarning paydo boʻlishi, rivojlanishi va ularning asosiy vazifalari, kredit, bank tizimi va banklar uyushmasi faoliyati, markaziy bank va tijorat banklarining vazifalari, hamda operatsiyalari, nobank kredit tashkilotlari, xalqaro moliya-kredit tashkilotlari faoliyati va h.k.

- topshiriqlarni bajarish, manbalarni qidirib topish, mustaqil fikrlash, jadvallar va chizmalarni toʻldirish, ilovalardagi maʼlumotlarga ega boʻlish orqali bilimlarini boyitib boradilar.

1.2. “Pul va banklar” fanining maqsadi, vazifasi va boshqa iqtisodiy fanlar bilan oʻzaro aloqadorligi

Bank bozor munosabatlarining boshqa subyektlaridan farqli oʻlaroq, pul bilan ishlovchi, vaqtincha boʻsh turgan pul mablagʼlarini oʻzida yigʼuvchi, uni pul zarur boʻlgan subyektlarga vaqtincha foydalanishga berib turuvchi va bu pul mablagʼlarini samarali ishlatish asosida oʻz faoliyatini olib boruvchi muassasa hisoblanadi. Bank ishini qonun va qoidalar asosida aniq va samarali olib borish nafaqat bank faoliyatini samarali qiladi, balki butun jamiyatning ravnaq topishiga, iqtisodiyotning rivojlanishiga va jamiyat aʼzolarining ham boyishiga, turmush farovonligining oshishiga olib keladi. Odatda, iqtisodiyotning holati banklar faoliyati bilan aniqlanadi. Banklar bozor munosabatlarining boshqa subyektlaridan farqli ravishda iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi muassasa hisoblanib, moddiy ishlab chiqarishni tashkil qilish va olib borishda vositachi sifatida, kapital aylanishining uzluksizligini

ta’minlash, bo‘sh pul mablag’larini yig’ish va ularni pul zarur bo‘lgan subyektlar o‘rtasida taqsimlash bo‘yicha faoliyat olib boradi.

“Pul va banklar” fanida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi bir qator qarorlarida oliy ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi ustuvor vazifalarga mos holda, kadrlar tayyorlashning ma’no-mazmunini tubdan qayta ko‘rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratish maqsad qilib qo‘yilgan. Shu borada mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiyalash va yangilashni izchil davom ettirish borasida qo‘lga kiritilayotgan yutuqlar, ustuvor yo‘nalishlar, mavjud muammolar va ularni hal etish yo‘llari to‘g’risida “Pul va banklar” faniga daxldor masalalar atroflicha yoritilgan.

“Pul va banklar” faning pulga daxldor mavzulari qismida pulning kelib chiqishi va mohiyati, uning bozor iqtisodiyotidagi o‘rni, pulning vazifalari, turlari va ularning rivojlanishi, pul aylanishi va uning asosiy shakllari, pul tizimi, O‘zbekiston Respublikasining pul tizimi va uning tarkibiy qismlari, inflyatsiyaning mohiyati, kelib chiqish sabablari, turlari va oqibatlari, unga qarshi kurash usullari yoritib berilgan.

“Pul va banklar” faniing kreditga daxldor mavzulari qismida kreditning kelib chiqishi, uning mohiyati va ijtimoiy ishlab chiqarish taraqqiyotidagi o‘rni, kreditning vazifalari, kreditlash tamoyillari. Kredit turlari va shakllari. Kredit xavf-xatari va uni boshqarish, foiz xavf-xatari. Ssuda foizi va uning iqtisodiy mohiyati. Kredit berish tartibi, rasmiylashtirish va qaytarish bosqichlari yoritib berilgan.

“Pul va banklar” faning valyutaga daxldor mavzulari qismida xalqaro iqtisodiy aloqalar va ularning milliy iqtisodiyot taraqqiyotidagi o‘rni, asosiy shakllari, xalqaro valyuta munosabatlari va valyuta operatsiyalari, shuningdek, xalqaro hisob-kitoblar va xalqaro kredit kabi mavzular yoritilgan.

O‘quv qo‘llanmaning banklarga daxldor mavzulari qismida banklarning paydo bo‘lishi, rivojlanishi va ularning asosiy vazifalari, kredit, bank tizimi va banklar uyushmasi faoliyati, markaziy bank va tijorat banklarining vazifalari, hamda operatsiyalari, xalqaro moliya-kredit tashkilotlari faoliyati to‘g’risida batafsil ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

1.3. Fanni o‘rganishning asosiy talablari

Talabalar tomonidan o‘quv materiallarini o‘zlashtirish, zarur ko‘nikma va bilimlarga ega bo‘lish talablari qo‘yilgan, jumladan:

Fanni o‘rganish natijasida talabalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- Pul va banklarning turlari va shakllari; zamonaviy pul nazariyalarining asosiy munozarali masalalari; naqd va naqd pulsiz pul aylanmasining mohiyati; pul agregatlari va uning tuzilishi;
- pul tizimining elementlari va uning rivojlanishi; inflyatsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy natijasi;
- kredit qonunlari va uning rivojlanish bosqichlari; kreditning funktsiyalari, shakllari va turlari;
- bank tizimining turlari va elementlari; Markaziy bankning tuzilishi va funktsiyalari;
- tijorat banklarining faol va passiv operatsiyalari tarkibi; bank bo‘lmagan kredit tashkilotlarining resurs bazalari va faol operatsiyalari;
- kredit tizimining elementlari va shakllari; milliy valyuta tizimi va uning elementlari;
- xalqaro moliya-kredit institutlarini rivojlantirishning ahamiyatli johatlari.

Fanni o‘rganish natijasida talabalar quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari kerak:

- pul-kredit sohasidagi jarayonlarni tizimlashtirish va baholash, shuningdek ularning o‘zaro bog’liqligini baholash; pulning zamonaviy nazariyasini talqin qilish; pul muomalasini tashkil etish; pulga talab va taklifni aniqlash va pul islohoti; pul muomalasini barqarorlashtirish; kredit shakllari va turlaridan foydalanish; kredit tizimining barqarorligini ta’minlash;
- O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini tashkil etish; faol operatsiyalar xavfini baholash va tijorat daromadliligi; valyuta munosabatlarini barqarorlashtirish; xalqaro moliya-kredit institutlari faoliyatini tashkil etishning iqtisodiy moxiyati.

Asosiy tushunchalar:

Pul, kredit, bank, xalqaro iqtisodiy aloqalar, kredit, buxgalteriya hisobi, bank ishi, moliya, fanning predmeti, fanining maqsadi, fanining vazifasi,

xususiylashtirish, jalb qilingan mablag’lar, o‘quv materiallar, xalqaro moliya-kredit.

Mavzuni mustahkamlovchi savollar:

1.Fanning maqsadi, vazifalari va predmeti.

2. Fanning boshqa iqtisodiy fanlar bilan o‘zaro aloqadorligi.

3. “Pul va banklar” o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida talabalar qanday bilimlarga ega bo‘ladilar?

4. Bank bozor munosabatlarining boshqa subyektlaridan nimalar bilan farqlanadi?

5. “Pul va banklar”ni alohida fan sifatida o‘rganish zarurati yuzaga keldi sababi nimada?

6. Fanni o‘rganishga qo‘yilgan asosiy talablar nimalardan iborat?

7. Fanni o‘rganish natijasida talabalar qanday ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar?

II BOB: PULNING PAYDO BO‘LISHI, ZARURLIGI

2.1. Pulning iqtisodiy kategoriya sifatidagi mohiyati. Pulning kelib chiqishi.

2.2. Pulning paydo bo‘lishi va uning qiymat shakllari rivojlanishi bilan bog’liqligi.

2.1. Pulning iqtisodiy kategoriya sifatidagi mohiyati. Pulning kelib chiqishi

Hozirda jamiyatni pulsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Pul ilmiy muloqotlarning predmeti, oddiy oilaning orzusi, biznesmenning bosh og’rig’i, mafiyaning yo‘lchi yulduzi. Pul jamiyatni kambag’al va boylarga ajratadi, baxt va kulfat olib keladi, amalga ko‘taradi va jahannamga yetaklaydi. Bernard Shou o‘z vaqtida “Kambag’allikning asosiy ildizi pulning kamchiligiga borib taqaladi” deb o‘tgan edi. Unda nima uchun davlatda “haddan ko‘p pul” bo‘lsa, barcha iqtisodchilar vahimaga va odamlar norozichilikka tushadilar?

Pul o‘zi nima? Uning jamiyatdagi o‘rni qanday? Pul yordamida davlatning iqtisodiy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatish mumkinmi? Shu va shu kabi savollar ilm dunyosida juda qizg’in muzokaralarga olib keladi. Bunday savollarga javob berish uchun pulning kelib chiqish tarixiga bir nazar solsak[7].

Siz hayotni pulsiz tasavvur eta olasizmi?

Bir ko‘z oldingizga keltirib ko‘ring-chi! Siz kitob sotib olmoqchisiz, do‘kondor esa sizdan pul o‘rniga bir bog’ o‘tin so‘raydi. Non olish uchun bug’doy, sut olish uchun xashak olib borish kerak. Agar avtobusga chiqsangiz yo‘l kira o‘rniga yoqilg’i, poyabzal do‘konida esa teri talab qilishsa! Kulgilimi? To‘g’risini aytganda, hatto tasavvur ham qila olmaysiz.

Insoniyatning eng buyuk kashfiyotlaridan biri bo‘lgan pul qachon, qayerda va qanday qilib paydo bo‘lgan?

Pul juda qadim zamonlarda paydo bo‘lgan va uning kelib chiqishiga quyidagilar sabab bo‘lgan:

1-sabab. Qadimgi qabilalarda vaqti-vaqti bilan o‘z ehtiyojlaridan ortiqcha mahsulotlar paydo bo‘lgan va ularni boshqa mahsulotlarga

[7] Елизаветин Г. “Пулнома”.“Ёш гвардия” нашриёти Тошкент -1979 й.210 бет

almashtirish imkoniyati tug’ilgan. Masalan, daryo bo‘yida yashovchi kishilarning ovi baroridan kelib, juda ko‘p baliq ovlangan. Ular ortiqcha baliqni qo‘shni jamoaga don, tuz yoki boshqa mahsulotlarga almashtirganlar.

Buyuk vatandoshimiz Abu Rayhon Beruniy o‘zining «Javohirlar» kitobida javohirlar bilan bog’liq bo‘lgan voqealarni ham keltirib o‘tadi. U natural almashuv to‘g’risida shunday bir voqeani hikoya qiladi: Kunlardan bir kun notanish orolga kelib qolgan sayyoh u yerlik odamning qo‘lida o‘zi uchun kerakli narsani ko‘rib, bir oltin dinor beradi. Mahalliy odam dinorni olib aylantirib ko‘radi, so‘ngra hidlaydi va ta’mini bilmoqchi bo‘ladi. Dinorda hech qanday foydali belgilarni va ta’mni sezmaydi, uni egasiga qaytarib beradi:

«Sen bergan narsaning men uchun hech qanday foydasi yo‘q ekan» - deydi.[8] Ana shu hikoya orqali Abu Rayhon Beruniy qadimiy davrlarda odamlar o‘z mahsulotlarini faqat o‘zi uchun zarur va ehtiyojli bo‘lgan buyumlar bilan ayirboshlaganini ko‘rsatadi.

Yoki boshqa bir misol, o‘rmonda yashovchi va ovchilik bilan shug’ullanuvchi jamoa o‘zidagi ortiqcha hayvonlarni yoki go‘shtni boshqa jamoalarga kiyim-kechak yoki baliqqa almashtirganlar.

Dastlabki davrlarda mahsulotlar bir - biriga bevosita almashtirilgan va tasodifiy hollarda ro‘y bergan. Shunday qilib, kishilarning o‘z ehtiyojlaridan ortiqcha mahsulotlarni o‘zaro ayirboshlashlari pulning vujudga kelishiga dastlabki turtki, ya’ni, sabab bo‘lgan.

2-sabab. Asta - sekinlik bilan jamiyatda kishilarning bir qismi chorvachilik, boshqalari esa dehqonchilik, so‘ngra hunarmandchilik bilan shug’ullana boshlaganlar. Masalan, kulol o‘z mahsulotlari – kosa, lagan, ko‘za, xum kabilarni bozorga olib borib, bug’doyga almashtirgan, kimga qanday idish kerak bo‘lsa (kosami, xummi) o‘shani bug’doyga to‘ldirib to‘kkan, don kulolniki, idish esa dehqonniki bo‘lgan. Yoki tarozining bir pallasiga guruch, ikkinchi pallasiga esa bug’doy solib almashtirgan. Ular endi faqat o‘z ehtiyojlarini qondirish uchungina emas, balki o‘z mahsulotlarini ayirboshlash, ya’ni, sotish uchun ham yetishtira boshlaganlar. Boshqacha qilib aytganda, ular **«natural xo‘jalik»** yuritishdan tovar ishlab

[8] Елизаветин Г. “Пулнома”.“Ёш гвардия” нашриёти Тошкент -1979 й.210 бет.

chiqarishga o‘ta boshlaganlar.

Inson, yolg’izlikda yashasa va ishlab yursa pulga ehtiyoj sezmaydi. Kimsasiz orolda cho‘kayotgan kemadan narsalarini va ayniqsa, pullarni qutqarib qolgan Robinzon Kruzo ko‘pam shodlanmagan edi. Va haqiqatan ham tovar ayirboshlanmasa pulga ehtiyoj sezilmaydi.

Doimiy ayirboshlash uchun uch xil sharoit bo‘lishi shart.

- *mehnat taqsimoti,*
- *xususiy mulk va taqqoslama baho,*
- *imkoniyat va o‘zaro o‘lchov birligi.*

Agar kishilar o‘z ehtiyojlari uchun zarur bo‘lgan barcha mahsulotlarni o‘zlari yetishtirsalar, ya’ni,, hech narsa sotib olmasalar va sotmasalar, bunday xo‘jalik yuritish natural xo‘jalik yuritish deyiladi. Va nihoyat, insonlar o‘zlarining mehnat mahsullarini tovarni tovarga o‘zaro ayirboshlaydilar, ya’ni,, barterni sodir etadilar.*

Barter - bu tovarlarni tovarlarga pul vositasisiz ayirboshlashni amalga oshirilishidir (T-T).

Biroq aholining o‘sib borishi, iqtisodning tobora chuqurlashishi, barter ayirboshlash makonining kengayishi juda ko‘p vaqt va mehnat xarajatini keltirib chiqaradi. Bunday sharoitda samarasiz bo‘lgan barter pulni paydo qiladi.

Sotish uchun ishlab chiqarilgan mahsulot - **tovar** deyiladi. Tovar kishilarning u yoki bu ehtiyojlarini qondiradi. Har qanday tovar mehnat sarfi natijasida yaratiladi. Tovarga sarflangan mehnat - **tovarning qiymati** deyiladi. Tovarni yaratishda qanchalik ko‘p mehnat sarflansa, uning qiymati shuncha yuqori va aksincha, tovarga qanchalik kam mehnat sarflansa, uning qiymati shuncha past bo‘ladi. Shunday qilib, pulning paydo bo‘lishiga asosiy sabab bo‘lib, **tovar ishlab chiqarish va ayirboshlash** hisoblanadi.

2.2.Pulning paydo bo‘lishi va uning qiymat shakllari rivojlanishi bilan bog’liqligi

Tovarlar qiymati ularni o‘zaro taqqoslash, o‘lchash va almashtirish imkoniyatini beradi.

Dastlab, har bir tovar boshqa bir tovarga bevosita almashtirilgan, masalan

1 qop tuz = 1 bosh quy

1 ta po‘stin = 1 ta arava

Keyinroq o‘zaro kelishilgan holda, bir tovar bir necha tovarlarga almashtiriladigan bo‘lgan, ya’ni,



2.1-chizma. Bir tovarning boshqa tovarlarga bo‘lgan tenglik

Asta - sekinlik bilan tovarlar orasidan barcha tovarlarga ayirboshlana oladigan va hamma tovarlar qiymatini o‘zida ifoda eta oladigan maxsus tovar ajralib chiqqan. Bu tovar har bir mamlakat yoki hududda iste’mol uchun eng zarur tovar bo‘lgan va barcha mahsulotlar uchun **umumiy ekvivalentga** aylangan, ya’ni,



2.2-chizma. Bir tovarning boshqa tovarlarga bo‘lgan tengligi.

Umumiy ekvivalent vazifasini turli mamlakatlarda turli tovarlar - qoramol, tuz, don, mo‘yna va boshqalar bajarganlar. Tovar ishlab chiqarish va ayirboshlash jarayonining tobora rivojlanib borishi hududlar hamda mamlakatlar o‘rtasida savdo-sotiq va tovar ayirboshlash zaruratini yuzaga keltirgan.

Turli mamlakatlarda turli tovarlar umumiy ekvivalent hisoblanganligi esa bu jarayonga to‘sqinlik qila boshlagan.

Natijada butun tovarlar dunyosidan shunday tovar ajralib chiqqanki, u barcha

hudud va mamlakatlarda umumiy ekvivalent sifatida qo‘llanila boshlagan. Bu vazifani qimmatbaho metallar, avval **mis** va **kumush**,

keyinchalik esa **oltin** bajaradigan bo‘lgan.



2.3-chizma. Bir tovarning boshqa tovarlarga bo‘lgan tengligi.

Oxir –oqibatda oddiy tovar ko‘rinishdagi umumiy ekvivalent o‘rniga pul shaklidagi ekvivalent maydonga keldi. Bunday oltin (dinor), kumush (dirham), mis (fulus) oddiy tovar emas, balki o‘ziga xos maxsus tovar bo‘lib, unda ayirboshlashning natura shakli bilan ekvivalent shakli birlashib ketgan.

Ana shunday qilib, **pul tovar ishlab chiqarish va ayirboshlashning uzoq vaqt rivojlanishi natijasida vujudga kelgan**.

Pul - bu shunday maxsus tovarki, u hamma boshqa tovarlar uchun umumiy ekvivalent vazifasini bajaradi va barcha tovarlarni sotib olish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Pul har qanday buyumga aylanish sehriga qodir.

Pul – bu ko‘plab badiiy asarlarning, xalq ijodiyotining mavzusidir. Arxeologiya, etnografiya, tarix, falsafa, sotsiologiya, huquqshunoslik va iqtisodiyot kabi bir qator fanlar pul bilan shug’ullanadi.

Asrimiz boshlarida hisoblab ko‘rishsa, pul haqida 6000 dan ziyod maxsus ilmiy kitoblar yozilgan ekan. Shundan buyon bu miqdor necha-necha marta oshgan va yana davom etmoqda.

Pul haqida har xil fikr yuritiladi. Sinfiy jamiyat mutafakkirlari pulni yovuz narsa, xalq boshiga falokat, odamlar orasiga nifoq soluvchi qabohat deb bilganlar.

«Oltin va saxovat, - degan edi grek faylasufi Platon, (eramizdan oldingi 428-348 yillarda) - tarozining ikki pallasiga o‘xshaydi, bulardan biri ko‘tarilmay turib ikkinchisi pastga tushmaydi». Insonda oltin qancha ko‘paysa, saxovat shuncha kamayadi.

Biroq, hatto sinflarga bo‘lingan jamiyatda ham pul faqat yovuzlik keltiribgina qolmaydi, u odamlarga bebaho xizmat qiladi.

Pulni iste’molga kiritilishi insoniyat taraqqiyoti uchun bug’ mashinasini, temir yo‘l yoki telefonni kashf etishdan kam ahamiyatga ega emas. Pul ko‘p mehnat va vaqtni tejaydi. Hech qanday mashina bunchalik ko‘p ishni bajara olmaydi va inson kuchini bunchalik tejay olmaydi.

Pul xalqlar o‘rtasida mehnatni taqsimlashga imkon berdi hamda iqtisodiyot va turli mamlakatlar o‘rtasidagi aloqani rivojlantirdi.

Pul odamlarni bir joyga mixlanib qolishdan ozod etdi, hayot uchun kerakli bo‘lgan narsalarni mehnat qilsa bo‘ladigan, ayirboshlash va savdo qilish mumkin bo‘lgan har qanday yerdan topish imkonini berdi.

“Pul o‘zidan ketgan janobdir,Biroq qobil xizmatkor juda”. B e k o v.

Kishilar har doim pul topishga harakat qiladilar, pul esa ular uchun xizmat qiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida pul-tovar munosabatlarining o‘rni va rivojlanishi.

Aytishadi-ku, bozorda gap emas, pul kerak deb...

Gerod (eramizdan III asr oldin)

Pul bozor iqtisodiyotining eng muhim omillaridan biri bo‘lib, iqtisodiyotning «qoni»dir. Iqtisodiyot pul bilan tirik. Pul bo‘lmagan joyda bozor iqtisodi bo‘lishi mumkin emas. Bozor iqtisodiyotida tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarishdan tortib, to iste’molchiga yetkazib berishgacha pul vositasida amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarish resurslari, ya’ni,, xom-ashyolar, jihozlar va mashinalar hamda ishchi kuchi bozorda pulga sotib olinadi. Ishlab chiqarish natijasida yaratilgan tovarlar yana pulga sotiladi. Pul ko‘rinishida olingan daromad taqsimlanadi va qayta taqsimlanadi.

Pul bozor iqtisodiyotining «tili»dir. Har bir iqtisodiy axborot, tovarlar va xizmatlar bahosi, to‘lovlar, daromad-u xarajatlar, moliyaviy talablar va majburiyatlar, iqtisodiy aloqalar faqat pulda ifodalanadi.

Har bir korxona, tashkilot, muassasa, tadbirkorlar, alohida - alohida fuqarolar faoliyati natijasi ham pul bilan hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida pul muomalasini tashkil etish, pul ayirboshlash, ularni saqlash, taqsimlash, bo‘sh pulni qarzga berish, pul vositasida moliyaviy hisob-kitoblarni amalga oshirish kabi iqtisodiy munosabatlar yanada kuchayib, murakkablashib boradi.

Asosiy tushunchalar:

Bevosita ayirboshlash, natural xo‘jalik yuritish, tovarning qiymati, maxsus tovar, umumiy ekvivalent, barter, pul, tovar, pul ayirboshlash, bozor iqtisodiyoti, korxona, tashkilot, muassasa, tadbirkorlar, iqtisodiy axborot, hisob-kitoblar.

Mavzuni mustahkamlovchi savollar:

1. Pulning mohiyati nimada?
2. Pulning kelib chiqish sabablari nimada?
3. Pulning zarurligini asoslang?
4. Tovar nima?
5. Bir tovarni boshqa tovarga bevosita almashtirish deganda nimani tushunasiz?
6. Bir tovarni bir necha tovarga almashtirish deganda nimani tushunasiz?
7. Barcha tovarlar uchun umumiy ekvivalent tovarlar deganda nimani tushunasiz?
8. Umumiy ekvivalent sifatida metallar pulning vazifasini qanday bajargan?
9. Pul tovar bo‘lishi mumkinmi?
10. Pul nima?
11. Barter nima?
12. Bozor iqtisodiyoti sharoitida pulning muhimligi nimada?
13. Pul ko‘rinishida olingan daromad qanday taqsimlanadi va qayta taqsimlanadi?
14. Qanday qilib iqtisodiy aloqalar faqat pulda ifodalanadi?
15. Pul bilan qanday fanlar shug’ullanadi?
16. Pul xalqlar o‘rtasida qanday qilib aloqani rivojlantiradi?

III BOB: PUL TURLARI, ULARNING EVOLYUTSIYASI VA FUNKSIYALARI

3.1. Pulning rivojlanish bosqichlari
3.2. Pulning turlari
3.3. Pulning (funksiyalari) vazifalari

3.1. Pulning rivojlanish bosqichlari

Kishilik jamiyati o‘z taraqqiyotining dastlabki davrlaridan boshlab, toki hozirgi kungacha mahsulotlar ayirboshlashda u yoki bu turdagi pullardan foydalanib kelgan. Asrlar davomida pul turlari rivojlanib borgan va bugungi ko‘rinishgacha etib kelgan. VIII-VII asrlarda muomalaga kiritilgan. Pul turlarini quyidagicha tasniflash mumkin: 3.1-rasm.



3.1-rasm. Pul turlarining tasnifi[9]

Pul turlarining tasnifiga binoan haqiqiy pullarga oltin, kumush, mis tangalar bo‘lib ularning nominali va qiymati, y’aniy og’irligi teng bo‘lgan. Haqiqiy pul o‘rinbosarlariga qog’oz va tanga pullar hamda kredit pullar bo‘lib ularga, banknotalar, cheklar, vetksellar, kredit kartalar hamda

[9] Mualliflar ishlanmasi

zayomlar kirgan.

O‘zbekiston qadimdan tovar-pul munosabatlari rivojlangan davlatlardan biri bo‘lganligi uchun bu hududda siyosiy, iqtisodiy mustaqillik ramzi bo‘lgan tanga pullar bundan taxminan 2500 yillar muqaddam zarb qilingan.

Tanga pullar eramizdan avvalgi VII asrdan to XIX asr o‘rtalarigacha tovar Dastlab kishilar pul o‘rnida turli buyum va narsalardan umumiy ekvivalent sifatida foydalanishgan. Bunday buyum va narsalar **«natural pullar»** deb yuritiladi. Masalan, qadimgi Yunoniston va Rimda, shuningdek, arab va hind qabilalarida pul vazifasini hayvon bajargan. Tinch Okeani va Afrika qit’asi xalqlarida qimmatli chig’anoqlar, Markaziy Afrikada fil suyagi, Qadimgi Misrda-bug’doy, Xitoyda-tuz, Mo‘g’ilistonda–toshchoy, Qadimgi SHumer davlatida-asal, Qadimgi shimol xalqlarida-mo‘yna va movutdan pul sifatida foydalanilgan. Qadimgi Sparta, Karfagen va Skandinaviya xalqlarida pul vazifasini hayvon terisi o‘tagan.

SHuningdek, pul o‘rnida ichimliklar, qullar, taqinchoqlar va ipakdan, hatto temir omoch va mixdan ham foydalanishgan. Karolina orollarida tegirmon toshidek tosh pullar ham bo‘lgan.

Asta - sekinlik bilan muomalaga natural pul sifatida temir, mis, bronza, kumush va oltin kabi metallar kirib kelgan. Bu metallardan avvaliga uy-ro‘zg’or buyumlari va qurollar - bolta, pichoq, juvoldo‘z, mix, kamon o‘qining uchi, nayza, idishlar yasaganlar. Ularga hamma tovarlarni almashtiraverganlar. Ammo, bora-bora ulardan ba’zilarigina alohida tovar, ya’ni pul bo‘lib qolgan. Nemislarda tova, SHarqda pichoq, Meksikada «T» harfi shaklidagi mis parchasi, Hindi-Xitoyda yo‘g’on mis chiviqlar, Shimoliy Amerikada qo‘rg’oshin soqqachalar, Afrikada taqaga o‘xshash temir parchasi, Kombodjada temir rombchalar pul xizmatini o‘tagan.

3.2. Pulning turlari

Tanga pullar-Dunyoda eng qadimiy birinchi tanga pullar Yunoniston, Midiya (Kichik Osiyo) va Xitoyda miloddan avvalgi ayirboshlashda muomalada bo‘lgan. Tangalar oltin, kumush va mis kabi metallardan turli shakllar va vaznlarda tayyorlangan.

Hozirgi o‘zbek tilidagi “tanga” so‘zi qadimgi turk tilidagi “tamg’a” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, qadimda har bir hukmron hokimlar turli metall, oltin, kumush, mislarga o‘z tamg’asini bosib muomalaga

chiqarganlar va bu pullar “tamg’a” pul deb yuritilgan, keyinroq borib bu “tanga” so‘ziga aylanib qolgan. Rus tilidagi “Dengi” so‘zi ham “tanga” so‘zidan olingan.

Ba’zi tadqiqotchilar rus tilidagi “kopeyka” (tiyin) so‘zi Markaziy Osiyoda hukmronlik qilgan CHig’atoy xonlaridan Kepakxon (1318-1326 y.) nomi bilan bog’liq deb tushuncha beradilar.

(Irpon To‘xliev) (13 b.)

Dastlab tangalar uchburchak, to‘rtburchak, romb, halqa va tuxum (oval) shaklida yasalgan. Tangalarni turli shakllarda yasash uzoq vaqt davom etgan va nihoyat muomala uchun eng qulay bo‘lgan, ya’ni gardish shaklida yasay boshlaganlar.

Tanga lotincha **moneta** bo‘lib, uning old tomoni - **avers**, orqasi-**Revers** va qirrasi-**gurt** deyiladi.



avers



Revers



gurt

Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra birinchi tangalar bundan 26 asr avval Lidiya va Xitoyda, VII asrlarda Markaziy Osiyo davlatlarida, IX-X asrlarda Kiev Rusida zarb qilina boshlagan.

Ma’lumki, har bir hukmdor taxtga o‘tirgach, o‘z nomidan tanga zarb qildirgan. Tanganing old tomonida hukmdorning rasmi yoki nomi, ayrim hollarda shiori, orqa tomonida esa tanganing qiymati tasvirlangan. Masalan, Amir Temur tomonidan zarb qilingan tangalarning old tomonida uning uch halqali belgisidan iborat tamg’asi bilan birga «Allohdan boshqa tangri yo‘q», «Muhammad Allohning Rasuli», to‘rt xalifa: Abu Bakr, Umar, Usmon, Ali nomlari bitilgan. Tangalarning orqa tomoniga esa «Amir Temur Ko‘rogon» degan so‘zlar, tanga zarb etilgan yil va shahar nomi bitilgan.

Tangalar asosan oltin va kumushdan zarb qilingan bo‘lib, qonunda belgilangan shakl va vaznga ega bo‘lgan. Tangalar muomalada uzoq vaqt pul vazifasini bajargan.

Tanga pullarning afzalliklari bilan birga bir qator **kamchiliklari** ham bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

- tangalar uzoq vaqt muomalada bo‘lishi, qo‘ldan - qo‘lga o‘tishi natijasida yemirilgan va vazni kamaya borgan;

- ayrim hukmdorlar tangalar vaznini sun’iy ravishda kamaytira boshlaganlar yoki uning tarkibini buzib, boshqa qotishmalarni ham qo‘shganlar;
- kapitalistik sanoatning rivojlanishi bilan tovar ishlab chiqarish shiddatli ravishda ko‘payib borgan. Ammo tovar ayirboshlash uchun etarli miqdorda tangalar zarb qilish uchun zarur bo‘lgan nodir metallarni qazib olish tovar ishlab chiqarishdan nisbatan orqada qolgan.

Ana shu sabablarga ko‘ra muomalaga tanga pullar o‘rniga qog’oz pullar kiritila boshlagan.

Qog’oz pullar - Tarixiy manbalarda qog’oz pullar dastlab Xitoyda XII asrda chiqarilgan deb ko‘rsatiladi. Lekin, tarixiy ma’lumotlarga asosan Buxoro davlatida 700 – yillarda muomalaga kumush tangalar chiqarilgunga qadar, qog’ozdan pul sifatida foydalanilgan ekan.

Qog’oz pullar Yevropa va Amerikada XVII-XVIII asrlarda chiqarilgan.

Qog’oz pullar deb, hukumat tomonidan byudjet taqchilligini qoplash uchun chiqarilgan, muayyan kursi belgilab qo‘yilgan pul belgilariga aytiladi. Dastlab qog’oz pullar ma’lum miqdordagi oltinni o‘zida ifodalagan, ya’ni **oltin bilan ta’minlangan**. Asta – sekinlik bilan qog’oz pullarni oltin bilan ta’minlash darajasi pasayib borgan va nihoyat bekor qilingan.

Qog’oz pullar mamlakat Moliya vazirligi yoki Markaziy banki tomonidan chiqariladi. Ular o‘z tabiatiga ko‘ra qadrsizlanishga, ya’ni **inflyatsiyaga** moyil bo‘ladi.

Pul muomalaga tovar aylanishi ehtiyojiga qarab chiqarilishi lozim. Amalda esa, qog’oz pullar bundan tashqari byudjet taqchilligi va davlatning boshqa xarajatlarini qoplash uchun ham chiqariladi. Natijada, muomalada tovarlar bilan ta’minlanmagan pul paydo bo‘ladi. Bu o‘z navbatida narx-navoning o‘sishiga, ya’ni pulning qadrsizlanishiga olib keladi.

Sobiq SSSR davrida muomalaga hukumat tomonidan chiqarilgan 1, 3, 5 rubllik **xazina biletlari** amalda bo‘lgan.



Hozirgi davrda xazina biletlari ko‘rinishidagi qog’oz pullar jahondagi 10 mamlakatda – AQSH, Hindiston, Indoneziya va boshqalarда saqlanib qolgan, xolos.

Muomalaga qog’oz pullarning chiqarilishi natijasida ularni **qalbakilashtirishdan himoyalash** muammosi paydo bo‘ladi. Hozirgi qog’oz pullar turli darajada himoyalangan. Ular maxsus oliy nav qog’ozdan qilinadi, qog’oz orasiga yorig’ga tutilganda ko‘rinadigan belgilar ishlanadi. Qog’oz pul betini qoplaydigan murakkab suratlar, yozuvlar, mayda to‘r bezaklar chiziladi. Pul tayyorlashda maxsus bo‘yoqlardan va kimyoviy elementlardan foydalaniladi.

Masalan, Angliyada pul tayyorlashda qog’ozga yupqa, egiluvchan metall ip yopishtirib, presslab yuboriladi, suv belgilari chiziladi. Yaponiya iyenalarini tayyorlashda esa, nusxa ko‘chirish apparatlarida chiqarib bo‘lmaydigan maxsus bo‘yoqlar ishlatiladi. Kanada pullaridagi bo‘yoqlar turli tomonlardan qaralganda, o‘z ranglarini o‘zgartirib turadi.

Quyida AQSH dollarini himoyalanishi choralarini ko‘rib chiqamiz:



Kredit pullar-Ishlab chiqarish va tovar ayirboshlashning rivojlanishi, metall pullarning etishmasligi kredit munosabatlarining rivojlanishiga olib keldi. Tovar va to‘lov aylanishi ehtiyojini qoplash maqsadida muomalaga oltin, kumush tangalar bilan bir qatorda kredit vositalari, chek, veksel va banknotlar chiqarilgan.

Kredit pullar deb, kredit munosabatlari asosida yuzaga keluvchi, to‘lov vositasini bajaruvchi qiymat belgilariga aytiladi. Kredit pullar qog’oz pullardan farq qilib, ular bir vaqtning o‘zida qiymatni ifodalaydi va kredit hujjati bo‘lib, qarz beruvchi va qarz oluvchi o‘rtasidagi iqtisodiy

munosabatlarni aks ettiradi.

Kredit pullari quyidagicha rivojlanish yo‘lini bosib o‘tgan: Veksel, banknot, CHek, Kredit kartochkalari, elektron pullar.

Veksel- nemischa **Vechsel** so‘zidan olingan bo‘lib, dastlab XII-XIII asrlarda Italiyada paydo bo‘lgan. **Veksel-**bu qarzdorning ko‘rsatilgan summani, kelishilgan muddatda, belgilangan joyda to‘lashi to‘g’risidagi yozma majburiyatidir. Veksel, sodda qilib aytganda, qarzdorlik to‘g’risidagi tilxatdir.


ПРОСТОЙ ВЕКСЕЛЬ

Серия 0000001 *

на сумму _____

Дата и место составления векселя _____

Предприятие (лицо) _____

обязуется безусловно уплатить по этому векселю денежную сумму в размере _____

непосредственно предприятию (лицу) _____

или по его приказу любому другому предприятию (лицу).

Этот вексель подлежит оплате в следующий срок: _____

Местом платежа является: _____

Руководитель предприятия векселедателя _____

М.П.

ДЛЯ АВАЛЯ *(вексельное поручительство)*

За кого выдан _____

Кем выдан _____

Дата _____ *Подпись авалиста*

М.П.

Vekselning quyidagi turlari mavjud: tijorat veksellari- oddiy va o‘tkazma veksellar, moliyaviy veksel, xazina vekseli, bank vekseli, muddatli veksel va boshqalar.

Banknot – kredit pullarining yetakchi turlaridan bo‘lib, Markaziy banklar tomonidan veksellarni hisobga olish yo‘li bilan chiqarilgan. Banknotlar dastlab, XVII asr oxirlarida chiqarilgan bo‘lib, u paytda banknotni xohlagan vaqtda bankiga topshirib, o‘rniga unda ko‘rsatilgan summaga muvofiq oltin yoki kumush olish mumkin bo‘lgan. XIX asrning

oxiri va XX asrning boshlarida Germaniya, Rossiya va AQSH da banknotlarni oltin bilan ta’minlanganligi 30-50%ni tashkil etgan. Bugunga kelib hech qaysi mamlakatda banknotlar oltin yoki kumush bilan ta’minlanmagan.

Hozirda mamlakatlarning Markaziy emissiya banklari qat’iy belgilangan nominalga ega bo‘lgan banknotlarni muomalaga chiqarmoqdalar. Bu banknotlar mamlakatda milliy pul birligi bo‘lib hisoblanadi. Xususan, O‘zbekiston Markaziy banki ham muomalaga turli nominalga ega bo‘lgan banknotlarni chiqargan, masalan:



Iqtisodiy adabiyotlarda **Cheklar**–dastlab 1683-yilda Angliyada qo‘llanila boshlagan, deb yozilgan. Holbuki, Ovropa siyosiy iqtisodchilaridan 4 asr muqaddam savdo-sotiq ishlarining davlat uchun juda katta daromad manbai ekanligini yaxshi bilgan Amir Temur davlat ichkarisida va tashqarisidagi savdo ishiga keng yo‘l ochib bergan va savdogarlarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlagan. Samarqand to‘qimachilik va boshqa hunarmandchilik turlari rivojlangan xalqaro savdo-sotiq markazi hisoblanar edi. Klavixoning yozishiga ko‘ra, hatto Iskandariya bozorlarida ham bu erdagi narsalarni topib bo‘lmasdi. Dashti Qipchoq va mo‘g’ul yurtlaridan teri, CHindan ipak, Xo‘tandan olmos, yoqut kabi qimmatli toshlar keltirilardi.

“Hozirda hammaning og’zida bo‘lgan CHek tizimi dastlab o‘sha uzoq zamonlardayoq joriy qilingan edi. CHek (chak) tushunchasi aslida yevropaliklarga biz orqali kirib borgan bo‘lib, savdogarlar yirik savdo tadbirlarini amalga oshirayotganlarida yonlarida katta mablag’ni olib yurmasdan, har bir shaharda mavjud ishonchli sarroflar (pul maydalab beruvchilar, almashtiruvchi)larga naqd pul topshirib, shu haqda hujjat, ya’ni chek olganlar. Mo‘ljaldagi shaharga borib xuddi shunday sarroflarga yoki yirik savdogarlarga chekni ko‘rsatib, o‘z rejalarini amalga oshirganlar.SHunisi diqqatni tortadiki, Mahmud Qoshg’ariy lug’atida chek aslida ip-gazlama turlaridan biridir, deb yozilgan. Mahmud Qoshg’ariy

keltirgan chek gazlama turi bilan savdo muomalasida ishlatilgan chek o‘rtasidagi bog’liqlikka shubha qilmasa ham bo‘ladi. Zero, bundan ming yil burun yozuv obyekti o‘rnida qog’oz bilan bir qatorda gazlama parchalaridan foydalanilgan” – deb yozadi Azamat Ziyo o‘zining “O‘zbek davlatchilik tarixi” asarida.

Demak, savdogar va tadbirkorlar bir shahardan ikkinchi shaharga og’irdan-og’ir tilla, kumush tanga pullarni ko‘tarib yurmay o‘zaro “Chek” bilan hisob-kitob qilishgan bo‘lib, bu ham ularning ishini yengillatish uchun qilingan qulay chora-tadbirlardan biri edi. (I.T.) (37-38 b.)

Chek - mijozning o‘z bankiga unda ko‘rsatilgan mablag’ni naqd pulda berilishi yoki boshqa hisob raqamiga (schyotiga) o‘tkazilishi to‘g’risidagi buyrug’idir.

Chekning quyidagi turlari mavjud:

- muayyan bir shaxs nomiga yozilgan chek;
- orderli chek;
- ko‘rsatuvchiga beriladigan chek;
- hisob-kitob cheki;
- akseptlangan Chek va boshqalar.



Kredit kartochkasi – bu bank yoki maxsus kredit (savdo) muassasa tomonidan bir kishi nomiga berilgan pul hujjati bo‘lib, unda pul egasi hisobidagi summa ko‘rsatiladi. Bu kredit kartochkasi o‘z egasiga chakana savdo tarmoqlarida naqd pulsiz tovarlar va xizmatlar xarid qilish huquqini beradi. Kredit kartochkasiga binoan xaridor hisobidagi pul summasi uning ixtiyoridan olinib, tovar sotgan korxona hisobiga o‘tkaziladi.

Dastlabki kredit kartochkalari XX asr boshlarida AQSH da qo‘llanila boshlangan. Hozirda jahondagi aksariyat mamlakatlarda, shu jumladan, O‘zbekistonda ham joriy etilmoqda.

Banklar faoliyatida elektron hisoblash mashinalarining qo‘llanilishi

elektron pullardan foydalanish imkoniyatini berdi.

Elektron pul - elektron kartochka bo‘lib, uning xotirasiga egasining hisobidagi pul summasi yozilgan bo‘ladi. Pul to‘lash uchun elektron kartochka EHM ga kiritiladi, kartochkadan avtomatik ravishda to‘lanishi zarur bo‘lgan pul summasi o‘chiriladi va bu summa pul oluvchi elektron hisobiga yozib qo‘yiladi.

Hozir O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatayotgan qator tijorat banklari o‘z amaliyotlarida elektron kartochkalardan foydalanishmoqda: SHuningdek, aholiga to‘lovlarni amalga oshirishda qulayliklar yaratish va pul muomalasi barqarorligini yanada mustahkamlash maqsadida debet plastik kartochkalari muomalasi yo‘lga qo‘yildi. Ushbu jarayon 2002-yil avgustidan boshlangan edi.

Plastik kartochkalardan foydalanishni rivojlantirish orqali bank tizimida aholiga ko‘rsatilayotgan zamonaviy bank xizmatlari turlarini kengaytirish, naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimini keng joriy etish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ko‘rib borilmoqda.

Amalga oshirilgan ishlar natijasida, bugungi kunga kelib, 2020-yil 1-iyul holatiga banklar tomonidan 7,8 mln.dan ziyod plastik kartochkalar muomalaga chiqarilib, savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlarida 89,9 mingta terminallar o‘rnatildi.







O‘z navbatida, plastik kartochkalar va terminallar yordamida amalga oshirilgan o‘tkazmalar hajmi yildan –yilga yuqori sur’atlarda oshib bormoqda. Misol uchun, 2020-yilda plastik kartochkalar orqali 5,7 trln. so‘mlik o‘tkazmalar amalga oshirilib, ushbu ko‘rsatkich avvalgi yilga nisbatan 2,5 barobardan ko‘proqni tashkil etadi. 21-asrda esa pul bilan bog’liq ikkita o‘ziga xos tendensiya ommalashdi: elektron to‘lovlar va kriptovaluta. Endilikda nomoddiy elektron pullar odamlarning og’irini yengil qilmoqda. Virtual puldan foydalanish qog’oz banknota ishlatishdan ko‘ra qulayroq, mablag’ni virtual shaklda saqlash xavfsizroq sanaladi.

Bitkoin - 2008 yilda ishlab chiqilgan bitkoin – eng mashhur kriptovaluta bo‘lib turibdi. Hozirga kelib, dunyodagi jami pullarning 0,4

foizi bitkoindan iborat. 1 bitkoin 9400 dollar yoki 96 mln so‘mga yaqin qiymatga ega.

3.3. Pulning (funksiyalari) vazifalari

Uzoq tarixiy davrlardan boshlab pul o‘zining boshlang’ich besh funksiyasining xususiyatlarini bajarib kelgan;

qiymat o‘lchovi,

muomala vositasi,

to‘lov vositasi,

jamg’arma to‘plash,

jahon puli.

Ular doimiy rivojlanishda bo‘lgan. Ularning mohiyatlari tarixiy davrlarda goh ko‘tarilib, gohida tushib turgan (ayrim hollarda to “0” darajagacha).

Pulning boshlang’ich vazifalaridan (funksiyalaridan) eng asosiylari qiymat o‘lchovi va muomala vositasi bo‘lgan.

Hozirgi iqtisodiy adabiyotlarda pulning vazifalari to‘g’risida turli qarashlar mavjud. Ayrim iqtisodchi olimlar pulning 5 ta vazifasini tan olsalar, ayrimlari 4 tasini, boshqalari esa faqat 3 tasini e’tirof etadilar. Biz esa pulning barcha vazifalari qiymat o‘lchovi, muomala vositasi, to‘lov vositasi, jamg’arma to‘plash va jahon puli to‘g’risida to‘xtalib o‘tamiz.

Pulning qiymatini bilmoqchimisan? qarz berib ko‘r.[10]

Avval ta’kidlaganimizdek, har qanday tovar mehnat mahsuli natijasida yaratiladi. Tovarga sarflangan mehnat miqdori uning qiymatini belgilaydi. Pul esa barcha tovarlarning qiymatini belgilash va ularning bahosini aniqlashda vositachi bo‘lib xizmat qiladi.

Tovar qiymatining pulda ifodalanishi **baho yoki narx** deyiladi. Ana shu sababli turmushda u yoki bu tovarning **qiymati** deyilmaydi, balki **bahosi** yoki **narxi** deb aytiladi. Tovar qiymati qancha yuqori bo‘lsa, uning bahosi shuncha qimmat va aksincha, qancha past bo‘lsa, bahosi shuncha arzon bo‘ladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar bahosi uning qiymati asosida shakllanadi, ya’ni, tovar bahosi uning qiymatiga teng bo‘lishi kerak. Ammo tovar bahosiga uning qiymatidan tashqari juda ko‘p omillar, shu jumladan,

[10]Benjamin Franklin o’gitlari (Abdulla A’zam Amerika millatining otasi. Tafakkur, 2000 y. 3-son.)

bozordagi talab va taklif, raqobat, tovarning foydaliligi kabilar ta’sir etadi, ya’ni,: 3.1-chizma



3.1-chizma. Tovarning qiymatiga ta’sir etuvchi omillar

Bu omillarning biri tovar bahosini ko‘tarsa, boshqasi pasaytiradi. Masalan, qiymatning pasayishi narxni arzonlashtiradi, talabning ortishi esa uni qimmatlashtiradi. Foydalilikning yuqori bo‘lishi baland narxni taqozo etsa, raqobat kurashi hamda taklifning ko‘payishi uni pasaytiradi.

Pul - muomala vositasi.

Naqd pulim bo‘lmasa, narsa sotib olmayman[11].

Iqtisodiyotda tovarlar harakati pul harakatini keltirib chiqaradi va aksincha, pul harakati tovarlar harakatini ta’minlaydi. Pul yordamida tovarlar oldi-sotdi qilinadi.

Pulning muomala vositasi ekanligi tovarlarni naqd pulga sotilishi jarayonida namoyon bo‘ladi. Bu vazifani banklar tomonidan muomalaga chiqariladigan banknotlar va tangalar bajaradi. Bunda tovar harakati pul harakatiga mos keladi, ya’ni,, bir vaqtning o‘zida pul to‘lanadi va tovar sotib olinadi.



3.2-chizma. Pul va tovarlarning harakati

[11] Муҳаммад пайғамбар алайҳис салом қиссаси. Ҳадислар. Тошкент: Камалак, 1991.

Masalan, talaba do‘konga kirib pul to‘lab kitob yoki daftar sotib oldi.

- Pul muomala vositasi sifatida quyidagi xususiyatlarga ega:
- bu vazifani faqat naqd pullar bajaradi;
- tovar va pul o‘zaro qarama-qarshi yo‘nalishda harakat qiladi;
- tovar va pul harakati bir vaqtda yuzaga keladi;
- tovar sotuvchi va sotib oluvchi o‘rtasidagi munosabat tugallanadi,
- tomonlar tovarga yoki pulga ega bo‘ladilar.

Pul ishtirokisiz tovarni tovarga almashtirish **barter** deyiladi. Barter ma’lum kelishilgan narxlarda amalga oshiriladi.



3.3-chizma. Tovar va tovarning harakati

Barter bozor iqtisodiyotiga to‘g’ri kelmaydi, shu sababli pul qadrsizlangan, tovar topish mushkul bo‘lgan sharoitda amalga oshiriladi.

Tarixga nazar: Mamlakatimiz tarixida pul muomalasi deyarli to‘xtab qolgan vaqtlar ham bo‘lgan. U paytlar harbiy kommunizm davrida Sovet mamlakatining barpo etilishining dastlabki yillarida qishloq xo‘jaligi vayron bo‘lgan, zavodlar va fabrikalar to‘xtab qolgan, aholiga sotish uchun tovarlar juda kam ishlab chiqilgan. Boylar va olibsotarlarda qog’oz pullar juda ko‘p to‘planib qolgan edi.

Ana shunday sharoitda arzon bahoda tovar chiqarilsa, ularni darhol sotib olishardi va bunday tovarlar ozchilikning qo‘liga o‘tib qolardi. Narxni oshirib sotish mumkin emas – mehnatkashlar sotib ololmaydi, yana o‘sha pulni ko‘plar sotib olishadi. Shu sababli Sovet hukumati 1920-yili mehnatkashlarga oziq – ovqat mahsulotlarini pulsiz berishga qaror qildi. Bundan tashqari, transport, pochta-telegraf aloqasi, kommunal xizmatdan bepul foydalanish haqida dekret chiqqan edi. Bozorda pul kasodga uchray boshladi. Uning qadri ketdi va aholi uni olmay qo‘ydi, oddiy ayirboshlashni afzal ko‘rdi. 1919- yilda 1 qadoq sovun - 2 qadoq sokka; 22 qadoq kerosinni -15 qadoq no‘xatga; 1 shinelni -10 qadoq yormaga; 3 qadoq tuzni - 30 qadoq suliga; 1 juft etikni - 30 qadoq qorabug’doy yormasiga almashishardi.

Ko‘p asr muqaddam bo‘lganidek, tovar-pullar paydo bo‘ldi.Ular har xil edilar. Ko‘pincha un va tuz shu vazifalarni o‘tar edi. 1 pud javdari unga:

30 qadoq kerosin;

10 qadoq sovun,

100 gaz chit berardi[12].

Pul-to‘lov vositasi. Pulning to‘lov vositasi ekanligi nasiyaga sotilgan tovarlar va ko‘rsatilgan xizmatlarga ularning haqi to‘langanda, kredit qarzga olingan mablag’lar qaytarilganda namoyon bo‘ladi.

Narsani qarzga berishlik, uni sadaqa qilishdan ham yaxshiroqdir.[13]

Tovarlar har doim ham naqd pulga sotilavermaydi. Tovar sotuvchi tovarni sotish uchun olib chiqqan vaqtda, iste’molchining shu tovarni sotib olish uchun yetarli miqdorda naqd puli bo‘lmasligi mumkin. Natijada tovarni nasiyaga sotishga zarurat tug’iladi, ya’ni,, tovarning pulini to‘lash muddati kechiktiriladi. Iste’molchi sotib olgan tovari uchun uning pulini to‘lov muddati kelgandan keyingina to‘laydi. Bu holda tovarlar harakati bilan pul harakati bir vaqtning o‘zida sodir bo‘lmaydi. Tovar harakati sodir bo‘lgandan so‘ng ma’lum muddat o‘tgach pul harakati amalga oshadi.

Masalan, 10-avgustda tovarlar yetkazib berildi, puli esa 20-avgustda to‘landi.



3.4-chizma. Pul va tovarlarning harakati

Aksariyat hollarda tovar uchun avvaldan avans (bo‘nak) to‘lanadi, so‘ng tovarlar yetkazib beriladi. Ma’lum muddat o‘tgach esa, oxirgi hisob - kitoblar amalga oshiriladi.

Masalan, 1-avgustda tovarlar uchun bo‘nak to‘landi, 10-avgustda tovarlar yetkazib berildi, 20-avgustda esa oxirgi hisob - kitoblar qilindi.



3.5-chizma. Pul va tovarlarning harakati

Pulning to‘lov vositasi ekanligi iqtisodiyotda naqd pulsiz hisob-kitoblarni keltirib chiqaradi. Pulning to‘lov vositasi ekanligi quyidagi hollarda ko‘rinadi:

---

[12] З.Г.Елизаветин “Пулнома ” . “ЁШ ГВАРДИЯ” нашриёти Тошкент -1979 й.

[13] Муҳаммад пайғамбар алайҳис салом қиссаси. Ҳадислар. Тошкент: Камалак, 1991.

- korxonalar va tashkilotlar o‘rtasida yetkazib berilgan tovarlar va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun haq to‘langanda;
- davlat byudjetiga soliqlar to‘langanda;
- banklardan olingan qarzlar qaytarilganda, foizlar to‘langanda;
- ish haqi, nafaqa, stipendiya va boshqalar to‘langanda;
- boshqa har xil qarzlar va majburiyatlar to‘langanda.

Pul to‘lov vositasi vazifasini bajarganda to‘lovlar naqd pul yoki naqd pulsiz amalga oshirilishi mumkin.

Pul - jamg’arma to‘plash vositasi. Kishilarning olgan daromadlari qilgan sarf-xarajatlaridan ko‘p bo‘lsa, daromadning qolgan qismini jamg’arib borishlariga imkoniyat tug’iladi. Ular o‘z jamg’armalari hisobidan turli moddiy boyliklar (kvartira, dala hovli, avtomashina yoki uy jihozlari) sotib olishlari, to‘y-ma’raka qilishlari, sayohatga borishlari, davolanishlari mumkin.

Inson o‘z aqlini o‘ndan birini pul topishga, qolgan o‘ndan to‘qqizini esa pulni sarflashga ishlatishi lozim[14].

Agar tovar ishlab chiqaruvchi tovarni sotgandan so‘ng, ma’lum muddat davomida boshqa tovar sotib olmasa, pul jamg’armaga aylanadi, ya’ni,, harakatdan ma’lum muddatga chetga chiqadi va bo‘sh turib qoladi.

Pulning jamg’arma va boylik to‘plash vositasi bo‘lishiga asosiy sabab, unga xohlagan vaqtda, juda tez fursatda xohlagan tovarni sotib olish, uni har qanday to‘lovni to‘lashga ishlatish mumkin. Pul boylik jamg’arishning eng qulay vositasi hisoblanadi, chunki u yuqori **likvidlik** darajasiga ega.

Kishilar o‘z boyliklarini pulda emas, balki boshqa shakllarda, masalan, oltin, qimmatbaho metallar va toshlar, san’at asarlari, noyob buyumlar, uy-joy, yer, mashina, asbob-uskuna, davlat yoki korxonalarning qimmatli qog’ozlari va boshqalarda mujassamlashtirishlari mumkin. Ammo ularni pulga aylantirmasdan turib, boshqa maqsadlarda sarflab bo‘lmaydi.

Kimdir o‘z pulini uyida, kimdir esa bankda saqlaydi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning banklardagi omonatlarni himoyalash kafolatlari to‘g’risida”gi Qonuni qabul qilinganligini alohida qayd etish zarur. Yaratilgan kafolatlar aholi va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning bank tizimiga bo‘lgan ishonchini yanada oshirmoqda va

[14] Муҳаммад пайғамбар алайҳис салом қиссаси. Ҳадислар. Тошкент: Камалак, 1991.

ularning banklardagi depozitlar hajmini yuqori sur'atlarda o'sishi kuzatilmoqda.

Xususan, faqat aholining omonatlari hajmi 2000-yilda 18,2 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2005-yilga nisbatan qariyb 25 barobar oshib, 449,5 mlrd. so'mni, 2010-yilda esa mazkur ko'rsatkich 2000-yilga nisbatan 244 barobarga oshib, 4 446,9 mlrd. so'mni tashkil etgani yuqorida qayd etilgan fikrlarni tasdiqlab turibdi. Pul mablag'larini banklarda **omonatlar** shaklida saqlashning qulayliklari quyidagilardan iborat:

- ishonchli va bexavotir saqlanadi;
- ishlab chiqarishga sarflash va iqtisodiyotni rivojlantirishga imkoniyat yaratiladi;
- foiz ko'rinishida daromad keltiradi, ya'ni,, o'z-o'zidan ko'payib boradi.

Pulning jahon pullari vazifasi. Agar tarixga nazar tashlasak, mamlakatlar o'rtasida savdo-sotiq, xalqaro iqtisodiy aloqalar va kredit munosabatlari asta-sekin rivojlanib borgan. Bu jarayon barcha mamlakatlar tomonidan tan olinadigan va qabul qilinadigan yagona jahon pulini keltirib chiqargan. Bu vazifani asrlar davomida oltin bajarib kelgan. Ya'ni,, mamlakatlar o'rtasidagi hisob-kitoblar, tovarlar va xizmatlar uchun to'lovlar bir mamlakatdan boshqa mamlakatga quyma shaklidagi sof oltin to'lash vositasida amalga oshirilgan.

1867-yildan boshlab oltin davlatlar o'rtasidagi yagona jahon puli sifatida rasman qabul qilingan.

Oltin standarti o'zining uch rivojlanish bosqichini boshidan kechirdi (uch shaklda ko'rindi): oltin tanga, oltin quyma, oltin deviz.

Birinchi bo'lib oltin tanga standartiga Angliyada (1774 y.) o'tilgan. keyinroq :

1871 y. – Germaniya;

1872-1876 yy. – Skandinaviya davlatlari;

1875 y. – Niderlandiya;

1878 y. – Fransiya;

1879 y. – Avstriya-Vengriya;

1897 y. – Yaponiya va Rossiya;

1900 y. – AQSh.

Oltin tanga standarti davrida oltin tangalar pul birligi bo'lib hisoblangan. Bundan tashqari, muomalada nominaliga qarab oltinga

almashtiriladigan qog’oz banknotalar, hamda mayda chaqalar bo‘lgan.

Oltin tanga standarti to birinchi jahon urushi davrigacha faoliyat yuritgan (1914-1918 yy.). Uning o‘rniga oltin quyma standarti kirib keldi, unda oltin faqat hisoblash vazifasini o‘tab keldi va muomala vazifasini o‘tamadi. Oltin kuyma shaklida Markaziy bankda saqlanib kelingan, muomalada esa kursga qarab almashtirib beriladigan banknotalar va tangalar ishlatilgan.

Oltin quyma standartiga:

- ❖ Filippinda 1903 y.;
- ❖ Hind Britaniyasida 1906 y.;
- ❖ Avstriyada 1922 y.;
- ❖ Germaniyada 1924 y.;
- ❖ Angliyada 1925-yilda kiritilgan.

1929-yildan boshlab esa bu tizimga 84 mustaqil davlatlardan 80 tasi qo‘shilgan.

Oltin quyma standartining ustunliklari shundan iborat bo‘lganki, oltin tangalar zarb qilinishi iqtisod qilinadi. Oltin tangalarning muomala jarayonidagi ishqalanishdan yemirilmaydi (mutaxassislarning hisoblariga ko‘ra oltin tanganing muomala jarayonidagi yo‘qotilishi yilda 1 tonna oltinga teng bo‘lgan, ya’ni, yemirilgan). Davlatlarning oltin zaxiralari bir joyda markazlashtirilgan, bu pul muomalasini mo‘tadillashtirgan.

1922-yildan e’tiboran AQSh dollari va Angliya funt sterlingi oltinning o‘rinbosari sifatida e’lon qilindi, hamda xalqaro to‘lovlarda qo‘llanila boshladi. 1944-yildan keyin jahon puli vazifasi oltinda qoldirilgan holda, xalqaro to‘lovlarda AQSh dollaridan ko‘proq foydalanishga imkoniyat yaratildi.

1970-yildan boshlab xalqaro to‘lovlarda Xalqaro Valyuta Fondi tomonidan kiritilgan maxsus hisob va to‘lov birligi **SDR «Maxsus qarz olish huquqi» (SDR)** qo‘llanila boshlandi.

1976-yilda Xalqaro Valyuta Fondiga a’zo mamlakatlar oltindan jahon puli sifatida foydalanishni bekor qildilar. Hozirda oltindan xalqaro zaxira sifatida foydalanilmoqda.

1979-yildan Yevropaning bir qator mamlakatlarida xalqaro hisob-kitoblarni olib borish uchun xalqaro hisob birligi **EKYu (YeKU)** qo‘llanila boshlandi.

1999 yildan e’tiboran Yevropa Ittifoqiga kiruvchi 12 mamlakatda,

yagona pul birligi sifatida **YeVRO (YeVRO)** naqd pulsiz hisob – kitoblarda, 2002-yil 1-yanvardan esa naqd pul sifatida ham qo‘llanila boshladi.

Xalqaro to‘lovlarda SDR va YeVRO bilan bir qatorda iqtisodiy qudratli va rivojlangan mamlakatlarning milliy pul birliklaridan ham foydalanilmoqda. Ular jumlasiga AQSh dollari, Kanada dollari, Angliya funt sterlingi, Yaponiya iyenasi, Rossiya rubli va boshqalar kiradi.

Asosiy tushunchalar:

Pul turlari, haqiqiy pullar, pul o‘rinbosarlari, tanga pullar, qog’oz pullar, kredit pullar, elyktron pullar, bitkoinlr, bevosita ayirboshlash, natural xo‘jalik yuritish, tovarning qiymati, maxsus tovar, umumiy ekvivalent, barter, pul, tovar, qiymat o‘lchovi, muomala vositasi, to‘lov vositasi, jamg’arma to‘plash, jahon puli, Yevro, SDR, inflyatsiya.

Mavzuni mustahkamlovchi savollar:

1. Pul turlari deganda nima tushuniladi?
2. Pulning kelib chiqish sabablari nimada?
3. Pulning zarurligini asoslang?
4. Haqiqiy pullar nima?
5. Bir tovarni boshqa tovarga bevosita almashtirish deganda nimani tushunasiz?
6. Bir tovarni bir necha tovarga almashtirish deganda nimani tushunasiz?
7. Barcha tovarlar uchun umumiy ekvivalent tovarlar deganda nimani tushunasiz?
8. Umumiy ekvivalent sifatida metallar pulning vazifasini qanday bajargan?
9. Pul tovar bo‘lishi mumkinmi?
10. Tanga pul nima?
11. Qog’oz pul nima?
12. Kredit pul nima?
13. Bozor iqtisodiyoti sharoitida pulning muhimligi nimada?
14. Pulning funksiyalarini sanang.
15. Pulning qiymat o‘lchovi vazifasi nimada?
16. Pulning muomala vositasi vazifasi nimada?
17. Pulning to‘lov vositasi vazifasi nimada?
18. Pulning jamg’arma to‘plash vazifasi nimada?

19. Jamg’arma to‘plash vazifalarini nimalarda amalga oshirish mumkin?
20. Pulning jahon puli vazifasi nimada?
21. Mintaqaviy pullar deganda qaysi pul belgilarini bilasiz?
22. SDR «Maxsus qarz olish huquqi» (SDR) qachon va qaysi fond tomonidan qo‘llanila boshlandi.
23. Yevro qaysi mamlakatlarda pul sifatida foydalanib kelinmoqda?
24. 1979-yildan Yevropaning bir qator mamlakatlarida xalqaro hisob-kitoblarni olib borish uchun qanday xalqaro hisob birligi qo‘llanila boshlandi.

IV BOB. PULNING NAZARIYALARI

4.1. Pul nazariyasining evollyctiyasi.
4.2. Pulning metallilik va nometallik nazariyasi.
4.3. Zamonaviy pul nazariyasi.

4.1. Pul nazariyasining evollyutiyasi

Pul nazariyasi keynschilik va monetarizm paydo bo‘lishidan ancha oldin vujudga kelgan bo‘lib, ko‘p asrlik tarixga ega. Pulning fundamental muammolari g’arb siyosiy iqtisodining mumtoz vakillari A. Smit, D. Rikardo asarlaridayoq yo‘lga qo‘yilgan. Keyinchalik ular XIX—XX asrlaming yirik nazariyotchi olimlari J. S. Mill, U, Jevons, L. Valras, A. Marshall va boshqalar tomonidan umumlashtirilgan va qayta ishlangan. So‘nggi yarim asr davomida pulni o‘rganish estafetasi g’arb iqtisodiy fanining J. Xiks, P. Samuelson, J. Tobin, F. Modilyani, D. Patinkin, M. Fridman kabi olimlari qo‘liga o‘tdi. Nobel mukofoti laureati bo‘lgan (Patinkindan tashqari) aynan shu olimlarning mehnatlarida «keynschilik—monetarizm» dixotomiyasi (ikkiga bo‘linish) eng to‘liq amalga oshirilgan.

Pulning metallilik nazariyasi bu turli davlatlarda turli tadqiqotchilar tomonidan aytilgan ilmiy qarashlarning jamlanmasi bo‘lib, ular pul sifatida faqat oltin va kumushni ko‘rdilar va jamiyat boyligining manbai deb hisobladilar.

Pulning metallilik nazariyasi XVI asrda fransuz olimi Nikolo Orezme tomonidan nazariya sifatida shakllantirildi. Keyinchalik angliyalik iqtisodchi olimlar U.Stefford, T.Men, P.Nors, Chayld, Fransiyada A.Monkreten, Germaniyada U.Yust, Italiyada G.Skaruffi, F.Galiyani tomonidan rivojlantirildi.

Pulning metallilik nazariyasi merkantilizm g’oyalariga asoslanadi.

Merkantilizm – dunyo tarixidagi birinchi iqtisodiy maktab hisoblanadi.

Merkantilistlar 2 yirik guruhga bo‘linadi:

1. Ilk merkantilistlar.
2. So‘nggi merkantilistlar.

Ilk merkantilistlar - aktiv pul balansi degan g’oyani ilgari suradilar. Ularning fikriga ko‘ra oltin va kumush o‘z tabiatiga ko‘ra pul hisoblanadi. Har bir jamiyatning boyligi uning oltin va kumush zaxiralari bilan

belgilanadi.

Aktiv pul balansi - deganda oltin va kumushning har doim mamlakatga kirib kelish miqdori ularning mamlakatdan chiqib ketish miqdoridan katta bo‘lishi tushuniladi.

Ilk merkantilistlar davlat proteksionizm siyosatini qo‘llash shart deb hisoblaydilar. Ular aytadiki, davlat mamlakatdan oltin va kumush pullarni chiqib ketishiga to‘sqinlik qilishi zarur.

So‘nggi merkantilistlar pulning asosiy funksiyasi bu jamg’arish funksiyasi deb hisoblaydilar. XVI asrning ikkinchi yarmidan XVII asr oxiriga qadar Yevropada so‘nggi merkantilistlarning qarashlari hukmron g’oyaga aylandi.

So‘nggi merkantilistlarning eng taniqli vakili Tomas Men hisoblanadi. T.Men ilk merkantilistlardan farqli ravishda pulning muhimligi jamiyat boyligining manbai ekanligida emas, balki mamlakat ichidagi tovarlar va pullarning harakati ta’siridadir, degan xulosaga keldi.

T.Men birinchi bo‘lib metallilik nazariyasiga yangilik kiritdi. Ushbu yangilik quyidagilardan iborat:

1. Mamlakat savdo balansi ijobiy saldoga ega bo‘lganda tovarlarni import qilish mumkin.
2. Agar mamlakat uchun foydali bo‘lsa, oltin va kumushni xalqaro savdoni rivojlantirish uchun ishlatish mumkin.

Tomas Men aytadiki, pul savdoni yaratadi, savdo esa pulni ko‘paytiradi.*[15] Tomas Men birinchi bo‘lib umumiy savdo balansi degan tushunchani kiritgan.

So‘nggi merkantilistlar umumiy savdo balansi g’oyasini ilgari surdilar. Bungacha xususiy savdo balanslari mavjud edi. Ular mamlakatning alohida olingan bitta mamlakat bilan savdo munosabatlarini aks ettirar edi.

Merkantilistlar oltin va kumush tangalarni yemirilib ketishini tan olmaganlar. Lekin amaliyot ko‘rsatadiki, oltin va kumush tangalar ishqalanish xususiyatiga ega. Ushbu tangalar vaqt o‘tishi bilan o‘z vaznining bir qismini yo‘qotadi, natijada ayirboshlash munosabatlarida notenglik holati yuzaga keladi. VIII asrga kelib metall tangalarning yemirilishi isbotlandi. Shuningdek, Birinchi jahon urushi ta’sirida Yevropada oltin standarti bekor bo‘ldi.

---

[15] Ym D. Опыты. M., 1896. C.37.

Dastlab merkantilistlar Adam Smit va Jorj Styuard tomonidan qattiq tanqidga uchradi. Ushbu olimlarning fikriga koʻra pul jamiyatning boyligi emas, balki shartli hisob birligidir. Pullar baho masshtabi sifatida ayirboshlash munosabatlarini ifoda etadi. Taniqli iqtisodchi olimlar P.Samuyelson, J.Key metall pullar muomalasini inkor etganlar.

4.2. Pulning metallilik va nometallik nazariyasi

Pulning nominallilik nazariyasining asoschilari boʻlib angliyalik ruhoniy va faylasuf J.Berkli va angliyalik iqtisodchi J.Styuard hisoblanadi. Ular bu nazariyaning yetakchisi. Bu nazariyani rivojlantirishga eng katta hissa qoʻshgan olim G.Knapp. 1905-yilda Knappning "Pulning davlat nazariyasi" nomli kitobi nashrdan chiqdi. Pulning nominallilik nazariyasi XVIII asrda paydo boʻlgan. Ushbu nazariya namoyandalari pulning tovar xususiyatini inkor etdilar. Ular aytadilarki, pul qiymat va iste'mol qiymatiga ega emas. Pulning qiymati unga qoʻyilgan nominali bilan belgilanadi. Ular metall pullar yemirilish xususiyatiga ega ekanligini ta'kidlashdi va qog'oz pullar toʻlov vositasi sifatida moslashuvchan va qulay, ayirboshlash vositasi ekanligini e'tirof etishdi.

Knapp pulning nominallilik nazariyasini rivojlantirar ekan, quyidagi xulosaga keldi.

- Pulni davlat yaratadi;
- Pulning asosiy funksiyasi bu toʻlov vositasi funksiyasidir;
- Davlat pulga xarid qobiliyatini beradi;
- Pulning xarid qobiliyati davlatning qonun hujjatlari bilan belgilanadi;

Keyns pulning nominallilik nazariyasi tarafdori boʻlgan. Keyns aytadiki, qog'oz pullarning oltin tangalarni muomaladan siqib chiqarishi Knappning buyuk g'alabasidir.

Pulning mohiyati 3 shaklda namoyon boʻladi:

Pul barcha tovarlar qiymatini oʻzida ifoda etuvchi umumiy ekvivalentdir.

Pul mustaqil almashinuv xususiyatiga ega. Pul tovarlarsiz ham erkin harakatlana oladi. Masalan:(talabalarga stipendiya, oylik maoshlar, soliqlar, bankdan kredit olish).

Pul buyumlashgan mehnatning tashqi oʻlchovi.

Buyumlashgan mehnatning ichki o‘lchovi mehnat asosida o‘lchanadi.

Nominalistlar baho masshtabi deganda, milliy pulning oltin asosiga aytiladi.

Nominalistlar oltinga almashmaydigan qog’oz pullar muomalasining afzal ekanligini e’tirof etadilar. Hozir dunyoda hech bir valyuta oltin asosiga ega emas. Hozirgi davrda muomalaga chiqarilayotgan naqd pullar Markaziy bankning aktivlari bilan ta’minlanadi.

Pulning miqdoriylik nazariyasining mohiyati shundaki, muomalada pul miqdorining oshishi tovarlar bahosining va pulning qiymatini o‘zgarishiga sabab bo‘luvchi asosiy omildir.

XVI asrda Yevropalik mustamlakachilar va birinchi navbatda ispanlar Amerikadagi ko‘plab oltin va kumush konlarini topdilar. Natijada Amerikadan Yevropaga juda katta miqdorda oltin va kumush oqib keldi. Bu esa G’arbiy Yevropada tovarlar bahosining keskin oshishiga sabab bo‘ldi. Shu bog’liqlikni birinchi bo‘lib fransuz faylasufi Jan Boden aniqladi.

J.Bodenga qadar tovar bahosining oshishi metall tangalarning yemirilishi bilan izohlanar edi. Pulning miqdoriylik nazariyasini XVII-XVIII asrlarda Angliyada J.Lokk va D.Yum, Fransiyada Monteske rivojlantirdi. Ular bu nazariyani qog’oz pullarga nisbatan qo‘llashning mumkinligini asoslab berishdi.

Klassik iqtisodchi D.Rekardo pulning miqdoriylik nazariyasini tarafdori. Rekardo qiymatning mehnat nazariyasini yaratgan. Ushbu nazariyaga ko‘ra metall pullarning qiymati ularni ishlab chiqarish uchun sarflangan mehnat xarajatlari bilan belgilangan. Ammo keyinchalik Rekardo o‘zining ushbu qoidasiga qarshi chiqdi. U yozadiki, ayrim davlatlarda pulning qiymati muomaladagi pul miqdoriga bog’liq ravishda o‘zgaradi.

Karl Marks pulning miqdoriylik nazariyasini ayovsiz tanqid qildi. Marksning fikriga ko‘ra miqdoriylik nazariyasining eng katta xatosi shundaki, ular pulning mohiyatini faqatgina pulning muomala vositasi bilan tushuntiradilar. Ular pulning qiymat o‘lchov funksiyasini tan olmaydilar. Karl Marksning fikricha, pulning miqdoriylik nazariyasining ikkinchi xatosi pullar va tovarlar muomala jarayoniga qadar bahoga va qiymatga ega bo‘lmaydilar, deganlaridadir.

Marksning fikriga ko‘ra, muomalaga kirishgunga qadar pullar qiymatga, tovarlar esa bahoga ega bo‘ladi. Pullar qiymati va tovarlarning bahosiga bog’liq ravishda tovarlarning bahosi shakllanadi.

Pulning miqdoriylik nazariyasi namoyandalari bilan K.Marks o‘rtasidagi munozara quyidagida namoyon bo‘ladi.

Marks aytadiki: tovarlar bahosining oshishi muomaladagi pul miqdorining ko‘payishiga olib keladi. Pulning miqdoriylik nazariyasining namoyandalari aytadiki: muomaladagi pul miqdorining ko‘pligi tovarlar bahosining oshishiga olib keladi. XX asrda pulning miqdoriylik nazariyasi hukmron nazariyaga aylandi. XX asrda miqdoriylik nazariyasining 2 xil ko‘rinishi paydo bo‘ldi.

1. Tranzaksion (I.Fisher yaratdi).
2. Kembridj.

1911-yilda Irving Fisherning mashhur “Pulning xarid kuchi” nomli asari nashrdan chiqdi. Ushbu asarda Fisherning almashuv tenglamasi o‘z ifodasini topdi.

MV=PQ

M-muomaladagi pul massasi,
V- pulning aylanish tezligi,
P –tovarlarning o‘rtacha bahosi,
Q –ishlab chiqarilgan tovarlar miqdori.

P=MV/Q

Fisherning xulosasiga ko‘ra, tovarning bahosi muomaladagi pul miqdoriga va pulning aylanish tezligiga to‘g’ri proporsional. Bunda Q va V o‘zgarmasdir. Bu ikkala komponent o‘zgarmas bo‘lganligi sababli shunday xulosa kelib chiqadi. Tovarlar bahosining o‘zgarishi muomaladagi pullarning o‘zgarishiga bog’liq.

Kembridj variantini Alfred Marshal yaratdi. Ushbu nazariyani Pigu rivojlantirdi. Fisherdan farqli o‘laroq Marshal va Pigu tahlilni mikroiqtisodiy darajada amalga oshirdi. Ular asosiy e’tiborini xo‘jalik subyektlarining kassa qoldiqlarini o‘zgarishiga qaratdilar.

M =KPY

K-pulning aylanish tezligi ammo bu tezlik xo‘jalik yurituvchi subyektlarning pul shaklidagi nominal daromadiga qarab o‘rganiladi. Fisherda pulning aylanishi tovarlar aylanishiga qarab belgilanadi. Kembridj

variantidan shunday xulosa chiqadi: muomaladagi pul miqdori pulning aylanish tezligiga teskari proporsional. Pulning aylanish tezligi real kassa qoldiqlarining miqdori va ularning hisobidan qilingan xarajatlar nisbatiga bog'liq bo'lganligi sababli muomaladagi pul miqdorining o'zgarishi pul shaklidagi nominal daromadning o'zgarishiga bog'liq.

Kembridj variantida kassa qoldiqlarini shakllantirishning ikki xil varianti keltiriladi:

-pulning qulay to'lov vositasi.

-ko'zda tutilmagan holatlar munosabati bilan nominal daromadning bir qismini pulda saqlash.

4.3. Zamonaviy pul nazariyasi

Monetarizm iqtisodiy talimotlar tarixida keng tarqalgan mashhur va nufuzli oqimdir. Bu oqimning atoqli namoyandasi Chikago universitetining professori, iqtisodiy sohasida Nobel mukofoti sohibi Milton Fridmen (1912-2006) hisoblanadi. Monetarizm (monetary – pul) bu iqtisodiyotdagi tebranma harakatda pul hal qiluvchi ahamiyatga ega, deb tasdiqlovchi iqtisodiy fandagi oqim. Monetarizm nafaqat pul togrisidagi talimot. Bu maktab vakillarining diqqat markazida pul kategoriyasi, pulkredit dastaklari turadi; ammo ularni pul mexanizmi, bank tizimi, pul-kredit siyosati, valyuta munosabatlari shunchaki qiziqtirmadi. Monetaristlar ularni pul massasi bilan ishlab chiqarish o'rtasidagi bogliqlikni aniqlash uchun tadqiq qildilar. Monetarizm keynschilar talimotiga muqobil tarzda yuzaga kelgan bozor iqtisodiyotida pulni olqishlovchi nazariyadir.

Bozor mexanizmi ustunligiga asoslangan M.Fridmen nazariyasiga ko'ra, erkinlik va xususiy tadbirkorlik o'rtasida ichki bogliqlik mavjud. Faqat xojalik erkinligi sharoitida siyosiy erkinlikka, iqtisodiy samaradorlikka va tenglikka erishish mumkin. Iqtisodiyotda nima qilish kerakligini millionlab kishilardan kora davlat amaldorlarining yaxshi bilishi dargumon, deydi M.Fridmen. Davlatning xojalik jarayonlarga aralashuvi iqtisodiyotning o'zini-o'zi tartiblash tizimini buzishga olib keladi. Shuning uchun davlat pul va ishlab chiqarish barqarorligini taminlagan holda, pul muomalasini nazorat qilish bilan cheklanmogi lozim.

50-yillarning ikkinchi yarmida J.M.Keyns nazariyasi asosida yangi keynschilik shakllandi. Uning ancha ko'zga ko'ringan vakillari amerkalik

E.Xansen (1887–1975), P.Samuelson (1915-2009), E.Domar (1914-1997), S.Xarris (1897–1974), R.Solou (1924-2023), ingliz R. Xarrod (1900–1978) lar hisoblanadi.

Yangi keynschilikning asosiy tadqiqot obekti makroiqtisodiy miqdorlarning (yalpi talab, yalpi taklif, yalpi, jamgarma) oʻzaro tasiri hisoblandi. Masalaga bunday yondashuv tsiklli ishsizlik, inflyatsiya, iqtisodiy oʻsish muammosini tahlil qilishga yordam beradi.

Yangi keynschilar (E.Domar, R.Xarrod) iqtisodiy oʻsish nazariyasini ishlab chiqdilar. Undagi asosiy muammo realizatsiya muammosi hisoblanadi. Bu nazariyaga muvofiq, iqtisodiyot dinamik muvozanat holatda boʻladi, agar talab ishlab chiqarish resurslaridan toʻla foydalanish imkonini bersa. Talab bogliq boʻlgan milliy daromadning koʻpayishi, ularning fikriga koʻra, faqat kapital jamgarilishi funktsiyasi hisoblanadi, kapitalga boʻlgan talab esa, faqat milliy daromadning osish surati bilan aniqlanadi.

Yangi keynschilar industriallashtirish paytida kapital sigimining osish moyilligini va «yetuk iqtisodiyot» davrida pasayishini payqadilar. Iqtisodiyotda jamgarmaning investitsiyalardan ortib ketishi korxonalarning toʻla quvvat bilan ishlamasligiga va ishsizlikka olib keladi. Investitsiyalarga boʻlgan talabning jamgarmadan ortib ketishi baholarning osishini keltirib chiqardi.

Yangi keynschilar iqtisodiyotni bilvosita va bevosita tartiblash chora-tadbirlarini ishlab chiqdilar. Bilvosita tasir koʻrsatish usuliga soliq siyosati, byudjet orqali moliyalashtirish, kredit siyosati, tezlashtirilgan amortizatsiyalar kiradi.

J.M.Keyns tomonidan taklif qilingan ssuda foizini tartiblash keng qollaniladi. Asosiy kapitalga kapital qoʻyilmasini ragbatlantirish uchun foiz meyorini oʻzgartirish, birinchi navbatda uzoq muddatli kreditlashga nisbatan olib boriladi. Davlat krediti ishlab chiqarishning tarmoq tuzilishini oʻzgartirishda, eksport tarmoqlarini ragbatlantirishda, iqtisodiyotning qoloq boʻginlarini qoʻllab-quvvatlashda, infratuzilmani rivojlantirishda, texnika taraqqiyotini jadallashtirishda muhim rol oʻynay boshlaydi.

Yangi keynschilar multiplikator printsipini akselerator (jadallashtirish) printsipi bilan toʻldirdilar. Multiplikator printsipi boʻyicha investitsiya ish bilan bandlikni taminlab daromadni oʻshiradi. Akselerator printsipiga koʻra daromadlar-ning oʻsishi konkret sharoitda investitsiyaning koʻpayishiga olib kelishi ham mumkin. Buning manosi shundan iboratki, daromadlarning

kopayishi yalpi talabning oshishiga olib keladi, yalpi talabning oshishi esa, ishlab chiqarishning kengaytirilishini taqozo etadi va demak, yangi investitsiyalarga bo‘lgan talab kelib chiqadi. Akselerator daromad osishi bilan kelgusi investitsiyalar oshimi o‘rtasidagi bogliqlikni ifodalaydi.

Hozirgi paytda marjinalizm, monetarizm, keynschilik va boshqa qator yo‘nalishdagi iqtisodiy qarashlar «Ekonomiks» nomli kitobda mujassamlashgan bo‘lib, bu AQSH, Angliya va boshqa qator mamlakatlarda o‘quv qo‘llanma sifatida o‘tiladi. Hozirgi paytda bu yo‘nalishdagi fan mamlakatimiz va boshqa qator MDH davlatlarida «Iqtisodiyot nazariyasi» deb atala boshlandi. «Iqtisodiyot nazariyasi» fan sifatida shakllanguncha bosib o‘tgan yo‘l va unda vujudga kelgan g’oyalar, oqimlar juda murakkab, ko‘pincha bir-biriga zid va qarama-qarshidir. Shunday bo‘lsada, ular bir birini to‘ldiradi, iqtisodiy jarayonlar va hodisalarning ichki ziddiyatlarini, qonunlarini ma’lum darajada umumlashtirib ifodalaydi.[16]

Asosiy tushunchalar:

Pul tabiati, nominal, metallilik, ishlab chiqarish, miqdoriylik, monetarizm, metall, davlat pul nazariyasi, pul oboroti, naqd pulsiz hisob-kitob shakllari, aksept, akkreditiv, akselerator, to‘lov topshiriqnomasi, shartnoma intizomi, to‘lov intizomi, qisman to‘lov.

Mavzuni mustahkamlovchi savollar

1.Pulning metallilik nazariyasini yoritib bering.
2. Pulning nominallik nazariyasi nimadan iborat?
3. Pulning miqdoriylik nazariyasini ochib bering.
4. So‘nggi merkantilistlarning eng taniqli vakili kim?
5. T.Mening ilk “marotaba metallik nazariyasi” ga yangilik kiritganligi haqida to‘xtalib o‘ting.
6. Merkantilizm deganda nimani tushunasiz?
7. Merkantilistlar necha guruhga bo‘linadi?
8. XX asrda miqdoriylik nazariyasining necha xil ko‘rinishi paydo bo‘ldi?
9. Monetarizm nazariyasining asoschisi kim?

[16] Normamatov F.B., MONETARIZM VA KEYNSCHILIK NAZARIYASI, HOZIRGI KUNDA ULARNING AMALIY AHAMIYATI. Zamonaviy monetarizm nazariyasining ilk namoyondalaridan bolgan ingliz from. FINANCE at Finance University under the Government of the Russian Federachion 1/20/2021

10. Fridmenning pullarni tartibga solish taklifini yoritib bering.
11. Akselerator printsipiga koʻra daromadlarning oʻsishi konkret sharoitda investitsiyaning koʻpayishiga olib kelishining manosi nimada?
12. Hozirgi paytda marjinalizm, monetarizm, keynschilik va boshqa qator yoʻnalishdagi iqtisodiy qarashlar qanday nomli kitobda mujassamlashgan?
13. Zamonaviy pul nazariyasiga tariff bering

IV BOB. PUL AYLANMASI VA UNING TARKIBI

5.1. Tovar - pul munosabatlarining mohiyati.
5.2. Pul aylanishi tushunchasi.
5.3. To‘lovlar harakati va uning tarkibi.
5.4. Naqd pul va naqd pulsiz pul harakatining tamoillari.

5.1. Tovar - pul munosabatlarining mohiyati

Tovarlarni sotish va sotib olish, ko‘rsatilgan xizmatlarga haq to‘lash, turli majburiyatlarni bajarish jarayonida vujudga keladigan naqd pul vositasidagi va naqd pulsiz hisob-kitoblar yig’indisi **pul aylanishini** tashkil etadi. Pul aylanishi tovar aylanishiga nisbatan kengroq tushuncha bo‘lib, u tovarlar sotilishi va sotib olinishidan tashqari quyidagi jarayonlarni ham qamrab oladi:

- mehnatga haq to‘lash;
- moliyaviy resurslardan foydalanish;
- moliyalashtirish, kreditlash va investitsiyalash jarayonlari;
- sug’urtalash va boshqalar.

Pul aylanishi deganda, pulning o`z vazifalarini bajarish chog`ida harakatlari yig`indisi tushuniladi.

Pul aylanishi jarayonida jamiyatning barcha strukturaviy tuzilmalari - davlat muassasalari, mahalliy hokimiyatlar, korxonalar, tashkilotlar, banklar, birjalar, firmalar va aholining barcha guruhlari ishtirok etadi.



5.1-chizma. Pul aylanishi

Pul aylanishi umumiy hajmidagi pul aylanish shakllarining salmog’i **pul aylanish strukturasi** deyiladi. Mamlakat iqtisodiyoti va bank tizimi

taraqqiyotiga qarab to‘lov va hisob-kitoblarning rivojlanishi natijasida naqd pul aylanishi bilan naqd pulsiz hisob-kitoblar o‘rtasidagi nisbat o‘zgarib boradi. Agar XIX asr oxirlarigacha naqd pul aylanishi salmog’i ko‘proq bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi davrda naqd pulsiz hisob-kitoblar hissasi ko‘payib bormoqda.

Rivojlangan mamlakatlarda umumiy pul aylanishining 90% gacha naqd pulsiz hisob-kitoblarga, qolgan 10% idan ortig’i esa naqd pul aylanishiga to‘g’ri keladi. Masalan, AQShda naqd pul aylanishi umumiy pul aylanishi hajmining qariyb 8% ini tashkil etadi. Oddiy amerikaliklarning hamyonida kamdan-kam hollarda 10 dollardan ortiq naqd puli bo‘ladi. Ular naqd pulni eng mayda xarajatlarga – garajga mashina qo‘yish, gazeta va jurnallar sotib olish kabilarga sarflaydilar, xolos.

Rossiya Federatsiyasida naqd pul aylanishi hissasiga umumiy pul aylanishining 30% idan ortig’i, O‘zbekistonda esa 40% ga yaqini to‘g’ri keladi

5.2.Pul aylanishi tushunchasi

Naqd pul aylanishi pulning muomala vositasi vazifasidan kelib chiqadi.

Naqd pul aylanishi deganda, ma’lum davrda naqd pullar vositasida amalga oshirilgan barcha to‘lovlar yig’indisi tushuniladi. Bu to‘lovlar banknot yoki tangalar orqali amalga oshiriladi.

Naqd pullar harakati bankdan boshlanadi, ular bankdan chiqib korxona va tashkilotlarning kassalariga kelib tushadi. Korxona va tashkilotlar esa bu pullarni ish haqi, stipendiya, nafaqa va boshqa to‘lovlar sifatida kishilarga to‘laydilar. Kishilar o‘z navbatida bu pullarga tovarlar sotib oladilar, o‘zlariga ko‘rsatilgan xizmatlar haqini to‘laydilar. Bu pullar yana savdo va xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar kassalariga kelib tushadi. Ular esa naqd pul tushumlarini o‘zlariga xizmat ko‘rsatuvchi bankka topshiradilar. Naqd pullar harakati ana shu tarzda yakunlanadi va yangidan boshlanadi. Bu hol to‘xtovsiz takrorlanaveradi, ya’ni,:



5.2-Chizma. Naqd pullar harakati.

Naqd pul aylanishi quyidagi hollarda roʻy beradi:

Korxonalar, tashkilotlar, muassasalar bilan aholi oʻrtasida ish haqi, mukofotlar va boshqa toʻlovlarni toʻlash, tovarlar sotib olish, hamda koʻrsatilgan xizmatlar uchun haq toʻlash jarayonida:



Davlat muassasalari bilan aholi oʻrtasida nafaqa, stipendiya, yutuqlar, soliqlar va boshqalarni toʻlash jarayonida:



Bank tizimi bilan aholi oʻrtasida qarz olish va uni qaytarish, qarz foizini toʻlash, omonatlar qoʻyish va olish jarayonida:



Aholining turli qatlamlari oʻrtasida bozorda turli mahsulotlar sotib olish, koʻrsatilgan xizmatlarga haq toʻlash jarayonida:



Naqd pul aylanishi pul aylanishi ishtirokchilaridan biri albatta, aholi vakili boʻlishini taqozo etadi.

Naqd pullar cheklangan miqdorda muomalaga chiqariladi va buning ustidan banklar nazorat olib boradilar. Bankka topshirilgan naqd pul osonlikcha pul topshiruvchining hisob–raqamidagi yozuvga aylanadi. Hisob raqamidagi yozuvlar esa oʻz navbatida naqd pulga aylanishi mumkin. Mamlakat Markaziy banki muomaladagi naqd pul massasini quyidagicha aniqlaydi va boshqarib boradi:

Muomaladagi naqd pullar = { Aholi q oʻlidagi naqd pullar; Korxonalar kassa qoldiqlari; Banklararo kassadagi naqd pullar

Muomaladagi naqd pul massasining asosiy qismini aholi qoʻlidagi pullar tashkil etadi. Ularni hisoblash va tartibga solish nihoyatda qiyin jarayondir. Ana shu sababli aholi qoʻlida haddan tashqari koʻp miqdorda naqd pul toʻplanib qolishi salbiy oqibatlarga olib keladi.

Aholi qo`lidagi naqd pullarni qo`yidagicha tartibga solish mumkin:

- aholi ehtiyojlarinin to‘liq qondirish uchun sifatli tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish;
- tovarlar va xizmatlarga haq to‘lashda cheklar, kredit va plastik kartochkalar hamda boshqalarni jalb qilish;
- aholi mablag`laring turli-tuman omonatlar va jamg‘armalar sifatida banklarga jalb qilish;

Mustaqillik yillarida pul muomalasini tartibga solish mexanizmlari takomillashtirildi, savdo va xizmat ko‘rsatish faoliyatidan tushadigan naqd pul tushumini to‘liq inkassatsiya qilish hamda korxonalar va aholining naqd pulga bo‘lgan talabini ularning birinchi murojaatiga ko‘ra ta’minlash borasidagi qonunchilik talablari kuchaytirildi. Ushbu jarayonlarni monitoring qilishda agar muammo yuzaga kelganda uni tezkor hal qilishning samarali tizimi shakllantirildi.

Xususan, pul muomalasini boshqarishning bozor iqtisodiyotiga xos bo‘lmagan usullari va mexanizmlari bekor qilindi.

Amalga oshirilgan tadbirlar natijasida inflyatsiya darajasining keskin pasayishiga erishildi.

5.3. To‘lovlar harakati va uning tarkibi

Naqd pulsiz hisob-kitoblar pulning to‘lov vositasi vazifasidan kelib chiqadi. Naqd pulsiz hisob-kitoblar juda qadim zamonlardan kelib chiqqan. So‘ng pul muomalasidan keyin kelib chiqqan. Hozirgi bankirlarning o‘tmishdagi kasbdoshlari bo‘lmish **sarroflar** pul almashtirish va pul saqlash bilan bir qatorda naqd pulsiz hisob-kitoblarni ham amalga oshirganlar.

Naqd pulsiz hisob - kitoblar deganda, pul mablag’larining bankdagi bir hisob raqamidan boshqa hisob raqamiga naqd pul ishtirokisiz, faqat hujjatlar asosida o‘tkazish tushuniladi. Odatda, naqd pulsiz hisob - kitoblarni ko‘pchilik «pul ko‘chirish» yoki «pul o‘tkazish» deb tushunishadi.

Boshqacha qilib aytganda, pul mablag’lari mahsulot sotib oluvchining bankdagi hisob raqamidan mahsulot yetkazib beruvchining hisob raqamiga o‘tkaziladi. Ya’ni,, birinchi hisob raqamidagi mablag’lar kamaytiriladi, ikkinchisidagi esa ko‘paytiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida to‘lovlar quyidagilar orqali amalga

oshiriladi:

- naqd pul mablag’larini o‘tkazish;
- elektron pullarni o‘tkazish;
- pul mablag’larini to‘lov vositalaridan foydalangan holda o‘tkazish;
- pul majburiyatini yoki pul mablag’larini to‘lash to‘g’risidagi farmoyishni o‘z ichiga olgan to‘lov hujjatini berish;
- elektron to‘lov vositalaridan foydalanish.[17]

Naqd pulsiz hisob - kitoblar quyidagi hollarda qo‘llaniladi:

korxonalar, tashkilotlar va xo‘jaliklar o‘rtasidagi yetkazib berilgan mahsulotlar va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun haq to‘langanda:



korxonalar, tashkilotlar va xo‘jaliklar bilan davlat muassasalari o‘rtasida soliqlarni to‘lashda, byudjetdan mablag’larni olishda:



korxona, tashkilotlar va xo‘jaliklar bilan banklar o‘rtasida kreditlar olish va qaytarishda, foizlarni to‘lashda, depozitlar qo‘yish va olishda:



korxonalar, tashkilotlar va xo‘jaliklar bilan fuqarolar o‘rtasida tovarlar sotib olishda, ko‘rsatilgan xizmatlarga haq to‘lashda:



To‘lovni boshlash quyidagi yo‘llar bilan amalga oshiriladi:

- to‘lovchi tomonidan to‘lov hujjatini taqdim etish;
- saqlovchi tomonidan elektron to‘lov vositasidan foydalanish;
- to‘lovchi tomonidan naqd pul mablag’larini bank kassalari, elektron terminallar va boshqa qurilmalar orqali o‘tkazish uchun kiritish;
- to‘lovchining to‘lovni masofaviy xizmat ko‘rsatish tizimlaridan foydalangan holda amalga oshirishga bo‘lgan roziligini yuborish[18].

---

[17] Ўзбекистон Республикасининг «Тўловлар ва тўлов тизимлари тўғрисида» Қонуни Тошкент ш., 2019 йил 1 ноябрь, ЎРҚ-578-сон *(Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 02.11.2019 й., 03/19/578/3986-сон)*

[18] Ўзбекистон Республикасининг «Тўловлар ва тўлов тизимлари тўғрисида» қонуни Тошкент ш., 2019 йил 1 ноябрь,ЎРҚ-578-сон *(Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 02.11.2019 й., 03/19/578/3986-сон)*

Naqd pulsiz hisob-kitoblar naqd pul muomalasiga nisbatan quyidagi **afzalliklarga** ega:

- korxonalar, tashkilotlar va xo‘jaliklarning naqd pulga bo‘lgan ehtiyoji keskin qisqaradi;
- naqd pulsiz hisob-kitoblardan foydalanish naqd puldan foydalanishga nisbatan arzonga tushadi;
- pul mablag’larining xavfsizligi ta’minlanadi;
- pul harakati tezlashadi;
- hisob-kitoblar banklar orqali amalga oshirilishi tufayli, ularning qonuniyligini nazorat qilish imkoniyati tug’iladi va boshqalar.

5.4. Naqd pul va naqd pulsiz pul harakatining tamoillari

Naqd pulsiz hisob-kitoblar quyidagi asosiy tamoyillar asosida tashkil etiladi:

1.barcha korxona, tashkilotlar va xo‘jaliklar banklarda o‘z hisob raqamlarini ochishlari va mablag‘larini shu hisob raqamlarida saqlashlari shart.

2.barcha hisob-kitoblar faqat banklar orqali amalga oshiriladi

3. tovarlar va xizmatlar uchun to‘lovalar pul egasining roziligi bilan amalga oshiriladi.

To‘lov hujjati qog’ozda tuzilgan yoki elektron shaklda shakllantirilgan hujjat bo‘lib, to‘lov uning asosida yoki yordamida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida to‘lovlarni amalga oshirishda quyidagi to‘lov hujjatlaridan foydalaniladi:

- to‘lov topshiriqnomasi;
- to‘lov talabnomasi;
- inkasso topshiriqnomasi;
- memorial order;
- akkreditivga ariza;
- kirim va chiqim kassa to‘lov hujjatlari.[19]

Mamlakatimizda 1990-yillardan boshlab hukumatimiz tomonidan Markaziy bank oldiga to‘lov tizimini xalqaro andozalar asosida tashkil etish,

[19]Ўзбекистон Республикасининг «Тўловлар ва тўлов тизимлари тўғрисида» қонуни Тошкент ш., 2019 йил 1 ноябрь,ЎРҚ-578-сон *(Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 02.11.2019 й., 03/19/578/3986-сон)*

to‘lovlarning amalga oshirilishini keskin jadallashtirish masalasi qo‘yilgan edi.

Mazkur ishning iqtisodiyot rivojida nechog’lik muhim ahamiyatga ega ekanligini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan noan’anaviy choralar taklif etildi.

Xususan, banklar bir qator soliqlardan ozod qilindi va ularning soliqdan ozod qilingan mablag’lari moddiy-texnika bazasini rivojlantirishga yo‘naltirildi. Dunyo bank amaliyotida kamdan-kam uchraydigan bu tadbir mamlakat rahbari tomonidan bank tizimiga bildirilgan ulkan ishonch bo‘lib, u bank tizimining moddiy-texnika bazasini jahon andozalari darajasiga yetkazish va respublikamizda Hamdo‘stlik mamlakatlari ichida birinchi bo‘lib, yagona elektron to‘lov tizimini yaratish imkonini berdi.

Bunda, mijozlar taqdim etgan to‘lov hujjatlarini bir bank muassasasidan boshqasiga pochta orqali yetkazish usuliga asoslangan eski to‘lov tizimi o‘rniga har tomonlama qulay, tizimdagi tranzaksizlar sonidan qat’i nazar, sanoqli daqiqalar ichida mamlakatdagi istalgan bankka to‘lovlarni o‘tkazib berishga qodir bo‘lgan zamonaviy to‘lov tizimi ishga tushirildi.

Asosiy tushunchalar:

To‘lov tizimni, pul aylanishi, naqd pullar, naqd pulsiz, sarroflar, pul massasi, pul massasini xarakterlovchi ko‘rsatkichlar, pulni sotib olish qobiliyati, kredit turi, pul emissiyasi, pul oboroti, hisob-kitoblar, to‘lov hujjatlari, elektron to‘lov, tranzaksizlar.

Mavzuni mustahkamlovchi savollar

1. Pul aylanishi haqida tushuncha bering.
2. Pul aylanishining asosiy shakllari?
3. Pul aylanish strukturasini tahlil qilib borishdan maqsad nima?
4. Naqd pullar harakati qayerdan boshlanadi va qanday harakatlanadi?
5. Naqd pul aylanishida pulning qaysi vazifasi amalga oshiriladi?
6. Aholi qo‘lidagi naqd pullarni qanday yo‘llar bilan tartibga solish mumkin?
7. Naqd pulsiz pul aylanishida pulning qaysi vazifasi amalga oshiriladi?
8. Naqd pulsiz pullar pulning qaysi to‘lov vositalari orqali amalga

oshiriladi?

9. Naqd pulsiz hisob-kitoblar naqd pul muomalasiga nisbatan qanday afzalliklarga ega?

10. Naqd pulsiz hisob-kitoblar qanday asosiy tamoyillar (prinsiplar) asosida tashkil etiladi?

11. Bankirlarning o‘tmishdagi kasbdoshlari bo‘lmish sarroflar qanday ishlarni amalga oshirganlar?

12. O‘zbekistonda joriy etilgan to‘lov tizimning afzalliklari nimalardan iborat?

13. «Pul muomalasi» tushunchasini yoritib bering. Respublikamizda pul muomalasini mustahkamlash uchun qanday iqtisodiy chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur?

VI BOB. PUL MASSASI VA PUL AGREGATLARI

6.1. Pul massasi, uning mohiyati va tarkibi
6.2. Pul multiplikatorlari
6.3. Pul agrigatlari va ularning tarkibi

6.1. Pul massasi, uning mohiyati va tarkibi

Pul massasi – bu pullarning mamlakatning ichki iqtisodiy aylanishi, tashqi iqtisodiy aloqalar tizimidagi, tovarlar va pulli xizmatlarning sotilishiga, shuningdek, uy xo‘jaligidagi tovarsiz to‘lovlarga xizmat ko‘rsatadigan naqd pullik va naqd pulsiz shakllardagi harakatidir.

Tovar ishlab chiqarish pul muomalasining obyektiv negizi bo‘lib, undagi tovar olami tovarlarning ikki turiga: tovarlarning o‘ziga va tovar-pullarga bo‘linadi. Naqd pullik va naqd pulsiz shakllardagi pullar yordamida tovarlar, shuningdek, ssuda va fiktiv kapitallarning muomalasi jarayoni amalga oshiriladi.

Iqtisodiyotning holatiga qarab har bir mamlakatda turli miqdordagi pul aylanib turadi. Aholisi ko‘p va iqtisodiyoti rivojlangan AQSh va Yaponiya bilan, iqtisodiyoti zaif va aholisi kam Mavritaniya yoki Fidji uchun bir xil miqdorda pul talab qilinmaydi.

Iqtisodiyotning asl talabi shuki, har qanday sharoitda ham pul muomalaga keragidan ortiqcha chiqarilmasligi lozim. Shu sababli pul emissiyasi bilan davlat shug’ullanadi.

Davlat tomonidan muomalaga pul chiqarilishi **pul emissiyasi** deyiladi. Iqtisodiyot uchun zaruriy pul miqdori ikki narsaga bog’liq:

1.Sotish uchun bozorga chiqarilgan tovar va xizmatlarning pulga chaqilgan miqdori. Bozorga qancha ko‘p va qimmat mahsulotlar chiqarilsa, shuncha ko‘p pul kerak bo‘ladi va aksincha, qancha kam va arzon mahsulotlar chiqarilsa, shuncha kam pul kerak bo‘ladi.

2.Pul aylanish tezligi. Bu pul birligining yil davomida necha marta oldi-sotdiga xizmat qilgani, ya’ni,, «qo‘ldan-qo‘lga» o‘tganini bildiradi. Pul qanchalik tez aylansa shuncha kam, qanchalik sekin aylansa, shuncha ko‘p kerak bo‘ladi.

Pul muomalasi qonuniga ko‘ra, muomala uchun zarur bo‘lgan pul miqdori sotiladigan tovarlar va xizmatlar narxining jami summasiga to‘g’ri, pul aylanish

tezligiga esa teskari mutanosibdir**,** ya’ni,:

Pul aylanishini tezlatish pul operatsiyalarini o‘tkazish texnikasiga bog’liq. Kassa apparatlarining bo‘lishi, pul sanaydigan mashinalarni ishlatish, yig’ilgan pulni tezyurar vositalar bilan yetkazib berish, pul operatsiyalarini avtomatik tarzda hujjatlashtirish kabilar pul harakatini tezlashtiradi.

$$\text{Muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori} = \frac{\text{Sotilgan tovarlar va xizmatlar}}{\text{Pul aylanish tezligi}}$$

Bank operasiyalarini avtomatlashtirish bir hisob raqamidan ikkinchisiga pul o‘tkazishni g’oyat tezlashtiradi. Pul to‘lash qanchalik tez bo‘lsa, oldi-sotdi ham tez oshiriladi. Qonuniyat shundayki, iqtisodiyot rivoj topgan sari, kam miqdordagi pul bilan ko‘p miqdordagi pul operasiyalarini o‘tkazish mumkin bo‘ladi.

6.2. Pul multiplikatorlari

Multiplikator (ing. multiplier — ko‘paytiruvchi, oshiruvchi) — iqtisodiyotdagi moliyaviy oqimlarning ikki (ba’zan ikkitadan ko‘prok) ko‘rsatkich (parametr)lari o‘rtasidagi bog‘lanishlarni [mas, davlat byudjeta harajatlarining o‘sishi bilan yalpi ichki mahsulot (YAIM)ning hajmi, depozitlar hajmi bilan muomalada bo‘lgan pul massasi o‘rtasidagi) tavsiflovchi ko‘rsatkich.

Akselerator (ishlab chiqarish hajmini oshirish natijasida ishlab chiqarishga jalb etiladigan yangi investitsiyalar necha marta ko‘payishini aks ettiradigan makro-iqtisodiy ko‘rsatkich) bilan birgalikda qo‘llanadi. "M." tushunchasini iqtisodiy amaliyotga birinchi marta J. M. Kepns kiritgan. P. Samuelson va boshqa tomonidan rivojlantirilgan.

Harajatlar, daromadlar, investitsiyalar yoki boshqa moliyaviy okimlarning kaysi toifasi boshlang‘ich asos tarzida olinishiga qarab M.larning investitsiya harajatlari Multiplikator, hukumat harajatlari Multiplikator, harajatlar Multiplikator va boshqa turlari bor. Multiplikativ samara (M. samarasi) asosida iktisodiyotning bir sub’yekti harajatlari boshqa sub’yektning daromadini hosil kilish hodisasi yotadi. Mas, davlat byudjetining harajatlari (ijtimoiy ehtiyojlar, sog‘likni saqlash, yangi kurilishlar, harbiy texnika sotib olish, davlat apparatini saqlash va h.k.) turli

korxonalar, muassasalar daromadlarini (sog‘liqni saqlash muassasalari va tibbiyot xodimlari, qurilish tashkilotlari, harbiy qurol-yarog‘ ishlab chiqaruvchi korxonalar) hamda, umuman, fukarolar (pensionerlar, davlat muassasalari xodimlari va boshqalar) daromadlarini yaratadi.

O‘z navbatida bu korxonalar, tashkilotlar va fukarolarning harajatlari ular bilan texnologik zanjir bo‘yicha bog‘liq bo‘lgan korxonalar daromadini hosil qiladi; byudjet hajmining bir birlikka ortishi YAIM hajmini 2, 3 va undan ortiq birlikka ko‘payishiga olib kelishi mumkin. Xuddi shunga o‘xshash davlat harajatlari ko‘lamining kamayishi M.ga, YAIM xdjmini tegishlicha pasayishiga olib keladi. Bu davlat harajatlari M.idebataladi. Soliq M.i — soliq to‘lovlari hajmi oshganda (kamayganda) YAIM hajmining pasayishi (ko‘payishi) ko‘lamini ko‘rsatadi. M u vozanatl i byudjet M.i — davlat harajatlarining ko‘payishi (qisqarishi) soliqlarni oshirish (pasaytirish) bilan qoplanadigan sharoitlarda YAIM o‘sishi (pasayishi)ni tavsiflaydi. Pul M.i — pul bazasining (bevosita Markaziy bank tomonidan muomalaga chiqariladigan pullar) o‘sishi natijasida pul massasining ko‘pay-ishini tavsiflaydi. Pul M.i umuman iqtisodiyotning, xususan bank tizimining muomaladagi pul massasini ko‘paytirish imkoniyatlarini aks ettiradi. Pul M. ba’zan kredit Multiplikator depozitlar M.i yoki bank M.i deb ham ataladi.[20]

Jamiyatda kredit pullarning rivojlanib ketishi, asta-sekinlik bilan naqd pullarning muomaladan siqib chiqarilishi, bu borada davlatlarning rolini oshib borishi pulning massasini tahlil qilib borilishini talab qilib bordi.

Agarda XIX asrning 100-yillarida pul massasi qonunlariga pulning tabiiyligi, turlari uning vazifalari, baho masshtabi, pul tizimi hamda pulning sotib olish qobiliyatlarining o‘zgarishlari ta’sir etgan bo‘lsa, XX-XXI asrlarda bu muammo keskin o‘zgardi. Endi, pulning ishlab chiqarishdagi roli, pul massasining iqtisodiy o‘sishga ta’siri, davlat siyosatining pul-kredit siyosatiga ta’siri asosiy masala bo‘lib qoldi.

Pul massasi juda murakkab, o‘zgaruvchan va turli kategoriyali, hozirgi bank-moliya tizimining mahsuli bo‘lib rivojlanish bosqichlariga ta’sir ko‘rsatadi.

Pul massasi tijorat banklari tizimidagi pul bazasining oshishi natijasida vujudga keladi va muomaladagi naqd pullardan va mijozlar hisob

[20] Ahmadjon O‘lmasov O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

varaqlaridagi pullar qoldiqlaridan iborat bo‘ladi.

Pul massasi barcha xo‘jalik subyektlari, aholi, davlat tashkilotlaridagi pul vositalarining yalpi hajmini o‘zida ifoda etadi.

O‘zbekistonda muomaladagi pul massasi 200 trln so‘mdan oshdi.

6.3. Pul agregatlari va ularning tarkibi

Hozirgi vaqtda jami pul massasini shartli ravishda pul agregatalariga taqsimlash va foydalanish qabul qilingan.

Pul agregatlari – bu, pul massasining bir qismi hisoblanib, belgilangan muddat va davr ichidagi pul aktivlarining jamlanmasiga aytiladi.

Pul agregatlari turli davlatlarda turlicha statistik hisobotlarda olib boriladi va umuman olganda ular quyidagicha ifodalaniladi:

schyotlaridagi mablag’larni o‘z ichiga oladi.

M_0 = muomaladagi naqd pullar (banknotalar, tanga pullar) va joriy bank.

M_1 = M_0 + tijorat banklardagi muddatli jamg’armalar va hisob va raqamlardagi qo‘yilmalardan tarkib topadi.

M_2 = M_1 + banklardagi muddatli va muddatsiz jamg’armalar.

M_3 = M_2 + ixtisoslashgan kredit-bank muassasalardagi jamg’armalar.

M_4 = M_3 + aksiyalar, obligatsiyalar, depozit sertifikatlar, jismoniy shaxslarning banklardagi aktivlari.

M_5 = M_4 + jismoniy va yuridik shaxslarning xorijiy valyutalardagi jamg’armalari.

Pul massasi va pul agregatlari turli mamlakatlarda turlicha aniqlaniladi, masalan: AQSh da 4 ta pul agregatlari, Yaponiyada va Germaniyada 3 ta va Fransiyada 2 ta pul agregatlaridan foydalaniladi.

O‘zbekistonda 4 ta pul agregatlaridan foydalaniladi.

M_0 – naqd pullar;

M_1 = **M_0** + schyotlardagi pul qoldig’i + mahalliy byudjet mablag’lari + byudjet, jamoa va boshqa tashkilot jamg’armalari;

M_2 = **M_1** + Xalq bankidagi muddatli jamg’armalar;

M_3 = **M_2** + Sertifikatlar, maqsadli zayom obligatsiyalari, davlat zayom obligatsiyalari, xazina majburiyatlari.

Pul massasi va tarkibini hamda dinamikasini tahlil qilish Markaziy bank tomonidan pul kredit siyosatini olib borishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma’lumot uchun aytib o‘tamiz:

Dunyoda qancha pul bor: hisoblab ko‘rish mumkinmi?[21]

Yuzlab valyuta turlari, jumladan kriptovalyutalar ham, shuningdek depozitlar, qimmatli qog’ozlar va boshqa aktivlar - dunyoda qancha pul borligini qanday bilish mumkin? Keling, hech bo‘lmaganda taxmin qilib ko‘raylik.

Hisoblashdagi asosiy muammo - pul deganda nimani tushunamiz? Masalan, endigina muomalaga chiqarilgan naqd pulnimi yoki hisobvaraqlardagi mablag’nimi? Unda moddiy boylik bo‘lgan qimmatli qog’ozlar haqida nima deyish mumkin?

Barcha pullarni qanday hisoblash mumkin?

Turli tahlil kompaniyalari bu borada turlicha qarashga ega. Masalan, AQSH Federal zahira tizimi (O‘zbekiston Markaziy bankiga o‘xshash) o‘zining metodikasini taklif etadi. Unda hisob-kitobni soddalashtirish uchun dunyoning barcha valyutasi AQSh dollariga aylantiriladi.

M0 toifasi. Bu - barcha naqd pullar, ya’ni turli davlatlar tomonidan chiqarilgan barcha bank va banknotalardir. 2024-yilning boshiga kelib, sayyoramizda bunday resurslar taxminan 6 trillion dollar atrofida. Bu pulning bir qismi muomalada, bir qismi markaziy banklar zahiralarida saqlanadi.

M1 toifasi. Bu - M0 guruhidagi mablag’ va hisobvaraqlardagi va sayohat cheklaridagi pullardir. Kerak bo‘lganida, bu mablag’ni naqd pulga o‘girish mumkin. Federal Zahira tizimi (FZT) M1 toifasida taxminan 18 trillion dollar borligini aniqladi.

M2 toifasi. M1 bilan bir xil, lekin bunda depozitlar ham bor. Bu toifada pul miqdori 21 trillion dollarga yaqinlashdi.

M3 toifasi. Bunda pensiya hisobvaraqlari va davlat obligatsiyalari qiymati M2 ga qo‘shiladi. Ushbu toifada taxminan 91 trillion dollar bor.

Yana qanday moddiy boyliklar mavjud?

Naqd pul mamlakatlardagi banklar tomonidan chiqariladi, depozit ham banklarda saqlanadi, shuning uchun ularni hisoblash oson. Virtual valyuta – kriptopulni hisoblash ancha qiyin. Dunyoda bunday pullarning qancha borligini hech kim aniq bilmaydi. Bundan tashqari, kriptovalyutaning kursi

[21] https://uzum.uz/media/uz/dunyoda-qancha-pul-bor-hisoblab-korish-mumkinmi/ 09.05.2024 y. Leonid Vorobyev

qat'iy valyutalarga nisbatan beqaror, shuning uchun ham hajmini taxmin qilish qiyin.

CoinMarketCap ma’lumotlariga asoslanishingiz mumkin. Bu – kriptovalyutaning rentabelligi va boshqa parametrlarini baholaydigan ixtisoslashtirilgan resurs. Uning hisob-kitobiga koʻra, 2023-yil oxirida mavjud kriptovalyutaning kapitallashuvi (ya’ni real puldagi qiymati) taxminan 1,28 trillion dollarni tashkil qilgan. Hajmi boʻyicha yetakchilar – Bitcoin (518 million dollar) va Ethereum (192 million dollar).

Yana 115 trillion dollar - bu bozordagi aksiyalar va boshqa qimmatli qog’ozlar qiymati. Aslida, bular ham toʻlov vositasi sifatida xizmat qilishi mumkin, shuning uchun bu mablag’ pulning umumiy miqdorida hisobga olinishi kerak.

Ba’zi ekspertlarning fikricha, koʻchmas mulk qat'iy valyutaning oʻziga xos analogi boʻlib xizmat qilishi mumkin. Uning qiymati odatda barqaror boʻlib qoladi, shuningdek, uy va kvartiralarni sotish oson – talabgor doim topiladi. Koʻchmas mulk bozori juda katta. Dunyodagi barcha turar-joy va tijorat binolarining qiymati 326 trillion dollarga baholanmoqda. Bu qiymat barcha naqd va naqd boʻlmagan pullar, shuningdek, qimmatli qog’ozlar qiymatidan koʻproqdir.

Koʻproq pul chop etish mumkinmi?

Nazariy jihatdan, mamlakatlar hukumatlari xohlaganicha pul (banknota) chop etishi mumkin. Lekin hech kim bunday qilmaydi. Fuqarolar qoʻlida qancha koʻp pul boʻlsa, tovar va xizmatlarga talab shunchalik koʻp boʻladi. Talab qancha koʻp boʻlsa, tovar va xizmatlar shunchalik qimmat boʻladi, ya’ni inflyatsiya oshadi.

Kichik inflyatsiya - har qanday iqtisodiyot uchun tabiiy hodisadir. Ammo nazoratdan chiqib kuchayib ketsa, davlat jiddiy muammolarga duch keladi. Narxlarning koʻtarilishiga yoʻl qoʻymaslik uchun Markaziy bank asosiy stavkani oshirishi kerak boʻladi. Natijada kreditlar qimmatlashadi, ya’ni iqtisodiyotga sarmoya kiritish qiyinlashadi. Mamlakatning iqtisodiy oʻsish sur'ati sekinlashadi va rivojlanish tanazzulga uchrashi mumkin.

Xoʻsh, dunyoda qancha pul bor?

Rankred.com portalining fikricha, agar barcha naqd va naqd boʻlmagan pullarni, kriptovalyuta, turli qimmatli qog’ozlar, koʻchmas mulk qiymatini jamlasak, unda 3,3 kvadrillion dollar kelib chiqadi. Bir kvadrillion - bir sonidan keyin 15 ta nol demakdir. Ya’ni, miqdor 3 300 000 000 000

000 AQSH dollarini tashkil etadi.

Pul miqdori doimiy ravishda oshib boradi. Rivojlangan mamlakatlarning yalpi ichki mahsuloti (YaIM) o‘sib bormoqda, banklar tobora ko‘proq banknota bosib chiqarmoqda. Ko‘chmas mulkning qiymati ham o‘sib bormoqda va ba’zan juda faol. So‘nggi yillarda kriptovalyuta ko‘paymoqda, har birida foydalanuvchilar yangi tokenlarni topmoqda.

Ba’zi mamlakatlarda davlat tomonidan nazorat qilinadigan kriptovalyutaning analogi paydo bo‘lgan. Bu – Markaziy bank raqamli valyutasi (Central Bank Digital Currency). Rossiya Markaziy banki 2022 yilda raqamli rublni sinovdan o‘tkazishni boshlagan. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki hozircha raqamli so‘mni joriy etish imkoniyatini o‘rganmoqda, bunday qiymat qachon paydo bo‘lishi hali noma’lum. Lekin naqd pul jahon pullarining umumiy hajmida borgan sari kamayib borishi aniq: rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti raqamli (naqdsiz) to‘lovlarga o‘tmoqda.(*https://uzum.uz/media/uz/dunyoda-qancha-pul-bor-hisoblab-korish-mumkinmi/ 09.05.2024 y. Leonid Vorobyev*)

Turli davlatlarda pul muomalasi ma’lum qoidalar asosida tartibga solib turiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida pul muomalasi ma’lum usullar yordamida tartibga solib boriladi.

Bizda pul muomalasini tartibga solish O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan quyidagi usullardan foydalaniladi:

1. Majburiy rezerv stavkasi normasini belgilash.
2. Tijorat banklari ochiq bozorda qatnashishi.
3. Markazlashgan kreditlar uchun qayta moliyalashtirish stavkasini belgilash.

Markaziy emissiya banki aktivlarining ko‘paytirilishi ayni bir vaqtda uning passivlarining ham tegishlicha o‘sishini anglatadi, ya’ni, pul bazasining tashkil etilishiga olib keladi.

Pul bazasi muomaladagi naqd pullardan, shuningdek, tijorat banklarning mamlakat Markaziy bankdagi majburiy va majburiy bo‘lmagan (ixtiyoriy va ortiqcha) zaxiralardan iborat bo‘ladi.

Umuman olganda, tijorat banklarining zaxiralari deganda, bank omonatchilari to‘satdan katta miqdordagi to‘lov talablarini qo‘ygani holda, uning tezkorlik bilan muomalaga kiritadigan aktivlari tushuniladi. Tijorat banklarining Markaziy bankdagi zaxiralari majburiy va majburiy bo‘lmagan (ixtiyoriy va ortiqcha) zaxiralardan tarkib topadi.

Majburiy zahiralar - deganda tijorat banklarining Markaziy bankdagi omonatlari (depozitlari)ning qonuniy tartibda belgilab qo‘yiladigan eng kam normasi tushuniladi.

Mustaqillik yillarida makroiqtisodiy barqarorlik va o‘sishni ta’minlash uchun muomaladagi pul massasining asossiz yuqori sur’atlarda o‘sishining oldini olish maqsadida monetar siyosatning bilvosita instrumentlarini qo‘llash usullari takomillashtirildi, ulardan foydalanish ko‘lamlari yanada kengaytirildi. Shuningdek, ushbu davrda ochiq bozordagi operatsiyalarda qo‘llaniladigan qimmatli qog’ozlar turlarini kengaytirish maqsadida Markaziy bankning yuridik va jismoniy shaxslar uchun obligatsiyalar va depozit sertifikatlari muomalaga chiqarildi.

Banklarning barqarorligini yanada mustahkamlash va ularning likvidligini tartibga solish maqsadida 2008-yilning 1-noyabridan boshlab, tijorat banklarining Markaziy bankdagi majburiy zahiralar fondiga o‘tkazmalar bo‘yicha me’yor milliy va xorijiy valyutada jalb qilingan depozitlar uchun bir xil, ya’ni, 15 % etib belgilandi.

Shuningdek, 1991-2010-yillar davomida Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi 300 % dan 12 % gacha bosqichma-bosqich kamaytirildi. 2018 yilning 1yanvaridan boshlab, amaldagi qayta moliyalash stavkasi yillik 14 % etib belgilanishi, hamda 2019-yildan 16 foiz, hozirda 14 % etib belgilanishi tijorat banklarining depozitlar va kreditlar bo‘yicha % stavkalariga ta’sir ko‘rsatishi natijasida tijorat banklarida uzoq muddatli kreditlar olishga, shuningdek, mos ravishda iqtisodiyotning real tarmoqlariga ajratiladigan kreditlar hajmining sezilarli darajada oshishiga zamin yaratiladi.

Asosiy tushunchalar:

Pul muomalasi, pul emissiyasi, pul massasi, pul agregatlari, kvazim pullar, majburiy rezerv, ochiq bozor, qayta moliyalash, depozitlar, kreditlar, usullar, ko‘chmas mulk, qimmatli qog’oz, tokenlar, pul agregatlari, muddatli kreditlar, pul aylanishi, majburiy rezerv, markazlashgan kredit, pul emissiyasi, pul talab, stavka.

Mavzuni mustahkamlovchi savollar

1. Pul emissiyasi deb nimaga aytiladi va u bilan kim shug’ullanadi?
2. Muomalaga qancha pul talab qilinadi?

3. Pul aylanish tezligi deb nimaga aytiladi?
4. Pul muomalasi qonuniga koʻra muomala uchun zarur pulning toʻgʼri va mutanosibligi nimada?
5. Pul massasi deb nimaga aytiladi?
6. Pul agregatlari deb nimaga aytiladi?
7. M_0 = agregatida muomaladagi qaysi pullar ifodalaniladi?
8. M_1 = M_0 + agregati qaysi pullardan tarkib topadi?
9. M_2 = M_1 + agregati qanday jamgʼarmalardan tarkib topgan?
10. M_3 = M_2 + agregati qanday jamgʼarmalardan tarkib topgan?
11. M_4 = M_3 + agregati qanday aktivlardan tarkib topgan?
12. M_5 = M_4 + agregati qanday jamgʼarmalardan tarkib topgan?
13. Oʻzbekistonda qaysi pul agregatlaridan foydalaniladi?
14. Pul massasining nazorati kim tomonidan olib boriladi?
15. Pul muomalasini tartibga solishda qanday asosiy mexanizmlardan foydalaniladi?
16. Majburiy rezerv stavkasi normasini belgilash siyosati.
17. Tijorat banklarning ochiq bozorda qatnashish siyosati.
18. Markazlashgan kredit uchun qayta moliyalashtirish stavkasini belgilash siyosati.
19. Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bank tomonidan pul muomalasini tartibga solishda qanday ijobiy oʻzgarishlar amalga oshirildi va ularning samarasi nimada?

VII BOB. PUL TIZIMI: MAZMUNI, TURLARI VA ELEMENTLARI

7.1. Pul tizimi tushunchasi va uning turlari.
7.2. Pul tizimining shakillari va tarkibiy monometalizim va bimetalizim.
7.3. Ayrim xorijiy davlatlarning pul tizimi va o‘ziga xosligi.
7.4. O‘zbekiston Respublikasi pul tizimining, uning rivojlanishi va o‘zigz xosligi.

7.1. Pul tizimi tushunchasi va uning turlari

Pul tizimi mamlakatda tarixan tarkib topgan va milliy qonunchilik bilan tasdiqlangan pul muomalasini tashkil qilish shaklidir.

O.Lavrushin tahriri ostida chop etilgan “Pul, kredit, banklar” darsligida pul tizimining elementlariga quyidagilar kiritilgan:

- pulning mohiyati va funksiyalari;
- pulning shakli va turlari;
- pul birligi;
- pul massasi va uning tarkibi;
- pul aylanmasi, uning tarkibi va tashkil etish;
- pul tizimini tashkil qilish prinsiplari;
- pul tizimini boshqarish prinsiplari;
- emissiya mexanizmi;
- valyuta kursi;
- kassa intizomi;
- naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi;
- pul tizimining me’yoriy-huquqiy bazasi;
- axborot-tahliliy element;
- texnologik element;
- institutsional element[22].

– Pul tizimi valyuta tizimiga qaraganda keng tushuncha. Biroq, pul

[22] Деньги, кредит, банки. Под ред. Проф. О.И. Лаврушина. – М.: ЗАО «КноРус», 2009. – С. 95-101.

tizimining ayrim elementlari valyuta tizimining elementlari bo‘lishi ham mumkin. Masalan, milliy valyuta. Har qanday mamlakatning milliy puli o‘sha mamlakat uchun milliy valyuta hisoblanadi. Demak, milliy valyuta pul tizimi uchun ham, valyuta tizimi uchun ham element hisoblanadi. Ammo pul tizimining shunday elementlari mavjudki, ular, valyuta tizimi uchun element bo‘lib hisoblanmaydi. Ana shunday elementlar sifatida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

- pul aylanmasi tarkibi;
- pul aylanmasini tashkil qilish va tartibga solish;
- pul massasi va tarkibi;
- pul tizimini tashkil qilish prinsiplari.
- O‘z navbatida, valyuta tizimining ayrim elementlari ham pul tizimi uchun element bo‘lib hisoblanmaydi. Ana shunday elementlardan biri –***milliy valyuta bozorining rejimi*** hisoblanadi.

7.2. Pul tizimining shakillari va tarkibiy monometalizim va bimetalizim

Hozirgi pul tizimi XVI–XVII asrlarda vujudga kelgan. Muomaladagi pul turlariga qarab, vaqt o‘tishi bilan pul muomalasining 2 tizimi ajralib chiqqan. Ular quyidagilar:

Metall tangalar muomalada bo‘lgan pul tizimi. Bunda oltin va kumush tangalar muomalada bo‘lgan, qog’oz pullar esa birinchi talab bilanoq metall pullarga almashtirilib berilgan.

Metall tangalar bir yoki ikki xil metalldan zarb qilingan. Agar tangalar faqat bir xil metalldan, ya’ni, oltin yoki kumushdan zarb qilinsa **monometall,** aksincha, ikki va undan ortiq metalldan, ya’ni, oltin, kumushdan va misdan zarb qilinsa **bimetall** pul tizimi deyiladi. Bulardan tashqari muomalada mis chaqalar, kredit va qog’oz pullar ham mavjud bo‘lgan. Ammo ularning salmog’i juda kam bo‘lgan.

Kredit va qog’oz pullar muomalada bo‘lgan pul tizimi. Bu tizimda oltin va kumush muomaladan batamom chiqarib yuborilgan, qog’oz pullar esa oltin yoki kumushga almashtirilib berilmagan.

Mamlakat Markaziy banki tomonidan muomalaga chiqarilgan banknotlar milliy pul birligiga aylangan. Pul muomalasida naqd pulsiz hisob - kitoblar ustun bo‘lgan. Pul muomalasi davlat tomonidan tartibga solib

turilgan. Bu pul tizimi 1929-1933-yillardagi jahon iqtisodiy tangligi natijasida vujudga kelgan va hozirgi davrda barcha mamlakatlarda amal qilmoqda.

Pul tizimi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

a) pul birligi;

b) baholar masshtabi;

v) to‘lov kuchiga ega bo‘lgan naqd pul belgilari;

g) pul emissiyasi tizimi;

d) pul muomalasini tartibga soluvchi davlat muassasi.

Pul birligi – qonuniy tarzda belgilangan to‘lov vositasi bo‘lib, barcha tovarlar va xizmatlar bahosini ifodalaydi. Ko‘pincha pul birligi mayda bo‘linuvchi qismlarga ajraladi, masalan:

AQSh da – dollar, 1 dollar = 100 sent;

Buyuk Britaniyada – funt sterling, 1 funt sterling = 100 pens;

Hindistonda – rupiya, 1 rupiya = 100 pays;

Rossiyada – rubl, 1 rubl = 100 kopeyek.

Yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, har bir mamlakat mustaqil ravishda o‘zining milliy pul birligiga ega bo‘lishi mumkin. Ayrim hollarda ba’zi mustaqil davlatlar birgalikda bir xil pul birliklaridan foydalanishlari ham mumkin. Masalan, hozirda Yevropa Ittifoqiga kiruvchi 21 ta mamlakat birgalikda Yevro pul birligidan foydalanishmoqda.

Baholar masshtabi deganda, milliy pul birligining qonunda belgilangan oltin mazmuni, ya’ni, oltinga tenglashtirilishi tushuniladi. Masalan, sobiq SSSRda 1961-yilda muomalaga kiritilgan 1 rubl 0,987412 gramm oltin asosiga, 1976-yilga qadar 1 AQSh dollari 0,767405 gramm oltin asosiga ega, deb belgilab qo‘yilgan edi.

Biroq, 1976-yildan boshlab oltinning qat’iy belgilangan bahosining bekor qilinishi sababli, baholar masshtabi tushunchasi o‘z iqtisodiy mohiyatini yo‘qotdi.

Pul tizimining yana bir muhim tarkibiy qismi naqd pul sifatida qonuniy **to‘lov kuchiga ega bo‘lgan pul belgilari** bo‘lib, ular banknotlar, qog’oz pullar va tangalardir. Masalan, AQShda muomalada quyidagi naqd pullar mavjud: 100, 50, 20, 10, 5 va 1 dollarlik banknotlar, 50, 20,10, 5 va 1 sentlik tangalar. Buyuk Britaniyada esa 50, 20, 10, 5 va 1 funt sterlinglik banknotlar, 50, 10, 5, 2, 1 va 1/2 penslik tangalar. Shuningdek, 2 va 1 shillinglik eski tangalar ham yuritiladi.

1998-yil 1-yanvaridan boshlab Rossiyada muomalada 500, 100, 50, va 10 rubllik banknotlar 5, 2, 1 rubl va 50, 10, 5, 1 kopeyeklik tangalar amal qilmoqda.



7.1-rasm O‘zbekistonda muomalaga chiqarilgan banknotalar ulushi 2018-yil 1-yanvar

To‘lov kuchiga ega bo‘lgan pul belgilari namunalari mamlakat Markaziy banki tomonidan ishlab chiqiladi, tanlanadi va tasdiqlanadi. Yangi namunadagi banknot va tangalar muomalaga kiritilishi oldidan ommaviy axborot vositalari orqali e’lon qilinadi va tasvirlanadi, fuqarolar e’tiboriga yetkaziladi.

Emissiya tizimi deganda, muomalaga pul belgilarini chiqarishning qonunda belgilangan tartibi tushuniladi. Rivojlangan mamlakatlarda bank biletlari emissiyasi Markaziy banklar tomonidan, xazina biletlari va tangalar esa qonunda belgilangan emissiya huquqiga asosan, xazina muassasalari tomonidan chiqariladi. Muomalaga pul belgilarini chiqaruvchi bank **emitent bank** deyiladi.

7.3. Ayrim xorijiy davlatlarning pul tizimi va o‘ziga xosligi

Har bir mamlakatda pul muomalasini tartibga soluvchi **davlat muassasasi** qonunda belgilab qo‘yiladi. Masalan;

AQSh da 12 ta yirik banklarni birlashtiruvchi Federal Rezerv tizimi, Pokistonda Davlat banki, Buyuk Britaniyada Angliya banki, Rossiyada Markaziy bank, Qozog’istonda Milliy banklar pul muomalasi bo‘yicha mutlaq huquqqa egadirlar. Bu banklar pul muomalasini tartibga solishda quyidagilarni amalga oshiradilar:

- muomaladagi pul massasi strukturasi, ya’ni, naqd pul va naqd pulsiz hisob- kitoblar nisbatini belgilaydi;
- pul muomalasini prognozlash-rejalashtirish tartibini o‘rnatadi;
- pul- kredit siyosatini boshqarish tartibini ishlab chiqadi;
- valyuta kursini belgilash tartibini aniqlaydi;
- naqd pul muomalasi bo‘yicha xo‘jaliklarda kassa intizomi tartibini joriy etadi.

7.4. O‘zbekiston Respublikasi pul tizimining, uning rivojlanishi va o‘ziga xosligi

Pul tizimi mamlakatda pul muomalasini tashkil qilishning qonun yo‘li bilan belgilangan shaklidir.

O‘zbekiston Respublikasida “Pul tizimi to‘g’risida”gi qonun mavjud emas. Ammo, Markaziy bank to‘g’risidagi qonunda, Hukumatning tegishli qarorlarida pul tizimi va uning elementlari o‘z aksini topgan.

“O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g’risida”gi qonunning 23-moddasiga muvofiq, Markaziy bank “pul massasi yillik o‘sish sur’atining aniq maqsadli ko‘rsatkichlarini” belgilaydi. Ushbu qonunning beshinchi bo‘limida pul tizimi va uning elementlaridan foydalanish mexanizmining huquqiy asoslari o‘z ifodasini topgan. Qonunning beshinchi bo‘limi 32-moddasida milliy pul tizimining O‘zbekiston Respublikasining pul birligi, pul muomalasini tashkil etish va uni tartibga solishdan iborat ekanligi e’tirof etilgan.[23]

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-

[23] “Ўзбекистон Республикаси Марказий банки тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси қонуни. – Тошкент: Ўзбекистон, 2006. – Б. 15.

yil 4-fevraldagi 63-sonli “Pul-kredit koʻrsatkichlarini tartibga solish mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʼrisida”gi qaroriga muvofiq, Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankining zimmasiga pul massasining oʻsishini nazorat qilish boʻyicha majburiyatlar yuklatilgan.[24]

Masalan, Oʻzbekiston Respublikasida valyuta bozori ikki qismdan, yaʼni, Respublika valyuta birjasi va birjadan tashqari bozordan iborat. Valyuta bozorida AQSH dollari va Yevro bitim valyutasi hisoblanadi, soʻm esa, baholovchi valyuta vazifasini bajaradi.[25]

Oʻzbekistonning mustaqil davlat sifatida tanilishi uning mustaqil pul tizimiga ega boʻlishini taqozo etdi. Mustaqil pul tizimi tashkil topishining

I-bosqichi 1993- yildan eʼtiboran, muomalaga «soʻm-kupon»larning chiqarilishi,

II-bosqichi esa 1994-yil 1-iyuldan boshlab muomalaga milliy valyuta «soʻm»ning kiritilishi hisoblanadi.

Bugungi kunda Oʻzbekiston Respublikasida pul tizimi Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi[26], «Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki toʻgʼrisida»gi[27], «Banklar va bank faoliyati toʻgʼrisida»gi[28] yangi tahrirdagi qonunlariga muvofiq amal qilmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasining pul birligi – soʻm, 1 soʻm = 100 tiyin. Soʻm Oʻzbekistonda yagona cheklanmagan va qonuniy toʻlov vositasi hisoblanadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki muomalaga banknot va tangalar chiqarishda mutlaq huquqqa ega boʻlib, mamlakatda pul muomalasi holatiga javobgardir. Markaziy bank banknot va tangalarning yangi namunalarini tasdiqlaydi, ularning tasvirini ommaviy axborot vositalari orqali eʼlon qiladi.

Hozirda muomalada 1 000, 5 000, 10 000, 20 000, 50 000, 100 000 va 200 000 soʻmlik banknotlar, 100, 200, 500, 1000 soʻmlik tangalar amal qilmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki pul, kredit va valyuta

---

[24] Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2003 йил 4 февралдаги 63-сонли “Пул-кредит кўрсаткичларини тартибга солиш механизмини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори. Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. – Тошкент, 2003. – №3. – Б. 29.

[25] Исмаилов А. Пул тизимининг моҳиятига нисбатан методологик ёндашувлар 09.09.2014

[26] Ўзбекистон Республикаси Конституцияси янги таҳрири Тошкент, Ўзбекистон 2019 йил

[27] Ўзбекистон Республикаси «Марказий банки тўғрисида»ги Қонуни 2019 йил 11 ноябр

[28] Ўзбекистон Республикаси «Банклар ва банк фаолияти тўғрисида»ги Қонуни 2019 йил 5 ноябр

boshqaruvi, naqd pulsiz hisob-kitoblar va xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish, milliy valyutani chet el valyutasiga almashtirish tartib- qoidalarini va boshqalarni ishlab chiqadi, hamda joriy etadi.

Shuningdek, Markaziy bank huzurida uning bosh funksiyalaridan biri bo‘lgan pul emissiyasi siyosatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan muhim yordamchi korxonalar: Qog’oz fabrikasi, Bosmaxona, Zarbxona, shuningdek, qimmatbaho metallar Agentligi va Respublika Inkassatsiya birlashmasi tashkil etilgan.

O‘zbek xalqi xonliklar davrida turli pul tizimlaridan foydalangan. Biroq ular juda kichik farqlarga ega bo‘lib, bir xil metallardan zarb qilingan va bir xil nomlarga ega bo‘lgan. Xususan, Buxoro amirligida oltin, kumush, mis va hatto qog’oz pullardan foydalanilgan.

O‘zbekiston pul tizimi tarixi, shubhasiz, juda uzun mavzu. O‘lkadagi deyarli barcha tarixiy davlatlar o‘z pullarini zarb qildirgan va muomalaga kiritgan.

O‘zbek numizmatikasi rivojlanib borishi bilan o‘zbek pul tizimi tarixi ham tobora ko‘proq ma’lumotlarga, topilmalarga ega bo‘lib bormoqda. Yangi davr, ya’ni o‘zbek xonliklari davri pul tizimi haqidagi ma’lumotlar nisbatan ancha-muncha ko‘proq. Chunonchi, ulardan biri bo‘lgan Buxoro amirligining pul tizimi ancha boy tarixga ega.

Ashtarxoniylar (Joniylar) sulolasi hukmronligining so‘nggi yillarida Buxoro xonligi nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy jihatdan ham tanazzulga yuz tutadi. Mahalliy beklar xondan deyarli to‘liq mustaqillikka erishadi va hatto tangalarga o‘z ismini yozdira boshlaydi.

1756 yil o‘zbeklarning mang’it urug’idan bo‘lgan Muhammad Rahimbiy Buxoroda yangi sulola hukmronligiga asos soladi va siyosiy islohotlar o‘tkazadi. Ammo u pul tizimiga yetarlicha e’tibor qaratmaydi. Rahimbiy va uning davomchisi Doniyolbiy otaliq davrida tartibsiz pul tizimi saqlanib qoladi.

Buxoro amirligidagi pul islohoti saltanatning uchinchi hukmdori Shohmurod nomi bilan bog’liq. «Amiri ma’sum» nomi bilan tanilgan bu hukmdor mang’itlar orasida ilk bor o‘zini «amir» deb ataydi va taxtga chingiziylardan soxta xon o‘tqazish an’anasini to‘xtatadi. U amirlikning xalqaro savdosi rivojlanib borayotgani va tartibsiz pul tizimi uning yanada rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotganini hisobga olib, keng miqyosli pul islohotini boshlaydi.

Amir Shohmurod tomonidan 1784-1785 yillarda joriy qilingan yangi pul birliklari oldingilaridan koʻp ham farq qilmagan, ya’ni uch xil turdagi pul an’anasi saqlanib qolgan. Bular, «tilla» yoxud «Ashrafiy» — oltin tanga, «tanga» — kumush tanga, «fuls» (koʻplikda «fulus») — mis tanga edi.

Xalq orasida kumush tangalar «oq pul», mis tangalar esa «qora pul» deb atalgan. Tangalar sof oltin va kumushdan quyilgan. Muomalada eng koʻp kumush tangadan foydalanilgan.

1 tilla tanga 22 kumush tangaga, 1 kumush tanga 44-64 mis tangaga teng boʻlgan. Mis tanganing kumush tangaga nisbati tez-tez oʻzgarib turgan.

Oltin va kumush tangalar vazni ular zarb etilgan zarbxonalarga qarab turlicha boʻlgan. Oltin tangalar asosan 1 misqol, ya’ni 4,5-5 gramm atrofida zarb etilgan, kumush tangalar vazni esa 2-3,25 gramm atrofida boʻlgan.

Buxoro amirligida oltin va kumush tangalar har yili zarb etilgan. 1889-1892 yillarda Buxoro pul tizimi kelajagini muhokama qilishda ishtirok etgan Turkiston harbiy okrugi qoʻshinlari qoʻmondoni baron Aleksandr Vrevskiy oʻsha paytdagi (1894 yil) Rossiya moliya vaziri Sergey Vittega yozgan maktublarida Buxoroda tanga zarb qilishga doir quyidagi ma’lumotlarni keltirib oʻtgan:

«Yaqin vaqtlargacha Buxoroda yiliga 8-10 million tanga zarb qilingan. Faqat soʻnggi yillarda bu son oʻsa boshladi. Amirlikning bosh zakotchisi ma’lumotlariga koʻra, 1888 yil 27 avgustdan 1889 yil 15 avgustgacha 10 million 254 ming 896 tanga, 1889 yil 16 avgustdan 1890 yil 4 avgustga qadar esa 22 million 434 ming 820 tanga, 1892 yil 14 iyuldan 1893 yil 3 iyulgacha 16 million 948 ming 832 tanga zarb etilgan».

Biroq Vrevskiy, bosh zakotchi Buxoro hukumati tanga zarb qilishdan katta daromad olishini koʻrsatishga intilib, bu sonlarni ancha koʻpaytirib aytganini ham qoʻshimcha qilgan.

Tangalar turli zarbxonalar tomonidan zarb etilgan. Beklar va sarroflar umumiy qoidalarga rioya etgan holda xohlagancha tanga zarb qilishi mumkin boʻlgan.

Mang’itlar tangalarining old tomoniga eski tangalardagi kabi hukmdorning nomi, unvoni va hukmdorlik yillar yozilgan (hijriy taqvim boʻyicha). Birgina farq — mang’itlar tangalari sulolaning vafot etgan a’zolari nomlari bilan zarb qilingan. Chunki Shohmurod oʻzi zarb qildirgan yangi tangalarga otasi Doniyolbiy nomini tushirgan, uning oʻg’li amir Haydar bu an’anani davom ettirgan va bu sulolaviy odatga aylangan.

Qolaversa, mang’itlar o‘zlarining «amir ul-mo‘miniyn», ya’ni «mo‘minlar amiri» unvoni va payg’ambar avlodlariga yaqinligi haqidagi da’vosidan kelib chiqib, tangalardagi o‘z nomlari oldiga «sayid» qo‘shimchasini ham yozdirgan.

Mirzo Shams Buxoriyning yozishicha, Shohmurod yangi tangalarga otasi nomini yozdirib, o‘z nomini tangalarga yozishni ham, xutbaga qo‘shib o‘qishni ham taqiqlagan. U o‘zini «sayid» deb ham atamagan. Uning o‘g’li amir Haydar va nevarasi Nasrullo davrida amir Shohmurod nomi tangalarga «ma’sum g’ozi» deya tushirilgan.

Shohmurod tangalarining orqa tomoniga diniy belgilar o‘rniga, tangalarning zarb qilingan vaqti va zarbxonasi yozila boshlangan. Natijada mang’itlar tangalarining har ikki tomoniga ham sanalar bosilgan. Bu mang’it tangalarining oldingi tangalardan farq qiluvchi asosiy jihatlardan biri edi.

Shohmuroddan keyin amir Haydar ham o‘z oltin tangasini zarb qildiradi va bu bilan barobar otasi nomiga oltin tanga zarb qildirishni ham davom ettiradi. Amir Haydar oltin tangalari «haydariy», Shohmurod tangalari esa «ma’sumiy» deb ataladi.

Amir Nasrullo davrida oltin tangalar zarb qilish hajmi ortadi. Nasrullo amir Shohmurod hurmatiga oltin tangalarga uning ismini yozdirishni davom ettiradi va otasi amir Haydar nomini kumush tangalarga tushirtiradi. Shunday qilib, Buxoro amirligi pullariga amirlar ismini tushirishning aniq formulasi shakllanadi: oltin tangalarga Shohmurod, kumush tangalarga esa amir Haydar ismi yoziladi. Amir Nasrulloning ismi esa hech qaysi tangada qayd etilmaydi, chunki uning avlodlari tangalarga yuqoridagi ikki amir va o‘z ismlarini tushiradi.

Rossiya bosqini va pul zarb qilish to‘xtatilishi

Buxoro amirligi amir Muzaffar davrida (1860-1885) Rossiya imperiyasiga qaram bo‘ladi, ammo pul tizimidagi mustaqillikni bir qadar saqlab qoladi. Biroq amir Abdulahad davrida (1885-1910) Rossiya imperiyasi Moliya vazirligi amirlik pul tizimini boshqarishga harakat qila boshlaydi. Chor Rossiyasi mudofaa vazirligi va tashqi ishlar vazirligi amirni o‘z tangalarini zarb etish huquqidan mahrum etish mumkin emas deb hisoblaydi, moliya vazirligi esa buning aksini ta’kidlaydi. Natijada Buxoro pul tizimi masalasining ko‘p yillik muhokamasi bir necha marta boshi berk ko‘chaga kirib qoladi.

Oxir-oqibat, 1890 yil imperator Aleksandr III «Turkiston o‘lkasida

muomalada bo‘lgan mahalliy kumush tangalarni bosqichma-bosqich muomaladan chiqarish to‘g’risida»gi farmonni imzolaydi. Bunga qadar, Buxoro tangalari Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingan Turkiston hududida ham erkin muomalada ishlatilar edi. Farmon ijrosi 1893 yilgacha amalga oshiriladi, Turkiston general-gubernatorligi hududiga Buxoro tangalarini olib kirish taqiqlanadi.

Turkistonda muomaladan chiqarilgach, Buxoro davlat g’aznasida va oddiy xalq qo‘lida kumush tangalar ko‘payadi, qolaversa amirlikka g’arbdan arzon kumush kirib keladi. Buning ortidan esa uning qiymati pasayib ketadi. Oqibatda Buxoroda pul tizimi inqirozi boshlanadi va Rossiya hukumati amirdan uning kursini tartibga solish uchun tanga zarb qilishni to‘liq to‘xtatishni talab qiladi. 1894 yil Turkistonga Buxoro tangalarini olib kirishga yana ruxsat berilishi evaziga, amir pul zarb qilishni to‘xtatadi.

1901-1902-yillarda Buxoroda kumush tanga zarb qilish qayta tiklanadi, ammo bu uzoq davom etmaydi. 1905 yil kumush tanga zarb qilish butunlay to‘xtatiladi. Buning o‘rniga mis tangalar (fuls) muntazam zarb etila boshlanadi. Birinchi jahon urushi sabab Rossiyadagi iqtisodiy holat og’irlashishi ortidan mis tangalar kattaroq nominalda zarb qilinadi.

Amir Olimxon davrida 1/2, 1, 2, 3, 4, 5, 10, 20 tanga qiymatdagi mis pullar zarb etiladi. Bu pullar xalq orasida «qora tanga» deb atalgan. 1/2, 1, 2, 3, 5 tangalar qizil misdan ishlangan va old tomoniga «fulus» deb yozilgan. Tangalarning orqa tomonida odatdagidek zarb qilingan joy va sana ko‘rsatilgan.

10 tangalik fulus murakkab naqshga ega bo‘lib, yuqoridagi nominallardan farqli o‘laroq, ancha keng va yupqa shaklda, jyezdan zarb qilingan. 20 tangalik fulus ham jyezdan quyilgan, biroq oldingi tomonida «fulus» yozuvi bo‘lmagan.

Buning o‘rniga unga olti qirrali yulduz va yarim oy tasviri tushirilgan. 1920 yildan Buxoroda tanga zarb qilish butkul to‘xtaydi.

Qog’oz pullar

Rossiya imperiyasi 1917 yilda qulagach, Buxoro uning qog’oz pullaridan foydalanishni to‘xtatadi va o‘z qog’oz pullarini bosishga kirishadi. Shu tariqa, O‘zbekiston tarixida ilk bor qog’oz pullar zarb qilina boshlanadi.

Qog’oz pullarni qanday bosib chiqarish borasida Buxoroda qarama-qarshilik paydo bo‘ladi va mutaassib ulamolarning bosimi bilan qog’oz pul

mashinada emas, qo‘lda, muhr bosish yo‘li bilan zarb qilinadigan bo‘ladi. Qog’oz pullarni bosish uchun «qog’ozxona» tashkil etiladi. Unga naqqosh, zargar, «mirzo xushxat» (hattot) kabi 20 usta jalb qilinadi. Pul uchun sifatli qog’oz ishlab chiqarish maqsadida Buxoro shahrining Dilkusho bog’ida qog’oz fabrikasi ochiladi, bu fabrika 1923 yilgacha faoliyat yuritadi. Pul uchun ishlab chiqarilgan qog’oz «qog’ozi aqcha» deb atalgan.

Buxoro qog’oz pullari 50, 100, 200, 500, 1000, 5000, 10 000, 20 000 tanga nominallarida bosilgan. Ular uchun muhrlar ham qo‘lda tayyorlangan.

Pullarga uning nominali sonlar bilan yoki harflar bilan arab yozuvida yoki rus tilida yozilgan, ba’zida esa har ikki tilda ham yozilgan. Arab yozuvida pulga u bosilgan joy va sana tushirilgan. Shuningdek, qog’oz pullarga qalbakilashtirish uchun jazo haqida ogohlantiruvchi yozuv hamda seriya raqami yozila boshlangan.

Pulda shuningdek, Buxoro amirligi belgisi hisoblangan yarim oy va yulduz, hamda xazinachining imzosi ham bo‘lgan.

Buxoro amirligi qulaganidan keyin Buxoro xalq sovet respublikasi (BXSR) aynan shu qog’ozxonada pul bosishni davom ettirgan. BXSR pullari sobiq amirlik pullaridan rubl deb atalgani, yarim oy va yulduz o‘rniga sovetlar belgisi o‘roq, bolg’a va jo‘xori dastasi tushirilgani bilan farq qilgan.

BXSR 1923 yilgacha qog’oz pullar zarb qildirgan. 1924 yil BXSR tugatilishi arafasida Buxoro qog’oz pullarini bosib chiqarish ham to‘xtatilgan. Shu bilan Buxoro amirligi pul tizimi tarixi ham yakun topgan.

Buxoro amirligi tangalari va qog’oz pullari ancha ko‘p miqdorda saqlanib qolgan. Ular Buxoro davlat muzeyi, Ermitaj muzeyi va ba’zi xususiy kolleksiyalarga mavjud. Bu pullar o‘sha davr tarixi va siyosatini o‘rganish uchun muhim artefakt hisoblanadi. Qolaversa, davlat ramzlariga ega bo‘lgan ushbu nominallar O‘zbekiston davlatchilik va pul tizimi tarixining muhim qismidir.[29]

Turkistonning Rossiyaga qo‘shilishi natijasida, XX asrning boshlarida Turkistonda rus kredit biletlari, mahalliy veksellar, chervonetslar, turkbonlar muomalada bo‘lgan. 20-yillarning o‘rtalaridan boshlab yagona pul tizimi barpo qilinib, sobiq SSSR hududida rubl pul birligi sifatida qabul qilingan va mustaqillikkacha pul muomalasi shu pul birligida olib borilgan.

[29] M. Sobirov tayyorladi “Tilla, fuls, oq va qora tanga. Buxoro amirligi pul tizimi tarixi”

1991-yil 1-sentabrda O‘zbekiston mustaqilligining e’lon qilinishi to‘liq mustaqillikka erishish yo‘lidagi birinchi qadam edi. O‘zbekiston siyosiy mustaqillikdan iqtisodiy mustaqillikka o‘tishdan tortib, turmushning barcha sohalarida real mustaqillikni qo‘lga kiritishgacha bo‘lgan uzoq va murakkab yo‘lni bosib o‘tishi lozim edi. Ushbu maqsadlarga erishishda milliy valyutaning joriy etilishi muhim shartlardan biri bo‘ldi.

Sobiq ittifoq Respublikalari siyosiy mustaqillikka erishgach, rubl hududidan birdan chiqib keta olmadilar. Bu iqtisodiy jihatdan mumkin emas edi, chunki xo‘jalik aloqalari, odatda yillab yo‘lga qo‘yiladi va har qanday o‘zgarishlar muayyan vaqtni talab etadi.

O‘zbekiston mustaqilligining dastlabki kunlaridan o‘z milliy valyutasini muomalaga kiritishgacha bo‘lgan butun davr oralig’idagi iqtisodiy holat pul qadrsizlanishining nihoyatda yuqori darajasi, moliyaviy va iqtisodiy beqarorlik bilan xarakterlandi.

O‘zbekiston o‘zi olib ketayotgan qadrsizlangan qog’oz pullar o‘rniga jahon bozorida qiymati oltin bilan o‘lchanadigan paxta tolasi berishga majbur bo‘layotgan edi.

Respublikamiz rahbariyati tomonidan ichki iste’mol bozorini himoya qilish vazifasi qat’iy qilib qo‘yildi. O‘zbekistonga boshqa davlatlarda o‘z kuchini yo‘qotgan sovet pullari oqib kelishini oldini olish va O‘zbekiston iste’mol bozorini himoyalash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasida “Pul muomalasini tartibga solish va Respublika iste’mol bozorini himoyalashni kuchaytirish to‘g’risida” qaror[30] qabul qildi. Bu qaror asosida, aholining tovar sotib olishi va depozit operatsiyalarining bajarilishida pasport va kupon tizimi joriy etildi.

Milliy valyutani joriy etish ikki bosqichda olib borildi:

– **birinchi bosqich** 1993-yil noyabrdan 1994-yil iyungacha bo‘lgan davrni qamrab oldi.

– **ikkinchi bosqich** 1994-yil iyul oyigacha davom etdi. 1993-yil 15-noyabrdan boshlab 1992-yil namunasidagi, nominali 5.000 va 10.000 bo‘lgan rubllar muomaladan chiqarildi. Bu pullar faqat Jamg’armabank muassasalarigagina topshirilishi kerak edi. Shu bilan birga mazkur kupyuralarni bank muassasalarida qiymati pastroq bo‘lgan kupyuralarga

[30] Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Пул муомаласини тартибга солиш ва республика истеъмол бозорини ҳимоялашни кучайтириш тўғрисида”ги қарори. 1993 йил 5 май

almashtirish ta’qiqlandi.

1993-yil 15-noyabrda dastlabki oraliq “so‘m-kupon” valyutasi joriy etildi. Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 22-noyabrdagi “Iste’mol bozorini himoyalash va respublikada pul muomalasini mustahkamlashga doir qo‘shimcha chora – tadbirlar to‘g’risida”gi[31] qaroriga muvofiq 1993-yil 1-dekabrdan boshlab O‘zbekiston Respublikasi hududida SSSR Davlat bankining 1961-1962-yillar namunasidagi, qiymati 200, 500 va 1.000 rubl bo‘lgan pul biletlarini to‘lov vositasi sifatida qabul qilish to‘xtatiladi. Shu tarzda 1993-yilning dekabr oyida O‘zbekiston Respublikasi hududida quyidagi uch turdagi pul birligi momalada bo‘ldi:

1. So‘m-kuponlar;
2. SSSR Davlat bankining qiymati 100 rublgacha bo‘lgan kupyuralari;
3. Rossiya Davlat bankinining 1993-yil namunasidagi kupyuralari.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 122-moddasi va “O‘zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining asoslari to‘g’risida” gi qonunning 11-moddasi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1993-yil 3- sentyabrdagi 952-XI sonli qaroriga muvofiq 1994-yil 1-iyuldan boshlab O‘zbekiston Respublikasi hududida qonuniy to‘lov vositasi bo‘lgan milliy valyuta – “So‘m” muomalaga kiritildi.

Bank muassasalari tomonidan 1994-yil 1-iyul holatiga ko‘ra mulkchilik shaklidan qat’i nazar respublika hududida ro‘yxatga olingan yuridik shaxslarning hisob-kitob va joriy hisob varaqalaridagi barcha pul mablag’larini, shuningdek, inventarlash va buxgalterlik hisobi ma’lumotlari asosida 1000 so‘m-kupon - 1so‘m nisbatida barcha asosiy va aylanma fondlarning balans qiymati, boshqa moddiy boyliklar, debitorlik va kreditorlik qarzdorliklari, byudjetga qarzdorlik hamda bank balansi aktiv va passivlarining barcha qolgan moddalari, respublika va mahalliy byudjetlar mablag’lari qoldiqlari, shuningdek, tashkil topish manbalaridan qat’iy nazar byudjetdan tashqari fondlar mablag’larini qayta hisoblab chiqish bo‘yicha ishlar olib borildi.

Bozor iqtisodiyoti tizimidagi mamlakatlarda monetar siyosatni to‘g’ri amalga oshirish avvalo shu mamlakat pul tizimi barqarorligiga erishilishiga va natijada esa umum iqtisodiy barqarorlik darajasiga erishishga sabab

[31] Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Истеъмол бозорини ҳимоялаш ва республикада пул муомаласини мустахкамлашга доир қўшимча чора – тадбирлар тўгрисида”ги қарори. 1993 йил 22 ноябр

bo‘ladi. Davlatning monetar siyosati mohiyati jihatidan ham, maqsadi va vazifalari jihatdan ham turli davlatlarda farq qiladi. Har qanday davlatda ham monetar siyosatni boshqaruv paketi davlat qo‘lida bo‘lgan, ya’ni, davlat banki bo‘lgan markaziy banklar amalga oshiradi. Barcha davlatlarda, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasida ham Markaziy bank to‘g’risida Qonun qabul qilingan va unda Markaziy bankning maqsadi va vazifalari belgilab berilgan. “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bank to‘g’risida”gi Qonunda **Markaziy bankning bosh maqsadi** qilib milliy valyuta barqarorligini ta’minlash qilib belgilangan.

Markaziy bank pul barqarorligini ta’minlash uchun mamlakat pul tizimiga (mavjud % stavkalariga, valyuta kurslariga va boshqalarga) ta’sir etish uchun bir qancha tadbirlarni amalga oshiradi. Ushbu tadbirlar majmuasi ***Markaziy bankning monetar siyosati*** deb aytiladi.

Monetar siyosatning asosiy maqsadi milliy valyuta barqarorligini ta’minlash, valyuta kursi va % stavkalarini oqilona o‘rnatish asosida infilyatsiya suratlarini kamaytirish, kreditdan foydalanishni samaradorligini oshirish va iqtisodiyotni barqaror o‘sishini ta’minlashdan iboratdir.

Monetar siyosat bevosita va bilvosita usullar bilan amalga oshirilishi mumkin. Bevosita usullar asosan ma’muriy usullar hisoblanib, unda Markaziy bank mamlakatda bank faoliyatini tegishli miqdor va sifat ko‘rsatkichlariga limitlar o‘rnatadi, aksincha bilvosita, ya’ni, iqtisodiy usullarda esa kredit institutlari likvidligi orqali iqtisodiyotga ta’sir o‘tkazadi. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan mamlakatlar uchun ko‘proq bilvosita usullardan keng foydalaniladi.

Monetar siyosatning bilvosita usullaridan foydalanish ma’lum dastaklar orqali amalga oshiriladi. Jahon markaziy banki amaliyotida eng ko‘p qo‘llaniladigan monetar siyosat dastaklariga quyidagilar kiradi:

- ❖ Diskont (hisob) va garov siyosati;
- ❖ Majburiy zaxiralar siyosati;
- ❖ Ochiq bozor siyosati;
- ❖ Valyuta siyosati;
- ❖ Taregetlash.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki mustaqil pul-kredit siyosati yuritish imkoniyatiga ega bo‘lgan bankdir va u faqat parlament organiga hisobot beradi.

Markaziy bank monetar siyosat bo‘yicha o‘z faoliyatini har yil qabul

qilinadigan ushbu siyosatning asosiy yo‘nalishlari doirasida olib boradi. Ushbu yo‘nalishlarda bir yil muddat uchun belgilaniladigan zarur chora-tadbirlar aniqlab olinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki milliy valyuta hisoblangan “So‘m”ni muomalaga kiritilgan dastlabki yillardanoq uning barqarorligini ta’minlash maqsadida tegishli monetar siyosat instrumentlaridan keng foydalana boshlagan.

Markaziy bankning qayta moliyalash siyosati o‘tgan yillar mobaynida eng ko‘p qo‘llanilgan instrument hisoblanadi. Qayta moliyalash stavkasida Markaziy bank infilyatsiyaga qarshi kurashdagi eng asosiy vazifa sifatida foydalanib kelmoqda. Milliy valyuta kiritilgan kundan boshlab to hozirgi davrgacha Markaziy bank qayta moliyalashtirish stavkasini yiliga bir necha marta o‘zgartirganini kuzatish mumkin. Dastlabki yillarda qayta moliyalash stavkasi ancha yuqori bo‘lgan bo‘lsa-da, u pasayish tendensiyasiga ega bo‘lib kelmoqda.

Infilyatsiyaga qarshi kurashishda qo‘llaniladigan yana bir muhim instrument Markaziy bankning majburiy zaxira talablari bo‘lib, ushbu dastakdan, 1992-yildan foydalanib kelinmoqda. Majburiy zaxira talablari ham xuddi majburiy zaxira talablari kabi yillar bo‘yicha pasayish tendensiyasiga ega bo‘ldi. 1993-yildan tijorat banklari talab qilib olinguncha va 3 yildan ortiq bo‘lmagan muddatli depozitlarning 30%ni Markaziy bankka zaxira sifatida o‘tkazish shart bo‘lgan bo‘lsa, 2005-yil fevralidan e’tiboran esa ushbu majburiyat 15 % tushirildi. Albatta bu siyosat tijorat banklar kredit resurslarini ko‘payishiga va iqtisodiyotni kreditlash hajmini oshishiga olib keladi.

Pul massasini tartibga solishda Markaziy bankning ochiq bozordagi operatsiyalari ham muhim. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ochiq bozorda asosan davlat qisqa muddatli obligatsiyalari va o‘z obligatsiyalaridan foydalanadi.

O‘zbekistonning mustaqil pul tizimi tashkil topishining bosqichlari haqida stavkalariga ta’sir ko‘rsatuvchi **bozor instrumentlari**, shu jumladan, Markaziy bank obligatsiyalari, overnayt depozitlar, doimiy turdagi depozit auksionlari, davlat qimmatli qog’ozlari va xorijiy valyuta garovi ostida kredit auksionlari va overnayt kreditlarini qo‘llash choralari”ni ko‘rish

belgilangan[32]

Asosiy tushunchalar:

Pul tizimi, monometallizm, bimetallizm, pul birligi, baholar masshtabi, pul belgilari, emissiya tizimi, emitent bank milliy valyuta, baho masshtabi, valyuta tizimi, valyuta kursi, valyuta pariteti, pul tizimi, pul birligi, pul massasi, pul aylanmasi, to‘lov vositasi, xalqaro hisob-kitoblar, emissiya mexanizmi

Mavzuni mustahkamlovchi savollar

1. Pul tizimi deb nimaga aytiladi?
2. Metall tangalar muomalada bo‘lgan pul tizimida tangalar necha xil metallardan zarb qilingan?
3. Kredit va qog’oz pullar muomalada bo‘lgan pul tizimi davrida nima o‘zgargan?
4. Pul tizimining tarkibiy qismlari nimalardan iborat?
5. Pul birligi deb nimaga aytiladi?
6. Baholar masshtabi nima sababdan o‘z iqtisodiy mohiyatini yo‘qotgan?
7. To‘lov kuchiga ega bo‘lgan pul belgilariga nimalar kiradi?
8. Agar tangalar faqat bir xil metalldan, ya’ni, oltin yoki kumushdan zarb qilinsa qanday pul tizimi deyiladi?
9. Agar tangalar ikki va undan ortiq metalldan zarb qilinsa qanday pul tizimi deyiladi?
10. Monometall pul tizimida qanday tangalar muomalada bo‘ladi?
11. Bimetall pul tizimida qanday tangalar muomalada bo‘ladi?
12. Pul tizimi va uning elementlari
13. Emissiya tizimi deb nimaga aytiladi va u bilan kim shug’ullanadi?
14. O‘zbekiston Respublikasida pul tizimi necha bosqichdan iborat?
15. Markaziy bank emissiya siyosatini amalga oshirishga ko‘maklashadigan qanday korxonalar faoliyat yuritadi?
16. To‘xtalib o‘ting.
17. Milliy valyutani joriy etishdagi muammolar.

[32]Инфляцион таргетлаш режимига босқичма-босқич ўтиш орқали пул-кредит сиёсатини такомиллаштириш тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони Тошкент ш. 2019 йил 18 ноябр

18. O‘zbekiston Respublikasi pul tizimining subyektlari va ularning vazifalari haqida nimalarni bilasiz?
19. Pul tizimi barqarorligini ta’minlash yo‘llari deganda nimani tushunasiz?
20. Jahon markaziy banki amaliyotida eng ko‘p qo‘llaniladigan monetar siyosat dastaklari haqida gapirib bering.

VIII BOB. INFLYATSIYA VA UNGA QARSHI KURASHISH YO‘LLARI

8.1. Inflyatsiyaning mohiyati va uning kelib chiqish sabablari.

8.2. Inflyatsiyaning oqibatlari, uning aholi turmush darajasiga, iqtisodiyotga va bank tizimiga ta’siri.

8.3. Inflyatsiyaga qarshi kurashish siyosati.

8.1.Inflyatsiyaning mohiyati va uning kelib chiqish sabablari

Inflyasiya (lotincha inflatio - shishish, bo‘rtish, taranglashish) – ma’lum davr mobaynida mamlakatda baholar o‘rtacha (umumiy) darajasining barqaror o‘sishi, pulning xarid qobiliyatini uzoq muddatli pasayishidir.

Deflyatsiya – bu inflyatsiyaga teskari bo‘lgan jarayon bo‘lib, u pulning xarid qobiliyatini ortishida o‘z aksini topadi.

Dezinflyatsiya – bu inflyatsiya sur’atlarining pasayishidir.

Inflyasiya bozor iqtisodiyotining asosiy izdan chiqaruvchi omillari jumlasiga kiradi, uning sur’ati qanchalik yuqori bo‘lsa, iqtisodiyotga xavfli ta’siri shunchalik katta bo‘ladi. Ayniqsa, bir iqtisodiy tizimdan ikkinchi bir iqtisodiy tizimga o‘tayotgan mamlakatlarda inflyatsiyaning iqtisodiyotga ta’siri ancha xavfli. Chunki, bu davr narxlarning erkinlashuvi va shunga muvofiq ularning umumiy darajasi keskin oshib ketishi bilan bog’liq.

Inflyatsiya sharoitida quyidagilar ro‘y beradi:

- muomalada keragidan ortiqcha pul paydo bo‘ladi;
- tovarlar bahosi va xizmatlar haqi to‘xtovsiz o‘sib boradi;
- pulning qadr – qiymati va xarid qobiliyati pasayib boradi;
- pul qadrsizlanadi, obro‘sizlanadi, «kasallanadi».

“Inflyatsiya” atamasi ilk bor Shimoliy Amerikada 1861-1865 yillardagi Fuqarolar urushi davrida qo‘llanildi. Inflyatsiya atamasi muomaladagi qog’oz pul massasining tovarlarning real taklifiga nisbatan haddan ziyod ko‘payib ketishi holatini izohlagan. Ammo inflyatsiyaning bunday tavsifi mukammal emas va uning sabablarini ochib bermaydi.

Inflyatsiya nafaqat pul muomalasining izdan chiqishi, balki butun takror ishlab chiqarish mexanizmining buzilishi, makroiqtisodiy nomutanosibliklar natijasidir. Baholarning o‘sishidan tashqari inflyatsiya yana quyidagilarda

namoyon boʻladi:

- valyuta kurslarining oʻzgarishi;
- kredit berish shartlarining qimmatlashuvi va muddatlarining qisqarishi;
- kundalik hayotiy ehtiyoj mollaridan iborat iste'mol savati bahosining oʻsishi.
- Inflyatsiyani aniqlashda quyidagi koʻrsatkichlardan foydalaniladi:
- YaIM deflyatori;
- iste'mol narxlar indeksi;
- ulgurji narxlar indeksi.

Inflyatsiyani miqdoran oʻlchash uchun makroiqtisodiyotda «70-miqdor qoidasi» deb atalgan usuldan ham foydalaniladi. Bu usul inflyatsiya sharoitida narxlarning oʻrtacha darajasi necha yilda ikki baravarga oshishini aniqlash imkonini beradi. Buning uchun 70 ni yillik inflyatsiya darajasiga boʻlish kifoya.

Misol uchun, yillik inflyatsiya darajasi 7 % ga teng boʻlsa, taxminan 10 yilda baholar ikki martaga oshadi, ya'ni, (70:7 = 10).

Inflyatsiyani quyidagi sabablar keltirib chiqaradi:

1. Davlat oʻz xarajatlarini oʻz daromadlari hisobidan qoplay olmay qolgan sharoitda, muomalaga qoʻshimcha pul chiqarish hisobidan qoplaydi. Natijada muomalada tovar va xizmatlar bilan ta'minlanmagan pul paydo boʻladi, bu esa oʻz navbatida pulning qadrsizlanishiga olib keladi.
2. Ishlabchiqarishning qisqarishi. Ishlab chiqarish pasayganda muomaladagi pul kamaymaydi, tovarlar miqdori esa kamayadi, natijada narx oshadi, pul qadri pasayadi.
3. Mamlakatda chetdan keltirilgan (import) tovarlar narxining koʻtarilishi. Bu oʻz navbatida mamlakatda ishlab chiqarilgan oʻxshash va oʻrinbosar tovarlar narxini oshiradi.
4. Kreditning haddan tashqari rivojlanib ketishi. Moddiy ne'matlar yaratish bilan bog'liq boʻlmagan sohalarga berilgan kreditlarning tez sur'atlar bilan oʻsishi muomaladagi pul massasining koʻpayishiga olib keladi.
5. Pulga nisbatan xalq ishonchining yoʻqolishi, bozorda talabga javob bermaydigan tovarlarning koʻpayib ketishi, mamlakat

to‘lov balansi holati va boshqalar.

Keynschilar inflyatsiyaning sababi to‘liq bandlik sharoitida yalpi talabning o‘sishidan iborat deb bilishadi. Shu sababli ular iqtisodiy inqiroz sharoitida qo‘shimcha pul emissiyasi hisobiga yalpi talabni ko‘paytirish inflyatsiyaga olib kelmaydi deb hisoblashadi.

Neoklassik yondashuvga binoan inflyatsiyaning sababi ishlab chiqarish xarajatlarining ko‘payishidan iborat.

Demak, keynschilar inflyatsiyaga talab tomonidan, neoklassiklar esa taklif tomonidan yondashishadi.

8.2. Inflyatsiyaning oqibatlari, uning aholi turmush darajasiga, iqtisodiyotga va bank tizimiga ta’siri

Inflyatsiyaning kelib chiqish sabablariga ko‘ra uning ikki toifasini ko‘rsatish mumkin**:**

- **TALAB INFLYATSIYASI**
- **TAKLIF (**Ishlab chiqarish bilan bog`liq) **INFLYATSIYA**

Talab inflyatsiyasi - bu yalpi talabning yalpi taklifga nisbatan yuqori sur’atlarda o‘sishi tufayli narxlarning oshishidir.

Talab inflyasiyaning yuzaga kelish sabablari quyidagilardan iborat:

a) harbiy xarajatlarning o‘sishi va iqtisodiyotning militarlashuvi.

Harbiy texnika sotib olish va boshqa harbiy xarajatlarni qoplash bilan bog’liq bo‘lgan jarayonlar muomala uchun keragidan ortiqcha pul chiqarishning omili hisoblanadi;

b) davlat qarzlarining o‘sishi va byudjet taqchilligining mavjudligi.

Byudjet taqchilligi, odatda, zayomlar chiqarish yoki banknotalarni emissiya qilish yo‘li bilan qoplanadi. Bu, o‘z navbatida, qo‘shimcha muomala vositalari bo‘lishiga, qo‘shimcha talab yuzaga kelishiga olib keladi. O‘zbekistonda byudjet taqchilligi yuqoridagidan tashqari, 1996-yildan boshlab davlat qisqa muddatli majburiyatlarini (DQMO) sotish orqali ham qoplanmoqda;

v) xalq xo‘jaligiga ortiqcha kreditlar berish natijasida muomalada kredit bilan bog’liq muomala vositalari yuzaga keladi. Bular tovar va xizmatlarga bo‘lgan talabni oshiradi.

g) chet el valyutasining mamlakatga kirib kelishi va uning milliy valyutaga almashinuvi natijasida, muomalada pul massasi ortib boradi,

milliy pulga nisbatan chet el valyutasining qadri oshadi;

d) xalq xo‘jaligining yetakchi tarmoqlarini keragidan ortiqcha investitsiyalash ham aylanmaga qo‘shimcha pul ekvivalentlarini chiqarishga olib keladi.

Shunday qilib, talab inflyatsiyasi umumiy talabning o‘sishi natijasida baholar o‘sishi bilan namoyon bo‘ladi.

Ishlab chiqarish bilan bog’liq (taklif) inflyatsiya

Taklif inflyatsiyasi – ishlab chiqarish xarajatlari oshishi hisobiga yalpi taklifning qisqarishi va narxlarning oshishidir.

Bu inflyatsiyaning sabablari quyidagilar bo‘lishi mumkin:

a) har xil jarayonlar va tarkibiy o‘zgarishlar tufayli mehnat unumdorligining pasayishi natijasida mahsulot ishlab chiqarishga ketgan xarajatlar oshadi. Umuman, xalq xo‘jaligi bo‘yicha ishlab chiqarish hajmi, binobarin, tovarlar bo‘yicha taklif qisqaradi va tovarlar bahosi oshadi. Korxonalarning foyda hajmi qisqaradi.

b) har xil yangi xizmat turlari paydo bo‘ladi, kam mehnat unumdorligida yuqori ish haqi olishga imkoniyat tug’iladi. Natijada tovar va xizmatlarga bo‘lgan baho oshib boradi.

v) aholini ijtimoiy jihatdan himoyalash maqsadida ish haqining oshishi, tovarlar bahosining oshishiga olib keladi va yana ish haqi oshadi va h.k. Bu zanjir uzluksiz davom qilish mumkin.

Narxlarning o‘sish sur’atlariga ko‘ra inflyatsiyaning quyidagi turlari farqlanadi:

- **me’yordagi (yoki sudraluvchi) inflyatsiya** – bunda narxlarning umumiy darajasi yiliga 10% gacha o‘sadi;
- **o‘rmalovchi inflyatsiya** - bunda narxlarning umumiy darajasi yiliga 10-100% ga o‘sadi;
- **yuqori inflyatsiya** - bunda narxlarning umumiy darajasi yiliga 100-1000% ga o‘sadi;
- **giperinflyatsiya** - bunda narxlarning umumiy darajasi yiliga 1000% dan yuqori o‘sadi;

Namoyon bo‘lish shakliga ko‘ra inflyatsiya 2 xil bo‘ladi:

- **ochiq inflyatsiya** – ushbu inflyasiya narxlarning o‘sishida namoyon bo‘ladi;
- **yashirin inflyatsiya** – ushbu inflyatsiya tovarlarning defitsitida,

kamomatida namoyon bo‘ladi;

Shuningdek, kutilgan va kutilmagan inflyatsiyalarni ham bir-biridan farqlash kerak:

- **kutilgan inflyatsiya** – istiqbolli rejalarni tuzishda inobatga olingan inflyatsiya sur’atlari. Inflyatsiyaning bu turiga aholi oldindan tayyorgarlik ko‘radi;
- **kutilmagan inflyatsiya** – bu narxlarning o‘sish sur’atlarini kutilgan inflyatsiya darajasidan yuqori bo‘lishidir.

Rivojlangan mamlakatlarda inflyatsiyaning sharoit va omillari har xilligini hisobga olib uni quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin.

Birinchi guruhga rivojlanayotgan Lotin Amerikasi mamlakatlari - Argentina, Braziliya, Peru kabilar kiradi. Bu davlatlarda surunkali davlat byudjeti taqchilligi, iqtisodiy muvozanatning yo‘qligi, asosiy va aylanma mablag’lar qiymatining doimo indeksatsiya qilinishi, milliy valyuta kursining chet el valyutasiga nisbatan tushib borishi pul qadrsizlanishining omillari hisoblanadi.

Argentina, Chili kabi mamlakatlarda inflyatsiya pul qadrini yemirib tashlashi natijasida biror tovarni sotib olish uchun bir necha million pul birligi zarur bo‘lgan.

1983-yilning iyunigacha, ya’ni, muomalada eski peso bo‘lganda, Argentinada bir juft tufli yetti million peso, yengil mashina sotib olish uchun bir necha milliard peso kerak bo‘lgan.

Bu hol hisob-kitoblarni olib borishda, pul muomalasida juda katta qiyinchilik tug’dirgan. Bir necha marta o‘tkazilgan denominatsiyalar pul qadrsizlanishini to‘xtatishga asos bo‘la olmagan. Lotin Amerikasi mamlakatlarida bo‘lgan inflyatsiya darajasini baholar indeksidan ham ko‘rish mumkin. Bu mamlakatlarda baholar indekslari bir necha sonlardan iborat bo‘lgan. Masalan, Chilida 1971-1984 yillarda baholar indeksi 842162 yoki bu ko‘rsatkich shu yillarda baholar 8,4 ming marta oshganini, Argentina uchun shu indeks 436432250, bu baholar 436 ming marta oshganini bildiradi. 1990-yilda Nikaraguada tovarlar bahosi 8500%, Peruda - 8291,5%, Braziliyada - 2359,9% ga oshgan.

Ikkinchi guruh mamlakatlar – Kolumbiya, Ekvador, Venesuela, Eron, Suriya kabi mamlakatlarda ham iqtisodiy muvozanatning yo‘qligi, moliyaviy siyosatdagi kamchiliklar - taqchillikni moliyalashtirish, xalq

xo‘jaligiga ko‘p kreditlar ajratish inflyatsiyaning mavjud bo‘lishini ta’minlamoqda. Bu mamlakatlarda inflyatsiya shiddatli xarakterga ega bo‘lib, baholarning yillik o‘sishi 30-40% atrofida, ba’zida undan yuqori bo‘ladi. Inflyatsiya sur’atiga qarab jamg’armalar, to‘lovlar bo‘yicha indeksatsiya o‘tkazib boriladi, ishsizlik oshib boradi.

Uchinchi guruhga Hindiston, Indoneziya, Pokiston, Tailand, Filippin kabi mamlakatlar kiradi. Bu mamlakatlarda cheklangan iqtisodiy muvozanat mavjud bo‘lib, eksportdan valyuta tushumi ancha yuqori. Yillik inflyatsiya sur’ati 5-20% atrofida va qisman indeksatsiya o‘tkazilib turiladi.

To‘rtinchi guruh davlatlar – Singapur, Malayziya, Janubiy Koreya, Bahrayn, Arabistonda – iqtisodiy muvozanatning mavjudligi inflyatsiya sur’atlarining sustligini ko‘rsatadi. Bu mamlakatlardagi inflyatsiya 2-6%ni tashkil qiladi va buni sudraluvchi inflyatsiya deb atash mumkin.

Bu mamlakatlarda tovarlar va xizmatlar bahosi oshishi ustidan qattiq nazorat olib boriladi. Ishsizlik boshqa mamlakatlarga nisbatan kam, iqtisodiyoti rivojlangan bozor sharoitida boshqariladi. Eksport hajmi va chet el valyutasi tushumining yuqoriligi, inflyatsiyaning oldini olishda muhim ahamiyatga ega omil hisoblanadi.

8.3. Inflyatsiyaga qarshi kurashish siyosati

Inflyatsiya iqtisodiyotni izdan chiqaradi va turli salbiy oqibatlarga olib keladi.

Inflyatsiya jamiyatning rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi:

– ishlab chiqarish hajmi tushib ketadi va baholarning oshib borishi ishlab chiqarish istiqbollariga to‘g’onoq bo‘ladi.

– kapitalning asosiy qismi ishlab chiqarishdan savdo (muomala) sohasiga, vositachilik sohasiga oqib o‘tadi. Chunki ishlab chiqarishdan ko‘ra, savdo sohasidagi kapital tezroq va ko‘proq foyda keltiradi;

– baholarning o‘zgarib turishi olibsotarlikni rivojlantiradi, arzon vaqtida olib, qimmat bo‘lganda sotish jarayoni, tovar zaxiralarini yashirish jarayonlari avj oladi;

– kredit berish jarayonlari cheklangan bo‘ladi. Qarz oluvchilar ko‘payadi-yu, qarz beruvchilar soni qisqaradi, chunki qarz bergan yutqazishi mumkin;

– davlatning moliya resurslari qadrsizlanadi va h.k.

Inflyatsiya kishilarda qo‘rquv va sarosima uyg’otadi. Ishlab chiqarishga pul sarflash xatarli ishga aylanadi, negaki sarflangan pul egasiga qaytib kelgunicha o‘z qadrini yo‘qotib qo‘yadi.

Inflyatsiya sharoitida qarz bergan yutqazadi, qarz olgan esa yutadi. Bu ishlab chiqarishga qo‘yish uchun pul topishni qiyinlashtiradi, chunki qarz berib yutqazgandan ko‘ra, uni boshqa yo‘lda ishlatish ma’qul ko‘riladi.

Inflyatsiya natijasida pul jamg’armalari keskin qadrsizlanadi, pulga tenglashtirilgan qimmatli qog’ozlar – sug’urta polislari, aksiyalar, obligatsiyalar, cheklar, sertifikatlar va boshqalarning real qiymati ham pasayib ketadi.

Qat’iy daromadga, ya’ni, pensiya, stipendiya, nafaqa va belgilangan ish haqiga yashovchilar turmushi yomonlashadi, hatto ular qashshoqlashib boradi. Narx osha borgan holda pul daromadlarining oshmasligi yoki narxga nisbatan sekinroq oshib borishi, tovarlarni oldingidan ozroq iste’mol etilishiga olib keladi.

Iqtisodiyotda ishlab chiqarishning stixiyaliligi kuchayadi, tarmoqlar o‘rtasida mutanosiblik buziladi. Pul mablag’lari ishlab chiqarish sohasidan muomala (savdo) sohasiga oqib o‘tadi.

Savdo-sotiq ham izdan chiqadi, sababi turli hududlarda baholarning turlicha bo‘lishi tovarlar normal harakatini buzadi. Ularning bozordan bozorga ko‘chib yurishiga olib keladi. Olib sotarlikka keng yo‘l ochiladi. Baholarning o‘sib borishi tufayli tovarlarni ko‘plab sotib olib, saqlab, so‘ng qimmatga sotish avj oladi.

Pul egalari qadrsizlanayotgan puldan qutilish maqsadida o‘zlariga kerak bo‘lgan va kerak bo‘lmagan, to‘g’ri kelgan tovarlarni sotib ola boshlaydilar. **Tovarlar taqchilligi** paydo bo‘ladi. Pulga o‘z qadrini yo‘qotmaydigan mol-mulk (yer, uy, inshootlar), kelajakda yaxshi mulk bo‘lib qoladigan osoriatiqa(antikvar)lar va noyob buyumlar (qadimiy san’at asarlari, kitoblar, qo‘lyozmalar), nodir metallar va qimmatbaho toshlar, shuningdek, barqaror valyutalar (AQSh dollari, YeVRO va boshqalarni) sotib olish ommaviy tus oladi.

Inflyatsiya bank tizimini ham chetlab o‘tmaydi. Bank imkoniyatlari qadrsizlanadi. Uzoq muddatli qarz berishga barham beriladi, chunki qadrli pullarda berilgan kreditlar ma’lum muddatlardan so‘ng qadrsizlangan pullarda qaytariladi. Bank krediti uchun to‘lanadigan foizlar o‘sib boradi. Aholining bank tizimiga bo‘lgan ishonchi yo‘qoladi va bankka o‘z

jamg’armalarini omonatlar sifatida qo‘yish deyarli to‘xtaydi. Xo‘jaliklar o‘rtasidagi hisob - kitoblar ham ma’lum darajada chigallashadi.

Inflyatsiyani tizginlash va oxir – oqibatda to‘xtatish hamda pul muomalasini barqarorlashtirish maqsadida quyidagi chora - tadbirlar ko‘rilishi mumkin:

1. Mamlakatda pul islohotini o‘tkazish.
2. Inflyatsiya jarayonining davlat tomonidan boshqarib borilishi.

Mamlakatda pul muomalasini tartibga solish va mustahkamlash maqsadida davlat tomonidan pul tizimining to‘la yoki qisman o‘zgartirilishi **pul islohoti** deyiladi. Pul islohotlari mamlakat iqtisodiyoti va pulning qadrsizlanish darajasiga qarab turli usullarda o‘tkazilishi mumkin. Masalan, 1991-yilda SSSR parchalanib ketgandan so‘ng, sobiq ittifoqdosh respublikalar mustaqil davlatlarga aylandilar. Ularning barchasi pul islohotlarini o‘tkazdilar va o‘z milliy pul birliklarini muomalaga kiritdilar.

O‘zbekistonda ham 1993 –1994-yillarda pul islohoti o‘tkazildi va 1994-yil 1- iyulidan e’tiboran muomalaga milliy valyuta «so‘m» kiritildi.

Inflyatsiya jarayonini davlat tomonidan boshqarib borishda quyidagilar amalga oshiriladi:

- **ishlab chiqarishni jonlantirish**. Tovarlar va xizmatlar ko‘p yaratilsa, ortiqcha pullarning tashnaligi qondiriladi, narx-navo va pul qadri barqarorlashadi. Ishlab chiqarishni rag’batlantirish maqsadida soliqlar kamaytiriladi, ishlab chiqarishga arzon kreditlar beriladi, tadbirkorlarga byudjetdan yordam ko‘paytiriladi, eksport va import bo‘yicha imtiyozlar joriy etiladi va boshqalar;

- **pul massasi ortishini cheklash va to‘xtatish, muomaladagi pul miqdorini kamaytirish.** Shu maqsadda aholining pul daromadlari - ish haqi, nafaqa, pensiya va boshqalarning o‘sishi cheklanadi yoki to‘xtatiladi, ortiqcha pul mablag’larini banklarga jalb qilish maqsadida omonatlarga to‘lanadigan foizlar oshiriladi. Pul emissiyasi jiddiy cheklanadi yoki umuman to‘xtatiladi.

O‘zbekistonda 2023-yil yakuniga ko‘ra 8,77 foizli inflyatsiya qayd etildi, bu 2016-yildan beri eng past ko‘rsatkich sanaladi. Yil davomida guruch 38,7%, go‘sht 9,3%, sut 13,3%, tuxum 11,7%, shakar 11% ga qimmatladi. Benzin narxi 19,1%, propan narxi esa 29,4% ga oshdi.

Statistika agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, so‘nggi oyda oziq-ovqat

mahsulotlari o‘rtacha 1,3 foizga (besh yil ichidagi minimum), nooziq-ovqat mahsulotlari esa 1 foizga, xizmatlar 1,5 foizga qimmatlagan (avvalgi besh yildagiga nisbatan ko‘proq). 8.1-rasm



8.1-rasm. 2019-2023 yillar dekabr nisbattan infilyactiy suratlari.[33]

2023-yilda (yanvar-dekabr uchun) inflyatsiya 8,77 foizgacha tushdi — bu 2016-yildan beri eng past ko‘rsatkich hisoblanadi (5,7 foiz). Yil davomida oziq-ovqat mahsulotlari o‘rtacha 9,7 foizga (besh yil ichidagi minimum), nooziq-ovqat mahsulotlari 7,7 foizga, xizmatlar esa 8,7 foizga qimmatladi.

Yillik hisobda pul o‘tkazmalari bo‘yicha xizmatlar narxi 9,8 foizga, ilovalar orqali pul o‘tkazmalari 7 foizga, bank xizmatlari esa 7,9 foizga oshganini alohida ta’kidlab o‘tish lozim.

Asosiy tushunchalar:

Inflyatsiya, talab inflyatsiyasi, taklif inflyatsiyasi, o‘rmalovchi inflyatsiya, suzuvchi inflyatsiya, yuguruvchi inflyatsiya, tovarlar taqchilligi, pul islohoti, valyuta kurslari, pul massasi, ishlab chiqarishni, pul muomalasini, turli usullar.

[33] Statistika agentligi ma’lumotlari

Mavzuni mustahkamlovchi savollar

1. Inflyatsiya so‘zi qanday ma’noni anglatadi?
2. Inflyatsiya sharoitida nimalar ro‘y beradi?
3. Inflyatsiyani qaysi sabablar keltirib chiqaradi?
4. Inflyatsiya qanday turlardan iborat?
5. Inflyatsiya oqibatida nimalar sodir bo‘ladi?
6. Inflyatsiyani tizginlash borasida qanday ishlar amalga oshiriladi?
7. O‘zbekistonda inflyatsiya ko‘rsatkichi darajasi qancha % ni tashkil etmoqda?
8.Yurtimizda inflyasiya darajasining keskin pasayish omillari qanday iqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘sishiga ta’sir ko‘rsatmoqda?
9. Inflyatsiya jarayonini davlat tomonidan boshqarib borishda nimalar amalga oshiriladi?
10. Mamlakatda pul islohotini o‘tkazish deganda nimani tushunasiz?

IX PUL ISLOHOTLARI, PUL ISLOHOTLARINI AMALGA OSHIRISH ZARURATI

9.1. Pul islohotlarini haqida tushuncha va uni amalga oshirishning zarurligi

9.2. Pul islohotlarini amalga oshirishning sabablari.

9.3. O‘zbekistonda pul islohotlarini amalga oshirish tartibi.

9.1. Pul islohotlarini haqida tushuncha va uni amalga oshirishning zarurligi

Pul islohotlari - milliy valyutani mustahkamlash, pul birligini barqarorlashtirish va pul muomalasini tartibga solish maqsadida davlat tomonidan mamlakat pul tizimini to‘liq yoki qisman qayta tashkil etish. Pul islohotlari qog’oz pul belgilarining hammasi yoki bir qismi qadrsizlanganda va ularning hajmi ko‘payib, yangisi (qog’oz yoki metall) bilan almashtirish lozim bo‘lganda, pulning oltin qiymati yoki valyuta kursi o‘zgarganda, pul tizimiga o‘zgartish kiritish zarur bo‘lganda o‘tkaziladi.

Pul islohotlari mamlakatdagi iqtisodiy holatga, pulning qadrsizlanish darajasiga va davlatning siyosatiga bog’liq holda turli usullarda:

- ortiqcha qog’oz pullarni yo‘q qilish bilan pul hajmini kamaytirish (deflyatsiya);
- eski pul belgilarini yo‘q qilib, yangi qog’oz pul belgilarini zarur miqdorda chiqarish (nullifikatsiya);
- eski pul belgilarini yirikroq yangi pul belgilariga almashtirish (denominatsiya); pul birligi yoki qog’oz pul birligi kursining metall qiymati va chet el valyutasiga nisbatan kursini pasaytirish (devalvatsiya);
- pul birligidagi metall qiymati yoki qog’oz pul kursini tashqi davlatlar valyutasiga nisbatan oshirish (revalvatsiya) va boshqa shakllarda amalga oshiriladi.

Hozirgi Markaziy Osiyo hududlarida muhim pul islohotlari Amir Temur hukmronlik qilgan davrdan boshlangan. Uning tashabbusi bilan o‘sha davrgacha muomalada bo‘lgan mayda mis tangalar o‘rniga sifat va hajm jihatdan bir necha marta ortiq bo‘lgan, yirik qiymatga ega oltin va kumush tangalar zarb etila boshlagan. Amir Temur tasarrufida bir necha zarbxonalar bo‘lganligi va ularda zarb etilgan tangalar Yevropada ham mashhur

bo‘lganligi haqida ko‘p ma’lumotlar bor. Birgina G’arbiy Eron va Ozarbayjonda Amir Temurning nomi bitilgan 120 turdan ortiq oltin va kumush tangalar muomalaga kiritilgan. Mirzo Ulug’bek tomonidan 1428-yilda amalga oshirilgan pul islohotlarida ilgari zarb etilgan mis tangalarning muomalada bo‘lishi taqiqlangan. Bir qator shaharlarda — Buxoro, Samarqand, Toshkent, Shohruxiya, Andijon, Qarshi va Termizda yangi tangalar zarb etila boshlagan. Eski tangalarni yangi tangalarga almashtirish tugallangandan keyin, faqat Buxorodagi zarbxona faoliyati saqlab qolinib, qolganlari yopilgan.

Shayboniylar davrida ham tangalar zarb qilishda yangilik kiritilgan. Oldingi hukmdorlar tomonidan zarb etilgan tangalardagi yozuvlar ustiga yangi tamg’alar zarb qilinib, muomalaga chiqarilgan. Bu davrda asosan, dinor nomi bilan yuritilgan juda ko‘p miqdordagi mis tangalar va vazni 3 gramm bo‘lgan kumush tangalar muomalada bo‘lgan.

XIX asrning boshlaridan Buxoro amirligida vazni 4,5 grammlik "tillo" nomi (oltin) bilan tangalar zarb etilgan. Kumushdan ishlangan tanga deb ataluvchi pul birliklari 1920-yilga qadar muomalada yurgan. Buxoro amirligida 1918-yildan boshlab muomalaga nominali 20, 60, 100, 200, 300, 500, 1000, 2000, 3000, 5000 va 10000 tangalik qog’oz pullar chiqarilgan. 1921-yillarda Buxoro Xalq banki muomalaga yangi, nominali rublda ko‘rsatilgan qog’oz pullarni chiqara boshladi. Bu pullar 3000, 10000 va 20000 rubl nominaliga ega bo‘lgan. 1922-yilda Buxoro Xalq banki tomonidan denominatsiya amalga oshirilib, pulning nominali yuzlab marta kamaytirilgan va 1, 5, 10, 25, 100 rubllik yangi pullar muomalaga chiqarildi. Ammo ko‘p o‘tmasdan, kuchli inflyatsiya natijasida past nominaldagi pul belgilari bozor ehtiyojlarini qondira olmadi va 1000, 2500, 5000 rubllik pullar bosib chiqarildi. 1920-21 yillarda Xorazm Sovet Xalq Respublikasi (XSXR) tomonidan muomalaga 250, 500, 750, 1000, 2000, 5000 va 10000 rubl nominalida ipakdan qo‘lda to‘qilgan maxsus pul belgilari chiqarilgan. Ushbu pullar XSXR tugatilganga qadar, ya’ni, 1924 yillargacha muomalada bo‘lgan. Yuqori inflyatsiya natijasida 1922-23 yillarda XSXR tomonidan denominatsiya amalga oshirilib, eski pullarning ustiga ularning yangi nominalini ko‘rsatuvchi tamg’alar bosilgan. 1921-22 va undan keyingi yillarda pul islohotini o‘tkazishga qaratilgan qator tadbirlar Turkiston ASSRda amalga oshirildi. 1923-24 yilarda Buxoro va Xorazm Xalq Respublikalarining pul belgilari RSFSR pul belgilari (rubl chervon) bilan

almashtirildi. Fuqarolar urushi davrida Turkiston frontlar halqasi ichida qolganda Toshkentda Turkiston ASSRning puli — turkbonlar chiqarilgan. Keyinchalik 1921-yil 1-yanvardan boshlab Turkistonda 3 oy davomida Pul islohotlari o‘tkazilib, turkbon RSFSR pul birligiga 10:1 nisbatda almashtirildi. 1947-yilda sobiq SSSRda Pul islohotlari o‘tkazildi, mahsulotlarni taqsimlashda kartochka tizimi tugatildi va davlat kooperativ chakana savdosi narxida yagona tartib o‘rnatildi. Muomaladagi hamma pul belgilari 10:1 nisbatda yangi pul belgilariga almashtirildi. 1950-yilga kelib oltin tovar zaxirasining ko‘payishi, chet el valyutasiga nisbatan pul kursining oshishi, narxlar masshtabi o‘zgarishi 1961-yilda muomaladagi pul belgilarini 10:1 nisbatda yangi pul belgilariga almashtirilishiga olib keldi.

O‘zbekiston Davlat mustaqilligiga erishgach, Rossiya o‘z milliy valyutasini chiqargunga qadar boshqa sobiq Ittifoq respublikalari singari vaqtincha rubl zonasida qoldi va mamlakatda amalda bo‘lgan iqtisodiy shart-sharoitlarni hisobga olib, o‘z milliy valyutasini muomalaga kiritishni ikki bosqichda amalga oshirdi. Birinchi bosqich: 1993-yilning 15-noyabrdan ish haqi, pensiya, stipendiya, nafaqa va aholi daromadlarining o‘z vaqtida to‘lanishini, respublika ichki iste’mol bozorini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi hududida to‘lov vositasi sifatida 1961—92 yillardagi rubl banknotlari va Rossiya bankining 1993-yildagi rubli bilan parallel ravishda 1:1 nisbatda oraliq valyuta sifatida "so‘m kupon" muomalaga kiritildi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki muomalaga qiymati 1, 3, 5, 10, 25, 50, 100, 200, 500, 1000, 5000, 10000 so‘m kupon qog’oz pullarni chiqardi. Ikkinchi bosqich: 1994-yil 1-iyulidan boshlab O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasi so‘m 1 so‘m = 1000 so‘m kupon nisbati bilan muomalaga kiritildi. Markaziy bank muomalaga qiymati 1, 3, 5, 10, 25, 50, 100 so‘m bo‘lgan bank qog’oz pullari (banknotlar) va 1, 3, 5, 10, 20, 50,100, 200, 500 tiyin bo‘lgan metall tangalar chiqardi.

O‘zbekiston Respublikasi o‘z milliy valyutasini muomalaga kiritishi, ikki bosqichli bank tizimi va mustaqil pul tizimi tashkil etilishi pul-kredit siyosatini erkin yuritish imkonini berdi. Hisob-kitoblarni yengillashtirish maqsadida 1997- yildan boshlab muomalaga 200 so‘mlik, 1999-yildan 500 so‘mlik va 2001-yildan hozirgacha 1000, 5000, 10 000, 50 000, 100 000, 200 000 so‘mlik bank qog’oz pullari (banknotlar) muomalaga chiqarildi.

Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti (PMTI) ekspertlari 2017-2022 yillarda O‘zbekistonda pul-kredit sohasida amalga

oshirilgan islohotlar va ularning qanday natija berganligini tahlil 1-rasm



9.1-rasm 2017-2022 yillarda O‘zbekistonda pul-kredit sohasida amalga oshirilgan islohotlar.[34]

So‘nggi yillarda mamlakatimizda pul-kredit siyosati bosqichma-bosqich erkinlashtirilmoqda.

Pul-kredit sohasida amalga oshirilgan islohotlar jarayonida asosiy e’tibor quyidagi jihatlarga qaratildi:

- valyuta siyosatini erkinlashtirish;
- bank xizmatlari ommabopligini oshirish;
- Inflyasion targetlash tartibiga bosqichma-bosqich o‘tish;
- bank sektorini erkinlashtirish.

Ushbu islohotlar natijasida erishilgan natijalar:

2017-yilda O‘zbekiston Markaziy banki almashinuv kurslarini unifikasiya qildi va valyuta bozorini erkinlashtirdi. Bu o‘zbek so‘mining yagona kursi shakllanishiga olib kelib, korxonalarning xalqaro miqyosdagi faoliyatini osonlashtirdi.

2018-yilda Markaziy bank boshqaruvi Moliyaviy ommaboplik alyansiga (Alliance for Financial Inclusion) a’zo bo‘lish to‘g’risidagi qarorni

[34] Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar institute ma’lumotlari

qabul qildi va qator islohotlarni amalga oshirdi. Natijada, bank xizmatlarini masofadan koʻrsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilar soni 15 marotaba, kredit qoʻyilmalari 7,4 marotaba, bank aktivlari 6,6 marotaba, jalb qilingan depozitlar hajmi 5,8 marotaba oshdi.

2019-yilda hukumat inflyasiyani targetlash boʻyicha 5 yillik strategiyani e'lon qildi. Unda inflyasiya darajasini 4-5 foiz atrofida ushlab turish vazifasi belgilandi.

Bank sektori erkinlashtirildi, sog'lom raqobat muhiti shakllantirildi va 2025-yilgacha oltita davlat bankini xususiylashtirish vazifasi qoʻyildi. "Ipoteka-bank"dagi davlat ulushining 75 foizi Vengriyaning OTR bankiga sotildi.

Bank tizimida raqamlashtirish keng miqyosda amalga oshirildi. Banklarning mobil ilovalari soni 21 tadan oshdi. "TBC Bank" va "Anorbank" raqamli banklari oʻz faoliyatini boshladi.

9.2. Pul islohotlarini amalga oshirishning sabablari

Agar inflyatsiya sur'atlari yuqori boʻlsa, denominatsiya oʻtkazish hech qanday samara bermasligi mumkin. Faqat pul islohotini oʻtkazish yoʻli bilan pul tizimini barqarorlashtirish mumkin boʻladi.

Pul islohotini oʻtkazish quyidagi yoʻllar bilan amalga oshirilishi mumkin:

- muomaladagi pul massasini kamaytirish maqsadida, deflyatsiya kursi boʻyicha pullarni yangi pullarga almashtirish:

- aholi va korxonalarning banklardagi jamg'armalarini vaqtincha (toʻliq yoki qisman) harakatsiz ushlab turish (qotirib qoʻyish):

- ikkala usulni birgalikda qoʻllash yoʻli orqali pul islohotini oʻtkazish: bu usul xalqaro amaliyotda "shok yoʻli" bilan davolash nomi bilan mashhurdir.

Bu usul 1948-yilda G'arbiy Germaniyada harbiy davlat boshqaruvidan bozor iqtisodiga oʻtishda qoʻllanilgan. "Shok yoʻli" bilan davolashda ish haqini toʻlashni toʻxtatib qoʻyish, ishlab chiqarishni qisqartirish, pul islohotini oʻtkazish, ish oʻrinlarini qisqartirish kabi qattiq choralar qoʻllanilishi mumkin. Masalan, G'arbiy Germaniyada 1948-yilning iyun oyida oʻtkazilgan pul islohotida aholining naqd pullari va jamg'armalari 6,5 yangi nemis markasiga 100 eski reyxsmarka qilib almashtirildi.

Aholining pul jamg’armalarini to‘lash vaqtincha to‘xtatilgan, keyinchalik faqat 30 % atrofida to‘langan va har bir kishiga 60 nemis markasi miqdorida nafaqa ajratilgan. Natijada davlatning reyx markasidagi qarzi, mamlakatda bo‘lgan disbalans tugatilgan va shu yo‘l bilan inflyatsiyaning o‘sish sur’atlari to‘xtatilgan. “Shok yo‘li” bilan davolash Yaponiyada 1949-50-yillarda o‘tkazilgan va u “Dodj rejasi” degan nomni olgan. Bu rejaga asosan Yaponiyada inflyatsiyaga qarshi juda qattiq chora-tadbirlar amalga oshirilgan. Erkin bahoga o‘tish bilan bir vaqtning o‘zida yer islohoti o‘tkazildi, byudjet kamomadini yo‘qotish yo‘llari ishlab chiqildi. Yaponiyada mavjud zarar bilan ishlovchi korxonalarga davlat tomonidan beriladigan subsidiya bekor qilindi, korxona, tashkilotlarga kredit berish shartlari mukammallashtirildi, aholi jamg’armalari ishlatilmasdan qotirib qo‘yildi. Iqtisodni “shok yo‘li” bilan davolash Sharqiy Yevropa mamlakatlari -Yugoslaviya, Polsha kabi mamlakatlarda ham qo‘llanilgan.

9.3. O‘zbekistonda pul islohotlarini amalga oshirish tartibi

Denominatsiya o‘z mohiyatiga asosan milliy pul birligidagi ortiqcha nollarni olib tashlab muomalaga yangi pullarni chiqarishdan iborat. Denominatsiya usulida Rossiya (3 dona nolni olib tashladi) va Turkiya (liradan 6 dona nolni olib tashladi) hukumatlari foydalanishdi.

Inflyatsion jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solib turish o‘z mohiyatiga asosan mamlakatda mahsulotlar, bajarilgan ishlar, ko‘rsatiladigan xizmatlarga bo‘lgan narx-navolarni o‘sib borishini cheklash va pul tizimini barqarorlashtirish maqsadida davlat tomonidan aniq chora-tadbirlarni amalga oshirishdan iborat. Ushbu chora-tadbirlar ikki yo‘nalishda olib boriladi:

1) **Deinflyatsion siyosat.** Ushbu siyosat mamlakatda pulga bo‘lgan talabni pul-kredit va moliya mexanizmlari yordamida tartibga solib turiladi. Deinflyatsion siyosat davlat xarajatlarini qisqartirish, kreditlar uchun foiz stavkalarini oshirish, soliq yukini kuchaytirish (soliqlar soni va ularni foiz stavkalarini ko‘tarish) va pul massasini cheklashni o‘z ichiga oladi. Shuni ta’kidlash lozimki, deinflyatsion siyosat mamlakatdagi iqtisodiy o‘sishning sekinlashuviga sabab bo‘ladi;

2) **Daromadlar siyosati.** Ushbu siyosat olib borishda davlat tomonidan mahsulotlar, ko‘rsatilgan xizmatlar, bajarilgan ishlarga bo‘lgan narx-navo va

ish haqi ustidan birdaniga nazorat etiladi hamda ularning o‘sishini ma’lum chegarasi o‘rnatiladi yoki butunlay «muzlatib» qo‘yiladi. Daromadlar siyosati o‘z mohiyatiga ko‘ra qat’iy siyosat hisoblanadi va u aholi o‘rtasida norozilikni keltirib chiqarishi mumkin. Lekin inflyatsiya bilan kurashishda ayrim mamlakatlarda daromadlar siyosatidan foydalaniladi.

Xalqaro amaliyotda rivojlanayotgan mamlakatlarda inflyatsiyaga qarshi qurash olib borish tajribasida biz ta’kidlab o‘tgan ikki yo‘nalishdan oqilona birgalikda foydalanilgan.

Iqtisodiyoti bozor munosabatlariga o‘tayotgan mamlakatlarda inflyatsiyaga qarshi kurashish va milliy pul tizimini mustahkamlash uchun asosan quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda:

- milliy iqtisodiyotni sog’lomlashtirish, investisiya faoliyatining tushib ketishini bartaraf etish va iqtisodiy rivojlanishning oqilona darajasini ta’minlash;

- raqobatbardosh, yuqori texnologik ishlab chiqarishni tashkil etish va uni rivojlantirish maqsadida davlat strategiyasini ishlab chiqish hamda uni amalga oshirish;

- xalq iste’mol tovarlarini ishlab chiqaruvchi korxonalarda ishlab chiqarish fondlarining tarkibini o‘zgartirish va unda zamonaviy texnika hamda texnologiyalarni joriy etish;

-tijorat banklarining investitsiya va kredit faoliyatini rag’batlantirish;

- soliq tizimini takomillashtirish va ushbu yo‘nalishda asosiy e’tiborni soliqlarning rag’batlantiruvchi funksiyasiga qaratish;

- davlat tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash;

- mamlakat ichida mahsulotlar, valyuta, kredit yer, ko‘chmas mulk, mehnat va qimmatli qog’ozlarning yagona bozorini shakllantirish hamda uni rivojlantirish;

- pul-kredit siyosatini iqtisodiyotning rivojlanishi holatiga asosan o‘zgartirib turish;

- tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish va mahsulotlar, ishlar, xizmatlarni eksport qilishni rag’batlantirish;

- erkin bozor baholarini saqlagan holda daromadlar, xarajatlar va narx-navoni davlat tomonidan tartibga solish va uni nazorat qilish;

- davlat byudjeti taqchilligini noinflyatsion yo‘llar bilan qisqartirish;

- davlatning strategik oltin-valyuta zaxiralarini chuqur tahlil etish va

ulardan oqilona foydalanishdan iboratdir.

Asosiy tushunchalar

Pulni xarid quvvati, islohot, revolvatsiya, devolvatsiya, denominatsiya, nulifikatsiya. O‘rmalovchi inflyatsiya, suzuvchi inflyatsiya, yuguruvchi inflyatsiya, tovarlar taqchilligi, pul islohoti, mahsulotlar, ko‘rsatilgan xizmatlar, bajarilgan ishlar, narx-navo,ish haqi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Pul islohotlari deganda nimani tushunasiz?
2. Pul islohotlarini amalga oshirishning zarurligini, pul islohotlarini amalga oshirish shart-sharoitlarini ochib bering.
3. Pul islohotlarini amalga oshirish usullarini yoritib bering.
4. Denominatsiya va uni amalga oshirish tartibini, nullifikatsiya va uni amalga oshirish tartibini tushuntirib bering.
5. O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilgan pul islohotlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini yoritib bering.
6. Deflyatsiya deganda nimani tushunasiz?
7. Denominatsiya deganda nimani tushunasiz?
8. Deinflyatsion siyosat tushunchasi va uning maqsadi?
9. Inflyatsiya jarayonini davlat tomonidan boshqarib borishda nimalar amalga oshiriladi?
10. Mamlakatda pul islohotini o‘tkazish deganda nimani tushunasiz?

X BOB. KREDITNING ZARURLIGI, MOHIYATI VA FUNKSIYALARI

10.1. Kreditning kelib chiqishi va uning mohiyati.
10.2. Kreditlashning roli va funkctiyalari.
10.3. Kredit shakllari va turlari.

10.1. Kreditning kelib chiqishi, uning mohiyati

Ma’lumki, kishilik jamiyatining dastlabki bosqichi ibtidoiy jamoa tuzumi yemirilishi natijasida jamiyat a’zolari boy va kambag’al oilalarga ajraldi. Boy oilalar qo‘lida jamiyatdagi moddiy boyliklar to‘planib qoldi, kambag’allar esa ana shu boyliklardan mahrum bo‘ldilar. Natijada moddiy boyliklar va pul mablag’lari zodagonlar, katta yer egalari, savdogarlar, sarroflar qo‘lida va cherkovlarda jamlana borgan. Yersiz dehqonlar, mayda hunarmandlar va boshqa quyi tabaqaga mansub kishilar esa kun ko‘rish uchun ulardan ma’lum haq to‘lash evaziga yer va ishlab chiqarish jihozlarini ijaraga, turli mahsulotlar va pul mablag’larini qarzga olishga majbur bo‘lganlar. Ana shunday qilib, kreditning eng qadimiy shakli **sudxo‘rlik krediti** paydo bo‘lgan.

«Kredit» lotincha so‘z bo‘lib, «qarz» ma’nosini bildiradi. Kredit qadimiy tushuncha sifatida tovar, pul, bozor, baho va boshqa atamalar bilan bir davrda paydo bo‘lgan va ularning doimiy hamrohidir.

Kredit kishilik jamiyatining quldorlik, feodalizm va kapitalizm davrlarida rivojlandi hamda takomillashib bordi. Uning yangidan-yangi turlari va shakllari paydo bo‘ldi. Kredit jamiyatning barcha sohalariga kirib bordi. Kredit jamiyat takror ishlab chiqarish jarayonida beqiyos o‘ringa ega bo‘lib, pul – tovar munosabatlarining ajralmas qismiga aylandi.

Ishlab chiqarish fondlarining doiraviy aylanishi kredit munosabatlarining iqtisodiy asosidir.

Fondlarning doiraviy aylanishida tovar ishlab chiqarish vaqti bilan uni sotish vaqtining o‘zaro mos kelmay qolishi natijasida qo‘shimcha mablag’larga ehtiyoj tug’iladi. Ayrim hollarda esa mablag’lar bekor turib qoladi. Bir tomondan mablag’larning yetishmasligi, boshqa tomondan esa ularning bekor turib qolishi o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga keladi. Bu ziddiyatni kredit munosabatlari bartaraf etadi.



10.1-Chizma. Ishlab chiqarish fondlarining doiraviy aylanishi

Kredit - by vaqtincha **b o‘sh turgan pul mablag`lari yoki tovarlarni** ma’lum muddatga, haq to‘lashlik sharti bilan, qarzga olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqadigan iqtisodiy munosabatlar yug‘indisi.

Kredit yordamida tovar-moddiy boyliklar, turli mashina va mexanizmlar sotib olinadi, iste’molchilar mablag’lari yetarli bo‘lmagan hollarda to‘lovni kechiktirib nasiyaga tovarlar sotib olish va boshqa har xil to‘lovlarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Kredit vositasida jamiyatda kengaytirilgan takror ishlab chiqarish uzluksizligiga erishiladi.

10.2. Kreditlashning roli va funkctiyalari

Kredit munosabatlari quyidagi tamoyillar (prinsiplar) ga rioya etgan holda amalga oshiriladi.



10.2 - Chizma. Kreditlash tamoyillari

1. Kreditning qaytarib berishlik tamoyiliga asosan kreditga berilgan mablag'lar belgilangan muddatda qaytarib berilishi lozim, ya'ni, kredit «yeb ketarga» berilmaydi. Berilgan kreditni qaytarmaslik yoki undan kechib yuborish bozor iqtisodiyoti qonunlariga ziddir.

"Yaxshilaringiz qarzni yaxshi ado etuvchi kishilardir".

Muhammad payg'ambar alayhissalom qissasi.

Hadislar[35]

2. Kreditning muddatlilik tamoyiliga ko'ra kredit ma'lum muddatga beriladi. Bu muddat kredit shartnomasida belgilab qo'yiladi. Agar qarz oluvchi kreditni o'z muddatida qaytarmasa, qarz beruvchi tomonidan iqtisodiy jazo choralari ko'rilishi, ya'ni, jarimalar solinishi, kredit foizining oshirilishi, kredit muddatining qisqartirilishi mumkin. Bu choralar ham yordam bermasa, qarz beruvchi kreditni xo'jalik sudi orqali undirib olishi mumkin.

"Qarzni o'z vaqtida bermasdan cho'zib yurish zulmdir".

Muhammad payg'ambar alayhissalom qissasi.

[35] Муҳаммад пайғамбар алайҳис салом қиссаси. Ҳадислар. Тошкент: Камалак, 1991.

Hadislar[36]

3. Kreditning ta’minlanganlik tamoyili olingan kredit summasini qaytarib berilishini kafolatlaydi. Hozirda kreditlarning ta’minlanishi quyidagi usullar yordamida amalga oshiriladi:

- qarz oluvchining mol-mulkini garovga olish orqali;
- kredit summasini sug’urta kompaniyalari tomonidan sug’urtalash yo‘li bilan;
- uchinchi shaxslar tomonidan ishonch xatlari yoki kafolatnomalar berish orqali.

Ta’minlanmagan kredit berilishi uni qaytarilmasligi asosidir.

“Kafil bo‘lguncha, kafting bilan cho‘g’ ushla”.

(O‘zbek xalq maqoli)[37]

4.Kreditning to‘lovlilik tamoyili olingan kreditdan foydalanganlik uchun haq to‘lanishini bildiradi. Odatda kredit uchun to‘lanadigan haq «foiz», «ssuda foizi» yoki «bank foizi» deyiladi. Ssuda foizi tom ma’noda kreditning bahosidir. Ayrim hollarda foizsiz ya’ni, imtiyozli kreditlar ham berilishi mumkin.

Janobi Rasululloh qarzdordan haqini so‘rab gapirgan odam to‘g’risida bunday deganlar: “ Haqdor odamning gapirishga haqqi bor”.

Muhammad payg’ambar alayhissalom qissasi.

Hadislar[38]

5. Kreditning maqsadlilik tamoyili qarz oluvchi tomonidan olingan kredit aniq bir maqsadga sarflanishi lozimligini bildiradi. Qarz beruvchi berilgan kreditni shartnomada ko‘rsatilgan maqsadda sarflanishi ustidan nazorat o‘rnatadi. Agar kredit boshqa maqsadlarga sarflanayotgani ma’lum bo‘lib qolsa, kredit berish to‘xtatiladi va berilgan kreditni muddatidan avval undirib olish choralari ko‘riladi.

“Qarzdor qarzini uzar, xotin yonida qolar”.

(O‘zbek xalq maqoli)[39]

6. Kreditning samaradorligi tamoyili kreditdan oqilona foydalanishni taqozo etadi. Bu tamoyil nafaqat kreditning qaytarilishi va foiz summasining to‘lanishi, balki undan tashqari shu kredit yordamida qarz oluvchi qancha

---

[36] Муҳаммад пайғамбар алайҳис салом қиссаси. Ҳадислар. Тошкент: Камалак, 1991.
[37] Ўзбек халқ мақоллари.Тошкент: Шарқ, 2005 йил.
[38] Муҳаммад пайғамбар алайҳис салом қиссаси. Ҳадислар. Тошкент: Камалак, 1991.
[39] Ўзбек халқ мақоллари.Тошкент: Шарқ, 2005 йил.

daromad olishi, foyda koʻrishini ham belgilaydi. U yoki bu loyiha boʻyicha kredit berishdan avval, beriladigan kredit samaradorligini aniqlash va boshqa loyihalar bilan taqqoslab koʻrish lozim. Qaysi loyiha samaraliroq boʻlsa, ana shu loyihaga kredit berish maqsadga muvofiq boʻladi. Samaradorlik tamoyili va unga rioya qilish kreditning boshqa tamoyillarini bajarilishi uchun asos hisoblanadi.

“Qarz tovush chiqarmasa ham, uxlagani qoʻymas”.

(Oʻzbek xalq maqoli)[40]

10.3. Kredit shakllari va turlari

Kredit munosabatlarida 2 tomon, ya’ni, qarz beruvchi (Kreditor) va qarz oluvchi ishtirok etadi. Ularni kredit **subyektlari** deyiladi. Kredit subyektlari tarkibiga korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, banklar, davlatlar, xalqaro tashkilotlar, turli fondlar va aholining turli toifalari kiradi.

Kredit 2 shaklda, ya’ni, pul mablag’lari yoki tovarlar shaklida beriladi. Ularni kredit **obyektlari** deyiladi. Kredit obyektlari har qanday pul mablag’lari va tovarlar emas, balki vaqtincha boʻsh turgan, berilishi mumkin boʻlgan pul mablag’lari va tovarlardir.

KREDIT SUBYEKTLARI

Qarz beruvchilar-	**Qarz oluvchilar-**
Korxonalar, firmalar,	Korxonalar, firmalar,
kompaniyalar, banklar	kompaniyalar, banklar
davlat idoralari,	davlat idoralari
mamlakatlar,	mamlakatlar,
xalqaro tashkilotlar,	xalqaro tashkilotlar,
turli fondlar	turli fondlar
aholi va boshqalar	aholi va boshqalar

10.3. – Chizma. Kredit subyektlari

[40] Ўзбек халқ мақоллари.Тошкент: Шарқ, 2005 йил.



10.4-Chizma. Kredit obyektlari

Kreditga zarurat tug’ilganda, quyidagi bo‘sh pul mablag’laridan **kredit resurslari** sifatida foydalanish mumkin:

1. Asosiy fondlarni tiklash va kapital ta’mirlash uchun ajratiladigan amortizatsiya fondlari sifatidagi pul mablag’lari;
2. Tovarlarni sotish va zaruriy ishlab chiqarish resurslarini sotib olish vaqtlarining bir-biriga mos kelmaganligi tufayli vujudga kelgan bo‘sh pul mablag’lari;
3. Tovarlarni sotishdan tushgan pul tushumlari bilan ish haqini to‘lash vaqtlari orasida vaqtincha bo‘sh turib qolgan pul mablag’lari;
4. Kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonida yig’iladigan va kapitallashtirish uchun mo‘ljallangan qo‘shimcha mablag’lar;

Kredit quyidagi vazifalarni bajaradi:

1.Kreditning **eng muhim vazifasi** ijtimoiy ishlab chiqarish uzluksizligini ta’minlashdan iboratdir. Takror ishlab chiqarish jarayonida mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish vaqti, ana shu mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan resurslarni sotib olish va mehnatga haq to‘lash vaqti bilan o‘zaro mos kelmaydi. Ana shu sababli ishlab chiqaruvchilarda ayrim hollarda pul mablag’lari yetishmaydi, boshqa hollarda esa pul mablag’lari bo‘la turib, unga ehtiyoj bo‘lmaydi, ya’ni, pul bo‘sh turib qoladi.

Aksariyat korxonalar ishlab chiqarish resurslarini sotib olish uchun o‘z mablag’lari yetarli bo‘lmagan hollarda zarur bo‘lgan pul mablag’lari va tovarlarni kreditga olishlari mumkin.

2. Kredit vositasida muomalaga pulga tenglashtirilgan to‘lov vositalari bo‘lgan veksel, chek, sertifikat, kredit kartochkalari va boshqalar chiqariladi. Bu vositalar yordamida naqd pulli operatsiyalarni naqd pulsiz hisob-kitoblar bilan almashtiriladi. Natijada to‘lovlar tezlashadi, muomala xarajatlari

tejaladi.

3. Kredit orqali pul mablag’lari turli tarmoqlar va sohalar o‘rtasida qayta taqsimlanadi. Ma’lumki, kreditdan foydalanganlik uchun haq to‘lanadi, ya’ni, kredit sotib olinadi. Qaysi ishlab chiqaruvchiga pul mablag’lari zarur bo‘lsa, uni sotib oladi va undan foydalanadi. Shunday qilib, pul mablag’lari va ishlab chiqarish resurslarining turli tarmoqlar o‘rtasida erkin ko‘chib yurishi ta’minlanadi.

4. Kredit vositasida jamiyatdagi bo‘sh pul mablag’lari jamg’arib boriladi va harakatdagi kapitalga aylantiriladi, ya’ni, u yoki bu sohani rivojlantirishga, ishlab chiqarishni kengaytirishga sarflanadi.

5. Kredit vositasida jamiyatda iqtisodiy o‘sish va ishlab chiqarishni rag’batlantirish imkoniyati tug’iladi. Sababi, qarz oluvchi nafaqat olgan kreditini qaytarish va kredit foizini to‘lash uchun ishlaydi, balki o‘zi ham daromad olishni ko‘zlaydi. Buning uchun esa o‘z faoliyatida yuqori samaradorlikka erishishga harakat qiladi.

Kredit munosabatlarining subyektlari va obyektlariga, foiz stavkasi va harakat doirasiga qarab kreditning quyidagi mustaqil shakllari amaliyotda qo‘llanilishi mumkin:

1.Tijorat krediti:

1.1.Tovar krediti

1.2.Lizing krediti

2.Bank krediti

2.1.Ipoteka krediti

3.Iste’mol krediti.

4.Mikrokredit

5.Davlat krediti

6.Xalqaro kredit

7.Lombard krediti

8.Sudxo‘rlik krediti

Tijorat krediti kredit munosabatlarining ilk shakllaridan biri bo‘lib, veksel muomalasini keltirib chiqargan va naqd pulsiz hisob-kitoblarning rivojlanishiga yordam bergan. Tijorat krediti faqat tovar shaklida beriladi.

Tijorat kreditida qarz beruvchi sifatida mol yetkazib beruvchi yoki xizmat ko‘rsatuvchi korxona, qarz oluvchi sifatida esa mol sotib oluvchi yoki xizmatdan foydalanuvchi korxona ishtirok etadi.

Tijorat krediti korxonalar o‘rtasida tovar va xizmatlarning to‘lov

muddatini kechiktirish orqali sotilishida namoyon bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, tovarlar va xizmatlar **nasiyaga** sotiladi. Tijorat kreditida foiz stavkasi ochiqchasiga belgilanmaydi, balki nasiyaga sotilgan tovarlar bahosiga qo‘shiladi. Masalan, agar tovar 10000 so‘m naqd pulga sotiladigan bo‘lsa, nasiyaga esa 10500 so‘mga sotiladi. Bu holda kredit foizi 500 so‘m ya’ni, 5 % ni tashkil etadi.

Tijorat kreditining yana bir shakli lizingdir.

1.2.«**Lizing»** inglizcha so‘z bo‘lib, ma’nosi «ijaraga bermoq»dir. Lizing obyektlari bo‘lib uzoq muddat ishlatiladigan ishlab chiqarish vositalari, ya’ni, zavodlar, fabrikalar, inshootlar, transport vositalari (Kemalar, samolyotlar, avtomashinalar), traktorlar, kombaynlar, stanoklar, jihozlar va boshqa asosiy fondlar hisoblanadi. Lizingning oddiy ijaradan farqi shundaki, lizing ob‘yektining bahosi undan foydalanish vaqtida to‘langan ijara haqi hisobiga kamayib boradi. Ma’lum muddat o‘tgach, ijaraga oluvchi lizing obyektini qoldiq qiymati bo‘yicha sotib olishi mumkin bo‘ladi.

Lizing operatsiyalarida ijaraga beruvchi sifatida lizing kompaniyalari va firmalari hamda tijorat banklari, ijaraga oluvchi sifatida esa sanoat, qishloq xo‘jaligi, savdo, transport korxonalari va aholi ishtirok etadi. Lizing operatsiyasini quyidagi misolda ko‘rish mumkin:



10.5-Chizma. Lizing operatsiyasining jarayoni

Tijorat banklari O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g’risida”, “Lizing to‘g’risida”gi Qonuni, “Fuqarolik kodeksi” va Markaziy bankining me’yoriy hujjatlari asosida lizing amaliyotlarini amalga oshiradi.

Moliyaviy lizing - bu ijara munosabatlarining alohida turi bo‘lib, bunda bir tomon (lizing oluvchi) ning topshirig’iga binoan uchinchi tomondan (sotuvchidan) mulk (lizing obyekti)ni lizing shartnomasida belgilangan shartlarda lizing oluvchiga to‘lov asosida foydalanish va egalik qilish uchun hamda keyinchalik lizing oluvchining xususiy mulkiga o‘tishi sharti bilan

berish maqsadida sotib oladi.

Lizing shartnomasida ikki tomonlama kelishuv asosida, lizing oluvchiga mulk sotib olish huquqi, shartnoma amal qilish muddati tugamasdan oldin yoki lizing shartnomasi muddati tugaganidan so‘ng, lizing oluvchi lizing obyektini qat’iy belgilangan bahoda sotib olish sharti bilan berilishi mumkin.

Lizing xizmatlari yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan moliyaviy barqaror xo‘jalik subyektlariga, yakka tartibdagi tadbirkorlarga va jismoniy shaxslarga (bank Kengashining ruxsati asosida byudjet, byudjetdan tashqari fondlar, jamiyat va jamoatchilik tashkiloti hamda uyushmalarga) bank tomonidan lizing obyektini sotib olish uchun sarflangan mablag’larining qaytarishlik, to‘lovlilik, muddatlilik va ta’minlanganlik sharti bilan ko‘rsatiladi.

Lizingda tomonlar kelishuvi bo‘yicha qonunchilikda belgilangan chegaralardagi amortizatsiyaning jadallashtirish koeffitsiyentini qo‘llashga ruxsat etiladi.

Lizing obyekti nolikvid, o‘z xususiyatlari yoki bozor konyunkturasiga mos kelmaganligi sababli uning sotilishi qiyin bo‘ladigan taqdirda lizing shartnomalarini tuzishga va uni ijro etishga ruxsat etilmaydi.

Lizing beruvchi bo‘lib bankning o‘zi yoki uning filiallari bo‘lishi mumkin.

Lizing beruvchi – lizing oluvchi va sotuvchi lizing amaliyotining subyektlaridir.

Lizing beruvchi – tijorat banki lizing faoliyatini amalga oshiradi.

Lizing oluvchi - lizing shartnomasi bo‘yicha lizing obyektiga egalik qilish va foydalanish uchun oladigan yuridik shaxs, yoki yakka tartibdagi tadbirkor.

Ishlab chiqaruvchi (sotuvchi) - yuridik shaxs, bevosita ishlab chiqaruvchi va lizing obyektini sotilishini amalga oshiruvchi, shuningdek sotuvchi korxona, ishlab chiqaruvchining huquqi va javobgarligi asosida o‘zi ishtirok etmagan holda lizing mulklarini sotadi.

Lizing obyekti bo‘lib, yer maydonlari va boshqa tabiat obyektlaridan tashqari, iste’mol qilinmaydigan va tadbirkorlik faoliyatida ishlatiladigan buyumlar chiqadi.

Shu jumladan lizing obyekti bo‘lishi mumkin:

mini zavodlar va har xil turdagi xom ashyoni qayta ishlovchi sexlar;

xalq xo‘jaligi tovarlarini ishlab chiqaruvchi uskunalar;

qishloq xo‘jaligi va qurilish texnikasi;

transport va aloqa vositalari, orgtexnika;

boshqa turdagi uskunalar va ishlab chiqarishga mo‘ljallangan mulklar.

Lizingning asosiy ta’minot turi bo‘lib, lizing uchun beriladigan mulk hisoblanadi. Lizing beruvchi lizing oluvchidan lizing shartnomasi bilan bog’liq xarajatlarga sarflangan mablag’larining qaytishini kafolati sifatida, shu jumladan, garov, bank kafolati yoki uchinchi shaxs kafilligi shakllaridagi ta’minot talab qilinishi mumkin.

Kredit shakllari ichida eng keng tarqalgani bank kreditidir.

2.**Bank krediti** faqat pul shaklida beriladi va **ssuda** deyiladi. Bank kreditida qarz beruvchi sifatida bank muassasalari chiqadi. Banklar turlicha bo‘lib, ular tarkibiga markaziy, tijorat, investitsiya, ipoteka, jamg’arma, xalqaro va ixtisoslashgan banklar kiradi.

Banklarning kreditga beriladigan pul mablag’lari ularning o‘z mablag’lari va jalb qilingan mablag’lardan tashkil topadi. Banklar o‘z faoliyatlarida korxonalar, tashkilotlar va aholining vaqtinchalik bo‘sh pul mablag’larini ma’lum haq to‘lash (foiz) evaziga depozitlar va omonatlar sifatida jalb qiladilar. Banklar bu mablag’larni o‘z nomidan kredit sifatida berishlari mumkin. Qarz oluvchilar sifatida esa turli tarmoqlar va sohalarda faoliyat ko‘rsatuvchi korxonalar, tashkilotlar, firmalar, davlat idoralari va aholi qatnashadi.

Qarz beruvchi bilan qarz oluvchi o‘rtasida kredit shartnomasi tuziladi. Bank krediti bo‘yicha olinadigan daromad yoki stavka tomonlar o‘rtasida kelishiladi va bank foizi yoki ssuda foizi shaklida bo‘ladi. Biz avval ko‘rib chiqqan kredit tamoyillari va kredit turlari, asosan, bank kreditiga tegishlidir.



Bank krediti turlaridan biri **ipoteka kreditidir**. Ipoteka krediti koʻchmas mulklar, ya'ni, yer, binolar, inshootlar va boshqalarni garovga olish yoʻli bilan uzoq muddatga beriladi. Bunday kreditlar yerlarni oʻzlashtirish, ularning meliorativ holatini yaxshilash, shuningdek ishlab chiqarish va turar-joy binolarini qurish maqsadlarida beriladi. Hozirda Oʻzbekistonda ipoteka krediti Oʻzbekiston Respublikasida 2006-yil 4-oktyabrdan qabul qilingan "Ipoteka toʻg'risida"gi Qonunga binoan berilmoqda va bunday kreditlar bilan «Ipoteka bank» va bir qator banklar shug'ullanmoqda.

3. **Iste'mol kreditida** qarz beruvchi sifatida banklar bilan bir qatorda tovar ishlab chiqaruvchi va xizmat koʻrsatuvchi korxonalar, qarz oluvchi sifatida esa aholi ishtirok etadi. Iste'mol krediti tovar va pul koʻrinishida beriladi hamda aholi ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qiladi. Pul shaklidagi iste'mol krediti banklar tomonidan, tovar shaklidagisi esa savdo korxonalari tomonidan toʻlov muddatini kechiktirish orqali beriladi.

Iste'mol krediti aholiga uy-joy qurish va sotib olish, uzoq muddat foydalanadigan tovarlar, avtomobillar, mebel, audio-video texnika va shu kabilarni sotib olish, shuningdek, ta'lim olish va davolanish kabi maqsadlar uchun beriladi.

Iste'mol krediti xorijda juda keng tarqalgan boʻlib, undan aholining barcha qatlamlari kredit kartochkalari tizimi vositasida foydalanadi.

Jamiyatimizda 2006-yil 6-mayda qabul qilingan Oʻzbekiston Respublikasi "Iste'mol krediti toʻg'risida"gi Qonunga binoan barcha banklarda iste'mol krediti, 2001-yildan boshlab, shartnoma boʻyicha pul toʻlab ta'lim olayotgan talabalar uchun «Ta'lim Kreditlari» ham joriy etildi. Ta'lim kreditlari Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 26-iyuldagi "Oliy oʻquv yurtlarida toʻlov-kontrakt asosida oʻqish uchun ta'lim kreditlari berish" toʻg'risidagi 318-sonli qarori va unga ilova "Oliy oʻquv yurtlarida toʻlov-kontrakt asosida oʻqish uchun ta'lim kreditlarini berish toʻg'risida"gi Nizomiga asosan beriladi.

Ta'lim kreditlari tijorat banklari filiallari tomonidan oliy ta'lim muassasalarining kunduzgi boʻlimlariga toʻlov-kontrakt asosida qabul qilingan Oʻzbekiston Respublikasi fuqarosi boʻlgan talabalarning oʻqishi uchun talabalarning oʻzlariga, ularning ota-onalariga yoki vasiylariga berilishi mumkin.

Ta’lim kreditlari, oliy ta’lim muassasalarida o‘qish davrini hisobga olgan holda, bakalavriatga o‘qishga qabul qilingan talabalarga 10 yilgacha, magistraturaga o‘qishga qabul qilingan talabalarga 5 yilgacha bo‘lgan muddatga beriladi. Muddatli harbiy xizmatni o‘tash davri bu muddatga kirmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 26-iyuldagi 318-sonli qaroriga muvofiq bank filiallari tomonidan berilgan ta’lim kreditlari bo‘yicha quyidagi % stavkalari belgilanadi:

-chin yetimlarga, “Mehribonlik uylari”da tarbiyalanganlarga hamda bolalikdan I va II guruh nogironlariga 0 % stavkasi (foizsiz kredit);

-talabalarning qolgan toifalariga - O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining amaldagi qayta moliyalash stavkasidan yuqori bo‘lmagan o‘zgaruvchan foiz stavkalari.

Kam ta’minlangan oilalardan bo‘lgan talabalar uchun kredit bo‘yicha qo‘shilgan foizlarning 50 foizi mehnat, aholini ish bilan ta’minlash va ijtimoiy muhofaza qilish tuman bo‘limlari tomonidan ish bilan ta’minlashga ko‘maklashish davlat jamg’armasi mablag’laridan to‘lanadi.

Ta’lim kreditlari bo‘yicha % stavkasi va bank filiallari tomonidan qo‘shiladigan foizlar uchun to‘lovlar miqdori Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi o‘zgarishiga qarab o‘zgarishi mumkin, bu kredit shartnomasida qayd etilishi kerak.

Bankka ta’lim kreditini olish uchun quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

1. Ta’lim krediti olish to‘g’risida ariza.

Talaba va oliy ta’lim muassasasi o‘rtasidagi to‘lov-kontrakt asosida o‘qish haqida belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan shartnoma (kontrakt). Kontraktda o‘qishning belgilangan muddati va bir yil uchun to‘lov miqdori ko‘rsatilgan bo‘lishi lozim. O‘qish uchun to‘lov miqdori keyingi yillarda o‘zgargan hollarda kontraktlarga tegishli o‘zgartirishlar kiritiladi. Bu haqda oliy ta’lim muassasasi o‘n kun muddatda bankka yozma ravishda ma’lum qiladi, so‘ngra qarz oluvchi, bank va oliy ta’lim muassasasi o‘rtasidagi kredit shartnomasiga zarur o‘zgartirishlar kiritiladi.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari yoki uy-joy mulkdorlari shirkatlari tomonidan qarz oluvchining yashash joyi to‘g’risida berilgan ma’lumotnoma.

Kreditni qaytarishning ta’minlanishi to‘g’risida hujjat:

Agar uchinchi shaxs tomonidan kafillik berilsa, avval kafilning

moliyaviy ahvoli va to‘lov qobiliyati o‘rganilib chiqiladi va so‘ngra kafil bilan shartnoma tuziladi. Kafillik shartnomasi kreditning to‘liq summasini va uning foizlarini o‘zida jamlab olishi lozim. Agar kafillik beruvchi yuridik shaxs bo‘lsa, unda kafillik shartnomasida:

- kafilning bank hisob raqami ahvoli to‘g’risida ma’lumot;
- kafilning boshqa bankdagi hamma bank hisob raqamlari hamda undagi qoldiqlari bilan birga ko‘rsatilgan ma’lumotnoma;
- kafilning bank oldida ssuda bo‘yicha va boshqa qarzlari yo‘qligi to‘g’risidagi ko‘rsatma;
- kafilda kartoteka №2 yo‘qligi to‘g’risidagi ma’lumotnomalar ilova qilinadi.

Agar kafillik beruvchi jismoniy shaxs bo‘lsa, albatta uning ish joyidan ish haqining hajmi va boshqa to‘lovlar haqida ma’lumot hamda pasporti bo‘lishi kerak.

Sug’urta kompaniyasining qarz oluvchining kreditni qaytara olmasligi xavfi sug’urta qilinganligi to‘g’risidagi sug’urta polisi. Bunda sug’urta mukofoti summasi nafaqat kredit summasini qoplashi kerak, balki uning foizlarini ham. Sug’urta polisida bank sug’urta mukofotini oluvchi ekanligi aniq ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak. Shuningdek, sug’urta polisi bo‘yicha sug’urta to‘lovi to‘langanligi to‘g’risidagi isbotlovchi ko‘rsatmani ko‘rsatishi kerak;

6. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining kafilligi(faqat chin yetimlar va “Mehribonlik uylari” da tarbiyalanganlar, bolalikdan I va II guruh nogironlari va kam ta’minlangan oilalardan chiqqanlar uchun).

Qarz oluvchi yuqoridagi hujjatlarni bankka taqdim etish bilan ayni bir vaqtda pasportni shaxsan o‘zi ko‘rsatadi. Bank pasportdan va taqdim etilgan boshqa hujjatlardan zarur ko‘chirmalar va nusxalar olishga haqlidir.

4.Mikrokredit Mikrokredit - qarz oluvchiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun eng kam ish haqining 1000 baravari miqdoridan oshmaydigan pul mablag’idir.

Boshlang’ich (start) sarmoyani (kapitalni) shakllantirish uchun mikrokreditlar:

- yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan tadbirkorlik subyektlari uchun eng kam oylik ish haqining 50 baravarigacha miqdorda;

- mikrofirmalar va dehqon xo‘jaliklari uchun (yuridik shaxs maqomiga

ega bo‘lgan) eng kam oylik ish haqining 100 baravarigacha miqdorda;

- fermer xo‘jaliklari uchun eng kam oylik ish haqining 200 baravarigacha miqdorda beriladi.

Byudjetdan tashqari jamg’arma kredit liniyasi - byudjetdan tashqari jamg’arma tomonidan kichik biznes subyektlarini maqsadli asosda kreditlash uchun tijorat banklariga ularning balansida uning summasini aks ettirgan holda ajratiladigan mablag’lar.

“Maxsus imtiyozli kreditlash jamg’armasi” - kichik va o‘rta tadbirkorlik subyektlariga imtiyozli kreditlar, shuningdek, mikrokreditlar berish maqsadida tashkil qilingan jamg’armadir. Imtiyozli kredit berish jamg’armasi hisobidan beriladigan mikrokreditlar bo‘yicha foiz stavkalari mikrokredit berilgan kundagi Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasining 50 % dan ortiq bo‘lmagan miqdorda belgilanadi.

Byudjetdan tashqari jamg’armalar mablag’lari hisobidan kreditlash Markaziy bankning Adliya vazirligida 2006-yil 8-avgustda 1308-son bilan ro‘yxatga olingan “Tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlariga byudjetdan tashqari jamg’armalar va Mikrokreditbank kredit liniyalari hisobidan mikrokreditlar berish tartibi to‘g’risida”gi Nizomga asosan amalga oshiriladi.

5.Davlat kreditining asosiy xususiyati kredit munosabatlarida davlatning qatnashuvidir. Davlat kreditida davlat qarz beruvchi va qarz oluvchi sifatida ham ishtirok etishi mumkin.

Davlat qarz beruvchi sifatida moliya vazirligi, Markaziy bank yoki boshqa idoralar orqali iqtisodiyotning u yoki bu sohalarini jadal rivojlantirish maqsadida tijorat banklari va korxonalarga **markazlashtirilgan kredit resurslari** ajratadi. Bunday kreditlar, odatda, imtiyozli kreditlar bo‘lib, juda past % larda yoki foizsiz beriladi.

O‘zbekistonda mustaqillik yillarida neft va gaz sanoatini rivojlantirishga, oltin va nodir metallar qazib olish va qayta ishlash korxonalariga, g’alla va paxta yetishtirishga markazlashtirilgan kreditlar ajratildi. Hozirda bunday kreditlar asosan, kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga ajratilmoqda.

Davlat o‘z xarajatlarini o‘z daromadlari hisobidan qoplay olmay qolgan taqdirda, ya’ni, byudjet kamomadini qondirish maqsadida banklar, korxonalar va aholidan qarz oladi. Davlat o‘z idoralari tomonidan davlat

obligatsiyalari va zayomlari, davlat xazina majburiyatlari, davlat qisqa muddatli obligatsiyalari kabi qiymatli qog'ozlarni chiqarish va sotish orqali korxonalar, banklar va aholining pul mablag'larini yig'adi. Bu mablag'lar davlat qarzi va byudjet kamomadini qoplashga sarflanadi.

6. Kredit munosabatlarining xalqaro miqyosda, ya'ni, mamlakatlar o'rtasida amalga oshirilishi **xalqaro kreditni** yuzaga keltiradi. Xalqaro kreditning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, qarz beruvchilar va oluvchilar boshqa-boshqa mamlakatlarda faoliyat ko'rsatadilar. Qarz beruvchi va qarz oluvchilar sifatida davlatlar, davlat idoralari, banklar, kompaniyalar, firmalar, xalqaro va mintaqaviy moliya-kredit tashkilotlari qatnashadilar. Xalqaro kredit tovar va valyuta shaklida beriladi. Xalqaro kredit asosan, rivojlangan davlatlar, xalqaro moliya-kredit tashkilotlari, yirik kompaniyalar, firmalar va banklar tomonidan rivojlanayotgan mamlakatlarga beriladi.

Hozirda O'zbekiston iqtisodiyotida AQSh, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Isroil, Janubiy Koreya va boshqa mamlakatlar, Xalqaro valyuta fondi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi kabi xalqaro moliya-kredit tashkilotlari tomonidan berilgan kreditlardan foydalanilmoqda. Xalqaro moliya institutlari va xorijiy davlatlar hukumatlarining imtiyozli kredit liniyalari va grantlarini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish maqsadlariga quyidagi hajmda jalb etilgan:

75 mln. doll. – 2011-yilda
90 mln. doll. – 2012-yilda
110 mln. doll. – 2013-yilda
130 mln. doll. – 2014-yilda
155 mln. doll. – 2015-yilda
168 mln.doll. – 2016-yilda
175 mln. doll. – 2017-yilda

O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi 2019 yil 1 noyabrga qadar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 iyundagi "Yoshlar – kelajagimiz" Davlat dasturi to'g'risida"gi PF–5466-son Farmoni doirasida amalga oshiriladigan loyihalarni moliyalashtirish uchun AT Xalq banki ustav kapitalini **250 milliard** so'mga, "Mikrokreditbank" ATB ustav kapitalini **170 milliard** so'mga va "Agrobank" ATB ustav

kapitalini **290 milliard** so‘mga oshirish uchun mablag’lar ajratildi.

7. **Lombard krediti** deganda oson va tez sotiladigan, qo‘zg’aluvchan mol-mulkni garovga olish orqali qisqa muddatga beriladigan kredit tushuniladi.

Lombard kreditini olish uchun qarz oluvchi o‘z mulkini lombard muassasasiga olib borib garovga qo‘yadi. Bunday mulklar qatoriga qimmatbaho metallar va toshlardan tayyorlangan zargarlik buyumlari, idishlar, san’at asarlari, qadimiy va noyob qimmatbaho ashyolar, audio-video apparatura, qimmatbaho qog’ozlar va boshqalar kirishi mumkin. Garovga qo‘yilgan mulk qiymati mutaxassis tomonidan baholanadi. Qimmatbaho qog’ozlar qiymati esa birja kursi bo‘yicha aniqlanadi. beriladigan kredit summasi garovga qo‘yilgan mulk qiymatining belgilangan qismini tashkil etadi. Masalan, qimmatbaho metallar va toshlar bo‘yicha – 90 % gacha, boshqa mulklar bo‘yicha – 75 % gacha, qimmatli qog’ozlar bo‘yicha – 50 % dan 80 % gacha.

Lombard krediti 3-4 oygacha beriladi. Agar kredit oluvchi belgilangan muddatda kreditni qaytarsa, garovga qo‘yilgan mulk unga qaytarib beriladi. Agar kredit qaytarilmasa, mazkur mulk lombard mulkiga aylanadi.

Hozirda xorijiy mamlakatlarda lombard kreditidan keng foydalaniladi. Lombard muassasalari deyarli barcha shaharlarda faoliyat ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda hozirda 58 ta lombardlar bo‘lib, ular asosan Toshkent shahri va barcha viloyat markazlari hamda yirik shaharlarda faoliyat ko‘rsatmoqda. Jumladan, Samarqand shahrida “Xazina xold” va “Malaxit” lombard tashkilotlarini misol keltirish mumkin.

8. Sudxo‘rlik krediti Kreditning eng qadimiy shaklidir. Sudxo‘rlik krediti barcha mamlakatlarda keng tarqalgan. Amalda sudxo‘rlik krediti norasmiy idoralar tomonidan tegishli ruxsatnomaga ega bo‘lmagan kishilar va korxonalar tomonidan mablag’larni vaqtincha foydalanish uchun beriladi.

Sudxo‘rlik krediti uchun to‘lanadigan foiz qarz beruvchi bilan qarz oluvchi o‘rtasida kelishilgan holda belgilanadi va odatda juda yuqori foizlarda beriladi. Uning darajasi oyiga 10-15 %, ayrim hollarda undan ham yuqori bo‘ladi. Milliy kredit tizimi rivojlanib borgan sari barcha toifadagi qarz oluvchilar ehtiyojlari tobora to‘laroq qondirilishi natijasida sudxo‘rlik krediti yo‘qolib boradi.

1995-yildan boshlab O‘zbekistonda maxsus nobank Kredit

tashkilotlari tashkil qilinmoqda. Bozor iqtisodiga o‘tishni tezlashtirish, korxona va tashkilotlar faoliyatini rivojlantirish maqsadida maxsus moliya-kredit muassasalari – «Biznes-fond», «Madad» sug’urta kompaniyasi, Xususiylashtirish Investitsiya Fondlari va boshqalar tashkil qilindi. Bu muassasalar ham o‘z navbatida ishlab chiqaruvchilarga kredit mablag’lari ajratmoqdalar.

Yuqorida ko‘rib o‘tilgan kredit shakllaridan tashqari iqtisodiyotda kreditning boshqa shakllari ham uchrab turadi. Masalan, kredit kooperativlari, va o‘zaro yordam kassalari tomonidan beriladigan kreditlar.

O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznes subyektlarini kreditlash va ularga xizmat ko‘rsatishni yaxshilash hamda kredit bozorida o‘zaro raqobatni kuchaytirish maqsadida 2002-yilda «Kredit uyushmalari to‘g’risida»gi Qonun qabul qilindi. Kredit uyushmalari kichik tadbirkorlarning boshlang’ich davrda kreditlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish, oilaviy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, yoshlarning biznes g’oyalarini amalga oshirishga har tomonlama ko‘maklashish borasida qator choralar ko‘rilmoqda.

Hududlarda oilalarni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilishga, ularning barqaror va qo‘shimcha daromad manbaiga ega bo‘lishiga, milliy hunarmandchilik yanada rivojlanishiga, xotin-qizlarning tadbirkorlik tashabbuslari amalga oshirilishiga, yosh tadbirkorlarning istiqbolli g’oyalari va loyihalari ro‘yobga chiqishiga hamda shu asosda aholining bandligi ta’minlanishiga zamin yaratilmoqda.

Shu bilan birga, aholining mehnat orqali daromad topishga bo‘lgan qiziqishini keskin oshirish, ayniqsa muhtoj oilalarning hunarmandchilik, kasanachilik va boshqa tadbirkorlik faoliyatini, shuningdek, hududlarda foydalanilmayotgan binolarda ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatishni, aholi tomorqalari va bo‘sh ekin maydonlaridan unumli foydalangan holda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish bilan bog’liq loyihalarni imtiyozli shartlarda moliyalashtirishni tizimli ravishda davom ettirishni taqozo etmoqda.

Respublika hududlarida aholining daromad topishga qaratilgan muayyan mehnat faoliyati bilan shug’ullanishiga, oilaviy tadbirkorlik rivojlanishiga har tomonlama ko‘maklashish va mazkur yo‘nalishdagi

ishlarni tizimli tashkil etish maqsadida:

1. Aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish va oilaviy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlar ijrosini tashkil etish va muvofiqlashtirish bo‘yicha:

Respublika komissiyasi tuzildi.

“Oilaviy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash markazlari tashkil etildi.

“Har bir oila — tadbirkor” dasturi doirasida: nazarda tutilgan loyihalar va tadbirlarni moliyalashtirish O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg’armasi, AT Xalq banki, “Mikrokreditbank” ATB, “Agrobank” ATB hamda xalqaro moliya institutlari kredit liniyalari mablag’lari hisobidan amalga oshiriladi;

Imtiyozli kreditlar oilaviy tadbirkorlik, daromad topishga qaratilgan muayyan mehnat faoliyati bilan shug’ullanish va faoliyat turini kengaytirish istagini bildirgan aholi hamda tadbirkorlik subyektlariga yillik 8 foiz stavkada 3 — 6 oygacha bo‘lgan imtiyozli davr bilan 3 yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga ajratiladi. Bunda, 2020-yil 1-yanvardan boshlab kreditlar AT Xalq banki, “Mikrokreditbank” ATB va “Agrobank” ATB orqali O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining asosiy stavkasida, 2022-yil 1-yanvardan boshlab tijorat banklari tomonidan yillik 14 foiz stavkada beriladi;

Tijorat banklari tomonidan bozor tamoyillari asosida mustaqil ravishda o‘rnatiladigan stavkalarda beriladigan kreditlar bo‘yicha foiz xarajatlarning bir qismini kompensatsiya qilish mexanizmi qo‘llaniladi;

Kreditlar bog’dorchilik, uzumchilik va limonchilikni tashkil etish uchun 3 yilgacha imtiyozli davr bilan 7 yilgacha muddatga, chorvachilik (qoramol, qo‘y, echki) uchun 1 yilgacha imtiyozli davr bilan 3 yilgacha muddatga har bir mahallaga biriktirilgan hokim yordamchisining tavsiyalariga muvofiq tuman (shahar) Oilaviy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash markazining asoslantirilgan va natijadorligi aniq hisob-kitob qilingan holdagi xulosasi asosida beriladi.

Mazkur qarorga muvofiq tijorat banklariga taqsimlangan mablag’lardan “Turonbank” ATBga kredit resursi sifatida qayta moliyalashtirilgan qismining 2021-yil 1-avgust holatiga qoldiq qismi O‘zbekiston Tiklanish va taraqqiyot jamg’armasining bank ustav kapitalidagi ulushini oshirish uchun yo‘naltiriladi.

Shunday tartib o‘rnatiladiki, unga asosan, O‘zbekiston Respublikasi

Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g’risida”gi PF-5242-son Farmoni,[41] 2018-yil 7-iyundagi ““Har bir oila — tadbirkor” dasturini amalga oshirish to‘g’risida”gi PQ-3777-son[42] va 2018-yil 14-iyuldagi “Aholi bandligini ta’minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi PQ-3856-son qarorlari[43] asosida imtiyozli kreditlar:

viloyatlar yoki tuman (shahar)lar Markazlari tomonidan oilalarning xohish va istaklari, tadbirkorlik subyektlari va yoshlarning loyihalari, ushbu faoliyatni amalga oshirish uchun yetarli sharoitlari mavjudligi chuqur o‘rganilib, har bir oila va tadbirkorlik subyektlarining taklif etayotgan loyihalariga kredit ajratish maqsadga muvofiqligi to‘g’risida beriladigan xulosalar asosida;

jismoniy shaxslarga tovarlar (xizmatlar) fiskal belgili kassa cheki asosida yetkazib berilgan (xizmatlar ko‘rsatilgan) va loyiha egasi undan qanoatlanish hosil qilganidan so‘ng ajratiladi va mahsulot yetkazib beruvchi (xizmat ko‘rsatuvchi)ning hisobraqamiga o‘tkazib beriladi.

Bunda:

mahsulotlarni yetishtirish va qayta ishlash jarayonida aholining, birinchi navbatda, muhtoj oilalarning ishtirokini va moddiy manfaatdorligini oshirish;

qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish bo‘yicha ilg’or xorijiy tajribalarni o‘rganish asosida ulardan mahalliy sharoitlarda keng foydalanish, klaster tizimini joriy qilishda xorijiy mutaxassislarni va mazkur sohada yuqori ko‘rsatkichlarga erishgan yetakchi tadbirkorlarni jalb qilish;

serhosil meva-sabzavot ekinlarini ekish, naslli chorva mollarini yetishtirish, tayyor mahsulotlarni saqlash va qayta ishlash jarayoniga zamonaviy innovatsion, resurs tejaydigan texnologiyalarni joriy qilish masalalariga alohida e’tibor qaratiladi.

O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi, Yoshlar ittifoqi va Markazlar bilan birgalikda:

---

[41] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5242-son Farmoi. 2017-yil 17-noyabr.

[42] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ““Har bir oila — tadbirkor” dasturini amalga oshirish to‘g‘risida”gi PQ-3777-son Qarori 2018-yil 7-iyundagi

[43] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholi bandligini ta’minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3856-son Qarorlari 2018-yil 14-iyul

tadbirkorlik sohasida muayyan tajriba va yutuqlarga erishgan tadbirkorni ularning soha va imkoniyatlarini o‘rgangan holda tajriba orttirish, ko‘nikma shakllantirish maqsadida “Ustoz-shogird” an’anasi asosida maslahatlarni berish bo‘yicha imtiyozli kreditlar olayotgan tashabbuskor, ayniqsa yosh tadbirkorlarga biriktiladi;

aholining, ayniqsa yoshlarning biznes g’oya va startaplarini amaliyotga tatbiq etishga har tomonlama ko‘maklashish maqsadida ilg’or xorijiy tajribadan kelib chiqqan holda “biznes inkubatorlar”ni tashkil etish choralarini ko‘radi.

Qoraqalpog’iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar, Toshkent shahar hokimliklari va Markazlarga:

hududlarning o‘ziga xos xususiyatini hisobga olib, “**bir mahalla — bir mahsulot**” tamoyili asosida har bir mahallani aniq bir yo‘nalishga ixtisoslashtirish, imtiyozli kreditlarni mavjud sharoit va oilalarning xohish-istaklari inobatga olingan holda ajratilishiga e’tibor qaratiladi;

shahar va tumanlar markazlarida foydalanilmasdan turgan binolarni tadbirkorlik subyektlariga ularda ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish loyihalarini amalga oshirish sharti asosida doimiy yoki uzoq muddatga foydalanish huquqi bilan berish vazifalari yuklatiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-avgustdagi “Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to‘g’risida”gi PQ-3182-son qarori[44]ga muvofiq tashkil etilgan sektor rahbarlari o‘zlari rahbarlik qilayotgan hududlarga ajratilgan imtiyozli kreditlarning maqsadli ishlatilishi ta’minlanishida va kreditlarning belgilangan muddatda qaytarilishiga mas’ul ekanligi belgilab qo‘yilsin hamda bu borada tijorat banklariga har tomonlama amaliy yordam ko‘rsatiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va loyihada ishtirok etayotgan tijorat banklariga, xonadonlarga tashrif buyurgan holda imtiyozli kreditlardan foydalanish samarasi, natijadorligi va belgilangan muddatlarda qaytarilishini muntazam ravishda nazorat qilib borish vazifasi yuklatiladi.

[44] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-avgustdagi “Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3182-son qarori

Asosiy tushunchalar:

Sudxo‘rlik krediti, kredit subyektlari, kredit obyektlari, kredit resurslari, kreditning tamoyillari, qaytarib berishlik, muddatlilik, ta’minlanganlik, to‘lovlilik, maqsadlilik, samaradorlik, kreditlarni tasniflash, qisqa muddatli, uzoq muddatli, kreditning turlari, muddatli kreditlar, muddati uzaytirilgan kreditlar, muddati o‘tgan kreditlar, tijorat krediti, tovar krediti, lizing krediti, bank krediti, ipoteka krediti, iste’mol krediti, davlat krediti, Xalqaro kredit, lombard krediti.

Mavzuni mustahkamlovchi savollar

1. Kredit so‘zining lug’aviy ma’nosi nimani anglatadi?
2. Sudxo‘rlik kreditining paydo bo‘lish sababi nimada?
3. Kredit- qanday iqtisodiy munosabatlar yig’indisi bo‘lib hisoblanadi?
4. Kreditning mohiyati nimada?
5. Kreditning zarurati nimada?
6. Kreditning subyektlari kimlar?
7. Kreditning obyekti nima?
8. Qanday bo‘sh pul mablag’laridan kredit resurslari sifatida foydalaniladi?
9. Kreditning eng muhim vazifalari nimalardan iborat?
10. Kreditning qaysi tamoyillariga rioya etiladi?
11. Kreditning qaytarib berishlik tamoyilidan maqsad nima?
12. Kreditning muddatlilik tamoyilidan maqsad nima?
13. Kreditning ta’minlanganlik tamoyilidan maqsad nimada?
14. Kreditning to‘lovlilik tamoyilidan maqsad nima?
15. Kreditning maqsadlilik tamoyili nimaga talab qilinadi?
16. Kreditning samaradorlik tamoyili qanday iqtisodiy samara beradi?
17. Kreditlarni tasniflashning ahamiyati nimadan iborat?
18. Kreditning berilish muddatiga qarab necha turlarga bo‘linadi?
19. Kreditlar qaytarilish muddatiga qarab qanday turlarga bo‘linadi?
20. Kreditlarni ishlab chiqarish jarayonidagi o‘rniga qarab qanday sarflanadi?
21. Kreditning qanday shakllaridan amaliyotda qo‘llaniladi?
22. Tijorat krediti qanday shaklda beriladi?
23. Mikrokreditlar qancha miqdorda beriladi?

24. Tovar krediti tovarlar va xizmatlar qanday beriladi?
25. Lizing krediti obyektlariga nimalar kiradi?
26. Bank krediti qanday shaklda beriladi?
27. Ipoteka kreditida nimalar garovga qo‘yib beriladi?
28. Iste’mol kreditida kimlar ishtirok etadi?
29. Ta’lim krediti berish tartib- qoidalari haqida fikr bering.
30. Davlat kreditining asosiy xususiyatlari nimada?
31. Xalqaro kreditning yuzaga kelishdan maqsad nima?

XI BOB. KREDIT BO‘YICHA FOIZ STAVKALAR VA ULARGA TA’SIR QILUVCHI OMILLAR

11.1. Ssuda foizi tushunchasi va uning bozor iqtisodiyotini rivojlantirishdagi o‘rni.
11.2. Ssuda foizining bahosi va uni aniqlash.
11.3. Ssuda foizini aniqlash usullari.

11.1 Ssuda foizi tushunchasi va uning bozor iqtisodiyotini rivojlantirishdagi o‘rni

Ssuda bu - bankdan pul shaklida berilgan kredit tushuniladi. Ssuda foizi (prosenti) kreditning to‘lovlilik tamoyilidan kelib chiqadi. Iqtisodiy adabiyotlarda «ssuda foizi», «qarz foizi», «kredit foiz stavkasi», oddiygina «foiz» yoki «protsent» kabi atamalar uchrab turadi. Ularning barchasi bir xil ma’noni bildiradi.

Ssuda foizi bu - kreditga olingan mablag’lardan foydalanganlik uchun to‘lanadigan haq tushuniladi. Boshqacha qilib aytganda, ssuda foizi kreditning bahosidir.

Ssuda foizi beriladigan kredit summasiga nisbatan avvaldan foizlarda belgilanadi. Ssuda foizi darajasi esa ssuda foizi summasining qarz miqdoriga nisbati bilan aniqlanadi. Masalan, korxona bankdan olgan 12 mln. so‘m Kredit uchun, har oyda 600 ming so‘mdan foiz to‘lasa, ssuda foizi darajasi 5 % ni tashkil etadi, ya’ni:

$$Sf.d = \frac{600000s}{12\,000\,000} \bullet 100 = 5\ \%$$

Ssuda foizi summasini aniqlash uchun ssuda summasi ssuda foizi darajasiga ko‘paytiriladi va 100 ga bo‘linadi:

$$Sf.s = 12000000s \bullet \frac{5}{100} = 600\,000\ s$$

Ssuda foizi quyidagi **vazifalarni** bajaradi:

Ssuda foizi kredit oluvchining ishlab chiqarish resurslari va qarzga olingan mablag’lardan unumliroq foydalanishga undaydi. Sababi, ssuda foizi summasi kredit oluvchi olgan daromad hisobidan to‘lanadi. Shu tufayli

kredit oluvchi koʻproq daromad olishga harakat qiladi.

Ssuda foizi olinadigan kredit miqdorini chegaralab qoʻyadi. Sababi, kredit oluvchi qancha koʻp qarz olsa, shuncha koʻp ssuda foizi toʻlaydi va aksincha, qancha kam olsa, shuncha kam toʻlaydi. Shuning uchun kredit oluvchi oʻziga zarur boʻlgan eng kam miqdordagi qarz olishdan manfaatdordir. U nisbatan kamroq mablag' sarflab, koʻproq daromad olishga intiladi.

Ssuda foizi banklar va boshqa maxsus moliya-kredit muassasalarining asosiy daromad manbai hisoblanadi. Ular tomonidan jalb etilgan mablag'lar, ya'ni, depozit va omonatlar uchun toʻlovlar ham ana shu ssuda foizi hisobidan amalga oshiriladi.

11.2. Ssuda foizining bahosi va uni aniqlash

Kredit turlari va shakllari xilma-xil boʻlgani kabi, ular uchun toʻlanadigan ssuda foizlari ham turlicha boʻladi. Ulardan ayrimlarini koʻrib chiqamiz:

Kreditni qaytarish vaqtida birdan toʻlanadigan ssuda foizi. Masalan, kredit summasi – 1000 000 soʻm, muddati - 3 oy (90 kun), yillik ssuda foizi darajasi - 60 % (360 kun uchun). Kredit oluvchi kredit muddati bitgach, kreditni qaytaradi va 150 ming soʻm ssuda foizi toʻlaydi.

$$C_{\phi.c.} = \frac{1000000\,\text{c} \bullet 60 \bullet 90}{360 \quad 100} = 150000c$$

Kredit berilgan muddatda 1 me'yorda toʻlab boriladigan ssuda foizi. Yuqoridagi misolga qaytadigan boʻlsak, endi qarzdor ssuda foizini oyma – oy 50.000 soʻmdan toʻlab boradi.

$$C_{\phi.c.} = \frac{1000000\,\text{c} \bullet 60 \bullet 30}{360 \quad 100} = 50000c$$

Kredit berilayotgan paytda birdan toʻlanadigan ssuda foizi. Yuqoridagi misolga qaytamiz, faqat kredit muddati 1 oy (30 kun) deb olamiz. Bu holda qarz oluvchi avvaldan 1 oylik ssuda foizini, ya'ni, 50000 soʻm toʻlaydi yoki qarz beruvchi kredit summasidan 50000 soʻm ushlab qolib (1000000 soʻm– 50000 soʻm) 950000 soʻm beradi.

Qat'iy belgilab qoʻyiladigan ssuda foizi odatda, kredit shartnomasi amal qilgan muddatda oʻzgarmasdan qoladi. Bunday ssuda foizlarini **nominal** ssuda foizi ham deyiladi. Mazkur ssuda foizi kredit beruvchi manfaatlariga zid kelishi ham mumkin. Ayniqsa, inflyatsiya sharoitida bunga yoʻl

qo‘yilmaydi.

Suzib yuruvchi, ya’ni, o‘zgaruvchan ssuda foizi. Bu holda kredit beruvchi tomonidan ssuda foizi har oyda kredit resurslari bozoridagi talab va taklifga qarab qayta hisoblab boriladi.

Real ssuda foizi deganda inflyatsiya darajasini hisobga olgan holda belgilanadigan ssuda foizi tushuniladi. Masalan, oylik nominal ssuda foizi – 5 %, oylik inflyatsiya darajasi – 2 %. Bu holda real ssuda foizi 7 % (5 %+2 %) ni tashkil etadi.

11.3. Ssuda foizini aniqlash usullari

Ssuda foizi darajasiga ko‘p omillar ta’sir etadi, ulardan asosiylari quyidagilardan iborat:

1.Pul bozoridagi, ya’ni, kredit resurslari «kim oshdi» savdosidagi (auksion) kredit resurslariga bo‘lgan talab va taklif nisbati. Agar talab ortsa, ssuda foizi yuqori va aksincha taklif ko‘paysa, ssuda foizi past bo‘ladi. O‘zbekistonda kredit resurslari «kim ochdi» savdosi 1995-yildan beri faoliyat ko‘rsatmoqda, unda asosan tijorat banklari qatnashmoqdalar.



11.3 - Chizma. Ssuda foiziga ta’sir qiluvchi omillar[45]

2.Kreditga olinadigan mablag’larni ishlatishdan olinadigan foyda

[45] Muallif ishlanmasi

darajasi, ya’ni, kredit samaradorligi. Agar tadbirkor kreditni 10 % hisobidan olsa-yu, uni ishlatish 20 % foyda bersa, u qarzni 12 % ga ham olishi mumkin.

3.Kredit muddati va shartlari. Agar kredit uzoq muddatga berilsa va uni qismlarga bo‘lib to‘lash mumkin bo‘lsa, ssuda foizi yuqori bo‘ladi. Agar kredit qisqa muddatga berilsa va uni birdaniga qaytarish lozim bo‘lsa, ssuda foizi darajasi past bo‘ladi.

4. Kredit qanday valyutada berilgan. Agar kredit erkin muomaladagi valyutada berilsa, ssuda foizi darajasi yuqori bo‘ladi va aksincha erkin muomalada bo‘lmagan valyutada berilsa, ssuda foizi darajasi past bo‘ladi.

5. Pulni muqobil ishlatish imkoniyati. Agar pulni qarzga berish o‘rniga boshqacha ishlatish ko‘proq foyda keltirsa, kredit taklifi qisqaradi va ssuda foizi darajasi ortadi.

6. Kredit xavf-xatari darajasi. Agar kredit xavf-xatari yuqori bo‘lsa, ssuda foizi darajasi yuqori belgilanadi va aksincha, xavf-xatar darajasi past bo‘lsa, ssuda foizi darajasi ham past darajada belgilanadi.

7. Inflyatsiya darajasi. Agar iqtisodiyotda inflyatsiya darajasi yuqori bo‘lsa, ssuda foizi ham yuqori, aksincha inflyatsiya darajasi past bo‘lsa, ssuda foizi darajasi ham past bo‘ladi.

8. Jalb qilingan mablag’lar uchun to‘lanadigan foizlar darajasi. Agar depozit va omonatlar uchun to‘lanadigan foizlar yuqori bo‘lsa, ssuda foiz darajasi ham yuqori bo‘ladi.

9. Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasi. Hozirgi paytda O‘zbekiston Markaziy banki tijorat banklari tomonidan beriladigan kreditlar bo‘yicha ssuda foizining eng yuqori darajasini chegaralab qo‘ymoqda. Agar Markaziy bank qayta moliyalashtirish stavkasi oyiga 14 % deb belgilangan bo‘lsa, tijorat banklari tomonidan beriladigan kreditlar uchun ssuda foizi undan 1,5 barobarga ko‘p, ya’ni, 18 % gacha belgilanishi mumkin.

Hozirda O‘zbekistonda tijorat banklari tomonidan ssuda foizlari belgilanayotganda yuqoridagi omillardan oxirgi 3 tasi e’tiborga olinmoqda, ya’ni:

- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki qayta moliyalashtirish stavkasi;
- jalb etilgan mablag’lar uchun to‘lanadigan foizlar darajasi;
- inflyatsiya darajasi.

Asosiy tushunchalar:

Ssuda, ssuda foizi, nominal ssuda. suzib yuruvchi ssuda, real ssuda, sudxo‘rlik krediti, kredit subyektlari, kredit obyektlari, kredit resurslari, kreditning tamoyillari, qaytarib berishlik, muddatlilik, ta’minlanganlik, to‘lovlilik, maqsadlilik.

Mavzuni mustahkamlovchi savollar

1. Ssuda so‘zining ma’nosi nima?
2. Ssuda foizi deb nimaga aytiladi?
3. Ssuda foizi qanday belgilanadi?
4. Ssuda foizi qanday vazifalarni bajaradi?
5. Ssuda foizining turlari qanday?
6. Nominal ssuda foiziga ta’rif bering
7. Suzib yuruvchi ssuda foiziga ta’rif bering.
8. Real ssuda foiziga ta’rif bering.
9. Ssuda foiziga ta’sir etuvchi omillar nimalardan iborat?
10. O‘zbekistonda tijorat banklari tomonidan ssuda foizlari belgilanayotganda qanday omillar e’tiborga olinmoqda?

XII BOB. BANKLARNING KELIB CHIQISHI VA BANK TIZIMI

12.1. Banklarning paydo bo‘lishi.

12.2. Bank tizimi tushunchasi, tashkil etish xususuyatlari.

12.1. Banklarning paydo bo‘lishi

«Bank» so‘zi italyancha «banko» so‘zidan olingan bo‘lib, pul muomalasi va kredit munosabatlari amalga oshiriladigan «stol», «peshtaxta», «kursi» ma’nolarini bildiradi. Banklar dastlab G’arbiy Yevropaning Genuya, Florensiya va Venetsiya shaharlarida o‘rta asrlarda paydo bo‘lgan.

Banklarning paydo bo‘lishiga asosiy sabab, tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi hisoblanadi. Tovar-pul munosabatlarining mavjudligi va ularning rivojlanib borishi barcha ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlarda ham banklarni faoliyat ko‘rsatishlarini taqozo qiladi.

Banklarning paydo bo‘lishiga asosiy sabablardan quyidagilarni ko‘rib chiqamiz:

1.Ma’lumki, qadimda kishilar ancha tarqoq, bir-birlaridan uzoqda yashaganlar. Ular turli urushlar, bosqinchilik va talonchilik natijasida ko‘p jabrlanganlar. Dastlabki banklar ana shu zamonlarda paydo bo‘lgan. Ular yirik shaharlar, aholi kecha-kunduz gavjum bo‘ladigan bozorlar, karvonsaroylar, ibodatxonalar va portlarda mustahkam binolarda joylashganlar. Puldorlar o‘z pullari va boyliklarini ma’lum haq to‘lash evaziga ana shu banklarda saqlaganlar. Shunday tarzda banklarning birinchi **pulni saqlash** operatsiyalari vujudga kelgan.

2. O‘rta asrlarda yirik davlatlar juda kam, aksincha, mayda feodal davlatlar – knyazlik, graflik, xonlik, amirlik va shu kabilar juda ko‘p bo‘lgan. Har bir hukmdor taxtga o‘tirgach, birinchi navbatda o‘z nomidan tanga zarb etgan. Bu tangalar avvalgilaridan o‘zgacha bo‘lgan. Ana shu sababli savdo-sotiqda turli-tuman tangalar ishlatilgan. Ular bir-birlaridan vazni, shakli, ko‘rinishi va tarkibi jihatidan farq qilganlar. Bu tangalarning haqiqiyligi, tarkibi va qiymatini aniqlash, ularni bir-biriga taqqoslash, shuningdek, almashtirish zarurati tug’ilgan. Bu vazifalarni dastlab **sarroflar**, keyinroq esa banklar bajara boshlaganlar. **Pul almashtirish** qadimiy banklarning ikkinchi operatsiyalaridir.

3. Pul saqlash va almashtirish bilan shug’ullanish natijasida banklarda katta miqdorda pul mablag’lari jamg’arila borgan. Ammo bu pullar harakatsiz yotgan. Asta-sekin bank egalari bu pullarni ma’lum haq evaziga o‘z nomlaridan qarzga bera boshlaganlar. Qarzni o‘z muddatida qaytarilishini kafolatlash uchun qarz oluvchining mol-mulki (uy-joyi, yeri, kemalari va boshqalar) garovga olingan. Ana shunday tarzda banklarning uchinchi operatsiyalari, ya’ni, **kredit operatsiyalari** kelib chiqqan. Endi banklar **sudxo‘rlik** bilan ham shug’ullana boshlaganlar.

4. Ma’lumki, bank egasi tomonidan bankka pul qo‘ygan har bir kishining pul qo‘yishi va olishi hisob-kitobi «temir daftarda» olib borilgan. Shunday hollar ham bo‘lganki, bir-biri bilan savdo-sotiq yoki «oldi-berdi» qiluvchi ikki va undan ortiq kishilar bir bankda o‘z pullarini saqlaganlar. Ular har safar bankdan naqd pul olishlari, o‘zaro hisob-kitob qilgandan so‘ng, uni yana qaytarib bankka qo‘yishlari lozim bo‘lgan. Boshqacha qilib aytganda, bank egasi yerto‘ladagi sandiqlarni ochib, pulni egasiga bergan, u esa o‘z navbatida ikkinchi kishiga bergan. Ikkinchi kishi esa pulni yana bankka qo‘ygan, ya’ni, sertashvish «pulni shamollatish operatsiyasi» o‘tkazilgan, xolos.

Bu ovoragarchilikdan ko‘ra, bank egasi tomonidan «Temir daftar» dagi pul beruvchining pulini ma’lum miqdorga kamaytirib, pul oluvchinikiga qo‘shib qo‘ysa bo‘ladi-ku! Ana shunday qilib kishilar banklar orqali **naqd pulsiz hisob-kitoblar** qila boshlaganlar.

Ko‘rib chiqqanimizdek, qadimgi banklarning dastlabki operatsiyalari quyidagicha rivojlangan:



11.1-Chizma. Qadimgi banklarning operatsiyalari

Hozirgi banklar o‘z mijozlariga bir necha yuzlab turdagi xizmatlar ko‘rsatmoqdalar. Endi ular qadimiy sarroflarning ko‘rimsiz do‘konchalari-yu, sudxo‘rlarning yarim qorong’i uylariga sira o‘xshamaydilar. Ular katta-

kichik shaharlarning eng muhtasham binolarida joylashganlar, u yerda eng zamonaviy jihozlar o‘rnatilgan bo‘lib, maxsus ma’lumotlarga ega bo‘lgan minglab mutaxassislar ishlashadi.

Banklarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o‘rni beqiyosdir. Ularni bejiz «iqtisodiyot qon tomirlari» yoki «iqtisodiyot lokomotivlari» deb aytishmaydi.

Banklar dastlab G’arbiy Yevropaning Genuya, Florensiya va Venetsiya shaharlarida o‘rta asrlarda paydo bo‘lgan.

Banklarning rivojlanish tarixi 5 ta bosqichga bo‘linadi:

I bosqich- Natural banklar tizimi, Antik davrdan to 1156-yillargacha natural banklar tizimi davrida bank tipidagi turli xildagi pul operatsiyalari bilan shug’ullanuvchilar tomonidan dastlab quyidagi operatsiyalar bajarilgan: Pulni almashtirish; Ssuda berish (ko‘proq natural shaklda); Omonatga pul mablag’larini jalb qilish.

Ular asosan cherkovlar (ibodatxonalar). Yunon cherkovlari (ibodatxonalari): Delf, Delos, Samos, Efis va bosh. Qadimgi Misr ehromlari, masjidlar, Samarqandda (Kattaqo‘rg’on, Yangiqo‘rg’on, Oqqo‘rg’on va bosh.) qo‘rg’onlar, atroflari baland o‘ralgan mustahkam binolarda Buxoro va Xorazm (Arklar)da pul operatsiyalari bilan shug’ullanishgan.

II bosqich- Jiro banklar tizimi (1156-yildan to XIX asrning yarmigacha). Bu davr uchun xarakterli bo‘lgan bank operatsiyalari: Bir hisob raqamdan ikkinchi raqamga pul o‘tkazish operatsiyalari (jiro operatsiyalar);

Depozit operatsiyalari shakllari paydo bo‘lishi; Lombard bilan bog’liq operatsiyalar.

III bosqich-Klassik bank tizimi (XVII asrning yarmidan XIX asrning birinchi yarmigacha). Emission banklar; Xususiy aksionerlik tijorat emission banklar; Davlat aksionerlik tijorat banklar; Ixtisoslashgan banklar; Savdo banklar; Ipoteka banklar; Jamg’arma banklar.

Emission banklar; 1668-yili (1650 Stokgolm banki) Shvetsiya Riks tijorat banki; 1694-yili Angliya davlat aksionerlik tijorat banki; 1716-yil Fransiya “Bank de General” emission aksionerlik bank. 1718-yilda “Kirol Bank”; 1781-yil Shimoliy Amerika banki;1791 yil birinchi AQSh tijorat emission banki;1816-yili ikkinchi AQSh tijorat emission banki; 1800-yil Fransiya banki;1814-yil Niderlandiya Banki; 1817-yil Kanada “Bank of Monreal” tijorat banki.

Ixtisoslashgan banklar: Savdo banklari: 1695-yilda Shotlandiya Kirol Banki; 1706-yilda Britaniya xolos savdo kompaniyasi banki; 1754-yili Rossiyada dvoryanlar Sankt-Peterburg porti savdoni banki; 1763-yil Angliyada “Baning Brothers” savdo banki; 1764-yili Peterburg va Astraxan tashqi savdo banki;1767- yili Peterburg dengiz savdosi banki; 1786-yili Rossiya Davlat Yer banki;1832-yili “Bank of Nova Scosia” Kanada tijorat banki.

Ipoteka banklar: 1770-yili Siliziyada Davlat Ipotek banki: 1778-yili Franfurt-na –Mayeneda xususiy ipoteka banki.

Jamg’arma banklar: 1776-yili Parij hisob kassasi; 1822-yili Italiya jamg’arma bank. Bu bosqichlarda quyidagi bank operasiyalari amalga oshirilgan; Depozit operatsiyalari omonat (muddatli, muddatsiz va jamg’arma) paydo bo‘ldi; Emission tijorat banklar; Ixtisoslashgan banklar operatsiyalari.

IV bosqich-Ikki pog’onali banklar tizimi (XIX asrning yarmidan XX birinchi yarmigacha) Yuqori pog’onada: Monopol emission banklar: Quyi pog’onada: Ixtisoslashgan banklarning kengayishi; Universal banklarning shakllanishi; Nobank muassasalar.(XIX asrning II yarmi)

Monopol emission banklar. 1844-yilda Angliya banki; 1848-yilda Fransiya Banki; 1850-yilda Belgiya milliy banki; 1860-yilda Rossiya Davlat banki; 1874-yili Ispaniya Davlat banki; 1863-yili AQSh Milliy emission Charter (charter) tijorat banklari; 1875-yilda Germaniya Reyxs Banki; 1893-yilda Italiya Davlat banki; 1907-yilda Shveysariya Milliy banki; 1913-yili AQSh Federal Zaxira Tizimi (banklari).

Quyi pog’onada: Ixtisoslashgan banklarning kengayishi; 1869-yili Peterburg Xalqaro banki, 1871-yili Rus Tashqi Savdo banki, 1864-yili Peterburg xususiy tijorat banki, 1869-yili Peterburg Hisob va ssuda banki, 1870-yili Volga-Kama banki, 1890-yili Azov-Don banklari.

Universal banklarning shakllanishi; Credit Industrial Et Commercial (1859), Credit Lyonnais (1863), Societe General (1864).

V bosqich-Zamonaviy universal banklar tizimi. (XX asrning birinchi yarmidan hozirgi kungacha). Yuqori pog’ona: Markaziy banklar. Quyi pog’ona: Zamonaviy tijorat banklar; Nobank muassasalar.

Markaziy Banklar. Emission faoliyat; Hukumat bankiri; Banklar banki; Davlat oltin valyuta zaxiralarini saqlash; Monetar siyosatni olib borish.

Zamonaviy tijorat banklar. Munitsipal yoki kommunal banklar;

Universal banklar; ixtisoslashgan banklar; Ipoteka banklar; Ssuda jamg’arma banklar (Jamg’arma banklar); innovatsion banklar; Ulgurji banklar; Yunit banklar; Hisob (diskont) banklar; Chet el banklari.

Universal banklarning paydo bo‘lishi. Banklarga xos bo‘lgan barcha operatsiyalarni bajaradigan banklar. Bu turdagi banklar 100- 300 xil operatsiyalarni bajaradilar.

Nobank tashkilotlar (XIX asrning II yarmi). Kredit uyushmalari, kooperativ-jamg’arma nobank institutlar.

Sug’urta kompaniyalar. Kutilmagan holatlar natijasida keltirilgan zararlarni qoplashga ko‘maklashuvchi nobank tashkilotlar. Nodavlat pensiya fondlari ijtimoiy qatlamni himoya qilish uchun tashkil etiladigan muassasalar. Investitsiya kompaniyalari - aksiya chiqarish bilan bo‘sh pul mablag’larini jalb qilish va davlat hamda kooperatsiya qimmatli qog’ozlariga joylashtiradi. Ssuda jamg’arma, assotsiatsiyalar, qurilish sohasini moliyalash uchun tashkil etilgan kredit ittifoqlar. Moliya kompaniyalari iste’mol kredit sohasida faoliyat yuritadigan nobank muassasalar. Beg’araz fondlar ijtimoiy sohalarni moliyalash uchun tashkil etilgan nobank tashkilotlar.

O‘zbekistonda bank tizimining paydo bo‘lishi hamda rivojlanishi.

Mustamlaka davri. Mustaqillik davri.

Mustamlaka davrida bank tizimi. Birinchi bosqich (1875-1917 yy.) Bank tizimining paydo bo‘lishi va shakllanishi.

Ikkinchi bosqich (1917-1988yy.). Monobank tizimi paydo bo‘lishi va rivojlanishi. 1917-1930 yy. Monobank tizimi.

Uchinchi bosqich (1988-1991yy.) Monobank tizimining yo‘q bo‘lishi va bank tizimining inqirozi.

Turkiston bank tizimining paydo bo‘lishi. Toshkent shahrida ochilgan bo‘limlar.1875-yili Rus davlat bankining Toshkentdagi bo‘limi. 1875-yili omonat kassasi tashkil qilindi. 1880-yili S.K.Glinskiy va KO bankirlar uyi: 1881-yili O‘rta Osiyo aksiyadorlik banki; (1889-yilgacha faoliyat yuritgan) 1893-yili Volga Kama banki bo‘limi; 1903-yili Rus Xitoy banki bo‘limi; 1908-yilda birgalikda kreditlash Toshkent jamiyati; 1889-yili Nijniy Novgorod Samara banki agentligi; 190-yili Poltava Yer banki bo‘limi; 1901-yili rus tashqi savdo filiali; 1909-yili Moskva hisob kassa bo‘limi.

Samarqand shahrida tashkil etilgan filiallar. 1889-yili Rus davlat banki bo‘limi; 1901-yili Moskva hisob kassasi; 1903-yili Rus Xitoy banki;

1911-yili Rus Osiyo banki bo‘limi.

Qo‘qonda ochilgan bo‘limlar. 1897-yili rus davlat banki; 1901-yili Rus Xitoy banki; 1907-yili rus tashqi savdo banki; 1909-yili Moskva hisob kassa bo‘limi ochilgan.

Qo‘qonda tashkil etilgan filiallar. 1901-yili Moskva xalqaro savdo banki; 1905-yili rus davlat banki; 1907-yili Sibir savdo banki va Rus tashqi savdo banki bo‘limlari; 1909-yili qo‘shma bank.

Mustaqil O‘zbekiston bank tizimi.

Birinchi bosqich (1991-1994 yy.) Milliy valyutagacha bank tizimi.

Ikkinchi bosqich (1994-1996 yy.) Xususiy banklar yaratilishi.

1995-yil 21-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g’risida”gi, 1996-yil 25-apreldagi “Banklar va bank faoliyati to‘g’risida”gi Qonunlar.

Uchinchi bosqich (1996-1999 yy.) Chet el kapitalining kirgizishni jadallashishi va rivojlanishi.

To‘rtinchi bosqich (1999- yildan hozirgacha). Rivojlanish.

12.2. Bank tizimi tushunchasi, tashkil etish xususuyatlari

Bank deb, pul mablag’larini yig’uvchi, saqlab beruvchi, kredit va hisob-kitoblar, shuningdek, boshqa har xil vositachilik operatsiyalarini bajaruvchi muassasalarga aytiladi.

O‘zbekiston Respublikasining 1996-yil 25-aprelida qabul qilingan «Banklar va bank faoliyati to‘g’risida» gi Qonuniga ko‘ra:

Bank – bank hisob varaqlarini ochish va yuritish, to‘lovlarni amalga oshirish, omonatlarga (depozitlarga) pul mablag’larini jalb etish,o‘z nomidan kreditlar berish bo‘yicha bank faoliyati sifatida aniqlangan operatsiyalar majmuini amalga oshiruvchi tijorat tashkiloti bo‘lgan yuridik shaxs.* O‘zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to‘g’risida» gi Qonuni (yangi tahriri) 2019yil 12-dekabr.

- yuridik va jismoniy shaxslardan omonatlar qabul qilish hamda qabul qilingan mablag’lardan tavakkal qilib kredit berish yoki investitsiyalar uchun foydalanish;
- to‘lovlarni amalga oshirish.

Chet el banki – Chet el bankining o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi hududida amalga oshiradigan sho‘ba banki bo‘lib, uning ustav

kapitalining hammasi chet el banki tomonidan to‘lanadi.

Banklar O‘zbekiston Respublikasida o‘z filiallarini, chet el banklari esa o‘z vakolatxonalarini Markaziy bankning ruxsati bilan ochishlari mumkin.

Bank filiali – uni tashkil etgan bank nomidan bank faoliyatini amalga oshiruvchi alohida bo‘linmadir.

Chet el banki vakolatxonasi – bank faoliyatini amalga oshirmagan holda, bankning manfaatlarini ko‘zlab ish yurituvchi alohida bo‘linmadir.

Yuqoridagi ta’riflardan kelib chiqqan holda quyidagilarga e’tibor berish lozim:

«Bank filiali» va «Bank bo‘limi» mohiyatan bir xil tushuncha bo‘lib, ular mijozlar uchun bank operatsiyalarini amalga oshiradilar, ya’ni, bank faoliyati bilan shug’ullanadilar.

Bank vakolatxonalari esa bank faoliyati bilan shug’ullanmaydilar, balki o‘zlarining bosh banklari manfaatlaridan kelib chiqqan holda, mamlakat iqtisodiyotini o‘rganadilar, tahlil etadilar, turli hisobotlar tuzadilar, o‘zlarining taklif va xulosalarini bosh bankka taqdim etadilar.

O‘zbekiston mustaqilligiga erishilgan 1991-yilda tijorat banklarning soni 16 ta bo‘lgan bo‘lsa, 2018-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, faoliyat ko‘rsatayotgan jami banklar soni 28 tani, shulardan 3 tasi davlat, 13 tasi aksiyadorlik-tijorat, 7 tasi xususiy va 5 tasi xorijiy kapital ishtirokidagi tijorat banklarini tashkil etdi.

Shuningdek, banklarning joylardagi 9 mingdan ortiq bo‘lim va filiallari, hamda mini-banklari mijozlarga samarali bank xizmatlarini ko‘rsatmoqdalar.

Banklar kredit tizimining eng muhim bo‘g’ini bo‘lib, ularning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- jamiyatdagi bo‘sh pul mablag’larini yig’ish va jamlash, ularni kredit va investitsiyalar sifatida iqtisodiyotni rivojlantirish uchun sarflash, ya’ni, harakatdagi kapitalga aylantirish;
- to‘lovlarda vositachilik qilish. Banklar o‘z mijozlarining topshiriqlariga asosan to‘lovlarni amalga oshiradilar, mablag’larini hisobvaraqlar(schyot)iga qabul qiladilar, pul tushumlarini hisobga oladilar, mijozlarga naqd pul mablag’larini beradilar va boshqalar;
- muomalaga kredit vositalari, turli qiymatli qog’ozlarni chiqarish, sotish va sotib olish hamda boshqalarni amalga oshirish;
- chet el valyutasi bilan bog’liq bo‘lgan operatsiyalarni amalga oshirish

va boshqalar.

Asosiy tushunchalar:

Bank, pulni saqlash, sarroflar, pul almashtirish, kredit operatsiyalari, naqd pulsiz hisob-kitoblar, banklar tasnifi, emission banklar, tijorat banklar, ixtisoslashgan banklar, universal banklar, davlat banklari, davlat aksiyadorlik banklari, aksiyadorlik banklar, xususiy banklar, qo‘shma banklar, bank tizimi, ikki pog’onali bank tizimi, banklar (assotsiatsiya) uyushmasi

Mavzuni mustahkamlovchi savollar

1. «Bank» so‘zi qanday ma’nolarni bildiradi?
2. Banklarning paydo bo‘lishiga asosiy sabablar nimada?
3. Banklarning birinchi pulni saqlash operatsiyalari qanday vujudga kelgan?
4. Pul almashtirish banklarning qanday operatsiyalari?
5. Banklarda kredit operatsiyalari kelib chiqishining asosiy jihatlari nimada?
6. Banklarning sudxo‘rlik bilan ham shug’ullanish operasiyalari qanday bank operatsiyalariga asos bo‘lgan?
7. Banklar orqali naqd pulsiz hisob-kitoblar qilishga nimalar sabab bo‘lgan?
8. Bank qanday faoliyat turlarini amalga oshiradi?
9. Chet el banki qaysi mablag’lar asosida tashkil etiladi?
10. Bank filiali qanday faoliyatni amalga oshiradi?
11. Banklarning asosiy vazifalari nimalardan iborat?

XIII BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK TIZIMI VA UNING TARKIBI

13.1. O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini rivojlanishi.
13.2. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini qonuniy asoslari.
13.3. Makroiqtisodiy rivojlanishda banklarning o‘rni.

13.1. O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini rivojlanishi

Bank tizimi kredit tizimining eng asosiy bo‘g’ini bo‘lib, bank operatsiyalarini amalga oshiruvchi barcha turdagi banklar majmuidan iboratdir. Bank tizimi doimiy ravishda takomillashib boradi. Uning u yoki bu ko‘rinishda bo‘lishi mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatga bog’liq.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgunga qadar Respublikamiz bank tizimi sobiq SSSR bank tizimining tarkibiy qismi bo‘lib, unda faqat bir necha banklar, ya’ni, SSSR Davlat banki, SSSR Sanoat-qurilish banki, SSSR Agrosanoat banki, SSSR uy-joy qurilish va ijtimoiy ta’minot banki, SSSR Tashqi iqtisodiy faoliyat banki va SSSR Davlat mehnat omonat jamg’arma kassalarining Respublika, viloyat idoralari va tuman bo‘limlari faoliyat ko‘rsatar edi. Butun bank tizimi Markazdan boshqarilib, kreditlash jarayonlari belgilangan limitlar asosida Markazning ruxsati bilan amalga oshirilar va barcha masalalarni Markazdan hal qilinar edi.

Ana shu sababli O‘zbekistonda bozor iqtisodiyoti talablariga javob bera oladigan, xorijiy mamlakatlarda qabul qilingan, sifat jihatidan yangi bank tizimini yaratish zarur edi. Hozirgi paytda O‘zbekistonda ham barcha mamlakatlarda qabul qilingan **ikki pog’onali** bank tizimi amal qilmoqda. U quyidagi ko‘rinishda. (13.1 – Chizma)

O‘zbekistonda ikki pog’onali bank tizimini tashkil etishga real asos bo‘lib, 1991-yil 15-fevralda qabul qilingan «Banklar va bank faoliyati to‘g’risida»gi Qonun hisoblanadi. Unga ko‘ra davlat boshqaruv idoralari Respublika Markaziy banki faoliyatiga aralashmaslik, u faqat Respublika Oliy Majlisiga hisobot berishi o‘rinli ekanligi belgilab qo‘yildi. Markaziy bank o‘zining kredit tizimidagi o‘rnini saqlab qolgan holda, korxona va tashkilotlarga kredit berish, ular bilan hisob-kitoblarni olib borish funksiyasini tijorat banklariga beradi. Markaziy bank tijorat banklari faoliyatini boshqaruvchi, barcha banklar uchun bir xil pul-kredit siyosatini

olib boruvchi muassasaga aylandi.

I - pog’ona



II- pog‘ona Tijorat banklari va banklarning mijozlari

13.1 – Chizma. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi

O‘zbekiston bank tizimini rivojlantirishda 1995-yil 21-dekabrda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g’risida»gi, 1996-yil 25- apreldagi «Banklar va bank faoliyati to‘g’risida»gi qonunlar yangi bosqichni boshlab berdi. Bu qonunlarga binoan banklar faoliyatining huquqiy asoslari yaratib berildi va ularning ishlash usullarini takomillashtirish choralari ko‘rib chiqildi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki bank tizimining birinchi pog’onasi sifatida pul-kredit munosabatlarini tartibga solish va banklar faoliyatini nazorat qilish muassasasiga aylandi. Bank tizimining ikkinchi pog’onasini esa bank faoliyati subyektlari, ya’ni, tijorat banklari tashkil etadilar.

Tijorat banklari bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlashga moslashtirilgan bo‘lib, o‘z mijozlariga bank xizmatlarini ko‘rsatadilar. Tijorat banklari faoliyatining pirovard natijalari o‘z aksiyadorlariga dividendlar, omonatchilari va kreditorlariga esa foiz sifatida daromad keltirishi qoidaga aylantirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xususiy tijorat banklari tashkil qilishni rag’batlantirish chora-tadbirlari to‘g’risida» gi Farmoni bank tizimiga xususiy kapitalni kirib kelishini faollashtirdi. Natijada so‘nggi yillarda xususiy banklar soni keskin ko‘payib 10 taga yetdi.

Mamlakatimizda chet el sarmoyadorlari uchun yaratilgan sharoitlar va kafolatlar xorijiy kapital ishtirokidagi qo‘shma banklarni tashkil etish imkonini berdi. Hozirgi paytda respublikamizda 35 ta tijorat banklar bo‘lib, 10 tasi davlat ulushi mavjud banklar va 25 tasi xorijiy sarmoya ishtirokidagi boshqa banklar, hamda bir nechta xorijiy banklar bo‘limlari faoliyat ko‘rsatmoqdalar.

13.2. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini huquqiy asoslari

Istiqlol yillarida respublikamizda barqaror va samarali ishlovchi bank tizimi asoslari shakllantirildi.

Mustaqillik yillaridagi islohotlar, ayniqsa, bank tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar davlatimiz siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bunda, Prezidentimizning mustaqil O‘zbekistonning milliy iqtisodiyotini yaratish, uni yanada rivojlantirishga, qaratilgan beshta muhim tamoyillari asos qilib olindi.

Mustaqillik arafasida bank tizimi oldida bir qator jiddiy muammolar turar edi. Xususan, bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun zarur texnologiyalar va hatto oddiy kompyuter texnikasiga talabning yuqoriligi, bozor tamoyillariga asoslangan bank tizimi faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar va me’yoriy hujjatlarning mavjud emasligi, nodavlat kapital va resurs bazasining zaifligi, ayniqsa, yangi tartibda samarali faoliyat ko‘rsata oluvchi yuqori malakali bank sohasi rahbarlari va mutaxassislarining taqchilligi kabi o‘tkir masalalar mavjud ediki, ular faqat davlatimiz rahbarining e’tibori asosida muvaffaqiyatli hal etildi.

Mustaqillik yillarida zamonaviy bank tizimini shakllantirish va uni xalqaro me’yorlarga mos ravishda rivojlantirish borasida amalga oshirilgan ishlarni sarhisob qilinsa, 1991-2000-yillarni o‘z ichiga olgan dastlabki bosqichda quyidagi muhim tadbirlar amalga oshirilganligini guvohi bo‘lamiz.

Birinchidan, xalqaro me’yorlarga to‘la mos bo‘lgan, iqtisodiyotning “qon tomiri” hisoblanmish bank tizimini barpo etish uchun barcha imkoniyatlardan keng foydalanildi.

Hukumat tomonidan Markaziy bank oldiga mamlakat iqtisodiyotining pul mablag’lariga bo‘lgan talabini qondirishdek g’oyat muhim vazifalar qo‘yildi va sifat jihatidan yangi bank tizimini yaratish vazifalari belgilab

olindi.

O‘zbekistonning avvalgi bank tizim bir pog’onali, ya’ni, sobiq ittifoqning ixtisoslashtirilgan Davlat banki. Jamg’arma bank va boshqa banklarning respublika bo‘linmalaridan iborat bo‘lgan bo‘lsa, mustaqillikka erishilgandan so‘ng, mamlakatda ikki pog’onali, ya’ni, yuqori pog’onada bosh maqsadi milliy valyuta –so‘mning barqarorligini ta’minlash hisoblangan, pul-kredit va bank tizimini tartibga soluvchi va nazorat qiluvchi yagona organ – zaxira va emission muassasa – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tashkil etildi, rivojlangan bozor mamlakatlariga xos va xalqaro andozalarga mos bo‘lgan “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g’risida”gi Qonun qabul qilindi hamda shu hujjat asosida uning o‘ziga xos maqomi, maqsadi, vazifalari va vakolatlari aniq belgilandi hamda faoliyati to‘liq yo‘lga qo‘yildi.

Bank tizimining quyi pog’onasi esa, mamlakat iqtisodiyoti subyektlari va aholisining bank xizmatlariga bo‘lgan talabni to‘laroq qondira oladigan turli mulkchilik shaklidagi, mustaqil tijorat banklarining keng tarmog’i shakllantirildi, O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g’risida”gi Qonuni qabul qilindi va tijorat banklari faoliyatining huquqiy asoslari aniq belgilab berildi.

Ikkinchidan, istiqlolgacha hamda mustaqillikning dastlabki uch yilida amalda bo‘lgan katta hajmdagi rubl muomaladan chiqarilib, 1994-yilning iyun oyidan boshlab, milliy valyuta “so‘m” muomalaga kiritildi.

Uchinchidan, mustaqillikkacha va qisman uning dastlabki yillarida respublikamizning bank muassasalarida amalda bo‘lgan va sobiq markazlashgan rejali iqtisodiy tizim talablariga muvofiq bo‘lgan me’yoriy hujjatlar tubdan qayta ishlab chiqilib, bozor iqtisodiyoti tamoyillariga xos bo‘lgan maxsus qonunlar va bank faoliyatining barcha yo‘nalishlarini qamrab olgan va uni tartibga soluvchi me’yoriy xujjatlarning to‘liq majmuasi shakllantirildi.

Jumladan, 1998-yilda bank nazorati bo‘yicha Bazel qo‘mitasi tavsiyalari va xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda tijorat banklari faoliyatini tartibga soluvchi me’yoriy xujjatlar majmui amaliyotga joriy etildi.

Manfaatdorlikni pasaytiradigan va umuman moliyaviy vositachilik samaradorlik ko‘lamlarini oshirishga to‘sqinlik qiladigan kredit bo‘yicha foiz stavkalari hamda kredit miqdorlari bo‘yicha limitlar bekor qilinib,

iqtisodiyotni tartibga solishning bozor tamoyillariga mos bo‘lgan monetar siyosatning bilvosita instrumentlari: majburiy zaxira talablari, qayta moliyalash va ochiq bozordagi operatsiyalar mexanizmlari joriy qilindi.

To‘rtinchidan, tijorat banklari buxgalteriyasining tashkiliy tarkibi butunlay yangilandi, xalqaro andozalarga mos bo‘lgan buxgalteriya hisobi tartibi va moliyaviy hisobotlari shakllari joriy etildi, shular asosida masofaviy va joyida tekshirish shakllaridagi bank nazoratining zamonaviy xalqaro me’yorlari amaliyotga joriy etildi.

Bank tizimi rivojlanishining 2001-2010-yillarni o‘z ichiga oluvchi keyingi bosqichda bank tizimini yanada isloh qilish, takomillashtirish, barqarorlik va salohiyatini oshirish, moliya-bank sektori tarkibi va infratuzilmasini rivojlantirish borasida muhim chora-tadbirlar amalga oshirildi.

2010-yil 26-noyabrdagi «2011-2015-yillarda Respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko‘rsatkichlariga erishishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g’risida»gi PQ-1438-sonli Qarorining qabul qilinishi respublika moliya-bank tizimini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va barqarorligini oshirish, banklar va butun bank-moliya tizimi faoliyatiga yondashuvlarni hamda baholash tizimini tubdan o‘zgartirish, qabul qilingan xalqaro me’yorlar, standartlar va baholash ko‘rsatkichlariga muvofiq bank faoliyatini tashkil etishni ta’minlashga asos bo‘ldi. Jumladan, tizimdagi birqator qonunlarga tubdan o‘zgartirishlar kiritildi:

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI “O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MARKAZIY BANKI TO‘G’RISIDA”GI O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNIGA O‘ZGARTISH VA QO‘SHIMCHALAR KIRITISH HAQIDA

Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 17-avgustda qabul qilingan Senat tomonidan 2019-yil 11-oktabrda ma’qullangan

1-modda. O‘zbekiston Respublikasining 1995-yil 21-dekabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g’risida”gi 154-I-sonli Qonuniga (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995-yil, № 12, 247-modda; 1998-yil, № 9, 181-modda; 1999-yil, № 5, 124-modda; 2001-yil, № 1-2, 23-modda; 2003-yil, № 1, 8-

modda; 2005-yil, № 1, 18-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2006-yil, № 9, 496-modda; 2007-yil, № 12, 608-modda; 2009-yil, № 4, 133-modda, № 9, 330, 337-moddalar, № 12, 470-modda; 2012-yil, № 4, 105-modda, № 12, 336-modda; 2014-yil, № 5, 130-modda, № 12, 343-modda; 2015-yil, № 12, 452-modda; 2018-yil, № 1, 1-modda; 2019-yil, № 1, 5-modda, № 2, 47-modda) o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilib, uning yangi tahriri tasdiqlansin (ilova qilinadi).

2-modda. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o‘rtasida tushuntirilishini ta’minlasin.

3-modda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;

davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo‘lgan o‘z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko‘rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta’minlasin.

4-modda. Ushbu Qonun rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2019-yil 11-noyabr,
O‘RQ-582-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g’risida

(yangi tahriri)

1-bob. Umumiy qoidalar

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tartibga solishdan iborat.

Oldingi tahrirga qarang.

2-modda. O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g’risidagi qonunchilik

O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g’risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

(2-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

3-modda. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining huquqiy maqomi

Oldingi tahrirga qarang.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining (bundan buyon matnda Markaziy bank deb yuritiladi) huquqiy maqomi, vakolatlari, vazifalari, faoliyatini tashkil etish O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, ushbu Qonun hamda boshqa qonunchilik hujjatlari bilan belgilanadi.

(3-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Markaziy bank yuridik shaxs bo‘lib, u davlatning mutlaq mulkidir va o‘z xarajatlarini o‘zining daromadlari hisobidan amalga oshiradi.

Markaziy bank o‘z vakolatlari hamda vazifalari doirasida davlat hokimiyati va boshqaruvining boshqa organlaridan mustaqil ravishda qarorlar qabul qiladi.

Markaziy bank davlatning majburiyatlari yuzasidan, davlat esa Markaziy bankning majburiyatlari yuzasidan, agar ularning o‘zi bunday majburiyatlarni o‘z zimmasiga olmagan bo‘lsa yoki qonunda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, javobgar bo‘lmaydi.

Markaziy bank, shuningdek uning tasarrufidagi tashkilotlar O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasviri tushirilgan, o‘z nomi yozilgan muhri va blankasiga ega bo‘ladi.

4-modda. Markaziy bankning mol-mulki

Markaziy bankning mol-mulki uning pul qimmatliklari va boshqa moddiy qimmatliklaridan iborat bo‘lib, ularning qiymati Markaziy bankning balansida aks ettiriladi.

Markaziy bank o‘z balansida aks ettirilgan mol-mulkka egalik qilishga, undan foydalanishga va uni tasarruf etishga haqli.

5-modda. Markaziy bank faoliyatining asosiy maqsadlari

Markaziy bank faoliyatining asosiy maqsadlari:

narxlarning;

bank tizimining;

to‘lov tizimlari ishlashining barqarorligini ta’minlashdan iboratdir.

Markaziy bankning bank tizimi barqarorligini ta’minlash bo‘yicha faoliyati narxlarning barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmasligi kerak.

Foyda olish Markaziy bankning maqsadi hisoblanmaydi.

6-modda. Markaziy bank uchun taqiqlangan faoliyat turlari

Markaziy bank:

uchinchi shaxslarga moliyaviy yordam ko‘rsatish bilan shug’ullanishga, bundan o‘z tasarrufidagi tashkilotlar mustasno;

tijorat faoliyatini amalga oshirishga;

uchinchi shaxslarning, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining majburiyatlari bo‘yicha kafolatlar berishga;

banklarning kapitallarida va boshqa yuridik shaxslarning ustav fondlarida (ustav kapitallarida) ishtirok etishga haqli emas, bundan valyuta birjasining, shuningdek Markaziy bankning faoliyatini ta’minlovchi o‘z tasarrufidagi tashkilotlarning kapitallarida ishtirok etishi mustasno.

Markaziy bank O‘zbekiston Respublikasi Hukumatiga, boshqa davlat organlariga va tashkilotlariga, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetining (bundan buyon matnda Davlat budjeti deb yuritiladi) taqchilligini moliyalashtirish uchun kreditlar yoki moliyaviy yordam bermaydi.

7-modda. Manfaatlar to‘qnashuvi va korrupsiyaning oldini olishga doir choralar

Markaziy bank manfaatlar to‘qnashuvlarining oldini olish, ularni aniqlash va boshqarishga oid siyosatni, shuningdek korrupsiyaning oldini olish yuzasidan Markaziy bankning hamda uning tasarrufidagi tashkilotlarning barcha xodimlari tomonidan rioya etilishi majburiy bo‘lgan chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi.

8-modda. Hisobdorlik

Markaziy bank O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga hisobdordir.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Markaziy bankning yillik hisobotini auditorlik tashkilotining xulosasi bilan birga ko‘rib chiqadi.

9-modda. Markaziy bankning normativ-huquqiy hujjatlari

Markaziy bank o‘z vakolatlari doirasida O‘zbekiston Respublikasi hududida barcha jismoniy va yuridik shaxslar ijro etishi majburiy bo‘lgan

normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi.

Markaziy bankning normativ-huquqiy hujjatlari, agar hujjatlarning o‘zida kechroq muddat ko‘rsatilgan bo‘lmasa, rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

10-modda. Markaziy bankning tashkiliy tuzilishi

Markaziy bank yagona markazlashtirilgan boshqaruv tizimidir.

Markaziy bank o‘zining vakolatlarini amalga oshirish va vazifalarini bajarish uchun o‘z tasarrufida tashkilotlar tashkil etishga haqli.

Markaziy bank Qoraqalpog’iston Respublikasida, viloyatlarda va Toshkent shahrida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan hududiy bosh boshqarmalarini tashkil etadi.

Markaziy bank tasarrufidagi tashkilotlar o‘z faoliyatini Markaziy bank tomonidan tasdiqlanadigan nizom (ustav) asosida amalga oshiradi.

2-bob. Markaziy bankning vakolatlari va vazifalari

11-modda. Markaziy bankning vakolatlari

Markaziy bank:

O‘zbekiston Respublikasida hisob-kitoblarni amalga oshirish qoidalarini belgilaydi;

bank tomonidan milliy va chet el valyutasida mijozlarning hisobvaraqlarini ochish, yuritish va yopish tartibini belgilaydi;

O‘zbekiston Respublikasi hududida pul belgilarini muomalaga kiritadi va muomaladan chiqaradi;

qimmatbaho metallardagi aktivlarni to‘ldirish uchun davlatning affinlangan oltin sotib olishga bo‘lgan ustuvor huquqini amalga oshiradi;

qimmatbaho metallardan tayyorlangan quymalarni muomalaga chiqaradi;

qimmatbaho metallardan tayyorlangan pul belgilarini sotib olish va sotish tartibini belgilaydi;

banklar tomonidan qimmatbaho metallar bilan operatsiyalarni amalga oshirish tartibini belgilaydi;

o‘zi belgilaydigan tartibda va shartlarda banklarga qisqa muddatli kreditlar, shuningdek likvidlilikni tezkor sur’atda qo‘llab-quvvatlash uchun kreditlar beradi;

Oldingi tahrirga qarang.

banklar faoliyatini litsenziyalashda, mikromoliya tashkiloti faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarni va ipotekani qayta

moliyalashtirish tashkilotlarini hisob roʻyxatidan oʻtkazishda, shuningdek banklar, mikromoliya tashkiloti faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar, ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotlari, lombardlar va banklar guruhlari faoliyatini tartibga solish hamda nazorat qilishda asoslantirilgan mulohazadan foydalanadi;

(11-modda birinchi qismining oʻninchi xatboshisi Oʻzbekiston Respublikasining 2022-yil 20-apreldagi OʻRQ-765-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 21.04.2022-y., 03/22/765/0332-son)

oʻz vakolatlarini amalga oshirish uchun zarur boʻlgan axborotni davlat organlari va tashkilotlaridan soʻrab oladi;

oʻz balansida aks ettirilgan mol-mulkka egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi;

oʻz tasarrufidagi tashkilotlarni, shu jumladan valyuta birjasini tashkil etadi;

moliyaviy operatsiyalarni amalga oshiradi, shu jumladan chet el hukumatlariga, boshqa davlatlarning markaziy banklariga bank xizmatlarini koʻrsatadi;

boshqa davlatlarning markaziy banklarida va xalqaro moliya institutlarida Oʻzbekiston Respublikasi manfaatlarini oʻz vakolatlari doirasida ifoda etadi;

chet davlatlarda vakolatxonalar ochadi;

obligatsiyalar emissiyasini amalga oshiradi;

oʻz nomidan yoki Oʻzbekiston Respublikasi Hukumatining topshirigʻiga binoan Oʻzbekiston Respublikasi nomidan kliring va toʻlov bitimlari tuzadi;

Oldingi tahrirga qarang.

banklardagi, mikromoliya tashkiloti faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlardagi, ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotlaridagi va lombardlardagi qoidabuzarliklarni aniqlash yuzasidan nazorat tadbirlarini amalga oshiradi, shu jumladan masofadan turib ham amalga oshiradi;

(11-modda birinchi qismining oʻn toʻqqizinchi xatboshisi Oʻzbekiston Respublikasining 2022-yil 20-apreldagi OʻRQ-765-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 21.04.2022-y., 03/22/765/0332-son)

banknotalar va tangalar tasvirlarini aks ettirishga doir talablarni

belgilaydi;

banklar uchun hisobvaraqlar ochadi;

autrayt (spot va forvard) sotib olish va sotish yoki kelishuvga binoan qaytarib sotib olish yo‘li bilan, shuningdek bozor vositalarini, valyutalarni va qimmatbaho metallarni kreditlash yoki jalb etish yo‘li bilan moliya bozorlarida faoliyatni amalga oshiradi.

Oldingi tahrirga qarang.

Markaziy bank qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

(11-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

12-modda. Markaziy bankning vazifalari

Markaziy bank:

pul-kredit siyosatini, shu jumladan valyuta siyosatini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

O‘zbekiston Respublikasida inflatsiya darajasini monitoring, tahlil va prognoz qiladi, tegishli axborot materiallarini hamda statistik ma’lumotlarni e’lon qiladi;

O‘zbekiston Respublikasining to‘lov balansini, xalqaro investitsiyaviy mavqeyini, tashqi qarzini va zaxira aktivlarini o‘z ichiga olgan bank, pul-kredit statistikasini, tashqi sektor statistikasini shakllantirishni hamda e’lon qilishni amalga oshiradi;

har yili O‘zbekiston Respublikasi Hukumatiga Davlat budjeti loyihasini tayyorlashga doir tavsiyalarni o‘z ichiga olgan iqtisodiy va moliyaviy masalalar bo‘yicha axborotni taqdim etadi;

naqd pul muomalasini tashkil etadi;

valyutani tartibga solishni va valyutani nazorat qilishni amalga oshiradi;

valyuta operatsiyalari bo‘yicha buxgalteriya hisobi, statistik hisobotlar va boshqa hisobotlar maqsadlari uchun, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi hududida bojxona hamda boshqa majburiy to‘lovlarni hisoblab chiqarish uchun valyuta kursini muntazam ravishda belgilab boradi;

banklarni va kredit byurolarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni amalga oshiradi;

Oldingi tahrirga qarang.

banklarning, to‘lov tashkilotlarining, to‘lov tizimlari operatorlarining, valyuta birjalari va kredit byurolarining faoliyatini litsenziyalaydi, banklarning, shuningdek mikromoliya tashkilotlarining, lombardlarning, ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotlarining (bundan buyon matnda nobank kredit tashkilotlari deb yuritiladi), to‘lov tashkilotlarining, to‘lov tizimlari operatorlarining, valyuta birjalarining, kredit byurolarining va banklar guruhlarining faoliyatini tartibga soladi hamda ushbu faoliyat ustidan nazoratni amalga oshiradi;

(12-modda birinchi qismining o‘ninchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 20-apreldagi O‘RQ-765-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2022-y., 03/22/765/0332-son)

Oldingi tahrirga qarang.

ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni beradi;

xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyatni (harakatlarni) boshlaganlik va tugatganlik to‘g’risidagi xabarnomalarni qabul qiladi, xabardor qilish tartibida faoliyatni (harakatlarni) amalga oshiruvchi xabardor qiluvchilar ustidan nazoratni amalga oshiradi, faoliyatni (harakatlarni) to‘xtatib turish, qayta tiklash va tugatish to‘g’risida qarorlar qabul qiladi;

(12-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-oktabrdagi O‘RQ-721-sonli Qonuniga asosan o‘n birinchi va o‘n ikkinchi xatboshilar bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son)

hukumatning fiskal agenti vazifalarini bajarish uchun zarur bo‘lgan bank operatsiyalarini va boshqa bitimlarni mustaqil ravishda yoki O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining topshirig’iga binoan amalga oshiradi;

O‘zbekiston Respublikasida to‘lov tizimlari barqaror ishlashini ta’minlash choralarini ko‘radi;

Oldingi tahrirga qarang.

arkaziy bank nazorat qilishi lozim bo‘lgan shaxslar tomonidan ichki nazorat qoidalariga hamda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg’in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bilan bog’liq axborotni maxsus vakolatli davlat organiga taqdim etish tartibiga rioya etilishi

yuzasidan monitoring hamda nazoratni amalga oshiradi;

(12-modda birinchi qismining o‘n beshinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 20-apreldagi O‘RQ-765-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2022-y., 03/22/765/0332-son)

Xalqaro valyuta fondining O‘zbekiston Respublikasi valyutasidagi mablag’lari depozitariysi hisoblanadi, operatsiyalarni va bitimlarni, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan operatsiyalar va bitimlarni amalga oshiradi;

Oldingi tahrirga qarang.

banklar va nobank kredit tashkilotlari (bundan buyon matnda kredit tashkilotlari deb yuritiladi) xizmatlari iste’molchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta’minlash, moliyaviy xizmatlarning ochiqligini hamda aholining va tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy savodxonligi darajasini oshirish choralarini ko‘radi;

(12-modda birinchi qismining o‘n yettinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 20-apreldagi O‘RQ-765-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2022-y., 03/22/765/0332-son)

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro zaxiralarini (bundan buyon matnda xalqaro zaxiralar deb yuritiladi), shu jumladan kelishuvga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining zaxiralarini boshqarishni, hisobga olishni va saqlashni amalga oshiradi.

Oldingi tahrirga qarang.

Markaziy bank ushbu Qonun bilan belgilangan maqsadlariga erishish uchun qonunchilikka muvofiq boshqa vazifalarni ham bajarishi mumkin.

(12-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

3-bob. Markaziy bankning moliyaviy holati

13-modda. Markaziy bankning ustav kapitali

Markaziy bank ustav kapitalining miqdori bir trillion so‘mni tashkil etadi. Ustav kapitali miqdorini ko‘paytirish O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qaroriga binoan amalga oshiriladi.

Markaziy bankning ustav kapitali boshqa shaxslarga berilishi yoki undan zakalat ta’minoti sifatida foydalanilishi mumkin emas.

14-modda. Foydani aniqlash va taqsimlash

Markaziy bankning foydasi har bir moliya yili uchun zaxiralar shakllantirilganidan, umidsiz, shubhali qarzlar va boshqa aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarning o‘rni qoplanganidan, barcha daromadlar hamda xarajatlar hisobga olinganidan, shuningdek aktivlar va passivlar haqiqatda baholanganidan so‘ng aniqlanadi.

Markaziy bankning chet el valyutasi kursining yoki qimmatbaho metallar qiymatining o‘zgarishi natijasida xalqaro zaxiralarni qayta baholashdan hosil bo‘ladigan realizatsiya qilinmagan daromadlari va xarajatlari xalqaro zaxiralarga oid operatsiyalar bo‘yicha qayta baholash fondiga kiradi. Mazkur realizatsiya qilinmagan daromad Davlat budjetiga yo‘naltirilmaydi.

Markaziy bankning foydasi uning boshqaruvi tomonidan belgilangan tartibda, yillik hisobotni tasdiqlash bilan bir vaqtda taqsimlanadi.

Markaziy bank boshqaruvining qaroriga binoan aniq maqsadli zaxiralar va fondlar shakllantirilishi mumkin.

Aniq maqsadli zaxiralar va fondlar belgilangan tartibda to‘ldirilganidan keyin foydaning qolgan qismi Davlat budjeti daromadiga yo‘naltiriladi. Agar ustav kapitali va umumiy zaxiralar summasi Markaziy bankning muomaladagi pullar hamda Markaziy bankka nisbatan moliyaviy talablar sifatida belgilanadigan pul majburiyatlarining, bundan O‘zbekiston Respublikasi Hukumati va xalqaro moliya tashkilotlari oldidagi majburiyatlar mustasno, o‘n foizidan kamrog’ini tashkil etsa, Davlat budjeti daromadiga foydaning ellik foizdan oshmaydigan miqdori o‘tkaziladi.

Yillik hisobot ko‘rib chiqilmaguniga qadar foydaning qolgan qismini Davlat budjetiga o‘tkazishga yo‘l qo‘yilmaydi.

15-modda. Markaziy bankning yillik hisoboti

Markaziy bankning hisobot davri kalendar yilning 1-yanvaridan 31-dekabriga qadar etib belgilanadi. Yillik hisobot auditorlik tashkilotining xulosasi ilova qilingan holda 15-maydan kechiktirmay O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati ko‘rib chiqishi uchun taqdim etiladi.

Markaziy bankning yillik hisoboti:

iqtisodiyot holatining tahlilini;

Markaziy bankning faoliyati to‘g’risidagi hisobotni, shu jumladan pul-kredit siyosatining va bank sektori holatining sharhini o‘z ichiga oladi.

Markaziy bank har yili yillik hisobotni o‘zining rasmiy veb-saytida

e’lon qiladi.

16-modda. Markaziy bank faoliyatining ichki auditi

Markaziy bank faoliyatining ichki auditi Markaziy bankning ichki auditorlik xizmati tomonidan amalga oshiriladi. Ichki auditorlik xizmati o‘z faoliyatida Auditorlik qo‘mitasiga hisobdordir.

Markaziy bankda uch nafar a’zodan, shu jumladan bir nafar mustaqil a’zodan iborat bo‘lgan Auditorlik qo‘mitasi tashkil etiladi. Auditorlik qo‘mitasining vakolatlari va faoliyatining reglamenti, uning huquqiy maqomi, shuningdek uning a’zolariga nisbatan talablar Markaziy bank boshqaruvi tomonidan belgilanadi.

Auditorlik qo‘mitasining a’zolari Markaziy bank boshqaruvi tomonidan tayinlanadi. Auditorlik qo‘mitasi tarkibiga Markaziy bank boshqaruvining a’zolari kiritilishi mumkin.

Auditorlik qo‘mitasi o‘z faoliyatida Markaziy bank boshqaruviga hisobdordir.

Markaziy bank tasarrufidagi tashkilotlar faoliyatining ichki auditi yiliga kamida bir marta o‘tkaziladi.

17-modda. Markaziy bank faoliyatining tashqi auditi

Markaziy bank faoliyatining tashqi auditi Auditning xalqaro standartlariga muvofiq auditorlik tashkilotlari tomonidan har yili o‘tkaziladi.

Markaziy bank faoliyatini tekshirish jarayonida tashqi auditor tomonidan olingan axborot maxfiydir va u Markaziy bankning roziligisiz oshkor etilishi mumkin emas.

Tashqi auditni o‘tkazuvchi auditorlik tashkilotiga nisbatan qo‘yiladigan talablar Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

4-bob. Markaziy bankni boshqarish

18-modda. Markaziy bank boshqaruvi

Markaziy bankning oliy organi Markaziy bank boshqaruvidir.

Markaziy bank boshqaruvi Markaziy bank faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini belgilab beradi va uni boshqaradi.

19-modda. Markaziy bank boshqaruvining tarkibi

Markaziy bank boshqaruvi to‘qqiz nafar kishidan iborat bo‘ladi.

Markaziy bank raisi Markaziy bank boshqaruvining raisi bo‘ladi. Markaziy bank boshqaruvining raisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimnomasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod

qilinadi.

Markaziy bank boshqaruvi tarkibiga Markaziy bank raisi, uning birinchi o‘rinbosari va o‘rinbosarlari, shuningdek boshqaruvning ikki nafar mustaqil a’zosi kiradi.

Markaziy bank boshqaruvining mustaqil a’zolari Markaziy bank raisining taqdimnomasiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

20-modda. Markaziy bank boshqaruvining vakolatlari

Markaziy bank boshqaruvi:

pul-kredit siyosatining asosiy parametrlarini, shu jumladan likvidlilikni berish va olib qo‘yish bo‘yicha Markaziy bank operatsiyalarining hajmlari, limitlari va normativlarini, Markaziy bankning pul-kredit operatsiyalari bo‘yicha foiz stavkalarini, shu jumladan qayta moliyalashtirish stavkasini va (yoki) asosiy stavkani, majburiy zaxira talablarining miqdorlarini (majburiy zaxiralar normativlarini, majburiy zaxiralarni o‘rtachalash koeffitsiyentini) va beriladigan kreditlarga doir ta’minot turlarining ro‘yxatini belgilaydi;

kelgusi yil uchun pul-kredit siyosatining asosiy yo‘nalishlarini tasdiqlaydi;

Markaziy bankning normativ-huquqiy hujjatlarini tasdiqlaydi;

Markaziy bankning xalqaro tashkilotlarda ishtirok etishi, shuningdek xalqaro shartnomalar va bitimlar tuzishi hamda ularga qo‘shilishi masalasini ko‘rib chiqadi;

pul belgilarining nominal qiymatini, namunalarini va ularni qaytarib olish shartlarini belgilaydi;

Markaziy bankning buxgalteriya hisobini, hisobotini va moliya-xo‘jalik faoliyatini yuritish tartibini belgilaydi;

Oldingi tahrirga qarang.

banklar, shu jumladan tizimli ahamiyatga molik banklar, shuningdek banklar guruhlari, mikromoliya tashkilotlari hamda ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotlari uchun prudensial normativlarni hisoblab chiqarish tartibini va ushbu normativlarning yo‘l qo‘yiladigan qiymatlarini belgilaydi;

(20-moddaning sakkizinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 20-apreldagi O‘RQ-765-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2022-y., 03/22/765/0332-son)

kredit tashkilotlari uchun moliyaviy operatsiyalarni o‘tkazish, buxgalteriya hisobini yuritish qoidalarini tasdiqlaydi;

kredit tashkilotlari, banklar guruhlari va kredit byurolari uchun moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim etish qoidalarini, uning tuzilishini va mazmunini tasdiqlaydi;

bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyalarni berish, qayta rasmiylashtirish va chaqirib olish to‘g’risida qarorlar qabul qiladi;

Oldingi tahrirga qarang.

valyuta birjalarining va kredit byurolarining faoliyatini amalga oshirish huquqiga doir litsenziyani berish, litsenziyaning amal qilishini to‘xtatib turish, tugatish, litsenziyani qayta rasmiylashtirish hamda bekor qilish to‘g’risida qarorlar qabul qiladi;

(20-moddaning o‘n ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 20-apreldagi O‘RQ-765-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2022-y., 03/22/765/0332-son)

Oldingi tahrirga qarang.

to‘lov tizimlari operatorlari va to‘lov tashkilotlari faoliyatini amalga oshirish huquqiga doir litsenziyani berish, qayta rasmiylashtirish va chaqirib olish to‘g’risida qarorlar qabul qiladi;

(20-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-oktabrdagi O‘RQ-721-sonli Qonuniga asosan o‘n uchinchi xatboshi bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son)

Oldingi tahrirga qarang.

mikromoliya tashkiloti faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarni va ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotlarini hisob ro‘yxatidan o‘tkazish to‘g’risida qaror qabul qiladi;

(20-modda O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 20-apreldagi O‘RQ-765-sonli Qonuniga asosan o‘n to‘rtinchi xatboshi bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2022-y., 03/22/765/0332-son)

Markaziy bankning tashkiliy tuzilmasini, Markaziy bank markaziy apparatining hamda Qoraqalpog’iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo‘yicha bosh boshqarmalarining tuzilmasini hamda ularning shtatlar jadvalini tasdiqlaydi;

Markaziy bank tasarrufidagi tashkilotlarni tashkil etish, qayta tashkil etish hamda tugatish to‘g’risida qarorlar qabul qiladi;

Markaziy bankning xarajatlari va daromadlari smetasini tasdiqlaydi;

Markaziy bankning yillik va moliyaviy hisobotlarini ko‘rib chiqadi;

Markaziy bank tarkibiy bo‘linmalarining hamda tasarrufidagi tashkilotlarning rahbarlarini tasdiqlaydi;

Markaziy bank tarkibiy bo‘linmalari, o‘z tasarrufidagi tashkilotlar rahbarlarining hisobotlarini va ma’ruzalarini eshitadi;

Markaziy bankning Kredit qo‘mitasi va Bank nazorati qo‘mitasi nizomini hamda tarkibini tasdiqlaydi;

Markaziy bank Kredit qo‘mitasining va Bank nazorati qo‘mitasining hisobotlarini hamda ma’ruzalarini eshitadi;

Markaziy bank faoliyatini amalga oshirishda manfaatlar to‘qnashuvlarining oldini olish, ularni aniqlash hamda boshqarishga doir siyosatni ko‘rib chiqadi va tasdiqlaydi;

Oldingi tahrirga qarang.

qonunchilikka muvofiq Markaziy bank xodimlarini ishga yollash, mehnat shartnomasini bekor qilish, ularning mehnatiga haq to‘lash shartlarini, shuningdek ularning kreditlar olishi tartibini belgilaydi;

bank tizimi masalalari bo‘yicha qonunchilikda belgilangan talablar doirasida qarorlar qabul qiladi;

(20-moddaning yigirma ikkinchi va yigirma uchinchi xatboshilari O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

xalqaro zaxiralarni boshqarish, hisobga olish va saqlash strategiyasini belgilaydi;

kredit tashkilotlarining o‘z xizmatlari iste’molchilari bilan o‘zaro munosabatlarini amalga oshirishi chog’idagi faoliyatiga doir minimal talablarni tasdiqlaydi;

kredit byurolarining faoliyatiga doir talablarni tasdiqlaydi;

Markaziy bank vakolatlariga kiritilgan boshqa masalalarni ham ko‘rib chiqadi va hal qiladi.

21-modda. Markaziy bank boshqaruvining majlislari

Markaziy bank boshqaruvining majlislari oyiga kamida bir marta o‘tkaziladi.

Markaziy bank boshqaruvining majlislari Markaziy bank raisi tomonidan chaqiriladi. Majlislar Markaziy bank boshqaruvining kamida uch nafar a’zosi talabi bo‘yicha ham chaqirilishi mumkin.

Markaziy bank boshqaruvi majlislariga Markaziy bank raisi, rais bo‘lmagan taqdirda esa uning birinchi o‘rinbosari yoki o‘rinbosarlaridan biri raislik qiladi.

Markaziy bank boshqaruvi a’zolarining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etgan taqdirda boshqaruv majlisi vakolatli bo‘ladi. Markaziy bank boshqaruvining qarorlari hozir bo‘lgan a’zolarning oddiy ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo‘lgan taqdirda, raislik qiluvchining ovozi hal qiluvchi bo‘ladi.

Markaziy bank boshqaruvi majlislari, qoida tariqasida, yopiq tartibda o‘tkaziladi.

Markaziy bank boshqaruvining ochiq majlislarini o‘tkazish rejalari, shu jumladan majlislarning kun tartibi, o‘tkaziladigan joyi hamda vaqti Markaziy bankning rasmiy veb-saytida e’lon qilinadi.

Markaziy bank boshqaruvining majlislari reglamentga muvofiq o‘tkaziladi.

Markaziy bank boshqaruvining to‘xtami qaror tarzida qabul qilinadi.

22-modda. Markaziy bank raisi

Markaziy bank raisi:

Markaziy bank va uning boshqaruvi faoliyatiga rahbarlik qiladi, bankning fondlarini tasarruf etadi hamda Markaziy bank zimmasiga yuklatilgan vazifalarning bajarilishi uchun javobgar bo‘ladi, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi hududida va xorijda Markaziy bank nomidan ishonchnomasiz ish yuritadi;

ichki audit xizmatiga rahbarlik qiladi;

Markaziy bank faoliyati masalalarini hal qiladi, bundan ushbu Qonunga binoan Markaziy bank boshqaruvining vakolatlariga kiritilgan masalalar mustasno;

Markaziy bank boshqaruvining qarorlarini imzolaydi, buyruqlar va farmoyishlar qabul qiladi;

Markaziy bankning faoliyatini va joriy operatsiyalarini tezkor boshqarishga doir harakatlarni bajaradi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga hisobot taqdim etadi;

Oldingi tahrirga qarang.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasida, vazirliklar va idoralarda, sudlarda, banklar va muassasalarda, xalqaro va chet el tashkilotlarida Markaziy bank faoliyatiga doir barcha masalalar bo‘yicha Markaziy bank nomidan ish yuritadi;

(22-modda birinchi qismining sakkizinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-noyabrdagi O‘RQ-880-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.11.2023-y., 03/23/880/0905-son)

ayrim masalalarni hal qilishni o‘z o‘rinbosarlariga, markaziy devonning tarkibiy bo‘linmalari rahbarlariga, Markaziy bankning Qoraqalpog’iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bo‘yicha bosh boshqarmalari rahbarlariga topshiradi;

jismoniy shaxslarning va yuridik shaxslar vakillarining qabulini o‘tkazadi.

Markaziy bank raisining vakolat muddati — besh yil.

Markaziy bank raisi bo‘lmagan taqdirda uning vazifalarini birinchi o‘rinbosari yoki o‘rinbosarlaridan biri bajaradi.

23-modda. Markaziy bank raisini egallab turgan lavozimidan ozod qilish uchun asoslar

Markaziy bank raisi egallab turgan lavozimidan quyidagi asoslarga ko‘ra ozod qilinishi mumkin:

vakolat muddati tugaganda;

egallab turgan lavozimidan ozod qilish to‘g’risida sabablari ko‘rsatilgan arizasiga ko‘ra;

o‘ziga nisbatan sudning ayblov hukmi qonuniy kuchga kirganda;

sog’lig’ining holatiga ko‘ra o‘z xizmat vazifalarini bajara olmaganda, davlat tibbiy komissiyasining xulosasi asosida;

vafot etganda yoki sudning qarori bilan vafot etgan deb e’lon qilinganda;

egallab turgan lavozimiga munosib bo‘lmagan xatti-harakatlar sodir etganda, shu jumladan ushbu Qonunni qo‘pol ravishda buzganda va Markaziy bank manfaatlariga jiddiy zarar yetkazganda.

24-modda. Markaziy bank raisining o‘rinbosarlari

Markaziy bank raisining birinchi o‘rinbosari va o‘rinbosarlari Markaziy bank raisining taqdimnomasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi

Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi.

Markaziy bank raisining birinchi o‘rinbosari va o‘rinbosarlari egallab turgan lavozimidan quyidagi asoslarga ko‘ra ozod qilinishi mumkin:

egallab turgan lavozimidan ozod qilish to‘g’risida sabablari ko‘rsatilgan arizasiga ko‘ra;

o‘ziga nisbatan sudning ayblov hukmi qonuniy kuchga kirganda;

sog’lig’ining holatiga ko‘ra o‘z xizmat vazifalarini bajara olmaganda, davlat tibbiy komissiyasining xulosasi asosida;

vafot etganda yoki sudning qarori bilan vafot etgan deb e’lon qilinganda;

egallab turgan lavozimiga munosib bo‘lmagan xatti-harakatlar sodir etganda, shu jumladan ushbu Qonunni qo‘pol ravishda buzganda va Markaziy bank manfaatlariga jiddiy zarar yetkazganda.

Ushbu Qonunda nazarda tutilgan vazifalarni amalga oshirish chog’ida manfaatlar to‘qnashuvlarining oldini olish, ularni aniqlash va boshqarish maqsadida Markaziy bank raisi o‘z o‘rinbosarlari, mustaqil tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari o‘rtasida vakolatlarning taqsimlanishini, shu jumladan pul-kredit siyosatini amalga oshirish, xalqaro zaxiralarni boshqarish, moliya bozorlari sohasida bank tomonidan tartibga solish, nazorat qilish va tekshirishni amalga oshirish chog’ida vakolatlarning taqsimlanishini ta’minlashi shart.

25-modda. Markaziy bankning xodimlari

Oldingi tahrirga qarang.

Markaziy bank xodimlarini ishga yollash, mehnat shartnomasini bekor qilish, ularning mehnatiga haq to‘lash shartlari va boshqa mehnatga oid munosabatlar Markaziy bank tomonidan qonunchilikka muvofiq belgilanadi.

(25-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Markaziy bank xodimlariga quyidagilar taqiqlanadi:

haq to‘lanadigan biror-bir boshqa turdagi faoliyat bilan shug’ullanish, bundan ilmiy va pedagogik faoliyat bilan shug’ullanish mustasno;

banklar, xo‘jalik boshqaruvi organlari va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning kuzatuv kengashlari tarkibiga kirish;

Oldingi tahrirga qarang.

oʻz xizmat majburiyatlarini bajarishi munosabati bilan oʻziga maʼlum boʻlib qolgan bank sirini tashkil etuvchi axborotni yoxud qonunchilikka muvofiq foydalanilishi cheklangan boshqa axborotni oshkor etish yoki uchinchi shaxslar manfaatlarini koʻzlab undan foydalanish.

(25-modda ikkinchi qismining toʻrtinchi xatboshisi Oʻzbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi OʻRQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Markaziy bank xodimlarini tadbirkorlik subyektlarining, shu jumladan kredit tashkilotlarining, toʻlov tashkilotlarining, toʻlov tizimlari operatorlarining, valyuta birjalarining, kredit byurolarining, banklar tomonidan autsorsingga topshirilgan xizmatlar va operatsiyalarni amalga oshiruvchi shaxslarning, shuningdek konsolidatsiyalashgan tarzda nazorat qilinishi lozim boʻlgan shaxslarning moliya-xoʻjalik faoliyati tekshiruvlarini oʻtkazish uchun jalb etishga yoʻl qoʻyilmaydi.

Markaziy bank xodimlarining malakasini va kasbiy darajasini baholash tartibi Markaziy bank tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi.

5-bob. Markaziy bankning pul-kredit siyosati

26-modda. Markaziy bankning pul-kredit siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish

Markaziy bank narxlar barqarorligini taʼminlash maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagi chora-tadbirlar vositasida pul-kredit siyosatini ishlab chiqadi va amalga oshiradi:

makroiqtisodiy koʻrsatkichlar, shu jumladan inflatsiya koʻrsatkichlari prognozlarini shakllantirish, shuningdek uning maqsadli koʻrsatkichini belgilash;

kelgusi yil uchun pul-kredit siyosatining asosiy yoʻnalishlarini ishlab chiqish;

pul-kredit koʻrsatkichlarining maqsadli moʻljallarini belgilash;

qayta moliyalashtirish stavkasini va (yoki) asosiy stavkani, shuningdek Markaziy bankning pul-kredit operatsiyalari boʻyicha foiz stavkalarini belgilash;

Markaziy bankda banklarning majburiy zaxiralariga doir normativlarni, shuningdek majburiy zaxiralar summasiga nisbatan oʻrtachalash koeffitsiyentini belgilash;

pul bozorida likvidlilikni taqdim etish va uni olib qoʻyish boʻyicha

operatsiyalar oʻtkazish;

ichki valyuta bozorida intervensiyalarni amalga oshirish;

Markaziy bankning kommunikatsiya siyosatini oʻtkazish.

27-modda. Pul-kredit siyosatining asosiy yoʻnalishlari

Markaziy bank har yili keyingi moliya yili boshlanishidan kamida oʻttiz kun oldin kelgusi yil uchun pul-kredit siyosatining asosiy yoʻnalishlarini ishlab chiqadi hamda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentini va Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatini bu haqda xabardor etadi.

Pul-kredit siyosatining asosiy yoʻnalishlari quyidagi axborotni:

oʻtkazilayotgan pul-kredit siyosatining asosiy prinsiplarini;

iqtisodiyotning oʻtgan davrdagi rivojlanish sharhini;

iqtisodiyotning rivojlanish istiqbollarini, asosiy makroiqtisodiy koʻrsatkichlar prognozini, shu jumladan inflatsiya, toʻlov balansi va pul-kredit koʻrsatkichlarining prognozini;

kelgusi yil uchun inflatsiyaning maqsadli koʻrsatkichlarini, pul-kredit siyosatining asosiy parametrlari va pul-kredit siyosati boʻyicha koʻrilayotgan choralarni, shuningdek pul-kredit siyosatining maqsadlariga erishish tavakkalchiliklari tahlilini oʻz ichiga oladi.

Markaziy bank oʻz rasmiy veb-saytida:

har yili — pul-kredit siyosatining asosiy yoʻnalishlarini;

har chorakda — pul-kredit siyosatining sharhlarini;

har oyda — pul-kredit siyosatining asosiy koʻrsatkichlarini, shu jumladan pul massasining dinamikasi va tarkibini, bank tizimiga doir statistik maʼlumotlarni, Markaziy bankning operatsiyalari toʻgʼrisidagi umumlashtirilgan maʼlumotlarni eʼlon qiladi.

Markaziy bank Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentiga pul-kredit siyosati va bank sektorining holati toʻgʼrisidagi har choraklik axborotni taqdim etadi.

28-modda. Pul-kredit koʻrsatkichlarining maqsadli moʻljallari

Markaziy bank inflatsiyaning maqsadli koʻrsatkichlaridan kelib chiqib, bir yoki bir nechta pul-kredit koʻrsatkichlari oʻzgarishining maqsadli moʻljallarini belgilashi mumkin.

29-modda. Markaziy bankning pul-kredit operatsiyalari boʻyicha foiz stavkalari

Markaziy bank har xil turdagi pul-kredit operatsiyalari boʻyicha bir

yoki bir nechta foiz stavkasini belgilashi mumkin.

Markaziy bank amalga oshirilayotgan pul-kredit siyosati doirasida bozor foiz stavkalari darajasiga ta’sir ko‘rsatish uchun foiz siyosatini qo‘llaydi.

Markaziy bank pul-kredit operatsiyalari bo‘yicha foiz stavkalarini o‘z rasmiy veb-saytida e’lon qiladi.

30-modda. Majburiy zaxira talablari

Pul-kredit siyosatini amalga oshirish doirasida Markaziy bank banklar jalb qilgan majburiyatlar ostida banklar tomonidan Markaziy bankda deponentga o‘tkaziladigan majburiy zaxiralarning normativlarini belgilaydi.

Markaziy bank majburiy zaxira talablarining miqdorini, banklarning zaxiralar deponentga o‘tkaziladigan majburiyatlari tarkibini, hisob-kitob qilish va zaxiralash tartibini, shuningdek majburiy zaxiralarni o‘rtachalash koeffitsiyentini tasdiqlaydi.

Majburiy zaxiralarning normativlari barcha banklar uchun bir xildir.

Majburiy zaxiralar banklarning Markaziy bankdagi maxsus hisobvaraqlardagi mablag’larini deponentga o‘tkazish yo‘li bilan va (yoki) Markaziy bankda ochilgan vakillik hisobvarag’ida majburiy zaxiralarni o‘rtachalash koeffitsiyenti miqdoridan kelib chiqqan holda hisoblangan majburiy zaxiralarning o‘rtachalashtirilgan miqdorini saqlab turish yo‘li bilan ushlab turiladi.

Majburiy zaxiralarni o‘rtachalash koeffitsiyenti qiymati 0 dan 1 gacha oraliqda bo‘lgan son bilan ifodalangan ko‘paytiruvchidan iboratdir.

Minimal zaxira talablari normativlarining o‘zgarishi bunday qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kamida bir oydan so‘ng amalga kiritiladi.

Undiruvni Markaziy bankdagi hisobvaraqlarda banklar tomonidan deponentga o‘tkazilgan majburiy zaxiralarga qaratishga yo‘l qo‘yilmaydi.

31-modda. Pul bozorida likvidlilikni taqdim etish va olib qo‘yishga doir operatsiyalar

Markaziy bank bozor foiz stavkalari darajasiga ta’sir ko‘rsatish, shuningdek bank tizimining likvidliligini ushlab turish va tartibga solish maqsadlarida pul bozorida likvidlilikni taqdim etish va olib qo‘yish bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshiradi. Mazkur operatsiyalar:

ta’minot ostidagi kreditlarni;

“svop” operatsiyalarini;

ochiq bozordagi operatsiyalarni;

qayta moliyalashtirishning maxsus mexanizmlarini;

depozit operatsiyalarini;

Markaziy bank obligatsiyalarining emissiyasini o‘z ichiga oladi.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan operatsiyalar umum qabul qilingan xalqaro amaliyot hisobga olingan holda Markaziy bank tomonidan belgilangan boshqa vositalarni ham o‘z ichiga olishi mumkin.

32-modda. Markaziy bankning kreditlari bo‘yicha ta’minot

Markaziy bankning kreditlari bo‘yicha quyidagilar ta’minot bo‘lishi mumkin:

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining xalqaro zaxiralari toifasiga kiruvchi valyuta qimmatliklari;

O‘zbekiston Respublikasining davlat qimmatli qog’ozlari;

banklarning kreditlari bo‘yicha talab qilish huquqi;

likvidlilik va umum qabul qilingan xalqaro amaliyot hisobga olingan holda ro‘yxati Markaziy bank tomonidan belgilanadigan qarz vositalari hamda boshqa qimmatliklar, shuningdek kafilliklar va bank kafolatlari.

Markaziy bank banklarni kreditlash shartlarini o‘zining rasmiy veb-saytida e’lon qiladi.

33-modda. Tijorat banklarining likvidliligini favqulodda qo‘llab-quvvatlash

Likvidlilikning vaqtinchalik taqchilligi yuzaga kelganda to‘lovlarning uzluksizligini ta’minlash maqsadida Markaziy bank likvidlilikni saqlab turish uchun tijorat banklariga uch oygacha bo‘lgan muddatga qisqa muddatli kreditlar tarzida tezkor yordam berishga haqli. Mazkur kreditlar bo‘yicha foiz stavkasi Markaziy bankning boshqa kreditlariga doir amaldagi stavkalardan kam bo‘lmasligi va u bankning aktivlari bilan ta’minlangan bo‘lishi kerak.

Mamlakatning moliyaviy tizimi barqarorligiga tahdid tug’ilgan alohida hollarda Markaziy bank boshqaruvining qarori bilan kreditni nisbatan yuqori foiz stavkasi bilan uzoqroq muddatga berishga yo‘l qo‘yiladi.

34-modda. Markaziy bankning ochiq bozordagi operatsiyalari

Bozorning foiz stavkalari va bank tizimidagi likvidlilik darajasiga ta’sir ko‘rsatish maqsadida Markaziy bank ochiq bozorda:

O‘zbekiston Respublikasining davlat qimmatli qog’ozlarini,

shuningdek Markaziy bankning o‘zi chiqargan obligatsiyalar tarzidagi qarz majburiyatlarini;

Markaziy bankning qaroriga ko‘ra boshqa qimmatli qog’ozlarni sotib olishi va sotishi mumkin.

Markaziy bank Davlat budjetini moliyalashtirish uchun ochiq bozordagi operatsiyalardan foydalanishga, O‘zbekiston Respublikasining davlat qimmatli qog’ozlari birlamchi joylashtirilganda ularni sotib olishga haqli emas.

Markaziy bankning ochiq bozordagi operatsiyalari limiti Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

35-modda. Markaziy bankning obligatsiyalari

Markaziy bank faqat pul-kredit siyosatini amalga oshirish maqsadida obligatsiyalar emissiyasini amalga oshiradi.

Obligatsiyalarning emissiyasi, joylashtirilishi, muomalada bo‘lishi hamda muomaladan chiqarilishi tartibi va shartlari Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

36-modda. Ichki valyuta bozoridagi valyuta intervensiyalari

Markaziy bankning valyuta intervensiyalari pulga bo‘lgan umumiy talab va taklifga ta’sir ko‘rsatish, shuningdek so‘m kursining ortiqcha o‘zgarishlarini yumshatish uchun ichki valyuta bozorida chet el valyutasini sotib olish-sotish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

37-modda. Markaziy bankning pul bozoridagi ishtiroki

Pul bozori milliy va chet el valyutalaridagi pul mablag’larini joylashtirish hamda jalb etish bo‘yicha (birjada va birjadan tashqari) savdolarni tashkil etish hamda amalga oshirish tizimidir.

Markaziy bank pul bozoridagi o‘z operatsiyalarining hajmlarini, turlarini va o‘tkaziladigan joyini belgilaydi.

38-modda. Markaziy bank tomonidan mijozlarga bank xizmati ko‘rsatish

Oldingi tahrirga qarang.

Markaziy bank qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda va shartlarda davlat hokimiyati hamda boshqaruvi organlarining, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining asosiy hisobvaraqlariga, shu jumladan ular harbiy

qismlarining, Qimmatli qog’ozlar markaziy depozitariysining, shuningdek Markaziy bank tasarrufidagi tashkilotlarning hisobvaraqlariga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha bank operatsiyalarini amalga oshirishi mumkin.

(38-moddaning matni O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-martdagi O‘RQ-760-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.03.2022-y., 03/22/760/0249-son)

6-bob. O‘zbekiston Respublikasining pul tizimi va pul muomalasini tashkil etish

39-modda. O‘zbekiston Respublikasining pul tizimi

O‘zbekiston Respublikasining pul tizimi O‘zbekiston Respublikasining pul birligini, pul muomalasini tashkil etishni va uni tartibga solishni o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston Respublikasining pul birligi so‘mdir. Bir so‘m yuz tiyindan iborat.

So‘m O‘zbekiston Respublikasidagi yagona cheklanmagan qonuniy to‘lov vositasidir.

O‘zbekiston Respublikasi pul belgilarining nominal qiymati Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

So‘mning ramz tarzidagi grafik belgisi Markaziy bank tomonidan tasdiqlanadi.

Markaziy bank O‘zbekiston Respublikasi hududida naqd pul muomalasini tashkil etadi.

So‘m va oltin o‘rtasida yoki boshqa qimmatbaho metallar o‘rtasida nisbat belgilanmaydi.

40-modda. Pul belgilarini muomalaga chiqarish

Markaziy bank O‘zbekiston Respublikasi hududida qonuniy to‘lov vositasi sifatida pul belgilarini muomalaga chiqarishda mutlaq huquqqa ega. Pul belgilari banknotlar va tangalar tarzida, shu jumladan qimmatbaho metallar tarzida chiqariladi.

Muomaladagi pul belgilari Markaziy bankning qat’iy majburiyatlari bo‘lib, ushbu pul belgilari uning barcha aktivlari bilan ta’minlanadi.

Pul belgilarining namunalari, shuningdek ularning dizayni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Kengashi bilan kelishilgan holda Markaziy bank tomonidan tasdiqlanadi. Pul belgilarining dizayni Markaziy bankning mulkidir. Yangi namunalardagi pul belgilari muomalaga chiqarilishi to‘g’risidagi xabar, shuningdek ularning tavsiflari

Markaziy bank tomonidan ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinadi. Markaziy bank va banklar talabga koʻra bir nominal qiymatdagi pul belgilarini boshqasiga hech qanday toʻlovsiz yoki vositachilik haqisiz ayirboshlashni amalga oshiradi.

Pul belgilarining himoya elementlariga doir talablar Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

Markaziy bank muhim sanalarga oid va esdalik pul belgilarini, shu jumladan qimmatbaho metallardan tayyorlangan pul belgilarini muomalaga chiqarishga haqli.

Numizmatika va kolleksiyalash maqsadlarida pul belgilarini sotish Markaziy bank tomonidan belgilangan tartibda amalga oshirilishi mumkin.

Markaziy bank yoʻq qilib yuborilgan, yoʻqotilgan, qalbaki, yasama va qonuniy kuchini yoʻqotgan pul belgilarining oʻrnini qoplamaydi.

Pul belgilarini qalbakilashtirish va qonunga xilof ravishda tayyorlash qonunga muvofiq javobgarlikka sabab boʻladi.

41-modda. Pul belgilarini tayyorlash va saqlash

Markaziy bank pul belgilarining tayyorlanishini, muomalaga chiqarilmagan pul belgilarining saqlanishini, bosma qoliplar va boʻyoqlarning saqlanishi hamda yoʻq qilinishini ta’minlaydi, naqd pullarni saqlash, tashish va inkasso qilish, shuningdek ularni yoʻq qilib yuborish qoidalarini belgilaydi.

42-modda. Muomaladagi pul belgilaridan foydalanishga qoʻyiladigan talablar

Markaziy bank tomonidan muomalaga chiqarilgan pul belgilari Oʻzbekiston Respublikasining butun hududida toʻlovlarning barcha turlarida, shuningdek hisobvaraqlarga, omonatlarga oʻtkazish va joʻnatma sifatida oʻtkazish uchun oʻz nominal qiymati boʻyicha qabul qilinishi shart.

43-modda. Shikastlangan pul belgilari

Markaziy bank pul belgilarining muomalaga yaroqliligini aniqlash hamda shikastlangan pul belgilarini almashtirish tartibini belgilaydi va e’lon qiladi.

Banklar shikastlangan pul belgilarini Markaziy bank tomonidan belgilangan qoidalarga muvofiq cheklovlarsiz almashtirib beradi.

44-modda. Pul belgilarini muomaladan chiqarish

Markaziy bank Oʻzbekiston Respublikasi hududida Oʻzbekiston Respublikasining har qanday pul belgilarini muomaladan chiqarishga haqli.

Buning uchun Markaziy bank boshqaruvining ayirboshlash tartibi va vaqti koʻrsatilgan e'lon qilingan qarori asos boʻlib xizmat qiladi.

Ayirboshlash uchun Markaziy bank tomonidan belgilangan muddat tugagach ayirboshlanishi kerak boʻlgan pul belgilari qonuniy toʻlov vositasi sifatida oʻz kuchini yoʻqotadi.

45-modda. Toʻlovlarni amalga oshirish

Toʻlovlar Oʻzbekiston Respublikasi hududida naqd pul yoki naqd pulsiz hisob-kitoblar tarzida amalga oshiriladi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblar Oʻzbekiston Respublikasi hududida banklar orqali amalga oshiriladi.

46-modda. Toʻlov tizimlarining ishlashini ta'minlash

Markaziy bank toʻlov tizimining ishlashini ta'minlash maqsadida:

toʻlov tizimining strategiyasini belgilaydi va amalga oshiradi;

oʻz vakolatlari doirasida toʻlov tashkilotlari va toʻlov tizimlari operatorlari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqadi hamda tasdiqlaydi;

toʻlov xizmatlari bozorida iste'molchilar huquqlarini himoya qilishga doir talablarni belgilaydi;

toʻlov tashkilotlari va toʻlov tizimlari operatorlari faoliyatini tartibga solishni hamda nazorat qilishni amalga oshiradi.

Markaziy bank banklarga va toʻlov tashkilotlariga, toʻlov tizimlari operatorlariga toʻlovlarga hisob-kitob-kliring xizmati koʻrsatilishini tashkil etishda, shu jumladan bank kartalari hamda boshqa toʻlov vositalari orqali toʻlagan holda koʻmaklashishga, bunday operatsiyalarni amalga oshirish tartibini belgilashga va tegishli koʻrsatmalar berishga haqlidir.

7-bob. Valyutani tartibga solish va valyutani nazorat qilish, shuningdek xalqaro zaxiralarni boshqarish

47-modda. Valyutani tartibga solish va valyutani nazorat qilish

Markaziy bank valyutani tartibga solish va valyutani nazorat qilish davlat organidir.

Markaziy bank oʻz vakolatlari doirasida:

valyutani tartibga solishga doir normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqadi va qabul qiladi;

Oldingi tahrirga qarang.

banklarning valyutani tartibga solish toʻgʻrisidagi qonunchilikka rioya etishga doir faoliyatini tartibga solishni va nazorat qilishni amalga

oshiradi;

(47-modda ikkinchi qismining uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

valyuta birjalari faoliyatini litsenziyalashni va tartibga solishni amalga oshiradi;

banklar uchun ochiq valyuta pozitsiyasi limitlarini va boshqa prudensial normativlarni belgilaydi;

chet el valyutasidagi hisobvaraqlarni ochish tartibini belgilaydi;

valyuta kursini aniqlash tartibini belgilaydi.

48-modda. Xalqaro kliring va to‘lov bitimlari

Markaziy bank O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida joylashgan kliring muassasalari bilan o‘z nomidan yoki O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining topshirig’iga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi nomidan kliring hamda to‘lov bitimlari, shuningdek har qanday shartnomalar tuzishga haqlidir.

49-modda. Xalqaro zaxiralar

Xalqaro zaxiralar Markaziy bankning va O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining tegishli aktivlaridan iboratdir.

Markaziy bank o‘zining balans hisobvaraqlarida xalqaro zaxiralarni shakllantiradi, bu zaxiralar:

monetar oltinni;

Xalqaro valyuta fondidagi mablag’ jalb qilishga doir maxsus huquqlarni va zaxira pozitsiyasini;

chet el valyutasini;

chet el hukumatlari, xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan chiqarilgan yoki kafolatlangan qimmatli qog’ozlarni;

xalqaro standartlarga muvofiq xalqaro zaxiralar tarkibiga kiritiladigan boshqa aktivlarni o‘z ichiga oladi.

Majburiyatlari xalqaro zaxiralarga kiritiladigan mamlakatlar va xalqaro moliya tashkilotlarining ro‘yxati Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

Xalqaro zaxiralar Markaziy bankning pul-kredit siyosatini amalga oshirish, shuningdek xalqaro operatsiyalar bo‘yicha hisob-kitoblarni ta’minlash uchun yetarli bo‘lgan darajada saqlab turiladi.

50-modda. Chet el valyutasidagi operatsiyalar

Oldingi tahrirga qarang.

Markaziy bank O‘zbekiston Respublikasi hududida va uning tashqarisida valyutani tartibga solish to‘g’risidagi qonunchilikka muvofiq hamda umum qabul qilingan xalqaro amaliyotni hisobga olgan holda chet el valyutasidagi operatsiyalarni amalga oshirishga haqlidir.

(50-moddaning matni O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

8-bob. Markaziy bankning O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan munosabatlari

51-modda. Markaziy bankning O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan hamkorligi

Markaziy bank hamda O‘zbekiston Respublikasi Hukumati pul-kredit va soliq-budjet siyosati sohasida hamkorlik qiladi.

Markaziy bank va O‘zbekiston Respublikasi Hukumati O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining iqtisodiy siyosat uchun ahamiyatga ega bo‘lgan mo‘ljallanilayotgan harakatlar hamda erishilgan natijalar to‘g’risida bir-birini xabardor qilishi va muntazam ravishda maslahatlashuvlar o‘tkazishi shart.

Markaziy bank o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining iqtisodiy siyosati amalga oshirilishiga, uning asosiy maqsadlariga ziyon yetkazmagan holda, ko‘maklashadi.

Markaziy bank va O‘zbekiston Respublikasi Hukumati tizimli moliyaviy tanazzul vujudga kelishining oldini olish va uning oqibatlarini kamaytirish maqsadida moliyaviy barqarorlik uchun tavakkalchilik omillarini birgalikda baholash, kelishilgan qarorlar majmuini ishlab chiqish, qabul qilish va amalga oshirish orqali moliyaviy tizim barqarorligini ta’minlash masalalari bo‘yicha hamkorlik qiladi.

52-modda. Davlat sektoriga mablag’ jalb qilish masalalaridagi maslahatlashuvlar

O‘zbekiston Respublikasi Hukumati kelgusi moliya yilida kreditlashning ichki va tashqi manbalaridan mablag’ jalb qilish, shu jumladan ushbu mablag’ni jalb qilish doirasida to‘lanadigan summalarni berish masalalari, shuningdek kreditlar berishning taklif etilayotgan muddatlari hamda shartlari yuzasidan Markaziy bank bilan maslahatlashadi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi O‘zbekiston Respublikasi va uning davlat organlari olayotgan barcha qarzlar hamda kreditlar to‘g’risida Markaziy bankka xabar beradi.

53-modda. Depozitariy vazifalari

Markaziy bank O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining, shuningdek boshqa davlat organlarining pul mablag’larini va valyuta qimmatliklarini depozitga qabul qilishi mumkin. Markaziy bank depozitariy sifatida pul mablag’larini oladi va beradi, ularning hisobini yuritadi. Markaziy bank ko‘rsatib o‘tilgan depozitlar bo‘yicha foizlar to‘lashi mumkin.

54-modda. O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining fiskal agenti vazifalari

Markaziy bank O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan shartlar asosida faoliyat yuritib, quyidagi hollarda O‘zbekiston Respublikasi Hukumati va davlat boshqaruvi organlarining fiskal agenti sifatida ish yuritishi mumkin:

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va boshqa davlat organlari tomonidan emitentlangan qarz majburiyatlarini (qimmatli qog’ozlarni) joylashtirishda, joylashtirishni ro‘yxatga olishda;

qarz majburiyatlarining (qimmatli qog’ozlarning) qiymatini, ular bo‘yicha foizlarni va boshqa to‘lovlarni to‘lashda;

qarz majburiyatlari (qimmatli qog’ozlar) bo‘yicha hisobvaraqlarni yuritishda va ularga doir to‘lov operatsiyalarini bajarishda;

qarz majburiyatlari (qimmatli qog’ozlar) bo‘yicha boshqa operatsiyalarni amalga oshirishda.

Markaziy bank O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga davlatning qimmatli qog’ozlarini chiqarish va davlat qarzini qaytarish jadvali hamda hajmi masalalari yuzasidan ularning bank tizimi likvidliligiga ta’siri va pul-kredit siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini hisobga olgan holda maslahat beradi.

55-modda. Axborot almashish

O‘zbekiston Respublikasi Hukumati va Markaziy bank o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish maqsadida doimiy ravishda tegishli statistik axborot almashishni amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Hukumati, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari Markaziy bankka u o‘z vazifalarini bajarishi uchun zarur bo‘lgan iqtisodiy axborotni taqdim etadi.

9-bob. Markaziy bankning kredit tashkilotlari bilan o‘zaro munosabatlari

56-modda. Majburiyatlar bo‘yicha javobgarlik

Markaziy bank va kredit tashkilotlari bir-birining majburiyatlari bo‘yicha javobgar bo‘lmaydi.

57-modda. Banklarning Markaziy bankdagi hisobvaraqlari

Markaziy bank banklarning hisobvaraqlarini yuritishga va ulardan depozitlarni qabul qilishga haqli.

58-modda. Markaziy bankning statistik ma’lumotlarni yig’ish, ularga ishlov berish, ularni saqlash va tarqatishdagi vakolatlari

Markaziy bank bank tizimi ehtiyojlari uchun hamda tegishli davlat boshqaruvi organlari bilan statistik ma’lumotlarni almashish uchun axborot tarmog’ini yaratadi va saqlab turadi.

Markaziy bank o‘z vakolatlari doirasida statistik ma’lumotlarni yig’ish, ularga ishlov berish, ularni saqlash va tarqatish qoidalarini tegishli davlat boshqaruvi organlari bilan kelishib oladi.

Oldingi tahrirga qarang.

Markaziy bank o‘z vakolatlarini amalga oshirish uchun tegishli davlat boshqaruvi organlaridan yoki bevosita tadbirkorlik faoliyati subyektlaridan axborotni (shu jumladan maxfiy axborotni) qonunchilikda belgilangan tartibda so‘rab olishga haqli.

(58-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

59-modda. Markaziy bankning ustuvor huquqi

Oldingi tahrirga qarang.

Markaziy bankka qarzdorning Markaziy bankdagi hisobvaraqlaridagi qoldiqlari va boshqa aktivlari hisobidan o‘zining qonunchilikda belgilangan talablarini qanoatlantirishda ustuvor huquq beriladi.

(59-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Markaziy bank o‘zining ustuvor huquqini hisobvaraqlardagi qoldiqlarni ushlab qolish yoki boshqa aktivlarni maqbul narxlarda sotish va sotish xarajatlari chegirib tashlanganidan keyin o‘ziga tegishli bo‘lgan miqdordagi tushumni ushlab qolish orqali amalga oshirishi mumkin.

10-bob. Kredit tashkilotlarining, to‘lov tashkilotlarining, to‘lov tizimlari operatorlarining, valyuta birjalarining, kredit byurolarining va banklar guruhlarining faoliyatini, shuningdek qimmatli qog’ozlar blankalarini ishlab chiqarishni tartibga solish va nazorat qilish

60-modda. Markaziy bankning tartibga solishga doir vazifalari

Markaziy bank tartibga solishga doir vazifalarni amalga oshirish uchun quyidagilarni belgilaydi:

Oldingi tahrirga qarang.

banklarni va kredit byurolarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi hamda shartlarini;

(60-modda birinchi qismining ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 20-apreldagi O‘RQ-765-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2022-y., 03/22/765/0332-son)

amalga oshirilishi uchun Markaziy bank tomonidan beriladigan litsenziyalar talab qilinadigan faoliyat turlarini litsenziyalash tartibini;

Oldingi tahrirga qarang.

ruxsat berish tartib-taomillaridan o‘tish tartibini;

(60-modda birinchi qismining to‘rtinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 20-apreldagi O‘RQ-765-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2022-y., 03/22/765/0332-son)

Oldingi tahrirga qarang.

xabardor qilish tartib-taomillaridan o‘tish tartibini;

(60-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-oktabrdagi O‘RQ-721-sonli Qonuniga asosan beshinchi xatboshi bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son)

banklar aksiyalarining potensial oluvchisini baholash tartibi va shartlarini;

chet ellik muassislarga (aksiyadorlarga) nisbatan ular tomonidan bankni tashkil etish yoki bankning ustav kapitalida ishtirok etish chog’ida qo‘yiladigan qo‘shimcha talablarni;

O‘zbekiston Respublikasi hududida chet davlatlar banklarining vakolatxonalarini ochish, akkreditatsiya qilish, ularning faoliyatini amalga oshirish va tugatish tartibini;

chet elda shu’ba bankni va filialni ochish uchun banklar boshqaruvi hamda moliyaviy holatining yetarliligi mezonlarini;

Oldingi tahrirga qarang.

to‘lov tashkilotlari va to‘lov tizimlari operatorlari ustav fondining (ustav kapitalining) eng kam miqdorini;

(60-modda birinchi qismining o‘ninchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 20-apreldagi O‘RQ-765-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2022-y., 03/22/765/0332-son)

banklarga aloqador bo‘lgan shaxslar bilan bitimlar tuzish, shu jumladan ularga kreditlar berish bo‘yicha cheklovlarni;

kredit tashkilotlarining, to‘lov tashkilotlarining, to‘lov tizimlari operatorlarining, valyuta birjalarining va kredit byurolarining axborot xavfsizligiga doir minimal talablarni;

kredit tashkilotlari, to‘lov tashkilotlari, to‘lov tizimlari operatorlari, valyuta birjalari va kredit byurolarining binolariga, ularning himoya qilinishini ta’minlashga, uskunalar, tashkiliy-texnik vositalar bilan jihozlanishiga hamda dasturiy ta’minotiga doir talablarni;

banklarning faoliyatini tugatish va banklarni tugatish, shu jumladan ixtiyoriy shaklda tugatish tartibini;

Oldingi tahrirga qarang.

banklarni auditorlik tekshiruvidan o‘tkazishning o‘ziga xos xususiyatlarini;

(60-modda birinchi qismining o‘n beshinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 20-apreldagi O‘RQ-765-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2022-y., 03/22/765/0332-son)

tizimli ahamiyatga molik banklarni aniqlash uslubiyotini;

banklarning va banklar guruhlarining moliyaviy ahvoli yomonlashishiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash uslubiyotini;

Oldingi tahrirga qarang.

yuridik shaxslar tomonidan yangi moliyaviy operatsiyalar, texnologiyalar va xizmatlarni nazorat qilinadigan cheklangan muhitda (qamrov hududi, sinov davri, operatsiyalar va xizmatlarning soni va (yoki) hajmi, iste’molchilar soni va boshqalar) sinovdan o‘tkazish bo‘yicha maxsus huquqiy rejimini (“tartibga solish qumdoni”);

mikromoliya tashkilotlari tomonidan to‘lov agentining (subagentining) yoki banklar, sug’urta va boshqa moliya tashkilotlari agentining vazifalarini amalga oshirish tartibini;

mikromoliya tashkilotlari tomonidan islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlar ko‘rsatish tartibini;

(60-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 20-apreldagi O‘RQ-765-sonli Qonuniga asosan o‘n sakkizinchi, o‘n to‘qqizinchi va yigirmanchi xatboshilar bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2022-y., 03/22/765/0332-son)

Markaziy bank zimmasiga yuklatilgan vazifalar va vakolatlardan kelib chiqqan holda boshqa talablarni.

Berilgan litsenziyalar to‘g’risidagi axborot Markaziy bankning rasmiy veb-saytida e’lon qilinishi kerak va u tanishib chiqish uchun ochiq bo‘lishi lozim.

Oldingi tahrirga qarang.

Markaziy bank banklar va kredit byurolarining davlat reyestrlarini, banklarga, to‘lov tashkilotlariga, to‘lov tizimlari operatorlariga, valyuta birjalariga, kredit byurolariga berilgan litsenziyalarning reyestrlarini, mikromoliya tashkiloti faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar reyestrini, ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotlari reyestrini, lombardlar reyestrini, shuningdek ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlar va xabarnomalar reyestrlarini yuritadi.

(60-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 20-apreldagi O‘RQ-765-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2022-y., 03/22/765/0332-son)

61-modda. Markaziy bankning nazoratga doir vazifalari

Nazoratga doir vazifalarini amalga oshirish uchun Markaziy bank:

kredit tashkilotlari uchun moliyaviy operatsiyalarini amalga oshirish, buxgalteriya hisobini yuritish, moliyaviy va nazoratga doir hisobotlarni, shu jumladan yillik hisobotni tuzish hamda taqdim etish, tavakkalchiliklarini baholash hamda ularning faoliyatini nazorat qilish uchun zarur bo‘lgan axborotni taqdim etish bo‘yicha majburiy bo‘lgan qoidalarni;

faoliyatni va operatsiyalarni amalga oshirish yuzasidan to‘lov tashkilotlari, to‘lov tizimlari operatorlari, valyuta birjalari va kredit byurolari uchun majburiy bo‘lgan qoidalarni;

“Banklar va bank faoliyati to‘g’risida”gi O‘zbekiston

Respublikasi Qonunida nazarda tutilgan hollarda foydani taqsimlash uchun banklar tomonidan Markaziy bankning roziligini olish tartibini;

konsolidatsiya chegaralarini (perimetrini) va usullarini aniqlash tartibini;

banklar guruhining asosiy banki tomonidan banklar guruhining faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan konsolidatsiyalashgan hisobotni va axborotni tuzish hamda Markaziy bankka taqdim etish tartibini;

banklar guruhining ishtirokchilari tomonidan banklar guruhining asosiy bankiga banklar guruhining faoliyati to‘g’risidagi konsolidatsiyalashgan hisobotni tuzish uchun zarur bo‘lgan o‘z faoliyati to‘g’risidagi axborotni taqdim etish tartibini;

banklarning hamda banklar guruhlarining ichki nazoratiga va tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga, shuningdek banklardagi korporativ boshqaruvga, shu jumladan banklarning kuzatuv kengashlari a’zolarining mustaqilligiga doir talablarni;

Oldingi tahrirga qarang.

kredit tashkilotlari, to‘lov tashkilotlari, to‘lov tizimlari operatorlari va banklar guruhlarining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg’in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazoratga doir talablarni;

(61-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-oktabrdagi O‘RQ-721-sonli Qonuniga asosan to‘qqizinchi xatboshi bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son)

banklarning va banklar guruhlarining moliyaviy ahvolini tiklash rejalarining mazmuniga hamda ularni yangilashga doir talablarni, ularni taqdim etish va baholash tartibini;

Oldingi tahrirga qarang.

banklar, shu jumladan tizimli ahamiyatga molik banklar, shuningdek banklar guruhlari, mikromoliya tashkilotlari va ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotlari uchun prudensial normativlarni hisoblab chiqarish tartibini hamda ushbu normativlarning yo‘l qo‘yiladigan qiymatlarini;

(61-modda birinchi qismining o‘n birinchi xatboshisi O‘zbekiston

Respublikasining 2022-yil 20-apreldagi O‘RQ-765-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2022-y., 03/22/765/0332-son)

banklar, tizimli ahamiyatga molik banklar va banklar guruhlari uchun likvidlilik hamda kapitalning yetarliligi koeffitsentlariga qo‘shimcha ustamalarni;

to‘lanadigan haq miqdorlarining bazaviy darajasini aniqlash tartibini, shu jumladan jismoniy shaxs bo‘lgan omonatchilarga to‘lanadigan har qanday foizlarni va foizsiz to‘lovlarni, natura shaklidagi daromadlarni, shuningdek bank omonati shartnomalari bo‘yicha pul mukofotlari qiymatlarining bazaviy darajadan og’ishining eng yuqori darajasini;

banklarda vaqtinchalik boshqaruvni amalga oshirish tartibini;

banklarning kuzatuv kengashi, boshqaruvi a’zolarini va muhim ahamiyatga ega xodimlarini baholashdan o‘tkazish tartibini, ularning malaka talablariga muvofiqlik mezonlarini, shuningdek ularni kelishib olish tartibini belgilaydi.

Markaziy bank nazoratga doir vazifalarini amalga oshirish uchun:

kredit tashkilotlaridan, ularga aloqador bo‘lgan shaxslardan, to‘lov tashkilotlaridan, to‘lov tizimlari operatorlaridan, valyuta birjalaridan, kredit byurolaridan, shuningdek banklar guruhlaridan, banklar tomonidan autsorsingga topshirilgan xizmatlar hamda operatsiyalarni amalga oshiruvchi shaxslardan va kredit tashkilotlarining assotsiatsiyalaridan (uyushmalaridan) hisobotlarni, shuningdek boshqa hujjatlarni so‘rab olishga va tekshirishga, olingan axborotni tushuntirib berishni talab qilishga;

kredit tashkilotlarini, to‘lov tashkilotlarini, to‘lov tizimlari operatorlarini, valyuta birjalarini, kredit byurolarini, bank tomonidan autsorsingga topshirilgan xizmatlar va operatsiyalarni amalga oshiruvchi shaxslarni, shuningdek konsolidatsiyalashgan tarzda nazorat qilinishi lozim bo‘lgan shaxslarni inspeksiyadan (tekshiruvdan) o‘tkazishga;

Oldingi tahrirga qarang.

banklarning, mikromoliya tashkilotlarining, ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotlarining va kredit byurolarining ichki auditiga doir talablarni belgilashga;

(61-modda ikkinchi qismining to‘rtinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 20-apreldagi O‘RQ-765-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2022-y., 03/22/765/0332-

son)

Oldingi tahrirga qarang.

banklar va mikromoliya tashkilotlari tomonidan beriladigan iste’mol kreditlari hamda mikroqarzlar, shuningdek lombardlar tomonidan beriladigan mikroqarzlar bo‘yicha foiz stavkalari va to‘lovlarining eng yuqori qiymatlarini belgilashga;

(61-modda ikkinchi qismining beshinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 20-apreldagi O‘RQ-765-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2022-y., 03/22/765/0332-son)

Fuqarolarning banklardagi omonatlarini kafolatlash jamg’armasiga banklar tomonidan har chorakda o‘tkaziladigan kalendar badaliga qo‘shimcha ajratmalar miqdorini belgilashga;

umidsiz aktivlarni hisobdan chiqarish shartlari va tartib-taomilini belgilashga;

kredit tashkilotlari va kredit byurolari uchun hisobot shakllarini hamda uni tuzish uslubiyotini, taqdim etish davriyligi va muddatlarini belgilashga;

bankdan konsolidatsiyalashgan hisobot taqdim etishni talab qilishga;

moliyaviy ahvoli yomonlashgan taqdirda banklarga va banklar guruhlarining asosiy banklariga moliyaviy ahvolini tiklash chora-tadbirlarini nazarda tutuvchi tiklash rejalarini ishlab chiqish hamda taqdim etishga doir talabnoma yuborishga;

kredit tashkilotlariga, to‘lov tashkilotlariga, to‘lov tizimlari operatorlariga, valyuta birjalariga va kredit byurolariga ularning faoliyatida aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish to‘g’risida, shu jumladan kredit tashkilotlari xizmatlari iste’molchilarining huquqlari buzilishiga olib keluvchi sabablarni bartaraf etish to‘g’risida ijro etilishi majburiy bo‘lgan ko‘rsatmalar yuborishga;

banklar aksiyalariga bevosita va bilvosita egalik qiluvchilarning, shu jumladan oxirgi benefitsiar mulkdorlarning moliyaviy ahvoli hamda ishchanlik obro‘si haqida axborot so‘rashga va olishga;

Oldingi tahrirga qarang.

to‘lov tashkilotlari, to‘lov tizimlari operatorlari, valyuta birjalari va kredit byurolari rahbarlari hamda bosh buxgalterlariga nisbatan malaka talablarini qo‘yishga, shuningdek ularni lavozimga tayinlash va lavozimidan

ozod etishning o‘ziga xos xususiyatlarini belgilashga haqli.

(61-modda ikkinchi qismining o‘n uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 20-apreldagi O‘RQ-765-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2022-y., 03/22/765/0332-son)

62-modda. Kredit tashkilotlari xizmatlari iste’molchilarining huquqlarini himoya qilish bo‘yicha chora-tadbirlar

Markaziy bank kredit tashkilotlari xizmatlari iste’molchilarining huquqlarini himoya qilish bo‘yicha vazifalarni bajarish uchun quyidagi choralarni ko‘radi:

kredit tashkilotlari tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar to‘g’risidagi axborotni oshkor etish tartibini belgilaydi;

kredit tashkilotlari faoliyatidagi ularning xizmatlari iste’molchilarining huquqlari buzilishiga olib keluvchi tizimli kamchiliklarni aniqlaydi, shuningdek ularni bartaraf etish choralarini ko‘radi;

o‘z xizmatlari iste’molchilarining huquqlari buzilishiga yo‘l qo‘ygan kredit tashkilotlariga nisbatan choralar va sanksiyalar qo‘llaydi;

kredit tashkilotlari xizmatlari iste’molchilarining buzilgan huquqlarini tiklash borasida maslahatlar beradi va ko‘maklashadi;

moliyaviy xizmatlarning ochiqligini hamda aholining va tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy savodxonligi darajasini oshirish choralarini ko‘radi.

Markaziy bank xalqaro tajribani va O‘zbekiston Respublikasi moliya bozorining o‘ziga xos xususiyatini inobatga olgan holda moliyaviy ochiqlik indikatorlarini belgilaydi hamda o‘zining rasmiy veb-saytida e’lon qiladi.

Markaziy bankda kredit tashkilotlari xizmatlari iste’molchilarining huquqlarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilish xizmati tashkil etiladi.

Markaziy bank nazorat tadbirini o‘tkazishga haqli bo‘lib, uning jarayonida Markaziy bank xodimlari kredit tashkiloti tomonidan bank xizmatlarining iste’molchilari bilan o‘zaro munosabatlarni amalga oshirish chog’ida o‘z faoliyatiga qo‘yiladigan talablarga rioya etilishini tekshirish maqsadida kredit tashkilotining faoliyati doirasida bitimlar tuzish yoki operatsiyalarni bajarish bo‘yicha harakatlarni amalga oshiradi.

Nazorat tadbiri kredit tashkilotini oldindan xabardor qilmagan holda o‘tkaziladi.

63-modda. Asoslantirilgan mulohazaning Markaziy bank tomonidan qo‘llanilishi

Oldingi tahrirga qarang.

Qonunchilikda belgilangan talablarga qo‘shimcha ravishda Markaziy bank tomonidan qo‘llaniladigan, ko‘rib chiqilayotgan masalaning haqiqiy yoki iqtisodiy mazmuni rasmiy mazmunidan ustuvorligini nazarda tutuvchi professional baholash asoslantirilgan mulohazadir.

(63-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Asoslantirilgan mulohaza asosida qarorlar qabul qilish Markaziy bankning Bank nazorati qo‘mitasi vakolatiga kiradi.

Markaziy bank asoslantirilgan mulohazadan:

bankni tashkil etish uchun dastlabki ruxsatnomani, ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni berish (berishni rad etish) chog’ida, shuningdek Markaziy bank tomonidan tartibga solish va nazoratga doir vazifalarni amalga oshirish chog’ida bankning bevosita hamda bilvosita muassislarining va aksiyalari egalarining, shu jumladan oxirgi benefitsiar mulkdorlarning moliyaviy holatini hamda ishchanlik obro‘sini baholash;

kredit tashkilotiga nisbatan birgalikda harakat qilayotgan shaxslarni aniqlash;

kredit tashkilotiga aloqador bo‘lgan shaxslarni aniqlash hamda kredit tashkiloti tomonidan ancha qulay shartlar asosida bitimlar tuzilganligi faktlarini aniqlash;

kredit tashkilotida tavakkalchiliklarni boshqarish va ichki nazorat tizimi sifatini samarali ichki siyosatlarning mavjudligi hamda amalga oshirilishi nuqtai nazaridan baholash;

aktivlarni va majburiyatlarni baholash, shu jumladan ularning kredit tashkilotida tavakkalchiliklarni boshqarish bo‘yicha Markaziy bankning normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiqligi nuqtai nazaridan baholash uchun foydalanishga haqli.

Asoslantirilgan mulohaza Markaziy bank tomonidan kredit tashkilotlari va banklar guruhlari faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish doirasida olingan axborotga, jismoniy va yuridik shaxslardan, xalqaro tashkilotlardan, davlat organlaridan, shu jumladan chet el nazorat organlari hamda tashkilotlaridan, boshqa ochiq manbalardan olingan va

asoslantirilgan mulohazani shakllantirish uchun muhim bo‘lgan boshqa axborotga asoslanadi.

Asoslantirilgan mulohazani shakllantirish va undan foydalanish tartibi Markaziy bank tomonidan belgilanadi hamda qonuniylik, asoslantirilganlik, xolislik va bir xil yondashish prinsiplariga asoslanadi.

64-modda. Markaziy bankning tartibga solish va nazoratga doir vazifalarini amalga oshirish

Markaziy bankning tartibga solish va nazorat qilish vazifalarini Markaziy bankning Bank nazorati qo‘mitasi amalga oshiradi.

Markaziy bankning Bank nazorati qo‘mitasining vazifalari, vakolatlari va funksiyalari Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

Kredit tashkilotlarining, to‘lov tashkilotlarining, to‘lov tizimlari operatorlarining, valyuta birjalarining, kredit byurolarining, banklar tomonidan autsorsingga topshirilgan xizmatlar hamda operatsiyalarni amalga oshiruvchi shaxslarning, shuningdek konsolidatsiyalashgan tarzda nazorat qilinishi lozim bo‘lgan shaxslarning faoliyatini inspeksiya qilish (tekshirish) Markaziy bankning vakolatli xodimlari va Markaziy bank tomonidan belgilanadigan auditorlar tomonidan amalga oshiriladi.

Markaziy bank bankning ichki auditi o‘tkazilayotganda auditorlardan Markaziy bankning normativ-huquqiy hujjatlariga, shu jumladan tartib-taomillar va uslubiyotlarga rioya etilishini talab qilishga, shuningdek bevosita auditorlardan bank auditi bilan bog’liq axborotni olishga haqli.

Markaziy bank kredit tashkilotlari, to‘lov tashkilotlari hamda to‘lov tizimlari operatorlari uchun majburiy bo‘lgan, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg’in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashishga doir ichki nazorat qoidalarini maxsus vakolatli davlat organi bilan birgalikda tasdiqlaydi.

65-modda. Ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni berish

Oldingi tahrirga qarang.

Markaziy bank quyidagi harakatlarni va (yoki) faoliyatni bajarish va (yoki) amalga oshirish uchun ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni beradi:

birgalikda harakat qiluvchi shaxslar yoki shaxslar guruhi tomonidan bir yoki bir nechta bitim natijasida bankning ustav kapitalidagi:

1) besh va undan ko‘proq foizni, lekin ko‘pi bilan yigirma foizni;

2) yigirma va undan ko‘proq foizni, lekin ko‘pi bilan ellik foizni;

3) ellik foizni va undan koʻproq foizni tashkil etadigan ulush bevosita yoxud bilvosita sotib olinayotganda;

ushbu qismning ikkinchi xatboshisida nazarda tutilgan miqdorlardagi bank aksiyalari oluvchiga bogʼliq boʻlmagan holatlarda olinganda;

bank tomonidan boshqa bankning aksiyalari sotib olinayotganda;

banklar tomonidan oʻz aksiyalari sotib olinayotganda;

banklar tomonidan Oʻzbekiston Respublikasidan tashqarida shuʼba banklar va vakolatxonalar ochilayotganda, filiallar tashkil etilayotganda, banklarning kapitalida ishtirok etilayotganda, shu jumladan chet el banklari tashkil etilayotganda;

banklar tomonidan naqd chet el valyutasi va (yoki) milliy valyuta Oʻzbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqilayotganda;

bank tomonidan xizmatlar va operatsiyalarning ayrim turlari autsorsingga topshirilayotganda;

bank qayta tashkil etilayotganda;

bank ixtiyoriy ravishda tugatilayotganda;

Oldingi tahrirga qarang.

ipoteka kreditlarini qayta moliyalashtirish faoliyatini amalga oshirishga;

(65-moddaning oʻn toʻrtinchi xatboshisi Oʻzbekiston Respublikasining 2022-yil 20-apreldagi OʻRQ-765-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 21.04.2022-y., 03/22/765/0332-son)

Oldingi tahrirga qarang.

mikromoliya tashkiloti faoliyatini amalga oshirishga;

jismoniy va yuridik shaxslar, shu jumladan tegishincha yaqin qarindoshlari hamda ular bilan bogʼliq boʻlgan shaxslar bilan birgalikda harakat qiluvchi jismoniy va yuridik shaxslar, shuningdek norezidentlar tomonidan bir yoki bir nechta bitim natijasida nobank kredit tashkilotining ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) oʻn va undan koʻproq foizni tashkil etadigan ulushi bevosita yoki bilvosita olinayotganda;

nobank kredit tashkilotining ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ushbu moddaning oʻn toʻrtinchi xatboshisida nazarda tutilgan hajmdagi ulushi oluvchiga bogʼliq boʻlmagan holatlarda olinayotganda;

(65-modda Oʻzbekiston Respublikasining 2022-yil 20-apreldagi OʻRQ-765-sonli Qonuniga asosan oʻn beshinchi, oʻn oltinchi va oʻn

yettinchi xatboshilar bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2022-y., 03/22/765/0332-son)

Oldingi tahrirga qarang.

65[1]-modda. Xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyat (harakatlar)

Quyidagi faoliyat (harakatlar) turlarini amalga oshirish uchun bu haqda Markaziy bankni xabardor qilish talab etiladi:

lombard faoliyatini boshlash yoki tugatish;

naqd xorijiy va (yoki) milliy valyutani O‘zbekiston Respublikasiga olib kirish;

bank filiali yoki bank xizmatlari ofisini ochish yoki tugatish;

to‘lov tashkilotini qayta tashkil etish (qo‘shib yuborish, qo‘shib olish, bo‘lish, ajratib chiqarish, o‘zgartirish);

elektron pullar emitentining elektron pullarni chiqarish bo‘yicha faoliyatni boshlash yoki tugatish;

Oldingi tahrirga qarang.

mikromoliya tashkiloti filialini ochish yoki yopish;

(65[1]-modda birinchi qismining yettinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 20-apreldagi O‘RQ-765-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2022-y., 03/22/765/0332-son)

Oldingi tahrirga qarang.

lombard filialini ochish yoki yopish.

(65[1]-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 20-apreldagi O‘RQ-765-sonli Qonuniga asosan sakkizinchi xatboshi bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2022-y., 03/22/765/0332-son)

Ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan faoliyat (harakatlar) turlari bilan Markaziy bankni xabardor qilmasdan shug’ullanish taqiqlanadi.

(65[1]-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-oktabrdagi O‘RQ-721-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son)

66-modda. Markaziy bank tomonidan nazorat qilinishi lozim bo‘lgan shaxslarni inspeksiyadan (tekshiruvdan) o‘tkazish

Oldingi tahrirga qarang.

Markaziy bank kredit tashkilotlarini, to‘lov tashkilotlarini, to‘lov

tizimlari operatorlarini, valyuta birjalarini, kredit byurolarini, banklar tomonidan autsorsingga topshirilgan xizmatlar hamda operatsiyalarni amalga oshiruvchi shaxslarni, shuningdek konsolidatsiyalashgan tarzda nazorat qilinishi lozim bo‘lgan shaxslarni tavakkalchiliklarni baholash natijalari asosida inspeksiyadan o‘tkazadi, shuningdek ularni huquqni muhofaza qiluvchi organlarning so‘rovlari, jismoniy va yuridik shaxslarning qonunchilik buzilganligi faktlari to‘g’risidagi murojaatlari bo‘yicha alohida masalalar yuzasidan tekshiruvdan o‘tkazishi mumkin.

(66-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan shaxslarni inspeksiyadan (tekshiruvdan) o‘tkazish tartibi Markaziy bank tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi. Inspeksiya (tekshiruv) davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan kelishuvsiz hamda ular xabardor qilinmasdan amalga oshiriladi.

Markaziy bankning Bank nazorati qo‘mitasi Markaziy bank tomonidan nazorat qilinishi lozim bo‘lgan shaxslar faoliyatining inspeksiyadan (tekshiruvdan) o‘tkaziladigan sohasi yo‘nalishini Markaziy bank tarkibiy bo‘linmalarining vazifalaridan kelib chiqqan holda belgilaydi.

Markaziy bank tomonidan nazoratga doir vazifalarni bajarishga to‘sqinlik qilinganligi uchun Markaziy bank nazorat qilishi lozim bo‘lgan shaxslarga nisbatan choralar va sanksiyalar qo‘llanilishi mazkur shaxslarni inspeksiyadan (tekshiruvdan) o‘tkazishdan ozod etmaydi.

Markaziy bankning inspeksiya va tekshirish o‘tkazishni amalga oshiruvchi bo‘linmalarining vakolatlari, ularning majburiyatlarini taqsimlash Markaziy bankning Bank nazorati qo‘mitasi tomonidan belgilanadi.

Inspeksiya (tekshiruv) o‘tkazish uchun Markaziy bank tasarrufidagi tashkilotlarning, shuningdek banklar va sohaga oid boshqa tashkilotlarning xodimlari jalb etilishi mumkin.

Oldingi tahrirga qarang.

67-modda. Markaziy bank tomonidan qo‘llaniladigan choralar va sanksiyalar

Markaziy bank banklar va bank faoliyati to‘g’risidagi qonunchilikka muvofiq banklarga, banklarning bevosita hamda bilvosita aksiyadorlariga, shu jumladan oxirgi benefitsiar mulkdorlariga, kuzatuv kengashi va

boshqaruvi a’zolariga, shuningdek banklarning muhim ahamiyatga ega xodimlariga nisbatan choralar hamda sanksiyalar qo‘llashga haqli.

Oldingi tahrirga qarang.

Nobank kredit tashkilotlari qonunchilik talablarini, shu jumladan belgilangan prudensial normativlarni buzgan yoki xabardor qilish tartibida faoliyatni (harakatlarni) amalga oshirish uchun belgilangan talablar va shartlar bajarilganligi to‘g’risida Markaziy bankka yolg’on yoki noto‘g’ri axborot bergan taqdirda Markaziy bank:

qoidabuzarga o‘z faoliyatida aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish to‘g’risida ijro etilishi majburiy bo‘lgan ko‘rsatmalar yuborishga;

ularning o‘z kapitalining besh foizigacha miqdorda jarima undirishga;

ayrim operatsiyalarni o‘tkazishni uch oygacha bo‘lgan muddatga cheklashga;

nobank kredit tashkiloti to‘g’risidagi ma’lumotlarni mikromoliya tashkiloti faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar reyestridan yoki ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotlari reyestridan yoki lombardlar reyestridan chiqarib tashlashga;

xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyatni to‘xtatib turishga yoki tugatishga haqlidir.

(67-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 20-apreldagi O‘RQ-765-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2022-y., 03/22/765/0332-son)

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg’in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g’risidagi qonunchilik kredit tashkilotlari, to‘lov tashkilotlari, to‘lov tizimlari operatorlari tomonidan buzilganligi aniqlangan taqdirda Markaziy bank ularga nisbatan qonunchilikka muvofiq choralar va sanksiyalar qo‘llashga haqli.

Kredit tashkilotlariga, to‘lov tashkilotlariga, to‘lov tizimlari operatorlariga, valyuta birjalariga va kredit byurolariga choralar va sanksiyalar qo‘llash tartibi Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

Markaziy bank ayni bir qoidabuzarlik bo‘yicha bir vaqtning o‘zida yoki ketma-ket bir nechta choralar va (yoki) sanksiyalar qo‘llashga haqlidir.

(67-moddaning matni O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-oktabrdagi O‘RQ-721-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari

milliy bazasi, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son)

Oldingi tahrirga qarang.

67[1]-modda. Moliyaviy xizmatlar sohasidagi maxsus “tartibga solish qumdoni” huquqiy rejimi

Yuridik shaxslarning yangi moliyaviy operatsiyalar, texnologiyalar va xizmatlarni nazorat qilinadigan cheklangan muhitda (qamrov hududi, sinov davri, operatsiyalar va xizmatlarning soni va (yoki) hajmi, iste’molchilar soni va boshqalar) sinovdan o‘tkazish bo‘yicha faoliyatini maxsus tartibga solish moliyaviy xizmatlar sohasidagi maxsus huquqiy rejimdir (“tartibga solish qumdoni”).

Maxsus huquqiy rejimni joriy etish va bekor qilish, mazkur rejim doirasida faoliyatni amalga oshirish tartibi Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

Maxsus huquqiy rejim Markaziy bank tomonidan maxsus huquqiy rejimning vaqtinchalik tartibini tasdiqlash orqali joriy etilib, ushbu tartib quyidagilarni nazarda tutadi:

maxsus huquqiy rejimning uch yildan oshishi mumkin bo‘lmagan amal qilish muddatini;

maxsus huquqiy rejim ishtirokchilariga nisbatan tatbiq etilmaydigan qonunchilik hujjatlarining normalarini;

maxsus huquqiy rejim joriy etilishining samaradorligi va natijadorligini baholash tartib-taomillari hamda mezonlarini, shu jumladan maqsadli indikatorlarni;

maxsus huquqiy rejimni joriy etish va qo‘llash uchun zarur bo‘lgan boshqa axborotni.

Maxsus huquqiy rejim amal qilishi yakunlanganidan keyin maxsus huquqiy rejim doirasida sinovdan o‘tkazilgan yangi moliyaviy operatsiyalar, texnologiyalar va xizmatlarni joriy etishning maqsadga muvofiqligi yuzasidan tahlil o‘tkaziladi.

Maxsus huquqiy rejim doirasida sinovdan o‘tkazilgan yangi moliyaviy operatsiyalar, texnologiyalar va xizmatlarni joriy etish maqsadga muvofiq deb topilgan taqdirda, Markaziy bank maxsus huquqiy rejim doirasida sinovdan o‘tkazilgan yangi moliyaviy operatsiyalar, texnologiyalar hamda xizmatlarni ularning amal qilishini cheklamasdan joriy etishga doir qonunchilik hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha takliflar tayyorlaydi.

(67[1]-modda O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 20-apreldagi O‘RQ-765-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2022-y., 03/22/765/0332-son)

11-bob. Yakunlovchi qoidalar

68-modda. Xalqaro hamkorlik

Markaziy bank xalqaro tashkilotlar, chet davlatlarning markaziy banklari hamda bank nazorati va monetar siyosat bo‘yicha boshqa organlari bilan hamkorlik qiladi hamda axborot almashishni amalga oshiradi.

Oldingi tahrirga qarang.

Markaziy bank nazorat vazifalarini amalga oshirish bo‘yicha, shu jumladan konfidensial axborotni almashish yuzasidan milliy va chet el organlari bilan hamkorlik qilish to‘g’risida bitimlar tuzishga haqli.

(68-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-oktabrdagi O‘RQ-721-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son)

Markaziy bank chet davlatdan kelib tushgan axborotni uni taqdim etgan shaxsning roziligi bo‘lgan taqdirda va tegishli shaxs qaysi maqsadlarda rozilik bergan bo‘lsa, o‘sha maqsadlarda oshkor qilishga haqli.

69-modda. Markaziy bankning kommunikatsiya siyosati

Markaziy bank pul-kredit siyosatining va bank tizimining barqarorligini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlarning ta’sirchanligini oshirish maqsadida Markaziy bank siyosatining maqsadlari va mohiyatini jamoatchilik e’tiboriga yetkazish orqali kommunikatsiya siyosatini ishlab chiqadi va amalga oshiradi.

Markaziy bankning kommunikatsiya siyosati tahliliy materiallarni, sharhlarni, statistik ma’lumotlarni, intervyularni, ma’ruzalarni e’lon qilish, shuningdek matbuot brifinglari tashkil etish orqali va umume’tirof etilgan xalqaro amaliyotni inobatga olgan holda boshqa usullar bilan amalga oshiriladi.

Markaziy bank bank tizimi faoliyatining shaffofligini ta’minlash uchun o‘zining rasmiy veb-saytida quyidagi axborotni:

banklarni nazorat qilish hamda tartibga solish sohasida qabul qilingan qonunlarning va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning matnlarini va ularning qo‘llanilishiga doir tavsiyalarni;

Oldingi tahrirga qarang.

banklar va bank faoliyati to‘g’risidagi qonunchilik talablariga

muvofiq bo‘lishi uchun banklar tomonidan qo‘llaniladigan tizimlar, strategiyalar, tartib-taomillar hamda mexanizmlarni tekshirishda va banklar duchor bo‘lgan yoki duchor bo‘lishi mumkin bo‘lgan tavakkalchiliklarni baholashda foydalaniladigan umumiy mezonlar hamda uslubiyotlarni;

(69-modda uchinchi qismining uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

banklarning rahbarlari ro‘yxatini;

banklarning hisobotlarida mavjud bo‘lgan ma’lumotlarni, bundan bank sirini yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma’lumotlar mustasno;

ko‘rilgan choralar va sanksiyalarni e’lon qiladi hamda muntazam ravishda yangilab turadi.

Oldingi tahrirga qarang.

69[1]-modda. Markaziy bankning davlat organlari va tashkilotlari bilan litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari doirasidagi o‘zaro hamkorligi

Markaziy bank davlat organlari va tashkilotlaridan litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari doirasida qarorlar qabul qilish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni so‘rab olishga haqlidir.

Davlat organlari va tashkilotlari Markaziy bank tomonidan so‘ralgan, tegishli qaror qabul qilish uchun zarur bo‘lgan axborotni taqdim etishi kerak.

(69[1]-modda O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 20-apreldagi O‘RQ-765-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2022-y., 03/22/765/0332-son)

70-modda. Markaziy bankning xodimlarini o‘z vazifalarini bajarishi chog’ida huquqiy jihatdan himoya qilish

Markaziy bank, uning xodimlari, tashqi ekspertlar va vaqtinchalik boshqaruvchilar, shuningdek nazorat qilishga doir vazifalarni bajaradigan ushbu Qonunda belgilangan boshqa shaxslar, shu jumladan ularning vakolatlari tugatilganidan yoki Markaziy bankda ishlashi tugaganidan keyin faqat o‘z vazifalarini bajarishi chog’ida insofsizlik bilan amalga oshirgan harakatlari (harakatsizligi) uchun javobgar bo‘ladi.

Markaziy bank ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan shaxslarning manfaatlarini, mazkur shaxslar ushbu Qonunga muvofiq

bajaradigan vazifalar munosabati bilan qo‘zg’atilgan sud ishini va ma’muriy ishni yuritishda, shu jumladan ularning vakolatlari tugatilgan yoki Markaziy bankda ishlashi tugagan hollarda, ifodalashga doir xarajatlarni to‘laydi.

71-modda. Markaziy bankning qarorlari ustidan shikoyat qilish

Oldingi tahrirga qarang.

Markaziy bankning qarorlari ustidan qonunchilikda belgilangan tartibda shikoyat qilinishi mumkin.

(71-moddaning matni O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Oldingi tahrirga qarang.

72-modda. O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g’risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik

O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g’risidagi qonunchilik talablarini buzganlikda aybdor shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

(72-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

(Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 12.11.2019-y., 03/19/582/4014-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son; 30.03.2022-y., 03/22/760/0249-son, 21.04.2022-y., 03/22/765/0332-son; 29.11.2023-y., 03/23/880/0905-son)

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI “BANKLAR VA BANK FAOLIYATI TO‘G’RISIDA”GI O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNIGA O‘ZGARTISH VA QO‘SHIMCHALAR KIRITISH HAQIDA

Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 22-iyulda qabul qilingan Senat tomonidan 2019-yil 11-oktabrda ma’qullangan

1-modda. O‘zbekiston Respublikasining 1996-yil 25-aprelda qabul qilingan “Banklar va bank faoliyati to‘g’risida”gi 216-I-sonli Qonuniga (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996-yil, № 5-6, 54-modda; 1997-yil, № 2, 56-modda, № 9, 241-modda; 1999-yil, № 5, 124-modda, № 9, 229-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2006-yil, № 9, 491-modda, № 10, 536-modda; 2008-yil, № 12, 640-modda; 2009-yil, № 4, 133-modda, № 9, 337-modda; 2012-yil, № 4, 105-modda; 2013-yil № 4, 98-modda; 2017-yil, № 9, 510-modda; 2018-yil, № 4, 224-modda, № 10, 670-modda; 2019-yil, № 1, 5-modda) o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilib, uning yangi tahriri tasdiqlansin (ilova qilinadi).

2-modda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;

davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo‘lgan o‘z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko‘rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta’minlasin;

ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o‘rtasida tushuntirilishini ta’minlasin.

3-modda. Ushbu Qonun rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,

2019-yil 5-noyabr,

O‘RQ-580-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

Banklar va bank faoliyati to‘g’risida

(yangi tahriri)

1-bob. Umumiy qoidalar

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi bank faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Oldingi tahrirga qarang.

2-modda. Banklar va bank faoliyati to‘g’risidagi qonunchilik

Banklar va bank faoliyati to‘g’risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining banklar va bank faoliyati to‘g’risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

(2-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

bank — bank hisobvaraqlarini ochish va yuritish, to‘lovlarni amalga oshirish, omonatlarga (depozitlarga) pul mablag’larini jalb etish, o‘z nomidan kreditlar berish bo‘yicha bank faoliyati sifatida aniqlangan operatsiyalar majmuini amalga oshiruvchi tijorat tashkiloti bo‘lgan yuridik shaxs;

banklar guruhi — moliya institutlarining yuridik shaxs bo‘lmagan birlashmasi bo‘lib, bunda asosiy bank boshqa moliya institutlarini nazorat qiladi;

bank hisobvarag’i — bank tomonidan shartnomaga muvofiq mijozga ochilgan hisobvaraq bo‘lib, unga ko‘ra bank mijozning hisobvarag’iga tushayotgan pul mablag’larini qabul qilish va hisobga kiritish, mijozning hisobvarag’idan tegishli pul mablag’larini o‘tkazish

hamda berish va hisobvaraq bo‘yicha boshqa operatsiyalarni amalga oshirish haqidagi topshiriqlarini bajarish majburiyatini zimmasiga oladi;

bankning barqaror moliyaviy holati — bankning moliyaviy oqimlar mutanosibligini, to‘lov qobiliyatini, likvidliligi va rentabelli faoliyatini saqlab turish uchun mablag’larning yetarliligini, shuningdek barcha prudensial normativlar bank tomonidan bajarilishini ifodalovchi holati;

bilvosita egalik qiluvchi (oluvchi) — bankning aksiyalariga o‘zi nazorat qiladigan boshqa shaxs orqali egalik qiluvchi (aksiyalarni oluvchi) shaxs;

muhim ahamiyatga ega xodimlar — bankning boshqaruv a’zolari bo‘lmagan, lavozimi bank faoliyatiga muhim ta’sir ko‘rsatish imkoniyatini beradigan xodimlari;

mo‘ljallangan olish — potensial oluvchi tomonidan bank aksiyalarini olish yoki ularga hal qiluvchi egalik qilishni ko‘paytirish yuzasidan qabul qilingan qaror;

oxirgi benefitsiar mulkdor — yuridik shaxs bo‘lgan, bank aksiyalarining potensial oluvchisiga yoki bu aksiyalarga bevosita yoxud bilvosita egalik qiluvchiga bevosita yoki bilvosita egalik qiladigan yoxud uni nazorat qiladigan jismoniy shaxs;

prudensial nazorat — bank faoliyatining o‘ziga xos tavakkalchiliklarining oldini olish va kamaytirish maqsadida banklar faoliyati ustidan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki amalga oshiradigan nazorat;

regulyativ kapital — bank faoliyatini tartibga solish va prudensial normativlar hisob-kitobini amalga oshirish maqsadida hisob-kitob qilish yo‘li bilan aniqlanadigan bank kapitali;

tizimli ahamiyatga molik bank — bank tizimining barqarorligi qaysi bankning faoliyatiga bog’liq bo‘lsa, o‘sha bank;

Oldingi tahrirga qarang.

chet el banki — chet davlatning hududida ro‘yxatga olingan, uning qonunchilikka muvofiq bank deb hisoblanadigan yuridik shaxs;

(3-moddaning o‘n uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

hal qiluvchi egalik — shaxs tomonidan yoki birgalikda harakat

qiluvchi shaxslar tomonidan yuridik shaxs ustav fondining (ustav kapitalining) bir yoxud bir necha bitim natijasida olingan kamida besh foiziga bevosita yoki bilvosita egalik qilish.

4-modda. Bank faoliyati sohasini tartibga soluvchi davlat organi

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki (bundan buyon matnda Markaziy bank deb yuritiladi) bank faoliyati sohasini tartibga soluvchi va litsenziyalash, tartibga solish hamda prudensial nazorat bo‘yicha vakolatlarni amalga oshiruvchi davlat organidir.

5-modda. Bank operatsiyalari

Banklar tomonidan amalga oshiriladigan moliyaviy operatsiyalar jumlasiga quyidagilar kiradi:

pul mablag’larini omonatlarga (depozitlarga) jalb etish;

to‘lovlarni amalga oshirish, shu jumladan bank hisobvaraqlarini ochmasdan amalga oshirish;

jismoniy va yuridik shaxslarning bank hisobvaraqlarini, shu jumladan banklarning vakillik hisobvaraqlarini ochish hamda yuritish;

kreditlarni ularning qaytarilishi, foizliligi va muddatliligi sharti bilan o‘z nomidan o‘zining mablag’lari hamda jalb etilgan mablag’lar hisobidan berish;

chet el valyutasi bilan naqd va naqdsiz shakllardagi operatsiyalar;

jismoniy yoki yuridik shaxs bilan tuzilgan shartnoma bo‘yicha mol-mulkni ishonchli boshqarish;

inkassatsiya va kassa xizmatlarini ko‘rsatish;

uchinchi shaxslar nomidan ularning majburiyatlari bajarilishini nazarda tutuvchi kafolatlar berish va boshqa majburiyatlarni qabul qilish;

uchinchi shaxslardan pul shaklidagi majburiyatlarning bajarilishini talab qilish huquqini olish (faktoring);

qimmatli qog’ozlarni chiqarish, xarid qilish, sotish, ularning hisobini yuritish va ularni saqlash, mijoz bilan tuzilgan shartnomaga binoan qimmatli qog’ozlarni boshqarish, ular bilan boshqa operatsiyalarni bajarish;

affinlangan qimmatbaho metallar sotib olish va sotish, shu jumladan metallarni mas’ul saqlash hisobvaraqlarini hamda metallarning egasizlantirilgan (jismoniy bo‘lmagan) hisobvaraqlarini yuritish;

qimmatbaho metallardan yasalgan tangalarni sotib olish va sotish;

hosilaviy moliya vositalari (derivativlar) bilan operatsiyalarni amalga oshirish;

hujjatlarni yoki qimmatliklarni saqlash uchun maxsus binolarni yoki ularning ichidagi seyflarni ijaraga berish;

lizing berish;

Oldingi tahrirga qarang.

qonunchilikda nazarda tutilgan shakllarda qarzlar berish;

(5-modda birinchi qismining o‘n yettinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

moliyaviy operatsiyalar bilan bog’liq maslahat xizmatlari ko‘rsatish;

aktivlar majmuini (portfelini) boshqarish;

elektron pullarni chiqarish, ulardan foydalanish va to‘lash;

bank kartalarini berish va to‘lovlarga ishlov berish, bank kartalariga boshqa tashkilotlar, jumladan boshqa moliya institutlari bilan birgalikda xizmat ko‘rsatish.

Oldingi tahrirga qarang.

Banklar banklar va bank faoliyati to‘g’risidagi qonunchilikka muvofiq boshqa moliyaviy operatsiyalarni ham amalga oshiradi.

(5-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Banklar bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyada ko‘rsatilmagan moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishga haqli emas.

6-modda. Omonat (depozit)

Quyidagi shartlarning barchasiga muvofiq bo‘lgan, qo‘yilgan pul mablag’lari omonatdir (depozitdir):

mijozning talabiga binoan yoki muddat o‘tganidan keyin foizlar yoxud boshqa daromadlar bilan yoki ularsiz yoxud omonatchi yoki uning vakolatli vakili va pul mablag’larini qabul qiluvchi bank o‘rtasida, kelishilgan shartlar asosida qaytarilishi lozim bo‘lgan pul mablag’lari;

subordinar qarzga, egalik qilish huquqlariga yoki xizmatlariga, shu jumladan sug’urta xizmatlariga taalluqli bo‘lmagan pul mablag’lari;

pul mablag’larini qabul qiluvchi bankning tegishli hujjati bilan yozma shaklda tasdiqlangan pul mablag’lari.

Pul mablag’larini omonatlarga (depozitlarga) jalb etish bo‘yicha

faoliyat bilan shug’ullanishga faqat banklar haqli.

7-modda. Banklar uchun taqiqlangan yoki cheklangan faoliyat

Oldingi tahrirga qarang.

Banklar bevosita ishlab chiqarish, savdo, sug’urta faoliyati hamda banklar va bank faoliyati to‘g’risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish bilan bog’liq bo‘lmagan boshqa faoliyat bilan shug’ullanishga haqli emas.

(7-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan cheklov quyidagi hollarga nisbatan tatbiq etilmaydi:

bank kartalari asosida naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimlarida foydalaniladigan ixtisoslashtirilgan uskunani va unga doir dasturiy ta’minotni sotish yoki ijaraga berishga;

o‘z aktivlarini sotishga;

chek daftarchalarini chiqarish, realizatsiya qilish va tarqatishga;

sug’urta tashkilotlari bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari nomidan sug’urta shartnomasi tuzilishini tashkil etish bo‘yicha faoliyatni amalga oshirishga;

bank o‘zi muassis bo‘lgan yuridik shaxslarga o‘z mol-mulkini mulkiy ijara (arenda) shartnomasiga muvofiq ijaraga berishga.

Banklarga yuridik shaxslarni tashkil etish va (yoki) yuridik shaxslarning ustav fondlaridagi (ustav kapitallaridagi) ulushlarni yoki aksiyalarni olish taqiqlanadi, bundan quyidagilar mustasno:

kredit, sug’urta va lizing operatsiyalarini professional asosda amalga oshiruvchi yuridik shaxslar;

moliya bozori infratuzilmasining bir qismi bo‘lgan yoki banklarga axborot va maslahat xizmatlarini ko‘rsatuvchi yuridik shaxslar;

qimmatli qog’ozlar bozorida professional faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar;

bankning kafolati ostida qimmatli qog’ozlarni chiqarish va joylashtirish maqsadida mazkur bankning xorijda tashkil etiladigan shu’ba tashkilotlari;

faqat inkassatsiya faoliyati bilan shug’ullanuvchi yuridik shaxslar;

bank operatsiyalari bo‘yicha hisob-kitoblar, shu jumladan bank

kartalari bilan operatsiyalarga doir hisob-kitoblar ishtirokchilari o‘rtasida o‘zaro bog’liqligini ta’minlash bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatuvchi yuridik shaxslar;

fond va valyuta birjalari;

kredit byurolari;

qimmatli qog’ozlarning ikkilamchi bozoriga joylashtirilgan aksiyalarning yigirma foizidan ortiq bo‘lmagan miqdorda fond birjasi listingiga kiritilgan aksiyadorlik jamiyatlari.

Ushbu moddaning uchinchi qismiga muvofiq bank tomonidan bir yuridik shaxsning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarini yoki aksiyalarini olish bankning birinchi darajali regulyativ kapitalining o‘n besh foizidan oshmasligi kerak. Ushbu cheklov bank tomonidan mazkur yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlariga yoki aksiyalariga egalik qilishga, shu jumladan mazkur yuridik shaxslarning tashkil etilishi hollariga nisbatan ham tatbiq etiladi.

Banklar tomonidan qimmatli qog’ozlar bilan bitimlarni amalga oshirish, yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarini yoki aksiyalarini sotib olish yig’indisi bankning birinchi darajali regulyativ kapitalining ellik foizidan oshmasligi kerak.

Agar bank tomonidan yuridik shaxslar ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlariga yoki aksiyalariga egalik qilish ushbu moddaning to‘rtinchi va beshinchi qismlarida ko‘rsatilgan miqdordan ortiq bo‘lsa, ushbu ortgan qismni bank bir yil ichida sotishi shart.

Bankka ushbu bank ustav kapitalining bir yoki undan ortiq foiziga egalik qiluvchi yuridik shaxsning ustav fondida (ustav kapitalida) ishtirok etish taqiqlanadi.

Ushbu moddaning talablari banklar tomonidan boshqa bankning aksiyalarini yoki o‘zga bank saqlovchisi bo‘lgan boshqa qimmatli qog’ozlarni yoxud o‘zga bankka tegishli yuridik shaxslar ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarni yoki aksiyalarni ular tomonidan qo‘shib yuborish yoki qo‘shib olish shaklida qayta tashkil etish amalga oshirilayotganda olish hollariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

8-modda. Banklarning mustaqilligi

Banklar moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish bilan bog’liq qarorlar qabul qilishda mustaqildir.

Davlat organlari va ularning mansabdor shaxslariga banklar

faoliyatiga, shu jumladan banklarning kredit portfelini va aktivlarini shakllantirish bilan bog’liq tadbirkorlik tavakkalchiliklarini boshqarishga, banklarning rahbar xodimlarini tayinlashga aralashish, shuningdek bankning mablag’lari hisobidan turli xil to‘lovlar va badallar talab qilish taqiqlanadi, bundan ushbu Qonunda nazarda tutilgan hollar mustasno.

9-modda. Davlat va banklar majburiyatlarining chegaralab qo‘yilishi

Banklar davlatning majburiyatlari bo‘yicha, davlat esa banklarning majburiyatlari bo‘yicha javob bermaydi, bundan banklarning yoki davlatning o‘zi bunday majburiyatlarni zimmasiga olish hollari mustasno.

10-modda. Banklarning uyushmalari

Oldingi tahrirga qarang.

Banklar, agar qonunchilikning talablariga zid kelmasa, o‘zining umumiy manfaatlarini himoya qilish hamda birgalikdagi dasturlarni amalga oshirish maqsadida uyushmalar va boshqa birlashmalar tuzishi mumkin.

(10-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Banklarning uyushmalari axborot almashish va bank faoliyatini amalga oshirish bilan bog’liq boshqa masalalarni birgalikda hal qilishga doir tashkilotlarni tashkil etishi mumkin.

Banklarning uyushmalari vakolatli davlat organi tomonidan ro‘yxatga olinganidan yoki tugatish to‘g’risidagi qaror qabul qilinganidan keyin Markaziy bankni bu haqda o‘n kunlik muddatda xabardor etadi.

11-modda. Bankning nomi

“Bank” atamasidan yoki mazkur atama qo‘shib yasalgan so‘z birikmalaridan faqat bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyaga ega bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan firma nomida yoxud tovar belgisida (xizmat ko‘rsatish belgisida) foydalaniladi.

Bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyaga ega bo‘lgan yuridik shaxslar “bank” atamasini o‘zining firma nomiga qo‘shishi shart.

12-modda. Bankning muassislari

Yuridik va jismoniy shaxs bo‘lgan rezidentlar, shuningdek norezidentlar bank muassislari bo‘lishi mumkin.

Oldingi tahrirga qarang.

Davlat O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari asosida boshqa davlat tashkilotlari nomidan bank muassisi va aksiyadori bo‘lishi mumkin. Ustav fondining (ustav kapitalining) ellik foizdan ortig’i davlatga tegishli bo‘lgan korxonalar va tashkilotlar, agar qonunchilikda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, bank muassislari va aksiyadorlari bo‘lishi mumkin emas.

(12-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

13-modda. Bankning ustav kapitali

Oldingi tahrirga qarang.

Bank ustav kapitalining eng kam miqdori:

2023-yil 1-sentabrga qadar yuz milliard so‘mni;

2023-yil 1-sentabrdan e’tiboran ikki yuz milliard so‘mni;

2024-yil 1-apreldan e’tiboran uch yuz ellik milliard so‘mni;

2025-yil 1-yanvardan e’tiboran besh yuz milliard so‘mni tashkil etishi kerak.

(13-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 19-apreldagi O‘RQ-831-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 20.04.2023-y., 03/23/831/0219-son)

Bankning ustav kapitali O‘zbekiston Respublikasi milliy valyutasida shakllantiriladi hamda bank muassislari va aksiyadorlari kiritgan pul mablag’laridan yoki davlatning qimmatli qog’ozlaridan tashkil topadi, bundan quyidagi hollar mustasno:

bank aksiyalarini bankning kreditorlari orasida joylashtirish va bankning kreditorlar oldidagi pul majburiyatlari bo‘yicha har qanday huquqlarini (talablarini) hisobga olish yo‘li bilan ularning haqini to‘lash;

qimmatli qog’ozlarni bank aksiyalariga ayirboshlash;

bankning joylashtirilgan bir turdagi aksiyalarini ushbu bankning boshqa turdagi aksiyalariga almashtirish.

Bankning ustav kapitalini shakllantirish uchun kreditga, garovga olingan mablag’lardan, shuningdek majburiyat yuklatilgan boshqa mablag’lardan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Oldingi tahrirga qarang.

Tashkil etilayotgan yoki qo‘shib yuborish, bo‘lish va ajratib chiqarish shaklida qayta tashkil etilayotgan bank ustav kapitali ushbu moddaning

birinchi qismida nazarda tutilgan, bank tashkil etilayotgan yoki qayta tashkil etilayotgan kundagi bank ustav kapitalining eng kam miqdoridan kelib chiqqan holda shakllantiriladi. Bunda bank ustav kapitalining eng kam miqdori bankni davlat roʻyxatidan oʻtkazish va litsenziya berish toʻgʼrisidagi ariza beriladigan paytgacha bank muassislari tomonidan shakllantirilgan boʻlishi kerak. Tashkil etilayotgan bankning ustav kapitaliga kiritilgan mablagʼlar bankda ochilgan jamgʼarma hisobvaragʼiga oʻtkaziladi.

Banklar ushbu moddaning birinchi qismida belgilangan muddatlarda oʻz ustav kapitali miqdorini mazkur moddaning birinchi qismida koʻrsatilgan talablarga muvofiqlashtirishi kerak. Ustav kapitalida davlat ulushi mavjud boʻlgan banklar norezidentlarga davlat ulushini toʻliq sotish orqali xususiylashtirilganda Markaziy bank boshqaruvi bank ustav kapitalini mazkur moddaning birinchi qismida belgilangan eng kam miqdorga muvofiqlashtirish boʻyicha belgilangandan boshqa muddatlarni oʻrnatishga haqli.

(13-moddaning toʻrtinchi qismi Oʻzbekiston Respublikasining 2023-yil 19-apreldagi OʻRQ-831-sonli Qonuniga asosan toʻrtinchi va beshinchi qismlar bilan almashtirilgan — Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 20.04.2023-y., 03/23/831/0219-son)

Tizimli moliyaviy inqiroz holatida bank aksiyalari davlat qimmatli qogʼozlari hisobidan Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan sotib olinishi mumkin.

14-modda. Bankning ustavi va ichki nizomlari

Bank oʻz ustavi asosida faoliyat koʻrsatadi.

Bank ustavida quyidagilar koʻrsatilishi kerak:

bankning toʻliq va qisqartirilgan firma nomi, joylashgan yeri (pochta manzili) hamda elektron pochta manzili;

ustav kapitalining miqdori;

ustav kapitalini koʻpaytirish va kamaytirish tartibi;

chiqarilayotgan aksiyalarning turlari va soni, aksiyalar turlarining nisbati;

sof foydani taqsimlash, shuningdek zararlarning oʻrnini qoplash tartibi;

zaxira fondini va boshqa fondlarni tashkil etish tartibi;

bank aksiyadorlarining huquqlari va majburiyatlari, shu jumladan ushbu Qonun talablariga muvofiqlikni taʼminlash uchun bank tomonidan

so‘rab olinadigan axborotni taqdim etish majburiyatlari;

bankning boshqaruv organlari tuzilmasi, ularni tashkil etish tartibi, bank kuzatuv kengashi va boshqaruvi a’zolarining soni, vakolatlari va vazifalari haqidagi ma’lumotlar;

aksiyadorlar (muassislar) o‘rtasida manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish choralari;

bank tomonidan aksiyalarni joylashtirish tartibi va shartlari;

bankni qayta tashkil etish va tugatish tartibi.

Oldingi tahrirga qarang.

Bankning ustavida ushbu moddada belgilangan talablardan tashqari aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g’risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan ma’lumotlar ham bo‘lishi kerak.

(14-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Bankning ustavi, unga kiritiladigan o‘zgartish va qo‘shimchalar Markaziy bankda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim.

Oldingi tahrirga qarang.

Bankning ichki qoidalari, shuningdek ularga kiritiladigan keyingi o‘zgartish hamda qo‘shimchalar banklar va bank faoliyati to‘g’risidagi qonunchilikka muvofiq ishlab chiqilishi hamda Markaziy bankka taqdim etilishi kerak.

(14-moddaning beshinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

2-bob. Bank faoliyatiga ruxsat berishga doir eng zarur shartlar

15-modda. Bankni tashkil etish

Banklar aksiyadorlik jamiyati shaklida tashkil etiladi.

Banklar Markaziy bankda davlat ro‘yxatiga olingan paytdan e’tiboran yuridik shaxs maqomini oladi.

Banklar O‘zbekiston Respublikasida o‘z faoliyatini Markaziy bank tomonidan beriladigan, bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya (bundan buyon matnda litsenziya deb yuritiladi) asosida amalga oshiradi.

Litsenziya uning amal qilish muddati cheklanmagan holda beriladi.

Litsenziyani yoki unga doir huquqlarni boshqa shaxslarga o‘tkazish

taqiqlanadi.

Litsenziyasiz amalga oshiriladigan bank faoliyati g’ayriqonuniy deb hisoblanadi va javobgarlikka sabab bo‘ladi. Bunday faoliyat natijasida olingan daromad O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetiga olib qo‘yiladi.

Banklarni litsenziyalash tartib-taomili quyidagi ikki bosqichdan iborat:

Markaziy bank tomonidan bankni tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnomani berish;

bir vaqtning o‘zida litsenziya bergan holda bankni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish.

Oldingi tahrirga qarang.

Amalga oshirilishi uchun qonunchilikka muvofiq alohida litsenziyalar yoki ruxsatnomalar olinishi talab etiladigan faoliyat banklar tomonidan tegishli hujjatlar olinganidan keyin amalga oshiriladi.

(15-moddaning sakkizinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

16-modda. Bankni tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnomani berish

Bankni tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnomani olish uchun muassislar tomonidan bank tashkil etish bo‘yicha o‘z manfaatlarini Markaziy bankda ifoda etishga vakil qilingan shaxs (bundan buyon matnda ariza beruvchi deb yuritiladi) ta’sis shartnomasi imzolaganidan keyin uch oydan kechiktirmay Markaziy bankka quyidagilarni ilova qilgan holda ariza taqdim etadi:

ta’sis shartnomasini;

ikki nusxadagi bank ustavini;

ta’sis yig’ilishining bayonnomasini;

muassislar ro‘yxatini;

hal qiluvchi egalikka ega bo‘lgan bevosita va bilvosita muassislar, shu jumladan oxirgi benefitsiar mulkdorlar to‘g’risidagi axborotni, shuningdek ushbu Qonunning 24-moddasiga muvofiq baholashni o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan axborotni;

hal qiluvchi egalikka ega bo‘lgan shaxslar mavjud bo‘lmagan taqdirda, bankning ustav kapitalida eng ko‘p ulushlarga ega bo‘lgan, umumiy ulushi kamida ellik foizni tashkil etadigan bevosita va bilvosita

muassislar, shu jumladan oxirgi benefitsiar mulkdorlar to‘g’risidagi axborotni, shu jumladan ushbu Qonunning 24-moddasiga muvofiq baholashni o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan axborotni;

muassis bo‘lgan yuridik shaxsning auditorlik tashkiloti tomonidan tasdiqlangan oxirgi uch yil uchun moliyaviy hisobotlarini;

bankning ustav kapitalini shakllantirish uchun kiritilgan mablag’larning manbalari to‘g’risidagi hujjatlar bilan tasdiqlangan axborotni;

bankning kuzatuv kengashi va boshqaruvi a’zolari to‘g’risidagi, bu a’zolarning ushbu Qonunning 36-moddasi talablariga muvofiqligini baholash uchun zarur bo‘lgan axborotni;

bankning tashkiliy tuzilmasini;

bankning ichki audit xizmati to‘g’risidagi nizom loyihasini;

bankning keyingi uch yilga mo‘ljallangan biznes-rejasini;

keyinchalik bankning kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanishi lozim bo‘lgan, bankning kredit, investitsiya va emissiya siyosatining loyihalarining, shuningdek tavakkalchiliklarni boshqarish va ichki nazorat siyosati loyihalarining ko‘chirma nusxalarini.

Oldingi tahrirga qarang.

(16-modda birinchi qismining o‘n beshinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 7-fevraldagi O‘RQ-905-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 07.02.2024-y., 03/24/905/0106-son)

Bankni tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnomani berish to‘g’risidagi arizani ko‘rib chiqqanlik uchun bazaviy hisoblash miqdorining besh baravari miqdorida yig’im undiriladi.

Ariza beruvchi bankni tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnomani berish to‘g’risidagi arizada elektron pochta manzilini ko‘rsatishga haqli. Elektron pochta manzilining ko‘rsatilishi ariza yuzasidan qabul qilingan qaror to‘g’risidagi xabarnomani olishga yoki axborot kommunikatsiya tizimi orqali elektron shaklda qo‘shimcha axborotni so‘rab olinishiga bo‘lgan rozilikdir.

Taqdim etilgan hujjatlarda Markaziy bank tomonidan kamchiliklar aniqlangan va (yoki) ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan hujjatlar ariza beruvchi tomonidan to‘liq hajmda taqdim etilmagan taqdirda, Markaziy bank ariza beruvchiga bartaraf etilishi lozim bo‘lgan kamchiliklar

va (yoki) taqdim etilishi zarur bo‘lgan hujjatlar ro‘yxati ko‘rsatilgan holdagi xabarnomani ariza taqdim etilgan kundan e’tiboran o‘n besh kun ichida yuboradi.

Bankni tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnomani berish to‘g’risidagi ariza bankni tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnomani olish uchun zarur bo‘lgan barcha hujjatlar taqdim etilgan kundan e’tiboran uch oy ichida Markaziy bank tomonidan ko‘rib chiqilishi kerak. Mazkur muddat ushbu moddaning oltinchi qismida ko‘rsatilgan hollarda to‘rt oygacha uzaytirilishi mumkin.

Agar ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan, ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan hujjatlar va axborot bankni tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnomani berish to‘g’risida qaror qabul qilish uchun yetarli bo‘lmasa, Markaziy bank ariza beruvchidan qo‘shimcha hujjatlar va axborot so‘rashga haqlidir.

Ariza beruvchi Markaziy bank so‘ragan hujjatlar va axborotni so‘rov olingan kundan e’tiboran o‘ttiz kalendar kundan oshmagan muddatda ushbu moddaning oltinchi qismiga muvofiq taqdim etishi kerak, ushbu muddat mobaynida bankni tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnomani berish to‘g’risidagi ariza ko‘rib chiqiladigan uch oylik davr to‘xtatib turiladi.

Markaziy bank ariza beruvchini qabul qilingan qaror to‘g’risida tegishli qaror qabul qilingan sanadan e’tiboran uch ish kuni ichida yozma shaklda, shu jumladan axborot-kommunikatsiya tizimi orqali elektron shaklda xabardor qiladi.

Bankni tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnoma olingan kundan e’tiboran olti oydan oshmagan muddat ichida yuridik kuchini saqlab turadi.

Bankni tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnoma quyidagi hollarda amal qilish muddati tugashidan oldin bekor qilinadi:

dastlabki ruxsatnoma soxta hujjatlardan foydalangan holda olinganligi fakti aniqlanganda;

ilgari baholashdan o‘tgan va ushbu Qonunning 24-moddasi talablariga javob bergan muassislar, shu jumladan oxirgi benefitsiar mulkdorlar endilikda ushbu modda talablariga muvofiq bo‘lmaganda;

ilgari baholashdan o‘tgan va ushbu Qonunning 36-moddasi talablariga javob bergan bank kuzatuv kengashi va (yoki) boshqaruvi a’zolari endilikda ushbu modda talablariga muvofiq bo‘lmaganda, shuningdek bank kuzatuv kengashi va (yoki) boshqaruvining

yangi tayinlangan a’zolari to‘g’risida axborot taqdim etilmaganda;

taqdim etilgan biznes-rejaga tarkibiy o‘zgartishlar kiritilganda;

bankni xavfsiz va barqaror boshqarishni ta’minlab bo‘lmasligini ko‘rsatuvchi faktlar aniqlanganda.

17-modda. Chet ellik muassislarga nisbatan ular tomonidan bankni tashkil etish yoki bankning ustav kapitalida ishtirok etish chog’ida qo‘yiladigan qo‘shimcha talablar

Bankni tashkil etishda yoki bankning ustav kapitalida chet el banki ishtirok etganda ushbu Qonunning 16-moddasida ko‘rsatilgan hujjatlardan tashqari quyidagi hujjatlar qo‘shimcha ravishda taqdim etiladi:

chet el banki vakolatli organining bankni tashkil etish yoki bankning ustav kapitalida ishtirok etish to‘g’risidagi qarori;

chet el bankining ustavi;

chet el banki bankni nazorat qilish organining mazkur chet el banki uning konsolidatsiyalashgan nazorati ostida turishi, pul mablag’larini depozitlarga qabul qilish huquqiga ega ekanligi va unga bankni nazorat qilish organining bankni tashkil etish yoki bankning ustav kapitalida ishtirok etish uchun ruxsatnomasi berilganligi to‘g’risidagi yozma tasdiqnomasi yoxud shunday ruxsatnoma talab etilmasligi to‘g’risidagi tasdiqnomasi;

chet el banki kapitalining va kredit reytingining Markaziy bank tomonidan belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjat.

Markaziy bank yuqori kapital va kredit reytingi ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan xalqaro moliya institutlari, chet el banklari hamda boshqa kredit tashkilotlari tomonidan bank tashkil etayotganda yoki bankning ustav kapitalida ishtirok etayotganda dastlabki ruxsatnomani olishning alohida tartibini belgilashga haqli.

Norezident bo‘lgan jismoniy shaxslarning va xalqaro moliya institutlari, chet el banklari va boshqa kredit tashkilotlari bo‘lmagan yuridik shaxslarning jami ulushi bank ustav kapitalining ellik foizidan oshmasligi kerak.

Markaziy bank xalqaro moliya institutlari, chet el banklari va boshqa kredit tashkilotlari bo‘lmagan, bank muassislari bo‘lgan norezidentlarning kapitaliga hamda kredit reytingiga nisbatan, shuningdek norezidentlar joylashgan davlatning reytingiga nisbatan eng zarur talablarni belgilashga haqli.

Oldingi tahrirga qarang.

Imtiyozli soliq rejimini taqdim etuvchi va (yoki) oxirgi benefitsiar mulkdorning shaxsini oshkor qilish hamda moliyaviy operatsiyalarni o‘tkazish chog’ida axborot taqdim etish nazarda tutilmaydigan davlatda yoki hududda ro‘yxatga olingan yuridik shaxslar va shunday davlatda yoki hududda yashaydigan jismoniy shaxslar bankning muassislari va aksiyadorlari bo‘lishi mumkin emas (bundan chet el fond bozorlarida bank aksiyalarini sotib olgan yuridik va jismoniy shaxslar mustasno).

(17-moddaning beshinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 19-apreldagi O‘RQ-831-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 20.04.2023-y., 03/23/831/0219-son)

Bank tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnomani berish to‘g’risidagi arizani ko‘rib chiqishda Markaziy bank:

Markaziy bank bilan chet el banki bo‘lgan muassisning bankni nazorat qilish organi o‘rtasida axborot ayirboshlash to‘g’risidagi kelishuv mavjudligini;

norezident joylashgan mamlakat vakolatli organlarining axborotini va fikrlarini inobatga oladi.

Ushbu Qonunning 16-moddasida va ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan hujjatlar muassis bo‘lgan bank ro‘yxatga olingan erda joylashgan O‘zbekiston Respublikasining konsullik muassasasi yoki boshqa konsullik muassasalari tomonidan tasdiqlanadi.

18-modda. Litsenziyalashdan oldin boshqa organlar bilan maslahatlashish

Oldingi tahrirga qarang.

Markaziy bank litsenziyalashdan oldingi tartib-taomillar doirasida vazirliklar, idoralar hamda boshqa davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari bilan maslahatlashishga haqlidir.

(18-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-noyabrdagi O‘RQ-880-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.11.2023-y., 03/23/880/0905-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Vazirliklar, idoralar hamda boshqa davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari Markaziy bank tomonidan so‘ralgan, tegishli qarorni qabul qilish uchun zarur bo‘lgan axborotni taqdim etishi kerak.

(18-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-noyabrdagi O‘RQ-880-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik

ma’lumotlari milliy bazasi, 29.11.2023-y., 03/23/880/0905-son)

Markaziy bank chet davlatlarning vakolatli organlariga zarur axborotni taqdim etish to‘g’risida so‘rovnomalar yuborishga haqli.

19-modda. Bankni tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnomani berishni rad etish

Bankni tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnomani berishni rad etish uchun quyidagilar asos bo‘ladi:

Oldingi tahrirga qarang.

ushbu Qonun 16 va 17-moddalarida ko‘rsatilgan taqdim etilgan hujjatlarning banklar va bank faoliyati to‘g’risidagi qonunchilik talablariga muvofiq emasligi;

(19-modda birinchi qismining ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

baholanishi ushbu Qonunning 24-moddasiga muvofiq amalga oshirilgan muassislarning, shu jumladan oxirgi benefitsiar mulkdorlarning mazkur modda talablariga muvofiq emasligi;

bankning biznes-rejada ko‘rsatilgan maqsadlarga erishishga qodir emasligi;

Oldingi tahrirga qarang.

tashkil etiladigan bank bilan yaqin aloqalarga ega bo‘lgan bir yoki bir necha shaxsning faoliyatini tartibga soluvchi boshqa mamlakat qonunlarida yoki normativ hujjatlarida ushbu shaxslarga nisbatan boshqa mamlakat vakolatli organlarining talablari mavjudligi yoxud ular tomonidan qo‘llanilgan, Markaziy bankning nazorat qilish vazifasini amalga oshirishiga to‘sqinlik qiluvchi taqiqlar hamda cheklovlar qo‘llanilganligi yoki O‘zbekiston Respublikasining banklar va bank faoliyati to‘g’risidagi qonunchiligiga rioya etish borasida boshqa moneliklarning mavjudligi;

(19-modda birinchi qismining beshinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

ushbu Qonun 16-moddasining oltinchi qismiga muvofiq Markaziy bank tomonidan so‘ralgan qo‘shimcha hujjatlarning va axborotning taqdim etilmaganligi.

Yaqin aloqalar deganda ikki yoki bir necha shaxs quyidagilar vositasida o‘zaro bog’liq bo‘lgan holat tushuniladi:

yuridik shaxs ovoz berish huquqlarining yoki ustav fondining (ustav kapitalining) kamida yigirma foiziga bevosita egalik qilishni yoki nazoratni qo‘lga kiritish;

nazorat qilish;

ikki shaxs yoki barcha shaxslar o‘rtasida yoki shu shaxslar va uchinchi shaxs o‘rtasida o‘rnatilgan doimiy nazoratning mavjudligi.

Nazorat deganda shaxslar o‘rtasidagi quyidagi mezonlardan biriga mos keluvchi o‘zaro aloqa tushuniladi:

shaxs tomonidan boshqa yuridik shaxsning ustav fondida (ustav kapitalida) ustunlik qiladigan ulushlarga egalik qilish;

yuridik shaxsning ishtirokchisi (aksiyadori) bo‘lgan shaxsning shu yuridik shaxs boshqaruv organlarining ko‘pchilik a’zolarini tayinlash yoki almashtirish huquqi;

shaxsning yuridik shaxs faoliyatiga, u bilan tuzilgan shartnomaga va (yoki) uning ustavi qoidalariga muvofiq ta’sir ko‘rsatish imkoniyati;

yuridik shaxsning ishtirokchisi (aksiyadori) bo‘lgan shaxsning shu yuridik shaxs boshqaruv organlarining ovoz berish huquqini amalga oshirishi natijasida o‘zi tayinlagan a’zolariga ta’sir ko‘rsatish imkoniyati. Ushbu mezon, agar nazorat ushbu qismning ikkinchi — to‘rtinchi xatboshilarida ko‘rsatilgan mezonlardan biriga muvofiq bo‘lsa, qo‘llanilmaydi;

yuridik shaxsning ishtirokchisi (aksiyadori) bo‘lgan shaxsning o‘zining boshqa ishtirokchilari (aksiyadorlari) yoki a’zolari bilan kelishuvga binoan mazkur yuridik shaxsning ustav fondida (ustav kapitalida) ustunlik qiladigan ulushlarni boshqarish imkoniyati.

Markaziy bankning asoslantirilgan mulohazasi bankni tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnomani berishni rad etish uchun asos bo‘ladi.

Dastlabki ruxsatnomani berishni rad etish to‘g’risidagi xabarnoma ariza beruvchiga ushbu Qonun 16-moddasining sakkizinchi qismida nazarda tutilgan muddatlarda va shakllarda, rad etish sabablari ko‘rsatilgan holda yuboriladi.

Rad etish to‘g’risidagi xabarnomada ko‘rsatilgan kamchiliklar bartaraf qilinganligi inobatga olingan holda taqdim etilgan ariza va hujjatlar yangidan berilgan deb hisoblanadi.

20-modda. Bankni davlat ro‘yxatiga olish va litsenziya berish

Bankni davlat ro‘yxatiga olish va litsenziya olish uchun ariza beruvchi bankni tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnoma olinganidan keyin olti oydan kechiktirmay Markaziy bankka quyidagilarni taqdim etishi kerak:

bankni davlat ro‘yxatiga olish va litsenziya berish to‘g’risidagi ariza;

ushbu Qonun bilan belgilangan eng kam miqdordan kam bo‘lmagan summada bankning ustav kapitali shakllantirilganligini tasdiqlovchi hujjat, shuningdek muassislarning ro‘yxati;

bankning muhim ahamiyatga ega xodimlari to‘g’risida ularning ushbu Qonunning 36-moddasi talablariga muvofiqligini baholashdan o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan axborot;

tashkil etilayotgan bank joylashgan erdagi Markaziy bank hududiy bosh boshqarmasining bank binolari, ularning muhofaza qilinishi ta’minlanganligi, uskunalar, ishlarni tashkil etish texnika vositalari bilan jihozlanganligining va dasturiy ta’minotining Markaziy bank talablariga muvofiqligi to‘g’risidagi xulosasi;

ushbu Qonunning 16 va 17-moddalarida sanab o‘tilgan barcha hujjatlarning elektron shakldagi ko‘chirma nusxalari.

Basharti bankning faoliyati xavfsiz tarzda amalga oshirilishi ta’minlansa hamda omonatchilar va kreditorlarning manfaatlari himoya qilinishini, shuningdek bank tizimi lozim darajada ishlashini kafolatlovchi korporativ boshqaruv talablariga rioya etilsa, Markaziy bank bankni davlat ro‘yxatiga olish hamda litsenziya berish to‘g’risida qaror qabul qiladi.

Bankni davlat ro‘yxatiga olish va litsenziya berish haqidagi qaror ariza barcha zarur hujjatlar bilan olingan kundan e’tiboran bir oydan oshmagan muddatda qabul qilinadi.

Markaziy bank tegishli qaror qabul qilingan sanadan e’tiboran uch ish kuni ichida ariza beruvchini qabul qilingan qaror haqida yozma shaklda, shu jumladan axborot-kommunikatsiya tizimi orqali elektron shaklda xabardor qiladi.

Oldingi tahrirga qarang.

Litsenziya berilganligi uchun qonunda belgilangan miqdorda davlat boji undiriladi.

(20-moddaning beshinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 6-yanvardagi O‘RQ-600-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 07.01.2020-y., 03/20/600/0023-son)

Bankning davlat roʻyxatiga olinganligi va unga litsenziya berilganligi toʻgʼrisidagi axborot Markaziy bankning rasmiy veb-saytida eʼlon qilinadi.

Litsenziyaning qalbaki hujjatlardan foydalangan holda olinganligi fakti aniqlangan taqdirda litsenziya Markaziy bank tomonidan chaqirib olinadi.

21-modda. Bankni davlat roʻyxatiga olishni va litsenziya berishni rad etish

Bankni davlat roʻyxatiga olishni va litsenziya berishni rad etish uchun quyidagilar asos boʻladi:

Bankning shakllantirilgan ustav kapitali miqdorining bankni davlat roʻyxatiga olish va litsenziya berish toʻgʼrisidagi arizani topshirish paytida ushbu Qonun talablariga muvofiq emasligi;

ilgari baholashdan oʻtgan va ushbu Qonunning 24-moddasi talablariga javob bergan muassislarning, shu jumladan oxirgi benefitsiar mulkdorlarning endilikda ushbu modda talablariga muvofiq emasligi;

muhim ahamiyatga ega xodimlarning Markaziy bankning malaka talablariga muvofiq emasligi;

bankning binolari, ularning muhofaza qilinishi taʼminlanganligi, uskunalar va ishlarni tashkil etish texnika vositalari bilan jihozlanganligining va dasturiy taʼminotining Markaziy bank talablariga muvofiq emasligi.

Bankni davlat roʻyxatiga olish va litsenziya berish rad etilganligi toʻgʼrisidagi xabarnoma ariza beruvchiga ushbu Qonun 20-moddasining toʻrtinchi qismida nazarda tutilgan muddatda va shakllarda, rad etish sabablari hamda ariza beruvchi koʻrsatilgan kamchiliklarni bartaraf etib, takroran koʻrib chiqish uchun hujjatlarni taqdim etishi mumkin boʻlgan muddat koʻrsatilgan holda yuboriladi.

Bankni roʻyxatga olish va litsenziya berish rad etilganligi toʻgʼrisidagi xabarnomada koʻrsatilgan muddat kamchiliklarni bartaraf etish uchun zarur boʻlgan vaqtga mutanosib boʻlishi kerak hamda ikki oydan kam boʻlishi mumkin emas.

Ariza beruvchi tomonidan bankni davlat roʻyxatiga olishni va litsenziya berishni rad etish uchun asos boʻlgan sabablar bartaraf etilgan taqdirda, hujjatlarni qayta koʻrib chiqish ariza barcha zarur hujjatlar bilan olingan kundan eʼtiboran bir oydan oshmagan muddatda amalga oshiriladi.

Bankni davlat roʻyxatiga olish va litsenziya berish toʻgʼrisidagi arizani qayta koʻrib chiqish chogʼida bankni davlat roʻyxatiga olishni va litsenziya berishni rad etish haqidagi xabarnomada ilgari koʻrsatilmagan yangi asoslar boʻyicha rad etishga yoʻl qoʻyilmaydi.

Bankni davlat roʻyxatiga olishni va unga litsenziya berishni rad etish toʻgʼrisidagi xabarnomada koʻrsatilgan muddat oʻtganidan keyin berilgan bankni davlat roʻyxatiga olish va litsenziya berish toʻgʼrisidagi ariza yangidan berilgan deb hisoblanadi.

22-modda. Bank aksiyalariga egalik qilishga doir ruxsatnoma va cheklov

Jismoniy va yuridik shaxslar yoki birgalikda harakat qiluvchi shaxslar, shu jumladan norezidentlar bir yoki bir necha bitim natijasida bankning ustav kapitalidagi:

besh va undan koʻproq foizni, lekin koʻpi bilan yigirma foizni;

yigirma va undan koʻproq foizni, lekin koʻpi bilan ellik foizni;

ellik va undan koʻproq foizni tashkil etadigan ulushni bevosita yoki bilvosita olishdan oldin Markaziy bankning dastlabki ruxsatnomasini olishi shart.

Ushbu moddaning birinchi qismida belgilangan bank ustav kapitalidagi ulushlar Markaziy bankning dastlabki ruxsatnomasini olgan shaxslar tomonidan oʻzgartirilgan taqdirda, ushbu Qonunning 26-moddasida koʻrsatilgan tartibda xabardor qilish yoʻli bilan amalga oshiriladi.

Quyidagilar birgalikda harakat qiluvchi shaxslar hisoblanadi:

1) bank aksiyalarini muvofiqlashtirilgan (kelishilgan) tarzda sotib olishni yoki shaxslarning bank aksiyalarini birgalikda sotib olish niyatida ekanligini koʻrsatuvchi shartlar asosida bank aksiyalarini sotib olgan shaxslar;

2) jalb etilgan shaxslar:

a) boshqa shaxs ustidan nazoratni amalga oshiruvchi yoki boshqa shaxsning nazorati ostidagi yoxud uchinchi shaxsning birgalikdagi nazorati ostidagi shaxslar;

b) ovoz berish huquqini olish uchun yoki ovoz berish huquqini birgalikda amalga oshirish uchun bitimlarda bevosita yoki bilvosita ishtirok etuvchi shaxslar, agar bitimning predmeti boʻlgan ulushlar (aksiyalar) ularga nazoratni taʼminlasa;

v) yuridik shaxsga nisbatan rahbarlik vakolatiga yoki nazorat qilish

vakolatiga ega boʻlgan jismoniy shaxslar;

g) yuridik shaxs boshqaruv organlari aʼzolarining koʻpchiligini tayinlash vakolatiga ega boʻlgan shaxslar;

d) yaqin qarindoshlar (qarindoshlik yoki qayin-boʻyinchilik munosabatidagi shaxslar, yaʼni ota-ona, tugʼishgan va oʻgay aka-ukalar, opa-singillar, er-xotin, farzandlar, shu jumladan farzandlikka olinganlar, bobolar, buvilar, nevaralar, er-xotinning ota-onasi, tugʼishgan yoki oʻgay aka-ukalari, opa-singillari, shuningdek ularning nazorati ostidagi yuridik shaxslar);

3) nazoratni amalga oshiruvchi yuridik shaxs va uning nazorati ostidagi yuridik shaxslar, shuningdek bitta nazorat qiluvchi yuridik shaxsning nazorati ostidagi yuridik shaxslar oʻzaro;

4) yuridik shaxs oʻz boshqaruv organi aʼzolari va jalb etilgan shaxslari bilan birga, shuningdek ushbu shaxslar oʻzaro;

5) oʻzining moliya-xoʻjalik faoliyatida ayni bir shaxs tomonidan taqdim etilgan yoki jalb etilgan shaxslar hisoblanuvchi turli shaxslardan kelib tushayotgan moliyaviy resurslardan foydalanuvchi shaxslar;

6) oʻz iqtisodiy faoliyatidan olingan nafni ayni bir shaxsga yoki jalb etilgan shaxslar boʻlgan turli shaxslarga oʻtkazuvchi shaxslar;

7) asosan ishtirokchilarning (aksiyadorlarning) yoki boshqaruv organlarining bir xil tarkibiga ega boʻlgan yuridik shaxslar;

8) bitta emitent yoki jalb etilgan shaxslar tomonidan chiqarilgan moliyaviy vositalarni sotib olish va (yoki) sotish orqali aynan oʻxshash investitsiya siyosatini qabul qilgan yoki amalga oshirayotgan shaxslar;

9) bank tomonidan chiqarilgan qimmatli qogʼozlar beradigan huquqlarni oʻxshash holda amalga oshirish orqali bankka nisbatan birgalikdagi uzoq muddatli siyosatni olib boruvchi shaxslar;

10) jalb etilgan shaxs (jalb etilgan shaxslar) boʻlgan ayni bir shaxsni (ayni oʻsha shaxslarni) moliya-xoʻjalik faoliyatini amalga oshirish, manfaatlarni ifodalash yoki oʻz egaligida boʻlgan ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlar yoki aksiyalar beradigan ovoz berish huquqlarini amalga oshirish uchun vakolatli vakil (vakolatli vakillar) sifatida tayinlagan yoki tayinlaydigan shaxslar;

11) bank bilan bogʼliq boʻlgan operatsiyalarni oʻtkazish maqsadida har qanday tashkiliy-huquqiy shaklga birlashgan shaxslar;

12) bir vaqtning oʻzida bir yoki bir necha yuridik shaxsning ustav

fondida (ustav kapitalida) aksiyalarga yoki ulushlarga ega bo‘lgan yoki egalik qiluvchi, ularning ustidan nazoratni amalga oshiruvchi va ularga nisbatan birgalikda siyosatni amalga oshiruvchi shaxslar;

13) birgalikda moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirgan yoki amalga oshirayotgan shaxslar;

14) Markaziy bank tomonidan asosli mulohaza asosida belgilangan boshqa shaxslar.

Banklar boshqa bankning aksiyalarini bevosita yoki bilvosita olishdan oldin Markaziy bankning dastlabki ruxsatnomasini olishi shart. Banklar boshqa bankning ustav kapitalidagi ulushini ko‘paytirish uchun Markaziy bankning takroriy dastlabki ruxsatnomasini olishi shart.

Oldingi tahrirga qarang.

(22-moddaning beshinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 19-apreldagi O‘RQ-831-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 20.04.2023-y., 03/23/831/0219-son)

Agar bankning aksiyalarini olishga doir dastlabki ruxsatnomani olish uchun monopoliyaga qarshi organning oldindan roziligini olish talab etilsa, bank aksiyalarini olishga doir dastlabki ruxsatnomani olish uchun berilgan ariza Markaziy bank tomonidan monopoliyaga qarshi organning qarorini hisobga olgan holda ko‘rib chiqiladi.

Ushbu moddaning birinchi va to‘rtinchi qismlarida ko‘rsatilgan bank aksiyalarini olishga doir dastlabki ruxsatnomasiz tuzilgan bank aksiyalarini olishga oid bitimlar haqiqiy emas deb hisoblanadi.

Bank aksiyalari ushbu moddaning birinchi va to‘rtinchi qismlarida belgilangan talablar buzilgan holda olingan taqdirda, aksiyalarning egasi bunday bitim tuzilgan kundan e’tiboran aksiyadorlarning umumiy yig’ilishida ovoz berishga, aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig’ilishini chaqirishni va o‘tkazishni talab qilishga, kun tartibiga masalalar kiritishga, bank kuzatuv kengashi va boshqaruvi a’zoligiga nomzodlar ko‘rsatishga, shuningdek bank foydasining bir qismini dividendlar tarzida olishga haqli emas.

Shaxs o‘ziga bog’liq bo‘lmagan holatlarda bankning aksiyalarini ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan hajmda olganda Markaziy bank ruxsatnomasini olish talab qilinadi. Shaxs o‘ziga bog’liq bo‘lmagan holatlarda bankning aksiyalarini olgan kundan e’tiboran Markaziy bank tomonidan tegishli qaror qabul qilinadigan kunga qadar aksiyalar egasining

huquqlari to‘xtatib turiladi.

Aksiyador o‘ziga bog’liq bo‘lmagan holatlarda bank aksiyalarini olgan kundan e’tiboran oltmish kun ichida Markaziy bankning ruxsatnomasini olish uchun ariza taqdim etishi kerak. Aksiyador tomonidan ariza taqdim etilmagan taqdirda, o‘ziga bog’liq bo‘lmagan holatlarda olingan bank aksiyalari olingan kundan e’tiboran uch oy ichida boshqa shaxsga berilishi lozim.

23-modda. Bank aksiyalarini olishga doir dastlabki ruxsatnomani berish

Potensial oluvchi bank aksiyalarini olishga doir dastlabki ruxsatnomani olish uchun Markaziy bank tomonidan belgilangan hujjatlar ilova qilingan holdagi arizani Markaziy bankka taqdim etadi. Markaziy bank ariza olingan kundan e’tiboran uch ish kuni ichida potensial oluvchiga ariza olinganligi to‘g’risida tasdiqnoma yuboradi.

Birgalikda harakat qilayotgan, mo‘ljallanilayotgan sotib olish munosabati bilan bank aksiyalarini bevosita yoki bilvosita, shu jumladan oxirgi benefitsiar mulkdor sifatida olishni niyat qilgan shaxs yoki shaxslar guruhi potensial oluvchidir.

Markaziy bank potensial sotib oluvchini ariza olinganligi to‘g’risida tasdiqnoma yuborilgan kundan e’tiboran ikki oy ichida ushbu Qonunning 24-moddasiga muvofiq baholashni amalga oshiradi.

Potensial oluvchi hujjatlarni to‘liq hajmda taqdim etmagan taqdirda, baholash davri Markaziy bank tomonidan barcha tegishli hujjatlar olingan kundan e’tiboran boshlanadi.

Potensial sotib oluvchining ushbu Qonunning 24-moddasida ko‘rsatilgan mezonlardan birontasiga muvofiq emasligini tasdiqlovchi hujjatlar va (yoki) axborot mavjud bo‘lgan taqdirda, Markaziy bank bankning aksiyalarini olishga doir dastlabki ruxsatnomani berishni baholashni o‘tkazmasdan rad etishga haqli.

Markaziy bank baholash o‘tkazilayotgan davrda potensial oluvchiga baholashni tamomlash uchun zarur bo‘lgan qo‘shimcha hujjatlarni va axborotni taqdim etishi to‘g’risida so‘rovnoma yuborishga haqli.

Potensial oluvchi Markaziy bankning so‘rovnomasiga binoan qo‘shimcha hujjatlar va axborotni so‘rovnoma olingan kundan e’tiboran yigirma ish kunidan oshmagan muddatda taqdim etishi kerak, shu vaqt mobaynida baholash davri to‘xtatib turiladi. Potensial oluvchi chet elda

joylashgan yoki unga nisbatan boshqa davlatning qonunlari tatbiq etilgan taqdirda, Markaziy bank qo‘shimcha axborot taqdim etish davrini o‘ttiz ish kunigacha uzaytirishga haqli. Taqdim etilgan axborotni aniqlashtirish maqsadida Markaziy bank tomonidan potensial oluvchiga yuboriladigan keyingi so‘rovnomalar baholash davrining to‘xtatib turilishiga olib kelmasligi kerak.

Potensial oluvchi tomonidan ushbu moddaning yettinchi qismida ko‘rsatilgan muddatlarga rioya etilmagan taqdirda, Markaziy bank bankning aksiyalarini olishga doir dastlabki ruxsatnomani berishni rad etishga haqlidir.

Markaziy bank potensial oluvchining so‘rovnomasi asosida bankning aksiyalarini olishga doir dastlabki ruxsatnomani olish uchun berilgan arizani ko‘rib chiqish natijalari yuzasidan qabul qilingan asoslangan qarorni o‘z rasmiy veb-saytida e’lon qiladi. Markaziy bank mazkur axborotni potensial oluvchining so‘rovnomasi bo‘lmasa ham e’lon qilishga haqli.

Bank aksiyalarini olishga doir dastlabki ruxsatnoma olingan kundan e’tiboran olti oy mobaynida yuridik kuchini saqlab qoladi.

Oldingi tahrirga qarang.

Bank aksiyalarini olishga doir dastlabki ruxsatnomani bekor qilish banklar va bank faoliyati to‘g’risidagi qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

(23-moddaning o‘n birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

24-modda. Potensial oluvchini baholash

Bank aksiyalarini olishga doir dastlabki ruxsatnomani olish uchun berilgan arizani ko‘rib chiqish chog’ida Markaziy bank:

potensial oluvchining ishchanlik obro‘sini;

mo‘ljallanayotgan olish amalga oshirilganidan keyin tayinlanishi nazarda tutilayotgan bankning kuzatuv kengashi va boshqaruvi a’zolarining, shuningdek muhim ahamiyatga ega xodimlarining ishchanlik obro‘si, bilimi, malakasi va tajribasini;

potensial oluvchining moliyaviy salohiyatini, xususan aksiyalarini olish mo‘ljallanilayotgan bank faoliyatining ko‘lami va ixtisoslashuvi jihatidan salohiyatini;

Oldingi tahrirga qarang.

mo‘ljallanilayotgan olish amalga oshirilganidan keyin bankning banklar va bank faoliyati to‘g’risidagi qonunchilikda belgilangan prudensial talablarni bajara olish imkoniyatini;

(24-modda birinchi qismining beshinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

mo‘ljallanilayotgan olish borasida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg’in qurolining tarqatilishini moliyalashtirishga doir amalga oshirilgan yoki amalga oshirilayotgan urinishlar mavjudligi haqidagi shubhalar, shuningdek mo‘ljallanilayotgan olish amalga oshirilganidan keyin shunday tavakkalchilikning ortishi to‘g’risidagi taxmin mavjud emasligini;

potensial oluvchi faoliyatining bank faoliyati bilan uyg’unlashuvi ehtimolini va buning bank faoliyatining rivojlanishiga ta’sirini;

potensial oluvchi korporativ boshqaruvi tashkiliy tuzilmasining va unga aloqador bo‘lgan shaxslarning bankni tartibga solishga hamda uning ustidan nazorat qilishga doir ta’sirini baholaydi.

Boshqa shaxsga aloqador shaxslar quyidagilardan iborat:

yuridik shaxs boshqaruvi organlarining a’zolari, shuningdek bankning muhim ahamiyatga ega xodimlari;

bevosita yoki bilvosita, yakka tartibda yoki shaxslar guruhi tarkibida birgalikda faoliyat ko‘rsatuvchi, bankda hal qiluvchi egalikka ega bo‘lgan jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar, shu jumladan oxirgi benefitsiar mulkdorlar. Agar mazkur jismoniy shaxslarning yaqin qarindoshlari bankning ustav kapitalidagi ulushlarga egalik qilsa yoki egalikni nazorat qilsa, uning miqdoridan qat’i nazar, ushbu ulush mazkur shaxsning egaligida va nazorati ostida turgan deb hisoblanadi;

boshqa shaxs ustidan nazoratni amalga oshirayotgan yoki boshqa shaxsning nazorati ostidagi yoxud uchinchi shaxsning birgalikdagi nazorati ostidagi shaxslar;

bank ustidan nazoratni amalga oshirayotgan shaxslar o‘zida hal qiluvchi egalikka ega bo‘lgan yuridik shaxslar;

ushbu qismning ikkinchi — beshinchi xatboshilarida ko‘rsatilgan shaxslarga aloqador shaxslar, shu jumladan jismoniy shaxsning yaqin qarindoshlari, shuningdek jismoniy shaxslar va (yoki) ularning yaqin

qarindoshlari o‘zida nazoratni amalga oshirayotgan yoki ustav fondlarida (ustav kapitallarida) ulushlarga egalik qilayotgan yoki boshqaruv organining a’zolari bo‘lgan yuridik shaxslar;

Oldingi tahrirga qarang.

ushbu qismning ikkinchi — oltinchi xatboshilarida ko‘rsatilgan shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab bank bilan qaysi shaxslar orqali bitim amalga oshiriladigan bo‘lsa, o‘sha shaxslar va mazkur shaxslar o‘rtasida qonunchilikda belgilangan mehnatga oid fuqaroviy yoki boshqa munosabatlar mavjudligi tufayli mazkur bitimda ushbu qismning ikkinchi — oltinchi xatboshilarida ko‘rsatilgan shaxslarning ta’siri ostida deb hisoblanadigan shaxslar;

(24-modda ikkinchi qismining yettinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

asoslantirilgan mulohaza asosida Markaziy bank tomonidan belgilangan boshqa shaxslar.

Markaziy bank potensial oluvchiga dastlabki ruxsatnomani quyidagi hollarda beradi:

potensial oluvchi ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan mezonlarga to‘liq mos kelsa;

potensial oluvchi mo‘ljallanilayotgan olishning oxirgi benefitsiar mulkdori emasligi xususida shubha mavjud bo‘lmasa;

aksiyadorlar bo‘lgan yuridik shaxslarning haddan tashqari (potensial oluvchidan oxirgi benefitsiar mulkdorgacha uchta pog’onadan ko‘p) darajalarga tabaqalashtirilishi mavjud bo‘lmasa;

hujjatlar to‘liq hajmda topshirilgan bo‘lsa;

potensial oluvchi taqdim etgan hujjatlarda va axborotda noto‘g’ri yoki buzib ko‘rsatilgan ma’lumotlar mavjud bo‘lmasa.

Markaziy bank ushbu moddada nazarda tutilgan baholashni faqat bank aksiyalariga bevosita egalik qiluvchi va oxirgi benefitsiar mulkdor bo‘lgan shaxsga nisbatan o‘tkazish to‘g’risida qaror qabul qilishga haqlidir.

Markaziy bank olinayotgan ulushning miqdorini belgilashga va mo‘ljallanilayotgan olishni bozorning iqtisodiy ehtiyojlari nuqtai nazaridan baholashga haqli emas.

Ayni bir bankning o‘zidan hal qiluvchi egalikni olish yoki

koʻpaytirish uchun bir vaqtning oʻzida ikki yoki undan ortiq ariza berilganda Markaziy bank potensial oluvchilarni teng shartlar asosida koʻrib chiqadi.

Potensial oluvchini baholash tartibi va shartlari Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

Ushbu moddaning talablari ariza beruvchi tomonidan bank tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnomani berish uchun hujjatlarni taqdim etish chogʼida muassislarni baholashga nisbatan ham tatbiq etiladi.

25-modda. Aksiyadorning muvofiqligi toʻgʼrisidagi talablarga rioya etmaslik

Markaziy bank hal etuvchi egalikka bevosita yoki bilvosita egalik qiluvchiga, shu jumladan oxirgi benefitsiar mulkdorga nisbatan choralar va sanksiyalar qoʻllashga quyidagi hollarda haqlidir, agar ular:

Oldingi tahrirga qarang.

banklar va bank faoliyati toʻgʼrisidagi qonunchilik talablariga mos boʻlmasa;

(25-modda birinchi qismining ikkinchi xatboshisi Oʻzbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi OʻRQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

bankka uning barqaror moliyaviy holatiga xavf tugʼdirishi mumkin boʻlgan tarzda taʼsir koʻrsatayotgan boʻlsa;

oxirgi benefitsiar mulkdorning shaxsi toʻgʼrisidagi axborotni taqdim etmagan boʻlsa.

Markaziy bank bankning aksiyalarini olishga doir dastlabki ruxsatnomani olmasdan turib kelishilgan faoliyat natijasida hal qiluvchi egalikka ega boʻlgan aksiyadorlarga nisbatan choralar va sanksiyalar qoʻllashga haqli.

Ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismlarida koʻrsatilgan hollarda Markaziy bank quyidagi choralar hamda sanksiyalarni alohida-alohida yoki jamlangan tarzda qoʻllaydi:

ovoz berish, aksiyadorlarning navbatdan tashqari yigʼilishini chaqirish va oʻtkazishni talab qilish, kun tartibiga masalalarni kiritish, bank kuzatuv kengashi va boshqaruvi aʼzoligiga nomzodlar koʻrsatish hamda bank foydasining bir qismini dividendlar tarzida olish huquqini toʻxtatib qoʻyadi;

ovoz berish huquqi toʻxtatib qoʻyilgan shaxslar tomonidan bank

aksiyalari sotilishi to‘g’risida qaror qabul qiladi;

bank aksiyalarini olishga doir berilgan dastlabki ruxsatnomani chaqirib oladi.

Hal qiluvchi egalikka ega bo‘lgan aksiyadorlar o‘ziga tegishli aksiyalarni bankning aksiyalarini olishga doir dastlabki ruxsatnoma chaqirib olingan kundan e’tiboran uch oy ichida sotishi kerak.

Ushbu moddaga muvofiq o‘ziga nisbatan choralar va sanksiyalar qo‘llanilgan shaxslar tegishli bankning, shuningdek boshqa banklarning aksiyalariga bevosita yoki bilvosita egalik qilishga haqli emas.

26-modda. Hal qiluvchi egalik sotib olinganligi, o‘zgartirilganligi yoki boshqalarga berilganligi to‘g’risidagi xabarnoma

Hal qiluvchi egalikka bevosita yoki bilvosita egalik qiluvchi, shu jumladan oxirgi benefitsiar mulkdor quyidagi hollarda Markaziy bankni va bankni o‘n kunlik muddatda yozma shaklda, shu jumladan elektron shaklda xabardor qilishi shart:

bank aksiyalarini olishga doir dastlabki ruxsatnoma olingan bitim amalga oshirilganda;

dastlabki ruxsatnoma olingan, ushbu Qonun 22-moddasining birinchi qismida belgilangan aksiyalar ulushi ko‘payganda;

bank ustav kapitalidagi hal qiluvchi egalikni boshqa shaxsga berish yoki kamaytirish to‘g’risida qaror qabul qilish natijasida hal qiluvchi egalik tegishincha ellik foizdan, yigirma foizdan yoki besh foizdan kam bo‘lib qolganda;

ushbu Qonunning 22-moddasi birinchi qismida belgilangan hajmdagi bank aksiyalari shaxs tomonidan o‘ziga bog’liq bo‘lmagan holatlarda olinganda.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan hollarda bank xabarnoma olingan kundan e’tiboran bir kunlik muddatda Markaziy bankni yozma shaklda, shu jumladan elektron shaklda xabardor qilishi kerak.

27-modda. Xabardor qilish majburiyati

Bank bankning ustav kapitalidagi ulushlarga bevosita va bilvosita egalik qiluvchilarning, shu jumladan oxirgi benefitsiar mulkdorning shaxsi va ulushining miqdori to‘g’risidagi mavjud ma’lumotlarni Markaziy bankning so‘rovnomasiga binoan taqdim etishi shart.

Oldingi tahrirga qarang.

Bank aksiyalariga bevosita va bilvosita egalik qiluvchining, shu

jumladan oxirgi benefitsiar mulkdorning banklar va bank faoliyati to‘g’risidagi qonunchilik talablariga muvofiqligini baholashdan o‘tkazish maqsadida Markaziy bankning yoki bankning so‘rovnomasiga binoan ushbu shaxslar:

(27-modda ikkinchi qismining birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

tadbirkorlik faoliyati to‘g’risidagi ma’lumotlarni, shu jumladan yillik moliyaviy hisobotni;

o‘ziga aloqador shaxslar va egalik qiluvchi bankka nisbatan birgalikda harakat qilayotgan shaxslar to‘g’risidagi ma’lumotlarni, shuningdek Markaziy bankka zarur bo‘lgan boshqa axborotni taqdim etishi shart.

Markaziy bank predmeti yoki mazmuni quyidagilardan iborat bo‘lgan har qanday tuzilgan kelishuv to‘g’risida xabardor etilishi kerak:

bank aksiyadorlarining umumiy yig’ilishlarida yoki bank ustidan nazoratni amalga oshiruvchi shaxslarning umumiy yig’ilishlarida ovoz berish huquqini kelishilgan holda amalga oshirish;

bank boshqaruvi organi a’zolarining yoki bank ustidan nazoratni amalga oshiruvchi shaxslarning kelishilgan holda faoliyat ko‘rsatishi;

bank boshqaruvi yoki kuzatuv kengashi a’zolarining nomzodlarning yoxud bank ustidan nazoratni amalga oshiruvchi shaxslarning ko‘pchiligi nomzodini ko‘rsatish huquqini amalga oshirish.

Ushbu moddaning uchinchi qismida ko‘rsatilgan xabarnoma kelishuv imzolangan sanadan e’tiboran besh ish kuni ichida yoki uning mavjudligini oshkor etuvchi holatlar aniqlangan paytdan e’tiboran darhol Markaziy bankka kelishuv taraflari yoki bankning boshqaruv organlari tomonidan yuborilishi kerak.

Oldingi tahrirga qarang.

Hal qiluvchi egalikka bevosita yoki bilvosita egalik qiluvchi, shu jumladan oxirgi benefitsiar mulkdor aksiyadorning banklar va bank faoliyati to‘g’risidagi qonunchilik talablariga muvofiqligini baholashga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan holatlar to‘g’risida shunday holatlar vujudga kelgan kundan e’tiboran besh ish kuni ichida Markaziy bankni xabardor qilishi kerak.

(27-moddaning beshinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

28-modda. Banklar tomonidan o‘z aksiyalarini sotib olish

Banklar o‘z aksiyalarini sotib olish uchun Markaziy bankning dastlabki ruxsatnomasini olishi shart. Bank tomonidan sotib olinadigan o‘z aksiyalarining summasi bank ustav kapitalining o‘n foizidan oshishi mumkin emas.

Bank o‘z aksiyalarini sotib olishga doir dastlabki ruxsatnomani olish uchun Markaziy bankka arizani va o‘z aksiyalarini sotib olish sabablarini ko‘rsatgan holda bank aksiyadorlari umumiy yig’ilishining qarorini taqdim etadi.

Bankning moliyaviy holati qoniqarsiz bo‘lsa, shuningdek ushbu sotib olish prudensial normativlarga rioya etilmasligiga olib kelsa, Markaziy bank dastlabki ruxsatnomani berishga haqli emas.

3-bob. Filiallar va vakolatxonalar

Oldingi tahrirga qarang.

29-modda. Banklarning O‘zbekiston Respublikasi hududidagi filiallari va boshqa alohida bo‘linmalari

Banklar O‘zbekiston Respublikasida filiallar, bank xizmatlari ofislari va boshqa alohida bo‘linmalar ochishi mumkin.

Bank filiali bankning yuridik shaxs bo‘lmagan, bank nomidan bank faoliyatini amalga oshiruvchi va bank tomonidan o‘ziga berilgan vakolatlar doirasida harakat qiluvchi alohida bo‘linmasidir.

Banklar o‘z filiali yoki bank xizmatlari ofisini ochganlik yoki tugatganlik to‘g’risida Markaziy bankka belgilangan tartibda xabarnoma yuborishi shart.

Bank filiali yoki bank xizmatlari ofisini ochganlik to‘g’risidagi xabarnomaga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

filial yoki bank xizmatlari ofisini ochish to‘g’risida bankning vakolatli organining qarori;

filial rahbari va bosh buxgalteri to‘g’risidagi ma’lumotlar (filial ochilgan taqdirda);

filial yoki bank xizmatlari ofisi joylashgan erdagi Markaziy bank hududiy bosh boshqarmasining filial yoki bank xizmatlari ofisi binolari, ularning muhofaza qilinishi ta’minlanganligi, uskunalar, tashkiliy-texnika

vositalari bilan jihozlanganligining va dasturiy ta’minotning Markaziy bank talablariga muvofiqligi to‘g’risidagi xulosasi.

Bank filiali yoki bank xizmatlari ofisini ochganlik to‘g’risidagi xabarnomani Markaziy bankka yuborish uchun quyidagi talablar va shartlarga rioya etilishi lozim:

bankning barqaror moliyaviy holati;

filial rahbari va bosh buxgalterining malakasi Markaziy bank tomonidan belgilangan malaka talablariga muvofiqligi (filial ochilgan taqdirda);

filial yoki bank xizmatlari ofisi binolari, ularning muhofazasi ta’minlanishi, uskunalar, tashkiliy-texnika vositalari va dasturiy ta’minoti bilan jihozlanishi Markaziy bank talablariga muvofiqligi.

Bank filiali, uning faoliyati boshlanganligi to‘g’risidagi axborot Markaziy bankning rasmiy veb-saytida e’lon qilinadi.

Bank filialini yoki bank xizmatlari ofisini ochganlik va tugatganlik to‘g’risida Markaziy bankni belgilangan tartibda xabardor qilmay amalga oshiriladigan faoliyat qonunga xilofdir.

Bank tomonidan filialni tugatganlik to‘g’risida qaror qabul qilingan taqdirda, bank mijozlarni filial tugatilishidan o‘n besh kun oldin xabardor qilishi va ularning oldidagi majburiyatlar bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rishi yoki bu majburiyatlarni mijoz bilan kelishilgan holda boshqa filialga o‘tkazishi shart.

Bank filialni tugatganlik to‘g’risida qaror qabul qilingan sanadan e’tiboran ikki ish kuni ichida Markaziy bankni bu haqda xabardor qilishi va mijozlar oldidagi majburiyatlarni bajarishni ta’minlashga doir rejani taqdim etishi kerak.

Bank vakolatxonasi O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq ochiladi.

(29-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-oktabrdagi O‘RQ-721-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son)

30-modda. Chet el banklarining O‘zbekiston Respublikasi hududidagi filiallari va vakolatxonalari

O‘zbekiston Respublikasida chet el banklari tomonidan filiallar tashkil etilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Chet el bankining O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan

hamda bank faoliyatini va boshqa tijorat faoliyatini amalga oshirish huquqisiz bankning manfaatlarini ifodalovchi alohida bo‘linmasi chet el bankining vakolatxonasidir.

O‘zbekiston Respublikasi hududida chet el bankining vakolatxonasi Markaziy bank tomonidan akkreditatsiya qilinadi.

31-modda. Banklarning chet eldagi shu’ba banklari, filiallari va vakolatxonalari

Banklar Markaziy bankning ruxsatnomasi bilan quyidagi hollarda chet elda shu’ba banklar ochishi va filiallar tashkil etishi, banklarning kapitalida ishtirok etishi, shu jumladan chet el banklarini tashkil etishda ishtirok etishi mumkin:

Markaziy bank va qabul qiluvchi mamlakatning bank nazorati organi bilan axborot ayirboshlash to‘g’risida kelishuv mavjud bo‘lganda;

Oldingi tahrirga qarang.

qabul qiluvchi mamlakatning qonunchilik va uning qo‘llanilish uslubiyoti Markaziy bank tomonidan shu’ba bank, filial ustidan nazorat vazifalarini bajarishiga to‘sqinlik qilmaganda;

(31-modda birinchi qismining uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

bankning boshqaruvi va moliyaviy holati shu’ba bank, filial orqali amalga oshiriladigan, rejalashtirilayotgan faoliyat uchun yetarli bo‘lganda;

prudensial normativlar ko‘rsatkichlariga rioya etilganda va ular o‘sib borganda hamda banklar va bank faoliyati to‘g’risidagi qonunning boshqa talablariga muvofiq bo‘lganda.

Oldingi tahrirga qarang.

Bankning shu’ba banklari hamda vakolatxonalari ular ochiladigan va (yoki) tashkil etiladigan mamlakat qonunchiligiga muvofiq ochiladi va (yoki) filiallari tashkil etiladi.

(31-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Bank tomonidan chet elda vakolatxona ochish, shu’ba bankni, vakolatxonani yoki filialni yopish, shuningdek chet el banki aksiyalarini sotish to‘g’risida qaror qabul qilingan taqdirda, bank bunday qaror qabul

qilingan sanadan e’tiboran o‘ttiz kun ichida Markaziy bankni xabardor qilishi va ushbu qaror bankning moliyaviy barqarorligiga qanday ta’sir ko‘rsatishi to‘g’risida axborot taqdim etishi shart.

Markaziy bank qabul qiluvchi mamlakatdagi bank nazorati organini O‘zbekiston Respublikasining yuridik shaxsi bo‘lgan, mazkur mamlakat hududida shu’ba bank, vakolatxona yoki filial orqali faoliyat ko‘rsatayotgan bankning litsenziyasi chaqirib olinayotganligi to‘g’risida xabardor qilishi kerak.

4-bob. Bankning korporativ boshqaruvi

32-modda. Bankning boshqaruv organlari

Aksiyadorlarning umumiy yig’ilishi, bankning kuzatuv kengashi va boshqaruvi bankning boshqaruv organlaridir.

Aksiyadorlarning umumiy yig’ilishi bankning yuqori boshqaruv organidir.

Bank korporativ boshqaruvga oid siyosatni ishlab chiqishi va tasdiqlashi shart.

Bank kuzatuv kengashining va boshqaruvining vakolatlari ijro etish uchun uchinchi shaxslarga o‘tkazilishi mumkin emas, bundan ushbu Qonunda nazarda tutilgan hollar mustasno.

33-modda. Korporativ boshqaruv

Bank:

javobgarlikning shaffof sohalarini;

bank duchor bo‘lgan yoki duchor bo‘lishi mumkin bo‘lgan tavakkalchiliklarni aniqlash, boshqarish, monitoring qilish va ular haqida xabardor etishning samarali tartib-taomillarini (tanglik vaziyatining sodir bo‘lishi ssenariylarini);

operatsiyaga oid tavakkalchilikning o‘rnini qoplash uchun likvidlikni va kapitalning yetarliligini baholash tartib-taomilini;

ichki nazoratning tegishli mexanizmlarini, shu jumladan buxgalteriya hisobini yuritish tartibini;

tavakkalchiliklarni oqilona hamda samarali boshqarishga ko‘maklashadigan hamda mos keladigan xodimlarni mukofotlashning siyosati va usullarini belgilovchi korporativ boshqaruvning aniq ifodalangan tashkiliy tuzilmasiga ega bo‘lishi kerak.

Korporativ boshqaruvning tashkiliy tuzilmasi, tartib-taomillari va mexanizmlari kompleks tusga ega bo‘lishi hamda bank amalga oshirayotgan

biznes-model va faoliyatga xos bo‘lgan tavakkalchiliklarning xususiyati, miqyosi hamda murakkabligiga muvofiq bo‘lishi kerak. Ichki nazorat mexanizmlari kamida boshqaruv vazifalari bajarilishini va tavakkalchiliklar baholanishini hamda ichki audit talablariga rioya etilishini ta’minlashi kerak.

Banklardagi korporativ boshqaruvga doir talablar Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

34-modda. Bankning kuzatuv kengashi

Bankning kuzatuv kengashi bank faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, boshqaruvga oid qarorlar qabul qilish jarayonida nazorat va tekshiruv vazifasini bajaradi hamda umuman bankning faoliyati va moliyaviy barqarorligi uchun javobgardir.

Bankning kuzatuv kengashi bankni samarali va tadbirli boshqarishni, shu jumladan bank boshqaruvi a’zolari o‘rtasida vakolatlarning hamda javobgarlikning taqsimlanishini, manfaatlar to‘qnashuvining oldi olinishini va bartaraf etilishini ta’minlaydigan boshqaruv tashkiliy tuzilmasini belgilaydi hamda uning joriy etilishi ustidan nazorat va tekshiruvni amalga oshiradi.

Bankning kuzatuv kengashi a’zolari bankning oqilona korporativ boshqaruviga ko‘maklashishi hamda o‘z vakolatlarini va majburiyatlarini bajarish chog’ida bankning, uning omonatchilari va aksiyadorlarining qonuniy manfaatlarini inobatga olishi, shuningdek Markaziy bank bilan samarali hamkorlikni ta’minlashi kerak.

Bank kuzatuv kengashining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida nazarda tutilgan vakolatlari jumlasiga qo‘shimcha ravishda quyidagilar kiradi:

strategik maqsadlarni, korporativ boshqaruv siyosatini, bankning boshqa ichki siyosatlarini, shu jumladan tavakkalchiliklarni aniqlash, boshqarish, monitoring qilish va ular to‘g’risida xabardor etish, kapitalning yetarliligini lozim darajada saqlab turish siyosatini tasdiqlash hamda ularning amalga oshirilishi ustidan nazorat qilish;

aktivlarni tasniflash asosida aktivlar bo‘yicha ehtimoldagi zararlarga qarshi yaratiladigan zaxiralar shakllantirilishi ustidan nazorat qilish, shuningdek bankning kapital va umumiy zaxiralarining yetarli darajada saqlab turilishini ta’minlash;

manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish va uni bartaraf etish tartibini

tasdiqlash;

bankning moliyaviy holatini tiklash rejalarini tasdiqlash;

bankning boshqaruvi ustidan nazoratni amalga oshirish;

bankning qabul qilingan biznes-rejasi bajarilishi ustidan nazorat qilish, shuningdek har chorakda bankning faoliyati natijalari to‘g’risida bank boshqaruvining hisobotini eshitish;

bankning ichki audit xizmati faoliyatini tashkil etish, shuningdek bank ichki audit xizmatining choraklik hisobotlari asosida bank boshqaruvi tomonidan bank strategiyalari va siyosatlariga rioya etilishini baholashdan o‘tkazish;

bank boshqaruvi a’zolari tomonidan taqdim etilgan axborotni, takliflarni va tushuntirishlarni o‘rganish, muhokama qilish hamda ular bo‘yicha bahslashish;

bank faoliyatini boshqarish tizimi samaradorligini, shu jumladan bank boshqaruvi prinsiplari monitoringini va ularni davriy baholashni amalga oshirish hamda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun tegishli choralarni ko‘rish;

bir yilda kamida bir marta amalga oshirilgan nazorat va tekshiruv faoliyati to‘g’risida aksiyadorlarning umumiy yig’ilishiga hisobot taqdim etish;

yillik moliyaviy hisobotlarni tasdiqlash hamda buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlar tizimining yaxlitligini ta’minlash;

bankning uzoq muddatli moliyaviy manfaatlarini va Markaziy bank tomonidan kapitalga nisbatan belgilangan talablarni hisobga olgan holda prudensial talablarga rioya etilishini ta’minlash.

Bankning kuzatuv kengashi a’zolari soni, bank aksiyadorlari sonidan qat’i nazar, besh kishidan kam bo‘lmagan miqdorda toq sonda bo‘lishi lozim. Kuzatuv kengashi a’zolarining ko‘pchiligi bankka aloqador shaxslar bo‘lmasligi kerak, bundan ularning kuzatuv kengashidagi a’zoligi mustasno.

Bank kuzatuv kengashi a’zolari o‘z mulohazalarining mustaqilligi bo‘yicha talablarga rioya etishi kerak.

Quyidagi hollarda shaxs kuzatuv kengashi a’zoligiga saylanishi mumkin emas yoki saylangan shaxs kuzatuv kengashi a’zoligi huquqidan mahrum etiladi, agar:

shaxs ikki yoki undan ortiq bankning kuzatuv kengashi a’zosi bo‘lsa yoki a’zo bo‘lish niyatida bo‘lsa, bundan mazkur banklar bir bank guruhiga

tegishli bo‘lgan hollar mustasno;

shaxsning vakolatlari Markaziy bank talabiga ko‘ra muddatidan ilgari tugatilgan bo‘lsa.

35-modda. Bank boshqaruvi

Bank boshqaruvi bankni boshqarishning ijro etuvchi organi bo‘lib, u bankning kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan faoliyat strategiyasi va uni boshqarish tizimiga muvofiq bankning faoliyatiga operativ boshqaruvni amalga oshiradi hamda bankning faoliyati uchun javobgarlikni to‘liq zimmasiga oladi.

Bank boshqaruvi:

strategik maqsadlarni, korporativ boshqaruv siyosatini, bankning boshqa ichki siyosatlarini, shu jumladan tavakkalchiliklarni aniqlash, boshqarish, monitoring qilish va tavakkalchiliklar to‘g’risida xabardor etish, kapitalning yetarliligini lozim darajada saqlab turish siyosatini amalga oshirishi;

bankning tegishli va shaffof tashkiliy tuzilmasini, shu jumladan vakolatlarni va javobgarlikni bank xodimlari o‘rtasida o‘z vakolatlari doirasida taqsimlashni ta’minlashi;

bank xodimlarining faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirishi;

bankning qabul qilingan yillik biznes-rejasini bajarishi, shuningdek bank aksiyadorlarining umumiy yig’ilishiga va kuzatuv kengashiga bajarilgan ishlar, bankka nisbatan qo‘llanilgan choralar hamda sanksiyalar to‘g’risidagi hisobotni davriy ravishda taqdim etishi;

Oldingi tahrirga qarang.

bank ustavida hamda banklar va bank faoliyati to‘g’risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajarishi shart.

(35-modda ikkinchi qismining oltinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Bank boshqaruvi bank aksiyadorlarining umumiy yig’ilishiga va kuzatuv kengashiga hisobdordir.

36-modda. Rahbarlik prinsiplarini qo‘llash

Bank kuzatuv kengashining va boshqaruvining a’zolari, shuningdek muhim ahamiyatga ega xodimlari benuqson ishchanlik obro‘siga, bank tavakkalchiliklarining samarali boshqarilishini, o‘z vakolatlari doirasida

asosli qarorlar qabul qilinishini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan tajribaga, bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak.

Oldingi tahrirga qarang.

Bank bankning kuzatuv kengashi va boshqaruvi a’zolari, shuningdek muhim ahamiyatga ega xodimlari banklar va bank faoliyati to‘g’risidagi qonunchilik talablariga doimo muvofiq bo‘lishini ta’minlashi shart.

(36-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Markaziy bank bank kuzatuv kengashining va boshqaruvning a’zoligiga hamda muhim ahamiyatga ega xodimlar lavozimlariga ko‘rsatilayotgan nomzodlarni ularning lavozimga kirishishidan oldin kelishib oladi. Agar muhim ahamiyatga ega xodimlarni obyektiv sabablarga ko‘ra oldindan kelishib olishning imkoni bo‘lmasa, bank keyinchalik rozilik olish uchun so‘rovnoma yuborishi kerak.

Bank boshqaruvi a’zolari va muhim ahamiyatga ega xodimlari ish beruvchining roziligi bilan boshqa tashkilotlarda o‘rindoshlik asosida ishlashi mumkin, bundan ularning boshqa banklar va tashkilotlarda ishga joylashuvi manfaatlar to‘qnashuviga olib kelishi mumkin bo‘lgan hollar mustasno.

Bank kuzatuv kengashining va boshqaruvining a’zolarini, shuningdek muhim ahamiyatga ega xodimlarni baholash shartlari, baholash uchun zarur hujjatlar, malaka talablariga muvofiqlik mezonlari, shuningdek ularni kelishib olish tartibi Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

37-modda. Korrupsiyaning oldini olish choralari, bank xodimlarining odob-axloq qoidalari va manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘yilmasligi

Banklar bankning saylanadigan organlari a’zolari va xodimlari tomonidan rioya etilishi majburiy bo‘lgan:

korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha choralarni;

odob-axloq qoidalarini;

manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish va uni bartaraf etish siyosatini ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi.

Bankka yoki bankning nazorati ostidagi yuridik shaxsga aloqador bo‘lgan shubhali faoliyat, firibgarlik yoxud suiiste’molliklar to‘g’risida xabar qilgan bank kuzatuv kengashi, boshqaruvi a’zosining yoki xodimining

shaxsi oshkor qilinmasligi kerak.

5-bob. Prudensial talablar va tavakkalchiliklarni boshqarish

38-modda. Banklar va bank guruhlari tomonidan prudensial normativlarga rioya etish

Banklarning moliyaviy barqarorligini ta’minlash hamda omonatchilar va kreditorlarning manfaatlarini himoya qilish maqsadida banklar va bank guruhlari hisoblab chiqarish tartibi va yo‘l qo‘yiladigan qiymatlari Markaziy bank tomonidan belgilanadigan prudensial normativlarga rioya etishi shart.

Prudensial normativlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

kapitalning monandlik koeffitsiyentlari;

bir qarz oluvchiga yoki o‘zaro aloqador qarz oluvchilar guruhiga doir tavakkalchilikning eng ko‘p miqdori;

yirik kredit tavakkalchiliklarining va investitsiyalarning eng ko‘p miqdori;

sohalar kesimida to‘planish (konsentratsiya) koeffitsiyentlari;

likvidlik koeffitsiyentlari;

bankning aloqador shaxslari uchun tavakkalchilikning eng ko‘p miqdori;

ta’minotsiz kreditlar (ishonchga asoslangan kreditlar) berishning eng ko‘p miqdori;

bankning aktivlarini tasniflashga va ularning sifatini baholashga, bank aktivlari bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarga qarshi zaxiralarni aktivlarni tasniflash asosida shakllantirishga doir talablar;

bank aktivlari bo‘yicha foizlarni hisoblash va ularni bankning daromadlar hisobvarag’iga kiritishga doir talablar;

yuridik shaxslarning ustav fondlaridagi (ustav kapitallaridagi) sotib olinadigan ulushlar va aksiyalarning eng ko‘p miqdori;

ko‘chmas mulkni va boshqa mol-mulkni sotib olishga hamda unga egalik qilishga doir talablar;

ochiq valyuta mavqeyi limitlari;

umum qabul qilingan xalqaro amaliyotga muvofiq Markaziy bank tomonidan belgilanadigan boshqa prudensial normativlar.

Banklar aktivlar bo‘yicha yo‘qotishlarga oid tavakkalchilikni kamaytirish maqsadida o‘zining kapitalini va likvid resurslarini yetarli darajada saqlab turishi, aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarga qarshi zaxiralarni aktivlarni tasniflash asosida shakllantirishi, shuningdek o‘z

aktivlarining diversifikatsiya qilinishini ta’minlashi kerak.

Markaziy bank banklar, banklar guruhi va tizimli ahamiyatga ega banklar uchun mazkur bankka, tizimli ahamiyatga ega bankka va banklar guruhiga xos tavakkalchilik omillarining eng ko‘p o‘zgarishlari chog’ida yuzaga keladigan ehtimoldagi zararlarning o‘rnini qoplash uchun likvidlik va kapitalning yetarlilik koeffitsiyentlariga qo‘shimcha ustamalar belgilashga haqli.

Prudensial normativlarga kelgusidagi o‘zgartishlar ushbu o‘zgartishlar amalga kiritilishidan kamida bir oy oldin Markaziy bank tomonidan rasman e’lon qilinadi.

39-modda. Foydaning taqsimlanishini cheklash

Bank aksiyadorlarga dividendlar to‘lash, shuningdek bankning kuzatuv kengashi, boshqaruvi a’zolari va xodimlarini mukofotlash orqali foydani taqsimlashni quyidagi hollarda amalga oshirishga haqli emas:

prudensial normativlar Markaziy bank tomonidan belgilangan talablarga muvofiq bo‘lmaganda yoki ular mazkur taqsimlash oqibatida buzilganda;

nochorlik (bankrotlik) bo‘lganda yoki mazkur taqsimlash oqibatida nochorlikning (bankrotlikning) alomatlari yuzaga kelganda;

Keyingi tahrirga qarang.

Markaziy bankning ijro etilishi majburiy bo‘lgan ko‘rsatmasida aks ettirilgan, shu jumladan axborotni oshkor etish borasida ko‘rsatilgan kamchiliklar bartaraf etilmaganda yoki ularni bartaraf etish imkoniyati mavjud bo‘lmaganda;

Markaziy bankning foydani taqsimlamaslik to‘g’risida bankka nisbatan talabi mavjud bo‘lganda.

Banklar quyidagi hollarda foydani taqsimlash uchun Markaziy bankning roziligini olishi kerak:

ushbu modda birinchi qismining birinchi xatboshisida ko‘rsatilgan to‘lovlarning umumiy summasi bankning o‘z kapitalining o‘n foizidan ortganda;

joriy yoki o‘tgan chorakda va (yoki) moliya yilida zarar mavjud bo‘lganda.

40-modda. Majburiy zaxiralash talablari

Banklar Markaziy bank tomonidan belgilangan majburiy zaxiralash talablarini bajarishi shart.

Bank majburiy zaxiralash talablarini bajarmagan taqdirda, Markaziy bank qat’iy tartibda bu bankning Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag’idan yetishmayotgan majburiy zaxira mablag’lari miqdoridagi summani, shuningdek ushbu yetishmayotgan summaga nisbatan amaldagi qayta moliyalash yillik stavkasining ikki baravaridan oshmaydigan miqdorda jarima undirib oladi.

41-modda. Bank xizmatlari va operatsiyalarining autsorsingi

Xizmatlar va operatsiyalarning ayrim turlarini bank tomonidan shartnoma asosida va uzluksiz asosda amalga oshirish uchun uchinchi tarafga topshirish bank xizmatlari va operatsiyalarining autsorsingidir (bundan buyon matnda autsorsing deb yuritiladi).

Bank Markaziy bankning ruxsatnomasi olinganidan keyin xizmatlar va operatsiyalarning ayrim turlarini Markaziy bank tomonidan belgilangan talablarga muvofiq autsorsingga topshirish huquqiga ega.

Litsenziya asosida amalga oshiriladigan xizmatlar va operatsiyalarning ayrim turlarini faqat tegishli litsenziya egasiga autsorsingga topshirishga yo‘l qo‘yiladi.

Bank xizmatlari va operatsiyalarining ayrim turlari o‘ziga autsorsingga topshirilgan shaxsning mazkur xizmatlar hamda operatsiyalarni keyinchalik boshqa shaxsga autsorsingga topshirishi taqiqlanadi. Mazkur cheklov bank tomonidan xizmatlar va operatsiyalarning ayrim turlarini autsorsingga topshirish to‘g’risidagi shartnomada aks ettirilishi kerak.

Bank autsorsingga topshirilgan xizmatlar va operatsiyalarning ayrim turlari bilan bog’liq tavakkalchiliklarning boshqarilishi uchun javobgar bo‘ladi.

Xizmatlar va operatsiyalarning ayrim turlarini autsorsingga topshirishda bank Markaziy bankning talablariga, shu jumladan ichki siyosatlar va hisobotdorlik mavjudligi bo‘yicha, shuningdek Markaziy bankka autsorsingga topshirilgan xizmatlar va operatsiyalarning ayrim turlari yuzasidan axborot taqdim etish bo‘yicha talablariga javob berishi kerak.

Banklar autsorsingga topshirilgan xizmatlar va operatsiyalarning ayrim turlari tashqi auditdan o‘tkazilishini har yili yoki Markaziy bankning talabiga binoan ta’minlashi shart.

Markaziy bank quyidagi hollarda autsorsing shartnomasini bekor qilishni talab etishga haqli:

bank tomonidan autsorsingga topshirilgan xizmatlar va operatsiyalarning lozim darajadagi hamda muntazam ravishdagi nazorati, tekshiruvi va tavakkalchilik boshqaruvi amalga oshirilmaganda;

autsorsing uchun jalb etilgan shaxs faoliyatida bankning o‘z majburiyatlarini bajarish qobiliyatiga tahdid soluvchi kamchiliklar mavjud bo‘lganda.

42-modda. Bank va banklar guruhining ichki nazoratiga hamda tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir talablar

Bank va banklar guruhi Markaziy bank tomonidan belgilangan ichki nazoratga hamda tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir talablarga rioya etishi shart. Markaziy bankning talablari bank amalga oshirayotgan faoliyat turining tizimli ahamiyatini, o‘ziga xos xususiyatini, miqyosini va murakkabligini mutanosiblik prinsipini inobatga olgan holda hisobga oladi.

Bank va banklar guruhining ichki nazoratiga hamda tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir Markaziy bank talablari jumlasiga quyidagilar kiradi:

ichki va tashqi foydalanuvchilar uchun moliyaviy, nazoratga oid hamda boshqa hisobotlarning to‘liqligini, ishonchliligini va o‘z vaqtidaligini, shuningdek axborot xavfsizligini ta’minlash;

bank tomonidan prudensial talablar bajarilishini ta’minlash;

bankda bank uchun ahamiyatli bo‘lgan tavakkalchiliklarni aniqlash va boshqarish, stress-testdan o‘tkazish bo‘yicha tasdiqlangan siyosatining, shuningdek bank uchun ahamiyatli tavakkalchiliklar va kapital bo‘yicha hisobot tizimining mavjudligi;

bank uchun ahamiyatli tavakkalchiliklarni boshqarishga va ularning samaradorligini baholashga doir siyosatlarning bank tomonidan izchil amalga oshirilishi hamda ularga rioya etilishi;

bankning ichki hujjatlarida belgilangan tavakkalchiliklarning eng yuqori miqdorlariga va kapitalning monandligiga, tavakkalchiliklarni boshqarish bo‘yicha bankda qo‘llanilayotgan tartib-taomillarning samaradorligiga hamda ularni qo‘llash izchilligiga bankning rioya etishi ustidan kuzatuv kengashi tomonidan nazoratni amalga oshirish.

Oldingi tahrirga qarang.

43-modda. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg’in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g’risidagi

qonunchilik talablariga banklar tomonidan rioya etilishi

Banklar jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg’in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g’risidagi qonunchilik talablariga rioya etishi shart.

(43-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

44-modda. Bankka aloqador bo‘lgan shaxslar bilan bitimlar tuzish

Banklarning bankka aloqador bo‘lgan shaxslar bilan yoki bunday shaxslar nomidan harakat qiladigan shaxslar bilan tuzadigan shartnomalari bankka aloqador bo‘lmagan shaxslar uchun nazarda tutilgan shartnomalarga qaraganda ancha qulay shartlarga asoslangan hollarda ularning bunday shartnomalarni tuzishi taqiqlanadi.

Ancha qulay shartlarni taqdim etish quyidagilarni anglatadi:

bank bankka aloqador bo‘lmagan shaxslar bilan ularning tabiati, maqsadi, xususiyatlari va bankning tavakkalchiligidan kelib chiqib tuzmaydigan bitimni bankka aloqador shaxs bilan yoki shunday shaxsning manfaatlarini ko‘zlab tuzilishini;

boshqa shaxslarga nisbatan moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirganligi uchun pastroq tarzda mukofotlar olinishini va to‘lovlarni pastroq tarzda undirilishini yoki ta’minotni boshqa shaxslardan talab qilinadigan qiymatdan yuqoriroq qiymat bo‘yicha qabul qilinishini.

Bank o‘ziga aloqador shaxslarga ta’minlanmagan (ishonchga asoslangan kreditlar) kreditlar (qarzlar) berishi mumkin emas.

Bank o‘ziga aloqador shaxslar bilan ushbu moddaning talablarini hisobga olgan holda faqat bank kuzatuv kengashining qaroriga ko‘ra bitimlar tuzishi mumkin. Agar shaxs bank bilan bitim tuzish bo‘yicha shartnoma imzolanganidan keyin bankka aloqador shaxsga aylansa, bankning kuzatuv kengashi shaxs bankka aloqador shaxsga aylangan kundan e’tiboran o‘ttiz kun ichida mazkur shartnomani ma’qullashi yoki uni bekor qilish to‘g’risida farmoyish berishi kerak.

Kuzatuv kengashining a’zosi bank bilan o‘zi o‘rtasida yoki o‘ziga aloqador shaxs o‘rtasida tuzilgan yoki tuziladigan bitim masalasi ko‘rilayotgan kuzatuv kengashi yig’ilishida hozir bo‘lmasligi, kuzatuv

kengashi qabul qiladigan qarorga ta’sir ko‘rsatishga urinmasligi kerak.

Bank o‘ziga aloqador bo‘lgan shaxslar bilan tuzilgan bitimlarning alohida ro‘yxatini yuritishi va Markaziy bankni bankka aloqador shaxslar bilan bitimlar tuzilishi oldidan xabardor etishi shart.

6-bob. Banklarning faoliyati ustidan prudensial nazorat va nazorat tadbirlari

45-modda. Prudensial nazorat

Oldingi tahrirga qarang.

Bank faoliyatining o‘ziga xos tavakkalchiliklarining oldini olish va qisqartirish maqsadida Markaziy bank, basharti banklar va bank faoliyati to‘g’risidagi qonunchilik talablariga rioya etilsa, banklar faoliyati ustidan prudensial nazoratni ta’minlaydi.

(45-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Prudensial nazoratni ta’minlash uchun Markaziy bank:

Oldingi tahrirga qarang.

banklar va bank faoliyati to‘g’risidagi qonunchilikning prudensial talablariga muvofiq bo‘lishi uchun banklar tomonidan foydalaniladigan tizimlar, strategiyalar, tartib-taomillar hamda mexanizmlar ustidan;

(45-modda ikkinchi qismining ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

banklarga tahdid solayotgan yoki tahdid solishi mumkin bo‘lgan tavakkalchiliklar, oqilona boshqaruv ta’minlanganligi hamda tavakkalchiliklarni muvofiqlashtiruvchi mexanizmlar banklarning kapitali va likvidligi bilan qoplanganligi ustidan;

Oldingi tahrirga qarang.

banklarning tavakkalchilikni boshqarish, shuningdek korporativ boshqaruv jihatidan banklar va bank faoliyati to‘g’risidagi qonunchilik talablariga muvofiqligi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

(45-modda ikkinchi qismining to‘rtinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Banklar o‘zining banklar va bank faoliyati to‘g’risidagi qonunchilikning prudensial talablariga muvofiqligini baholash uchun zarur bo‘lgan axborotni Markaziy bankka taqdim etishi shart.

(45-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Banklarning ichki boshqaruv mexanizmlari, buxgalteriya hisobi va hisobotlarning yuritilishi, shuningdek ma’muriy tartib-taomillari banklarning prudensial talablarga muvofiqligini tekshirish imkonini berishi kerak.

Banklar Markaziy bank tomonidan prudensial talablarga muvofiqlikni tekshirish uchun bitimlar va operatsiyalarni Markaziy bank tomonidan belgilangan qoidalarga muvofiq ro‘yxatga olishi shart.

Markaziy bank banklar kapitalining monandligini ularning tavakkalchiliklari sohasidan kelib chiqib baholash uchun ularning faoliyati, tashkil etilishi va ichki jarayonlari to‘g’risida axborot olish maqsadida banklar bilan hamkorlik qiladi.

Zarur hollarda Markaziy bank nazorat vazifalarini bajarish uchun tashqi ekspertlarni jalb etishga haqli.

46-modda. Tekshirish va baholash jarayoni

Oldingi tahrirga qarang.

Markaziy bank banklar tomonidan foydalaniladigan tizimlar, strategiyalar, tartib-taomillar hamda mexanizmlarning banklar va bank faoliyati to‘g’risidagi qonunchilik talablariga muvofiqligini tekshiradi, shuningdek banklarning mavjud va ehtimoldagi tavakkalchiliklarini, shu jumladan alohida banklar tomonidan bank (moliya) tizimiga xavf soluvchi tavakkalchiliklarni baholaydi.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan tekshiruvlar va baholashlarda banklar tomonidan banklar va bank faoliyati to‘g’risidagi qonunchilik talablarining bajarilishi zarurligi hisobga olinadi.

(46-moddaning birinchi va ikkinchi qismlari O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Markaziy bank ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan

tekshiruvlar va baholashlarning natijalari asosida bank faoliyatining ixtisoslashuvi, miqyosi va murakkabligini, shuningdek oqilona boshqaruvning ta’minlanganligi hamda tavakkalchiliklarning o‘rni bankning regulyativ muvofiqlik mexanizmlari, kapitali va likvidliligi bilan qoplanganligi darajasini aniqlaydi.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan tekshiruvlar va baholashlarni o‘tkazish davriyligi va darajasi Markaziy bank tomonidan mutanosiblik prinsipidan, shuningdek bank faoliyatining tizimdagi ahamiyati, ixtisoslashuvi, miqyosi va murakkabligidan kelib chiqib, davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan kelishuvlarsiz va xabar berilmasdan mustaqil ravishda belgilanadi.

47-modda. Prudensial nazorat dasturi

Markaziy bank har yili banklar faoliyati ustidan prudensial nazorat dasturini tasdiqlaydi, bu dastur quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Oldingi tahrirga qarang.

stress-test natijalari moliyaviy barqarorligida sezilarli tavakkalchiliklar mavjud ekanligini ko‘rsatgan yoki bank faoliyati banklar va bank faoliyati to‘g’risidagi qonunchilik talablariga muvofiq emasligi taxmin qilingan banklar;

(47-modda birinchi qismining ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

tizimli ahamiyatga ega bo‘lgan banklar;

Markaziy bankning fikriga ko‘ra qo‘shimcha nazorat qilinishi talab etiladigan banklar.

Prudensial nazorat dasturi:

Markaziy bank tomonidan nazorat vazifalarini amalga oshirish va resurslarni taqsimlash tartibini;

qo‘shimcha nazorat qilinishi lozim bo‘lgan banklarni aniqlash tartib-taomilini va ushbu moddaning uchinchi qismiga muvofiq uni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan choralarni;

banklarni tekshirish rejasini o‘z ichiga oladi.

Markaziy bank bankning tavakkalchiliklarini baholash natijalarini hisobga olib, quyidagilarni o‘z ichiga olgan tegishli choralarni ko‘rishi mumkin:

bankdagi tekshiruvlarning davriyligini oshirish;

bank tomonidan qo‘shimcha hisobotlar taqdim etish;

bank tomonidan biznes-rejaning bajarilishi ustidan qo‘shimcha tekshiruvlar o‘tkazish;

muayyan tavakkalchiliklar bo‘yicha mavzuli tekshiruvlar o‘tkazish.

48-modda. Konsolidatsiyalashgan nazorat

Markaziy bank quyidagi hollarda banklar ustidan konsolidatsiyalashgan nazoratni amalga oshirishi kerak:

banklar guruhi tashkil etilganda;

Markaziy bank tomonidan bankni asosiy bank deb yoki asoslangan mulohazalarga ko‘ra bank guruhining a’zosi deb belgilaganda.

Bank faqat bitta banklar guruhining ishtirokchisi bo‘lishi mumkin.

Markaziy bank samarali hamkorlikni, axborot almashinuvini tashkil etish va konsolidatsiyalashgan asosda samarali nazorat o‘rnatish maqsadida boshqa mamlakatlarning bank nazorati organlari bilan (agar mavjud bo‘lsa) mazkur mamlakatlarning qonunlari bilan qo‘riqlanadigan sirlarga, shaxsga doir ma’lumotlar va maxfiy axborotdan foydalanish tartibiga rioya etgan holda hamjihatlik va hamkorlik to‘g’risida yozma kelishuvlar tuzishga haqli.

Banklar ustidan konsolidatsiyalashgan nazoratni amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

49-modda. Bankning moliyaviy ahvolini tiklash rejasi

Bank o‘zining moliyaviy ahvoli yomonlashgan taqdirda Markaziy bankning talabiga ko‘ra uni tiklash choralarini o‘z ichiga olgan bankning moliyaviy ahvolini tiklash rejasini (bundan buyon matnda tiklash rejasi deb yuritiladi) ishlab chiqadi hamda ko‘rib chiqish va baholash uchun taqdim etadi.

Bank tiklash rejasini har yili yoki bankning tashkiliy tuzilmasida, uning faoliyatida yoki moliyaviy ahvolida tiklash rejasiga ta’sir etishi mumkin bo‘lgan o‘zgarishlardan keyin yangilashi kerak.

Bankning tiklash rejasi makroiqtisodiy va moliyaviy inqiroz ko‘rinishlarining bank faoliyatiga ta’sirini, shu jumladan tizimga oid hodisalarni va mazkur bank uchun tavakkalchiliklarni o‘zida aks ettirishi kerak.

Bankni tiklash rejasi tegishli qarorlar qabul qilinishi kerak bo‘lgan holatni aniqlovchi chora-tadbirlar ro‘yxatini va ko‘rsatkichlarini o‘z ichiga olishi kerak.

Tiklash rejasi bank tomonidan taqdim etilgan kundan e’tiboran uch oy ichida Markaziy bank uni ko‘rib chiqadi va ushbu rejaning quyidagi mezonlarga muvofiqligini baholaydi:

tiklash rejasida ko‘rsatilgan chora-tadbirlar amalga oshirilgan taqdirda, bankning moliyaviy mavqeyini saqlab qolishi va (yoki) tiklashi;

moliyaviy inqiroz sharoitida tiklash rejasida ko‘rsatilgan chora-tadbirlarni tez va samarali amalga oshirish, shuningdek bank va moliya tizimiga salbiy ta’sirlarni kamaytirish imkoniyati.

Tiklash rejasi ushbu moddaning beshinchi qismida ko‘rsatilgan mezonlarga muvofiq bo‘lmagan taqdirda, Markaziy bank bankdan:

tiklash rejasini qayta ko‘rib chiqishni;

tiklash rejasiga Markaziy bank tomonidan belgilangan o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritishni;

tiklash rejasidagi kamchiliklarni yoki uni amalga oshirish borasidagi to‘siqlarni bartaraf etish uchun zarur bo‘lgan, o‘z faoliyatiga kiritiladigan o‘zgarishlarni bank tomonidan aniqlashni;

tavakkalchiliklar sohasini kamaytirishni;

bankni qayta kapitallashtirish choralari o‘z vaqtida ko‘rilishini;

bankni rivojlantirish strategiyasini qayta ko‘rib chiqishni;

bank boshqaruvining tashkiliy tuzilmasini o‘zgartirishni talab qilishga haqli.

Oldingi tahrirga qarang.

Ushbu modda oltinchi qismining beshinchi — sakkizinchi xatboshilarida ko‘rsatilgan chora-tadbirlar, agar ushbu modda oltinchi qismining ikkinchi — to‘rtinchi xatboshilarida ko‘rsatilgan chora-tadbirlar tiklash rejasining banklar va bank faoliyati to‘g’risidagi qonunchilik talablariga muvofiqligini ta’minlamasa, qo‘llaniladi.

(49-moddaning yettinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Banklar guruhining asosiy banki guruh darajasida o‘zining moliyaviy ahvoli yomonlashganidan keyin tiklash uchun ko‘riladigan chora-tadbirlarni o‘z ichiga oluvchi bank guruhini tiklash rejasini ishlab chiqishi kerak.

Oldingi tahrirga qarang.

Banklar guruhini tiklash rejasi banklar va bank faoliyati to‘g’risidagi qonunchilik talablariga muvofiq bo‘lishi lozim.

(49-moddaning to‘qqizinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Bankni tiklash rejasining mazmuniga va yangilanishiga oid talablar, uni taqdim etish va baholash tartibi Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

50-modda. Nazoratga doir vazifalar

Markaziy bank nazoratga doir vazifalarni amalga oshirish maqsadida:

banklardan, ularga aloqador shaxslardan va o‘z nazorati ostidagi shaxslardan, bank tomonidan autsorsingga berilgan xizmatlar va operatsiyalarni amalga oshiruvchi shaxslardan olingan hisobotlarni, shuningdek boshqa hujjatlarni olish va tekshirishga, axborotga tushuntirish berishni talab qilishga;

banklarning, bank tomonidan autsorsingga berilgan xizmatlar va operatsiyalarni amalga oshiruvchi shaxslarning, shuningdek konsolidatsiyalashgan asosda nazorat qilinishi lozim bo‘lgan boshqa shaxslarning faoliyatini tekshirishga;

banklarning axborot tizimlaridan va ma’lumotlar bazasidan foydalanishga haqlidir.

51-modda. Nazorat choralari

Markaziy bank quyidagi hollarda banklardan yoki bank guruhlaridan zudlik bilan zarur choralar ko‘rishni talab qilishga haqli:

Oldingi tahrirga qarang.

bankning yoki banklar guruhining faoliyati banklar va bank faoliyati to‘g’risidagi qonunchilik talablariga muvofiq bo‘lmaganda;

bank yoki banklar guruhi tomonidan keyingi o‘n ikki oy davomida banklar va bank faoliyati to‘g’risidagi qonunchilik talablarining buzilishi ehtimoli to‘g’risida Markaziy bankning mulohazalariga asoslangan axborot mavjud bo‘lganda;

(51-modda birinchi qismining ikkinchi va uchinchi xatboshilari O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Markaziy bank tomonidan bankning yoki banklar guruhining faoliyatiga va (yoki) axborot xavfsizligiga ta’sir ko‘rsatuvchi tavakkalchiliklar aniqlanganda.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan hollarda Markaziy

bank bankdan yoki banklar guruhidan:

kapital bo‘yicha prudensial normativlarning Markaziy bank tomonidan belgilangan talablardan yuqori miqdorda bo‘lishini ta’minlash va saqlab turishni;

korporativ boshqaruvni, tavakkalchiliklarni boshqarishni, ichki nazoratni va bankning moliyaviy ahvolini tiklash rejasini takomillashtirishni;

Oldingi tahrirga qarang.

bankning yoki banklar guruhining faoliyati banklar va bank faoliyati to‘g’risidagi qonunchilik talablariga muvofiqligini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini taqdim etishni;

(51-modda ikkinchi qismining to‘rtinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

bankni moliyaviy sog’lomlashtirish, shu jumladan o‘z aktivlari tuzilmasini o‘zgartirish va xarajatlarini qisqartirish, bankni qayta tashkil etish, bank filialini yoki boshqa bo‘linmalarini yopish bo‘yicha tadbirlarni bank tomonidan amalga oshirishni;

kapitalga doir talablarni hisobga olgan holda yakka tartibdagi zaxiralash talablarini yoki aktivlarni boshqarish usullarini qo‘llashni;

bankning yoki banklar guruhining barqarorligini sezilarli darajada yomonlashtiruvchi tavakkalchiliklarga sabab bo‘ladigan ayrim moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishga va ularning infratuzilmasini kengaytirishga nisbatan belgilangan cheklovlarga va (yoki) taqiqqa bank tomonidan rioya etilishini;

bankning faoliyatiga, xizmatlariga, moliyaviy operatsiyalariga va ichki tizimiga xos bo‘lgan tavakkalchilikning pasaytirilishini;

sof foydaning bankning ustav kapitalini ko‘paytirishga yo‘naltirilishini;

aksiyadorlarga yoki qo‘shimcha kapital vositalarini saqlovchilarga dividendlar va subordinar qarzlar bo‘yicha foizlar to‘lashga doir cheklovlarning va (yoki) taqiqning bajarilishini;

bank xodimlariga sof foydadan foizlar tarzida to‘lanadigan mukofot to‘lovlari bo‘yicha cheklovlarning va (yoki) taqiqning bajarilishini, agar mazkur to‘lovlar oqibatida kapitalga doir talablarga bank muvofiq bo‘lmasa

yoki uning ushbu talablarga muvofiq emasligi ehtimoli bo‘lsa;

cheklov amal qilishi davrida tuziladigan (muddati uzaytiriladigan) bank omonatlari bo‘yicha bank omonati shartnomalarida belgilangan foiz stavkasi miqdori bo‘yicha cheklovni bajarishni;

qo‘shimcha hisobotlar taqdim etilishini;

bank likvidligiga oid muammolarning oldini olish maqsadida to‘lovlarning uzluksizligi, moliyaviy manbalarning tegishli tuzilmasi hamda aktivlar va majburiyatlarning muddatlar bo‘yicha mutanosibligi uchun zarur bo‘lgan likvid aktivlarning eng kam summasini saqlab turish bo‘yicha majburiyatlarning bajarilishini;

bank kuzatuv kengashi tomonidan aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig’ilishini o‘tkazishni, aksiyadorlar Markaziy bank tomonidan belgilangan masalalarni, shu jumladan bank kapitalini bankning moliyaviy barqarorligini ta’minlay oladigan miqdorgacha ko‘paytirish masalasini ko‘rib chiqishni;

bank kuzatuv kengashining bitta yoki undan ortiq a’zosining vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish, boshqaruvining bitta yoki undan ortiq a’zosini, shuningdek muhim ahamiyatga ega xodimlarini egallab turgan lavozimidan chetlatishini yoki almashtirishini;

bank boshqaruvi tomonidan bir necha yoki barcha kreditorlarning qarzlarini restrukturizatsiya qilishga doir tadbirlar rejasining ishlab chiqilishini;

qo‘shimcha ma’lumotlarning oshkor etilishini;

Markaziy bankning boshqa ko‘rsatmalari bajarilishini talab qilishga haqli.

Bank kuzatuv kengashi tomonidan ushbu modda ikkinchi qismining o‘n beshinchi xatboshisida ko‘rsatilgan talab bajarilmagan taqdirda Markaziy bank aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig’ilishini chaqirishga va kun tartibini belgilashga haqli.

52-modda. Vaqtinchalik boshqaruvchi

Agar kuzatuv kengashining yoki boshqaruvning bitta yoki bir necha a’zosini almashtirish bo‘yicha Markaziy bank tomonidan amalga oshirilgan nazorat choralari yetarli emas deb hisoblansa, Markaziy bank:

kuzatuv kengashi va boshqaruv a’zolari bilan vaqtinchalik ishlashga;

kuzatuv kengashi va boshqaruv a’zolarini vaqtinchalik almashtirishga;

bankka bitta yoki bir necha vaqtinchalik boshqaruvchini tayinlashga haqli.

Vaqtinchalik boshqaruvchi ushbu Qonun 36-moddasining talablariga muvofiq bo‘lishi kerak.

Bank aksiyadori, qarz oluvchisi, kreditori yoki bankka aloqador shaxs bankning vaqtinchalik boshqaruvchisi etib tayinlanishi mumkin emas.

Markaziy bank vaqtinchalik boshqaruvchini lavozimga tayinlash va lavozimidan ozod etish, uning vakolatlarini bank ustaviga va ushbu Qonunga muvofiq belgilash bo‘yicha mutlaq huquqqa ega.

Markaziy bank tomonidan belgilangan hollarda vaqtinchalik boshqaruvchining harakatlari Markaziy bank bilan oldindan kelishilishi kerak. Oldindan kelishmay turib amalga oshirilgan harakatlar haqiqiy emas deb hisoblanadi.

Vaqtinchalik boshqaruvchi Markaziy bankka bankning moliyaviy ahvoli va o‘z vakolatlari doirasida ko‘rilgan choralar to‘g’risidagi hisobotlarni Markaziy bank tomonidan belgilangan muddatlarda, shuningdek amalga oshirilgan ishlar haqidagi yakuniy hisobotni taqdim etadi.

Markaziy bank vaqtinchalik boshqaruvchining zimmasiga ushbu Qonunga muvofiq choralar ko‘rish, shu jumladan bank aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig’ilishini chaqirish va kapitalni ko‘paytirish to‘g’risida talab qo‘yish majburiyatini yuklatishga haqli.

Vaqtinchalik boshqaruvchi o‘n ikki oygacha bo‘lgan muddatga tayinlanadi. Bu muddat alohida hollarda Markaziy bank tomonidan uzaytirilishi mumkin.

Bankda vaqtinchalik boshqaruvni amalga oshirish tartibi Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

Oldingi tahrirga qarang.

7-bob. Banklar va bank faoliyati to‘g’risidagi qonunchilikni buzganlik uchun Markaziy bank tomonidan qo‘llaniladigan choralar hamda sanksiyalar

(7-bobning nomi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

53-modda. Choralarning va sanksiyalarning qo‘llanilishi

Markaziy bank ushbu Qonunning 54, 55 va 56-

moddalarida koʻrsatilgan qoidabuzarliklar uchun javobgar boʻlgan bankka, uning kuzatuv kengashi va boshqaruvi aʼzolariga, shuningdek bankning muhim ahamiyatga ega xodimlariga nisbatan choralar va sanksiyalar qoʻllashga haqli.

Qoidabuzarliklar qoʻpol, jiddiy va juzʼiy qoidabuzarliklarga boʻlinadi.

Choralar va sanksiyalarni qoʻllash tartibi Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

Choralar va sanksiyalar qoʻllanilganda Markaziy bank quyidagilarni hisobga oladi:

tavakkalchilikning darajasini, qoidabuzarliklarning xususiyatini, miqyosini va oqibatlarini;

qoidabuzarliklarning tizimliligini va davomiyligini;

yoʻl qoʻyilgan qoidabuzarliklarning moliyaviy holatga taʼsirini;

qoʻllaniladigan choralar va (yoki) sanksiyalar natijasida vaziyatni oʻzgartirish imkoniyatini;

aniqlangan qoidabuzarliklarning va (yoki) tavakkalchiliklarning yuzaga kelishiga olib kelgan sabablarni;

ilgari qoʻllanilgan choralar va sanksiyalarning samaradorligini (natijadorligini);

bank, bevosita va bilvosita aksiyador tomonidan, shu jumladan oxirgi benefitsiar mulkdor, kuzatuv kengashining va boshqaruvning aʼzosi, bankning muhim ahamiyatga ega xodimi tomonidan qoidabuzarliklarni bartaraf etishga qaratilgan mustaqil choralar koʻrilishini.

54-modda. Qoʻpol qoidabuzarliklar

Qoʻpol qoidabuzarliklar jumlasiga quyidagilar kiradi:

litsenziya va ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarning qalbaki hujjatlardan foydalangan holda olinganligi;

sodir etilishi uchun oldindan Markaziy bankning ruxsatini olish talab etiladigan harakatlarning ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni olmay turib amalga oshirilganligi;

bankning yoki banklar guruhining faoliyatidagi qoʻpol qoidabuzarliklarni bartaraf etish toʻgʼrisidagi Markaziy bank koʻrsatmalarining belgilangan muddatda bajarilmaganligi;

foydani taqsimlashda ushbu Qonunning 39-moddasida koʻrsatilgan talablarning bajarilmaganligi;

bank ustav kapitali miqdori bank ustav kapitalining eng kam miqdoriga nisbatan belgilangan talabga muvofiq emasligi;

bank yoki banklar guruhi kapitali monandligi koeffitsiyentining olti oydan koʻproq muddat davomida Markaziy bank tomonidan belgilangan yoʻl qoʻyiladigan eng kam miqdordan sakson foizgacha va undan kamroq foizgacha pasayganligi;

bank aktivlari boʻyicha ehtimoliy yoʻqotishlarga qarshi yetarlicha zaxiraning mavjud emasligi;

litsenziyada nazarda tutilmagan moliyaviy operatsiyalar amalga oshirilganligi;

ushbu Qonun bilan taqiqlangan yoki cheklangan faoliyat amalga oshirilganligi;

bankka aloqador boʻlgan shaxslar bilan ancha qulay shartlar asosida bitimlar tuzilganligi;

buxgalteriya hisobining hisobotga oid ma'lumotlar buzilishiga olib keladigan va bankning yoki banklar guruhining haqiqiy moliyaviy ahvolini aks ettirish imkonini bermaydigan qoidabuzarliklar bilan yuritilganligi;

auditorlik tashkilotiga bankning auditorlik tekshiruvini oʻtkazish uchun zarur boʻlgan moliyaviy hisobotlar va boshqa moliyaviy axborotlar taqdim etilmaganligi;

Markaziy bank tomonidan nazorat vazifalari bajarilishiga toʻsqinlik qilinganligi;

bank xizmatlari iste'molchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilganligi;

Markaziy bankka axborotni taqdim etmaganlik, oʻz vaqtida taqdim etmaganlik yoki bankning yoki banklar guruhining toʻlov layoqatini yoxud likvidligini baholashni oʻtkazishga toʻsqinlik qiluvchi buzilgan yoki toʻliq boʻlmagan axborot taqdim etilganligi;

oxirgi benefitsiar mulkdorlar toʻg'risidagi axborotning oshkor etilmaganligi;

boshqaruvning tashkiliy tuzilmasida, ichki nazoratda, shuningdek tavakkalchiliklarni boshqarish tizimida bankning toʻlov layoqatiga tahdid soluvchi yoki zarar koʻrilishiga olib keluvchi nuqsonlarning mavjudligi;

tizimli ahamiyatga ega banklar tomonidan Markaziy bankning bufer kapitaliga oid talablariga rioya etilmaganligi;

bank tomonidan ayrim moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish

yoki filiallar ochishga doir cheklovlarga va (yoki) taqiqqa rioya etilmaganligi;

bank tomonidan bankning moliyaviy ahvolini tiklash rejasi taqdim etilmaganligi;

bankning kuzatuv kengashi va boshqaruv a’zolari, shuningdek muhim ahamiyatga ega xodimlarining ushbu Qonunning 36-moddasi talablariga muvofiq emasligi;

Oldingi tahrirga qarang.

bank siri to‘g’risidagi qonunchilik, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg’in qurolining tarqatilishini moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g’risidagi qonunchilik talablari buzilganligi;

(54-modda birinchi qismining yigirma uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

jiddiy qoidabuzarlik uchun Markaziy bank tomonidan jarima qo‘llanilganidan keyin besh yil davomida takroran sodir etilgan xuddi shunday qoidabuzarlik.

55-modda. Jiddiy qoidabuzarliklar

Jiddiy qoidabuzarliklar jumlasiga quyidagilar kiradi:

prudensial normativlarga rioya etilmaganligi, bundan bank ustav kapitalining eng kam miqdoriga oid talablar mustasno;

bank yoki banklar guruhi kapitali monandligi koeffitsiyentining olti oydan ko‘p bo‘lmagan muddat davomida Markaziy bank tomonidan belgilangan yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdordan sakson foizgacha va undan kamroq foizgacha pasayganligi;

banklar tomonidan to‘lovlarning o‘z vaqtida o‘tkazilmaganligi;

moliyaviy ahvoli barqaror bo‘lmagan qarz oluvchilarning kreditlari restrukturizatsiya qilinganligi;

Markaziy bankning aniqlangan qoidabuzarliklar to‘g’risida bank aksiyadorlarining umumiy yig’ilishini xabardor qilishga doir talabi bankning kuzatuv kengashi yoki boshqaruv a’zolari tomonidan bajarilmaganligi;

bankning kuzatuv kengashi yoki boshqaruv a’zolari yoxud muhim ahamiyatga ega xodimlari tomonidan korporativ boshqaruv va mukofotlash siyosatlari bajarilmaganligi;

buxgalteriya hisobini yuritish va hisobotlarni tuzish qoidalari buzilganligi;

Oldingi tahrirga qarang.

xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyat (harakatlar) Markaziy bankni belgilangan tartibda xabardor qilmay amalga oshirilganligi yoki tugatilganligi;

(55-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-oktabrdagi O‘RQ-721-sonli Qonuniga asosan to‘qqizinchi xatboshi bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son)

juz’iy qoidabuzarlik uchun Markaziy bank tomonidan jarima qo‘llanilganidan keyin uch yil davomida takroran sodir etilgan xuddi shunday qoidabuzarlik.

56-modda. Juz’iy qoidabuzarliklar

Oldingi tahrirga qarang.

Juz’iy qoidabuzarliklar jumlasiga mazkur Qonunning 54 va 55-moddalariga muvofiq qo‘pol yoki jiddiy qoidabuzarlik hisoblanmaydigan, banklar va bank faoliyati to‘g’risidagi qonunchilik talablariga javob bermaydigan nomuvofiqliklar kiradi.

(56-moddaning matni O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

57-modda. Qo‘pol qoidabuzarliklar uchun choralar va sanksiyalar

Qo‘pol qoidabuzarliklarni sodir etganlik uchun Markaziy bank:

Oldingi tahrirga qarang.

banklar va bank faoliyati to‘g’risidagi qonunchilikni buzgan holda amalga oshirilgan moliyaviy operatsiyalardan olingan daromadlarning miqdorini aniqlash imkoni bo‘lsa, bankdan ushbu daromadlarning ikki baravari miqdoridan yoki bank tomonidan o‘tgan moliya yili davomida olingan sof foydaning besh foizi yoki bank jami kapitalining bir foizi miqdoridan ortiq bo‘lmagan miqdorda jarima undirishga;

(57-modda birinchi qismining ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

ushbu Qonun 51-moddasining ikkinchi qismida koʻrsatilgan choralarni bankka nisbatan alohida holda yoki jamlangan tarzda qoʻllashga;

litsenziyani chaqirib olishga;

bank kuzatuv kengashining, boshqaruvining a’zosidan yoki muhim ahamiyatga ega xodimidan jarima qoʻllanilayotgan oydan avvalgi bir yil ichida olingan mukofotning yuz foizidan ortiq boʻlmagan miqdorda jarima undirishga;

qoidabuzarliklar, qoidabuzarlarga nisbatan qoʻllanilgan choralar va sanksiyalar toʻgʻrisidagi xabarni ommaviy axborot vositalarida e’lon qilishga haqli.

58-modda. Jiddiy qoidabuzarliklar uchun choralar va sanksiyalar

Jiddiy qoidabuzarliklarni sodir etganlik uchun Markaziy bank:

Oldingi tahrirga qarang.

banklar va bank faoliyati toʻgʻrisidagi qonunchilikni buzgan holda amalga oshirilgan moliyaviy operatsiyalardan olingan daromadlarning miqdorini aniqlash imkoni boʻlsa, bankdan ushbu daromadlarning bir yarim baravari miqdoridan yoki bank tomonidan oʻtgan moliya yili davomida olingan sof foydaning ikki foizi yoki bank jami kapitalining 0,5 foizi miqdoridan ortiq boʻlmagan miqdorda jarima undirishga;

(58-modda birinchi qismining ikkinchi xatboshisi Oʻzbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi OʻRQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

ushbu Qonun 51-moddasining ikkinchi qismida koʻrsatilgan choralarni bankka nisbatan alohida holda yoki jamlangan tarzda qoʻllashga;

bank kuzatuv kengashining, boshqaruvining a’zosidan yoki muhim ahamiyatga ega xodimidan jarima qoʻllanilayotgan oydan avvalgi bir yil ichida olingan mukofotning yetmish besh foizidan ortiq boʻlmagan miqdorda jarima undirishga;

qoidabuzarliklar, qoidabuzarlarga nisbatan qoʻllanilgan choralar va sanksiyalar toʻgʻrisidagi xabarni ommaviy axborot vositalarida e’lon qilishga haqli.

Banklar tomonidan toʻlovlar oʻz vaqtida amalga oshirilmagan hollarda Markaziy bank bankning aybi bilan amalga oshirilmay qolgan summaga teng miqdorda jarima solishga haqli.

59-modda. Juz’iy qoidabuzarliklar uchun choralar va sanksiyalar

Juz’iy qoidabuzarliklarni sodir etganlik uchun Markaziy bank:

Oldingi tahrirga qarang.

banklar va bank faoliyati to‘g’risidagi qonunchilikni buzgan holda amalga oshirilgan moliyaviy operatsiyalardan olingan daromadlarning miqdorini aniqlash imkoni bo‘lsa, bankdan ushbu daromadlardan yoki bank tomonidan o‘tgan moliya yili davomida olingan sof foydaning bir foizi yoki bank jami kapitalining 0,1 foizi miqdoridan ortiq bo‘lmagan miqdorda jarima undirishga;

(59-modda birinchi qismining ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

ushbu Qonun 51-moddasining ikkinchi qismida ko‘rsatilgan choralarni bankka nisbatan alohida holda yoki jamlangan tarzda qo‘llashga;

bank kuzatuv kengashining, boshqaruvining a’zosidan yoki muhim ahamiyatga ega xodimidan jarima qo‘llanilayotgan oydan avvalgi bir yil ichida olingan mukofotning ellik foizidan ortiq bo‘lmagan miqdorda jarima undirishga;

qoidabuzarga nisbatan choralar va sanksiyalar qo‘llanilishi to‘g’risida yozma ogohlantirish yuborishga haqli.

8-bob. Banklararo operatsiyalar va mijozlarga xizmat ko‘rsatish

60-modda. Banklararo operatsiyalar

Banklar shartnoma asosida pul mablag’larini depozitlar, kreditlar shaklida bir-biridan jalb etishi va bir-biriga joylashtirishi, hisob-kitob markazlari va vakillik hisobvaraqlari orqali hisob-kitoblarni amalga oshirishi hamda litsenziyada nazarda tutilgan boshqa moliyaviy operatsiyalarni bajarishi mumkin.

Markaziy bank sog’lomlashtirish rejimida bo‘lgan banklar uchun banklararo operatsiyalar bo‘yicha qo‘shimcha limitlar belgilashga haqli.

61-modda. Banklar va ularning mijozlari o‘rtasidagi munosabatlar

Banklar va ularning mijozlari o‘rtasidagi munosabatlar shartnomalar asosida amalga oshiriladi.

Mijozlar o‘zlari tanlagan bitta yoki bir necha bankda milliy va chet el

valyutasida bank hisobvaraqlari ochishga haqli.

Bank hisobvaraqlarini ochish, yuritish va yopish, shuningdek banklar va ularning mijozlari o‘rtasidagi milliy va chet el valyutasidagi hisob-kitoblar tartibi Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

62-modda. Kreditlar, depozitlar bo‘yicha foiz stavkalari va bank operatsiyalariga oid vositachilik haqi miqdori

Kreditlar, depozitlar bo‘yicha foiz stavkalari, bank operatsiyalariga oid vositachilik haqi miqdori bank tomonidan mustaqil belgilanadi.

Bank mijozlar bilan tuzilgan shartnomalar shartlarini, shu jumladan kreditlar bo‘yicha foiz stavkalarini va ularni belgilash tartibini, depozitlar bo‘yicha foiz stavkalarini, vositachilik haqi miqdorini va ushbu shartnomalarning amal qilish muddatlarini bir taraflama o‘zgartirish huquqiga ega emas.

63-modda. Kreditlarning qaytarilishini ta’minlash

Banklar garov, kafolatlar, kafillik, majburiyatlar asosida va majburiyatlar bajarilishini ta’minlashning qonunda nazarda tutilgan boshqa usullari asosida kreditlar beradi.

Oldingi tahrirga qarang.

Qarz oluvchi tomonidan shartnomaga doir majburiyatlar buzilgan taqdirda, banklar taqdim etilgan kreditlarni va ular bo‘yicha hisoblangan foizlarni shartnomada nazarda tutilgan tartibda muddatidan ilgari undirishga, shuningdek undiruvni qonunchilikda belgilangan tartibda garovga qo‘yilgan mol-mulkka qaratishga haqli.

(63-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi), ushbu Qonun 7-moddasining uchinchi qismida ko‘rsatilmagan va uning talablariga muvofiq bo‘lmagan aksiyalari hamda ulushlari banklar tomonidan ta’minot sifatida qabul qilinishi mumkin emas.

Banklar ta’minlanmagan kredit (ishonchga asoslangan kredit) berish to‘g’risida qaror qabul qilishi mumkin.

Banklarga o‘z aksiyalarini garovga qo‘yish evaziga kredit berish taqiqlanadi.

Ushbu moddada belgilangan normalar banklarning kafolatlar berishga oid moliyaviy operatsiyalarni ta’minlashga nisbatan ham tatbiq

etiladi.

64-modda. Qarzdorni to‘lovga qobiliyatsiz deb e’lon qilish

Bank qarzni to‘lash bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarmayotgan qarzdorning bankrotligi to‘g’risida ish qo‘zg’atish haqidagi ariza bilan iqtisodiy sudga murojaat qilishga haqli.

Keyingi tahrirga qarang.

9-bob. Bank xizmatlari iste’molchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish

65-modda. Bank xizmatlarini ko‘rsatish

Bank xizmatlarining iste’molchilari bankni va bank xizmatlarini tanlashda erkindir. Banklar iste’molchining talabiga binoan unga bank xizmatlarini ko‘rsatish shartlari bilan tanishish imkoniyatini taqdim etishi shart.

Bank shaxsni bankning xizmatidan yoki mahsulotidan foydalanish sharti sifatida bankning yoki o‘zga uchinchi shaxsning boshqa bank xizmatidan yoki mahsulotidan foydalanishga majbur qilmasligi kerak.

66-modda. Bank xizmatlari to‘g’risidagi axborotni oshkor qilish

Bank xizmatlari ko‘rsatishning umumiy shartlari, vositachilik haqi, tariflar va bank xizmatlari ko‘rsatganlik uchun foiz stavkalari to‘g’risidagi axborot ochiq axborot bo‘lib, ular bankning rasmiy veb-saytida e’lon qilinadi. Mazkur axborot tijorat yoki bank sirining predmeti bo‘lishi mumkin emas.

Bank xizmatlari ko‘rsatish shartnomasi tuzilguniga qadar iste’molchiga ular to‘g’risidagi axborotning to‘liq oshkor qilinishi ta’minlanishi kerak. Ko‘rsatiladigan bank xizmatlarining shartlari va qiymati haqidagi axborotni mijozga taqdim etishni rad qilishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Banklar kredit berish qanday shartlar asosida amalga oshirilayotganligi haqida, shu jumladan kreditning (qarzning) to‘liq qiymati to‘g’risida mijozga axborot berishi kerak.

Kreditning (qarzning) to‘liq qiymati deganda hisob-kitob qilish chog’ida qarz oluvchining kredit (qarz) olish bilan bog’liq to‘lovlari hisobga olinadigan ishonchli, yillik va samarali tarzda hisoblab chiqarilgan foiz stavkasi tushuniladi. Kreditning (qarzning) to‘liq qiymati hisob-kitobiga qarz oluvchining to‘lovlari, shu jumladan uchinchi shaxslar foydasiga to‘lovlari, agar qarz oluvchining bunday to‘lovlar bo‘yicha majburiyati shartnoma shartlaridan kelib chiqsa va (yoki), agar kredit (qarz) berish

bunday to‘lovlarni amalga oshirishga bog’liq qilib qo‘yilgan bo‘lsa, kiritiladi.

Bank xizmatlari ko‘rsatishning umumiy shartlaridagi o‘zgarishlar ular kuchga kirishidan kamida o‘n kun oldin bankning rasmiy veb-saytida e’lon qilinishi kerak, shuningdek foiz stavkalarining va valyutalarni ayirboshlash kursining o‘zgarishi to‘g’risidagi axborot ular o‘zgargan kuni e’lon qilinadi.

67-modda. Omonatchilarning huquqlari

O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar bank omonatchilari bo‘lishi mumkin.

Omonatchilar o‘ziga tegishli pul mablag’larini omonatlarga joylashtirish uchun bankni tanlashda erkindir va bir yoki bir nechta bankda omonatlarga ega bo‘lishi mumkin.

68-modda. Murojaatlarni ko‘rib chiqish

Banklar mijozlarning murojaatlarini ko‘rib chiqish tartib-taomilini o‘z ichiga olgan tartibga ega bo‘lishi shart. Mijozlarning murojaatlari bankka kelib tushgan kundan e’tiboran o‘n besh kundan kechiktirmay, qo‘shimcha o‘rganish va (yoki) tekshirish, qo‘shimcha hujjatlarni so‘rab olish talab etilganda esa bir oygacha bo‘lgan muddatda ko‘rib chiqilishi va yozma yoki elektron shaklda javob berilishi kerak.

Mijozlarning murojaatlarini ko‘rib chiqish natijalariga oid hujjatlar kamida uch yil saqlanishi kerak.

69-modda. Monopoliyaga qarshi qoidalar

Banklarga moliyaviy operatsiyalar bozorini monopollashtirish va bank sohasida raqobatni cheklashga qaratilgan bitimlarga erishish uchun o‘z uyushmalaridan va boshqa birlashmalaridan foydalanish taqiqlanadi.

Oldingi tahrirga qarang.

Banklarning monopoliyaga qarshi qoidalarga rioya etishi Markaziy bank tomonidan, shuningdek qonunchilikka muvofiq monopoliyaga qarshi organ tomonidan nazorat qilinadi.

(69-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

10-bob. Banklarda hisobga olish, hisobotlar va auditorlik tekshiruvi

70-modda. Banklarda buxgalteriya hisobini yuritish

Banklar buxgalteriya hisobini Markaziy bank tomonidan belgilangan qoidalar asosida ishlab chiqilgan ichki hisob-kitob siyosatiga muvofiq tashkil etadi va yuritadi.

Banklar moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini qo‘llashi mumkin.

Banklardagi buxgalteriya hisobi:

boshqaruvga, moliyaga, soliqqa va nazoratga oid hisobotning hamda boshqa hisobotlarning ishonchliligini, ularda bankning haqiqiy moliyaviy holati va faoliyati natijalari aks ettirilishini;

bank aktivlarini va yuzaga keluvchi tavakkalchiliklarni boshqarish xavfsizligini;

bank aksiyadorlari va kuzatuv kengashi tomonidan bankning moliyaviy ahvolini va uning mansabdor shaxslarining ishini nazorat qilish imkoniyatini ta’minlashi kerak.

71-modda. Banklarning hisobotlari

Banklar Markaziy bankka moliyaviy va nazorat hisobotlarini taqdim etadi.

Bank o‘z faoliyati to‘g’risidagi hisobotlarni Markaziy bank tomonidan belgilangan shakllarda, tartibda va muddatlarda tuzadi hamda Markaziy bankka taqdim etadi.

Banklar Markaziy bankning talabiga ko‘ra konsolidatsiyalashgan, davriy, shuningdek bir martalik hisobotlarni taqdim etadi.

Bank Markaziy bankka taqdim etiladigan hisobotlarning va boshqa ma’lumotlarning yaxlitligi hamda ishonchliligi uchun javobgardir.

Oldingi tahrirga qarang.

Banklar qonunchilikka muvofiq boshqa turdagi hisobotlarni ham taqdim etadi.

(71-moddaning beshinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

72-modda. Banklar tomonidan moliyaviy hisobotlarni e’lon qilish

Banklar moliyaviy hisobotlarni, banklar guruhining asosiy banki konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni ularda ko‘rsatilgan

ma’lumotlarning to‘g’riligini auditorlik tashkiloti tasdiqlaganidan keyin Markaziy bank tomonidan belgilanadigan shaklda e’lon qiladi.

Banklar o‘z mablag’lariga, kapitalga doir talablarning bajarilishiga, likvidlikka, tavakkalchiliklarning qiymatiga va boshqa muhim ko‘rsatkichlarga (normativlarga) doir axborotni oshkor etishi kerak.

73-modda. Bank operatsiyalariga doir hujjatlarni saqlash

Banklar hujjatlarni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda va muddatlarda o‘z idoraviy arxivida saqlashi shart.

74-modda. Banklarning va banklar guruhining auditorlik tekshiruvi

Oldingi tahrirga qarang.

Bank va banklar guruhi auditorlik tekshiruvining maqsadi bankning va banklar guruhining moliyaviy axboroti hamda boshqa moliyaviy ma’lumotlari to‘g’riligini va buxgalteriya hisobi to‘g’risidagi qonunchilikka hamda moliyaviy hisobotlarga oid xalqaro standartlarga muvofiqligini auditorlik tashkiloti tomonidan aniqlashdan iborat.

(74-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Banklarning yillik moliyaviy hisobotlari va banklar guruhining yillik konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisoboti auditorlik tekshiruvidan o‘tkazilishi majburiydir. Bankning va banklar guruhining auditorlik tekshiruvi Markaziy bankning talabiga ko‘ra umuman bankning yoki banklar guruhining faoliyati bo‘yicha ham, ular faoliyatining alohida yo‘nalishlari bo‘yicha ham o‘tkazilishi mumkin.

Bankning yillik moliyaviy hisoboti, banklar guruhining yillik konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisoboti to‘g’risidagi auditorlik xulosasi qonunda nazarda tutilganidan tashqari, auditorlik tashkiloti tomonidan:

bank, banklar guruhi tomonidan hisobot sanasidagi holatga ko‘ra prudensial normativlarning bajarilishini;

bankning, banklar guruhining ichki nazorati va tavakkalchiliklarini boshqarish tizimlarining tashkil etilishi Markaziy bank tomonidan qo‘yilgan talablarga muvofiqligini tekshirish natijalarini o‘z ichiga olgan bo‘lishi kerak.

Oldingi tahrirga qarang.

Auditorlik tashkilotlari bankning va banklar guruhining faoliyatini

tekshirish natijalariga koʻra moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini va buxgalteriya hisobini yuritish tartibi qonunchilikda belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlaydi (yoki tasdiqlamaydi), shuningdek bankning yillik moliyaviy hisobotiga, banklar guruhining konsolidatsiyalashgan yillik moliyaviy hisobotiga ilova qilinadigan auditorlik xulosasini beradi.

(74-moddaning toʻrtinchi qismi Oʻzbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi OʻRQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Auditorlik xulosasisiz bankning yillik moliyaviy hisoboti, shuningdek banklar guruhining konsolidatsiyalashgan yillik moliyaviy hisoboti Markaziy bank tomonidan qabul qilinmaydi va eʼlon qilinmaydi.

75-modda. Bankning va banklar guruhining auditorlik tekshiruvini amalga oshiruvchi auditorlik tashkilotiga doir talablar

Oldingi tahrirga qarang.

Bank moliyaviy hisobotining va banklar guruhi konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotining auditorlik tekshiruvi shtatida Markaziy bankning banklarda auditorlik tekshiruvlarini oʻtkazish huquqini beruvchi malaka sertifikatiga ega kamida ikki nafar auditori (auditorlik tashkiloti rahbarini hisobga olgan holda) mavjud boʻlgan auditorlik tashkiloti tomonidan oʻtkaziladi.

(75-moddaning birinchi qismi Oʻzbekiston Respublikasining 2021-yil 12-oktabrdagi OʻRQ-721-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son)

Auditorlik tashkiloti bankka aloqador shaxs boʻlmasligi va uning oldida pul majburiyatlariga ega boʻlmasligi kerak.

Bank bilan (banklar guruhining asosiy banki bilan) auditorlik tashkiloti oʻrtasida tuzilgan shartnomalarda auditorlik hisobotining Markaziy bankka topshirilishini cheklovchi qoidalar boʻlmasligi kerak.

Auditorlik tashkiloti:

Oldingi tahrirga qarang.

banklar va bank faoliyati toʻgʻrisidagi qonunchilik talablarining qoʻpol buzilishiga olib keluvchi;

(75-modda toʻrtinchi qismining ikkinchi xatboshisi Oʻzbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi OʻRQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

bank faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan;

Oldingi tahrirga qarang.

moliyaviy hisobotning ishonchliligi va buxgalteriya hisobini yuritish tartibi qonunchilikda belgilangan talablarga muvofiqligi to‘g’risida fikr bildirishni auditorlik tashkiloti tomonidan rad etishga yoki fikrlarni qo‘shimcha shart bilan bildirishga olib kelishi mumkin bo‘lgan holatlar to‘g’risida Markaziy bankni darhol xabardor etishi shart.

(75-modda to‘rtinchi qismining to‘rtinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Markaziy bankning talabiga ko‘ra auditorlik tashkiloti auditorlik hisoboti bilan bog’liq qo‘shimcha tushuntirishlar taqdim etishi kerak.

Oldingi tahrirga qarang.

Banklarda auditorlik tekshiruvini o‘tkazishning o‘ziga xos xususiyatlari, auditorning malaka sertifikatini berish tartibi Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

(75-moddaning oltinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-oktabrdagi O‘RQ-721-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son)

11-bob. Banklarni qayta tashkil etish va tugatish

76-modda. Bankni qayta tashkil etish

Oldingi tahrirga qarang.

Bankni qayta tashkil etish raqobat to‘g’risidagi qonunchilikning talablari hisobga olingan holda, aksiyadorlar umumiy yig’ilishining qaroriga muvofiq qo‘shib yuborish, qo‘shib olish, bo‘lish, ajratib chiqarish va o‘zgartirish shaklida Markaziy bankning ruxsati bilan amalga oshiriladi. Bankni qayta tashkil etish Markaziy bankning talabiga binoan ham amalga oshirilishi mumkin.

(76-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Davlat yagona ta’sischisi bo‘lgan bankni qayta tashkil etish Markaziy bank bilan kelishilgan holda vakolatli organning qarori asosida amalga oshiriladi.

Aksiyadorlar umumiy yig’ilishining bankni qayta tashkil etish

to‘g’risidagi qarori mavjudligi bankni qayta tashkil etish uchun ruxsatnoma olish to‘g’risida Markaziy bankka ariza berish uchun asos bo‘ladi.

Markaziy bank bankni qayta tashkil etishni rad etgan taqdirda, aksiyadorlar umumiy yig’ilishining bankni qayta tashkil etish to‘g’risidagi qarori haqiqiy emas deb hisoblanadi.

Bankni qo‘shib yuborish, bo‘lish, ajratib chiqarish shaklida qayta tashkil etish uchun Markaziy bankning ruxsatnomasi olinganidan keyin qayta tashkil etish natijasida yangidan vujudga keladigan har bir bankni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va litsenziya olish uchun zarur tashkiliy-texnik tadbirlar bajariladi.

Bankni qayta tashkil etish uchun Markaziy bankning ruxsatnomasi olinganligi qayta tashkil etilishi natijasida vujudga keladigan banklarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va ularga litsenziya berish uchun kafolat bo‘la olmaydi.

Qayta tashkil etilayotgan bank qayta tashkil etish jarayonini Markaziy bankning ruxsatnomasi olingan kundan e’tiboran olti oy ichida tamomlashi shart.

Qayta tashkil etish natijasida yangidan yuzaga kelgan banklarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va ularga litsenziya berish Markaziy bank tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Bankni qayta tashkil etish tartibi Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

77-modda. Litsenziyani chaqirib olish

Markaziy bank quyidagi hollarda litsenziyani chaqirib olishga haqli:

agar bank litsenziyani olganidan keyin o‘n ikki oy ichida bank faoliyatini amalga oshirishni boshlamagan, bu faoliyatdan to‘g’ridan-to‘g’ri voz kechgan yoki moliyaviy operatsiyalarni uch oydan ortiqroq muddat davomida amalga oshirmagan bo‘lsa;

litsenziya berish shartlari bank tomonidan bajarilmaganda;

ushbu Qonunning 54-moddasida ko‘rsatilgan qo‘pol qoidabuzarliklardan biri bank tomonidan sodir etilganda;

agar bank ketma-ket keluvchi uch chorakning har birida bank regulyativ kapitalining o‘n foizidan ortiq yoki muddatidan qat’i nazar, regulyativ kapitalning ellik foizidan ortiq miqdorda zarar ko‘rgan bo‘lsa yoki zarar ko‘rish ehtimoli mavjud bo‘lsa;

qayta tashkil etish natijasida bankning faoliyati tugatilganda;

aksiyadorlarning umumiy yig’ilishida bankni ixtiyoriy ravishda tugatish to‘g’risida qaror qabul qilinganda;

O‘zbekiston Respublikasida bank tashkil etgan chet davlat bankidan litsenziya chaqirib olinganda;

bank to‘lovga qobiliyatsiz bo‘lib qolganda.

Bankning to‘lovga qobiliyatsizligi deganda quyidagi hollar tushuniladi:

bank mijozlarning o‘ziga nisbatan qo‘ygan talablarini o‘n besh kun ichida to‘lashga qodir bo‘lmasa;

bankning majburiyatlari uning aktivlaridan ortib ketsa;

omonatchilar va kreditorlar tomonidan bankka ishonib topshirilgan mablag’larning butligiga xavf soluvchi har qanday boshqa holatlar mavjud bo‘lsa.

Bank boshqaruvi bankning to‘lovga layoqatsizlik holati yuzaga kelgan yoki mijozlar tomonidan talab etilgan da’volarni qanoatlantira olmaslikka oid tavakkalchilik mavjud bo‘lgan hollarda darhol Markaziy bankka xabar berishi kerak.

Markaziy bank boshqaruvining litsenziyani chaqirib olish to‘g’risidagi qarori ushbu qaror qabul qilingan paytdan e’tiboran kuchga kiradi.

Markaziy bank boshqaruvining qarori ushbu qaror qabul qilingan kuni bank rahbariyatiga imzo qo‘ydirib topshiriladi.

Bankning litsenziyasi chaqirib olinganligi to‘g’risidagi axborot mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran bir kun ichida ommaviy axborot vositalarida, shuningdek Markaziy bankning rasmiy veb-saytida e’lon qilinishi lozim.

Bankka Markaziy bank boshqaruvining litsenziyani chaqirib olish to‘g’risidagi qarori qabul qilingan paytdan e’tiboran ushbu Qonunga muvofiq banklar uchun ruxsat etilgan faoliyatni amalga oshirish taqiqlanadi, bundan bankning tugatilishi bilan bog’liq harakatlar mustasno.

78-modda. Bankning faoliyatini tugatish va bankni tugatish

Bankning faoliyatini tugatish va bankni tugatish ixtiyoriy yoki majburiy (Markaziy bank tomonidan litsenziya chaqirib olinganda) shaklda amalga oshirilishi mumkin.

Bankning faoliyatini tugatish va bankni tugatish uchun:

bank aksiyadorlari umumiy yig’ilishining bankni ixtiyoriy tugatish

to‘g’risidagi qarori;

Markaziy bank boshqaruvining bankni majburiy tugatish haqidagi qarori asos bo‘ladi.

Bankning faoliyatini tugatish va bankni tugatish, shu jumladan ixtiyoriy shaklda tugatish tartibi Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

Bankni tugatish Banklarning davlat reyestriga tegishli yozuv kiritilgan kundan e’tiboran tamomlangan deb va bank tugatilgan deb hisoblanadi.

79-modda. Ixtiyoriy tugatish

Ixtiyoriy tugatish bank aksiyadorlari (ishtirokchilari) umumiy yig’ilishining ixtiyoriy tugatish to‘g’risidagi qarori asosida, kreditorlar va omonatchilarning talablarini qanoatlantirish imkoniyati mavjud bo‘lganda hamda Markaziy bankning ruxsati olinganda amalga oshiriladi.

Bankni ixtiyoriy tugatish to‘g’risidagi qaror aksiyadorlarning umumiy yig’ilishida ishtirok etayotgan ovoz beruvchi aksiyalar egalari bo‘lgan aksiyadorlar ovozlarining to‘rtdan uch qismidan iborat ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Bank Markaziy bankka aksiyadorlarning umumiy yig’ilishi tomonidan bankni ixtiyoriy tugatish to‘g’risida qabul qilingan qaror haqida darhol yozma shaklda xabar berishi shart.

Bankni ixtiyoriy tugatishga ruxsat olish uchun bank aksiyadorlar umumiy yig’ilishining mazkur qarori qabul qilinganidan keyin besh kundan kechiktirmay Markaziy bankka quyidagi hujjatlarni ilova qilgan holda ariza beradi:

bankni tugatish to‘g’risida aksiyadorlarning umumiy yig’ilishi tomonidan tugatish sabablari ko‘rsatilgan holda qabul qilingan qaror;

aksiyadorlarning umumiy yig’ilishi tomonidan tasdiqlangan, tugatish jarayonini, kreditorlarning va omonatchilarning talablarini qanoatlantirish tartib-taomillari va muddatlari doirasidagi tashkiliy-amaliy chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan tugatish rejasi;

ixtiyoriy tugatishga ruxsat berish to‘g’risida Markaziy bankka ariza bilan murojaat etilgan paytdagi talablarni qanoatlantirish uchun mablag’lar yetarli ekanligini tasdiqlovchi balans hisoboti;

tugatish komissiyasining tarkibi to‘g’risidagi axborot va boshqa zarur ma’lumotlar.

Bankni tugatish komissiyasi oldindan Markaziy bank bilan

kelishilgan holda aksiyadorlarning umumiy yig’ilishi tomonidan tayinlanadi. Agar tugatish komissiyasi tayinlanmagan bo‘lsa, bankni tugatish bo‘yicha komissiya Markaziy bank boshqaruvining qarori bilan tashkil etiladi.

Tugatish komissiyasining rahbari va a’zolari ushbu Qonunning 36-moddasi talablariga muvofiq bo‘lishi lozim.

Markaziy bank bankni ixtiyoriy tugatishga ruxsat berish to‘g’risidagi arizani olgan kundan e’tiboran ikki oy ichida taqdim etilgan hujjatlarni ko‘rib chiqadi va quyidagi shartlar bajarilgan bo‘lsa, bankni ixtiyoriy tugatish uchun ruxsat beradi, agar:

Oldingi tahrirga qarang.

bankni ixtiyoriy tugatish to‘g’risidagi qaror qonunchilikka muvofiq qabul qilingan bo‘lsa;

(79-modda yettinchi qismining ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

bank to‘lovga layoqatli bo‘lsa;

bank tomonidan taqdim etilgan hujjatlarda to‘liq va yetarli ma’lumotlar mavjud bo‘lsa;

taqdim etilgan tugatish rejasi kreditorlar va omonatchilarning talablari to‘liq qanoatlantirilishi uchun imkoniyatlar bo‘lishini ta’minlasa;

bank Markaziy bankning so‘rovnomasiga ko‘ra bankni ixtiyoriy tugatishga ruxsat berish shartlari bajarilganligini aniqlash uchun zarur bo‘lgan qo‘shimcha hujjatlarni belgilangan muddatda taqdim etgan bo‘lsa.

Markaziy bank salbiy qaror qabul qilgan taqdirda ixtiyoriy tugatishga ruxsat berish rad etilgani to‘g’risidagi asoslantirilgan qarorni bankning kuzatuv kengashiga yetkazadi. Zarur hollarda Markaziy bank tugatish rejasi va jadvalining qayta ko‘rib chiqilishini yoki qo‘shimcha hujjatlar va axborot taqdim etilishini talab qilishi mumkin.

Markaziy bank ixtiyoriy tugatish uchun ruxsat berganidan keyin bank litsenziyasini chaqirib oladi.

Agar ixtiyoriy tugatish jarayonida bank to‘lovga layoqatsiz ekanligi aniqlansa, tugatish komissiyasi zudlik bilan Markaziy bankka xabar berishi hamda bankning moliyaviy ahvolini tasdiqlovchi tegishli hisobot va hujjatlarni taqdim etishi kerak.

Markaziy bank ushbu moddaning o‘ninchi qismida ko‘rsatilgan

hujjatlarni ko‘rib chiqadi va ushbu Qonunning 77-moddasi ikkinchi qismida ko‘rsatilgan asoslardan birontasi mavjud bo‘lgan taqdirda, bankning to‘lovga layoqatsizligi to‘g’risida qaror qabul qiladi va majburiy tugatish jarayonini boshlab yuboradi.

80-modda. Majburiy tugatish

Bank Markaziy bank boshqaruvining litsenziyani chaqirib olish to‘g’risidagi qarori asosida majburiy tugatiladi.

Bankni majburiy tugatish chog’ida tugatish komissiyasi Markaziy bank tomonidan tayinlanadi.

Markaziy bank tugatish komissiyasi tarkibiga Markaziy bank xodimlarini kiritishga haqli.

81-modda. Tugatish komissiyasining vakolatlari

Tugatish komissiyasi tayinlangan paytdan e’tiboran bank ishlarini boshqarish bo‘yicha, shu jumladan bank aksiyadorlarining umumiy yig’ilishi, kuzatuv kengashi va boshqaruvi vakolatlari ushbu komissiyaga o‘tadi.

Tugatish komissiyasi tayinlangan sanadan e’tiboran ikki kun ichida ommaviy axborot vositalarida, shuningdek bankning rasmiy veb-saytida bank tugatilganligi, shu jumladan uning omonatchilari va kreditorlari tomonidan talablarni qanoatlantirish to‘g’risidagi arizalarni berish tartibi va muddatlari to‘g’risidagi e’lonni chop etishi shart. Talablarni taqdim etish muddati bank tugatilganligi to‘g’risidagi xabar e’lon qilingan kundan e’tiboran ikki oyni tashkil etadi va mazkur muddat tugaganidan so‘ng tugatish komissiyasi tomonidan talablar qabul qilinmaydi.

Oldingi tahrirga qarang.

Tugatish komissiyasi qimmatli qog’ozlar bozori to‘g’risidagi qonunchilikka muvofiq axborotni ham oshkor qilishi kerak.

(81-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Tugatish komissiyasi litsenziya chaqirib olingan kundan e’tiboran ikki oy ichida kreditorlarni aniqlash hamda debitorlik qarzlarini va Markaziy bankning majburiy zaxiralar jamg’armasida depozitga qo‘yilgan mablag’larni olish choralarini ko‘radi. Mazkur mablag’lar birinchi navbatda tugatilayotgan bankning qarzlarini jismoniy shaxslarning talablari asosida to‘lashga qaratiladi, bundan bankka aloqador bo‘lgan shaxslar mustasno.

12-bob. Yakunlovchi qoidalar

82-modda. Nizolarni hal etish

Oldingi tahrirga qarang.

Bank va uning mijozlari o‘rtasidagi nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal qilinadi.

(82-moddaning matni O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Oldingi tahrirga qarang.

83-modda. Banklar va bank faoliyati to‘g’risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik

Banklar va bank faoliyati to‘g’risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

(83-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

(Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 06.11.2019-y., 03/19/580/3994-son; 07.01.2020-y., 03/20/600/0023-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son; 20.04.2023-y., 03/23/831/0219-son; 29.11.2023-y., 03/23/880/0905-son; 07.02.2024-y., 03/24/905/0106-son; 22.02.2024-y., 03/24/911/0142-son)

13.3. Makroiqtisodiy rivojlanishda banklarning o‘rni

O‘zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to‘g’risida»gi Qonuniga ko‘ra banklar o‘z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, manfaatlarini himoya qilish va birgalikdagi dasturlarni amalga oshirish maqsadlarida turli uyushmalar, ittifoqlar va birlashmalar tuzishlari mumkin.

Ana shunga asosan 1995-yilda respublikada faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat banklari tomonidan O‘zbekiston banklari Assotsiatsiyasi (uyushmasi) tashkil etildi. Assotsiatsiyaning ta’sis sezdi 1995-yil 28-iyulda bo‘lib o‘tdi. Unda hukumat muassasalari, mamlakatda faoliyat ko‘rsatayotgan banklar va jahonning yetakchi moliyaviy tashkilotlaridan 600 dan ortiq vakillar qatnashdilar. Syezdda Assotsiatsiyaning Ustavi qabul qilindi va O‘zbekiston

bank tizimini rivojlantirishning kompleks dasturi tasdiqlandi.

Bugungi kunda mamlakatdagi barcha banklarni birlashtirgan banklar Assotsiatsiyasi O‘zbekiston bozor iqtisodiyotida o‘ziga xos, noyob tashkilot hisoblanadi va boshqa banklarning qonuniy manfaatlarini himoya qiluvchi, bank infratuzilmalarini rivojlantirishga qobil bo‘lgan, o‘z a’zolariga kadrlar va ilmiy ta’minot borasida xizmat ko‘rsatuvchi, muvofiq qonun bazasini tashkil etuvchi qudratli moliyaviy va o‘quv - xoldingini namoyon qiladi.

Assotsiatsiyaning **bosh maqsadi** – mamlakat tijorat banklarini xalqaro andozalar darajasiga ko‘tarish va ularning jahon bank tizimiga integratsiyasini (qo‘shilishini) ta’minlashdir.

O‘tgan qisqa davr ichida O‘zbekiston banklari Assotsiatsiyasi tomonidan amalga oshirilgan e’tiborga molik tadbirlar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

1. Assotsiatsiya tashabbusi bilan mamlakatdagi barcha tijorat banklari ikki yil muddatga (1995-1998 y.y.) **soliqlardan ozod etildi**. Ushbu mablag’larning 50 foizi Assotsiatsiya orqali banklararo xarakterga ega bo‘lgan tadbirlarga, qolgan 50 foizi esa bevosita banklarni rivojlantirishga (binolar, kompyuterlar, aloqa va transport vositalarini sotib olish va boshqalarga) sarflandi.

2. Assotsiatsiya tomonidan bank xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirishlarining uzluksiz 5 bosqichli tizimi ishlab chiqildi va unga ko‘ra:

a) 1996-yilda har yili 3000 o‘quvchi ta’lim oladigan jami 39 ta, shu jumladan, Toshkent shahrida – 13 ta, Nukus shahri va viloyat markazlarida 2 tadan **ixtisoslashgan bank sinflari** ochildi;

b) Toshkent, Samarqand, Urganch, To‘rtko‘l shaharlari va Andijon viloyati Oltinko‘l tumanida ixtisoslashgan **bank kollejlari** tashkil etildi;

v) Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti va Toshkent moliya institutlarida bank mutaxassisligi talabalari uchun **maxsus stipendiyalar** joriy qilindi;

g) 1996-yilda bank xodimlarining malakalarini oshirish bo‘yicha **Mintaqaviy Bank O‘quv Markazi** (RBUS) o‘z faoliyatini boshladi;

d) Chet el banklari va moliya muassasalari bilan birgalikda bank, moliya va soliq sohalari uchun malakali mutaxassislarni tayyorlash maqsadida 1996-yilda **Bank -moliya akademiyasi** ish boshladi;

1. Moliya bozorida xizmatlarning sifat jihatidan yangi turlarini taklif

etish maqsadida 12 ta kompaniya tashkil etildi. Ular quyidagilar:

- mamlakat bank sektorining sug'urta himoyasini ta'minlash uchun **«Ishonch» Banklararo sug'urta jamiyati** tashkil etildi;

- ixtisoslashgan bank sinflari, litsey, bank kollejlari va iqtisodiy oliy o'quv yurtlarida o'qitishning umumiy konsepsiyasini ishlab chiqishda qatnashish, o'quv rejalari va dasturlarini ishlab chiqish, takomillashtirish va qo'llash, o'quv qo'llanmalar va o'quv - dasturiy qo'llanmalar chop etish hamda seminarlar o'tkazish, o'qituvchilar malakasini oshirish uchun o'qitishni uyushtirish va boshqa maqsadlar uchun **«Ta'lim-taraqqiyot»** o'quv-uslubiy markazi tashkil etildi;

- Assotsiatsiya tomonidan tashkil etilgan **«Axborot Reyting» Banklararo reyting kompaniyasi** Kredit tashkilotlarining ishonchlilik darajasi qiyosiy tahlilini o'tkazish uchun foydalaniladigan axborot maydonini shakllantirish bilan shug'ullanadi;

- fuqarolarning banklarga qo'yilgan omonatlarini himoya qilish maqsadida **«Omonat himoya»** sug'urta jamg'armasi tashkil etildi;

- kichik va xususiy biznes hamda xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, bozorni yuqori sifatli mahalliy xalq iste'moli tovarlari bilan to'ldirish, tovar, ish va xizmatlarga bo'lgan talabni qondirish maqsadida **«Baraka» Universal lizing kompaniyasi hamda o'zbek-amerika qo'shma korxonalari «O'zkeysagrolizing» va «O'zKeysServis» tashkil etildi;**

- mamlakatda bank binolarini qurish, ularni eng zamonaviy bank texnologiyalari va moliyaviy xizmatlar bilan ta'minlash, yangi ofis jihozlari hamda xalqaro andozalarga mos moliyaviy telekommunikatsiyalarni sinab ko'rish maqsadlarida **«Moliya Binokor Xizmat» sho'ba korxonasi** tashkil etildi;

- bank, moliya va soliq ishlari bo'yicha mamlakatda xalqaro talablarga javob beradigan malakali mutaxassislar tayyorlash maqsadida 1996-yilda Bank- Moliya akademiyasi tashkil etildi;

- to'lov tizimini takomillashtirishga katta ahamiyat berilgan holda, 1996-yil oxirida bank tizimlari va axborot texnologiyalari bo'yicha faoliyat ko'rsatadigan **«Plastik Kart» banklararo innovatsion kompaniyasi** tashkil etildi;

- tijorat banklarining qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida 1996- yilda **«Moliya Huquq Xizmat» banklararo huquqiy xizmat**

markazi tashkil etildi;

- Milliy va xorijiy qimmatbaho qog’ozlar bozoriga bank kapitalini jalb etish va undan samarali foydalanish maqsadida **«Invest trast» investitsion trast kompaniyasi** tashkil etildi;
- bank muassasalari tarmog’ini kengaytirish, ularning moddiy – texnik va injener-texnik ta’minoti darajasini salmoqli ravishda ko‘tarish maqsadida Malayziyaning ixtisoslashgan firmasi bilan birgalikda qo‘shma korxona sifatida **«Hamroh loyiha Invest» loyiha – injiniring va konsalting kompaniyasi** tashkil etildi.

Hozirgi paytda O‘zbekiston banklari Assotsiatsiyasining Qoraqalpog’iston Respublikasi, Jizzax va Farg’ona viloyatlarida filiallari faoliyat ko‘rsatmoqda. Assotsiatsiya mamlakat bank-moliya muassasalarining xalqaro va mintaqaviy moliya tashkilotlariga integratsiyasini chuqurlashtirish maqsadlarida Yevropa va Amerikaning deyarli barcha banklar Assotsiatsiyalari hamda Osiyo banklar Assotsiatsiyasi va Tinch okeani moliya va rivojlanish institutlari Assotsiatsiyasi (AFIRAT) bilan faol hamkorlik qilib kelmoqda.

Asosiy tushunchalar:

Ixtisoslashgan banklar, universal banklar, davlat banklari, davlat aksiyadorlik banklari, aksiyadorlik banklar, xususiy banklar, qo‘shma banklar, bank tizimi, ikki pog’onali bank tizimi, banklar (assotsiatsiya) uyushmasi.

Mavzuni mustahkamlovchi savollar

1. Bank tizimi deganda nima tushuniladi?
2. O‘zbekistonda necha pog’onali bank tizimi amal qilmoqda?
3. O‘zbekistonda 1991-yil 15-fevralda qabul qilingan «Banklar va bank faoliyati to‘g’risida»gi Qonunda nimalar asoslandi?
4. O‘zbekistonda 1995-yil 21-dekabrda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g’risida»gi Qonunda nimalar ko‘zda tutilgan?
5. O‘zbekiston Respublikasi banklari Assotsiatsiyasining tashkil etilishidan asosiy maqsad nimadan iborat?
6. Assotsiatsiya tashabbusi bilan mamlakatdagi barcha tijorat banklari ikki yil muddatga (1995-1998 y.y.) soliqlardan ozod etilgan mablag’lar

qaysi maqsadlarda ishlatildi?

7. Assosiasiya tomonidan bank xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirishlarining uzluksiz 5 bosqichli tizimi ishlab chiqildi va unga koʻra qanday ishlar amalga oshirildi?

8. Moliya bozorida xizmatlarning sifat jihatidan yangi turlarini taklif etish maqsadida 12 ta tashkil etilgan kompaniyalar qanday vazifalarni amalga oshiradi?

9. Xususiy tijorat banklarini tashkil qilishning ahamiyatli jihatlari nimada?

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki o‘z vazifalarini bajarishda mustaqildir.
O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tashkil etish tartibi qonun bilan belgilanadi

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi XXVI bob. 147-modda

XIV BOB. MARKAZIY BANK VA UNING FUNKSIYALARI

14.1. Markaziy banklarning vujudga kelishi va vazifalari
14.2. Markaziy banklarning rivojlanish bosqichlari
14.3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining maqsadi va funkctiyalari
14.4. Markaziy bankning mustaqilligi

14.1. Markaziy banklarning vujudga kelishi va vazifalari

Markaziy banklarning vujudga kelishiga asosiy sabab mamlakatda banknotalarni muomalaga chiqarilishi va ularni ishonchli banklar qo‘lida markazlashtirish zaruratidir.

Davlat qonuniy yo‘l bilan markaziy banklarni qo‘llab-quvvatlagan va yagona emissiya bankiga aylantirgan. Dastlab vujudga kelgan banklar markaziy yoki tijorat banklariga bo‘linmagan. Ular pul mablag’larini saqlash, kredit berish va to‘lovlarni amalga oshirish bilan shug’ullanganlar, keyinchalik ular mablag’larni yig’ish maqsadida muomalaga banknotalarni chiqarganlar. Banklarning yiriklashuvi, bank ishining rivojlanishi natijasida banknotalarni muomalaga chiqarish yirik tijorat banklari qo‘liga o‘ta borgan va keyinchalik biror yirik bank ixtiyoriga berilgan. Bu bank «milliy» yoki «emission» bank, keyinchalik «markaziy bank» deb atalgan. Markaziy bank kredit tizimini boshqarib turuvchi, ya’ni, mamlakatdagi barcha banklar faoliyatini nazorat qilib turuvchi kredit muassasasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Markaziy banklarning vujudga kelishida ikki yo‘l mavjud:

Birinchi yo‘l - bu uzoq davr davomida tijorat banklarining rivojlanishi natijasida ularni milliylashtirish yo‘li bilan markaziy banklarning tashkil etilishi. Bunga misol qilib Angliyada 1844-yil, Fransiyada 1848-yil,

Ispaniyada 1874-yil, Germaniyada 1875-yil va Italiyada 1893-yilda tijorat banklarining markaziy bankka aylantirilganini ko‘rsatish mumkin.

Ikkinchi yo‘l - tashkil qilingandayoq markaziy bank, ya’ni, emission markaz sifatida qabul qilingan banklar.

Bunday banklar sifatida AQSh Federal banklari, 1913-yillarda ko‘pgina Lotin Amerikasi mamlakatlarida tashkil etilgan banklar, Avstriya banki va boshqalarni misol keltirish mumkin.

Markaziy banklar o‘z kapitalini shakllanishiga ko‘ra davlat, aksiyadorlik va aralash banklar turlariga bo‘linadi. Masalan, Angliya, Fransiya, Germaniya, Daniya va Rossiyada markaziy banklar 100% davlat mulkiga, Italiya va AQSh da esa 100% banklar mulkiga, Yaponiya, Niderlandiya, Polsha, Shveysariya va Avstriyada 50-57 % gacha davlat mulkiga asoslangan.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki 1991-yilda tashkil etilgan va to‘liq ravishda davlat mulkiga asoslangan.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va «O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g’risida»gi Qonun asosida faoliyat ko‘rsatadi hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga hisobot beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki markazlashtirilgan yagona boshqaruv tizimiga ega bo‘lib, unga Markaziy apparat hamda Qoraqalpog’iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlar bo‘yicha hududiy Bosh boshqarmalar kiradi, ya’ni:



14.1 - Chizma. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki faoliyati quyidagi maqsadlarga yo‘naltirilgan:

- milliy valyuta (so‘m)ni himoyalash va barqarorligini ta’minlash, uning xarid qobiliyati hamda xorijiy valyutalarga nisbatan kursini mustahkamlash;
- O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini rivojlantirish va mustahkamlash;
- hisob-kitoblar tizimining uzluksiz va samarali faoliyatini ta’minlash.

14.2. Markaziy banklarning rivojlanish bosqichlari

Markaziy banklar bajaradigan asosiy vazifalarni qo`yidagicha guruxlash mumkin:

- pul muomalasini tashkil etish va boshqarib borish;
- hukumat banki sifatida faoliyat ko`rsatish;
- tijorat banklarga bank xizmatlarini ko`rsatish;
- tijorat banklar faoliyatini nazorat qilish va tartibga solish;
- valyutani tartibga solish va nazorat qilish.

14.3 O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining maqsadi va funkstiyalari

1.Jahonda barcha Markaziy banklar muomalaga naqd pul, ya’ni, banknota va tangalarni chiqaradilar, pul muomalasini tashkil etadilar, milliy pul birligi barqarorligi va mustahkamligini ta’minlaydilar. Naqd pulsiz hisob- kitoblarni tashkil etadilar.

Bu vazifalarni bajarish uchun markaziy banklar quyidagilarni amalga oshiradilar:

- banknota va tangalarni tayyorlash, tashish va saqlashni tashkil qilish, shuningdek, ularning zaxiralarini yaratish;
- kredit tashkilotlari uchun naqd pulni saqlash, tashish va inkassatsiya tartibini belgilash;
- pul belgilarining yaroqliligini aniqlash, yaroqsizlarini almashtirish, ularni yo‘qotish qoidalarini belgilash;
- barcha korxona va tashkilotlar uchun kassa operatsiyalarini amalga oshirish qoidalarini belgilash;
- hukumat bilan birgalikda yagona pul-kredit siyosatini ishlab chiqish

va amalga oshirish;

- naqd va naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish qoidalarini belgilash;
- ochiq bozorda qimmatli qog'ozlar oldi- sotdisi qoidalarini belgilash;
- pul massasi o'sishi taxminlarini aniqlash;
- valyuta bozorida milliy valyutaga chet el valyutalarini sotish va sotib olish operatsiyalarini o'tkazish.

2.***Markaziy banklar o'z hukumatlariga quyidagi xizmatlarni ko'rsatadilar:***

- davlatning oltin, qimmatbaho metall va kamyob toshlari hamda valyuta zaxiralarini saqlaydi, ya'ni, davlatning «xazinaboni» hisoblanadi;
- davlatning pul-kredit, ya'ni, iqtisodiy siyosatini olib boradi. Bu siyosat muomaladagi pul massasi, kreditlar hajmi, foiz stavkalari darajasi kabi ko'rsatkichlarni o'zgartirish orqali amalga oshiriladi;
- hukumatning moliyaviy maslahatchisi hisoblanadi, ya'ni, byudjet tashkilotlariga hisob-kitob xizmatlarini ko'rsatadi va davlat byudjetining kassa ijrosini ta'minlaydi;
- davlatga kredit beradi va davlat nomidan qiymatli qog'ozlarni chiqaradi, ularni tijorat banklariga sotadi va boshqaradi.

3.Markaziy banklar hisob-kitob va kassa xizmatlarini ko'rsatish maqsadida barcha tijorat banklari uchun korrespondentlik schyotlarini ochadilar. Tijorat banklari mazkur schyotlarda o'zlarining ma'lum miqdordagi mablag'larini saqlaydilar va bir-birlari bilan hisob- kitoblar qiladilar. Agar hisob-kitoblar uchun tijorat bankining mablag'lari yetishmay qolsa, boshqa banklar yoki Markaziy bankdan kredit olishi mumkin. Markaziy bank kreditlari faqat uning barcha talablariga javob bera oladigan tijorat banklariga beriladi. Tijorat banklari o'zlarining korrespondentlik schyotlari orqali Markaziy bankdan naqd pul olishlari yoki topshirishlari mumkin, boshqacha qilib aytganda, «Markaziy bank - banklarning bankidir».

4.Markaziy bank tijorat banklari va boshqa maxsus kredit muassasalari faoliyatini nazorat qilish va tartibga solishni quyidagicha amalga oshiradi:

- bank faoliyati bilan shug'ullanishga ruxsatnoma, ya'ni, litsenziyalar beradi;
- banklar va boshqa kredit muassasalarini Davlat ro'yxatidan o'tkazadi;

- bank operatsiyalarini amalga oshirish tartib-qoidalarini belgilaydi;

- buxgalteriya hisobini yuritish va hisobotini tuzish qoidalarini o‘rnatadi;

- joylarda tijorat banklarni tekshirishlar va taftishlar o‘tkazadi.

Agar tijorat banklari va boshqa kredit muassasalari bank qonunchiligi va Markaziy bank tomonidan belgilangan tartib-qoidalar hamda ko‘rsatmalarni buzsalar, ularga nisbatan jazo choralari ko‘riladi. Bu choralar tartibbuzarlik darajasiga bog’liq bo‘lib, oddiy ogohlantirishdan tortib, toki bank faoliyati bilan shug’ullanishga berilgan litsenziyani tortib olish, ya’ni,, bankni yopishgacha boradi. Ana shu sababli «Markaziy bank – banklarning otasi» degan ibora juda o‘rinlidir.

5.Markaziy bank valyutani tartibga solish va nazorat qilish bo‘yicha quyidagilarni amalga oshiradi:

- muntazam ravishda milliy valyutani chet el valyutalariga nisbatan kursini aniqlab boradi;
- tijorat banklariga valyuta operatsiyalarini o‘tkazish bo‘yicha litsenziyalar beradi;
- tijorat banklari uchun valyuta operatsiyalarini o‘tkazish bo‘yicha tartib-qoidalarni belgilaydi;
- valyuta operatsiyalari bo‘yicha buxgalteriya hisobini yuritish, hisobotlar tuzish va taqdim etish qoidalarini o‘rnatadi;
- naqd xorijiy valyutani sotish va sotib olish, hisob-kitoblar tartibini belgilaydi;
- mamlakatga xorijiy valyutani olib kirish va olib chiqish tartibini belgilaydi.

Markaziy bank yuqorida ko‘rib chiqilgan vazifalardan tashqari yana ko‘plab vazifalarni bajaradi.

14.4. Markaziy bankning mustaqilligi

Markaziy bankning mustaqilligi va iqtisodiyotni tartibga solishdagi o‘rni ko‘p hollarda milliy urf-odatlardan va bank tizimining milliy xususiyatlaridan kelib chiqadi. Biroq, umumiy yo‘nalish (tendensiya)larni ham asosiy iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarga taqqoslagan holda ko‘rib chiqish mumkin. 70-yillar o‘rtasidan 80-yillar o‘rtalarigacha bo‘lgan davr mobaynida davlatning iqtisodiyotga amaliy aralashuvi natijasida jahonning

koʻpgina yetakchi mamlakatlarida markaziy banklarning “qudratlilik nazariyasi” tasdiqlandi. Markaziy banklarning obroʻ-eʼtibori, nufuzi oʻsdi va bu maʼmuriy boshqaruv usullarining kengayishida namoyon boʻldi.

Shu asosda koʻrilayotgan davrda markaziy banklar darajasida xalqaro aloqalar muvaffaqiyatli rivojlandi. Bunga yaqqol misol qilib, Yevropa Valyuta Tizimining tashkil topishi va Yevropa Markaziy bankini tuzish rejasini koʻrsatish mumkin.

Ushbu holatdan kelib chiqib, Markaziy bankni tartibga solish mexanizmining xarakterli xususiyatlari bilan xuddi shu davrda amal qilayotgan iqtisodiy nazariyalar yoʻnalishlari oʻrtasida yetarli darajada oʻxshashliklarni misol qilib keltirish mumkin. Davlat aralashuvi kuchaygan davrda (keynschilar tarafdorlari nazariyasi boʻyicha) Markaziy banklarning roli ham kuchaydi, tartibga solishning maʼmuriy metodlarini qoʻllash kengaydi va aksincha, monetaristlar nazariyasining taʼsiri kuchayishi va davlatning iqtisodiyotga aralashuvining kamayishi oqibatida markaziy banklarning iqtisodiyotni tartibga solishda bozor mexanizmlaridan foydalanishga majbur boʻldilar. Shunday vaziyatlarda Markaziy bank vakolatining bir qismi ichki pul kredit va valyuta siyosatidagi muammolarni yechish uchun Moliya Vazirligiga beradi.

Biroq, Gʼarb iqtisodchilari nuqtayi nazarlarining tahlili shuni koʻrsatadiki, Markaziy bankning iqtisodiyotdagi oʻrnini oʻzgarishiga subyektiv omillar ham katta taʼsir koʻrsatishi mumkin, shu jumladan, hatto bank rahbarining shaxsiy sifatlarini ajratib koʻrsatish mumkin.

Masalan, Gʼarbiy Yevropa mamlakatlar Markaziy banklarning roli oʻzgarishini oʻrganishga bagʼishlangan tadqiqotlardan bir qator iqtisodchilar 70 - yillarda markaziy banklarning kuchayishini shu milliy bank tizimining boshqaruvida koʻzga koʻringan hukumat va xalqaro doiralarda obroʻ-eʼtibori yuqori boʻlgan moliya arboblari boshqarganliklarini taʼkidlaydilar. Buning oqibatida oʻsha davrdagi milliy valyuta raqobatbardoshligiga xavf soluvchi hukumatning iqtisodiy chora-tadbirlarga qarama-qarshi “qattiq siyosat” qoʻllash mumkin boʻlgan edi.

Monetar siyosatni amalga oshiruvchi organlar farqlanishidagi uchinchi va eng katta jihat, ushbu organlarning mustaqilligi hamda bu organga davlatda berilgan iqtisodiy maqomdir. U yoki bu Markaziy bankning oʻz faoliyatidagi mustaqillik darajasini aniqlash uchun ularning mustaqillik mezoni (belgisi)ga xolis baho berish kerak. Xorijiy adabiyotlarda markaziy

banklar mustaqillikni aniqlanishing bir necha usullari qayd etilgan. Asosan markaziy banklarning iqtisodiy va siyosiy mustaqilligi ajralib (farqlanib) turadi.

Markaziy bankning mustaqilligi darajasini aniqlashda uning pul-kredit siyosatini tanlash va o‘tkazishda davlat boshqaruv organlariga ko‘proq yoki kamroq qaramligiga e’tibor beriladi.

Markaziy bankning iqtisodiy mustaqilligi - bu uning o‘z instrumentlaridan o‘zi xohlagan yo‘nalishda va chegaralanmagan miqdorda foydalana olishga aytiladi.

Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar markaziy banklarining turkumlanishi, pul-kredit siyosati masalalarini hal etishdagi mustaqilligi xorijiy adabiyotlarda turli mezonlarga qarab amalga oshiriladi.

Rivojlangan mamlakatlar Markaziy banklari mustaqilligining obyektiv omillariga baho berishda quyidagi omillarga baho berishda quyidagi mezonlarni kiritish mumkin:

- Markaziy bank kapitali va foydani aniqlashda davlatning ishtiroki;
- Bank rahbarini tayinlash (saylash)dagi tartib va ularning faoliyat ko‘rsatish muddati hamda davlat tomonidan milliy bankning faoliyatini nazorat qilish shakli;
- Markaziy bank vazifalarini aniqlashning qonunchilikda yoritilish darajasi;
- Markaziy bank rahbariyati qarorini davlat organlari o‘rnatilgan qonun bilan to‘xtatishning yoki davlatning umumiqtisodiy yo‘nalishi bilan Markaziy bankning pul kredit doirasidagi tadbirlarni tartibga solishning mavjudligi;
- Mamlakat Markaziy bankining davlat xarajatlarini to‘g’ri va egri moliyalashtirishni tartibga soluvchi qoidaning mavjudligi va uning shakllari.

Markaziy bankning kapitalida va foydani taqsimlashda davlatning ishtiroki omili Markaziy bank iqtisodiy mustaqilligining qanchalik darajadaligini ko‘rsatish. Lekin bu qaramlik ikkilamchi rol o‘ynaydi, chunki Markaziy bankning kapitali to‘g’ridan-to‘g’ri davlatga tegishli bo‘lmasa ham, qonunchilikda ma’lum sharh (izoh) mavjud bo‘ladi. Agar mavjud bo‘lmasa davlat egri usullardan foydalanadi.

Misol uchun, Avstriya milliy banki haqidagi qonunni olaylik. Bu bank xuddi hissador jamiyat shaklida tuzilgan va faoliyat ko‘rsatmoqda.

Markaziy bankning 50 % kapitali Federatsiyaga, qolgan 50 % kapitali Avstraliya huquqiy va jismoniy shaxslariga tegishli. Moliya vazirligida ruxsat olgan huquqiy va jismoniy shaxslargina ulush qo‘sha olish huquqiga egadirlar.

Bundan tashqari, ushbu qonunda Markaziy bankning funksiya va vazifalari qonunda ko‘rsatilgan. Shu sababli ulush egalari yig’ilishi chegaralangan maqsadlarni yecha oladi. Albatta, bu masala bankning iqtisodiy siyosatiga to‘g’ridan - to‘g’ri bog’liq bo‘lmaydi.

Mamlakat Markaziy bankining kapitalida 100 % davlatning ishtiroki ko‘proq Markaziy bank salohiyatiga va an’analariga hamda ulush egalariga ham bog’liq. Misol tariqasida, AQSHning Federal Rezerv tizimini va Germaniyaning Federal bankini ko‘rsatish mumkin. Ikkala Markaziy bank jahonda eng mustaqil markaziy banklar sifatida tan olingan. Shunday bo‘lsa-da, Nemis federal bankining 100 % kapitali Federatsiyaga, Federal rezerv Tizimi kapitali esa, 100 % a’zo banklarning to‘liq mulkiga tegishli. Aksincha, banklar va sug’urta kompaniyalarining mulkiga tegishli bo‘lgan Italiya Markaziy banki davlat boshqaruv organlariga qaramdir.

Bu omilning tahlilidan ko‘rinadiki, markaziy banklar kapitali egalarining tarkibidan qati nazar, ular uning pul-kredit siyosatidagi mustaqilligiga ahamiyatli ta’sir ko‘rsata olmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Gollandiya, Daniya va Rossiya kabi davlatlarning markaziy banklari guruhlari qatoriga kirishi mumkin, chunki bu guruhlar kapitalning 100 foizi davlat mulki hisoblanadi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, o‘tish iqtisodiyotida inflyatsiyani, ishsizlik darajasini keskin pasaytirish, kredit miqdori va pul massasini nazorat qilish uchun dastlab pul-kredit siyosatining bevosita usullaridan foydalaniladi. Chunki rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrining dastlabki paytlarida har qanday mamlakat iqtisodiyotida albatta turli nomutanosibliklar vujudga keladi. Ushbu nomutanosibliklar inflyatsiya darajasining o‘sish va hatto shiddatli tus olishi, moliyaviy resurslar va byudjet taqchilligi, o‘zaro qarzlar hamda davlat xarajatlari o‘sish, ishsizlik muammosi, to‘lov balansi muvozanati buzilishi va boshqa shakllarda namoyon bo‘ladi.

Markaziy bank kapitalida davlatlarning ishtiroki[46]

Mamlakatlar	Mulkdagi ulushi, foizda
Buyuk Britaniya, Daniya, Gollandiya, Rossiya, Fransiya, Germaniya	Davlat mulki 100 foiz
Shvetsariya	Xususiy shaxslar mulki 43 foiz; Kanton (ma'muriy bo'linma)lar mulki 57 foiz
Italiya	Banklar va sug'urta kompaniyalarning mulki 100 foiz
AQSH	Federal Rezerv tizimiga a'zo banklarning mulki 100 foiz
Yaponiya	Davlat mulki 55 foiz; Xususiy shaxslar mulki 45 foiz
Avstriya	Federatsiya mulki 40 foiz; yuridik va jismoniy shaxslar mulki 50 foiz

Monetar siyosatni amalga oshirish shakli, shuningdek, uning usullari va yo'nalishlari turlicha davrlarda farqlanadi. Bu holat mamlakat iqtisodiy tizimi va davlat iqtisodiy siyosatining strategik yo'nalishlaridan kelib chiqadi. Turli mamlakatlarda monetar siyosat nafaqat amalga oshirilish shakli va usuliga ko'ra, balki ushbu siyosatni amalga oshiruvchi organlar bo'yicha ham farqlanadi.

Jahon amaliyotini kuzatib va tahlil qilib turli davlatlarda monetar siyosatni amalga oshirish organlari qo'yidagi xususiyatlarga ko'ra farqlanishini ko'rish mumkin:

Birinchidan, ushbu organlar o'z nomlanishi jihatidan turli davlatlarda turlichadir. Masalan, Amerika Qo'shma Shtatlarida Federal Rezerv Tizimi, Germaniya va Qozog'istonda Milliy bank, Xitoyda xalq banki, Angliyada Angliya banki, O'zbekiston va Rossiyada esa, Markaziy bank deb nomlanadi. Ularni qanday nomlanishidan qat'iy nazar, hammalari Markaziy

[46] Центральный банк в экономической системе государств, журнал "Банковские услуги" Москва, 1999 г., №4. Стр.10

bank hisoblanadilar. Bu banklar deyarli barcha davlatlarda milliylashtirilgan va ular davlat mulki hisoblanadi.

Ikkinchidan, ushbu organlar monetar siyosatni olib borishdagi vakolat doirasiga koʻra farqlanadi. Markaziy banklarning monetar sohadagi vakolatlari uning iqtisodiyotdagi rolini belgilab beradi.

Keyingi yillarda Markaziy bankning iqtisodiyotdagi oʻrni va ahamiyati hamda uning mamlakat hududida boʻlayotgan iqtisodiy jarayonlarni tartibga solishdagi roli hamda munozarali bahslar bir necha martaba oʻzining rivojlanish yoʻnalishlarini oʻzgartirdi va buning oqibatida iqtisodiyotdagi bank tizimining birinchi pogʼonasida real oʻzgarishlar boʻlishiga sabab boʻldi, bu esa birinchi navbatda davlat boshqaruv organlariga boʻlgan munosabatlarda namoyon boʻldi. Bu muammoni tahlil etishda asosiy jihat mamlakat Markaziy bank siyosatining davlat iqtisodiy siyosati yoʻnalishiga tobeligi, yaʼni, aniqrogʻi bu tobelikning darajasiga bogʼliq. Qachonki mamlakat Markaziy bank siyosati mamlakat iqtisodiyotini tartibga solish siyosati bilan chambarchas bogʼliq boʻlsa, bunday bogʼliqlikni samarali, deb hisoblash mumkin. Lekin, shu narsa katta ahamiyatga egaki, bu ittifoq Markaziy bank tomonidan qanchalik ixtiyoriy ravishda tuzilgan va u kimga hisobdor va bank tizimida pul-kredit siyosatini tartibga solishdagi usullarni va yoʻnalishlarni tanlashda hamda qonun boʻyicha Markaziy bank mustaqilligi darajasi va bunga haqiqatda erishilganligiga ahamiyat berish lozim.

Xorijiy davlatlarda markaziy bankning mustaqilligini belgilovchi indekslar. Barcha mamlakatlarning Markaziy banklarining faoliyati Markaziy bank toʻgʼrisidagi qonun bilan tartibga solinadi. Qonunda Markaziy bank faoliyatining barcha jihatlari oʻz aksini topgan boʻlishi kerak.

Chunki, Markaziy bank uchun hukumatning boshqa qonun hujjatlari “Markaziy bank faoliyati toʻgʼrisida”gi qonun oldida ustvor emas.

Markaziy bankning siyosiy ustuvorligini koʻrsatuvchi yana bir omil, uning qonunda koʻrsatilgan faoliyati darajasi va maqsadlari hisoblanadi. Bu omil bir tomondan, Markaziy bank faoliyatining erkiniligiga chegara qoʻysa, boshqa tomondan, uning qonunda koʻrsatilgan vakolatlarni aniqlaydi.

Koʻpgina iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar (Germaniya, Shvetsariya, Fransiya, Yaponiya, Daniya, Avstriya)da Markaziy bankning faoliyat doirasi va asosiy maqsadlari Konstitutsiyada va Markaziy bank haqidagi

Qonun hamda shu kabi boshqa banklar faoliyati haqidagi qonunchilikda o‘z Nemis Federal bankning asosiy maqsad va vazifalari doirasi mamlakat Konstitutsiyasida aniq belgilab qo‘yilgan. Bu milliy davlatning barqarorligini ta’minlash kafolatidir.

Nemis Federal bank haqidagi Qonunda bosh bank tizimi oldida uch asosiy vazifa:

1. Pul muomalasini tartibga solish;

2. Iqtisodiyotni kredit bilan ta’minlashni tartibga solish;

3. To‘lov aylanmasini amalga oshirish qo‘yilgan.

Nemis Federal bankining vazifalari, maqsadlari va yo‘nalishiga yaqinroq bo‘lgan Avstriya milliy bankini misol tariqasida keltirish mumkin. Markaziy bankning vazifasi qonunda umumlashgan holda aks etgan va ayni vaqtda uning ruxsat etilgan operatsiyalari aniq ko‘rsatilgandir.

Avstriya bank qonunchiligining o‘ziga xos xususiyati, uning Markaziy bank qonunchiligida qatnashish huquqiga ega ekanligi hisoblanadi.

Pul-kredit sohasiga tegishli qonun loyihalarining hammasi Markaziy bankka ko‘rib chiqish uchun ma’lum vaqtga beriladi va uning roziligidan so‘nggina tasdiqlanadi.

Bu borada Angliya Markaziy banki mavqei o‘zgachadir. Uning asosiy vazifalari qonuniy tartibda ham qayd qilingan, shu bilan birga moliya Vazirligiga ham bo‘ysunmaydi. Angliya markaziy bankining vazifalari bu sohada urf-odatlarga tayanadi, bu esa o‘z navbatida Angliya bankining tashkil topishidagi tarixiy hujjatlariga asoslangan.

Bir qator mamlakatlarda, masalan, AQSH, Shvetsiya, Buyuk Britaniya va Italiyada Markaziy bank vazifalarining ta’rifiy qonunida qayd etilmagan yoki umumiy holda ko‘rsatilgan, xolos. Shunday bo‘lsa ham, ikkala guruhda juda mustaqil va shu bilan birga qaramroq bo‘lgan markaziy banklar bordir.

Markaziy bank mustaqilligining belgilovchi omillaridan biri, uning pul-kredit siyosatiga davlat organlarining aralashishini qonun bo‘yicha qanchalik darajada o‘rganilganligidadir. Bu omil birinchi galda Markaziy bankning siyosiy mustaqilligiga ta’sir ko‘rsatadi.

Mustaqillik darajasi nisbatan past bo‘lgan markaziy banklarga Fransiya va Italiya markaziy banklarini misol qilib ko‘rsatish mumkin.

Bu davlatlarda pul-kredit siyosati yo‘nalishini belgilash Qonun bilan mustahkamlangan. Markaziy bank esa, hukumat ko‘rsatmalarini bajaradi va

unga maslahatchi vazifasini oʻtaydi.

Davlatning pul-kredit siyosatiga aralashuvi qonunda koʻrsatilganligi va uning darajasi kengligi omiliga keyingi mamlakatlar guruhini Buyuk Britaniya, Gollandiya, Shvetsiya va Yaponiya mamlakatlari egallaydi. Bu mamlakatlarda davlat organlarining Markaziy bank siyosatiga aralashuvi, unga yoʻl-yoʻriq koʻrsatishi, uning qarorini bekor qilishi va shu kabilar Qonunda aniq belgilangan.

Angliyada davlat bilan Markaziy bank oʻrtasidagi munosabatlar 1946-yilda qabul qilingan "Angliya banki haqidagi qonun"ning 1-boʻlim 4-bandi bilan tartibga solinadi. Shu qonunga muvofiq, Moliya Vazirligi Markaziy bank ustidan sezilarli ta'sir oʻtkazish uchun rasmiy huquqqa ega hisoblanadi.

Angliya banki faoliyat koʻrsatishga nisbatan koʻproq ta'sir koʻrsatishga ega, Daniya va Avstriya Markaziy banklari esa pul-kredit siyosati yuritishda hukumatning aralashuvidan mustaqillik darajasi boʻyicha oldingi oʻrinlarda turadi. Bu davlatning qonunchiligi hukumat Markaziy bankining pul-kredit siyosatiga aralashuviga rasmiy ravishda yoʻl qoʻymaydi, biroq, markaziy banklarning hukumatning iqtisodiy siyosatiga moslab siyosat yuritishlarini oʻzaro moslashishi talab qilinadi.

Avstriya Milliy banki faoliyati ustidan Moliya Vazirligi nazorat olib boradi. Moliya vaziri bank faoliyatining qonuniyligi boʻyicha qonun oldida javobgardir. U davlat komissari va uning oʻrinbosarini tayinlaydi, ular Bosh Kengashning yig'ilishlarida oʻz ovozlari bilan ishtirok etishlari hamda dalolatnoma va tushuntirish holatlarini talab qilishlari mumkin. Davlat komissari Markaziy bank Bosh Kengashining qarorini orqaga surishga huquqi bor, bunda albatta qaror komissarning fikricha, amal qilayotgan qonunchilikka zid kelishi kerak.

Biroq, Markaziy bank qonunda koʻrsatilgan faoliyatni va operatsiyalarni amalga oshirsa, davlat komissari ham Moliya vaziri ham aralashishga haquqi yoʻq. Shu orqali bir tomondan, Avstriya Milliy banki mustaqilligi qonuni bilan mustahkamlangan, boshqa tomondan esa, davlat organlari Markaziy bank siyosatiga bevosita rahbar saylab va nazorat oʻrnatib, ta'sir koʻrsatishi mumkin.

Oxirgi toʻrtinchi guruh mamlakatlariga Germaniya va Shvetsariyani koʻrsatish mumkin, bu davlatlarning markaziy banklari eng mustaqil hisoblanadi. Bu mamlakatlar qonunchiligida davlat Markaziy bankning pul-

kredit siyosatiga aralashuvi koʻrsatilmagan. Shvetsariya Markaziy bankining hukumat iqtisodiy siyosatiga moslashishi xususida qonunchilikda qayd qilinmagan. Germaniyada Markaziy bank siyosati mamlakat hukumatidan qonun boʻyicha mustaqil qilib belgilab qoʻyilgan. 1924-yilda Germaniyada boʻlgan infilyatsiya inqirozi davrida aniq boʻldiki, Markaziy bank faoliyatini hukumat taʼsiridan chegaralash kerak. Germaniya Federativ Respublikasi emissiya bankining toʻliq mustaqilligi 1948- yilda qayta tiklandi.

AQSHning Federal Rezerv tizimidan farqli ravishda Nemis Federal banki parlamentga hisobot bermaydi, u oʻz faoliyati vakolatini "Nemis Federal bank haqida"gi qonunga muvofiq amalga oshiradi.

Markaziy bank mustaqilligining beshinchi omili hukumatning kreditlashni chegaralanganligi qonunda koʻrsatilganligida namoyon boʻladi. Hukumatning kreditlashni chegaralashi Markaziy bankning iqtisodiy mustaqilligiga ham, siyosiy mustaqilligiga ham taʼsir koʻrsatadi. Biroq, bu omil faqatgina Markaziy bank tomonidan hukumatning bevosita moliyalashtirish tizimining mavjud ekanligida ahamiyatlidir. Bunday tizim dunyoning rivojlangan mamlakatlarida tarqalgan. Misol tariqasida AQSH va Buyuk Britaniyani aytish mumkin. Chunki, bu mamlakatlarda davlat taqsimlanishi ochiq bozorda amalga oshiriladi.

Markaziy bank kapitalida davlat ulushini va qonunchilikda Markaziy bankning maqsadi va vazifalarini aniq belgilanganligi yuqoridagi tasdiqlar koʻrinib turibdiki, u Markaziy bank mustaqilligi darajasini belgilashda hal qiluvchi rol oʻynamaydi va ular ikkilamchi omillar boʻlib hisoblanadilar.

Yuqorida qayd etilganlar asosida xulosa qilish mumkinki. Rivojlangan mamlakatlar markaziy banklari oʻzlarini mustaqil taʼsir oʻtkaza oladigan institut sifatida koʻrsatishlari zarur. Bu bir tomondan, ularga qonun asosida ruxsat etilgan vositalar yordamida iqtisodiyotni tartibga solishni amalga oshirish huquqini beradi, boshqa tomondan esa, Milliy bank va pul tizimi manfaatlarining himoyachisi sifatida maydonga chiqadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankining mustaqilligi

Har qanday davlatda Markaziy bank hukumat banki boʻlib hisoblanadi va uning mavqei oʻsha davlat qonunlari bilan belgilanadi. Xususan, Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki oʻz faoliyatini 1995-yil 21-

dekabrda qabul qilingan va 2019-yil 12-noyabrdagi yangi taxrirdagi “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g’risida”gi[47] Qonunga asosan olib boradi. Qonunda Markaziy bankning maqomi, maqsadi va vazifalari, faoliyat tamoyillari o‘z aksini topgan.

Ushbu qonuning 1-moddasida Markaziy bankning maqomi qayd etilgan bo‘lib, unda: “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki yuridik shaxs bo‘lib, faqat davlat mulki hisoblanadi.” O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki iqtisodiy jihatdan mustaqil muassasa, o‘z xarajatlarini o‘zining daromadlari hisobidan amalga oshiradi. O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbining tasviri tushirilgan va o‘z nomi yozilgan muhirga ega”, deb yozilgan.

Shuningdek, Qonunda “*Markaziy bankning bosh maqsadi milliy valyuta barqarorligini ta’minlashdan iborat*” deyilgan. Narxlarning barqarorligini ta’minlash va milliy pul birligini xorijiy valyuta bozorlarida ayriboshlash kursining barqaror bo‘lishiga erishishni ko‘zda tutuvchi bu maqsad davlatning iqtisodiy siyosatida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining o‘rni juda muhim ekanligini belgilaydi.

Milliy valyuta barqarorligini ta’minlash uchun Markaziy bank qator muhim vazifalarni hal etadi. Ularning eng asosiylari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

– Monetar siyosatni va valyutani boshqarish siyosatini shakllantirish, qabul qilish va amalga oshirish;

– O‘zbekiston Respublikasida hisob-kitoblarning samarali tizimini yaratish;

– Banklar faoliyatini tartibga solish va boshqalarni nazorat qilish;

– O‘zbekiston Respublikasining rasmiy oltin valyuta zaxiralarini saqlash va uni boshqarish;

– Moliya vazirligi bilan birgalikda davlat byudjetining kassa ijrosini uyushtirish.

Markaziy bankning faoliyatining mazmuni uning funksiyalarida to‘laroq namoyon bo‘ladi. Markaziy bankning har bir funksiyasi, uning mamlakat bank tizimining bosh bo‘g’ini, iqtisodiyotni pul-kredit orqali tartibga soluvchi davlat organi sifatidagi faoliyatining aniq bir tomonini aks

[47] Ўзбекистон Республикаси Марказий банки “Ўзбекистон Республикаси Марказий банки тўғрисида”ги[47] Қонуни 1995 йил 21 декабрда қабул қилинган ва 2019 йил 12 ноябрдаги янги тахрирдаги

ettirishi kerak.

Davlatlarning bank qonunchiligida o‘zaro jiddiy farqlar bo‘lsa-da, Markaziy bankning funksiyalari va vazifalari borasida ko‘pgina umumiy o‘xshashliklar mavjud. **2019-yil 12-noyabrda O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g’risida”gi Qonuni yangi tahrirda qabul qilindi.** Qonunning 1995-yilda qabul qilingan tahriridan farqli o‘laroq, yangi tahririni ishlab chiqishda Markaziy bankning iqtisodiyotda narxlar barqarorligi, bank tizimi va to‘lov tizimlari faoliyati barqarorligini ta’minlash zaruriyati hisobga olingan. Qonun 11 ta bob va 72 ta moddadan iborat.

Xalqaro valyuta jamg’armasining tavsiyalariga binoan Markaziy bankning vakolatlari yangilanib, ularning tarkibiga banklar, nobank kredit tashkilotlari, ipotekani qayta moliyalash tashkilotlari va banklar guruhlarining faoliyatini litsenziyalash, tartibga solish va nazorat qilishda asoslantirilgan mulohazadan foydalanish, shuningdek, valyuta, qimmatbaho metallar va bozor instrumentlari qatorini kengaytirgan holda moliya bozorlarida spot va forvard operatsiyalarini amalga oshirish kabi vakolatlar kiritildi.

Markaziy bankning samarali va zamonaviy pul-kredit siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish borasidagi funksiyalari kengaytirildi va yangilandi. SHuningdek,

- ❖ inflyatsiya darajasini monitoring,
- ❖ tahlil va prognoz qilish,
- ❖ bank tizimi va pul-kredit ko‘rsatkichlari hamda tashqi sektor statistikasi, shu jumladan,
- ❖ to‘lov balansi,
- ❖ respublikaning xalqaro investitsion pozitsiyasi,
- ❖ tashqi qarzi va oltin-valyuta zaxirasi to‘g’risidagi ma’lumotlarni shakllantirish va e’lon qilish bo‘yicha vazifalar belgilandi.

Markaziy bank Boshqaruvi tarkibi, a’zolari soni va vakolatlariga o‘zgartirishlar kiritildi. Endilikda Markaziy bank Boshqaruvi to‘qqiz a’zodan, ya’ni,:

- Boshqaruvi Raisi hisoblanuvchi Markaziy bank Raisi, uning birinchi o‘rinbosari va o‘rinbosarlari, shuningdek, ikki nafar mustaqil a’zodan iborat.

Mazkur Qonunga muvofiq Markaziy bank Boshqaruvi kelgusi yil uchun pul-kredit siyosatining asosiy yo‘nalishlarini, shu jumladan,

likvidlikni taqdim etish va jalb qilish parametrlari, Markaziy bankning pul-kredit operatsiyalari bo‘yicha foiz stavkalari hamda asosiy foiz stavkasi darajasini belgilaydi va tasdiqlaydi. Shuningdek, majburiy zaxira talablari me’yorlari, ajratiladigan kreditlar bo‘yicha ta’minot turlari ro‘yxati, tizimli muhim banklar uchun prudensial me’yorlar va boshqa vakolatlarni o‘rnatadi.

Qonundagi asosiy yangiliklardan biri – Markaziy bankning jamoatchilik bilan aloqalaridir. Narxlar va moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda pul-kredit siyosatining ta’sirchanligini kuchaytirish maqsadida Qonun bilan Markaziy bank faoliyati shaffofligini oshirishga qaratilgan faol kommunikatsiya siyosatini yuritish asoslari belgilab berildi. Bu, o‘z navbatida, aholi va iqtisodiyot subyektlarining Markaziy bankka bo‘lgan ishonchini oshirib, iqtisodiyotda inflyatsiya va inflyatsion kutilmalarni samarali boshqarishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, rivojlangan mamlakatlar tajribasiga asoslangan holda, Qonunda erkin shakllanuvchi almashuv kursi tizimi sharoitida ichki valyuta bozoriga intervensiyalarning faqatgina valyuta kursining keskin tebranishlarini oldini olish maqsadida amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan.

Yangi tahrirdagi Qonunda Markaziy bankning ichki nazorat organi hisoblanuvchi ichki audit xizmatining tashkil etilishi va unga Markaziy bank tarkibiy bo‘linmalari va tasarrufidagi tashkilotlarning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini tekshirish vazifasi yuklatilishi, shuningdek, xalqaro audit standartlariga muvofiq audit tashkilotlari tomonidan har yili tashqi audit o‘tkazilishi ko‘zda tutilgan.

Asosiy tushunchalar:

Markaziy bank, hududiy bosh boshqarmalar, litsenziya, xazinabon, pul-kredit siyosati, moliyaviy maslahatchi, korrespondentlik schyotlar, bank, pulni saqlash, sarroflar, pul almashtirish, kredit operatsiyalari, naqd pulsiz hisob-kitoblar, banklar, Markaziy bank, bank tizimi, emission banklar, pul-kredit siyosati, milliy pul, monetar siyosat, iqtisodiy siyosat, moliyaviy siyosat, valyutani boshqarish, diskont (hisob) va garov, majburiy zaxiralar, ochiq bozordagi operatsiyalar, depozit, bevosita usul, bilvosita usul.

Mavzuni mustahkamlovchi savollar

1. Markaziy banklarning vujudga kelishidan asosiy sabab nimadan

iborat?

2. Markaziy banklar qanday yo‘llar bilan vujudga kelgan?
3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki qanday mulkka asoslangan?
4. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki faoliyati qanday maqsadlarga yo‘naltirilgan?
5. Markaziy banklar qanday asosiy vazifalarni bajaradilar?
6. Markaziy bankning pul muomalasini tashkil etish va boshqarish vazifasi nimalardan iborat?
7. Markaziy bank hukumat banki sifatida qanday vazifalarni bajaradilar?
8. Markaziy bank hisob-kitob va kassa xizmatlari ko‘rsatish maqsadi nimadan iborat?
9. Markaziy bankning nazorat qilish va tartibga solishni qanday amalga oshiriladi?
10. Markaziy bank valyutani tartibga solish va nazorat qilish bo‘yicha qanday vazifalarni amalga oshiradi?
11. Markaziy bankning mustaqilligi va iqtisodiyotni tartibga solishdagi o‘rni.
12. . Markaziy banklarning rolini kuchayishi.
13. .Markaziy banklarning iqtisodiy va siyosiy mustaqilligi ajralib (farqlanib) turishi.
14. Markaziy bankning kapitalida va foydani taqsimlashda davlatning ishtiroki.
15. Monetar siyosatni amalga oshirish shakli, uning usullari va yo‘nalishlarini turlicha davrlarda farqlanishi.
16. Markaziy bankning siyosiy ustuvorligini ko‘rsatuvchi omillar.
17. Angliyada davlat bilan Markaziy bank o‘rtasidagi munosabatlar.
18. Mustaqillik darajasi nisbattan past bo‘lgan markaziy banklar.
19. Rivojlangan mamlakatlar markaziy banklari o‘zlarini mustaqil ta’sir.
20. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki iqtisodiy jihatdan mustaqilligi.
21. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankning bosh maqsadi.
22. Markaziy bankning samarali va zamonaviy pul-kredit siyosati.
23. O‘zbekiston Respublikasining Markaziy bankining yangi tahrirdagi qonuniga qanday vakolatlar kiritildi.

XV BOB. TIJORAT BANKLARNING TUZILISHI VA ULARNING FUNKSIYALARI

15.1. Bank faoliyatini tashkil qilishning iqtisodiy va huquqiy asoslari.

15.2. Tijorat banklarining boshqaruv organlari va ularning strukturasi.

15.3. Tijorat banklarining bosh ofislari, mintaqaviy filialari va bank xizmatlar markazlari.

15.4. Tijorat banklarining funksiyalari.

15.1 Bank faoliyatini tashkil qilishning iqtisodiy va huquqiy asoslari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklarining faoliyati foyda olishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Bozor iqtisodi sharoitida bank foydasining iqtisodiy mohiyati yangicha ijtimoiy-iqtisodiy tus olib bormoqda, chunki tijorat banklarining foydasi bank kapitali to‘planishining va bank rivojlanishining *asosiy manbasidir*.

Bank foydasining o‘sib borishiga ta’sir qiladigan bir necha xil omillar mavjud ular:

– bankning rentabelligi, vaqtincha bo‘sh mablag’larning samarali ishlatilishi, turli xil pullik xizmatlar doirasini (faktoring, lizing, trast xizmatlari va h.k.) kengaytirish, foyda keltirmaydigan aktivlarni kamaytirish, foyda keltiruvchi aktivlarni ko‘paytirish va boshqalar hisoblanadi.

Iqtisodiy rivojlanish bosqichida tijorat banklarining asosiy ish tamoyillaridan biri yuqori darajada foyda olishga qaratilgan bo‘ladi.

Banklarning faoliyati doimo foyda ko‘rish bilan bog’liq bo‘lmasdan, ular faoliyatida zarar ko‘rish ehtimoli ham uchrab turishi mumkin. Banklar faoliyati ijobiy bo‘lgan hollarda banklarning foyda olishi va salbiy faoliyat natijasida banklarning zarar ko‘rish ehtimoli yuqori bo‘ladi. Yuqorida aytilgan foyda keltiruvchi zaxiralarni amalda tatbiq qilish jarayonida bankning ish faoliyati iqtisodiy jihatdan tavakkalchilik (zarar ko‘rish ehtimoli) bilan bog’liq bo‘ladi.

Tijorat (aksiyali, pay asosida va xususiy tartibda tashkil qilingan) banklar huquqiy va xususiy shaxslarga «Banklar va bank faoliyati

to‘g’risidagi» qonunda nazarda tutilgan operatsiyalarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatish orqali shartnoma asosida kredit, hisob-kitob va boshqa xil bank xizmatlarini ko‘rsatadi.

Tijorat banklarining nizom jamg’armasi kimga qarashli ekanligiga va uni tashkil qilish uslubiga qarab, bajarilayotgan operatsiyalarning turi, faoliyat ko‘rsatish hududi va tarmoq belgilariga qarab bir-biridan farq qiladi. Respublikada, mintaqalarda ko‘zda tutilgan ma’lum dasturlarni bajarish va o‘zga faoliyat turlarini pul mablag’lari bilan ta’minlash uchun O‘zbekiston Respublikasi qonunlari va boshqa hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda maxsus tijorat banklari tashkil etilishi mumkin.

Tijorat banklari O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan tegishli litsenziyani olganlaridan so‘ng chet el valyutasida operatsiyalarni amalga oshiradilar.

Tijorat banklari o‘z nizomlari asosida ish olib boradilar. Davlat tijorat bankining nizomi bankni tuzishga qaror qilgan organ tomonidan tasdiqlanadi. SHerikchilik asosida tuzilgan tijorat bankining nizomi muassislar (qatnashuvchilar) yig’ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

Bankning nizomida:

– bankning nomi va uning manzilgohi (aloqa manzilgohi);

– bank amalga oshiradigan operatsiyalarning ro‘yxati;

– bank tashkil etadigan fondlarning ro‘yxati;

– nizom fondining miqdori;

– bankning huquqiy shaxs ekanligi va o‘zini-o‘zini moliya resurslari bilan ta’minlashi negizida ishlashi to‘g’risidagi nizom;

– bankning boshqaruv idoralari, ularning tarkibi va tuzilishi to‘g’risidagi nizom;

– bankka qarashli muassasalarning ro‘yxati va ularning maqomi;

– bank va uning filiallarini tashkil etish hamda ularning faoliyatini to‘xtatish tartibi;

– faoliyati to‘g’risidagi ma’lumotlarni matbuotda e’lon qilish majburiyati (tartibi);

– O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan o‘zaro munosabatlari aks ettirilgan bo‘lishi lozim.

Sherikchilik asosida tuzilgan bankning nizomi yuqorida keltirilgan talablardan tashqari, aksiyali jamiyatlar va mas’uliyati cheklangan jamiyatlar to‘g’risidagi amaldagi qonunlarda ko‘rsatilgan talablarga javob

berishi lozim.

Bank nizomiga bank faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog’liq boshqa qoidalar ham kiritilgan bo‘lishi mumkin. Nizomga o‘zgarishlar O‘zbekiston Respublikasi qonunlaridagi o‘zgarishlar munosabati bilan kiritiladi.

Aksioner tijorat banklarining nizomi fondi qatnashchilarning badallari hisobidan yoki aksiyalar chiqarish va sotish hisobidan vujudga keltiriladi.

Mahalliy hokimiyat va boshqaruv idoralarining hamma bo‘limlari va ularning ijroiya organlari, siyosiy tashkilotlar va ixtisoslashgan jamoat fondlaridan tashqari barcha huquqiy va xususiy shaxslar tijorat banklarining muassislari (hissadorlari), aksionerlari bo‘lishlari mumkin.

Tijorat banklari O‘zbekiston Respublikasining soliq to‘g’risidagi amaldagi qonunlariga muvofiq soliq to‘laydilar.

Quyidagi mablag’lar banklarning o‘z mablag’lari hisoblanadi:

– nizom fondi;

– zaxiralar va foyda hisobiga vujudga keladigan hamda bankning balansida turadigan boshqa fondlar;

– taqsimlanmagan foyda, aksiyachilar yoki paychilar o‘rtasida aksiyalarni taqsimlash hisobiga yoxud pay miqdorini oshirish hisobiga olingan mablag’lar.

Tijorat banklari yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan yo‘qotishlar o‘rnini qoplash uchun olinadigan foydadan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilab qo‘yilgan tartibda zaxira fondlari tashkil etadilar.

Tijorat banklari shartnoma asosida bir-birlarining mablag’larini depozit, kredit shaklida jalb etishlari, joylashtirishlari, o‘z nizomlarida ko‘rsatilgan boshqa o‘zaro operatsiyalarni amalga oshirishlari mumkin.

Mijozlarga kredit berish va o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarish uchun mablag’ yetishmay qolgan taqdirda tijorat banklari kredit resurslari olish uchun O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga murojaat qilishlari mumkin.

Banklar bilan mijozlar o‘rtasidagi munosabat shartnomaviy tavsifga ega bo‘ladi.

Mijozlar o‘zlariga kredit va kassa xizmatini ko‘rsatadigan bankni mustaqil tanlaydilar. Tijorat banklari qimmatbaho qog’ozlar bo‘yicha operatsiyalar olib boradilar. Tijorat banklari fond bozorlarining kelishuvlarida faol va bevosita ishtirok etavermaydilar. Masalan: AQSH

dagi tijorat banklariga qimmatbaho qog’ozlar bilan bo‘ladigan operatsiyalarni o‘tkazish, fond birjalariga a’zo bo‘lish taqiqlanadi. 1933-yilda (Glass-Stigal qonuni) qabul qilingan qonunga muvofiq tijorat banklari sanoat kompaniyalarining obligatsiyalari va aksiyalarini chiqarishni tashkil qilishda ishtirok eta olmaydilar. Shunga qaramay qonunda juda ko‘p istisnolar mavjud bo‘lib, ular bankka pullarni operativ qo‘yish, davlat qimmatbaho qog’ozlarini chiqarishni tashkil etish, shtat va mahalliy hokimiyat organlarining obligatsiyalari, shuningdek, turli xalqaro tashkilotlar va federal muassasalar chiqargan qarz hujjatlar (majburiyatlari) bilan ishlash huquqini beradi. Bulardan tashqari, banklarga o‘zlarining mijozlari hisobiga sanoat kompaniyalarining aksiya va obligatsiyalarini sotish va sotib olish kabi brokerlik funksiyalarini bajarishga ruxsat etilgan. Shu bilan birga, Amerika tijorat banklari sanoat kompaniyalari va firmalarning aksiya paketlarini haqiqiy egasi sifatida trast operatsiyalarining (qimmatbaho qog’ozlar portfellarini boshqarish operatsiyalari) katta hajmini amalga oshiradilar.

AQSH da tijorat banklari broker firmalari va investitsion kompaniyalarning asosiy kreditorlari hisoblanadi. AQSH ning yettita yirik investitsion kompaniyalarning 40 dan 80%gacha aktivlari tijorat banklari krediti hisobidan ta’minlanadi.

Yaponiyada tijorat banklarining fond birjalariga a’zo bo‘lishi taqiqlangan. Lekin ular litsenziya olgan holatda qimmatbaho qog’ozlarning hamma turini o‘zlarining hisoblari bo‘yicha yoki mijozlarning topshiriqlari bo‘yicha sotish va sotib olish (broker kompaniyalari va birjaga a’zo bo‘lgan firmalar vositachiligida) huquqiga egadirlar. Bulardan tashqari, tijorat banklari davlatning qimmatbaho qog’ozlari bilan bo‘lgan qisqa muddatli operatsiyalarni amalga oshirishlari mumkin. Uzoq vaqt yapon tijorat banklarining yangi qimmatbaho qog’ozlar vositachilikni amalga oshirishga huquqlari bo‘lmagan. Faqat 1981-yili ularga davlat obligatsiyasi va sanoat kompaniyalari obligatsiyasini birja tashqarisida vositachilik qilishga ruxsat etilgan. Shuningdek, yapon tijorat banklariga mijozlarning qimmatbaho qog’ozlarini boshqarish man etilgan.

Bank muassasalarining qimmatbaho qog’ozlar bilan bo‘ladigan operatsiyalariga aktiv qatnashishiga Germaniya tajribasi yorqin misol bo‘la oladi.

Bu davlatda qimmatbaho qog’ozlar bilan bo‘ladigan hamma

operatsiyalarda faqatgina tijorat banklari qatnashish huquqiga ega. Aslida, Germaniya davlatida broker kompaniyalar va firmalar yo‘q. Tijorat bankning funksiyalari universalligi mijozlarning talab va ehtiyojlariga yuqori darajada javob beradi. Germaniyaning qimmatbaho qog’ozlar bozorini bank muassasalarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ularning bu bozorda o‘rni juda katta.

Banklar katta miqdorda obligatsiyalar chiqaradi, investitsion guruhlarning egalari va yirik investorlik vazifasini bajaradi. Ularga qimmatbaho qog’ozlar bilan bo‘ladigan operatsiyalar hajmining eng katta qismi to‘g’ri keladi, bank sindikatlari davlat qarz hujjatlarini chiqarish va tarqatishda katta jonbozlik ko‘rsatadi. Bank obligatsiyalarni chiqarish uchun 3 ta asosiy shartni bajarishi zarur:

– moliyaviy ko‘rsatkichlar proporsiyasini saqlash;

– bank moliyaviy ahvolining oshkoraligi;

– jami kapitalning va bank zaxiralarining 8 mln. DM darajasidan oshishi.

Obligatsiyalarni chiqarish to‘g’risidagi ruxsat Moliya vazirligi tomonidan olinishi kerak. Bu haqdagi xabar esa Federal yustitsiya vazirligi gazetasida bosilib chiqariladi. Odatda, 3 yildan ortiq muddatga chiqarilgan obligatsiyalar GFR fond birjalarida muomalada bo‘ladi.

Lekin ularni sotish va sotib olish kelishuvlarining ko‘p qismi birjadan tashqari aylanmada amalga oshiriladi. Universal tijorat banklari ko‘pincha yadro vazifasini bajarib, moliya-bank guruhlarni, bir necha nisbatan mustaqil bo‘linmalarni o‘z ichiga olgan. Bu mustaqil bo‘linmalar, masalan, investitsion fondlar va konsultatsion firmalar bo‘lishi mumkin. Mustaqil bo‘linmalar daromad olish markazlari hisoblanadi. Aslida guruhning yadrosini tashkil etgan bank, markaziy apparatdan, mahalliy va chet el filiallaridan iborat. Banklarning markaziy apparatlari, odatda, fond birjalari bo‘lgan katta shaharlarda joylashgan. Rivojlangan mamlakatlarda asosiy daromad manbai kredit operatsiyalari bo‘lib, ikkinchi o‘rinda qimmatbaho qog’ozlar bilan bog’liq operatsiyalar turadi.

15.2. Tijorat banklarining boshqaruv organlari va ularning strukturasi

O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga asosan bank bu – tijorat

muassasasi bo‘lib, jismoniy va huquqiy shaxslarning bo‘sh turgan pul mablag’larini jalb qilish va ularni o‘z nomidan, to‘lov, muddatlilik, qaytib berish sharti asosida joylashtirish operatsiyalarini va boshqa bank operatsiyalarini bajaradi.

Ba’zi adabiyotlarda bank korxona sifatida ham izohlanadi. Ma’lumki, bank yaxlit olingan korxona sifatida ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirmaydi. Tijorat banklarining faoliyatini korxona faoliyatiga jihatidan o‘xshatish mumkinki, tijorat banklari ham korxonalar singari faoliyatini o‘z daromadini ko‘paytirishga va shu asosda birinchidan o‘z asoschilari - aksionerlarining manfaatlarini, ikkinchidan o‘z mijozlarining manfaatlarini himoya qilishni ta’minlashi.

Tijorat banklari, bizning fikrimizcha, shunchaki korxona emas, maxsus korxonadir. Chunki tijorat banklari ssuda kapitali harakatini amalga oshiradi va shu asosda bank o‘z aksionerlariga, paychilariga foyda olishni ta’minlaydi.

Tijorat banklari bank tizimining muhim bo‘g’ini bo‘lib, kredit resurslarining asosiy qismi shu banklarda yig’iladi va bu banklar huquqiy, jismoniy shaxslarga xizmat ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklari bank tizimining Markaziy bankdan keyingi ikkinchi pog’onasi hisoblanadi.

1987-yildan boshlab tashkil qilingan bank tizimi bozor iqtisodi tamoyillariga mos keluvchi bank tizimining boshlang’ich pillapoyasi hisoblanadi. Oxirgi yillarda tijorat banklarining soni, ular bajaradigan operatsiyalar, ularning nizom jamg’armasi va qo‘yilmalar salmog’i oshib bormoqda.

2024-yil 1-dekabr holatiga ko‘ra O‘zbekistonda 35 ta bank faoliyat ko‘rsatdi, ulardan 13 tasi davlat ishtirokidagi, 22 tasi xususiy banklar, davlat banklarining aktivlar va kapitaldagi ulushi esa 86% ni tashkil etadi.

Salmoqli nizom jamg’armasi kredit resurslar va mijozlarga ega bo‘lgan – katta banklar O‘zbekiston sanoat qurilish banki, Tashqi iqtisodiy faoliyatlar milliy banki, Agro bank, Asakabank va boshqalar keng faoliyat olib bormoqda.

Tijorat banklarni tashkil qilishdagi nizom kapitali miqdori[48] 2017-

[48] Ўзбекистон Республикаси Тижорат банклари капиталининг монандлигига қўйиладиган талаблар тўғрисидаги Низом 2693-сон.06.07.2015й

yilning 1- oktyabridan boshlab tijorat banklari ustav kapitalining eng kam miqdori 100,0 mlrd. so‘mni tashkil etishi lozim.

13-modda. Bankning ustav kapitali;

Bank ustav kapitalining eng kam miqdori:

2023-yil 1-sentyabrga qadar yuz milliard so‘mni;

2023-yil 1-sentyabrdan e’tiboran ikki yuz milliard so‘mni;

2024-yil 1-apreldan e’tiboran uch yuz ellik milliard so‘mni;

2025-yil 1-yanvardan e’tiboran besh yuz milliard so‘mni tashkil etishi kerak.[49]

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki quyidagi hollarda banklarga nisbatan regulyativ kapital miqdorini oshirish to‘g’risidagi talablarni qo‘yishga haqli:

- xavfsiz bo‘lmagan va nosog’lom bank faoliyatining yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan qoniqarsiz moliyaviy holat;
- bank foydasining qoniqarsiz prognozi;
- yuqori darajadagi bank tavakkalchiligi va balansdan tashqari moddalar mavjudligi holatlari aniqlanganda.

Mulkchilik shakliga qarab banklar:

- ❖ davlat bankiga,
- ❖ aksioner banklarga,
- ❖ kooperativ,
- ❖ xususiy,
- ❖ mintaqaviy,
- ❖ aralash mulkchilikka asoslangan bank kabilar bo‘linadi.

15.3. Tijorat banklarining bosh ofislari, mintaqaviy filialari va bank xizmatlar markazlari

Yuksak rivojlangan mamlakatlarda tijorat banklarining aksariyat qismi mulk shakli bo‘yicha aksioner bank hisoblanadi.

Aksioner banklar aksioner jamiyat kabi faoliyat olib boradi. Aksionerlar safiga kirish aksiyalarni sotib olish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Huquqiy va jismoniy shaxslar banklarning aksiyalarini sotib olishi va aksioner bo‘lishlari mumkin.

[49] “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 2019 yil

Ba’zi tijorat banklari paylar (badallar) hisobidan tashkil qilinishi mumkin. Bu turdagi banklarning qatnashchilari ham huquqiy va jismoniy shaxslar bo‘lishi mumkin.

Xususiy banklar – jismoniy shaxslarning pul mablag’lari hisobidan tashkil qilingan banklar hisoblanadi.

Bajaradigan operatsiyalariga ko‘ra tijorat banklar – universal va maxsus banklarga bo‘linadi.

Universal banklar xilma – xil operatsiyalar bajarish, har xil xizmatlarni amalga oshirish xususiyatiga ega bo‘ladi. Maxsus banklar ma’lum yo‘nalishlarga xizmat ko‘rsatib, o‘z faoliyatini shu yo‘nalishlarda yutuqlarga, samaradorlikka erishishga bag’ishlaydi. Bunday banklarga tarmoqlarga xizmat ko‘rsatuvchi banklar, eksport-import operatsiyalarini olib boruvchi banklar, investitsiya banklari, zamin banklar kirishi mumkin.

Joylashish belgisiga ko‘ra tijorat banklar:

- xalqaro,
- respublika,
- mintaqaviy,
- viloyat banklariga bo‘linishi mumkin.

Banklar tarmoqlarga xizmat ko‘rsatishiga qarab:

– sanoat, qurilish, qishloq xo‘jaligi, savdo va boshqa banklarga bo‘linishi mumkin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida banklarning o‘rni, ularning iqtisodga ta’siri o‘sib bormoqda.

Kredit muassasalari aholi, korxona, tashkilotlar, kompaniyalarning bo‘sh pul mablag’larini yig’ish va joylashtirishdan tashqari, kapital jamg’arilishini, harakatlanuvchi kapital yordamida korxonalarning xo‘jalik faoliyatini takomillashtirishga ko‘maklashadi va korxonalar faoliyati ustidan nazorat olib boradi.

Banklar va uning krediti yordamida mavjud kapital tarmoqlar o‘rtasida, ishlab chiqarish va muomala sohasida taqsimlanadi va qayta taqsimlanadi.

Sanoat, transport, qishloq xo‘jaligi sohasida qo‘shimcha investitsiyaga bo‘lgan talablarni moliyalashtirib, banklar xalq xo‘jaligida progressiv yutuqlarga erishishni ta’minlashi mumkin.

15.4. Tijorat banklarining funksiyalari

Tijorat banklarining iqtisodiy mavqei faoliyat doirasining keng bo‘lishiga olib keladi.

Tijorat banklari quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi.

1. Vaqtincha bo‘sh turgan pul mablag’larini yig’ish va ularni kapitalga aylantirish.
2. Korxona, tashkilotlar, davlat va aholini kreditlash;
3. muomalaga kredit pullar (muomalaning kredit vositalari) ni chiqarish.
4. Iqtisodiyotda hisob-kitoblar va to‘lovlarni amalga oshirish.
5. Moliya - valyuta bozorida faoliyat ko‘rsatish.
6. Iqtisodiy-moliyaviy axborotlar berish va konsultatsiya xizmatlarini ko‘rsatish.

Banklar bo‘sh pul mablag’larini yig’ish va ularni kapitalga aylantirish funksiyasini bajara turib, mavjud bo‘sh pul daromadlari va jamg’armalarni yig’adi. Jamg’aruvchi (bo‘sh pul mablag’i egasi) o‘z mablag’larini bankka ishonib topshirgani uchun va bank bu mablag’lardan foydalangani uchun ma’lum foiz hisobida daromad oladilar. Bo‘sh pul mablag’lari hisobidan ssuda kapitali fondi vujudga keladi va bu fond xalq xo‘jaligi tarmoqlarini kreditlash uchun ishlatiladi.

Tijorat banklar faoliyatida asosiy o‘rinni korxona, tashkilotlarni, aholini, davlatni kreditlash egallaydi. Kreditlash jarayonini tashkil qilishda bank moliyaviy vositachi rolini o‘ynaydi. U bo‘sh turgan mablag’larni jalb qiladi va o‘z nomidan mijozlarga vaqtincha foydalanishga beradi. Bank krediti hisobidan xalq xo‘ja-ligining muhim tarmoqlari – sanoat, qishloq xo‘jaligi, savdo va boshqalar moliyalashtiriladi va ishlab chiqarishni kengaytirishga asos bo‘ladi.

Muomalaga kredit pullarni chiqarish funksiyasi tijorat banklarini boshqa moliya institutlaridan ajratib turadi. Tijorat banklari depozit kredit emissiya qilganida, ssudalar berganida, pul massasi oshadi va ssuda bankka qaytarilganda, muomaladagi pul massasi kamayadi.

Tijorat banklari kredit pullarni yaratishning emitenti hisoblanadi. Tijorat bank tomonidan mijozga berilgan kredit uning hisob raqamiga o‘tkaziladi va bankning qarz majburiyati ortadi. Mijoz bu mablag’ning ma’lum qismini naqd pul shaklida hisob raqamidan olishi mumkin. Bu holda

muomaladagi pul massasining miqdori oshadi. Shuning uchun ham, Markaziy bank tijorat banklarining faoliyati ustidan nazorat olib boradi.

Tijorat banklarining muhim funksiyalaridan biri hisob-kitoblarni olib borishdir. Hisob-kitoblarni olib borishda bank mijozlar o‘rtasida vositachi bo‘lib xizmat qiladi.

Tijorat banklari qimmatbaho qog’ozlar chiqarish va joylashtirish bilan ham shug’ullanishi mumkin.

Tijorat banklari iqtisodiy ahvolni nazorat qilish jarayonida mijozlarga har xil axborotlar, maslahatlar berishi mumkin.

Aksioner tijorat banklarning yuqori organi – aksionerlarning umumiy yig’ilishi hisoblanadi. Har yili aksionerlarning yig’ilishi nizomdagi va nizom kapitalidagi o‘zgarishlarni, yillik faoliyat va uning natijalarini, bank daromadlarini tasdiqlash, Bank Kengashi tarkibini saylash, bankning sho‘ba muassasalarini tashkil qilish va bekor qilish kabi masalalarni ko‘rib chiqishi mumkin.

Tijorat banklari quyidagi operatsiyalarni bajaradi:

– passiv operatsiyalar;

– aktiv ssuda operatsiyalar;

– bank xizmatlari va vositachilik operatsiyalari;

– bankning o‘z mablag’lari hisobidan amalga oshiradigan operatsiyalar va boshqalar.

Tijorat banklarni ochishga ***litsenziya (ruxsatnoma)ni*** Markaziy bank beradi. U tijorat banklar faoliyatini olib borish bo‘yicha iqtisodiy normativlarni belgilab beradi va ularning bajarilishini nazorat qilib boradi.

Asosiy tushunchalar:

Bank, tashkiliy tuzilma, litsenziya, bosh litsenziya, tijorat banki, boshqaruv tizimi, huquqiy asoslari.

Mavzuni mustahkamlovchi savollar

1. Bank faoliyatini tashkil qilishning asoslari nimalardan iborat?
2. Tijorat banklarining huquqiy asoslari deganda nimani tushunasiz?
3. Dastlabki litsenziya tijorat banklarida qanday shartlar asosida beriladi?

4. Asosiy litsenziya tijorat banklarida qanday tadbirlar o‘tkazilgandan keyin beriladi?
5. Tijorat banklarining boshqaruv tizimida nechta organ faoliyat yuritadi?
6. Tijorat banklarining funksiyalari nimalardan iborat?

XVI BOB. TIJORAT BANKLARNING OPERATSIYALARI

16.1. Tijorat bank xizmatlarining mohiyati
16.2. Tijorat banklarning passiv operatsiyalari
16.3. Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari
16.4. Tijorat banklarining vositachilik xizmatlari

16.1. Tijorat bank xizmatlarining mohiyati

Bank resurslari banklar tomonidan passiv operatsiyalar o‘tkazish natijasida yaratiladi va bank balansining passiv qismida aks ettiriladi. Bank resurslari bankning o‘z mablag’lari, qarzga olingan ya’ni, jalb etilgan mablag’lardan, hamda emitentlashgan mablag’lardan iborat bo‘ladi.

Bank resurslardan aktiv operatsiyalar o‘tkazish orqali daromad olish uchun foydalaniladi. Bank resurslarni yaratishning manbai bo‘lib bank mijozlarning omonatlari va qo‘yilmalari xizmat qiladi. Ammo mijozlar mablag’larining mavjudligini ko‘rsatish lozim.

Bankning o‘z mablag’lari tarkibiga quyidagilar kiradi:

- ustav fondi.
- rezerv fondi.
- banklar foydasidan yaratilgan maxsus fondlar.
- banklarning yil davomida taqsimlanmagan foydasi.

Tijorat banklarning resurslari quyidagi tuzilishiga ega:

O‘z mablag’lari:

A) rezerv fondi.

B) maxsus fondlar.

S) taqsimlanmagan foyda.

Jalb etilgan mablag’lar:

A) boshqa banklardan jalb etilgan mablag’lar.

B) depozit operatsiyasidan tushgan mablag’lar.

Emitentlashgan mablag’lari:

-qimmatbaho qog’ozlarni sotishdan olingan mablag’lar.

Vaqtinchalik bo‘sh pul mablag’larni jalb etish va to‘lash tijorat bankining eng asosiy vazifasi va iqtisodiy asosdir.

Tijorat bankning vazifasi jalb etilgan mablag’lar tarkibiga quyidagilar kiradi:

1.Ustav fondi bank faoliyatini tashkil etish va uning ustav fondini

yaratishdan boshlanadi.

Ustav fondi – bu jismoniy va yuridik shaxslarning jamg'armasi hisobidan yaratiladi va ularning majburiyatlarini bajarish uchun xizmat qiladi. Ustav fondini yaratish bank turiga bog'liq bo‘lib, hissadorlik banki aksiyalar qiymati, xususiy yoki kooperativ banklar esa o‘z muassislari ulushi asosida yaratiladi.

Bank ustav fondini yaratishda bank kreditlari, boshqa jalb etilgan mablag'lar, shuningdek, siyosiy partiyalar, diniy va boshqa jamoat tashkilotlari mablag'laridan foydalanish mumkin emas. Banklar ustav fondini ko‘paytirishlari mumkin.

Aksiyadorlik jamiyati asosida tashkil qilingan tijorat banklari qo‘shimcha aksiyalar chiqarish va ularni jismoniy va yuridik shaxslar orasida tarqatish yo‘li bilan ko‘paytirish mumkin yoki ularga obligatsiya chiqarish huquqi ham berilgan.

Ustav kapitalini muntazam ravishda ko‘paytirib borish qimmatbaho qog'ozlar chiqarish bilan birgalikda bank foydasidan turli rezerv fondlarini yaratish orqali amalga oshiriladi. Xorijiy kapital ishtirokidagi tijorat banklari ustav kapitali erkin muomaladagi valyutada yaratilishi mumkin.

Tijorat banklarning rezerv fondlari - aktiv operatsiyalar natijasida ko‘riladigan zararlarni qoplash, bank tomonidan chiqarilgan imtiyozli aksiyalar bo‘yicha dividendlar to‘lashda bank foydasi yetarli bo‘lmay qolgan hollarda to‘lash uchun yaratiladi.

Rezerv fondi har yili bank foydasidan ajratmalar hisobidan yaratiladi. Rezerv fondining miqdori bank ustav fondining 25 % dan 100 gacha belgilanadi. Uning miqdori 100 % dan oshsa, ustav fondiga o‘tkazib yuborilib, rezerv fondiga yangidan mablag' o‘tkaziladi.

Tijorat banklarida rezerv fondlari bilan birgalikda bank foydasidan ajratmalar hisobiga boshqa maxsus fondlar ham yaratib boriladi. Fondlarga taqsimlab bo‘lgandan keyin qolgan qismi **taqsimlanmagan foyda** deyiladi.

Banklar o‘z mablag'larini ko‘paytirishda 2 usuldan foydalanish mumkin:

1.Foydani jamg'arib borish, foyda hisobidan turli rezerv fondlar yaratish va ularni kapitallashtirish orqali;

2.Yangi aksiyalar chiqarish va yangi hissadorlarni jalb etish orqali.

Bankning o‘z mablag'lari banklar moddiy bazasining rivojlanish manbai hisoblanadi.

Bank resurslarini shakllantirish bilan bo‘lgan operatsiyalar banklarning **passiv operatsiyalari** deyiladi. Passiv operatsiyalar yordamida tijorat banklarining passiv hisob raqamidagi pul mablag’larining salmog’i oshib boradi. Banklarning passiv operatsiyalari ularning faoliyatini tashkil qilishda muhim o‘rin o‘ynaydi. Passiv operatsiyalar yordamida tijorat banklari kreditlash uchun zarur bo‘lgan kredit resurslarini tashkil qiladi.

16.2. Tijorat banklarning passiv operatsiyalari

1.qimmatbaho qog’ozlarni muomalaga chiqarish yo‘li bilan resurslar yig’ish;

2.foyda hisobidan har xil fondlar tashkil qilish yoki fondlar summasini oshirish;

3.boshqa kreditorlarning mablag’larini jalb qilish;

4. depozit operatsiyalarni amalga oshirish.

Tijorat banklarning resurslari bankning o‘z mablag’lari, jalb qilingan va emitentlashgan mablag’lar hisobidan shakllanadi. Keltirgan passiv operatsiyalarning birinchi va ikkinchi shakllarida banklarning o‘z mablag’lari yuzaga keladi va qolgan oxirgi ikki shaklida kredit resurslarning ikkinchi qismi jalb qilingan resurslar yuzaga keladi.

Banklarning o‘z mablag’lariga

- bankning ustav kapitali,
- rezerv kapitali, maxsus fondlar,
- moddiy rag’batlantirish fondi,
- boshqa har xil tashkil qilingan fondlar,
- taqsimlanmagan foyda kiradi.

Amaliyotda bank passivlarining 20% banklarning o‘z mablag’lariga to‘g’ri keladi.

Banklarning o‘z mablag’lari ichida asosiy o‘rinni bankning o‘z kapitali egallaydi. Bankning o‘z kapitali tarkibiga ustav kapital, xarajatlarni qoplash bir qismi, ya’ni, ustav kapital, xatarlarni qoplash uchun tashkil qilingan rezerv fondi, taqsimlanmagan foyda kiradi. Bankning o‘z kapitali bank kreditorligini ta’minlash, bank faoliyatini boshqarish kabi funksiyalarni bajaradi.

Bankning ustav kapitali summasi bank ustavida ko‘rsatiladi va bank ishini boshlashning boshlang’ich nuqtasi hisoblanadi.

Banklarni tashkil qilishning shakllariga qarab bankning ustav kapitali ham har xil tashkil topadi. Agar bank aksiyadorlik jamiyati tariqasida tashkil qilingan bo‘lsa, ustav kapitali yoki fondi aksiyalar chiqarish va joylashtirish yo‘li bilan chegaralanmaydi. Banklarning barqaror faoliyatini ta’minlash maqsadida uning minimal miqdori belgilab beriladi.

Bankning ustav kapitali uning balansining passivida ko‘rsatiladi. Ustav fondi summasining oshirilishi bank aksionerlari tomonidan umumiy yig’ilishda hal qilinadi.

Bankning o‘z mablag’lari uning faoliyatining asosini tashkil qiladi, chunki ular jalb qilayotgan depozitlar, ya’ni, real kredit resurslari hajmini pirovard natijada aktiv amaliyotlar hajmini belgilab beradi. Bankning o‘z mablag’lari tijorat banklarining faoliyatini boshqaruvchi va ular ustidan nazoratni amalga oshiruvchi Markaziy bank uchun muhim ma’lumot manbai hisoblanadi.

Bankning o‘z mablag’lariga ustav fond (kapital) rezerv fondi va bank foydasi hisobiga tashkil topadigan bank fondlari, hamda yil davomida taqsimlanmagan foyda kiradi. Amaliyotda bank passivlarining 20 foizi banklarning o‘z mablag’lariga to‘g’ri keladi. Bankning o‘z mablag’lari ichida asosiy o‘rinni ustav kapitali egallaydi.

Markaziy bankning me’yoriy talablariga muvofiq bank kapitali asosiy (birinchi darajali kapital) va qo‘shimcha (ikkinchi darajali) kapitaldan iborat. Birinchi daraja kapital hisob-kitob qilingan kapital yig’indisining 50 foizidan kam bo‘lmasligi lozim. Tartibga solish funksiyasini asosan, birinchi darajali kapital bajaradi, chunki u doimiyroq hisoblanadi.

Bank kapitali uning faoliyat yuritish chegaralarini belgilab beradi, investorlar hamda aksiyadorlar va qolaversa, bankning o‘zi uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan moliyaviy barqarorlik darajasini ko‘rsatib beradi.

Bankning tashkil topish shakliga qarab, ustav kapitalining shakllantirilishi turlicha bo‘ladi. Agar bank aksionerlik jamiyati ko‘rinishida shakllanayotgan bo‘lsa, ustav fondi aksiyalarining nominal qiymati ko‘rinishida tashkil topadi. Bunda aksiyalar ochiq obuna qilish yo‘li bilan yoki ta’sischilarning ustav fondidagi ulushlariga qarab tarqatilishi mumkin.

Agar bank mas’uliyati cheklangan jamiyat ko‘rinishida tuzilgan bo‘lsa, ustav fondi ulushlarga bo‘lingan holda bo‘ladi. Ularning hajmi ta’sis hujjatlari bilan aniqlanadi. Bunda bank ishtirokchilari o‘zlarining ulushlari me’yori chegarasida majburiyatlarni o‘z zimmalariga oladilar.

Bankning tashkiliy - huquqiy shakliga qaramay, uning ustav fondi huquqiy va jismoniy shaxslarning to‘lovlari orqali shakllanadi va ta’sischilarning majburiyatlarini bajarish uchun xizmat qiladi. Ustav fondi faqat bank ishtirokchilarining xususiy mablag’lari hisobiga tashkil topishi mumkin. Jalb qilingan kredit, garovga olingan, boshqa yo‘llar bilan jalb qilingan mablag’lar hisobidan ustav fondini shakllantirishga yo‘l qo‘yilmaydi. Bankning ustav fondi faqat pul mablag’lari va moddiy aktivlar hisobiga tashkil topishi mumkin.

Tashkil etilayotgan bank kapitalining eng kam miqdori Markaziy bank tomonidan belgilanadi. Markaziy bank faoliyat shartlari, biznes-rejada ko‘rsatilgan operatsiyalar turi va hajmiga qarab, bank ustav kapitali miqdoriga qo‘shimcha talablar qo‘yish mumkin. Ustav fondining minimal miqdori bankning barqaror faoliyatini ta’minlash uchun o‘rnatiladi.

Tashkil etilayotgan bank kapitalining yetarlilik darajasini belgilashda quyidagi asosiy talablarga rioya qilinadi.

- Markaziy bank belgilagan ustav kapitalining eng kam miqdori yuzasidan talablarga muvofiqligi;
- Ko‘zda tutilayotgan o‘sishni qo‘llab - quvvatlash darajasi;
- Ko‘zda tutilayotgan daromadlar va asosiy foizlar darajasi;
- Muassislarning zarur hollarda qo‘shimcha kapitallar kirita olish qobiliyati va boshqalar.

Faoliyat ko‘rsatayotgan banklar ustav kapitaliga talablar iqtisodiy ahvol va bankning moliyaviy holatidan kelib chiqib Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

Bank ustav kapitali miqdorining o‘zgarishi va o‘zgarishni ro‘yxatga olish tartibi Markaziy bank tomonidan tartibga solinadi.

Jalb qilingan mablag’lar. Jalb qilingan mablag’lar aktiv operatsiyalarni, avvalo kredit operatsiyalarini amalga oshirish uchun pul resurslariga bo‘lgan ehtiyojni qoplaydi. Ularning roli juda katta bo‘lib, bank resurslarining 70% dan ortig’ini tashkil qiladi. Yuridik va jismoniy shaxslarning vaqtinchalik bo‘sh mablag’laridan foydalanish orqali, tijorat banklari ular yordamida xalq xo‘jaligining va aholining qo‘shimcha aylanma mablag’larga bo‘lgan ehtiyojini qondiradi, pullarni kapitalga aylanishiga yordam beradi.

Banklarning mablag’larni jalb qilish imkoniyatlari chegaralangan

bo‘lib, barcha mamlakatlarda bu jarayon Markaziy bank tomonidan tartibga solinib turadi. Jalb qilingan mablag’lar tijorat banklari kredit resurslarining asosiy qismini tashkil qiladi.

Hozirgi kunda banklar amaliyotida mavjud me’yoriy hujjatlariga asosan:

- davlat ixtisoslashtirilgan banklar bazasida tashkil topgan tijorat banklari uchun jalb qilinadigan mablag’lar hajmi o‘z kapitalining 25 barobaridan oshmasligi kerak;
- yopiq turdagi aksioner banklar uchun 20 barobardan oshmasligi;
- ochiq turdagi aksioner banklar uchun 15 barobardan oshmasligi kerak.

Banklar jalb qiladigan mablag’lar tarkibi turlicha bo‘ladi. Ularning asosiy turlariga quyidagilar kiradi:

- bank mijozlar bilan ishlash jarayonida jalb qilgan mablag’lar (depozitlar),
- o‘z qarz majburiyatlarini chiqarish yo‘li bilan mablag’larni to‘plash (depozit va jamg’arma sertifikatlarini, veksellar, obligatsiyalar) va banklararo kredit vositasida boshqa kredit tashkilotlaridan olinadigan va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan olinadigan ssuda mablag’lari va boshqalar kiradi.
- Xalqaro bank amaliyotida jalb qilingan resurslar ularni yig’ish usuliga qarab quyidagi guruhlarga bo‘linadi:
- depozitlar;
- nodepozit resurslar.

Jalb qilingan mablag’larning asosiy qismini depozitlar tashkil qiladi.

Bankning emitentlashgan mablag’lari. Banklar mijozlar mablag’laridan yetarli darajada uzoq muddatga foydalanishni amalga oshirishdan manfaatdordirlar. Shu sababli banklar obligatsiya qarzlari, bank veksellari va boshqalarni chiqarish yo‘li bilan o‘z resurslarining miqdorini ko‘paytirib boradilar.

Obligatsion qarzlar obligatsiyalar ko‘rinishida emitentlashadi. Hozirgi davrda chet el amaliyotida ikki valyutali obligatsiyalar uchraydi. Bu obligasiya bo‘yicha daromad egasi ixtiyoriga ko‘ra milliy valyuta yoki AQSh dollarida yoki boshqa chet el valyutasida to‘lanishi mumkin.

Banklar mijozlarning xohishiga qarab bir yilda ikki marta ularni to‘lash majburiyatini o‘z zimmasiga oladilar. Buning uchun mijoz ko‘rsatilgan muddatdan bir hafta oldin mablag’larni olishi to‘g’risida bankka xabar berishi shart.

16.3. Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari

Aktiv operatsiyalar-bu banklar foyda olish va banklarning likvidligi (to‘lovga qobiliyati) ta’minlash maqsadida o‘z mablag’larini xo‘jaliklar va aholi ehtiyoji uchun joylashtirish tushuniladi.

Banklarning aktiv operatsiyalari turli shaklda bo‘lib, bank aktivlari turli xil iqtisodiy mazmunini aks ettiriladi. Banklarda juda keng tarqalgan aktiv operatsiyalariga; ssuda, investitsiya va bir qism boshqa operatsiyalar kiradi.

Ssuda operatsiyalari banklarga daromadning asosiy qismini olib keladi, vaqtincha harakatsiz yotgan pul mablag’larini ishlab chiqish, muomala va iste’molni rag’batlantirgan holda harakatga soladi.

Mobilizatsiyalashgan pul mablag’lari banklar mijozlarini kreditlash uchun va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishni qo‘llab-quvvatlash uchun foydalanadi. Daromad olish maqsadida bank resurslarini joylashtirish bilan bog’liq bo‘lgan operatsiyalar banklarning aktiv operatsiyalari deyiladi. Bankning aktiv operatsiyalarida asosiy o‘rinni ularning kredit yoki ssuda operatsiyalari egallaydi.

Ssudalar berilishining ta’minotidan kelib chiqib, kreditlar moddiy boyliklar, tovarlar va boshqalar bilan ta’minlangan kreditlarga beriladi.

Banklarning mijozlarga beradigan ssudalari yoki kreditlarning muddatidan kelib chiqib, ular muddatli va onkol kreditlar (inglizchadan **on call** – talab bo‘yicha)ga bo‘linadi.

Ssudalar berilishining ta’minotidan kelib chiqib kreditlar moddiy boyliklar, tovarlar, veksellar, fondlar (qimmatli qog’ozlar) va boshqalar bilan ta’minlangan kreditlarga bo‘linadi.

Veksellarni qayd qilish deganda, bank tomonidan ularni to‘lash muddati tugagunga qadar veksellarni sotib olish tushuniladi. O‘z navbatida, bank, agarda mablag’lar bilan ta’minlanganlikda qiyinchilik sezayotgan bo‘lsa, Markaziy bankning hududiy boshqarmalarida berilgan veksellarni qayta hisobdan o‘tkazishi mumkin. Vekselni hisobga olib bank uning

vaqtinchalik egasi bo‘ladi va vekselni emitent qilgan yoki uni hisobga olish uchun taqdim qilgan shaxsga ma’lum miqdorda pul to‘laydi. Bu operatsiya uchun bank mijozdan qayd etish foizi yoki diskont deb ataluvchi ma’lum foiz undiradi.

Diskont – bu vekselda ko‘rsatilgan summa bilan veksel egasiga to‘lanadigan summa o‘rtasidagi farqdir. Ba’zi davlatlarda banklar o‘zlarida alohida mijozlarning kreditlash qobiliyatini o‘rganuvchi ayrim korxona va shaxslar veksel hisobi limitini o‘rnatuvchi hisob bo‘yicha qo‘mitalarni tashkil etadilar.

Veksellar, tijorat, moliyaviy va «do‘stona» (bronza) veksellariga bo‘linadi.

Tijorat veksellari tovar munosabatlari asosida vujudga keladi. Ular boshqa veksellarga nisbatan ishonchlidir.

Ko‘pgina veksellar moliyaviy xarakterga ega, ya’ni, ular broker yoki makler tomonidan hisob foizini olish uchun muomalaga chiqariladi.

«Do‘stona veksellar» – bu ikki shaxsning har qanday tovar harakatisiz bankdan mablag’ olish uchun bir-birlariga beradigan veksellardir.

Tadbirkorlar tomonidan chiqarilgan veksellarni «bronza» veksellari deb ham ataladi.

Akseptli operatsiyada bank o‘zi akseptlashtirayotgan vekselni ishonchli mijozga chiqarish huquqini beradi. Ya’ni, berilgan veksel bo‘yicha o‘z hisobidan to‘lovni kafolatlaydi. Shunday aksept kreditdan foydalanayotgan mijoz veksel haqini to‘lash uchun tegishli summani bankka to‘lash majburiyatini oladi.

Xalqaro miqyosda veksellar bilan bog’liq bo‘lgan hamma operatsiyalar 1930-yilda qabul qilingan Jenevada tuzilgan konvensiya bilan qat’iy belgilanadi.

Veksel bo‘yicha beriladigan kreditdan foydalanishning muhim shakli aval hisoblanadi. Bunda veksel bo‘yicha haq to‘lash bevosita veksel beruvchi bilan amalga oshiriladi. Aval esa haq to‘lashni kafolatlaydi. Aksept – aval operatsiyalarining o‘ziga xos xususiyati shundaki, ular bir vaqtning o‘zida ham aktiv, ham passiv operatsiyalarga tegishli bo‘ladi.

Bank avvali veksel munosabatlarini hamda ularning boshqa banklardagi hisob-kitobini yengillashtiradi. Chunki yirik avalda hisob va qayta hisoblashda mutlaq tartibda amalga oshiriladi. Bir bank tomonidan avallashgan veksellar boshqa bank tomonidan ham hisobga olinadi.

«Veksel bo‘yicha ssuda» operatsiyasida veksel egasi bo‘lib avvalgi veksel oluvchi qoladi, bank esa uning ta’minoti ostida mijozga veksel qiymatining 50-70% miqdorida ssuda beradi.

Banklar aktiv operatsiyalarining muhim turi tovarlar bo‘yicha ssudalar, ya’ni, tovarlarni garovga qo‘yib ssuda olish hisoblanadi. Hujjatlar, variantlar (tovarlarni omborda saqlash javobgarligi bilan qilinganligi to‘g’risidagi guvohnoma), temir yo‘l hujjatlari, konosamentlar (yukni kemaga qabul qilinganligi to‘g’risidagi paroxod jamiyatlari guvohnomasi), yuklarni tashish to‘g’risidagi hujjat bo‘yicha ssudalar olish hisoblanadi.

Tovarlar bo‘yicha ssudalar bank tomonidan tovarning to‘liq bozor qiymatida emas, balki uning bir qismi (odatda, 50-60% dan yuqori bo‘lmaydi) beriladi.

Tijorat banklari aktiv operatsiyalarining yana bir turi fond operatsiyalaridir.

Turli qimmatli qog’ozlar uning obyekti bo‘lib xizmat qiladi. Banklarning qimmatli qog’ozlar bo‘yicha operatsiyalarining 2 turi ko‘proq qo‘llaniladi. Bular qimmatli qog’ozlarni kreditning ta’minlanganligi uchun qabul qilish yo‘li bilan ssudalar berish va ularni bank tomonidan o‘z hisobiga sotib olish yo‘li bilan operatsiyalar o‘tkazish.

Qimmatli qog’ozlar ta’minoti bo‘yicha ssudalar ularning to‘liq bozor kursi qiymati bo‘yicha emas, balki ularning ma’lum bir qismi (60-80%) bo‘yicha beriladi.

Qimmatli qog’ozlar soxta kapitalni ifodalasa-da, ular bo‘yicha ssudalar haqiqiy tovar ishlab chiqarish bilan bog’langan jarayonga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, qimmatli qog’ozlardagi bank investitsiyalari ham mavjud bo‘lib, bu holda bank turli emitentlardan qimmatli qog’ozlarni sotib oladi va bank qimmatli qog’ozlar portfeli vujudga keladi.

Bank tomonidan qimmatli qog’ozlarning xarid qilinishidan maqsad – bu qimmatli qog’ozlarni keyinchalik qayta sotish yoki kapitalning uzoq muddatga qo‘yilishi yo‘li bilan foyda olishdan iborat.

Oxirgi yillarda Respublikaning ko‘pgina tijorat banklari yuqori foyda olish maqsadida, davlatning xazina majburiyatlarini ko‘p miqdorda sotib olishdi. Chunki qimmatli qog’ozlarning bu turi bankka kafolatlangan daromad keltiradi. Hozirgi kunda tijorat banklari tomonidan berilayotgan kreditlarning ta’minoti sifatida ko‘chmas mulk, boshqa bank yoki sug’urta

tashkilotining sug’urta kafolati ham qabul qilinishi mumkin. Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari ichida kreditlash jarayoni asosiy o‘rinni egallaydi.

Banklarning aktiv operatsiyalari quyidagicha tasniflanadi:

1. Daromad olish nuqtayi nazaridan;
2. Likvidlik nuqtayi nazardan;
3. Xavf – xatar darajasiga ko‘ra bo‘linadi.

Lombard krediti-tovar moddiy boyliklarning, asosiy faoliyatiga taalluqli bajarilgan ishlar, ko‘rsatilgan xizmatlarning haqini to‘lash uchun qimmatli qog’ozlarni garovga qo‘yib alohida ssuda hisob varag’idan berilgan qisqa muddatli ssudalar.

Lombard kreditini ta’minlashda garov shartnomasini rasmiylashtirish bilan quyidagilar qabul qilinishi mumkin:

Davlatning qimmatli qog’ozlari:

Boshqa emitentlarining aksiyalari, obligatsiyalari va depozit sertifikatlari.

Bankning o‘z aksiyalari garov sifatida qabul qilinmaydi. Qimmatli qog’ozlar kotirovkasida kurs xatarini belgilab beradigan qimmatli qog’ozlar bozorida birja kursi o‘zgarishlari munosabati bilan qimmatli qog’ozlarning garov qiymati birja nominal qiymatining 80 % dan oshmasligi, kotirovka qilinmaydigan qimmatli qog’ozlarning garov qiymati esa nominal qiymatining 60 % dan oshmasligi lozim.

Qimmatli qog’ozlarni garovga qo‘yish bilan kredit berish 12 oydan oshmasligi lozim. Davlatning qimmatli qog’ozlarni garovga qabul qilishda kreditning eng katta miqdori uning garov qiymatining 90 % igacha yetishi mumkin.

Qarz oluvchi fond bozoridan sotib olingan boshqa qimmatli qog’ozlarni garovga qo‘yganda kreditning eng katta miqdori garov qiymatining 80% idan oshmasligi lozim.

Lombard krediti alohida ssuda hisob varag’i bo‘yicha kreditlashga mos keladigan tartibga o‘xshashdir. Lombard kreditiga garovga qo‘yilgan qimmatli qog’ozlar bo‘yicha olinadigan daromadlar qarz oluvchining muddatsiz depozit hisob varag’iga kiritiladi va birinchi navbatda ularni saqlash bo‘yicha xarajatlarni qoplashga, shuningdek, kreditdan foydalanganlik uchun foizlarni to‘lashga sarflanadi.

Kredit bo‘limi xodimi kontokorrent hisob varag’i bo‘yicha har oyda

mablag’lar harakatini o‘rganib chiqadi va oy davomida hisob varaq bo‘yicha depozit qoldiqlari yoki kredit qoldiqlari ustunligini hisobga olib, kontokorrent hisobvarag’i bo‘yicha mijozni kreditlashni davom ettirishni lozim topadi yoki maqsadga muvofiq emas deb xulosa beradi. Agar mijoz tomonidan moliyaviy ko‘rsatkichlarga amal qilinmasa, uning to‘lov layoqati yomonlashib borsa-da, bu ko‘rsatkichlarning yaxshilanishiga umid bo‘lmasa bankning kredit qo‘mitasi mijozning kontokorrent hisob varag’i bo‘yicha kreditlashni to‘xtatish va avval berilgan kreditni undirish bo‘yicha chora-tadbirlarni ko‘radilar.

16.4. Tijorat banklarining vositachilik xizmatlari

Overdraft kontokorrentning o‘ziga xos shaklidir. Uning o‘ziga xos xususiyati mijozga uning hisobvarag’ida qisqa muddatda debet qoldig’i bo‘lishiga ruxsat beradi. Overdraftdan foydalanish huquqi faqat eng ishonchli mijozlarga beriladi.

Overdraft hisob raqami kredit tovar-moddiy boyliklar uchun hisob-kitoblarni amalga oshirishda beriladi. Boshqa to‘lovlar Overdraft hisob varag’i bo‘yicha kredit qoldig’i miqdorida amalga oshiriladi. Konokorrent hisobvarag’idan farqli ravishda overdraft bank bilan mijoz o‘rtasida bitimga asosan rasmiylashtiriladi.

Bu bitimga asosan bank qarz oluvchi hisobvarag’idagi mablag’larda ortiqcha xarajatlarni to‘lanmaslikka hisobga haqli deb kelishiladi. Overdraft krediti bo‘yicha har oyning oxirida kredit qoldig’iga erishilishi lozim.

Mijoz tomonidan overdraftdan foydalanish mobaynida uni boshqa kredit turiga rasmiylashtirish mumkin, faqat kontokorrent turiga yo‘l qo‘yilmaydi. Overdraft hisob varag’i eng ishonchli mijozlarga ochiladi.

1) daromad olish nuqtayi nazaridan:

A) daromad keltiruvchi;

b) daromad keltirmaydigan aktivlarga bo‘linadi;

Bankka foyda keltiruvchi aktivlarga: Ssuda investitsiya operatsiyasining bir qismi, boshqa operatsiyalar kiradi.

Daromad keltirmaydigan aktivlarga kassa naqd pullari, Markaziy bankdagi korrespondentlik va rezerv schyotidagi qoldiq mablag’lar banklarning asosiy fondlarni investitsiyasi.

2) **Likvidlik nuqtayi nazardan** aktivlar 3 ga bo‘linadi:

a) yuqori likvid aktivlar;

b) likvid aktivlar;

v) ishonchsiz aktivlar.

Yuqori likvid aktivlar kassadagi naqd pullar, Markaziy bankdagi korrespondent schyotidagi qoldiq mablag'lar, Markaziy Bankdagi rezerv schyot mablag'lar qoldig'i qimmatbaho qog'ozlarga aylantirilgan mablag'lar (GKO). Likvid aktivlarga banklarning qisqa muddatli qo‘yilmasi; ssuda, qimmatbaho qog'ozlar, faktoring operatsiyasi va boshqalar kiradi. Uchinchi guruh aktivlariga ishonchsiz aktivlar banklarning uzoq muddatli qo‘yilmasi: ssuda qimmatbaho qog'ozlar kiritiladi, sotilishi qiyin bo‘lgan bank qo‘yilmasi (binolar, inshootlar, muddati o‘tgan ssuda qarzlar).

3)**Xavf – xatar darajasiga ko‘ra aktivlar 5 guruhga bo‘linadi:**

a) 1 – guruh aktivlariga nol darajali xavf – xatarga ega bo‘lgan kassadagi naqd pullar, Markaziy bankdagi korrespondent va rezerv schyotidagi qoldiq mablag'lar, davlat qimmatbaho qog'ozlari.

b) 2 – guruhga 10 % xavf – xatarlar darajasiga ega bo‘lgan aktivlar: bunga chet el banklaridagi korrespondent schyotidagi qoldiqlar kiradi.

v) 3 – guruh aktivlariga 20 % xavf – xatar darajasiga ega bo‘lgan aktivlar qimmatbaho qog'ozlar investitsiyasi kiradi.

g) 4 – guruh aktivlariga 50 % xavf – xatar darajasiga ega bo‘lgan aktivlar tijorat banklaridagi korrespondent schyotlarining qoldiq mablag'lari tushuniladi.

d) 5 – guruh 100 % xavf – xatar darajasiga ega bo‘lgan aktivlar, qisqa muddatli, muddati o‘tgan ssudalar va qolgan bank investitsiyasi kiritiladi.

Asosiy tushunchalar:

Aktiv operatsiyalar, bank aktivlari, ssuda, investitsiya, bank resurslari, onkol kreditlar, moddiy boyliklar, tovarlar, veksellar, fondlar (qimmatli qog'ozlar), tijorat, moliyaviy va «do‘stona» (bronza) veksellar, likvid aktivlar.

Mavzuni mustahkamlovchi savollar

1. Tijorat banklarning resurslari deganda nimani tushunasiz?
2. Bankning o‘z mablag'lari tarkibiga nimalar kiradi?
3. Bankning jalb qilingan mablag'lar tarkibiga nimalar kiradi?

4. Banklarning passiv operatsiyalar haqida tushuncha bering.
5. Bankning ustav kapitali deganda nimani tushunasiz?
6. Tijorat banklarning qimmatbaho qog’ozlarni muomalaga chiqarishdan maqsad nimada?
7. Jalb qilingan mablag’larning asosiy qismini qanday mablag’lar tashkil etadi?
8. Banklar o‘z mablag’larini ko‘paytirishda qaysi usullardan foydalanadi?
9. Aksiyadorlik jamiyati asosida tashkil qilingan tijorat banklari ustav fondini qanday yo‘llar bilan ko‘paytirishi mumkin?
10. Banklar mijozlar mablag’laridan qaysi muddatga foydalanishni amalga oshirishdan manfaatdor?
11. Tijorat banklari aktiv operatsiyalari deganda nimani tushunasiz?
12. Aktiv operatsiyalarni tasniflang.
13. Tijorat banklariga daromad keltiradigan va daromad keltirmaydigan aktivlarga ta’rif bering.
14. Davlatning qimmatli qog’ozlari haqida gapirib bering.
15. Banklarning investitsion operatsiyalariga ta’rif bering.
16. Lombard krediti deganda nimani tushunasiz?
17. Overdraft hisobraqami deganda nimani tushunasiz?
18. Overdraft hisobraqami kimlarga ochiladi?
19. Kontokorrent hisobvarag’i bo‘yicha mijozni kreditlashni ta’riflab bering.
20. Xavf – xatar darajasiga ko‘ra aktivlar necha guruhga bo‘linadi?

XVII BOB. NOBANK MOLIYA - KREDIT MUASSASALAR

17.1. Nobank moliya-kredit muassasalarning paedo bo‘lishi va rivojlanishi.
17.2. O‘zbekistonda nobank moliya-kredit tashkilotlarning funkctiyalari va vazifalari.
17.3. Nobank moliya-kredit tashkilotlarining rivojlanish va asosiy yo‘nalishlari.

17.1. Nobank moliya-kredit muassasalarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi

Nobank moliya kredit muassasalari iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda bank tizimining, Markaziy bank va tijorat banklardan so‘ngi uchinchi bosqichi bo‘lib, banklarning monopol mavqeini yo‘qotib boradi.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda zamonaviy kredit tizimiga nobank moliya kredit muassasalar rolining oshishiga birqator sabablar, xususan, rivojlangan mamlakatlarda aholi daromadlarining oshib borishi, qimmatli qog’ozlardan foydalanishning faol rivojlanishi va ushbu muassasalar tomonidan banklar ta’minlamaydigan maxsus xizmatlarning tatbiq etilishi asos bo‘ldi.

Nobank moliya kredit muassasalari banklardan farqli o‘laroq o‘ziga xos xususiyatdagi moliyaviy operatsiyalarni va xizmatlarni amalga oshiradilar. Bu muassasalar moliya - kredit kapitali bozorining nisbatan tor yo‘nalishlarida ustunlik qilib, ko‘p sonli mijozlarga ega bo‘lib, kredit va moliyaviy yordami operatsiyalarini amalga oshiradilar.

Nobank moliya kredit muassasalarining uzoq muddat davomida katta miqdordagi mablag’larni to‘play olish imkoniyatlari, ularni davlat idoralari bilan hamkorlik qilishga jozibador qiladi. Shu sababli, ko‘pgina mamlakatlarda davlat iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlarini moliyalashtirish, rivojlanmagan mintaqalarning rivojlantirish dasturlarini moliyalashtirishda ularning imkoniyatlaridan foydalanadi.

Nobank moliya kredit muassasalarning asosiy faoliyati yuridik va jismoniy shaxslarning mablag’larini jalb etish, aksiyalar, obligatsiyalar chiqarish, sug’urta polislari sotish orqali mablag’larni jamlaydilar. Iqtisodiyot va iqtisodiyotning birqator tarmoqlariga, korporativ va davlat zayom kreditlari, uzoq muddatli ipoteka kreditlari, istemol kreditlari,

o‘zaro iqtisodiy yordam berish bo‘yicha xizmatlarni amalga oshiradilar.

17.2. O‘zbekistonda nobank moliya-kredit tashkilotlarning funkctiyalari va vazifalari

Nobank moliya-kredit muassasalar moliya-kredit tizimining bir qismi bo‘lib, bularga quyidagilar kiradi:

- kredit va omonat muassasalar;
- pul bozoridagi o‘zaro fondlar;
- pensiya jamg’armalari;
- investitsiya kompaniyalari;
- ishonch kompaniyalari;
- xayriya jamg’armalar;
- sug’urta kompaniyalari va boshqa.

Kredit kooperativlari odatda kichik korxonalar yoki jismoniy shaxslar tomonidan a’zolarining ishlab chiqarish va iste’mol ehtiyojlarini kreditlash maqsadida tashkil etiladi. Bunday muassasalar XIX asrning o‘rtalarida Yevropada paydo bo‘la boshlagan. Hozirda dunyoning 80 dan ortiq mamlakatlarida kredit tarmoqlari mavjud bo‘lib, ular o‘z mijozlariga keng qamrovli xizmatlarni taqdim etadilar. Kredit kooperativlari jismoniy shaxslarga xizmat ko‘rsatishda tijorat banklarning raqibiga aylanmoqdalar.

Lombardlar. Kredit tashkilotlarining eng qadimiy turlari bo‘lib, lombardlar birinchi bor XV asrda Fransiyada Lombardiyadan kelgan muhojirlar jismoniy shxslarga ko‘char mulklarni garovga olish orqali kreditlar berganlar.

Lizing kompaniyalar. O‘tgan asrning 50-yillarida AQShda va 60-yillarda G’arbiy Yevropa mamlakatlarida tadbirkorlik faoliyatining yangi turi – lizing paydo bo‘ldi. Lizing aslida bilvosita kreditlash shakli bo‘lganligi sababli (tovar shaklida beriladigan kredit) u bank muassasalari nazorati ostiga olingan va hozirgi vaqtda nafaqat lizing kompaniyalari, balki tijorat banklar ham amalga oshiradigan operatsiyalar hisoblanadi.

Faktoring kompaniyalari. Bilvosita kreditlash bo‘lib moliyaviy muassasasi yetkazib beruvchidan tovarlar va xizmatlarni yetkazib berishni talab qilish huquqini oladi. Bunday operatsiyalar ko‘proq tijorat banklar tomonidan amalga oshiriladi.

Forveyting kompaniyalar. Tijorat banklar sotuvchi firmalarga

bilvosita qarz berish shaklini taklif etadilar. Sotuvchiga tashqi savdo operatsiyalari bo‘yicha veksellar va boshqa qarz talabnomalarini sotib olish orqali eksportni kreditlash. Boshqacha qilib aytganda, **forforatsiya** bu - tadbirkorning tijorat kreditini bank kreditiga aylantirish shakli.

Veksellar hisobini yuritish – idoralari. Iqtisodiyotda debitor va kreditor qarzdorliklarni bartaraf etishda tijorat banklar bilan bir qatorda veksellar muomalasini yaxshi tashkil etish, to‘lovlarni amalga oshira olmaslik sharoitida banklar bilan bir qatorda bunday xizmatlarni ixtisoslashtirilgan tashkilotlar – veksellar hisobini yuritish idoralari, veksel hisob-kitob bo‘limlari va boshqalar amalga oshiradilar.

Nodavlat pensiya jamg’armalari. Birinchi klassik pensiya tizimi XIX asr oxirlarida paydo bo‘lgan bo‘lib, birinchi to‘laqonli pensiya tizimini yaratish borasida yetakchi davlat Germaniya hisoblanadi. 1883-1884-yillarda Germaniyada kasallik va shikast olganlik uchun moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimi joriy qilindi, keyinchalik 1889-yilda pensiya ta’minoti paydo bo‘ldi. XIX asrning 20-yillaridan boshlab pensiya ta’minoti barcha rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy ta’minotning asosiy shakliga aylandi.

Jamg’arib boriladigan tizimda esa badallar pensionerlarga joriy to‘lovlarni amalga oshirish uchun emas, balki kapitallashtirilib, investitsiyalashdan olingan daromadlar bilan birgalikda keyinchalik jamg’arishni amalga oshirgan shaxslarning pensiya ta’minoti uchun foydalaniladi. Aksariyat mamlakatlarda pensiya tizimlarida taqsimot va jamg’ariladigan tamoyillar birontasining ustuvorligi sharoitida aralash holda qo‘llaniladi.

Sug’urta kompaniyalar. Sug’urta fondlar va kompaniyalar tashkil etish manbasiga ko‘ra, foydalanish yo‘nalishiga ko‘ra, uch yo‘nalishda bo‘ladi:

O‘z-o‘zini sug’urtalash fondlari, bu fond har bir xo‘jalik subyektida tashkil etiladi va ishlab chiqarishda vaqtincha yuzaga kelgan qiyinchiliklarni oldini olishga xizmat qiladi.

Davlatning markazlashgan sug’urta fondlari. Markazlashgan sug’urta fondlar umumdavlat resurslari hisobidan tashkil etiladi. Bu fonddan asosan favqulodda hodisalar ro‘y berganda paydo bo‘lgan qoplashga ishlatiladi.

Sug’urta yo‘li bilan tashkil etiladigan. Bu fond sug’urtalanuvchilarga to‘langan mukofotlar hisobidan tashkil etiladi. Sug’urta fondi faqat pul shaklida va u qat’iy maqsadli yo‘nalishda foydalaniladi, ya’ni,

sug’urtalovchi va sug’urtalanuvchi o‘rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq, sug’urta qoplamasi yoki sug’urta summasini to‘lashga ishlatiladi.

Rieltorlik tashkiloti. Rieltorlik tashkiloti litsenziyaga ega bo‘lgan tijorat tashkilotidir. Rieltorlik tashkiloti qonun hujjatlarida nazarda tutilgan har qanday tashkiliy-huquqiy shaklda tashkil etilishi va o‘z faoliyatini amalga oshirishi mumkin.

Rieltorlik faoliyati quyidagi turlardagi rieltorlik xizmatlarini ko‘rsatish orqali amalga oshiriladi:

- ko‘chmas mulk obyektlariga va ularga bo‘lgan huquqlarga doir bitimlarni tuzish chog’idagi vositachilik;
- ko‘chmas mulk obyektlarining va ularga bo‘lgan huquqlarning savdosini tashkil etish;
- ko‘chmas mulk ob’ektlarini ishonchli boshqarish;
- ko‘chmas mulk bozorida axborot va maslahat xizmatlarini ko‘rsatish.

Investitsiya muassasalariga investitsiya vositachilari (brokerlar - dilerlar) investitsiya maslahatchilari, investitsion fondlar, investitsion kompaniyalar, boshqaruv kompaniyalari, qimmatli qog’ozlar egalarining resterlarini saqlovchilar, depozitariylar, hisob-kitob kliring palatalar, qimmatli qog’ozlarning nominal egalari va boshqa bir qator tashkilotlar kiradi.

17.3. Nobank moliya-kredit tashkilotlarining rivojlanish va asosiy yo‘nalishlari

O‘zbekistonda bozor munosabatlarining chuqurlashishi, moliya-kredit xizmatlari bozorini rivojlantirish, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining ishchanlik faolligini qo‘llab-quvvatlashni talab etmoqda. Bu talabni bajarish uchun mamlakatimizda mikromoliyalash tashkilotlari 2005-yildan tez sur’atlar bilan tashkil topa boshladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga ko‘ra «Nobank kredit tashkilotlari faoliyatini tashkil etish uchun huquqiy asoslarni takomillashtirish va ruxsat berish tartib-tamoyillarini soddalashtirish, shuningdek, tijorat banklarini mikromoliyalashtirish jarayonlariga jalb qilish bo‘yicha ko‘rilayotgan choralar respublikada mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatish hajmini yetarli darajada kengaytirishga imkon yaratganligini

ta’kidlangan».[50]

Nobank kredit tashkilotlari vujudga kelishiga qator omillar xizmat qilib, ular quyidagilardan iborat.

1. Mamlakatda ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishi natijasida qo‘shimcha moliyaviy resurslarga bo‘lgan talabning ortib borishi;

2. Jamiyatda vaqtinchalik bo‘sh pul mablag’laridan samarali (yuqori daromad olish) foydalanishga bo‘lgan ehtiyojning yuqoriligi;

3. Bankdan tashqari aylanmalar hajmini qisqartirish asosida real sektorga mablag’larni joylashtirish zarurligi va boshqa omillar.

O‘zbekiston qonunchilik hujjatlariga asosan mikromoliyalash tashkilotlari tarkibiga banklar, mikrokredit tashkilotlari, lombardlar va boshqa kredit tashkilotlari kiradi.

Mikrokredit tashkiloti quyidagi turlardagi mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatishi mumkin:

- mikrokreditlar yoki mikroqarzlar berish;
- qarz majburiyatlarini sotib olish va sotish (faktoring);
- mikrokredit tashkiloti lizing beruvchi sifatida ishtirok etadigan mikrolizing (moliya ijarasi);
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa turdagi mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatish, shu jumladan iste’mol kreditlari berish.

Mikrokredit tashkiloti mikrokreditlar, mikroqarzlar, mikrolizing berish va boshqa mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatish bilan bog’liq maslahat va axborot xizmatlari ko‘rsatishi mumkin. O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan Nobank kredit tashkilotlari soni So‘nggi besh yil davomida mikrokredit tashkilotlari soni 41 taga, lombardlar soni esa 30 taga ortib, hozir 71 ta mikrokredit tashkilotlari hamda 76 ta lombard aholi va tadbirkorlarga mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatmoqda.

Hududlar kesimida nobank kredit tashkilotlari Toshkent shahrida 2 barobarga (jami 64 ta), Farg’ona va Buxoro viloyatlarida 3 barobarga (mos ravishda 19 ta va 14 ta) hamda Toshkent viloyatida 1,4 barobarga (soni 14 ta) o‘sgan.

Shuningdek, o‘tgan bir yil mobaynida nobank kredit tashkilotlari bozorida yangi ishtirokchilarning – 8 ta mikrokredit tashkiloti hamda

[50]«Mikromoliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori Toshkent, 2019-yil 23-iyul

ularning 32 ta filial va chakana xizmatlar markazlari, 11 ta lombard faoliyat boshlashi natijasida ularning umumiy soni 148 tani tashkil qilgan.

Kredit tahkilotlari soni



Foto: Markaziy bank

Nobank kredit tashkilotlarining aktivlari.

Nobank kredit tashkilotlari aktivlari o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 2 barobarga ortib, 2022-yil 1-may holatiga ko‘ra 3,4 trln so‘mni tashkil etgan. Aktivlar o‘sishida kreditlash operatsiyalarining 2,2 barobarga oshishi asosiy omil bo‘lgan.

Xususan, mikrokredit tashkilotlari aktivlari 58 foizga (557 mlrd so‘mga) o‘sib, 1 520 mlrd so‘mga va lombardlar aktivlari 35 foizga yoki 60 mlrd so‘mga ko‘payib, umumiy 231 mlrd so‘mga yetgan.

Aktivlar hajmining o‘sishi asosan mikrokredit tashkilotlarida kreditlarning 501 mlrd so‘mga va lombardlarda 47 mlrd so‘mga oshishi hisobiga yuzaga kelgan.

Ipotekani qayta moliyalashtirish tashkiloti jami aktivlari 4 barobarga (1 173 mlrd so‘mga) o‘sgan holda 1 618 mlrd so‘mni tashkil etgan (bunda kreditlash sur’ati 1 105 mlrd so‘mga ortgan).

Nobank kredit tashkilotlarining kreditlash amaliyoti.

2022-yil yanvar—aprel oylarida mikrokredit tashkilotlari va lombardlar tomonidan koʻrsatilgan mikromoliyaviy xizmatlar hajmi oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 63 foizga oshib,1,4 trln soʻmni tashkil qildi.

2022-yilning 1-may holatiga jami mikromoliyaviy xizmatlar qoldigʼi (1,6 trln soʻm) 52 foizga, xususan, mikrokredit tashkilotlari kredit qoʻyilmalari qoldigʼi (1 404 mlrd soʻm) 55 foizga va lombardlar kredit qoldigʼi (195 mlrd soʻm) 32 foizga oʻsgan.

Oʻz navbatida ipotekani qayta moliyalashtirish tashkiloti tomonidan aholining uy-joylarga boʻlgan oʻsib borayotgan ehtiyojini qondirish maqsadida tijorat banklariga ajratilgan resurslari qoldigʼi 4 barobarga (1 105 mlrd soʻmga) ortib, 1 428 mlrd soʻmga yetgan.

2022-yil 1-may holatiga barcha nobank kredit tashkilotlarining jami kredit qoʻyilmalari qoldigʼi oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 2,2 barobarga koʻpayib, 3 trln soʻmga yoki umumiy kreditlash hajmidagi ulushi 0,9 foizga yetgan.

Bunda soʻnggi bir yil davomida umumiy kreditlash hajmida nobank kredit tashkilotlari hissasi 2 barobarga oshishi asosan ipotekani qayta moliyalashtirish tashkiloti tomonidan kreditlash surʼatlarining yuqori darajada oʻsishi hisobiga shakllangan.

Shu bilan birga, 2021-yil 1-may holatiga nisbatan nobank kredit tashkilotlari tomonidan jismoniy shaxslarga ajratilgan mikroqarzlar 54 foizga ortib, 1 583 mlrd soʻmga yetgan boʻlsa, tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan mikrokredit qoldigʼi 37 foizga kamayib, 16 mlrd soʻmni tashkil etdi.

Nobank kredit tashkilotlarining muammoli kreditlari.

2022-yil 1-may holatiga nobank kredit tashkilotlari kredit qoʻyilmalarining 92 foizi “standart”, 5 foizi “substandart”, 1 foizi “shubhali” va 2 foizi “umidsiz” kreditlar sifatida tasniflangan.

Oʻtgan yillarda koronakrizis oqibatida yuzaga kelgan kredit xatarlarining nobank kredit tashkilotlari moliyaviy holatiga boʻlgan salbiy taʼsirini kamaytirish yuzasidan koʻrilgan prudensial choralar hamda ular tomonidan ishlab chiqilgan chora-tadbirlar boʻyicha amalga oshirilgan ishlar natijasida muammoli kreditlar (NPL 30+) ulushi 8 foiz bandga kamayib, 8 foizni yoki 132 mlrd soʻmni tashkil etgan.

Xususan, muammoli kreditlar mikrokredit tashkilotlarida 52 foiz yoki

62 mlrd so‘mga kamaygan bo‘lsa (qoldig’i 57 mlrd so‘m), lombardlarda 41 foiz yoki 22 mlrd so‘mga o‘sgan (qoldig’i 74 mlrd so‘m).

Nobank kredit tashkilotlarining majburiyatlari va kapitali.

a) nobank kredit tashkilotlarining jami majburiyatlari o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 3 barobarga oshib, 2,3 trln so‘mni tashkil etgan.

Xususan, mikrokredit tashkilotlarida 80 foizga oshib, 750 mlrd so‘mni, lombardlarda 8 foizga ko‘payib, 25 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotida qariyb 4 barobarga ortgani holda, 1 498 mlrd so‘mga yetgan.

Majburiyatlar o‘sishida jalb etilgan mablag’larning 3 barobarga (1 435 mlrd so‘mga) oshishi asosiy omil bo‘lgan.

Ma’lumot uchun: banklardan jalb etilgan kreditlar mikrokredit tashkilotlarida 1,6 barobarga ortib, 389 mlrd so‘mni, lombardlarda 1,4 barobarga oshib, 6 mlrd so‘mni, ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotida 4,4 barobarga ko‘payib, 1 428 mlrd so‘mni tashkil etgan.

Shuningdek, mikrokredit tashkilotlari tomonidan xalqaro moliya tashkilotlaridan jalb qilingan mablag’lar 5 barobarga oshib, 57 mlrd so‘mni tashkil qilgan.

b) mikrokredit tashkilotlarining jami kapitali 41 foizga va lombardlarda 40 foizga oshib, mos ravishda 770 mlrd so‘m hamda 207 mlrd so‘mga yetgan bo‘lsa, ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotida 15 foizga ko‘payib, 121 mlrd so‘mni tashkil etgan.

Nobank kredit tashkilotlari jami kapitalining ko‘payishi asosan ustav kapitalining 75 mlrd so‘mga va taqsimlanmagan foydasining 161 mlrd so‘mga oshishi hisobiga to‘g’ri kelgan.

Ma’lumot uchun: nobank kredit tashkilotlari tarkibida chet el mablag’lari ishtirokidagi tashkilotlar soni 4 taga ko‘payib, 8 taga yetgan.

Nobank kredit tashkilotlari daromadliligi.

Nobank kredit tashkilotlari tomonidan olingan jami daromadlar o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 128 mlrd so‘mga (45 foizga) oshib, 411 mlrd so‘mni tashkil qildi.

Xususan, jami daromadlar tarkibida foizli daromadlar 87 foiz yoki 359 mlrd so‘mni tashkil etib, foizli daromadlar ajratilgan kredit va lizinglardan olingan daromadlar (353 mlrd so‘m) hamda banklarga joylashtirilgan depozitlardan olingan daromadlar (6 mlrd so‘m) hisobiga shakllangan.

Nobank kredit tashkilotlarining jami xarajatlari 74 mlrd so‘mga (43

foizga) koʻpayib, 246 mlrd soʻmni tashkil etgan. Jami xarajatlarning 42 foizi yoki 104 mlrd soʻmi foizli xarajatlar, ularning asosiy qismi (77 mlrd soʻm) banklardan jalb etilgan kreditlar boʻyicha xarajatlardan iborat boʻlgan.

Mikrokredit tashkilotlarining sof foydasi oʻtgan yilga nisbatan 56 foizga ortib, ularning aktivlari hamda kapitalining rentabellik darajasi mos ravishda 8 va 16 foizni tashkil qilgan.

Shuningdek, lombardlar aktivlari rentabelligi darajasi 2021-yilning mos davriga nisbatan 1 foiz bandga kamayib, 16 foizni, kapital rentabellik darajasining esa 1,6 foiz bandga kamayib, qariyb 18 foizni tashkil etgan.

Ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotining sof foydasi oʻtgan yilga nisbatan 2 barobarga ortgan boʻlsa-da, aktivlar rentabelligi 2 barobarga kamayib, 0,4 foiz, kapitalning rentabellik darajasi esa 2,1 foiz bandga oshib, 5,3 foiz doirasida shakllangan.

Aktivlar daromadlilik darajasining oʻtgan yilning mos davriga nisbatan kamayishi tashkilot aktivlarining yuqori surʼatlarda (4 barobarga) oʻsishi hisobiga yuz bergan.

Asosiy tushunchalar:

Nobank va kredit tashkilotlari, mikromoliyalash tashkilotlari, lombard kredit tashkilotlari, mikrolizing, investitsiya iqlimi, nodavlat notijorat tashkilotlari, iIpotekani qayta moliyalashtirish.

Mavzuni mustahkamlovchi savollar

1. Mikromoliyalash tashkilotlarini tashkil etishdan maqsad nimada?
2. Nobank kredit tashkilotlarining qanday shakllari mavjud?
3. Nobank kredit tashkilotlari vujudga kelishiga qanday omillar sabab boʻldi?
4. Nobank kredit tashkilotlari tijorat banklaridan qaysi jihatlari bilan farqlanadi?
5. Mikromoliyalash tashkilotlarini tashkil etishda qanday normativ meʼyoriy hujjatlar ishlab chiqildi?
6. Mikromoliyalash tashkilotlarining ustav fondi pul mablagʼlari qaysi manbalar asosida shakllanadi?
7. Mikrokredit tashkilotlari faoliyatini kim tomonidan tartibga soladi va nazorat qiladi?
8. Dastlabki lombardlar qayerda paydo boʻlgan?

9. Lombardlarning o‘ziga xos xususiyatlari nimada?
10. O‘zbekistonda lombardlar bank tizimining qaysi pog’onasi tarkibiga kiradi?
11. Mikromoliya tashkilotlari tomonidan qanday moliyaviy xizmatlar ko‘rsatiladi?
12. Lombardlar qanday moliyaviy xizmatlar ko‘rsatiladi?
13. Ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotlari qanday moliyaviy xizmatlar ko‘rsatiladi?
14. Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to‘g’risida Qonunning maqsadi nimalardan iborat?
15. Nobank kredit tashkilotlari faoliyatiga doir cheklovlar nimalardan iborat?

XVIII BOB. BANK INQIROZLARINING MOHIYATI

18.1. Bank inqirozining mohiyati.
18.2. Bank inqirozini belgilovchi mezonlar.
18.3. Yuz bergan bank inqirozlarining sabablari.

18.1. Bank inqirozining mohiyati

Moliya bozorining bir segmentida yuzaga kelgan tizimli risklar (xususiy xoldagi inqiroz) uning boshqa segmentlariga tarqalar ekan, tizimli risk mexanizmi orqali butun moliya-kredit tizimini tanazzulga boshlaydi.

Xususiy holdagi inqirozlarga quyidagilar taalluqlidir:

- Qimmatli qog'ozlar bozoridagi inqiroz;
- Qarz majburiyatlari bilan bog'liq inqirozlar;
- Valyuta inqirozlari;
- Likvidlik inqirozi;
- Bank inqirozlari va boshqalar.

Bank inqirozlari - bu domino effektiga asoslangan bank sektori inqirozi bo‘lib, qator banklarda muammoli aktivlarning jamlanishi va ular to‘lov qobiliyatining pasayib ketishi bank sarosimasiga, omonatchilarning keng ko‘lamida bank tizimidan qaytarib olinishiga, banklararo kreditlar hajmining keskin kamayishiga sabab bo‘ladi va banklarda nisbatan ishonchning pasayish zamirida banklar tomonidan to‘lovlar hajmining qisqarishiga va natijada, to‘lov tizimi hamda moliya bozori tanazzuliga olib keladi.

Jahon iqtisodiy adabiyotida bank inqirozining mohiyatini aniqlashga yagona yondashuv mavjud emas.

Demak, bank inqirozi - ko‘pgina banklarning o‘z vazifalarini bajara olmasligi, bu ham bank tizimi, ham umuman iqtisodiy tizim uchun halokatli oqibatlarga olib keladi.

Bank inqirozlari barqaror bozorda ham, o‘zgaruvchan o‘tish davri iqtisodiyotida ham yuzaga keladi, hisob-kitoblar asosida o‘z-o‘zidan va kutilmagan bo‘lishi mumkin.

Har qanday iqtisodiyotda har doim qandaydir inqiroz elementlari bo‘ladi, lekin faqat ma’lum sharoitlarda ular milliy va jahon darajasidagi jiddiy inqirozlarga qo‘shiladi. Bunday inqirozlarning oldini olish uchun o‘z vaqtida choralar ko‘rish zarur, bu esa “bank inqirozi” tushunchasining

mohiyatini, uni aniqlash qobiliyatini bilishni talab qiladi.

Moliyaviy inqiroz, odatda bozor iqtisodiyoti qaror topayotgan davlatlarda (emerging markets) quyidagi parametrlar bilan tavsiflanadi:

- aksiyalar bozori kapitallashuvining 20%dan ortiqqa pasayishi;
- obligatsiyalar hajmining bozor qiymati bo‘yicha ichki va tashqi bozorlarda 15 %dan ortiqqa qisqarishi;
- bozor foiz stavkasining 20 %dan ortiqqa o‘sishi;
- yillik infilyatsiya sur’atining 20 %dan ortiqqa o‘sishi;
- xorijga chiqib ketadigan kapital miqdorining 30%dan ortiqqa ko‘payishi;
- milliy valyuta almashuv kursining 15 % dan ortiqqa pasayishi;
- Markaziy bank oltin valyuta zaxiralarining 20% dan ortiqqa kamayishi;
- bank sektori depozit bazasining 10 % dan ortiqqa kamayishi;
- ichki kreditlar hajmining 10% dan ortiqqa qisqarishi.

Rivojlanayotgan davlatlarda moliyaviy inqirozning tez sur’atlarda tarqalishining muhim sabablaridan biri shundaki, biror bir rivojlanayotgan davlatning tanazzulga yuz tutishi zanjirli reaksiya orqali investorlarni mazkur mamlakatga o‘xshagan (risk darajasi aynan bo‘lgan) davlatlarning qimmatli qog’ozlaridan voz kechishga undaydi.

18.2. Bank inqirozini belgilovchi mezonlar

Bank tizimining umumiy inqiroziga olib keladigan sabablarni ham ikki darajaga bo‘lish kerak - ***bevosita*** (yuzaki) va ***bilvosita*** (chuqur).

Biz yuzaki sabablar bilan allaqachon uchrashdik - bu inqirozni haqiqatga aylantiradigan holatlar yoki omillar (ular har doim ham aniq emas, inqirozning nisbatan chuqur shakllari).

Ushbu sabablar:

❖ faqatgina mumkin, chunki ularning ba’zilari mavjud bo‘lishi yoki bo‘lmasligi mumkin, ma’lum sharoitlarda inqiroz kuchayishi va haqiqatan ham “tetiklashi” mumkin, ammo bunday bo‘lmasligi mumkin;

❖ yuzaki - ularning o‘zlari, o‘z navbatida, yanada chuqurroq, fundamental hodisalar va jarayonlar bilan izohlanishi kerak.

Inqirozning sabablari (ham yuzaki, ham yashirin) barcha tashqi banklar uchun tashqi muhitda vujudga keladigan va vujudga kelgan va ikkinchisiga,

ikkinchisiga bog’liq bo‘lmagan sabablarni hisobga olgan holda tashqi va ichki qismlarga bo‘linishi kerak. Banklarning o‘zida paydo bo‘ladi, ular o‘zlarining "mahsuloti" bo‘lib, ularga to‘liq bo‘ysunadilar. Bunday ajratish texnologik nuqtayi nazardan zarur - inqirozga qarshi choralarni ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonida kim javobgar bo‘lishi kerakligi aniq.

Bunday holda, umumiy holatda bank tizimi (sektori) inqirozining tashqi sabablari orasida eng muhimlari quyidagicha ko‘rib chiqilishi mumkin:

– makroiqtisodiy nomutanosibliklar (iqtisodiyot tarmoqlarining kuchli yoki o‘sib borayotgan nomutanosibligi, byudjetning tanqisligi va o‘sib borishi, davlat qarzi, yalpi ichki mahsulotning o‘sish sur’atlarining past yoki sekinlashishi, biznesning noqulay yoki yomonlashishi) va zarur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirmaslik;

– hokimiyat organlarining makroiqtisodiy siyosati, shu jumladan, qonun va me’yoriy hujjatlarda, davlatning iqtisodiyotdagi o‘rni va roli to‘g’risidagi siyosat, iqtisodiyotning real sektorida va bank sektorida milliy ishlab chiqarishga tegishli siyosat, iqtisodiy o‘sishni ta’minlash siyosati. Moliyaviy barqarorlik, jamoatchilik, ishbilarmon doiralar va jamoatchilik tomonidan bunday siyosat (siyosat)ni tushunmaslik va (yoki) rad etish;

– moliyaviy beqarorlik (kuchli yoki o‘sib borayotgan inflyatsiya, tovarlar narxlari va moliyaviy aktivlar narxining keskin o‘zgarishi, real foiz stavkalarining yuqori yoki ko‘tarilayotgan darajasi, mamlakatdan va milliy iqtisodiyotdan kapitalning katta yoki ko‘payib borishi, davlatning oltin-valyuta zaxiralarining pasayishi, milliy valyuta kursining keskin o‘zgarishi va boshqalar), bunday beqarorlikning yanada kuchayishi haqida jamoatchilikning taxminlari;

– markaziy bank va boshqa tartibga soluvchi tashkilotlar tomonidan yuridik shaxslar faoliyatini tartibga solish siyosati va amaliyotining etarli emasligi (tegishli faoliyat uchun me’yoriy-huquqiy bazaning etishmasligi, norasmiy nazorat va tartibga solish, bank sohasida yuzaga keladigan muammolarga o‘z vaqtida va yetarli darajada javob bermaslik va boshqalar);

– milliy biznes hamjamiyatining (real sektor) ichki bank sektoriga nisbatan adolatsiz siyosati (xorijiy banklarga kapital qo‘yilishi);

– aholining mamlakat moliya tizimiga va xususan milliy bank tizimiga bo‘lgan ishonchining past yoki pasaygan darajasi (bunday munosabatni keltirib chiqaradigan sabablardan qat’i nazar).

18.3. Yuz bergan bank inqirozlarining sabablari

AQSHda yuz bergan bank inqirozlari. Skandinaviya davlatlarida, Lotin Amerikasida, Rossiya va Sharqiy Yevropa, Yaponiya va Sharqiy Osiyo mamlakatlarida yuz bergan bank inqirozlari

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi yuzaga kelishining asosiy sabablari Xalqaro bank likvidliligi muammolarining keskinlashuvi AQSH ipoteka kreditlari bozoridagi tanglikning butun moliya sektoriga tarqalishiga, so‘ngra iqtisodiyotning real sektoriga ta’sir etish orqali iqtisodiy inqirozga aylanishiga sabab bo‘ldi.

Banklar tomonidan talab qilinadigan foiz stavkalari doimo ham muvozanatli (tabiiy) stavkaga teng bo‘lavermaydi. Boshqacha aytganda, “tabiiy” yoki muvozanatli stavka tushunchasi shved iqtisodchisi Knut Viskell tomonidan kiritilgan bo‘lib, talab va taklif asosida shakllangan pul bahosini ifodalash uchun qo‘llaniladi.

Banklar qisqa muddatli davriy oraliqda iqtisodiyotni tabiiy stavkaga nisbatan pastroq foiz stavkasini so‘rash orqali rag’batlantirishlari mumkin. Bu “noto‘g’ri” signal investitsiya va iste’molning oshishiga va aksincha, jamg’armalarning qisqarishiga sabab bo‘ladi. Albatta, banklar bunday past stavkalarda uzoq vaqt qarz bera olmaydi, natijada banklarning kreditlash amaliyoti qisqaradi, iqtisodiyotdagi muvozanat buziladi, hatto ayrim banklar qarzlarning qaytmasligi oqibatida inqirozga yuz tutadi, pirovardida iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlarining pasayishi yuz beradi.

1999-yilga kelib Gless Stigel qonunining bekor qilinishi AQSH tijorat banklariga investitsiya banki funksiyasini bajarish imkonini berdi, bu o‘z navbatida, riskli anderrayting qimmatli qog’ozlar savdosi, beqaror kredit amaliyotlarining rivojlanishiga olib keldi.

Albatta, AQSHda mazkur qonunning qabul qilinishi Buyuk depressiya bilan chambarchas bog’liq. 1933- yilga qadar investitsion va tijorat bank faoliyati bir muassasa tomonidan amalga oshirilar edi. 1933- yilda AQSH Kongressi tomonidan Gless Stigel deb nomlanuvchi bank qonuni qabul qilindi. Bu qonunga muvofiq, tijorat banklar faoliyati qimmatli qog’ozlar sanoatidan ajratildi. Investitsiya banklarning tijorat bank faoliyati bilan shug’ullanishi qonuniy jihatdan taqiqlab qo‘yildi. Shuningdek, tijorat banklarning anderrayting faoliyati hamda korporativ qimmatli qog’ozlar bilan shug’ullanishiga chek qo‘yildi. 1929 – 1933-yillar mobaynida qarib

200 ta tijorat banki investitsion bank faoliyatidan voz kechdi.[51]

1999-yilga kelib moliyaviy moderinizatsiyalash bo‘yicha Grem ma Lich Vlayli qonuni qabul qilingach, tijorat banklariga sug’urta faoliyati va qimmatli qog’ozlar bilan shug’ullanadigan sho‘ba korxonalarini ochishga ruxsat berildi. Ushbu qonun 2000-yilning mart oyidan kuchga kirgan bo‘lib, shu paytdan boshlab AQSH tijorat banklari yuridik maqomni “investitsion bank xolding kompaniyasi” (investment bank xolding company) bo‘lgani xolda “universal tijorat majmualari”[52] ga aylana boshladilar. 2000-yilning may oyiga kelib AQSHda 270 ta milliy banklar va 17 ta xorijiy bank investitsion bank xolding kompaniyasi sifatida qaytadan tashkil etildi va ushbu jarayon 2008-yildagi global moliyaviy inqirozga debocha yasadi.

2008-yildagi global moliyaviy inqirozning muhim xususiyatlaridan biri shundaki, u innovatsion xarakterga ega. Ya’ni, uning kelib chiqishida murakkab tuzilmali innovatsion moliyaviy mahsulotlarning rivojlanishi va ularni tartibga solishning samarali tizimi shakllanganligi muhim rol o‘ynagan.

Ayniqsa, bank sektorida sekyuritizasiyalash (bank aktivlari ta’minoti asosida qarzga qimmatli qog’ozlarni chiqarish) jarayonlarning ko‘lami yanada kengayib ketdi. Ayni paytda, bu amaliyotda tijorat banklarga arzon resurslarni jalb qilish, kredit riskini transformatsiyalash, likvidlikni boshqarish va yuqori foyda olish kabi imkoniyatlar berildi.

Bozor iqtisodiyotining nomuvofiq, nomutanosib va qarama-qarshiliklari tufayli bank inqirozlarining bo‘lib turishi qonuniy holatlar bo‘lib hisoblanadi.

Bank inqirozlari har qanday iqtisodiy holatlar va davlatlarning salohiyatiga ta’sir o‘tkazmay qo‘ymaydi, jumladan, **18.1-jadval** ma’lumotlari shuni asoslaydi.

Bank tizimidagi eng muhim muammo bu moliyaviy balansda asta-sekin iqtisodiy xavflarning to‘planishi. Iqtisodiyot kichkina bo‘lsa ham, uning bank sektoridagi muammolar unchalik ta’sir ko‘rsatmadi. Ammo bank tizimining iqtisodiyotdagi o‘rni tobora o‘sib, hajmi oshmoqda, sohalar va jismoniy shaxslarni kreditlash bank xatarlarini boshqarish funktsiyalari va rolini oshirishni talab qiladi.

---

[51] Shugxart W.F. A Hublic Chjice Perspective of the Banking Act of 1933 / Cato Journal, 1988. Vol. No.3.-P.606.
[52] Rubsov B.B. Mirovqe fondovqe rqnki: problemq i tendensii razvitiya: Diss.. dok. Ekonom,nauk. M. 2000. S.179.

18.1-jadval.

Dunyoning bir qator mamlakatlar bank tizimining xususiyatlari[53]

Davlatlar	**Moliya kredit muassasalari**	**Moliya kredit muassasalaridagi moliyaviy xolat**
AQSH (1980-yillarda)	Moliyaviy talafot tufayli bank industriyasi zaharlandi	1990-yilda 469 ta jamg'arma banklar 2,6 milliard dollar o'zaro zarar ko'rdi
Meksika (1994-1995 yillarda)	Bank tizimi	Banklarning uzaytirilgan qarzdorliklari 55milliard pessodan oshib ketdi (3,3 % YAIM yoki fond bozorining sinishidan so'ng 100 % o'z kapitali, 25% banklar davlat nazoratida qoldirildi)
Argentina (1995-yil)	Bank tizimi	8 milliard dollar jamg'armalar banklardan ketib qoldi. 1/5 jami depozitlar banklardan ketib qoldi, qisman bank likvidligiga keskin ta'sir ko'rsatdi,banklarning bankrotligi zanjiri boshlanib ketdi
Braziliya (1995-yil)	Ikkita yirik bankning to'lovga qobiliyatini yo'qolish inqirozi	Economico bank zarari 3,5 milliard dollar, Nacional bank ni qarzdorligi 4 milliard realni tashkil etadi.
Janubiy-sharqiy Osiyo, Janubiy Koreya, Indoneziya, Filippin (1997 yil)	Bank tizimi	Indoneziyada ssudalarning qaytmaslik miqdori 85%ni tashkil etdi, Tailandda 50%, Malayziyada 40%, Janubiy Koreyada 45%
Yaponiyada (1998-2003	12 ta bank tugatildi	2003-yilda Yaponiyada ishlamayotgan aktivlar 398 milr dollarni tashkil etdi.

[53] Manbaa: Mamedov Z.F. Bankovskiy krizis v mirovoy ekonomicheskoy praktike// Materialы 1-ыу mejdunarodnыу nauchnыу konferensii , 6-7 aprelya 2006 goda: Sbornik dokladov. SPb: Izd. SPbGUEF, 2006.S.56-57.

yy.)		
Chexiyada (1997-1998 yy.)	Bank tizimi	Bankni qayta qurish uchun moliyaviy xarajatlar YaIMning 4% tashkil etdi, bankning ssudalari YaIM 25%
Rossiyada (1998-yil)	Bank tizimi	Qayta qurish xarajatlari turli manbalarga muvofiq 3%dan, aniq ma’lumotlar asosida esa 25% YaIM
Turkiya (2000- 2001 yil)	Bank tizimi	Jami kreditlarning 20% uzaytirilgan kreditlarni tashkil etdi. Qayta tashkil etilgandan so‘ng ham zarar 20% YaIM tashkil etdi. Turkiya banklarning qarzlari 40 milliard dollar atrofida tashkil etdi.
Argentina (2001-yil)	Bank tizimi	Banklarning moliyaviy yo‘qotishlari 6-10 milliard dollarga baholandi.

Xususan, banklarning kapitallashuvi yetarli emas, samarasiz bank xatarlarini boshqarish, axborot asimmetriyasi muammosini hal qilish uchun zarur institutlarning yo‘qligi rivojlanayotgan mamlakatlarda bank inqirozining rivojlanishiga yordam berdi. Natijada, ularda, qoida tariqasida, ijtimoiy-iqtisodiy, valyuta va bank inqirozlarining uyg’unligi kuzatildi.

So‘nggi 25 yil ichida 50 dan ortiq mamlakatda bank inqirozlari yuz berdi. Vaqt o‘tishi bilan banklar ham, davlat ham inqirozning salbiy oqibatlarining oldini olishga qaratilgan qator chora-tadbirlarni ishlab chiqdilar, shu jumladan, kredit munosabatlarini doimiy ravishda takomillashtirish va umuman milliy bank infratuzilmasining ishonchliligini mutanosib ravishda oshirish. Ko‘pgina davlatlarning hukumatlari va markaziy banklari bank inqirozini hal qilish va ularning bank tizimini qayta qurishdagi turli usullar bilan qatnashgan. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, qayta tuzishning ideal shakli ham, bank tizimidagi vaziyatni normallashtirishning universal strategiyasi ham mavjud emas va ko‘p hollarda muayyan harakatlar muayyan holatlarga bog’liq.

Asosiy tushunchalar:

Inqiroz, tanazzul, kapitallashuv, likvidlik, omonatchilar, investorlar, bankrotlik, anderayting, sug’urta, qimmatli qog’oz, depresiya, xolding, sekryutizasiyalash, transformatsiya

Mavzuni mustahkamlovchi savollar

1. Bank inqirozi deganda nimani tushunasiz?
2. Bank inqirozining mohiyati nimada?
3. Bozor inqtisodiyoti qaror topayotgan davlatlarda Moliyaviy inqiroz, qaysi parametrlar bilan tavsiflanadi?
4. Bank inqirozini belgilovchi mezonlar haqida gapirib bering.
5. Bank tizimining umumiy inqiroziga olib keladigan sabablar haqida gapirib bering.
6. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi yuzaga kelishining asosiy sabablari nimada?
7. “Tabiiy” yoki muvozanatli stavka tushunchasi qaysi iqtisodchisi tomonidan kiritilgan?
8. Dunyoning bir qator mamalakatlarida bank tizimining xususiyatlari nimada?
9. AQSHda yuz bergan bank inqirozlarining sabablari nimada?
10.. Skandinaviya davlatlarida yuz bergan bank inqirozlarining sabablari nimada?
11. Lotin Amerikasida yuz bergan bank inqirozlarining sabablari nimada?, Rossiya va Sharqiy Yevropa yuz bergan bank inqirozlarining sabablari nimada?
12. Yaponiya va Sharqiy Osiyo mamlakatlarida yuz bergan bank inqirozlari sabablari nimada?

XIX BOB. PULNING XALQARO MUNOSABATLARDAGI HARAKATI

19.1. Pulning xalqaro munosabatlardagi harakati.
19.2. Valyta tizimi, mohiyati, elemyntlari, funkctiyalari va asosiy faoliyati.
19.3. Valyuta operactiyalari va ularning valyta bozoridagi xususiyatlari.
19.4. Valyuta kursi rejimlari.

19.1. Pulning xalqaro munosabatlardagi harakati

Jahon valyuta tizimi davlatlararo valyuta munosabatlarini tashkil qilish shakli bo‘lib, xalqaro shartnomalar asosida yuzaga keladi.

Hozirga qadar **jahon valyuta tizimining shakllanishi va rivojlanishi to‘rt bosqichni bosib o‘tdi**.

Birinchi jahon valyuta tizimi 1870-yilda Parijda bo‘lib o‘tgan davlatlararo kelishuv natijasida yuzaga keldi. Bunda oltin standarti joriy etildi va oltin yagona xalqaro to‘lov vositasi sifatida e’tirof etildi.

Ammo 1914-yilda Birinchi jahon urushining boshlanishi oltin standartidan foydalanish amaliyotiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatdi. 1914-1915-yillarda dastlab Buyuk Britaniya, keyin esa, qolgan Yevropa davlatlari oltinni eksport qilishni chekladilar. AQSH urushga kech qo‘shilganligi uchun mazkur cheklov 1917-yilda joriy etildi.

Buyuk Britaniya funt sterlingdagi xalqaro to‘lovlarni to‘xtatdi. Import qilingan oltinlarning barchasi Angliya Markaziy bankining zaxirasiga olina boshladi.

1922-yilda Italiyaning Genuya shahrida bo‘lib o‘tgan xalqaro konferensiyada **Ikkinchi jahon valyuta tizimi** yuzaga keldi. Uning muhim natijasi bo‘lib, oltin-deviz standartining joriy etilganligi hisoblanadi. ya’ni,, oltin bilan birga, 30ta mamlakatning milliy valyutasiga xalqaro to‘lov vositasi maqomi berildi.

Ammo Ikkinchi jahon valyuta tizimi haqiqatda Buyuk Britaniyaning funt sterlingi standartiga aylandi. Ya’ni, funt sterling asosiy rezerv valyutaga aylandi. Bu esa, quyidagi sabablar bilan izohlanadi:

1. Birinchi jahon urushi paytida funt sterling boshqa Yevropa valyutalariga nisbatan kam darajada qadrsizlandi (20%). Qolgan Yevropa

valyutalari, xususan, Fransiya franki 80 foizgacha qadrsizlandi. Holbuki, Fransiya franki yetakchi valyutaga aylanishga da’vogarlik qilayotgan edi.

2. XX asrning 20-yillarida Angliya ochiq iqtisodiyotga ega edi. Boshqa davlatlar Angliya bilan savdo-sotiq qilib funt sterling ishlab olish imkoniyatiga ega edi. Bu vaqtda AQSH yopiq iqtisodiyotga ega edi.

3. Angliya banklari bu davrda keng tarqalgan xorijiy filiallarga ega edi. AQSH banklari esa, xorijiy filiallarga deyarli ega emas edi.

4. XX asrning 20-yillarida Angliya banklari tomonidan xalqaro savdoning 60 foizgacha qismi moliyalashtirilar edi. Yuqorida qayd etilgan sabablar Buyuk Britaniya funt sterlingning dunyo miqyosida xalqaro zaxiralar hajmidagi salmog’ining oshishiga olib keldi. 1913-yilda dunyo bo‘yicha xalqaro valyuta zaxiralarining 47 % i funt sterlingga to‘g’ri kelgan bo‘lsa, 1928-yilda ushbu ko‘rsatkich 77 % ni tashkil etdi.[54]

Ammo Ikkinchi jahon valyuta tizimi ham bir qator sabablarga ko‘ra, inqirozga uchradi. Ushbu sabablardan asosiylari sifatida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Buyuk Britaniya hukumati tomonidan Birinchi jahon urushidan keyin deflyasion siyosatni olib borilganligi. Deflyasion siyosat funt sterlingning oltinga nisbatan paritetini urushdan oldingi darajaga yetkazish maqsadida amalga oshirildi. Ammo ushbu siyosat kutilgan natijani bermadi va aksincha, valyutaviy inqirozga olib keldi. Buning sababi shundaki, Buyuk Britaniya funt sterlingning qat’iy belgilangan kursini saqlab turdi. Bu vaqtda, ularning tashqi iqtisodiy hamkorlari bo‘lgan mamlakatlar devalvatsiyani amalga oshirdilar. Natijada Buyuk Britaniyaning tashqi savdodagi raqobatbardoshligi keskin pasaydi va to‘lov balansining defitsiti miqdori oshdi. Fransiya, Germaniya va Belgiyaning milliy valyutalari Birinchi jahon urushida yuqori sur’atda devalvatsiyaga uchraganligi sababli ularning kursi past darajada qoldi.[55]

Buning natijasida mazkur mamlakatlarda to‘lov balansida katta ijobiy saldo yuzaga keldi va oltinni katta miqdorda oqib kelishi yuz berdi.

2. Birinchi jahon urushidan keyin AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya va Germaniya Markaziy banklari tomonidan sterilizatsiyalashgan valyuta intervensiyasini amalga oshirilganligi. Buning natijasida Markaziy

[54] Officer L. Gold Standart, 2001 маълумотлари.
[55] Officer L. Gold Standart, 2001 маълумотлари.

banklarning foizli daromad keltiruvchi ichki aktivlarining yillik o‘zgarishi yuz berdi va u oltinning taklifini keskin qisqartirdi.

3. Markaziy banklar o‘rtasida xalqaro rezervlarning notekis taqsimlanishining yuzaga kelganligi. Oltin-deviz standartini birinchi bo‘lib Kanada 1929-yilda tark etdi.

1944-yilda AQSHning Bretton-Vuds shahrida bo‘lib o‘tgan xalqaro konferensiya natijasiga ko‘ra **Uchinchi jahon valyuta tizimi** tashkil topdi. Uning muhim natijalari quyidagilardan iborat:

1. Xalqaro miqyosda qat’iy belgilangan kurs tizimi joriy qilindi. Milliy valyutalar paritetdan 1 foizgacha tebranishi mumkin edi. Buning natijasida davlatlar o‘rtasidagi tashqi savdo munosabatlarida yuzaga keladigan valyuta riski muammosiga barham berildi.

2. AQSH dollari va Buyuk Britaniyaning funt sterlingiga xalqaro rezerv valyuta maqomi berildi.

3. Yangi rezerv aktiv – qarz olishning maxsus huquqi (SDR) yaratildi. SDR sun’iy valyuta bo‘lib, XVFga a’zo mamlakatlar o‘rtasida, ularning Fonddagi kvotasiga qarab taqsimlanadi va xorijiy valyutalar sotib olishda, kreditlar berishda va davlatlar o‘rtasidagi to‘lovlarni amalga oshirishda qo‘llaniladi.

Ammo haqiqatda Uchinchi jahon valyuta tizimi AQSH dollari standartining gegemonligiga aylandi. Buning quyidagi sabablari mavjud edi:

1. AQSHning Ikkinchi jahon urushidan keyin jahon tovar bozorlarida raqobatchilari yo‘q edi. Germaniya, Italiya, Yaponiya urushda mag’lubiyatga uchradi, Yevropaning qolgan davlatlari ham urush natijasida xonavayron bo‘ldi. Bu esa, AQSHning tovarlar eksporti hajmini oshirish imkoniyatini keskin oshirdi.

2. AQSH «Marshall rejasi»ga asosan Yevropaga 13 mlrd. dollar miqdorida kreditlar va moliyaviy yordam ko‘rsatdi. Ushbu mablag’larni berish evaziga AQSH Yevropa davlatlariga uskunalarni AQSHdan sotib olish va mahalliy xom-ashyo bazalariga AQSHni kiritish shartini qo‘ydilar.

3. Ikkinchi jahon urushidan keyin XX asrning 50-yillariga qadar AQSH dollarga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash maqsadida uning devalvatsiya bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik siyosatini olib bordi.

4. AQSH dollarini cheklanmagan miqdorda oltinga qat’iy belgilangan baho bo‘yicha almashtirish joriy qilingan edi. Bunda 1 unsiya oltinning bahosi 35 dollar qilib belgilangan edi.

XX asrning 60-yillariga kelib, AQSHda pullar taklifining keskin oshishi natijasida inflyatsiyaning kuchayishi yuz berdi. O‘z navbatida, pullar taklifining keskin oshishi ishsizlikni qisqartirishga qaratilgan siyosatning olib borilishi va davlat byudjeti defitsitini AQSH FZT kreditlari hisobidan moliyalashtirilishi oqibati edi. Ayniqsa, Vetnamdagi urush AQSH davlat byudjeti defitsitining keskin oshishiga olib keldi.

Yuqorida qayd etilgan holatlar qat’iy belgilangan kurslar tizimining barham topishiga olib keldi.

Bundan tashqari, XX asrning 60-yillariga kelib, Yevropa davlatlari katta eksport salohiyatiga ega bo‘ldi va buning natijasida ularda katta miqdorda AQSH dollari to‘plana boshladi. Bunday sharoitda dollarni oltinga almashtirib berishning davom etishi AQSHning oltin zaxiralarini keskin kamayishiga olib kelar edi.

1976-1978 yillarda Yamaykada bo‘lib o‘tgan xalqaro konferensiyaning natijalariga ko‘ra, **To‘rtinchi jahon valyuta tizimi** tashkil topdi. Uning muhim natijalari quyidagilardan iborat:

1. Qat’iy belgilangan kurslar tizimi bekor qilindi va natijada barcha valyutalarni erkin suzish tizimiga o‘tkazish tavsiya qilindi. AQSH dollarining oltinga almashtirib berish tartibining bekor qilinishi bilan qat’iy belgilangan kurslar tizimi barham topdi.

2. Germaniya markasi va Yaponiya ieniga xalqaro rezerv valyutalar maqomi berildi.

3. Oltinni demonetizatsiya qilish jarayoni rasman tugallandi. Ya’ni, oltindan xalqaro munosabatlarda to‘lov vositasi sifatida foydalanish taqiqlandi.

4. SDRning xalqaro to‘lov vositasi sifatidagi rolini oshirishning zarurligi asoslandi. SDRning o‘z qiymati bo‘lmaganligi sababli, uning qiymati valyuta savati bo‘yicha aniqlanadi.

To‘rtinchi jahon valyuta tizimining hozirgi, zamonaviy bosqichida AQSH dollari va yevro yetakchi rezerv valyutalar bo‘lib turibdi. Ammo har ikkala rezerv valyutaning almashuv kurslarining nobarqarorligi xalqaro valyuta munosabatlarini amalga oshirishda qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda.

19.2. Valyta tizimi, mohiyati, elemyntlari, funkctiyalari va asosiy faoliyati

Valyuta so‘zi italyancha “valuta” so‘zidan olingan bo‘lib, “qiymat” degan ma’noni anglatadi.

Har qanday mamlakatning milliy pul birligi uning milliy valyutasi hisoblanadi. Xalqaro amaliyotda valyutalarning quyidagi turlari mavjud:

❖**Erkin ishlatiladigan valyuta** (freely usable currency) – to‘lov balansining joriy operatsiyalar bo‘limida valyutaviy cheklashlar bo‘lmagan mamlakatlarning milliy valyutalari.

❖**Qattiq valyuta** (hard currency) – iqtisodiy va siyosiy jihatdan barqaror hisoblangan mamlakatlarning almashuv kursi barqaror bo‘lgan valyutalari.

❖**Yumshoq valyuta (**soft currency) – xalqaro miqyosda to‘lov vositasi vazifasini bajara olmaydigan, ya’ni, tashqi konverterlikka ega bo‘lmagan valyutalar.

❖**Xalqaro rezerv valyutalar** (reserve currency) – dunyoning barcha mamlakatlarida xalqaro to‘lov vositasi sifatida qabul qilinadigan yetakchi valyutalar.

Yetakchi valyutalarga “xalqaro rezerv valyuta” degan maqomni Xalqaro valyuta fondi (XVF) ekspertlari beradi. XVF mezonlari bo‘yicha, xalqaro rezerv valyuta deganda davlatlarning xalqaro zaxiralari nominali aks ettiriladigan valyuta tushuniladi. XVF tomonidan hozirgi kunda AQSH dollari (USD), yevro (EUR), Buyuk Britaniya funt sterlingi (GBP), Yaponiya (JPY) ieni va Shveysariya frankiga (CHF) xalqaro rezerv valyuta maqomi berilgan[56].

AQSH dollari va Buyuk Britaniya funt sterlingiga xalqaro rezerv valyuta maqomi 1944-yilda, Bretton-vuds jahon valyuta tizimi shakllanayotganda berilgan edi. 1976-1978 yillarda Yamaykada bo‘lib o‘tgan xalqaro konferensiyada to‘rtinchi jahon valyuta tizimi tashkil topdi va unda yana ikkita valyutaga – Yaponiya ieni va GFR markasiga xalqaro rezerv valyuta maqomi berildi. 1999-yilning 1-yanvaridan boshlab yevroning muomalaga kiritilishi doychemarkani muomaladan chiqib ketishiga sabab bo‘ldi va uning maqomi yevroga berildi. Xalqaro rezerv

[56] www.imf.org.

valyutalar nominal almashuv kursining barqaror emasligi, ularni sezilarli diapazonlarda tebranayotganligi jahon valyuta tizimining dolzarb muammolaridan biri bo‘lib turibdi. Ayniqsa, AQSH dollari va yevroning nominal almashuv kurslarini tez-tez tebranib turishi kuzatilmoqda. AQSH davlat qarzining nisbatan katta ekanligi, savdo balansida katta miqdordagi defitsitning mavjudligi, davlat byudjeti defitsitining katta ekanligi Federal zaxira tizimi (FZT) tomonidan*[57] amalga oshirilayotgan qayta moliyalash siyosatining moslashuvchanlik darajasining yuqori ekanligi dollarning nominal almashuv kursini sezilarli darajada katta diapazonlarda tebranishiga sabab bo‘lmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, jahon valyuta tizimining barqarorligiga nisbatan salbiy ta’sirni yuzaga keltiradi. Holbuki, AQSH dollari hamon dunyoning asosiy rezerv valyutasi bo‘lib turibdi.

Valyuta bozori deganda valyutalarni oldi-sotdi qilish maqsadida tashkil etilgan maxsus markazlarga aytiladi.

Valyuta bozorining 3 turi mavjud:

1. Milliy valyuta bozori.
2. Mintaqaviy valyuta bozori.
3. Jahon valyuta bozori.

Milliy valyuta bozori 2 qismdan iborat bo‘ladi:

1. Valyuta birjasi
2. Birjadan tashqari valyuta bozori.

O‘zbekiston Respublikasining Valyuta birjasi respublikamizda birja bozori hisoblanadi. Milliy valyutamiz-so‘mning nominal almashuv kursi Respublika valyuta birjasida aniqlanadi.

Respublikamizda so‘mning nominal birja kursi valyutalarning buyurtmali savdosi asosida amalga oshiriladigan oldi - sotdi mexanizmi orqali shakllanadi.

Mazkur mexanizmning mohiyati shundaki, O‘RVBga a’zo bo‘lgan tijorat banklari ikki xildagi buyurtmalarni birjaga beradilar:

a) AQSH dollarini sotib olish maqsadida so‘mda berilgan buyurtmalar;

b) AQSH dollarini sotish maqsadida berilgan buyurtmalar (dollarda berilgan buyurtmalar).

Markaziy bankning Bosh dileri buyurtmalarni qabul qilishni to‘xtatish to‘g’risidagi buyruqni bergandan so‘ng har ikkala xildagi buyurtmalar

[57] www.imf.org.

bo‘yicha jami nominal miqdorlar aniqlanadi.

Shundan keyin so‘mda berilgan buyurtmalarning jami summasini AQSH dollaridagi buyurtmalar summasiga bo‘lish yo‘li bilan o‘zbek so‘mining 1 AQSH dollariga nisbatan nominal birja kursi aniqlanadi. So‘mning valyuta kursini 1 AQSH dollariga nisbatan aniqlanayotganligi so‘mning to‘g’ri kotirovka tizimiga ega ekanligidan dalolat beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining nominal birja kursi tijorat banklarining xorijiy valyutalardagi aktiv va passivlarini qayta baholash, boj hisobi hamda moliyaviy va statistik hisobotlarni yuritishda qo‘llaniladi.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarning amaliyotida, xususan, AQSH, Yaponiya, Kanada davlatlarining amaliyotida milliy valyutaning kursi fiksing shaklida aniqlanadigan bozor mexanizmiga asoslanadi.

Mazkur mexanizmning mohiyati shundaki, maklerlar va tijorat banklari dilerlari ishtirokida kun davomida amalga oshiriladigan valyuta savdosi jarayonida shakllangan talab va taklif asosida, operatsion kunning aniq bir vaqtida, milliy valyutaning xorijiy valyutalarga nisbatan birja kursi aniqlanadi. Operatsion kunning aniq bir vaqtida milliy valyuta kursining aniqlanishi fiksing deb ataladi.

Birjadan tashqari valyuta bozori banklararo bozordir. Bunda valyuta savdosi tijorat banklari dilerlarining telefon yoki internet orqali so‘zlashuvlari orqali amalga oshiriladi.

Tijorat banklari spred shaklida, ya’ni, valyutalarni sotish kursi bilan sotib olish kursi o‘rtasidagi farq sifatida daromad oladilar. Bundan tashqari, xorijiy valyutadagi aktivlarni qayta baholash, mavjud bitimga qarama-qarshi operatsiyalarni amalga oshirish orqali ham tijorat banklari valyuta operatsiyalaridan daromad oladilar.

19.3. Valyuta operactiyalari va ularning valyta bozoridagi xususiyatlari

Valyuta kursiga bir nechta omillar ta’sir ko‘rsatadi. Ana shunday asosiy omillardan biri **bu - to‘lov balansining defitsitli ekanligidir**. To‘lov balansining defitsitli bo‘lishi xorijiy valyutadagi to‘lovlar miqdorining ortishiga, mamlakatning oltin-valyuta zaxiralari miqdorining kamayishiga olib keladi. Buning natijasida ichki valyuta bozorida xorijiy valyutalar

taklifining kamayishi yuz beradiki, ushbu holat milliy valyutaning nominal almashuv kursiga nisbatan kuchli tazyiqni yuzaga keltiradi.

Milliy valyuta kursiga ta'sir etuvchi muhim omillardan yana biri bo‘lib, ***Davlat byudjetining defitsiti hisoblanadi***. Ushbu omil rivojlanayotgan va o‘tish iqtisodiyoti mamlakatlarida yaqqol kuzatiladi. Chunki, mazkur mamlakatlarning aksariyat qismida Markaziy banklarning iqtisodiy va siyosiy mustaqillik darajasi past bo‘lib, Davlat byudjeti defitsitini qoplash maqsadida Markaziy bankning emissiya mexanizmidan foydalaniladi. Buning natijasida muomalaga tovarlar va xizmatlar bilan ta'minlanmagan pullar paydo bo‘ladi va shuning asosida milliy valyutaning 30 qadrsizlanish jarayoni chuqurlashadi. Shu sababli, Davlat byudjeti defitsitining me'yoriy darajada bo‘lishini ta'minlash milliy valyutaning barqarorligiga erishish nuqtai-nazaridan muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro amaliyotda Davlat byudjeti defitsiti summasining nominal YAIM miqdorining 3 foizdan oshmasligi me'yoriy daraja sifatida qabul qilingan. Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan monetar siyosat milliy valyutaning almashuv kurslariga, shu jumladan, nominal almashuv kursiga ta'sir etuvchi muhim omillardan biri sanaladi.

Ma'lumki, Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan monetar siyosat iqtisodiy mazmuniga ko‘ra ikki turga bo‘linadi:

1. Restriksion monetar siyosat.
2. Ekspansionistik monetar siyosat.

Restriksion monetar siyosat deganda, odatda, muomaladagi pul massasining o‘sish sur'atlarini jilovlashga qaratilgan monetar siyosat tushuniladi.

Restriksion monetar siyosatni amalga oshirishda Markaziy bank quyidagi usullardan foydalanadi:

– Markaziy bankning majburiy zaxira stavkalarining darajasi oshiriladi;

– tijorat banklariga qimmatli qog'ozlar Markaziy bank tomonidan qayta sotib olish sharti bilan sotiladi;

– Markaziy bank tomonidan hukumatga va tijorat banklariga tegishli bo‘lgan vaqtinchalik bo‘sh pul mablag'lari depozit hisob raqamlariga jalb etiladi;

– Markaziy bank valyuta siyosati doirasida milliy valyutadagi pul mablag'lari hajmining o‘sish sur'atlarini cheklashga qaratilgan

operatsiyalarni amalga oshiradi.

Ekspansionistik monetar siyosat deganda muomaladagi pul massasining multiplikativ kengayishini ta’minlash asosida to‘lovga qobil talabni rag’batlantirishga qaratilgan monetar siyosat tushuniladi.

Ekspansionistik monetar siyosatni amalga oshirishda Markaziy bank quyidagi usullardan foydalanadi:

– Markaziy bank qayta moliyalash stavkalarini pasaytiradi va tijorat banklariga beriladigan markazlashgan kreditlarning hajmini oshiradi;

– tijorat banklarining kreditlash hajmiga nisbatan Markaziy bank tomonidan belgilangan limitlar hajmi oshiriladi, ya’ni, banklarga kreditlar miqdorini oshirishga imkoniyat yaratiladi.

– Markaziy bankning majburiy zaxira stavkalari pasaytiriladi;

– tijorat banklariga qimmatli qog’ozlar Markaziy bank tomonidan qayta sotish sharti bilan sotib olinadi;

– Markaziy bank valyuta siyosati doirasida milliy valyutadagi pul mablag’lari hajmining o‘sish sur’atlarini oshirishga qaratilgan operatsiyalarni amalga oshiradi.

Restriksion monetar siyosat milliy valyutadagi pul massasining o‘sish sur’atlarini pasaytirish va hatto uning hajmini qisqartirish imkonini beradi. Buning oqibatida milliy valyutaning qadri oshadi.

Ammo restriksion monetar siyosat ichki to‘lovga qobil talabni bo‘g’ib qo‘yadi. Natijada makroiqtisodiy o‘sish sur’ati pasayadi. Ekspansionistik monetar siyosat ichki to‘lovga qobil talabni rag’batlantirish imkonini beradi.

Natijada pul massasining yuqori sur’atlarda o‘sishi, multiplikativ kengayishi yuz berishi mumkin.

Siyosiy risk, ya’ni, mamlakat riski milliy valyutaning nominal almashuv kursini o‘zgarishiga ta’sir etuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Odatda, siyosiy risk chuqurlashganda mamlakatdan oltin-valyuta zaxiralarini katta miqdorda chiqib ketishi yuz beradi. Buning natijasida ichki valyuta bozorida xorijiy valyutalar taklifi keskin kamayadi, to‘lov balansining defitsiti ortadi. Oqibatda milliy valyuta qadrsizlanadi. AQSH dollari kursining nobarqarorligi Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya va Xitoy kabi mamlakatlarni ham tashvishga solmoqda. Chunki, ularning xalqaro valyuta zaxiralarining asosiy qismi AQSH dollarida

shakllangan. Shu sababli, 1999-yil yanvarda Yaponiya va Germaniya Moliya vazirlari AQSHga dollar, yevro va ienning kurslarini o‘zaro bir-biriga bog’lashni taklif qildilar.

Ammo AQSH Federal zaxira tizimining o‘sha vaqtdagi rahbari A.Grinspen va Moliya vaziri R.Rubin ushbu taklifni qat’iyan rad etdilar. Ularning fikriga ko‘ra, mazkur uch yetakchi valyuta kurslarini o‘zaro bir-biriga bog’lashni joriy etish AQSH Federal zaxira tizimining ishsizlik va inflyatsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan pul-kredit siyosatining mustaqilligiga putur yetkazadi.

“Evrohudud”dagi qarz muammolari, Gretsiya, Ispaniya, Italiya, Portugaliyadagi og’ir moliyaviy holatlar, pirovard natijada, Yevroning AQSH dollari va boshqa yetakchi valyutalarga nisbatan kursining tebranishlariga va pasayishiga sabab bo‘lmoqda. Ayniqsa, Gretsiyadagi og’ir iqtisodiy inqiroz holatlarini bartaraf etish maqsadida ajratilayotgan kreditlar va boshqa shakllardagi moliyaviy mablag’lar yevrodagi pul massasining oshishiga sabab bo‘lmoqda.

2010-yil 7-mayda Yevropa Ittifoqiga a’zo bo‘lgan mamlakatlarning rahbarlari tomonidan Gretsiyaga moliyaviy yordam berish dasturi ma’qullandi. Ushbu dasturga muvofiq, Gretsiya uch yil mobaynida 110 mlrd. yevro oladi. Mazkur yordamning Gretsiya uchun muhimligi shundaki, hozirgi kunda ushbu mamlakatdagi iqtisodiy ahvol juda og’ir: davlatning tashqi qarzi yalpi ichki mahsulot (YAIM) miqdoridan katta, davlat byudjeti defitsiti va tashqi qarzning umumiy miqdori 300 mlrd. Yevrodan oshadi. 2012-yilda Kiprda moliyaviy qiyinchiliklarning boshlanganligi yevroning nominal almashuv kursi barqarorligiga nisbatan mavjud bo‘lgan salbiy ta’sirni yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

19.4. Valyuta kursi rejimlari

To‘lov balansi bu – mamlakatga xorijdan kelib tushgan va xorijga to‘lab berilgan valyutalarning haqiqatdagi summasi aks ettiriladigan hujjatdir.

XVF to‘lov balansini statistik hisobot shakli deb hisoblaydi. To‘lov balansi xalqaro hisob-kitoblar balansining muhim shakllaridan biri hisoblanadi.

To‘lov balansida ikki yo‘nalishdagi valyuta oqimi o‘z ifodasini topadi:

1. Xorijiy valyutalardagi tushumlar.
2. Xorijiy valyutalardagi to‘lovlar.

To‘lov balansi mamlakatning tashqi iqtisodiy munosabatlarining rivojlanish darajasini, jahon savdosidagi, xalqaro kapitallar va kreditlar harakatidagi o‘rnini ko‘rsatadi. Masalan, to‘lov balansida import qilingan tovarlar va xizmatlar uchun to‘lov summasini eksport tushumidan yuqori bo‘lishi mamlakatning xalqaro savdodagi mavqeining pasayayotganligidan dalolat beradi.

Yoki mamlakatda xorijiy investitsiyalarga bo‘lgan talabning oshishi xorijiy investitsiyalar kirimining ularning chiqimidan yuqori bo‘lishiga olib keladi. Xalqaro kreditlarning harakati bo‘yicha ham shunday holatni kuzatish mumkin.

To‘lov balansining holati bevosita milliy valyutaning nominal almashuv kursiga, ishlab chiqarishga, iste’molga, aholi bandligi va inflyatsiya darajasiga ta’sir ko‘rsatadi.

To‘lov balansida to‘lovlar summasini tushumlar summasidan katta bo‘lishi mamlakatning oltin-valyuta zaxiralari miqdorining kamayishiga olib keladi. Buning natijasida mamlakat milliy valyutasining nominal almashuv kursiga nisbatan kuchli bosim yuzaga keladi. Buning natijasida milliy valyuta qadrsizlanishi mumkin. Shuningdek, to‘lov balansida to‘lovlar summasini tushumlar summasidan katta bo‘lishi inflyatsiya darajasini oshirishga xizmat qiluvchi omil bo‘lishi mumkin.

Yuqorida qayd etilgan holatlar to‘lov balansining holatini mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Shu sababli, to‘lov balansining muvozanatlashgan holatini, ya’ni, xorijiy valyutadagi to‘lovlar va tushumlar o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlash har qanday mamlakat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

To‘lov balansini tuzish ikki yoqlama yozuvga asoslanadi. Ya’ni, bunda har bir operatsiya ikki marta aks ettiriladi: bir hisob raqamning debetida, ikkinchi hisob raqamning esa kreditida aks ettiriladi. Bunda kreditli o‘tkazmalarning jami summasi debetli o‘tkazmalarning jami summasiga teng bo‘lishi va yakuniy saldo 0 ga teng bo‘lishi shart.

Kreditli va debetli o‘tkazmalar o‘rtasidagi farq summasi **sof xatoliklar**

deb ataladi.

To‘lov balansi to‘rt bo‘limdan tashkil topadi:

1. Joriy operatsiyalar balansi
2. Transfertlar balansi
3. Kapitallar va kreditlarning harakat balansi
4. Oltin-valyuta zaxiralarining harakat balansi

Joriy operatsiyalar balansining o‘zi ikki qismdan tashkil topadi:

1. Savdo balansi.
2. Xizmatlar va notijorat mazmunidagi to‘lovlar balansi.

Savdo balansida eksport bo‘yicha tushumlar va import bo‘yicha to‘lovlarning haqiqatdagi summasi aks etadi. Savdo balansining passiv bo‘lishi, ya’ni, import bo‘yicha to‘lovlarning eksportdan olingan tushumlar summasidan katta bo‘lishi mamlakatning jahon savdosidagi mavqeining zaiflashganligidan yoki zaifligidan dalolat beradi.

Bunga yorqin misol qilib, AQSHni keltirish mumkin. Ikkinchi jahon urushidan keyin AQSH tovarlarni eksport qiluvchi gegemon davlatga aylandi. Ayniqsa, Yevropaga texnika va texnologiyalarni yirik miqdorda eksport qilinishi AQSH savdo balansining katta miqdordagi ijobiy saldosini ta’minladi.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi dastlabki davrlarda Yevropa mamlakatlarining iqtisodiy ahvoli nochor edi. Ularning eksport salohiyati past bo‘lib, sanoat mahsulotlari importiga bo‘lgan talabi juda yuqori edi. Ularning to‘lov balansini joriy operatsiyalar bo‘limining defitsiti miqdori juda katta bo‘lib, 1947-yilning oxiriga kelib 9 mlrd. AQSH dollariga etdi. AQSH esa, bu davrda sanoat mahsulotlarini eksport qilish bo‘yicha bosh davlatga aylangan edi.

Asosiy tushunchalar:

Valyuta tizimi, valyuta intervensiyasi, valyuta savati, deflyatsion siyosat, demonetizatsiya, oltin standarti, oltin-deviz standarti, rezerv valyuta, qat’iy belgilangan kurslar tizimi, erkin suzish rejimi, savdo balansi, to‘lov balansi.

Mavzuni mustahkamlovchi savollar

1. Pulning xalqaro munosabatlardagi harakatini yuzaga keltiruvchi omillar deganda nimani tushunasiz?
2. Jahon valyuta tizimining shakllanishi va rivojlanishi necha bosqichni bosib o‘tdi?
3. Qanday valyuta erkin ishlatiladigan valyutaga aytiladi?
4. Yumshoq valyutaning ma’nosini tushuntirib bering.
5. Xalqaro rezerv valyutalar deganda nimani tushunasiz?
6. Valyuta bozori deganda nimani tushunasiz?
7. Milliy valyuta bozorining necha turi mavjud?
8. Milliy valyuta bozori nechchi qismdan iborat?
9. Valyuta kursiga ta’sir qiluvchi omillar haqida gapirib bering.
10. Ekspansionistik monetar siyosat deganda nimani tushunasiz?
11. Restriksion monetar siyosat deganda nimani tushunasiz?

XX BOB. XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI, ULARNING MAQSADI VA FUNKSIYALARI

20.1. Xalqaro moliya institutlar tashkil etish princtiplari, funkctiyalari va faoliyatining maqsadi.
20.2. Xalqaro tiklanish va tarraqiyot banki: tashkil etilish moliya va rivojlanishi, tashkiliy tuzilishi va ishlash princtipi.

20.1. Xalqaro moliya institutlar tashkil etish princtiplari, funkctiyalari va faoliyatining maqsadi

Xalqaro moliya va valyuta-kredit tashkilotlari davlatlararo bitimlar asosida valyuta va kredit munosabatlarini tartibga solish maqsadlarida tashkil etilgan xalqaro iqtisodiy tashkilotlardir.

Ma’lumki, 2-jahon urushi oqibatida urushda qatnashgan mamlakatlarning xalq xo‘jaliklari vayron bo‘ldi, ularning moliya-kredit tizimlari izdan chiqdi. Urush oqibatlarini tugatish uchun esa urushda ishtirok etgan mamlakatlarning o‘z resurslari yetishmas edi.

Ana shu sababli jahondagi ko‘pchilik mamlakatlarning moliyaviy imkoniyatlarini birlashtirish va urush oqibatlarini tugatish hamda xalq xo‘jaligini tiklashga yo‘naltirish zarurati tug’ildi.

Ana shu maqsadlarda 1944-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning Bretton-Vuds (AQSh) xalqaro valyuta–moliya konferensiyasida Xalqaro Valyuta Fondi va Xalqaro qayta tiklash va taraqqiyot bankini tashkil etish to‘g’risida qaror qabul qilindi.

Xalqaro Valyuta Fondi (XVF) ni tashkil etishdan maqsad, xalqaro va milliy valyuta-moliya tizimlarini tiklash va barqarorlashtirish bo‘lsa, Xalqaro qayta tiklash va taraqqiyot banki (XQTTB) esa investitsiyalarni kreditlashni kengaytirishga ko‘maklashadi.

Yevropa mamlakatlari iqtisodiyotining barqarorlashuvi, xalqaro iqtisodiy aloqalarning kengayishi va jahon xo‘jaligining rivojlanishi natijasida XVF va XQTTB faoliyati ham o‘zgarib bordi. Endi ular iqtisodiy bo‘hronga uchragan mamlakatlarga o‘z iqtisodiyotlarini qayta qurish, mustaqillikka erishgan mamlakatlarning iqtisodiy o‘sishlarini tezlashtirish maqsadlarida moliyaviy ko‘mak bera boshladilar.

Keyingi paytlarda nafaqat xalqaro miqyosda, balki alohida mintaqalarda ham valyuta-kredit muammolarini hal etish zarurati paydo

bo‘ldi. Natijada mintaqaviy valyuta-kredit tashkilotlari vujudga keldi. Ular qatoriga Osiyo Taraqqiyot Banki, Amerikalararo Taraqqiyot Banki, Afrika Taraqqiyot Banki, Yevropa Qayta Tiklash va Taraqqiyot Banklari va boshqalarni kiritish mumkin.

20.2. Xalqaro tiklanish va tarraqiyot banki: tashkil etilish moliya va rivojlanishi, tashkiliy tuzilishi va ishlash princtipi

Avval ma’lumot berganimizdek, bugungi kunda jahonda o‘nlab xalqaro va mintaqaviy valyuta-kredit tashkilotlari faoliyat ko‘rsatmoqdalar. Biz ularning ayrimlari to‘g’risida to‘xtalib o‘tamiz:

1. Xalqaro hisob-kitoblar banki (XHB) birinchi xalqaro bank bo‘lib, 1930- yilda Angliya, Fransiya, Italiya, Germaniya, Belgiya va Yaponiya Markaziy banklari va Morgan bankirlik uyi boshchiligidagi bir guruh Amerika banklari tashabbusi bilan Shveysariyaning Bazel shahrida tashkil etildi.

XHBning asosiy vazifasi markaziy banklar va ular o‘rtasidagi hisob-kitoblarni muvofiqlashtirish bo‘lib, u asosan G’arbiy Yevropa banklarini birlashtirdi. XHB Yevropa valyuta tizimi mamlakatlari orasidagi hisob-kitoblarni ishlab chiqdi. XHB depozit, ssuda, valyuta va fond operatsiyalarini bajaradi.

Hozirda XHBning a’zolari qatoriga 30 dan ortiq, shu jumladan, sobiq sotsialistik mamlakatlar-Albaniya, Vengriya, Bolgariya, Polsha kabi mamlakatlarning Markaziy banklari kiradi. XHB G’arbiy Yevropa mintaqaviy bankidan xalqaro valyuta kredit tashkilotiga aylandi. Odatda «XHB- Markaziy banklar banki» deyishadi.

2. Xalqaro Valyuta Fondi (XVF) Birlashgan Millatlar Tashkilotining maxsus muassasasi sifatida o‘z faoliyatini 1947-yilda boshladi. Uning shtab kvartirasi Nyu-Yorkda joylashgan. XVF kapitali ishtirokchi –mamlakatlar badallaridan tashkil topadi. XVF boshlang’ich davrda 49 ta mamlakatni birlashtirgan va 7,7 mlrd. AQSh dollari miqdorida kapitalga ega bo‘lgan bo‘lsa, uning a’zolari soni- 155 tadan oshib, kapitali esa 90 mlrd. AQSh dollaridan o‘tdi.

XVFning asosiy vazifalari xalqaro savdo va valyuta hamkorligini rivojlantirishga ko‘maklashish, valyuta barqarorligini qo‘llab-quvvatlash, valyuta cheklovlarini bartaraf etish hamda a’zo mamlakatlarga kredit

resurslarini berishdan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasi 1992-yildan e’tiboran XVF a’zosidir. XVF tomonidan mamlakatimizda iqtisodiyot, moliyaviy sektor va statistika sohasidagi ishlar, valyuta va tashqi savdo tizimlarini erkinlashtirishga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqishga amaliy yordam beriladi.

XVF tomonidan banklar va bank faoliyati to‘g’risidagi qonunchilik hujjatlarini tayyorlash, xalqaro andozalarga javob beruvchi buxgalteriya hisobvaraqlarining yangi rejasini ishlab chiqish, hisob va hisobotlarning yangi tizimi hamda elektron to‘lovlar tizimini joriy etish, statistik axborotni yig’ish tizimini takomillashtirishda yaqindan yordam beriladi.

XVF tomonidan O‘zbekistonga umumiy miqdori 165,2 mln. SDR miqdorida kreditlar berildi. Ushbu summadan 99,17 mln. SDR tuzilmaviy o‘zgarishlar mexanizmi doirasiga va 65,45 mln. SDR «Stendbay» kreditlariga to‘g’ri keladi.

3. Xalqaro Tiklanish va Taraqqiyot Banki (XTTB) o‘z faoliyatini 1946-yilda boshladi. Bank o‘z faoliyatini kengaytirish jarayonida quyidagi turdosh muassasalarini tashkil etdi:

-1956-yilda Xalqaro Moliya Korporatsiyasi;

-1960-yilda Xalqaro Rivojlanish Uyushmasi ;

-1966-yilda Investitsiyalarga doir da’volarni tartibga solish Xalqaro markazi;

-1988-yilda Investitsiyalarni kafolatlash bo‘yicha ko‘p tomonlama agentlik:

Hozirda yuqoridagi muassasalar birgalikda **Jahon banki guruhi**, ularning yetakchisi bo‘lgan XTTB esa **Jahon Banki** deb ataladi. Bankning shtab-kvartirasi Vashingtonda joylashgan. Jahon bankining aksiyadorlik kapitali 200 mlrd. AQSh dollariga yaqin bo‘lib, unga 180 dan ortiq mamlakatlar a’zodir. Bank xodimlari soni esa 7000 kishidan ko‘p bo‘lib, har yili 1 mlrd. AQSh dollaridan ziyod daromad oladi. Jahon banki o‘zining 50 yillik faoliyati davrida 140 mamlakatga 6000 dan ortiq dasturlar bo‘yicha 300 mlrd. AQSh dollaridan ko‘p qarz berdi.

Jahon bankining asosiy vazifalari:

- rivojlanayotgan mamlakatlarga turli tarmoqlar va sohalarni rivojlantirish uchun investitsiyalar kiritish;
- iqtisodiy masalalar bo‘yicha tahliliy ishlarni amalga oshirish, konsultatsiyalar berish;

- boy va kambag’al mamlakatlar o‘rtasida resurslarni qayta taqsimlashda vositachilik qilish va boshqalar.

O‘zbekiston Respublikasi Jahon Bankiga 1992-yilda a’zo sifatida qabul qilindi. O‘shandan buyon O‘zbekistonga Jahon Bankining umumiy miqdori 458 mln. AQSh dollari miqdoridagi kreditlar 9 ta loyiha bo‘yicha ajratildi.

Jahon Bankining O‘zbekistonga yordam ko‘rsatish bo‘yicha 2001-2003 yillarga mo‘ljallangan strategiyasida mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish, moliyaviy, tuzilmaviy, texnikaviy ko‘maklashish va maslahatlar berish ko‘zda tutiladi. Shuningdek, moliya sohasi, qishloq xo‘jaligi, transport, davlat korxonalarini qayta tashkil etish, eksportga chiqarilayotgan tovarlar turlarini ko‘paytirish, ijtimoiy infratuzilma va atrof-muhitni muhofaza qilish kabi sohalarda birgalikda harakat qilish mo‘ljallanmoqda.

4. Xalqaro Moliya Korporatsiyasi (XMK) 1956-yilda tashkil etilgan bo‘lib, asosiy maqsadi rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida xususiy sektor faoliyatini rag’batlantirishdir. XMK kapitali unga a’zo bo‘lgan 170 dan ortiq davlatlarning badallaridan tashkil etilgan bo‘lib, shtab-kvartirasi Vashingtonda joylashgan. XMK o‘z faoliyati davomida 100 dan ko‘p rivojlanayotgan mamlakatlarga 1000 dan ziyod investitsiya loyihalari bo‘yicha 11 mlrd. AQSh dollari miqdorida kredit berdi.

O‘zbekiston XMKga 1992-yilda a’zo bo‘lgan. 1995-yildan e’tiboran mamlakatimizda XMK tomonidan moliyalashtirilayotgan loyihalar amalga oshirilmoqda. XMK umumiy miqdori 7,2 mln. AQSh dollarini tashkil etadigan 3 ta loyiha – «Fayz» OAJ, «O‘zkorfarmsanoat» QK, ABN- AMRO banklarni tashkil etishda ishtirok etgan.

2001-yildan boshlab XMK umumiy miqdori 79 mln. AQSh dollarini tashkil etadigan 14 ta loyihada ishtirok etmoqda. Bugungi kunda XMK tomonidan umumiy hissasi 37,5 mln. AQSh dollarini tashkil etadigan 5ta loyiha bo‘yicha ishlar davom ettirilmoqda. XMK O‘zbekistonda kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida «Hamkorbank» orqali o‘z kredit liniyalarini ochgan.

5. Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki (YeTTB) 1991-yilda tashkil etilgan bo‘lib, asosiy maqsadi Markaziy va Sharqiy Yevropa, shu jumladan Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlarida ochiq bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o‘tish maqsadida amalga oshirilayotgan islohotlarni moliyalashtirishda ko‘mak berishdir. Hozirda YeTTB

muassislari 60 tadan ortiq bo‘lib, ustav kapitali 19,64 mlrd -Yevroni tashkil etadi. Shtab kvartirasi Londonda joylashgan, bank xodimlari soni 1100 kishidan ortiq. YeTTB 1998-yilga qadar 600 ta loyiha bo‘yicha 14 mlrd. EKYu miqdorida kreditlar bergan.

O‘zbekiston YeTTBga 1992-yilda a’zo bo‘ldi, bankning 4200 ta aksiyasi mamlakatimizga tegishlidir. Ushbu bank 1993-yildan boshlab O‘zbekistonda o‘zining birinchi loyihasini amalga oshira boshladi. Hozirda YeTTB ishtirokidagi umumiy summasi 1,4 mlrd. AQSh dollaridan ortiq bo‘lgan 20 tadan ortiq loyiha amalga oshirilmoqda. Bundan 723,8 mln. AQSh dollari miqdoridagi summa YeTTB tomonidan to‘g’ridan-to‘g’ri moliyalashtirilgan.

O‘zbekistonda kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida YeTTB tomonidan O‘R.TIF Milliy banki, «Asakabank», «O‘zsanoatqurilishbank» va «Agrobank» lar orqali umumiy miqdori 180 mln. AQSh dollari bo‘lgan kredit liniyalari ochilgan.

Bundan tashqari savdoni moliyalashtirish maqsadida O‘RTIF Milliy banki va «Asakabank» orqali 50 mln. AQSh dollari miqdorida kredit liniyasini ochgan.

YeTTB «O‘zbekLizingInTerNeshnl AJ», ABN-AMRO bank, O‘zDEUbank, Mintaqaviy Bank O‘quv Markazi, «Zarafshon- Nyumont», «Kosonsoy-TekMen», «Stroy Servis» kabi qo‘shma korxonalarni tashkil etishda o‘z kapitali bilan ishtirok etdi.

Bundan tashqari YeTTB tomonidan Toshkent aeroporti, temir yo‘llarni qayta tiklash va modernizatsiyalash, Farg’ona neftni qayta ishlash zavodi hamda Sirdaryo GRESini qayta tiklash va jihozlash maqsadlarida 200 mln. AQSh dollariga yaqin miqdorda kredit berildi. YeTTB o‘z ulushi 33,5 mln. AQSh dollari bo‘lgan xususiylashtirilgan korxonalarni qo‘llab-quvvatlash fondini tashkil etishda ishtirok etmoqda.

Hozirgi paytda umumiy miqdori 320 mln. AQSh dollari bo‘lgan, 8 ta loyiha bo‘yicha tayyorgarlik ishlari olib borilmoqda.

Umuman olganda, YeTTB O‘zbekiston iqtisodiyotiga eng ko‘p kapital kiritayotgan hamda kredit berayotgan xalqaro moliya-kredit tashkilotlaridir.

6. Osiyo Taraqqiyot Banki (OTB) 1965-yilda tashkil etilgan, shtab kvartirasi Manila (Filippin) da joylashgan. Unga 60 ga yaqin mamlakatlar a’zo bo‘lib, ulardan 14 tasi G’arbiy Yevropa va Amerika, qolganlari esa Osiyo va Tinch okeani mamlakatlaridir. 1998-yilda OTB kapitali 19 mlrd.

AQSh dollarini tashkil etgan.

Bank faoliyatining asosiy maqsadi Osiyodagi rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti va tashqi savdosiga ko‘maklashish, moliyaviy, texnikaviy va iqtisodiy yordam ko‘rsatishdir. OTB tomonidan oddiy kreditlar 10-25 yilgacha, maxsus kreditlar esa 25-40 yilgacha beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi 1995-yildan OTB a’zosi. Bankning mamlakatimizdagi faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari sifatida qishloq xo‘jaligi, infratuzilmani qayta tashkil etish, tog’-kon sanoati, gaz tarmoqlarini qurish, turizmni rivojlantirish, sog’liqni saqlash va ekologiya, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, bank tizimini rivojlantirish kabilarni ko‘rsatish mumkin.

Hozirgi vaqtda respublikamizda OTB ishtirokidagi umumiy miqdori 387 mln. AQSh dollari miqdoridagi 7 ta loyiha amalga oshirilmoqda. Bankning 50 mln. AQSh dollari miqdoridagi kreditlari qishloq xo‘jaligi sohasidagi kichik va o‘rta xususiy tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan.

Uzunligi 320 km. bo‘lgan temir yo‘llarni qayta qurish va ta’mirlash uchun 70 mln. AQSh dollari miqdorida kredit ajratilgan. Umumta’lim maktablari uchun o‘quv qo‘llanmalar va o‘quv qo‘llanmalari nashr etish tizimini takomillashtirish uchun 40 mln. AQSh dollari miqdorida mablag’lar ajratildi. Avtomobil yo‘llarini qayta tiklash loyihasi bo‘yicha 50 mln AQSh dollari sarflanmoqda.

Asosiy tushunchalar:

Xalqaro hisob-kitoblar banki, xalqaro valyuta fondi, xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki, jahon banki, xalqaro moliya korporatsiyasi, vositachilik, konsultatsiyalar berish, xususiylashtirilgan, kredit berildi, tashqi savdo, capital, texnikaviy va iqtisodiy yordam ko‘rsatishdir.

Mavzuni mustahkamlovchi savollar

1. Xalqaro moliya va valyuta – kredit tashkilotlari qanday maqsadlarda tuzilgan?
2. Xalqaro Valyuta Fondi (XVF) ni tashkil etishdan maqsad nimadan iborat edi?
3. Xalqaro Qayta Tiklash va Taraqqiyot banki (XKTTB) qanday ishlarni amalga oshirishga ko‘maklashadi?

4. Qanday mintaqaviy valyuta-kredit tashkilotlari vujudga keldi?
5. Xalqaro hisob-kitoblar banki (XXB) ning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
6. Xalqaro Valyuta Fondi O‘zbekistonga qanday amaliy yordam ko‘rsatmoqda?
7. Hozirda qaysi muassasalar Jahon Banki deb ataladi?
8. Xalqaro Moliya Korporatsiyasi (XMK) faoliyati nimadan iborat?
9. Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot banki (YeTTB) O‘zbekistonda qanday faoliyat olib bormoqda?
10. Osiyo Taraqqiyot Banki (OTB) ning asosiy maqsadi nimalardan iborat?

GLOSSARIY

Abstrakt mehnat - aniq shaklidan qat'i nazar umuman inson ishchi kuchining sarflanishi, ijtimoiy mehnatning bir qismi.

Absolyut yer rentasi - yer egalari to‘la o‘zlashtiradigan ustama foyda.

Aval - veksel kafilligi bo‘lib, bu ishni amalga oshirgan shaxs (avalchi) veksel bo‘yicha majburiyat olgan shaxslardan birining ma'suliyatini o‘z zimmasiga oladi.

Aval krediti - bunda bank mijozining majburiyati uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi. Aval kreditini olgan mijoz to‘lovni amalga oshira olmay qolsa bank kafolatdor shaxs sifatida to‘lovni amalga oshiradi. Aval krediti uzoq va qisqa muddatli bo‘lishi mumkin.

Avans - korxonaning bajariladigan ish, yetkazib beriladigan mol-mulk, ko‘rsatiladigan xizmatlar va boshqalar uchun to‘lanadigan to‘lovlar hisobiga beradigan dastlabki pul summasi.

Akselerator - (ishlab chiqarish hajmini oshirish natijasida ishlab chiqarishga jalb etiladigan yangi investitsiyalar necha marta ko‘payishini aks ettiradigan makro-iqtisodiy ko‘rsatkich) bilan birgalikda qo‘llanadi.

Aktiv - **1.** Buxgalterlik balansininig xo‘jalik mablag'larining holati aks ettiriladigan chap tomoni. **2.**Jismoniy yoki huquqiy shaxsga tegishli mol-mulk yig'indisi: asosiy vositalar, ishlab chiqarish moddiy zaxiralari, nomoddiy aktivlar, pul mablag'lari, moliyaviy qo‘yilmalar.

Aktiv operatsiyalari - bu banklarning foyda olish va bank likvidligi (to‘lovga qobiliyati)ni ta'minlash maqsadida o‘z mablag'larini xo‘jaliklar va aholi ehtiyoji uchun joylashtirilishidir.

Aksioner - aksionerlik jamiyatining muayyan aksiya ulushiga egalik qiluvchi va jamiyat me'yorida faoliyat ko‘rsatayotganda shu ulushga mutanosib dividend olib turuvchi a'zosi.

Aksioner bank - aksioner jamiyat (aksiyadorlik jamiyatiga qarang) kabi ochiq turdagi yoki yopiq turdagi banklar. Aksionerlar safiga kirish aksiyalarni sotib olish yo‘li bilan amalga oshiriladi..

Badal - **1.** Biror narsa evaziga to‘lanadigan haq. **2**. Keyinchalik: biror tashkilot, jamiyat, uyushmalarga hamda shu kabilarga a'zo bo‘lgan shaxsning o‘z jamiyatini iqtisodiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash maqsadida unga to‘lab turadigan puli, a'zolik haqqi.

Balans - bank mablag'lari va ularning tashkil topish manbalari

holatini pul shaklida guruhlash va aks ettirish usulidir.

Bank kapitali - banklarga jalb qilingan va ular tomonidan kredit, hisob- kitob va boshqa operatsiyalar uchun foydalanadigan pulli kapitallar yig'indisi.

Bank - so‘zi italyancha «banko» so‘zidan olingan bo‘lib, pul muomalasi va kredit munosabatlari amalga oshiriladigan «stol», «peshtaxta», «kursi» ma'nolarini bildiradi. Hozirgi kunda bank - bu bo‘sh turgan pul mablag'larini yig'uvchi, saqlab boruvchi va turli xil kredit hisob-kitob operatsiyalarni amalga oshiruvchi yuridik tashkilotdir.

Bank tizimining bosh maqsadi - jahon talablariga mos keluvchi rivojlangan kredit tizimiga ega bo‘lish, xo‘jaliklar va aholining bo‘sh turgan pul mablag'larini jalb qilish va uni samarali taqsimlash asosida aholining talabini qondirish uchun zamin yaratish va yashash sharoitini yaxshilashga erishishdan iborat.

Bank vekseli - bu biror korxonaning mazkur bankiga vekselda ko‘rsatilgan summada depozit kuchayganini tasdiqlaydigan qimmatli qog'ozidir.

Bank kapitali – bankning o‘z resurslari bo‘lib, uning tarkibiga ustav kapitali, qo‘shimcha kapital, zaxira kapitali, taqsimlanmagan foyda kiradi.

Bank krediti - **1.** Kreditning asosiy shakli bo‘lib, unda pul mablag'larini vaqtincha foydalanish uchun banklar tomonidan beriladi. **2.** Banklar pulni uning sohiblariga foiz to‘lash sharti bilan o‘z qo‘lida jamlaydilar va o‘z nomidan qarzga berib, foiz olishdir. **3.** Faqat pul shaklida beriladi va **ssuda** deyiladi. Bank kreditida qarz beruvchi sifatida bank muassasalari chiqadi. Banklar turlicha bo‘lib, ular tarkibiga markaziy, tijorat, investitsiya, ipoteka, jamg'arma, xalqaro va ixtisoslashgan banklar kiradi.

Bank likvidliligi – banklar majburiyatlarini o‘z vaqtida qaytara olish qobiliyati yoki passivlardagi majburiyatlarni qaytarish uchun aktivlarni pulga aylanish qobiliyatidir.

Bank mahsuloti - bu aniq usul bo‘lib, bank mijoz ehtiyojiga ko‘ra tanlangan xizmat turini ko‘rsatishga tayyor, ya'ni, tartibga ko‘ra ichki kelishuv, hujjatlarni kompleks rasmiylashtirishni tashkillashtirish, texnika-texnologik, axborotli, moliyaviy harakatlar orqali mijozga xizmat ko‘rsatish texnologiyasini tugatish.

Bank mijozlari - vakolatli banklarda chet el valyutasida talab qilib

olinguncha depozit hisob varag’iga ega bo‘lgan va qonunchilikka muvofiq joriy xalqaro operatsiyalarni amalga oshiradigan yuridik shaxs hisoblangan xo‘jalik subyektlaridir.

Bank operatsiyalari - banklarning pul mablag’larni jalb etish va ularni joylashtirish, pullarni muomalaga kiritish va ularni muomaladan chiqarish, hisob- kitoblarni amalga oshirish va boshqa operatsiyalari bilan shug’ullanadilar. Bank operatsiyalarga passiv bank operatsiyalari, aktiv bank operatsiyalari va komissiya (vositachi) operatsiyalari kiradi.

Bank plastik kartochkasi – uning egasiga bank hisob varag’i bo‘yicha operatsiyalarni, shu jumladan hisobvaraq orqali naqd pulsiz hisob-kitoblarni (to‘lovlarni) amalga oshirish va undan naqd pul mablag’larini olish imkonini beruvchi elektron to‘lov vositasi.

Bank resurslari - 1. Banklarning ixtiyorida bo‘lgan va ular tomonidan kredit, investitsiya va boshqa aktiv operatsiyalar uchun foydalaniladigan mablag’larning yig’indisi. **2.** Bankning o‘z mablag’lari va qarzga olingan hamda jalb etilgan mablag’laridan, hamda emitentlashgan mablag’laridan iborat bo‘lgan mablag’lardir.

Bank tizimi - 1. Mamlakat hududida tarixan shakllangan va qonun bilan mustahkamlangan kredit tashkilotlarining faoliyat ko‘rsatish shaklidir. Xuddi pul va moliya tizimi kabi bank tizimi o‘ziga xos milliy belgilariga egadir. Shu belgilar shu hududning geografik shartlari, ob-havo, aholi milliy tuzilishi, ularning nima bilan mashg’ulligi, qo‘shnilar bilan munosabati, savdo yo‘llari va omillar asosida shakllanadi. **2.** O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi ikki pog’onadan iborat. Birinchi pog’ona banki Markaziy bank, ikkinchi pog’ona banklari tijorat banklari tizimi.

Bank tizimining likvidligi - bankning o‘z majburiyatlarini vaqtida va so‘zsiz bajara olish imkoniyati.

Bank trattasi - tashqi savdoda foydalaniladigan bank.

Bank faoliyati - yuridik va jismoniy shaxslardan omonatlar qabul qilish hamda qabul qilingan mablag’lardan tavakkal qilib kredit berish yoki investitsiyalash uchun foydalanish va to‘lovlarni amalga oshirish tushuniladi.

Bank filiali - bu bank tomonidan bank operatsiyalarining hammasini yoki bir qismini, jumladan, vakil vazifalarini amalga oshiruvchi alohida bank bo‘linmasi. Uni tashkil etgan bank nomidan bank faoliyatini amalga oshiruvchi alohida bo‘linmadir.

Bank operatsiyalari - banklarning pul resurslarini jamg'arish (passiv operatsiya) va ulardan foydalanish (aktiv operatsiya) borasidagi faoliyatlari.

Bankning foiz stavkasi - kreditning "narxidir". Kredit uchun haq to'lash korxonalarning xo'jalik hisobiga, shu jumladan, resurslarning ko'payishiga hamda jalb qilingan mablag'lardan foydalanishga ta'sir etadi. Bank muassasalari kredit foizi hisobidan xarajatlarni qoplaydi.

Banknotlar - 1. Markaziy bank tomonidan turli nominaldagi naqd qog'oz pullar shaklida muomalaga chiqarilgan pullar. **2.** Bank biletlari, markaziy emissiya banklari tomonidan chiqariladigan pul belgilari. Hozirgi kunda ular qog'oz pullarning asosiy turi hisoblanadi.

Bankomat – 1. Ko'p funksiyali qurilma bo'lib, naqd pul mablag'ini qabul qilish va berish, bank kartalaridan foydalangan holdagi operatsiyalar bo'yicha hujjatlar tuzish, hisob raqamlar bo'yicha naqdsiz to'lovlarni olib borish yuzasidan axborotlar berish va hokazo uchun mo'ljallangan. Amaliyotda bankomatlardan ko'p hollarda naqd pullarni berish uchun yoki hisob raqamlar bo'yicha axborot olish uchun foydalaniladi. Bankomatlardan naqd pul berilishi terminalga o'xshab slip berish asosida amalga oshiriladi**. 2.** Mijozlar tomonidan bankning plastik kartalari orqali o'ziga o'zi xizmat ko'rsatish uchun mo'ljallangan elektron-mexanik qurilma.

Bankrot - xo'jalik sudi tomonidan e'tirof etilgan, qarzdorning pul majburiyatlari bo'yicha kreditorlar talablarini to'la hajmda qondirishga yoki majburiy to'lovlar bo'yicha o'z majburiyatini bajarishga qodir emasligi.

Barter bitimi - bu bitta shartnoma asosida turli xil tovarlarni pulsiz almashtirish.

Baho - 1. Narsaning, tovarning, mol-mulkning pul bilan ifodalangan qiymati**. 2.** Ahamiyat, qadr-qiymat. **3.** Hozirgi vaqtda o'quv yurtlarida o'zlashtirish darajasiga qarab qo'yiladigan ball. **4.** Tovarlarni pulga ayirboshlash me'yori.

Baholar riski - qimmatbaho qog'ozlar bahosidagi o'zgarish tufayli bank foydasida yuzaga kelgan o'zgarishlar.

Baholar masshtabi - deganda, milliy pul birligining qonunda belgilangan oltin mazmuni, ya'ni, oltinga tenglashtirilishi tushuniladi. Masalan, sobiq SSSR da 1961-yilda muomalaga kiritilgan 1 rubl 0,987412 gramm oltin asosiga, 1976 yilga kadar 1 AQSh dollari 0,767405 gramm oltin.

Bimetallizm - bu pul tizimida mustaqil unsur bo'lib, bunda ikki

metallga: oltin va kumushga qonuniy tartibda umumiy ekvivalent o‘rni biriktirib qo‘yiladi. Bu metallardan erkin ravishda tangalar zarb qilinadi va ular muomalada erkin harakatda bo‘ladi.

Bir pog’onali bank tizimi - banklar orasidagi gorizontal bog’liqlikni (operatsiyalar va funksiyalarining universallashuvi) anglatadi, ya’ni, bunday bank tizimi iqtisodiyoti zaif rivojlangan va totalitar, ma’muriy boshqaruv rejimidagi mamlakatlar uchun xarakterlidir.

Bir hudud ichidagi hisob- kitoblar - bu hisob- kitob markazida vakillik hisob varag’iga ega bo‘lgan banklar orasidagi hisob- kitoblardir.

Birgalikdagi tadbirkorlik - oilaviy tadbirkorlik, kasanachilik faoliyati, yuridik shaxs tashkil qilmagan dehqon xo‘jaligi hamda oddiy shirkatlar faoliyati.

Bolish – mo‘g’ullar va qisman turklar orasida (XSh -XIV asrlar) muomalada bo‘lgan tilla yoki kumush pul. 1 bolish 75 dinorga teng bo‘lgan. Ba’zi manbalarda esa 1bolishni 300 dinorga barobar bo‘lgan deb ko‘rsatilgan. Bolishning vazni 150 misqoldan 600 misqolgacha bo‘lib, oltin va kumush bolishlarning muhri va yozuvlari bo‘lmagan.

Bosh bank - bir yoki undan ortiq shu’ba xo‘jalik uyushmalariga ega bo‘lgan bank.

Byudjet - bu davlat va mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish vazifalari va funksiyalarini moliyaviy ta’minlash uchun mo‘ljallangan pul mablag’lari jamg’armalarini to‘lash va sarflash shaklidir.

Byudjet balansi - byudjet daromadlari va xarajatlarining mutanosibligi, tengligi.

Byudjet defitsiti - byudjet xarajatlarining byudjet daromadlaridan oshib ketishi natijasida vujudga kelgan taqchillik.

Byudjet dotatsiyasi - o‘z daromadlari va byudjetni tartibga soluvchi boshqa mablag’lar yetishmagan taqdirda quyi byudjetning xarajatlari bilan daromadlari o‘rtasidagi farqni qoplash uchun yuqori byudjetdan quyi byudjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag’lari.

Byudjet jarayoni - Davlat byudjetini tuzish, ko‘rib chiqish, qabul qilish va ijro etish, uning ijrosini nazorat qilish, ijrosi haqidagi hisobotni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek Davlat byudjeti tuzilmasiga kiruvchi byudjetlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning qonun hujjatlari bilan tartibga solingan jarayoni.

Byudjet profitsiti – muayyan davrda byudjet daromadlarining byudjet xarajatlaridan ortiq bo‘lgan summasi.

Byudjet ssudasi - yuqori byudjetdan quyi byudjetga yoxud respublika byudjetidan rezident-yuridik shaxsga yoki chet el davlatiga qaytarish sharti bilan ajratiladigan mablag’.

Byudjet subvensiyasi - qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda muayyan maqsadlarga sarflash sharti bilan yuqori byudjetdan quyi byudjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag’lari.

Byudjet so‘rovi - byudjet tasnifi bo‘yicha tushumlarni shakllantirish va byudjetdan mablag’ ajratish to‘g’risidagi so‘rov.

Byudjet schyotlari - bu byudjet kassasini ijro etish operatsiyasini bajarish, to‘lovlarning tushishi va xarajatlarni aks ettirish uchun ochiladigan schyotlar.

Byudjet taqchilligi – muayyan davrda byudjet xarajatlarining byudjet daromadlaridan ortiq bo‘lgan summasi.

Byudjet tizimi - turli darajadagi byudjetlar va byudjet mablag’lari oluvchilar yig’indisi, byudjetlarni tashkil etish va tuzish prinsiplarini, byudjet jarayonida ular o‘rtasida, shuningdek, byudjetlar hamda byudjet mablag’lari oluvchilar o‘rtasida vujudga keladigan o‘zaro munosabatlarni ifoda etadi.

Vakolatli bank - xorijiy valyutada operatsiyalarni o‘tkazishga O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining litsenziyasiga ega bo‘lgan tijorat banki.

Valyuta - ital. so‘zdan olingan bo‘lib, «qadrlanmoq, qiymat» degan ma’noni anglatadi. Baho, qiymat belgisi bo‘lib, mamlakatlarning milliy pul birligi hisoblanadi.

Valyuta birjasi - O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq chet el valyutasini sotish va sotib olish operatsiyalarini amalga oshirish huquqiga ega bo‘lgan birjasi.

Valyuta birjasining savdo tizimi - Markaziy bank va vakolatli banklar o‘rtasidagi, shuningdek banklarning o‘zaro valyutali svop operatsiyalari bo‘yicha elektron savdolar amalga oshiriladigan valyuta birjasining avtomatlashtirilgan elektron tizimi.

Valyuta bozori - **1**. Moliya bozorining bir ko‘rinishidir. Bunday bozorda turli mamlakatlar valyutasi oldi-sotdi qilinadi. Bozorda korxona, firma, davlat idoralari va fuqarolar qatnashadi. O‘zbekistonda valyuta oldi-

sotdi qilish operatsiyalari bilan Respublika Markaziy banki, Respublika Tashqi Iqtisodiy faoliyat Milliy banki va shunday faoliyat uchun ruxsat berilgan boshqa banklar shug'ullanadi**. 2.** Talab va taklif asosida turli xil valyutalar oldi-sotdi qilinadigan rasmiy markazlardir. **3.** Xorijiy valyutalar yoki xorijiy valyutadagi to‘lov hujjatlari bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlarning alohida sohasidir.

Valyuta devalvatsiyasi - milliy valyuta kursining xorijiy valyutaga nisbatan rasmiy tarzda pasaytirish.

Valyuta dempingi - bu valyuta kursining tushishi natijasida uning xarid qilish qobiliyatini pasayishidan foydalangan holda tashqi bozordagi raqobatchilarni siqib chiqish maqsadi bilan bog'liq holda tovarlarni jamiyatda o‘rtacha narxlaridan past darajada keng ko‘lamda eksport qilishidir.

Valyuta konvertatsiyasi - boshqa valyutalarga almasha olish xususiyati tushuniladi.

Valyuta kotirovkasi - joriy qonun asoslari va amaliy faoliyatidan kelib chiqqan holda banklarda chet el valyutasi kursining belgilanishi.

Valyuta kursi - bir pul birligi bahosining boshqa pul birligida ifodalanishi, bir mamlakat valyutasini ikkinchi mamlakat valyutasiga real almashish proporsiyasi (nisbati).

Valyuta kursini to‘g'ri kotirovkalash. Agar xorijiy valyuta birligining bahosi milliy valyutada ko‘rsatilsa, ya'ni, milliy valyutada xorijiy valyutaning bir birligiga t o‘g'ri keladigan miqdorda ko‘rsatilsa, to‘g'ri kotirovkalash deb ataladi. Masalan, 1998- yilning 10-martida 1 AQSh dollariga nisbatan o‘zbek so‘mining kursi 83,39 so‘mni, 1 Rossiya rubliga nisbatan - 13,72 so‘mni tashkil etdi. Bunday kotirovkalash hozirgi vaqtda jahondagi ko‘pchilik mamlakatlarda qo‘llanilib kelinmoqda.

Valyuta kursini egri kotirovkalash. Bunda bir birlik milliy valyutaning xorijiy valyutalardagi miqdori o‘rnatiladi, ya'ni, bir birlik milliy valyutaning xorijiy valyutadagi bahosi ko‘rsatiladi.

Valyuta munosabatlari - 1. Bu bir davlat valyutasining boshqasiga ayirboshlashdir. Valyuta munosabati ma'lum valyuta kursi asosida amalga oshiriladi. **2**. Tashki savdo, iqtisodiy va ilmiy-texnik hamkorlik, xorijga kredit hamda qarzlarni berish va olish, valyuta va valyuta aktivlarini sotib olish bilan bog'liq bitimlarni amalga oshirishda ishtirok etadigan valyuta bilan bog'liq munosabatlardir.

Valyuta operatsiyalari - chet el valyutalari va valyutali qimmatliklarga mulk huquqini almashinishi bilan bog'liq operatsiyalari.

Valyuta opsioni uning xaridoriga ma'lum bir huquqni beradi, ayni paytda, uning zimmasiga kelajakdagi ma'lum muddatda belgilangan narx bo'yicha xorijiy valyutaning muayyan miqdorini xarid qilish yoki sotish majburiyatini yuklamaydi. Opsionni sotuvchi xaridor oldida kelajakdagi muayyan muddatda qat'iy belgilangan narx bo'yicha muayyan miqdordagi xorijiy valyutalarni xarid qilish va sotish majburiyatlarini o'z zimmasiga oladi.

Valyuta pozisiyasi – 1. Bu valyuta xatari ko'rsatkichi bo'lib, u vakolatli bank tomonidan chet el valyutasini oldi-sotdi operatsiyasini, shuningdek, boshqa operatsiyalarni amalga oshirishi natijasida chet el valyutasida ifodalangan talablar yoki majburiyatlarning o'zgarishiga olib keladigan vakolatli bankning chet el valyutasidagi aktivlari (talablari) yoki majburiyatlari o'rtasidagi nisbatni ifodalaydi. **2.** Vakolatli bank tomonidan chet el valyutasining oldi-sotdi operatsiyasini, shuningdek boshqa operatsiyalarni amalga oshirish natijasida chet el valyutasida ifodalangan talablar yoki majburiyatlarning o'zgarishiga olib keladigan vakolatli bankning chet el valyutasidagi aktivlari (talablari) yoki majburiyatlari o'rtasidagi nisbatini ifodalaydigan ko'rsatkich.

Vasiqa - Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida mol-mulk oldi-sotdisi to'g'risida tuzilgan rasmiy hujjat (shartnoma).

Vaucherlar - bu sertifikatlar yoki oldindan beriladigan guvohnomalar bo'lib, ular aholi o'rtasida taqsimlanadi va o'z egalariga ular uchun kimoshdi savdosida sotuvga qo'yiladigan davlat korxonalarining aksiyalarini olish yoxud ularni vaucherlardan foydalanish bo'yicha vositachilik vazifalarini bajarishga tayinlangan investitsiya fondlariga qo'yish huquqini beradigan hujjatlar.

Veb-interfeys – operator yoki to'lovchi tomonidan to'lov rekvizitlarini kiritish uchun muloqot darchasi.

Veksel - 1. Nemischa so'zidan olingan bo'lib, bu veksel beruvchidan yoki vekselda ko'rsatilgan boshqa to'lovchining vekselda ko'rsatilgan muddat kelganda veksel egasiga ma'lum miqdordagi summani to'lash haqidagi so'zsiz majburiyatini tasdiqlovchi qimmatli qog'ozidir. **2.** Qat'iy belgilangan shakldagi yozma qarz majburiyati.

Veksel portfeli - muayyan davrda bank yoki korxona ixtiyorida

jamlangan veksellar majmui.

Vekselni akseptlash - veksel qiymatini to‘lanishiga rozilik berish.

Veksel - veksel beruvchining yoki vekselda ko‘rsatilgan boshqa to‘lovchining vekselda nazarda tutilgan muddat kelganda veksel egasiga muayyan summani to‘lashga doir shartsiz majburiyatini tasdiqlovchi noemissiyaviy qimmatli qog’oz.

Veksel usuli -tovar yetkazib berilgandan so‘ng sotuvchi xaridorga trattani taqdim etadi, xaridor o‘z navbatida akseptlaydi ya’ni, trattada ko‘rsatilgan yig’indini o‘z vaqtida to‘lashga rozilik beradi.

Venchur – bu so‘z ingliz tilidan olingan bo‘lib, “venture” –tavakkal ish, korxonalar miqyosida ishlatilganda, “qo‘rqinchli, xavfli , xatarli” degan ma’noni bildiradi.

Voris - meros olish huquqiga ega bo‘lgan shaxs, merosxo‘r, bo‘lg’usi meros egasi. Bobolardan meros qolgan moddiy va ma’naviy boyliklarga egalik qiluvchilar.

Vorislik huquqi - meros qoldirilgan mol-mulkning vorislar qo‘liga o‘tishini ta’minlaydigan huquqiy me’yorlar majmui.

Garov - 1. Aniq bir majburiyatni, shartni bajarish, qarzni belgilangan vaqtda qaytarishni kafolatlash maqsadida qimmatbaho buyum yoki boylikni qarz beruvchiga qoldirish**. 2.** Biror narsa yoki hodisa haqida bahslashuvchi ikki tomon o‘rtasidagi shart.

Global moliyaviy-iqtisodiy bozor - jahon mamlakatlari o‘rtasidagi moliyaviy-iqtisodiy aloqalarni yagona xo‘jalik tarzida amal qilishiga asoslangan munosabatlar.

Global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz – jahonning deyarli barcha mamlakatlarida moliyaviy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalardagi mutanosiblik va nisbatlarning keskin izdan chiqishi natijasida beqarorlik va chuqur tanglik holatlarining vujudga kelishi.

Davlat banklari davlat mulkiga asoslanib faoliyat ko‘rsatadigan banklar. Respublikamizda bunday banklar qatoriga O‘R TIF Milliy banki, O‘R DT Xalq banki va DATB “Asaka”.

Davlat byudjeti - davlatning o‘z funksiyalarini amalga oshirish uchun mo‘ljallangan daromadlari va xarajatlarining pul bilan ifodalangan yillik majmui. Davlat byudjeti bir yilga tuzilib, uning daromadlar qismida soliqlar, bojxona to‘lovlari hamda boshqa tushumlar, xarajatlar qismida esa davlatning ta’lim, sog’liqni saqlash, mudofaa xarajatlari va turli xil ijtimoiy

to‘lovlar aks etadi.

Davlat byudjeti profitsiti – davlat byudjeti daromadlarining xarajatlarga nisbatan ko‘proq bo‘lishi.

Davlat byudjeti taqchilligi – byudjet xarajatlarining byudjet daromadlariga nisbatan oshib ketishi natijasida moliyaviy resurslar yetishmovchiligining vujudga kelishi.

Davlat ichki qarzlari – davlat tomonidan ichki mablag’ni jalb qilish natijasida vujudga kelgan O‘zbekiston Respublikasi majburiyatlarining yig’indisi.

Davlatning iqtisodiy vazifalari - iqtisodiy tizimning mo‘tadil faoliyat ko‘rsatishi uchun shart-sharoitlar yaratish, uni tartiblash va o‘sib borishini ta’minlashga oid iqtisodiy chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Davlatning moliyaviy siyosati - davlatning moliyaviy munosabatlarni takomillashtirish borasidagi muayyan davrga mo‘ljallangan chora-tadbirlari.

Davlat qarzlari –1. Davlatning mamlakatda qimmatli qog’ozlarni chiqarish shaklidagi, turli byudjetdan tashqari fondlardan (ichki qarz) hamda xorijiy davlatlardan, ulardagi jismoniy va yuridik shaxslardan, shuningdek, xalqaro moliyaviy tashkilotlardan (tashqi qarz) olgan qarzlari. **2**. Davlat tomonidan ichki mablag’ni va xorijdan mablag’ jalb qilish natijasida vujudga kelgan O‘zbekiston Respublikasi majburiyatlarining yig’indisi.

Davlat krediti - uning asosiy xususiyati kredit munosabatlarida davlatning qatnashuvidir. Davlat kreditida davlat qarz beruvchi va qarz oluvchi sifatida ham ishtirok etishi mumkin.

Davlat maqsadli jamg’armalari – davlat byudjeti tarkibida jamlanadigan jamg’armalar bo‘lib, ularning har biri uchun mablag’lar manbalari, har bir manbadan mablag’ tushishi me’yorlari va shartlari, shuningdek, shu mablag’lardan foydalanilishi mumkin bo‘lgan maqsadlar qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Davlat mulki – 1. Davlat ixtiyoridagi yer va kapital kabi boyliklar. 2. Jamiyatdagi mulkchilik shakllaridan biri. Davlat mulki ikki yo‘l bilan paydo bo‘ladi: 1) xususiy mol-mulkni milliylashtirib davlat qo‘liga olish;

Devalvatsiya - 1. Mamlakat milliy valyutasining xorijiy valyuta kursiga nisbatan kamayishi. **2.** Xalqaro valyuta birliklariga yoki chet el valyutasiga nisbatan milliy valyuta kursining sun’iy pasaytirilishidir.

Devizlar - chet el valyutasida ifodalangan xalqaro hisob- kitoblarda qo‘llaniladigan kredit hamda to‘lov hujjatlari (veksel, chek, o‘tkazmalar va

h.k.).

Deklaratsiya – 1. Hukumat, tashkilot, firma nomidan rasmiy e'lon qilingan bayonot; asosiy prinsiplarni tantanali e'lon qilish; 2. Bojxonada deklaratsiya- qimmatbaho buyumlarni, mahsulotlarni chegaradan olib chiqishda va qimmatbaho paketlarga, banderolga qo'shib jo'natiladigan hujjat. Ushbu hujjatda paket mazmuni, qiymati ko'rsatiladi: 3. Soliq deklaratsiya daromadning miqdori, manbai, mulk hajmi va boshqalar xususida soliq to'lash uchun yozilgan ariza.

Demonopolizatsiya - (lat. De-ajratish, bekor qilish-old qo'shimchasi, yunon. mono- tanho va poleo-sotaman)-sog'lom iqtisodiy bellashuvga yo'l berish maqsadida yakka hokim korxonalar va birlashmalar o'rniga o'zaro raqobatlashuvchi ko'plab korxonalarni tuzish. Demonopolizatsiya ikki yo'l bilan amalga oshiriladi: 1. Yirik monopol mavqedagi birlashmalar, kompaniyalar tarqatilib, ulardan mustaqil korxonalar ajralib chiqadi; 2. Yakka hokim korxona, birlashma yoki kompaniyalar saqlangan holda ular bilan raqobat qila oladigan korxona yoki birlashmalar tashkil etish.

Denominatsiya - valyutani barqarorlashtirish va hisob- kitoblarni osonlashtirish maqsadida pul belgilarining ko'rsatilgan qiymatini yiriklashtirish. Bunda eski pul belgilari yangilarga almashtirib beriladi, shunga muvofiq narx-navo va ish haqi qayta hisoblanadi.

Depozit - 1. Lotincha so'zdan olingan bo'lib, lug'aviy ma'nosi- saqlash uchun topshirilgan buyum ma'nosini bildiradi. Iqtisodiyotda mijozning o'z mablag'ini vaqtincha foydalanish uchun bankiga topshirish natijasida vujudga keladigan iqtisodiy munosabat. **2.** Bank jamg'armasi. Banklarda saqlash uchun topshirilgan pul mablag'lari yoki qimmatli qog'ozlar.

Depozit bank - pul mablag'larini, qimmatli qog'ozlarni va boshqa boyliklarni saqlash bilan shug'ullanuvchi bank.

Depozit operatsiyalar - banklarning depozitorlar bilan tuzgan shartnomalari asosida depozit maqsadlariga ko'ra yuridik va jismoniy shaxslarning pul mablag'larini muayyan muddatga jalb etish hamda saqlashga doir operasiyalaridir.

Defitsitsiz bozor - iqtisodning siklli rivojlanishi jarayonida bozorlardagi yalpi talabning yalpi taklifga mutanosib bo'lishi.

Deflyatsiya - 1**.** Inflyatsiya davrida muomaladagi qog'oz pulni kamaytirish. Davlat tomonidan muomaladagi pul miqdorini kamaytirishga

qaratilgan moliya va pul - kredit tadbirlarini qo‘llash orqali amalga oshiriladi. 2**.** Pul- kredit bozoridagi narx-navoning asta-sekin pasayishi yoki ko‘tarilishi. 3. Soliqlarni, hisob stavkalarini ko‘paytirish, davlatning qimmatbaho qog’ozlarini sotish kabilar vositasida pul massasini kamaytirish maqsadidagi davlat tadbiri.

Diversifikatsiya - 1. Lotincha “diversus” va “facere” so‘zdan olingan bo‘lib, “qilmoq, bajarmoq, qilish, ya’ni, har xillashtirish, turli-tumanlashtirish” degan ma’noni anglatadi. Ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish, mahsulot va xizmatlarni sotish bozorlarini kengaytirish maqsadida tarmoq va korxonalar faoliyat sohalarini kengaytirish, mahsulot va xizmatlar assortimentlarini ko‘paytirish. **2.** Har tomonlama tasniflash.

Dirham - VII-X asrgacha Osiyoning musulmon mamlakatlarida, Shimoliy Afrika va Ispaniyada bo‘lgan asosiy pul birligi - kumush tanga. misqol (4,8 gr.)ning undan yetti qismi, 3,36gramm ga teng kumush yoki miss pul. Dirham Hindistonda Boburiylar davrida XVI asrda ham zarb qilingan.

Yevrovalyuta - o‘sha valyutaning mamlakat tashqarisidagi barcha yig’indisidir.

Yevro kreditlar – yevro valyutalarda beriladigan kreditlardir.

Yevro parlament - jahon xo‘jalik aloqalari rivojlanishining hozirgi bosqichida mamlakatlarning teng milliy iqtisodiy shart-sharoitlarga erishtirish maqsadida Yevropa tizimda birxillashtirilgan tartib asosida qatnashishi uchun teng huquqlar va shart-sharoitlarni barpo etish vazifasini bajaradi.

Yer mulk obyekti - yerga resurs sifatida davlat va boshqa iqtisodiy subyektlar tomonidan foyda (renta) olish maqsadida egalik qilinishi.

Yer narxi - kapitallashgan renta. Yer maydonlari garchi ular tovar bo‘lmasalar-da ijara munosabatlaridan tashqari oldi-sotdi munosabatlariga ham ob`yekt bo‘ladilar. Ular mahsulotlar yetishtirish, tabiiy qazilma boyliklari qazib olish, ishlab chiqarish va turar joy binolari, turli inshootlar, yo‘llar, aeroportlar, stadionlar, parklar va hokazolar qurish uchun sotib olinadi. Yer maydoni egasi uni sotishdan oladigan summa bankka qo‘yganda foiz tarzida oladigan daromad summasidan kam bo‘lmaganda sotadi. Yerning narxi ikki omilga: 1) yer maydoni egasi olishi mumkin bo‘lgan renta miqdoriga; 2) ssuda foizi miqdoriga.

Jalb qilingan muddatli depozitlar - yuridik va jismoniy

shaxslarning shartnomada qat’iy kelishilgan muddat va unda ko‘rsatilgan foizlarni to‘lashga doir mablag’laridir. Muddatli depozit hisob varag’i ochilganda jismoniy shaxsga omonat daftarchasi beriladi.

Jamg’arma - aholi, firma va davlat joriy daromadlari bir qismini kelajakdagi ehtiyojlarni qondirish va foizli daromad olish maqsadida to‘plab borilishi.

Jamg’arma fondi - yalpi milliy mahsulotning aholi, firma va davlat joriy daromadlarining iste’moldan ortgan qismining kelajakdagi ehtiyojlarini qondirish va foizli daromad olish maqsadlarida iste’mol qilinadigan qismi.

Jamg’arma vositasi - bu pulning jamlangan boylik shakliga kirib, o‘z egasi uchun kerak bo‘lganda xarid etish vositasi bo‘lib xizmat qila olishdir. Pul-qog’oz yoki tanga bo‘lgani uchun boylik emas, balki o‘zida mehnatni mujassamlashtirgani, unga hamma narsani xarid etish yoki uni jamlab saqlash mumkin bo‘lgani uchun boylik hisoblanadi.

Zakot - 1. Islom mamlakatlarida shariat hukmi bo‘yicha puldor, mulkdor musulmonlarning o‘z mol-mulkidan ixtiyoriy beradigan xayr-ehsoni, musulmonlikning farzlaridan biri bo‘lib, zakotning olinishi, miqdori va undirish tartib-qoidalari qur’onda ko‘rsatib o‘tilgan. **2.** O‘rta Osiyoda zakot chorva va mol-mulkning qirqdan bir ulushi miqdorida har yili xazina foydasiga olingan soliq turi.

Zararlar - ishlab chiqarish xarajatlarining daromaddan oshib ketgan qismi.

Ijara – 1.Shartnoma asosida buyumlarning vaqtinchalik foydalanishga belgilangan ijara haqi to‘lovi asosida berilishi. 2**.** (arab)-mustaqil xo‘jalik yuritish yoki boshqa biror faoliyatni amalga oshirish maqsadida yer, suv, korxona va boshqa mulkka egalik qilish hamda vaqtincha foydalanish uchun to‘lanadigan muayyan haq.

Import - 1. Mamlakat ichki bozorlarida sotish uchun chet el mollarini, kapitalini, texnologiyasini va xizmatlarni olib kelish. Import xalqaro mehnat taqsimoti natijasidir. U vaqtni tejashga, iqtisodiyot, aholi ehtiyojini qondirish vazifalarini muvaffaqiyat bilan hal qilishga ko‘maklashadi. **2.** Chet mamlakatlarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar va xizmatlarni mamlakatga keltirish va ichki bozorda sotishdir.

Import operatsiyalari - mahsulotni xorijiy sheriklardan sotib olish va mamlakatga olib kirish.

Import shartnomasi - O‘zbekiston Respublikasi rezidenti bo‘lgan

xo‘jalik subyekti bilan norezident xorijiy hamkor o‘rtasida o‘z valyuta mablag’lari hisobidan to‘lanadigan tovarlar, ishlar, xizmatlar importi xususida tuzilgan shartnoma.

Import shartnomasiga qo‘shimcha kelishuv - import shartnomasining shartlariga taraflar bilan kelishib kiritiladigan va yozma shaklda tasdiqlangan o‘zgartish va qo‘shimchalar.

Importchilar - norezident xorijiy hamkorlar bilan import shartnomalari tuzgan xo‘jalik subyektlari - O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari.

Investitsiya - 1. nem.investitlion, lat. investere- so‘zdan olingan bo‘lib, «kiyintirmoq» degan ma’noni anglatadi. Biror ish, korxonaga sarmoya solish, mablag’ sarflash. **2.** Daromad olish maqsadida pul mablag’larini biror ishga qo‘yishdir. **3.** Iqtisodiy samara (foyda, daromad) olish yoki ijobiy ijtimoiy natijaga erishish uchun sarflanadigan pul mablag’lari, banklarga qo‘yilgan omonatlar, paylar, qimmatli qog’ozlar (aksiya, obligatsiyalar), texnologiyalar, mashinalar, asbob-uskunalar, litsenziyalar va samara beradigan boshqa har qanday boyliklardir.**4.** Daromadlar yoki foyda olish uchun pul mablag’larini kiritish. Daromadlar yoki foyda olish uchun xarid qilingan mulk.

Inflyatsiya - 1. Lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, «shishish, ko‘pchish, ko‘tarilish» degan ma’noni anglatadi. Pulning qadrsizlanishi. Pulni me’yordan ko‘p ishlab chiqarilishi oqibatida pul harakati kanallarida tovar bilan ta’minlanmagan pullarning paydo bo‘lishi. Tovar va xizmatlar bahosining o‘sishi, bozorda talabga javob bermaydigan mollarning ko‘payishi, ortiqcha pul birliklarini muomalaga chiqarish inflyatsiyaga olib keladi. **2.** Pul muomalasi qonunlarining buzilishi natijasida milliy valyutaning qadrsizlanishi, narxlarning o‘sishi. **3.** Tovar muomalasiga nisbatan qog’oz pul massasining ortiqchaligidir.

Inflyatsiya darajasi - ma’lum vaqt ichida (oy, yil) narxlar darajasining foizdagi o‘zgarishi.

Inflyatsion farq - yalpi sarflarning sof milliy mahsulot qiymatidan ortiq bo‘lgan miqdori.

Inqiroz – 1. Taraqqiyotning orqaga qaytishi, pasayishi, tanazzuli, regress, tushkunlik; 2. ishlab chiqarilgan tovarlar va ko‘rsatilayotgan xizmatlarning kasodga uchrashi natijasida ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish ko‘lamining kamayib ketishi.

Ipoteka - bankning garov xati, ko‘chmas mulk garovi asosida muayyan muddatga ssuda berishi. Qarzga pul olish maqsadida ko‘chmas mulk, yer va qurilish binolarini garovga qo‘yish. Bunda garovga qo‘yilgan mulk qarz oluvchining tasarrufida qoladi.

Ipoteka banki - kredit muassasa bo‘lib, u ko‘chmas mulkning garovi (yer, inshoot va boshqalar) hisobiga uzoq muddatli pul ssudalari beradi, shuningdek, garovga qo‘yiladigan ko‘chmas mulkdan ta’minlanadigan garov varaqalari chiqaradigan bankdir.

Ipoteka krediti oluvchi – ko‘p qavatli uydagi kvartirani sotib olish uchun olingan kreditni kredit shartnomasida belgilangan shartlarda qaytarish majburiyatini oladigan, Qoraqalpog’iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari qoshidagi ishchi guruhlarining tavsiyalariga ega bo‘lgan fuqaro.

Ipoteka krediti - ko‘chmas mulkni garovga olib, uzoq muddatga beriladigan kredit. Joylarda tasdiqlangan namunaviy loyihalar bo‘yicha yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga barpo etiladigan uy-joy garovi ostida beriladigan uzoq muddatli kredit. Ipoteka kreditlari tijorat banklari tomonidan qaytarishlik, to‘lovlilik, ta’minlanganlik va muddatlilik shartlarida beriladi.

Iste’mol krediti - 1. Aholining iste’mol talablarini qondirishga beriladigan kredit. Bu kredit uy- ro‘zg’or buyumlarini: radio-elektron va boshqa maishiy asbob-uskunalar, mebellar, interyer buyumlari, turar joyni ta’mirlash bilan bog’liq tovarlarni xarid qilish uchun 3 yilgacha muddatga beriladigan kredit**. 2.** Tijorat banklari iste’molchilarga tovar sotib olish uchun bergan qarzidir. Markaziy bank tomonidan barqarorlik davrida qo‘llaniladigan pul siyosati dastagi. U banklar va boshqa maxsus kredit institutlari tomonidan aholining uzoq muddatli iste’mol tovarlarini sotib olish uchun beriladigan kredit.

Ishlab chiqarish munosabatlari - kishilarning yashash vositalarini ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste’mol qilish jarayonida ular o‘rtasida namoyon bo‘ladigan xatti-harakatlar.

Kapital - 1. Bank mijozning aksionerlik kapitali, uning strukturasi, aktiv va passivlar orasidagi munosabatlar. **2.** Ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishda ishlatilib, o‘z egalariga daromad keltiradigan ishlab chiqarish vositalari, tovarlar va pul mablag’lari.

Kapital sarflar - asosiy kapitalni qayta tiklash, kengaytirish va

aylanma mablag’larni ko‘paytirishga sarflanadigan xarajatlar.

Kapitaldan foydalanish samaradorligi - ikki holatni ifodalaydi. Asosiy kapitaldan foydalanish samaradorligi qo‘shimcha kapital mablag’lari sarflamay turib mahsulot miqdorini ko‘paytirishga erishishdir. Milliy iqtisod miqyosida milliy mahsulot yoki milliy daromad o‘sishi sur’atlari bilan asosiy kapital o‘sishi sur’atlari o‘rtasidagi nisbat asosiy kapitaldan foydalanish darajasining umumiy ko‘rsatkichi hisoblanadi. Korxona miqyosida kapital samaradorligi asosiy kapitalning bir so‘mi evaziga ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori bilan, kapital sig’imi esa ishlab chiqarilgan mahsulotning bir so‘mi hisobiga qancha asosiy kapital qiymati to‘g’ri kelishi bilan aniqlanadi.

Kapital qo‘yilmalar - quvvatlarni takror ishlab chiqarish, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish obyektlarini qurishga qaratilgan resurslar va jami ijtimoiy mehnatning qiymatini aks ettiruvchi iqtisodiy kategoriya. Davlat tomonidan (davlat buyurtmasi), turli mulkchilik shakllaridagi korxonalar, tashkilotlar, banklar hamda xususiy shaxslar tomonidan ajratiladigan pul mablag’lari kapital qo‘yilmalarning manbalari bo‘lishi mumkin. Kapital qo‘yilmalar yangi korxonalar qurishga yoki amaldagi korxonalarni qayta ta’mirlashga yo‘naltirilishi mumkin.

Kapital qo‘yilmalarni moliyalashtirish - asosiy fondlarni yangilash, rekonstruksiya qilish va kengaytirishga aytiladi. Kapital qo‘yilmalar asosan bank tomonidan amalga oshiriladi, bu qurilish kompleksi oldiga qo‘yilgan vazifalarni bajarishda katta ahamiyatga ega.

Kapital qo‘yilmalarning manbalari - korxona, birlashmalarning o‘z mablag’lari, byudjet mablag’lari, va bank krediti.

Kapital ta’mirlash - asosiy vositalarni yirik ko‘lamda butkul detallari, qismlarini almashtirish bilan bog’liq qayta ta’mirlash.

Kard ul-Xasan (xayriya krediti) - tashkilot yoki shaxslarga taqdim etiladigan foizsiz ssudalar. Agar shaxsning berilgan ssudaning qaytara olmasligi avvaldan aniq bo‘lsa, pullar majburiyat yoki ixtiyoriy xayriya shaklida.

Qayta moliyalash siyosati - 1. Markaziy bankning o‘zi belgilangan shartlarda tijorat banklariga uch oygacha bo‘lgan muddatga beradigan kreditlarni tartibga solish siyosati. Markaziy bank o‘zining qayta moliyalash tizimida banklarning ishtirok etish shartlarini e’lon qiladi. **2.** Markaziy bank

tomonidan kredit institutlarining veksellarni sotib olish shakli va qimmatbaho qog’ozlarni garovga olish yo‘li bilan kreditlash tushuniladi.

Qarz - 1. Tashkilotlarning xo‘jalik faoliyatlarini yuritish natijasida vujudga kelgan, tegishli huquqiy va jismoniy shaxslarga to‘lanishi lozim bo‘lgan qarz summasi. **2.** Qaytarish sharti bilan berilgan yoki olingan pul, tovar kabilar**. 3.** Zimmadagi vazifa, burch.

Kasod - 1. Talab yoki xaridor yo‘qligi bois, tovarlarning bozorda sotilmay qolishi natijasida zarar ko‘rish. **2.** Kasofat, zarar.

Kepakiy -chig’atoy xonlaridan Kepakxon (1318-1326y.) zamonida chiqarilgan oltin kumush tanga.

Qiymat - tovarda mujassamlashgan ijtimoiy mehnat sarfidir. Faqatgina ijtimoiy zaruriy ish vaqti jamiyat ehtiyojini qondirish uchun kerak bo‘lgan vaqtdir. Shu sababli, bu vaqtni anglatuvchi qiymatni bozor tan oladi.

Qiymat qonuni - tovarlarga sarflangan mehnat bilan ularning qiymatlari o‘rtasidagi mohiyatli bog’lanish bo‘lib, tovarlarga sarflangan ijtimoiy zaruriy mehnatning ko‘payishi tovar qiymatining ham ko‘payishiga olib kelishini ifodalaydi.

Kichik biznes subyektlari - korxona ko‘lami, ishlab chiqarish hajmi, ishlovchilar soni, moliyaviy mablag’lari miqdori va boshqalar jihatidan imkoniyatlari cheklangan ishlab chiqaruvchi subyektlar. Respublikamizda sanoat ishlab chiqarishning ayrim tarmoqlarida (masalan, yengil va oziq-ovqat sanoati, metallga ishlov berish va asbobsozlik sanoati va h.k.) 100 kishigacha, ayrimlarida (masalan, mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg’i-energetika sanoati va boshqalarda) 50 kishigacha, xizmat ko‘rsatish sohasida 25 kishigacha ishlovchi korxonalar kichik biznes subyektlari hisoblanadi.

Konversiya - (lat.konversio-o‘zgarish)- harbiy ishlab chiqarish va boshqa xil harbiy faoliyat sohalarining tinchlik maqsadlariga ko‘chirilishi.

Kotirovkalash – bu valyuta kursini o‘rnatishdir. Jahon amaliyotida kotirovkalashning 2 xil usuli mavjud: Valyuta kursini to‘g’ri kotirovkalash, Valyuta kursini egri kotirovkalash.

Kredit - 1. Lotincha «kredit» - «qarz» so‘zidan olingan bo‘lib, pul mablag’lari, tovar va xizmatlarini kelishilgan foizda qaytarish sharti bilan vaqtincha foydalanishi uchun pul yoki material mablag’lari berish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar tizimi. (qarz, nasiya).

2. O‘z egalari qo‘lida vaqtincha bo‘sh turgan pul mablag’larini boshqalar tomonidan ma’lum muddatga haq to‘lash sharti bilan olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqadigan munosabatdir. **3**. Jismoniy va yuridik shaxslarning vaqtinchalik bo‘sh mablag’larlarini muayyan tamoyillar asosida qaytarish sharti bilan foydalanishga berish jarayonida vujudga kelgan iqtisodiy munosabatlar majmui.

Kreditor - qarzga mablag’ beruvchi tomon.

Kredit pullari - **1.** Kredit aloqalarida ishlatiladigan pullardir (banknotlar, veksellar, cheklar, kredit kartochkalari). Kredit pullar oltin o‘rniga paydo bo‘lgan, qarz beruvchi va qarzdor o‘rtasidagi hamda bank vositasida amalga oshiriladigan harakatlarda qo‘llaniladigan pullar. **2.** Kredit munosabatlari asosida yuzaga keluvchi, to‘lov vositasini bajaruvchi qiymat belgilari.

Kredit siyosati - banklarning kredit faoliyati bo‘lib, ssuda kapitalini joylashtirish bilan amalga oshiriladigan siyosat. Kredit siyosatining elementlariga quyidagilar kiradi: kredit siyosatining maqsad va vazifalari, kredit yo‘nalishini tashlash, kredit operatsiyalarini amalga oshirish texnologiyasi, kreditlash tartibining nazorati.

Kreditlash tamoyillari. Kredit munosabatlari quyidagi tamoyillar (prinsiplar)ga rioya etgan holda amalga oshiriladi: Qaytarib berishlik. Muddatlilik. Ta’minlanganlik. Maqsadlilik. To‘lovlilik. Samaradorlik.

Kredit subyektlari – har-xil bo‘lishi mumkin. Bunda 2 tomon, ya’ni, qarz beruvchi (kreditor) va qarz oluvchi (debitor) ishtirok etadi. Bularga korxona, firma, tashkilot, davlat va turli toifadagi aholi kiradi.

Lizing - asosiy fondlarni uzoq muddatga ijaraga olish. Yangiliklarni ishlab chiqarish va sotishni moliya bilan ta’minlash usuli. Lizing sanoat korxonalariga bir yo‘la katta miqdorda pul sarf qilmasdan kerakli mahsulotlarni olish imkonini beradi. Lizing ikki ko‘rinishda: moliyaviy va tezkor bo‘ladi. Moliyaviy lizing ijaraga olingan fondning to‘la qiymatini va ijarachi foydasini qoplashni ko‘zda tutadi. Tezkor lizing- amortizatsiya davridan qisqa muddatga tuzilgan kelishuv.

Lizing obyekti - tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanadigan, iste’mol qilinmaydigan har qanday ashyolar. Shu jumladan, korxonalar, mulkiy komplekslar, binolar, inshootlar, uskunalar, transport vositalari hamda boshqa ko‘char va ko‘chmas mulk lizing obyektlari bo‘lishi mumkin. Yer uchastkalari va boshqa tabiat obyektlari lizing obyektlari bo‘la olmaydi.

Mamlakat xatari (riski) - bu mamlakatdagi siyosiy va iqtisodiy sharoitlarning hozirgi va kelajakdagi o‘zgarish xatari korxona, tashkilot, firmalarga ta’sir ko‘rsatadi. Bu asosan tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug’ullanuvchi, tovar va xizmatlarni eksport qiluvchi korxonalar faoliyatiga katta ta’sir qiladi.

Mamlakatning Markaziy banki - ma’lum bir davlatning bank tizimining asosiy qismi.

Mahalliy byudjet - Davlat byudjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag’lari jamg’armasini tashkil etuvchi bir qismi bo‘lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag’lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Mehnat - Kishilarning maqsadga muvofiq faoliyati **mehnat** deyiladi.

Mehnat birjasi - ishchi, xizmatchi va ish beruvchi o‘rtasidagi ishchi kuchini sotish va sotib olish bo‘yicha kelishuvni amalga oshirishda muntazam vositachi vazifasini o‘taydigan, ishsizlar hisobini yuritadigan, ularni ish bilan ta’minlash, qayta o‘qitish kabilar bilan shug’ullanuvchi davlat muassasasi.

Mehnat munosabatlari - ish beruvchi bilan ish oluvchi o‘rtasida ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste’mol va boshqa jarayonlarda amalga oshadigan iqtisodiy aloqalar.

Mehnat predmetlari - bevosita mehnat qurollari ta’sirida mahsulotlar tayyorlanadigan narsalar (yer, suv, xom ashyo, materiallar va boshqalar).

Milliy valyuta - ma’lum bir mamlakatning rasmiy pul birligi. Masalan: O‘zbekistonda-sum, Rossiyada-rubl, Hindistonda-rupiya va h.k..

Milliy valyuta tizimi - bir mamlakatda valyutaning amal qilishi bilan bog’liq bo‘lgan iqtisodiy va qonuniy munosabatlar yig’indisi.

Milliy daromad - 1. Mamlakat iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini belgilab beruvchi umumlashgan muhim ko‘rsatkich. Yalpi ichki mahsulotning bir qismidan iborat. Yalpi ichki mahsulot qiymatidan ishlab chiqarish xarajatlarining chegirib tashlangan qismi. Mamlakatda yil davomida vujudga kelgan barcha daromadlar yig’indisidir. **2.** Milliy ishlab chiqarishdan keladigan daromad. Iqtisoddagi va barcha turdagi daromadlar jamg’armasi. U ish haqini, renta daromadini, korporatsiya daromadlarini qiymatidan keladigan sof foiz va boshqa daromadlarni o‘z ichiga oladi. Yana yalpi milliy mahsulot bilan asosiy kapitalning iste’mol xarajatlari va

qo‘shimcha soliqlar tafovuti sifatida aniqlandi.

Milliy iqtisodiyot - 1.Bu barcha ishlab chiqarish va noishlab chiqarish tarmoqlari va sohalarini, funksional iqtisodiyotni, ko‘plab infratuzilmalarni o‘z ichiga qamrab olgan yaxlit iqtisodiyotdir. 2. Muayyan siyosiy makondagi moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish sohalarini yaxlit bir butun qilib birlashtirgan barcha ishlab chiqarish subyektlari faoliyatlarining o‘zaro aloqada va dialektik birlikdagi ifodasi.

Milliy hisoblar tizimi - yalpi milliy mahsulot, ichki milliy mahsulot va milliy daromadni ishlab chiqarish, taqsimlash, foydalanishni qiymat shaklida ifodalaydigan o‘zaro bog’liq hisoblash tizimidir.

Minibank - bank filiali binosidan tashqarida, lekin o‘zi joylashgan viloyat-shahar hududida joylashgan va tegishli normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq faoliyat yurituvchi bank filialining tarkibiy tuzilmasi.

Misqol - og’irlik o‘lchovi. Sharq mamlakatlarida qimmatbaho buyumlarning og’irligi misqol bilan o‘lchangan. Bir misqol Afg’onistonda - 4,6 g., Jazoirda -4,27 g., Misr va Sudanda -4,08 g., Turkiyada - 4,81 g., Xorazmda -4,55 g., Buxoroda - 4,8-5 grammga teng bo‘lgan. Amir Temur davrida bir misqol 4,8 g., vaznda oltin tangaga teng bo‘lgan. Bu og’irlik o‘lchovi Yaqin Sharqda hozir ham ishlatiladi.

Moddiy buyumlashgan boylik - milliy boylikning inson mehnati bilan yaratilgan ashyoviy - buyum ko‘rinishiga ega bo‘lgan qismi.

Moliya - pul fondlarining shakllanishi, taqsimlanishi va foydalanishini tartibga solish bilan vujudga keladigan munosabatlardir.Tarixan bank kapitali bilan sanoat va boshqa kapitallar qo‘shilishi natijasida hosil bo‘lgan kapital munosabatlari. Moliya pul mablag’laridan foydalanish va uning harakatini tartibga solish, turli darajadagi pul fondlarini vujudga keltirish va takror ishlab chiqarish ehtiyojlari va boshqa ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish maqsadida ularni taqsimlashni ifodalaydi.

Monometallizm - pul tizimida mustaqil unsur bo‘lib, bunda bitta metallga barcha tovarlar qiymatini o‘zida aks ettiruvchi umumiy ekvivalent roli beriladi.

Monometall - agar tangalar faqat bir xil metalldan, ya’ni, oltin yoki kumushdan zarb qilinsa, shunday pul tizimi **monometall pul tizimi** deyiladi.

Naqd pul aylanishi - ma’lum davrda naqd pullar vositasida amalga

oshirilgan barcha to‘lovlar yig’indisi. Bu to‘lovlar banknot yoki tangalar orqali amalga oshiriladi.

Naqd pul muomalasi - mamlakat pul tizimida amaldagi qonunchilik bo‘yicha naqd pullarni muomalaga chiqarilishi, aylanishi (harakati) va muomaladan chiqarilishi.

Naqd pulsiz oborot - pul oborotining bir qismi bo‘lib, unda pullar harakati o‘zaro talablar hisobiga kredit muassasalaridagi hisobvaraqlar bo‘yicha pul o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshiriladi va bunda naqd pullar ishlatilmaydi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblar -pul mablag’larining bankdagi bir hisob raqamidan boshqa hisob raqamiga naqd pul ishtirokisiz, faqat hujjatlar asosida o‘tkazish tushuniladi. Odatda, naqd pulsiz hisob - kitoblarni ko‘pchilik «pul ko‘chirish» yoki «pul o‘tkazish» deb tushunadi. Korxona va tashkilotlar tomonidan tovar ayirboshlash, xizmatlar ko‘rsatish va notovar operatsiyalar bo‘yicha bir-biriga bo‘lgan talab va majburiyatlarni naqd pul ishlatmasdan pul mablag’larini faqat hujjatlar orqali bir hisob varaqdan ikkinchi hisob varaqqa o‘tkazish orqali amalga oshiriladigan hisob- kitoblar.

Narx, baho - 1. Tovar qiymatining puldagi ifodasi. Bozor sharoitida narx qiymat o‘lchovi, rag’batlantirish omili, daromadlarni qayta taqsimlash vazifalarini bajaradi. **2.** Narsaning, buyumning pul bilan o‘lchanadigan qiymati, bahosi.

Narx diapazoni - narxlar oralig’ining puldagi ifodasi.

Narx indeksi - joriy yildagi iste’molchilik tovarlari narxining bazis yilidagi iste’molchilik tovarlari narxiga nisbatining foizlardagi ifodasi.

Narx turlari - narx tizimini tashkil etuvchilar. Ularning eng muhimlari ulgurji va chakana, shartnoma, chegaralangan, demping, nufuzli, qat’iy, erkin va hokazo narxlar.

Natural (mahsulot) ishlab chiqarish - mehnat natijalari ishlab chiqaruvchilarning o‘zlari tomonidan iste’mol qilinadigan, ichki xo‘jalik ehtiyojlarini qondiradigan xo‘jalik yuritish shakli.

Natural xo‘jalik yuritish - bu agar kishilar o‘z ehtiyojlari uchun zarur bo‘lgan barcha mahsulotlarni o‘zlari yetishtirsalar, ya’ni, hech narsa sotib olmasalar va sotmasalar, bunday xo‘jalik yuritish natural xo‘jalik yuritishdir.

Obligatsiya - 1. Lotincha «obligation» so‘zidan olingan bo‘lib, u majburiyat degan ma’noni anglatadi**.** Buning egasi qarz berganligidan

guvohlik beruvchi va unga ushbu qimmatli qog'ozning nominal qiymatini unda ko‘rsatilgan muddatda belgilangan foiz to‘langan holda qoplash majburiyatini tasdiqlovchi qimmatli qog'oz. **2.** Emitentning qarz majburiyati qat'iy foiz stavkasi shaklida belgilangan qimmatli qog'ozning bir turidir.

Overdraft - 1. Chek bo‘yicha olingan joriy hisob raqamdagi qoldiqdan ortiqcha summa. **2.** Bankdagi kreditning oshib ketishi. **3.** Bank mijozning hisob raqamidagi qoldiqdan ortiq mablag'ni hisobdan chiqarish yo‘li bilan beriladigan qisqa muddatli kredit.

Omonatchi - bu o‘zining kundalik ehtiyojidan ortiq pul mablag'larini jamg'arish uchun bankdagi hisob varaqqa omonat sifatida pul mablag'larini jamg'arish uchun bankdan omonat daftarchasini olgan shaxsdir.

Onkol ssudasi - birinchi talabga ko‘ra qoplanadigan qisqa muddatli qarz.

Operativ lizing - bu shunday ijara munosabatlariki, bunda lizing obyektlari (mulk) amortizatsiya muddatidan kamroq muddatga ijaraga olinadi. Arendator (ijarachi) mulkni o‘z ixtiyoriga ma'lum muddatga yoki bir ishlab chiqarish davriga oladi. Odatda shartnoma 5 yilga tuziladi. Bu muddat tugaganidan so‘ng ijarachi to‘lovni to‘lashni to‘xtatishga va mulkni ijaraga bergan egasiga topshirishga haqli, yoki shartnomani yangitdan tiklash, yoxud shartnomani tuzish vaqtidagi kelishilgan bahoda lizing obyektini sotib olishi mumkin.

Operativ hisob - ma'lum xo‘jalik jarayoni va operatsiyalarini ular yuz bergan joyning o‘zida kechiktirmay nazorat qilib boradi. Xo‘jalik operatsiyalarini amalga oshirishda bu hisob yordamida rejalashtiriladigan ko‘rsatkichlar bilan ham son, ham sifat jihatidan solishtiriladi.

OFERDRAF - mijozning joriy hisob varag'ining salbiy qoldig'i bo‘lib, bank krediti bilan qoplanadi.

Ochiq bozordagi operatsiyalar - bu pul bozoriga ta'sir ko‘rsatish maqsadida qimmatli qog'ozlarni Markaziy bank tomonidan sotib olish va sotishdir.

Ochiq valyuta pozitsiyasi – bu vakolatli bankning chet el valyutasidagi talablari uning chet el valyutasidagi majburiyatlari summasiga mos (teng) bo‘lmagan holatdagi valyuta pozitsiyasidir.

Pul - 1. Shunday maxsus tovarki, u hamma boshqa tovarlar uchun umumiy ekvivalent vazifasini bajaradi. Hamma tovarlar singari pul ham qiymat ham iste'mol qiymatiga ega. Shu ma'noda, u boshqa oddiy

tovarlardan farq qilmaydi. **2**. Hamma tovar va xizmatlar ayirboshlanadigan, umumiy ekvivalent sifatida foydalaniladigan, boshqa barcha tovarlar qiymatini ifodalaydigan maxsus tovar.

Pul muomalasi - iqtisodiy subyektlarning pul vositasida amalga oshadigan munosabatlari.

Pul - kredit siyosati - davlat tomonidan iqtisodiy o‘sishni ta’minlash maqsadida pul muomalasini tashkil etish va barqarorligini ta’minlash uchun amalga oshiriladigan barcha chora-tadbirlar majmui.

Pul - kredit siyosati ekspansiyasi - muomaladagi pul miqdorining o‘sishini nazoratini pasayishi, soliq stavkalarini qisqarishi, foiz stavkalari darajalarining pasayishi asosida muomalaga kredit resurslarining keng miqdorda chiqishi bilan ajralib turadi.

Pul agregati - jamg’arib borilayotgan va xarid qobiliyatini saqlovchi barcha pul vositalari. Bunga naqd pullar, ma’lum muddatga yoki muddatsiz bankka qo‘yilgan pullar, sertifikatlar va b.. Jahon amaliyotida turli pul ko‘rsatkichlari (M0,M1,M2,M4), ya’ni, agregatlaridan foydalaniladi.

Muomaladagi naqd pullar ya’ni, banklardan tashqaridagi naqd pullardan iborat. Ushbu ko‘rsatkich muomalaga chiqarilgan naqd pullar miqdoridan Markaziy Bank kassasidagi va tijorat banklar kassalaridagi naqd pullar miqdorini chegirish orqali hisoblanadi. Xususan, kvazi pullar, ya’ni, bank hisob raqamlarida oson naqd pulga aylanadigan mablag’lardir. Uning tarkibiga muddatli va jamg’arma depozitlari, xorijiy valyutadagi depozitlar va boshqa depozitlar kiradi.

M_1-yuqori likvidli pullar Mo pul agregati + talab qilib olinguncha depozitlar.

M_2- M_1 + muddatli va jamg’arma depozitlari.

M_3- M_2 + xorijiy valyutadagi depozitlar.

M_4- M_3 + uzoq muddatli **qimmatli qog’oz**lar.

Hozirgi paytda o‘tish iqtisodiyotidagi mamlakatlarda iqtisodiyot, bank tizimi va moliya bozorlarining, jumladan, pul, qimmatli qog’ozlar va valyuta bozorlarining rivojlanish darajasiga qarab bank statistikasida M0, M1, M2 va M3 pul agregatlaridan foydalaniladi. O‘zbekiston bank statistikasida ayni paytda M0, M1 va M2 pul agregatlari va rezerv pullar qo‘llaniladi.

Xususan, **M0** pul agregati muomaladagi naqd pullardan iborat bo‘lib, ular eng yuqori li**k**vidli pullar hisoblanadi. **M1** pul agregati – M0 va talab **qilib** olinguncha depozitlar yi**g’**indisidan iborat. **M2** pul agregati, ya’ni, pul

massasi – M2 pul agregati, muddatli depozitlar, jamg'arma depozitlar va xorijiy valyutadagi depozitlardan tash**k**il topgan.

Pul aylanishi - pulning o‘z vazifalarini bajarish chog'idagi harakatlari yig'indisi. Pul aylanishi jarayonida jamiyatning barcha strukturaviy tuzilmalari - davlat muassasalari, mahalliy hokimiyatlar, korxonalar, tashkilotlar, banklar, birjalar, firmalar va aholining barcha guruhlari ishtirok etadi.

Pul birligi - mamlakatdagi to‘lov vositasi birligi bo‘lib, asosan tovarlar qiymatini o‘lchash rolida va muomala vositasi sifatida xizmat qiladi.

Pul massasi - har qanday mamlakat iqtisodiyotida tovarlar va xizmatlar aylanishini ta'minlaydigan, xususiy shaxslar, institutsional mulkdorlar (korxonalar, birlashmalar, tashkilotlar va b.) va davlat egalik qiladigan naqd va naqd pulsiz xarid hamda to‘lov vositalari majmuidir.

Pul taklifi - bu muomalaga chiqarilgan ma'lum turdagi pul miqdoridir.

Pul tizimi - 1. Ma'lum bir mamlakatda pul muomalasini qonuniy va mutanosib ravishda tashkil qilishda qo‘llaniladigan uslublar majmuasi tushuniladi. **2.** Davlat qonunlari asosida pul muomalasini tashkil qilish shaklidir.

Pul emissiyasi - bu muomaladagi pul massasini ortishiga olib keluvchi pullarni chiqarishdir.

Pul-kredit siyosatining bevosita vositalar — Mar**k**aziy ban**k** tomonidan tijorat ban**k**lariga nisbatan foiz stav**k**alarini yo**k**i **k**redit miqdorini belgilash va che**k**lashdan iborat bo‘lgan ma'muriy usullari.

Pul-kredit siyosatining bilvosita vositalar esa Mar**k**aziy ban**k** va tijorat ban**k**lari **o‘rta**sidagi ixtiyoriy ravishda foydalaniladigan, ya'ni, bozor orqali pulga bo‘lgan talab va ta**k**lifni **o‘**zgartirish, muomaladagi pul massasi miqdorini va ban**k**larning to‘lovga **q**obiliyatliligini tartibga solish usulidir.

Pul-kredit siyosatining vositalari - Markaziy bank tomonidan pulga bo‘lgan talab va taklifni tartibga solish hamda pul-kredit siyosatini amalga oshirish mexanizmidir.

Pulning qiymati - pul birligining xarid qilish qurbi-qobiliyati, ya'ni, unga qancha tovar va xizmatlar xarid qilish mumkinligi.

Real qiymat - bu aktivning joriy bozor qiymati yoki qonunchilikka

muvofiq holda baholash faoliyati bilan shug’ullanish huquqiga ega bo‘lgan, mustaqil ekspertlar tomonidan aniqlangan qiymatdir.

Real daromadlar - muayyan jamiyatdagi taqsimot qonunlari asosida va qonunlarga asoslanmagan usullar bilan vujudga keladigan jamiyat a’zolari yalpi ichki mahsulotdagi hissasining moddiy-ashyoviy va xizmat ifodasi.

Revalvatsiya - lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, «ahamiyatga egaman», «arziyman» degan ma’noni anglatadi. Mamlakat milliy valyutasining xorijiy valyuta kursiga nisbatan o‘sishi. Revalvatsiya mamlakat iqtisodini izga solish vositalaridan biri bo‘lib, mamlakat pul tizimini muvofiqlashtiradi, pulning xarid qobiliyatini mustahkamlaydi.

Sarmoya - asosiy savdo mablag’. Kichik savdoda harakat qiluvchi mablag’ dastmoya deb yuritilgan.

Sarmoyador - qimmatli qog’ozlarni o‘z nomidan va o‘z hisobidan sotib oluvchi jismoniy yoki yuridik shaxslardir (davlatdir).

Sarrof - pul almashtiruvchi, pulni maydalovchi. Savdo rastalari va ko‘chalarda o‘tirib, kishilarning yirik pullarini maydalab, qimmatbaho buyumlarini pulga almashtirib beruvchi shaxs. Sarroflar chet eldan kelgan savdogarlarning pullarini mahalliy pullarga almashtirib berish. Qimmatbaho toshlar, oltin, kumush va boshqalarning bahosini belgilash, pul va buyumlarni ma’lum vaqtgacha omonatga saqlash bilan ham shug’ullangan.

Svop (swap) – **1**.(ingl. “svap”, “svop”) – almashuv, almashtirish ma’nosini bildiradi. Valyutaviy svop - bitimda belgilangan muddat va valyuta kursi bo‘yicha hisoblashish (qayta almashuv) sharti asosida valyutalarni bir vaqtda sotib olish va sotish (almashuv) bo‘yicha ikki tomonlama bitimdir. Valyutaviy svop operatsiyasi ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismini amalga oshirishda valyutalarning dastlabki almashinuvi (spot bitim), ikkinchi qismini bajarishda esa, qayta almashinuvi (forvard bitimi) va svop shartnomasining yopilishi sodir bo‘ladi. **2.** Savdo qoidalariga amal qilgan holda bitta qarzni to‘lash bo‘yicha ma’lum bir muddat o‘tgandan so‘ng shartlarni o‘zgartirish bo‘yicha bitim.

Sindisiyalashtirilgan kredit - bir necha banklar tomonidan yirik investitsiya loyihalarini birgalikda kreditlash.

Sintetik schyotlar - mablag’lar va xo‘jalik jarayonlarining umumlashgan hisobi, pul birliklarida yuritiladigan schyotlarga aytiladi.

Sintetik hisob - sintetik schyotlar yordamida amalga oshiriladigan

hisob.

Slip (bankomat yoki terminal kvitansiyasi) – **1**. Bank kartalari yordamida tuziladigan va undan foydalanilgan holda operatsiya olib borilganligini tasdiqlovchi hisob-kitob hujjati. **2**. Bank plastik kartochkasidan foydalangan holda operatsiya o‘tkazilganligini tasdiqlovchi va o‘zida operatsiya summasi, turi, sanasi, shuningdek bank plastik kartochkasini hamda ushbu slipni shakllantirgan terminalni identifikaTsiya qilish imkonini beruvchi axborotlarni aks ettiruvchi terminal kvitansiyasi.

Subvensiya - davlatning mahalliy organlarga pul ko‘magi. Dotatsiyalardan farqli ravishda subvensiyada muayyan korxonalar moliyalashtiriladi va maqsadli foydalanish tartibi buzilsa, qaytarib olinadi.

Ssuda - bankdan pul shaklida berilgan kredit. Ssuda foizi (protsenti) kreditning to‘lovlilik tamoyilidan kelib chiqadi. Iqtisodiy adabiyotlarda **«ssuda foizi», «qarz foizi», «kredit foiz stavkasi»,** oddiygina «foiz» yoki «protsent» kabi atamalar uchrab turadi. Ularning barchasi bir xil ma’noni bildiradi.

Ssuda operatsiyalari - banklarga daromadning asosiy qismini olib keladi, vaqtincha harakatsiz yotgan pul mablag’larini joylashtirish, muomala va iste’molni rag’batlantirgan holda harakatga soladigan operatsiyalar.

Ssuda foizi - qarz beruvchi ma’lum bir vaqtga qarz berganligi uchun qarz oluvchidan olinadigan foizlar. Boshqacha qilib aytganda, ssuda foizi kreditning bahosidir.

Sudxo‘rlik krediti - kreditning eng qadimiy shaklidir. Sudxo‘rlik krediti barcha mamlakatlarda keng tarqalgan. Amalda sudxo‘rlik krediti rasmiy idoralar tomonidan tegishli ruxsatnomaga ega bo‘lmagan kishilar va korxonalar tomonidan mablag’larni vaqtincha foydalanish uchun beriladi. Sudxo‘rlik krediti uchun to‘lanadigan foiz qarz beruvchi bilan qarz oluvchi o‘rtasida kelishilgan holda belgilanadi va odatda juda yuqori foizlarda beriladi. Uning darajasi oyiga 10-15 %, ayrim hollarda undan ham yuqori bo‘ladi. Milliy kredit tizimi rivojlanib borgan sari barcha toifadagi qarz oluvchilar ehtiyojlari tobora to‘laroq qondirilishi natijasida sudxo‘rlik krediti yo‘qoladi.

Suzib yuruvchi inflyatsiya. Bunda yillik inflyatsiya sur’atlari 10% dan 100% gacha, ayrim hollarda 200% gacha yetadi.Mamlakatda narx-navo tezroq o‘sa boshlaydi, iqtisodiy o‘sish sur’atlari pasayadi, ishsizlik ko‘paya boradi. Bunday inflyatsiya rivojlanayotgan mamlakatlarga xosdir. Masalan,

2001-yilda Rossiyada inflyatsiya -18% ni, O‘zbekistonda esa -24% ni tashkil etgan. 2002-yil O‘zbekistonda inflyatsiya darajasi ancha pasaydi, uning o‘rtacha oylik miqdori 1,6 foizdan iborat bo‘ldi.

Taklif - ma’lum narx bo‘yicha mavjud bo‘lgan tovarlar soni.

Taklif qonuni - narx bilan sotishga chiqarilayotgan tovarlar o‘rtasidagi bevosita, ya’ni, to‘g’ridan-to‘g’ri bog’liqlikdir.

Taklif egri chizig’i - narx bilan taklif o‘rtasidagi to‘g’ri bog’lanishning, ya’ni, taklif qonunining chizma ifodasi.

Tanga - metalldan yasalgan pul birligi, muomala va to‘lov vositasi. O‘rta Osiyoda tangalar miloddan avvalgi Sh asrda muomalaga chiqarilgan. Amir Temur tomonidan XIV asrning 80-yillarida o‘tkazilgan pul islohotida to‘la qiymatli kumush tangalar zarb qilingan. **Tanga** lotincha **moneta** bo‘lib, uning old tomoni - **avers**, orqasi-**revers** va qirrasi-**gurt** deyiladi.

Tijorat banklarining o‘z mablag’lari - bular maxsus fondlar, rezerv kapitali, moddiy rag’batlantirish fondi, ustav fondi, taqsimlanmagan foyda va boshqa har xil tashkil qilingan fondlar.

Tijorat banklarining emitentlashgan mablag’lari - bularga qimmatbaho qog’ozlarni sotishdan olingan mablag’lar kiradi.

Tijorat valyuta kursi - tijorat banklari tomonidan ichki bozordagi xorijiy valyutaga bo‘lgan talab va taklifni hisobga olgan holda aniqlanadi. Tijorat valyuta kurslari bo‘yicha tijorat banklari huquqiy va jismoniy shaxslardan xorijiy valyutani sotib oladi va sotadi. Masalan, O‘zsanoatqurilishbankning 2011-yil 16-iyundagi tijorat kursi bo‘yicha 1 AQSh dollarining sotib olish kursi 1750, sotish kursi esa 1860 so‘mni tashkil etdi.

Tijorat krediti - sotuvchilarning xaridorlarga tovar shaklida beradigan kreditidir.

Tijorat foydasi - savdo bilan shug’ullanuvchi subyektlarning tovarlar chakana narxi bilan savdo xarajatlari o‘rtasidagi farqdan iborat daromadlari.

To‘lov talabnomasi - bu mahsulot yetkazib beruvchi va mablag’ oluvchilarning belgilangan summani to‘lovchi bank orqali to‘lashi to‘g’risidagi talabnomani o‘z ichiga olgan hisob- kitob hujjatidir. To‘lov talabnomasi bo‘yicha hisob- kitoblar **«Aksept»** shaklidagi hisob- kitoblar deb ham yuritiladi.

To‘lov topshiriqnomasi - mijoz o‘z hisob varag’idan unga xizmat ko‘rsatuvchi bankka ma’lum bir summani boshqa mijozning hisob varag’iga

o‘tkazish to‘g’risidagi topshirig’idir.

To‘lovga qobillik - bu keng tushuncha bo‘lib, bank zarur muddatlarda kreditlar, omonatchilar, davlat oldidagi majburiyatlarini to‘liq bajara olish layoqatini bildiradi. Lekin u faqat balans likvidligiga bog’liq bo‘lib qolmasdan, balki boshqa bir qator omillarga ham bog’liq.

To‘lov sanasi - bitim shartlariga muvofiq qarz oluvchi hisob varaqlariga pul mablag’lari o‘tkazilishi lozim bo‘lgan ish kuni. Qarz oluvchining vakillik hisob varag’idan ko‘chirma nusxa pul mablag’lari o‘tkazilganligiga tasdiq hisoblanadi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat deganda O‘zbekiston Respublikasi yuridik va jismoniy shaxslarining xorijiy davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslari, shuningdek, xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro foydali iqtisodiy aloqalarni o‘rnatish va rivojlantirishga qaratilgan faoliyati tushuniladi.

To‘lov balansi — xalqaro operatsiyalarning balans hisob varag’i, ya’ni, bu — davlatning tovarlar, xizmatlar, kapitallarni olib kirish hamda olib chiqish ko‘rsatkichlarining nisbati ko‘rinishidagi barcha xalqaro aloqalari majmuining puldagi ifodasi. To‘lov esa o‘rnatilgan muddatlarda vaqti-vaqti bilan amalga oshirilib boriladi. Bunda xaridor har gal tovar olishda kreditni rasmiylashtirib o‘tirmaydi, ya’ni kreditga murojaat qilmaydi. Chegirma berish usulida agar xaridor to‘lov hujjatlari yozilgandan so‘ng, shartnomada kelishilgan ma’lum davr ichida to‘lovni amalga oshirsa to‘lov yig’indisidan chegirma beriladi. Agar ushbu davr ichida to‘lovni to‘lay olmasa, unda to‘lovni belgilangan muddatda to‘liq amalga oshiradi.

Uzoq muddatli kreditlar - bir yildan ortiq muddatga (ishlab chiqarish va ijtimoiy maqsadlarga mo‘ljallangan obyektlarni qurish, qayta ta’mirlash va texnik qayta jihozlashga doir xarajatlar bilan bog’liq) investitsiya maqsadlari uchun beriladigan ssudalar.

O‘zgaruvchan talab - erkin bozorda mahsulot narxini ma’lum bir foizga o‘zgarishi, talabning necha foizga o‘zgarishini belgilovchi ko‘rsatkich. U baholarning o‘zgarishi va ularning darajasi bo‘yicha qaror qabul qilish jarayonida keng qo‘llaniladi.

Ustav kapital(fond)i - davlat ajratgan, tashkilotchilar va qatnashchilar omonatlaridan, mehnat jamoasi pay to‘lovlari va qazolardan shakllangan korxonaning asosiy va aylanma mablag’lari manbai.

Universal banklar - o‘z mijozlarining u yoki bu tarmoqlarga tegishli bo‘lishidan qat’i nazar, ularga turli-tuman bank xizmatlarini ko‘rsatadilar.

Unifikatsiya - turli xildagi mahsulotlar, detallar, uzellar va boshqa qo‘llaniladigan materiallar va texnologik jarayonlarni ratsional jihatdan bir xilligini ta’minlash.

Ustav kapitali - bu ta’sis hujjatlarida belgilangan hissalarning (pul ifodasidagi) yig’indisidir. Ustav kapitaliga hissa shaklida qo‘shiladigan moddiy va nomoddiy aktivlar ta’sischilar kelishuviga yoki yuridik shaxs ijroiya organining qaroriga ko‘ra baholanadi va hisobga olinadi.

Ustav fondi - 1. Bank faoliyatini tashkil etish uning ustav fondini yaratishdan boshlanadi. Ustav fondi yuridik va jismoniy shaxslarning jamg’armasi hisobidan yaratiladi va majburiyatlarni bajarish uchun xizmat qiladi. **2.** Pul mablag’larining yig’indisi, korxona yoki tashkilotlarning o‘z ish faoliyatini olib borish uchun o‘rnatilgan ma’lum bir summa.

Ustuvor intensiv iqtisodiy o‘sish - iqtisodiy o‘sish intensiv omillarning yuqori o‘rniga egaligini bildiradi.

O‘zbekiston Respublikasining naqd milliy valyutasi – O‘zbekiston Respublikasining banknota va tanga shaklidagi pul birligi.

Uzun valyuta pozitsiyasi – vakolatli bankning chet el valyutasidagi talablari miqdorining uning chet el valyutasidagi majburiyatlari miqdoridan ortiq bo‘lgan holatdagi ochiq valyuta pozitsiyasidir.

Faktoring - banklar va boshqa moliyaviy tashkilotlarning korxonalar qarzlarini (yetkazib berilgan va bajarilgan xizmatlarga haq to‘lash bo‘yicha majburiyatlarini) o‘z zimmasiga olishidan iborat bo‘lgan moliyaviy-tijorat xizmat turi. **Foiz** - hissa, ustama, qo‘shimcha foyda.

Foiz opsioni – bu opsion egasiga qat’iy o‘rnatilgan bahoda kelgusida belgilangan kunda yoki ungacha qisqa muddatli depozit yoki ssudani sotish yoki sotib olish huquqini (majburiyat emas) beruvchi kelishuvi.

Foiz svopi - bu ikki tomon o‘rtasidagi shartnomaviy kelishuvdir, masalan, tijorat banki va uning mijozi bilan oldindan kelishib qo‘yilgan fiktiv summa foiz to‘lovidir. Yoki bir tomon ikkinchi tomonga olingan summaga fiktiv foiz to‘laydi va boshqa tomondan suzib yuruvchi foiz stavkasi orqali pul oladi, odatda, bu libor stavkasi (har kunlik o‘rtacha foiz stavkasi) orqali olib boriladi.

Foiz siyosati - ssuda siyosatining muhim qismi bo‘lib, taqdim etilgan kreditlardan olingan foizlar bank daromadining muhim qismini tashkil etadi.

Xalqaro valyuta jamg’armasi - xalqaro savdo va valyuta hamkorligini rivojlantirishga ta’sir ko‘rsatish maqsadida 1944-yilda tashkil

etilgan xalqaro valyuta-moliya tashkiloti. Xalqaro valyuta jamg'armasi -a'zo davlatlar o'rtasida valyuta- kredit munosabatlarini tartibga solib turish va ularga to'lov balansining kamomadi bilan bog'liq valyutaviy qiyinchiliklar paytida chet el valyutasida qisqa va uzoq muddatli kreditlar berish yo'li bilan moliyaviy yordam ko'rsatish uchun mo'ljallangan hukumatlararo tashkilot. XVJ o'z amaliy faoliyatini 1947-yil 1- martdan boshlagan.

Xalqaro valyuta fondi - xalqaro moliya valyuta tashkiloti. Uni tuzishdan maqsad xalqaro savdoni rivojlantirish, valyuta kursini, me'yorlarini, nisbatlarini belgilash, ko'p tomonli to'lovlar tizimiga rioya qilinishini nazorat qilish hamda fond a'zolariga valyuta yetishmovchiligi holatlarida kredit, qarz berishdir.

Xalqaro valyuta munosabatlari - pulning jahon xo'jaligida amal qilishi va turli iqtisodiy aloqalarga xizmat qilishi yoki pulning xalqaro to'lov munosabatlarida faoliyat ko'rsatishi.

X**alqaro valyuta tizimi** - xalqaro valyuta munosabatlarining davlatlararo bitimlarda huquqiy jihatdan mustahkamlangan ifodasi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya - mustaqil davlatlarning xalqaro mehnat taqsimoti asosida iqtisodiy, siyosiy va boshqa maqsadlar mushtarakligi negizidagi aloqalarining shunday darajasiki, bunda har bir mamlakatning taraqqiyoti o'z ichki imkoniyatlari bilan birga mamlakatlar o'rtasidagi aloqalarga ham bog'liq bo'ladi.

Xalqaro yoki mintaqaviy valyutalar - deganda bir guruh mamlakatlar tomonidan foydalaniladigan pul birliklari va to'lov vositalari tushuniladi. Masalan: SDR, Yevro, KFA franki, Sharqiy Karib dollari va boshqalar.

Xalqaro kredit - xalqaro umumiqtisodiy sohada, bir mamlakat tomonidan boshqa mamlakatga vaqtinchalik foydalanishga beriladigan qarz. Ssuda kapitalining xalqaro miqyosdagi harakati bo'lib, bu harakat tovar va valyuta ko'rinishidagi mablag'larni qaytarib berishlik, muddatlilik va haq to'lashlik asosida berish bilan bog'liqdir.

Xalqaro lizing - ko'pincha bu moliyaviy lizing (moliyaviy lizingni-qarang) bo'lib, bunda bir tomonda chet el hamkori (sherigi) turadi.

Xalqaro savdo - turli davlatlar, ularning firmalari va aholisi o'rtasida amalga oshadigan eksport-import munosabatlaridan iborat savdo shakli.

Xalqaro hisob- kitoblar - 1. Tashqi savdo, kapitallar va kreditlarning harakati bilan bog'liq valyutaviy operatsiyalar, valyutada oldi-sotdi qilish

operatsiyalari va boshqa tovarsiz harakatdagi operatsiyalar majmui tushuniladi. **2.** Bir mamlakatdan boshqa mamlakatga naqd pulsiz o‘tkazilgan to‘lovlar tushuniladi. Xalqaro hisob- kitoblar turli mamlakatlarning davlat idoralari,

Xalqaro valyuta fondi - xalqaro moliya valyuta tashkiloti. Uni tuzishdan maqsad xalqaro savdoni rivojlantirish, valyuta kursini, me’yorlarini, nisbatlarini belgilash, ko‘p tomonli to‘lovlar tizimiga rioya qilinishini nazorat qilish hamda fond a’zolariga valyuta yetishmovchiligi holatlarida kredit, qarz berishdir.

Xorijiy davlatning banki - xorijiy davlat hududida ro‘yxatga olingan va u joylashgan hamda ro‘yxatga olingan joydagi bank nazorati organi tomonidan berilgan bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyaga ega bank.

Hududiy Bosh boshqarma ma’muri – Markaziy bank hududiy Bosh boshqarmasida videokonferensiya aloqa uskunalarini o‘rnatishni, tarmoqqa ulanishini va ishlashini ta’minlaydigan Markaziy bank hududiy Bosh boshqarmasi mutaxassisi.

Hududiy valyuta tizimi — milliy va jahon valyuta tizimlarining oraliq elementi hisoblanib, u mamlakatlar hududiy guruhi integratsiyasiga xizmat qiladi. Bunga misol qilib, Yevropa valyuta-iqtisodiy ittifoqini keltirish mumkin.

Hududlararo hisob-kitoblar - **1**. Turli hisob- kitoblarning markazlarida vakillik hisob-varaqlariga ega bo‘lgan banklararo hisob-kitoblardir**. 2.** Banklararo hisob- kitoblar bir viloyat ichidagi hisob- kitoblar markazi orqali amalga oshirilib qolmay, balki viloyat tashqarisiga ham chiqishi mumkin. Bunda banklararo hisob- kitoblar viloyat Markaziy banki boshqarmalari qoshida ochilgan hisob- kitob kassa markazlari orqali o‘tkaziladi. Turli hisob- kitob kassa markazlarida vakillik hisob varag’iga ega bo‘lgan banklar o‘rtasidagi hisob- kitoblar hududlararo hisob-kitoblar deb ham yuritiladi.

Xususiy daromad - alohida jismoniy shaxs, shaxsiy soliq to‘lashdan oldingi daromad.

Xususiy kapital - bu ustav kapitali, qo‘shilgan, zaxira kapitali hamda taqsimlanmagan foydadan tarkib topadi.

Xususiy mulk - yuridik va jismoniy shaxslarning o‘ziga tegishli bo‘lgan mulki. Ular shu mulkni sotish, almashtirish va nazorat qilish

huquqiga ega.

Xususiy tadbirkorlik - 1. Fuqarolar (alohida fuqarolar) tomonidan o‘zlarining tavakkalchiliklari va mulkiy javobgarliklari ostida, shaxsiy daromad (foyda) olish maqsadida amaldagi qonunchilik doirasida amalga oshiriladigan tashabbuskor xo‘jalik faoliyatidir. **2.** Jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan amalda o‘zining shaxsiy mulki asosida tashkil etiladigan faoliyat turi.

Xususiy tashkilotlar - demokratik davlatlarda, individuallar va xususiy tashkilotlar mustaqil ish yuritishga harakat qiladi. Masalan, ro‘znoma va oynomalar xususiy tarzda boshqariladi. Davlat maktablari bilan xususiy maktablar ham faoliyat ko‘rsatadi. Ko‘plab korxonalar xususiy tarzda boshqariladi. Britaniya, Shvetsiya va ko‘plab davlatlarda (ya’ni, demokratik davlatlarda) sanoat va xizmat ko‘rsatishning ayrim tarmoqlariga davlatning o‘zi egalik qiladi. Totalitar davlatlarda esa hukumatning o‘zi aksariyat uyushmalar va tashkilotlarni shakllantiradi va nazorat qiladi. Bu davlatlarda odamlar davlatning ruxsatisiz biror-bir guruhga birlasha ham olmaydilar.

Chaqa - mis, jez singari metallardan yasalgan mayda, tanga pul.

Chek - bankka berilgan farmoyishga ko‘ra shaxsning joriy hisobvaraqda ko‘rsatilgan summani berish to‘g’risidagi maxsus hujjat. Chek mijozning o‘z bankiga unda ko‘rsatilgan mablag’ni naqd pulda berilishi yoki boshqa hisob raqamiga (schyotiga) o‘tkazilishi to‘g’risidagi buyrug’idir.

Chet el bank vakolatxonasini akkreditatsiyalash - chet el banki O‘zbekiston Respublikasi hududida o‘z vakolatxonasini ochishi va uning faoliyat olib borishi uchun ruxsatnoma olishi hamda vakolatxona boshlig’ini tayinlashi.

Chet el banki vakolatxonasi - chet el bankining u joylashgan yerda boshqa ochilgan alohida bo‘linmasi bo‘lib, u bank va boshqa tijorat faoliyati bilan shug’ullanish huquqisiz bank manfaatlarini ko‘zlab ish olib boradigan bank bo‘linmasidir.

Chet el banklari - **1.** Bank chet el bankining filiali bo‘lib, unda uning ustav kapitali to‘liqligicha chet el banki tomonidan to‘lanadi va u o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasida amalga oshiradi. **2.** Chet davlatlar hududida ro‘yxatga olingan (norezident banklar) va o‘zlari joylashgan hamda ro‘yxatga olingan joydagi organlardan litsenziya olgan banklar.

Chet el kapitali ishtirokidagi bank - chet ellik investorlarning

ishtiroki bank ustav kapitali umumiy summasining kamida 30% ini tashkil etadigan bank. Bunday bankning ustav kapitalini shakllantirishda rezidentlar va norezidentlar, jismoniy va yuridik shaxslar, shuningdek, norezident banklar ishtirok etishi mumkin.

Eksport - 1. Tovarlar, xizmatlar, investitsiya, qimmatli qog'ozlar, texnologiyalar va boshqalarni tashqi bozorga chiqarish. **2.** Mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotlar, texnologiyalar va xizmatlarni chet mamlakatlarga chiqarish va tashqi bozorda sotish tushuniladi.

Eksport - import banki - xorijga mahsulot chiqarish va xorijdan mahsulot keltirish jarayonini mablag' bilan ta'minlash asosida faoliyat yurituvchi bank.

Elektron pul - elektron kartochka bo'lib, uning xotirasiga egasining hisobidagi pul summasi yozilgan bo'ladi. Hisob- kitoblarni elektron hisoblash mashinalari yordamida bajarish uchun qo'llaniladigan kredit pullarning eng so'nggi turidir. Pul to'lash uchun elektron kartochka EHMga kiritiladi, kartochkadan avtomatik ravishda to'lanishi zarur bo'lgan pul summasi o'chiriladi va bu summa pul oluvchi elektron hisobiga yozib qo'yiladi.

Emissiya - 1. Qog'oz pullarning G'aznaxonaga yoki boshqa davlat moliya organlari tomonidan muomalaga chiqarilishi. **2.** Barcha shakldagi pul belgilarini muomalaga chiqarish.

Emissiya (markaziy bank uchun) - qog'oz va tanga pullarning, davlat qimmatli qog'ozlarining Markaziy bank yoki moliya organlari tomonidan muomalaga chiqarilishi.

Emissiya (tijorat banklari uchun) - bu tijorat banklari tomonidan qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish.

Emissiya tizimi - bu muomalaga bank biletlari, xazina biletlari, qog'oz va tanga pullar, qimmatbaho qog'ozlarni chiqarishdir. Rivojlangan mamlakatlarda bank biletlari emissiyasi Markaziy banklar tomonidan, xazina biletlari va tangalar esa qonunda belgilangan emissiya huquqiga asosan, xazina muassasalari tomonidan chiqariladi.

Emitent - pul belgilari, qimmatli qog'ozlar va to'lov hisob- kitob hujjatlarini muomalaga chiqaruvchi shaxs.

Emitent bank - muomalaga pul belgilarini chiqaruvchi bank belgilangan bo'ladi.

Erkin narxlar - talab bilan taklif nisbatiga bog'liq bo'lgan narxlar.

Erkin savdo - jahon bozoridagi boj to‘lovlari, import kvotalari, ta’rifsiz to‘siqlar, eksportni ixtiyoriy cheklashlar kabi proteksionizmga xos bo‘lgan cheklovlarsiz amalga oshadigan xalqaro oldi-sotdi munosabatlari.

Erkin Iqtisodiy Hududlar - qo‘shma tadbirkorlik hududlari, xorij kapitalini erkin amal qilishi uchun ajratilgan maxsus hudud, iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, ijtimoiy va ekologik muammolarni hal qilish maqsadida tashkil etiladi.

Yuguruvchan inflyatsiya yoki giperinflyatsiya. Bu haddan tashqari inflyatsiya bo‘lib, uning yillik sur’atlari 100% dan ko‘p bo‘lib, ayrim hollarda 1000 % dan ham ortadi. Narx-navo shiddat bilan o‘sadi, pul qadri g’oyat tez pasayadi, pul topishga bo‘lgan intilish eng past darajaga keladi. Giperinflyatsiya sharoitida korxonalar va aholi nima qilib bo‘lsa ham, qadrli pul bo‘lgan iqtisodiy qudratli mamlakatlarning valyutalarini yig’a boshlaydilar. Narx-navoni mutlaqo tartibga solib bo‘lmaydi, narxlar oyiga 50% atrofida o‘sadi. Tovarlarni pul ishtirokisiz, bi-biriga bevosita almashtirish, ya’ni, barter paydo bo‘ladi. Pul muomalasi izdan chiqadi.

Yuqori likvidli aktivlar - bu kassadagi pullar, Markaziy bankdagi vakillik hisob varag’idagi qoldiq mablag’lar, Markaziy bankdagi rezerv hisob varag’idagi qoldiq mablag’lar, qimmatbaho qog’ozlarga aylantirilgan mablag’lar.

Yalpi ichki mahsulot - muayyan mamlakatda yil davomida yaratilgan barcha mahsulotlar va ko‘rsatilgan xizmatlar qiymatlarining bozor narxlaridagi umumiy ifodasi.

Yalpi mahsulot - korxona faoliyatining umumlashgan ko‘rsatkichi bo‘lib, muayyan vaqtda ishlab chiqarilgan mahsulot ko‘lamini ifodalaydi**.**

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Asosiy adabiyotlar

1.O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. “O‘ZBEKISTON” T-2023 y.

2.O‘zbekiston Respublikasining «O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g’risida»gi Qonuni. Yangi tahriri ostida 2019-yil 5-noyabr.

3.O‘zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to‘g’risida»gi Qonuni. Yangi tahriri ostida 2019-yil 11-noyabr.

4.Ўзбекистон Республикасининг «Тўловлар ва тўлов тизимлари тўғрисида» қонуни Тошкент ш., 2019 йил

5.Ўзбекистон Республикасининг «Валютани тартибга солиш тўғрисида»ги

қонуни, 22.10.2019 й.

6.“O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7- fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.

7.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-sentyabrdagi “Valyuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g’risida”gi PF-5177-sonli Farmoni.

8."2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi Taraqqiyot strategiyasi"gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni.

9.2020-2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g’risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi PF-5992- sonli Farmoni.

10.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-sentyabrdagi “Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirishga doir chora-tadbirlar to‘g’risida”gi PQ-3270-sonli Qarori.

11.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentyabrdagi “Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi PQ-3272-sonli Qarori.

12.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-iyundagi “Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va kapitallashuvi darajasini oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g’risida”gi PQ-3066-sonli

Qarori O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2017. – №26. – 577-modda.

13.Абдуллаева Ш.З. Банк иши. Т.: «Иқтисод-Молия » нашриёти, 2019. – 768 б.

14.Азизов У.Ў ва бошқалар. Банк иши. Т.: «Фан ва технология» нашриёти, 2016. – 640 б.

15.Бобақулов Т.И., Абдуллаев У.А. Исаков Ж.Я. “Монетар сиёсат” Дарслик. – “Иқтисод-Молия”, 2019. 274 б.

16.Бобақулов Т.И., Абдуллаев У.А. Шомуродов Р.Т . “Монетар сиёсат”. Ўқув қўлланма. Т.: “Иқтисод-Молия”, 2018. 236- б.

17. Бобақулов Т.И., Абдуллаев У.А. “Халқаро валюта-кредит муносабатлари” Дарслик. - «Иқтисод-Молия» - Тошкент, 2019 йил , 232 б.

18. Омонов А.А, Қоралиев Т.М “Пул ва банклар” Дарслик. Т.: - “ИҚТИСОД-МОЛИЯ”, 2019 й. – 461 б.

19. Абдуллаева Ш.З. ва б. “Пул ва банклар” Дарслик. Т.: - “ИҚТИСОД-МОЛИЯ”, 2019 й. – 628 б.

20. Деньги, кредит, банки. Экспресс-курс : учеб. пособие / под ред. О. И. Лаврушина. – 3-е изд., перераб. и доп. – М. : КНОРУС, 2016.- 544 с.

21. Деньги, кредит, банки: учеб. / под ред. Г. Н. Белоглазовой. – М.: Высшее образование, 2018.- 245с.

22. Кузнецова, Е.И. Деньги, кредит, банки: Учебное пособие / Е.И. Кузнецова. - М.: ЮНИТИ, 2019. - 567 с.

23. Селищев, А. С. Деньги. Кредит. Банки / А. С. Селищев. - СПб.: Питер, 2017. - 245 с.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Лаврушин О. И. Банковское дело: современная система кредитования.Учебное пособие. – М. : КНОРУС, 2014.- 360 с.

2. Лаврушин О. И. “Банковское дело”. Учебник. – М. : КНОРУС, 2013.- 789 с.

3. Бондаренко Н.Н., Кулак А.Г., Пекарская Н.Й. Финансовое банкротства статистика. Учебное пособие.-Минск: Гиустбгу, 2012. - 264 с.

4.Karaliyev T. Sattarov O. va boshqalar “Tijorat banklari faoliyati tahlili”. O‘quv qo‘llanma. 2013-yil. 192-bet.

5.Abdullayeva Sh.Z. Bank ishi. T.: «Iqtisod-Moliya » nashriyoti, 2017. – 768 b.

6.Mullajanov F.M. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011. – 368 b.

7.Omonov A. A.«Pul va banklar» O‘quv qo‘llanma T. «Moliya iqtisod», 2018 y.-500 b.

8.Omonov A.A. Tijorat banklari aktivlari va passivlarini boshqarish.-Monografiya.-T.: “IQTISOD-MOLIYa”.-2016.-B.160.

9.Niyozov Z.D., Boboyev Sh.K. Pul va banklar. O‘quv qo‘llanma Samarqand: 2012 y. 220 b.

10.Xolboyev D. Pul va banklar” Ma’ruzalar matni”. Samarqand: 2018 y. 200 b.

11.G.Yelizavetin “Pulnoma ”.“YoSh GVARDIYa” nashriyoti Toshkent -1979 y.210 bet

12.Benjamin Franklin o‘gitlari (Abdulla A’zam Amerika millatining otasi. Tafakkur, 2000 y. 3-son.)

13.Муҳаммад пайғамбар алайҳис салом қиссаси. Ҳадислар. Тошкент: Камалак, 1991.

14.Юм Д. Опыты. М., 1896. С.37.

15**.** Sobirov M. “Tilla, fuls, oq va qora tanga. Buxoro amirligi pul tizimi tarixi” 2024 y.

Z.D. NIYOZOV, O.Sh. MAQSUDOV

PUL VA BANKLAR

O‘QUV QO‘LLANMA

Muharrir: Z.N. Bobodustov
Musahhih: M.O. Mardiyeva
Texnik muharrir: N. Ergahev

O‘quv qo‘llanma institut Kengashining 2024 - yil 30 - avgustdagi majlisda muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan. (1-sonli majlis bayoni).

“STAP-SEL” MChJ nashriyoti, Samarqand - 2024

ISBN: 978-9910-720-85-7

Tasdiqnoma № 033337 (27.07.2022)
Nashrga ruxsat etildi: 05.11. 2024 y.
© “STAP-SEL” MChJ nashriyoti, Samarqand 2024 y.

1744

12.12.2024 yilda chop etildi.
Qog‘oz bichimi A5, 60x84 1/16, Ofset qog‘ozi.
“Times New Roman” garniturasi.
Nashr bosma tabog`i 23.75
Buyurtma № 0145A/24. Adadi 100 nusxa

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining matbaa bo`limida chop etildi.
LICENSE № 025316.
REESTR № X-119112.
Manzil: Samarqand shahar, Shoxrux ko`chasi 60-uy.